



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SPORTNI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI

FUTBOL FAKULTETI

O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

**“O‘ZBEK TILINI SOHAGA
YO‘NALTIRIB O‘QITISHNING ILMIY -
METODIK ASOSLARI”**

**mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy
anjuman
materiallari**

2022-yil 4-iyun

TOSHKENT

“O‘ZKITOBSAVDONASHRIYOTI” NMIU

2022

Mazkur konferensiya materiallarida o'zbek tilini sohalarga yo'naltirib o'qitishda yangicha yondashuvlar, til va yozuv munosabatlari, sohalarda, xususan, jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid termin, atamalarning qo'llanishi, davlat tilida ish yuritish masalalari, ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi, ta'lim-tarbiya, urf-odat va an'analar, shuningdek, o'zbek tilining sohalarda qo'llashning ilmiy-nazariy muammolari yetakchi olim, mutaxassislar tomonidan nazariy asosda tahlil qilib berilgan.

Mas'ul muharrirlar: **N.N.G'afforov**, filologiya fanlari nomzodi, dotsent
I.T.Boltayeva, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

Safo Matchonov, pedagogika fanlari doktori, professor

Yunus Aripov, pedagogika fanlari nomzodi, professor v.b.

Tahrir hay'ati:

A.Shopo'latov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor v.b.

D.Ismagilov, Futbol fakulteti dekani, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

J. Umarov, pedagogika fanlari nomzodi, professor

N.G'afforov, O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, dotsent

I.Boltayeva, O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

M.Ayxodjayeva, O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti

A.Ishtayev, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

I.Musayev, O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini katta o'qituvchisi

Z.Sultonova, O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi

N.Tursunova, O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi

To'plam O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Kengashining 2022-yil 17-maydagi navbatdan tashqari qaroriga asosan nashrga tavsiya qilindi.

TOSHKENT
“O‘ZKITOBSAVDONASHRIYOTI” NMIU
2022

TIL, MA'NAVIYAT VA YOSHLAR

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning maqsad mohiyatida insonni ulug'lash, unga munosib turmush tarzi kechirish uchun sharoit yaratishdek ulug'vor niyat mujassamlangan. Bu maqsadni ro'yobga chiqarishning asosi - ilm, ma'rifat va mustahkam bilim olishdir.

Yangi O'zbekiston taraqqiyotining muhim bo'g'imi - salohiyatli, e'tiqodi mustahkam, yangicha fikrlaydigan, dunyo ayvonida bo'layotgan voqea-hodisalarga o'z munosabatini erkin bildira oladigan yoshlarni tarbiyalashdir.

Talaba-yoshlar o'zi tanlagan sohaning nazariy va amaliy asoslarini izchil o'rganishi uchun xorijiy tillardan birini egallashdan oldin o'z ona tilining ilmiy asoslarini o'rganishi maqsadga muvofiqdir. Sababi-o'zbek tilini o'rganish talabaga dunyo ilmlarining eshigini ochish, o'z sohasining ilg'or an'anasini mustaqil o'rganish va shu asosda sohani yangi bosqichga ko'tarish, ilg'or xorijlik olimlarning fan takomilidagi yangiliklardan to'liq boxabar bo'lish imkonini beradi. Shu barobarida o'z yutuqlarini keng ko'lamda targ'ib etish va ommalashtirishga zamin yaratadi. Bugungi anjuman jismoniy tarbiya va sport sohasida o'zbek tilida amalga oshirilayotgan o'zgarishlarni tahrir etish, ayrim kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etish, dunyo sport ilmidagi innovatsion g'oyalarni ijodiy o'zlashtirish, o'zbek tilining nufuzi va salohiyatini yangi pog'onaga olib chiqish nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir.

Bugun Prezidentimiz tomonidan barcha sohalar qatori jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, sportning ommaviyligini oshirish, keng aholi qatlami orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, barcha ta'lim bo'g'inlarida sog'lom ma'naviy muhitni yaxshilash masalasiga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Ammo yaratilayotgan imkoniyatlarga qaramay talaba yoshlarda o'z ustida mustaqil ishlash, o'zbek tili va xorijiy tillarni o'rganish asosida ilmiy-nazariy bilimlarni oshirish, o'zi tanlagan mutaxassislik bo'yicha amalga oshirilayotgan o'zgarishlarni tahlil qilish, kreativ fikrlash va ijodiy asosda yondashish masalalari talab darajasida emas. Hozirgi davr talabi - talaba yoshlardan o'z ona tilini mukammal bilish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan xabardor bo'lish, ulardan unumli

foydalanish, xorijiy tillardan birini o‘zlashtirish asosida dunyo ilmidagi yangiliklardan boxabar bo‘lishni talab etmoqda.

“O‘zbek tilini sohaga yo‘naltirib o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari” mavzusidagi mazkur anjuman sport sohasida o‘zbek tili va xorijiy tillarni puxta o‘zlashtirish, jismoniy tarbiya va sportdagi yangiliklardan boxabar bo‘lish imkoniyatini beradi, deb o‘ylayman.

**Boltabayev Mahmudjon Rustamovich,
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport
universiteti rektori, professor.**

BO‘LAJAK MUTAXASSISLARNI DAVLAT TILIDA ISH YURITISHGA TAYYORLASH DOLZARB MASALA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2020–2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari”da ta’lim tashkilotlarida davlat tilini o‘qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm-fan sifatidagi nufuzini oshirish ustuvor vaziflardan biri sifatida belgilangan. Ushbu maqsadga erishish uchun oliy ta’lim muassasalarida o‘zbek tili kafedralari sonini 2025-yilga qadar 120 taga, 2030-yilgacha 140 taga yetkazish nazarda tutilgan.

O‘zbek tilining davlat tili sifatida qo‘llanilishini kengaytirish, rivojlantirish, ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash, o‘qitish metodikasini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar doirasida respublikamizdagi barcha oliy o‘quv yurtlarida o‘zbek tili va adabiyoti kafedralari tashkil etilishiga erishildi. Mazkur kafedralar o‘quv rejalariga o‘zbek tili va adabiyoti fanlarini kiritish bo‘yicha aniq takliflar ishlab chiqildi.

Respublikamizdagi oliy ta’lim muassasalarida iqtisodiyotning turli sohalari uchun tayyorlanayotgan bo‘lajak malakali mutaxassislarning davlat tilida ish

yuritishga tayyorlash, sohaga oid soʻz va atamalarning toʻgʻri qoʻllashga oʻrgatish maqsadida 2020/2021-oʻquv yilidan boshlab davlat oliy taʼlim muassasalarining bakalavr yoʻnalishlariga “Oʻzbek tilining sohada qoʻllanishi” fanini oʻqitish yoʻlga qoʻyildi.

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligining 2020-yil 30-iyundagi 357-son buyrugʻi bilan oliy taʼlim muassasalarining namunaviy oʻquv rejasiga “Oʻzbek tilining sohada qoʻllanishi” fani kiritildi. Oʻqitishning samarali metodikalariga asoslangan holda yaratilgan oʻquv fani dasturi vazirlikning tegishli buyrugʻi bilan amaliyotga tatbiq etildi. Bugungi kunda 91 ta davlat oliy taʼlim muassasalarining kunduzgi, kechki va sirtqi taʼlim shakllarida mazkur fanning malakali mutaxassislar tomonidan oʻqitilishi taʼminlanmoqda.

Natijada, qishloq xoʻjaligi, iqtisodiyot, logistika, turizm, tibbiyot, texnika, pedagogika, jismoniy madaniyat, texnologik taʼlim va boshqa barcha sohalarda ish yuritish koʻnikma va malakalarga ega boʻlgan boʻlajak mutaxassislarni tayyorlashda fan dasturiga kiritilgan “Oʻzbek tilining sohada qoʻllanishi” fani boʻlajak mutaxassislarning oʻz kasblari sohasida oʻzbek tilidagi ogʻzaki, yozma savodxonligini oʻstirish, ularda oʻz fikrlarini tushunarli va ravon tilda bayon qilish koʻnikmalarini shakllantirish hamda oʻzbek-lotin alifbosining imlo qoidalari bilan tanishtirish, jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid atama - terminlarni izohini ishlab chiqish, jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid atama soʻzlarning kelib chiqishini oʻrganish, chetdan kirgan atama hamda soha soʻzlarining muqobil variantlarini oʻzlashtirish orqali jismoniy tarbiya va sportning har bir yoʻnalishida qoʻllaniladigan atamalarni matnlar asosida oʻrgatish va lugʻatini tuzish, ilmiy maqolalarda sohaga oid soʻzlardan toʻgʻri foydalanish, ilmiy uslubning soha boʻyicha atamalarini mukammal bilish, ogʻzaki va yozma nutqda ularni toʻgʻri qoʻllash, soha doirasida qoʻllaniladigan hujjatlarning rasmiylashtirilishini taʼminlash, nutq uslublari, xususan, sohada ilmiy va rasmiy uslub imkoniyatlaridan foydalanish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish koʻnikmasini hosil qilish masalalari dolzarbligi bilan ahamiyatlidir.

2021/2022- o'quv yilidan O'zbek tili va adabiyoti kafedralarining faoliyati tahlil qilinib, kafedrada o'qitilayotgan "O'zbek tili", "O'zbek tilining sohada qo'llanishi" fanlarining metodik ta'minotini mustahkamlash, zamonaviy o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash, ta'lim jarayonida o'qitishning axborot va pedagogik texnologiyalarini qo'llash orqali zamon talablariga javob beradigan bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash masalalarida erishilgan yutuqlar va hal etilishi kutilayotgan masalalar o'rganib borilmoqda.

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti tomonidan tashkil etilgan konferensiya, bo'lajak sport mutaxassislarning ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida davlat tilining imkoniyatlaridan to'g'ri va to'liq foydalanishga erishishni ta'minlash; kasbiy terminologiya, egallanayotgan soha bo'yicha nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalarni o'zbek tilining yozma va og'zaki nutqiy me'yor va qoidalari asosida mukammal o'zlashtirishga ko'maklashadi, sohaga doir termin va atamalardan kasbiy faoliyatlarida o'z o'rnida va unumli foydalana olish, kasbiy muloqot yuritish ko'nikmalariga ega bo'lish va ularga nisbatan shaxsiy munosabatni o'zbek tili adabiy normalariga muvofiq holda ifodalashga erishiladi.

Jamoliddinova Odina Rasulovna,
O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim
vaziri maslahatchisi, pedagogika fanlari doktori, professor.

I SHO‘BA. O‘ZBEK TILINING SOHADA QO‘LLANISHI: AMALIYOT, METODOLOGIYA VA YANGICHA YONDASHUV.

SPORT TERMINLARI QOLLANISHINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

*G‘afforov Nodir Nasriyevich, O‘zDJTSU
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, dotsent*

Annotatsiya: Maqolada sport terminologiyasini o‘rganishga asos bo‘luvchi yo‘nalish va tamoyillar, shuningdek, terminologiyadan to‘g‘ri foydalanish, sportning, sport maydonini tavsiflovchi maxsus bilimlar tuzilmalarining xususiyatlari hamda atamaga qo‘yiladigan talablar o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: Terminologiya, sport terminologiyasi, lingvosentrik termin, kognitiv terminologiya, atama, antropologik, antroposentrizm, sotsiopragmatik, dinamik yondashuv.

Аннотация: В статье рассматриваются направления и принципы, лежащие в основе изучения спортивной терминологии, а также правильное использование терминологии, особенности видов спорта, специальные структуры знаний, описывающие спортивную область, и требования к термину.

Ключевые слова: Терминология, спортивная терминология, лингвоцентрическая терминология, когнитивная терминология, антропологический, антропоцентризм, социопрагматический, динамический подход.

Jahon tilshunosligida terminlarni tartibga solish masalasi har doim ham dolzarb bo‘lib kelgan va bugun ham bu masala o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Ayniqsa, so‘nggi yillarda kognitiv terminologiya yangi tadqiqot yo‘nalishi sifatida shakllanib ulgurdi. U kognitiv tilshunoslik usullarini ma‘um bir bilim sohasi terminologiyasi ortida turgan kognitiv tuzilmalarni tahlil qilishni amalga oishiradi. Sotsiopragmatik jihatdan terminologiyani o‘rganish, professional tajriba professional tafakkurga qanday tasir qilishini, bir kasb vakillari (sportchilar, sport jurnalistlari hamda muxlislar) atrofdagi voqelikni qanday tasniflashi, shuningdek,

ular uchun qanday tushunchalar asosiy ekanligini aniqlash hamda uni anglash va qo'llashning ijtimoiy xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Sport terminologiyasini o'rganishda har xil yondashuvlardan - to'g'ri terminologiyadan foydalanish sportning, sport maydonini tavsiflovchi maxsus bilimlar tuzilmalarining xususiyatlarini eng to'liq ko'rsatish imkonini beradi.

Atamaga qo'yiladigan talablarni bajarmaslik (aniqlik, sinonimlarning yetishmasligi, hissiy ta'sirchanlik, muayn ta'rif va izchillikning yo'qligi). Tilshunoslik bilan bog'liqlik o'lchovlarga muvofiq lingvosentrik termin fanining davri, integrasion xarakterga ega bo'lishi mumkin. Terminologiyada ma'no tushunchasi ikki odatda o'rinda tahlil qilinadi birinchisi "lug'atdagi atama" ni o'rganishga, ikkinchisi-"matndagi termin" ni o'rganish. Lingvosentrik terminologiyani o'rganishning har ikki yo'nalishi bo'yicha ham tadqiqot predmeti - lingvistik belgi sifatida atamaning o'ziga xosligi. Bu davrning muhim jihati shundaki, atamani o'rganishga dinamik yondashuvning shakllanishidir. Terminologiyaning rivojlanishidagi bu davrning muhim natijasi bu atamani faqat terminologik tizim doirasida o'rganishning atamaning lingvistik-tafakkur faoliyatidagi o'rni va funksiyasini aniqlash zarurligini bilishdir. "Terminologiya murakkab jarayon bo'lib, uning davomida tabiiy tilning so'zi konseptual qayta ishlash bosqichidan o'tadi" [1.2].

Kognitiv terminologiya, bir tomondan, an'analarni davom ettirsa, ikkinchi tomondan, ilmiy bilimning zamonaviy bosqichiga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Shuning uchun kognitiv yo'nalishning xususiyatlarini terminologiyaning oldingi bosqichlari bilan solishtirganda ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Agar an'anaviy terminologiya lingvistik belgini tahlil qilishdan nariga o'tmasa, kognitiv yo'nalish terminologiyani "ochiq" fanga aylantiradi, uning chegaralarini kengaytirish tendensiyasi, fanlararo tadqiqot dasturlarini ajratishga olib keladigan integrasion jarayonlarga moyillik (masalan, hodisa ma'lumoti va uni qayta ishlash bilan shug'ullanadigan kognitiv fan) E.S.Kubryakovaning tadqiqotlarida "ekspansionizm" nomini oldi. Bu tushunchadagi ekspansionizm zamonaviy tilshunoslikning yana bir o'ziga xos xususiyati - antroposentrizm bilan chambarchas

bog'liq, chunki ular birinchi navbatda tilni tuzuvchi - odamning muhim xususiyatlaridan izoh topishga harakat qilmoqdalar. Antroposentrizm fanlararo sintezning yetakchi yo'nalishiga aylanib bormoqda, bu til tizimining shakllanishida inson omili, matnning nominativ tashkil etilishi va lingvistik shaxsiyatni hisobga olishda namoyon bo'ladi. "Antroposentrizm tadqiqotning o'ziga xos prinsipi sifatida, ilmiy ob-yektlar, birinchi navbatda, ularning inson uchun rolga, uning hayotidagi maqsadiga, inson shaxsiyatini rivojlantirish vazifalariga ko'ra o'rganilishiga bog'liq. uning yaxshilanishi."

Biroq, ko'plab tadqiqotchilarning fikricha, tilni o'rganishda antropologik tamoyilning ahamiyatini tan olishlariga qaramay, "antropologik tilshunoslik haqida alohida fan yoki tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida gapirmaslik kerak, chunki til umuman mohiyatan antroposentrik" [1.3].

Kognitiv terminologiyaning rivojlanishi shuni ko'rsatadiki, turli maktablarning pozitsiyalarining integrasiyasi va yaqinlashuvining amalda kuzatilgan jarayonlariga qaramay, ularning har biri o'z rivojlanish yo'lini davom ettiradi, tadqiqotning turli sohalarini namoyish etadi va mohiyatan alohida (kichik) ilmiy bilimlar paradigmasini tashkil eta oladi. Shuning uchun kognitiv terminologiyani poliparadigmatik deb ta'riflash bo'yicha ilgari surilayotgan fikrlarga qo'shilish o'rinli bo'ladi. Terminologiyaning kognitiv yo'nalishining subyekt-kognitiv qismini tasvirlashda uni an'anaviy yo'nalishlar bilan solishtirish maqsadga muvofiqdir. Shunga asoslanib, kognitiv terminologiyani o'rganishning o'ziga xos xususiyati "ekspansionizm" yoki fanlararo sintez deb e'tirof etilishi kerak, shuning uchun an'anaviy terminologiya nazariyalari monoparadigmatik, kognitiv terminologiya nazariyalari esa poliparadigmatik sifatida namoyon bo'ladi

Terminologiya obyekti lingvistik belgi bo'lganligi sababli atamaning semiotik jihatlarini va shunga mos ravishda ma'lum bir "semiologik ong"ning mavjudligini o'rganish uning uchun ham muhimdir. R.Bart tomonidan kiritilgan semiologik ong konsepsiyasi belgini anglashning bitta dominant munosabatini tanlashni anglatadi (ramziy, paradigmatik yoki sintagmatik). Charlz Peircye asarlarida belgi, indeks yoki belgi bo'lishi mumkinligi ta-kidlangan. C.Morris "semioz rejimi"

tushunchasini kiritadi, Yu.S.Stepanov uchta koordinata o'qi - semantika, sintaktika va pragmatika bo'yicha ketma-ket o'tish orqali lingvistik belgilarni o'rganish zarurligi haqida gapiradi. Shunga o'xshash hodisa R.Jeykobson asarlarida "qism va butun" fenomeni sifatida berilgan. "Semiologik ong" ning faqat bir turi bilan bog'liq bo'lgan an'anaviy atamashunoslik nazariyalari, "u yoki bu semiotik nazariya semiotik ongning ba'zi muhim tomonlari bizga ochib beriladigan ulkan semiotik yaxlit jihatlar va lahzalarni qamrab olganda", qarama-qarshilikda. Kognitiv terminologiya nazariyasiga "pragmatik qoidalar belgining ma'nosi tarjimon uchun belgi bo'lgan shartlarni tavsiflaydi yoki quradi. Shunga ko'ra, imo -ishorani amalga oshirishning bir qancha darajalari haqida o'ylash mumkin. Belgilarni talqin qilish, biz ularda to'g'ridan - to'g'ri yetkazilgan narsalar haqida emas, balki ko'p narsa, jumladan, muloqot sub'yektining shaxsiyati va ongi haqida ham ma'lumot olishdir.

Tilshunoslikda terminologiyani tadqiqi masalasida ko'plab qimmatli ishlar amalga oshirilgan bo'lib, jumladan sport sohasida ham talaygina ishlar qilingan bo'losa-da, biroq bugungi kun talablari darajasida emas, "Chunonchi, tadqiqotchilar N.Zisman, Yu.Sholomiskiy, Yu.Kovalevlar tomonidan yaratilgan asarlarda O'zbekistonda jismoniy tarbiya madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi, sovet hokimiyatini jismoniy tarbiya va sport sohasida olib borgan siyosati yoritilib, bu muammoning ayrim qirralariga oid ayrim mulohozalar bildirilgan" Z.Abdullayevaning tadqiqot ishi sport sohasining tarixiylik nuqtai nazaridan o'rgangan bo'lib, sport terminologiyasining tarixiy takomiliga tegishlilik jihati yoritilmagan.

Etimologik jihatdan sport so'zi qadimgi lotincha disportare – "maza qilish" ga borib taqaladi. Qadimgi fransuz tilida fe'l desporter - «ko'ngil ochish, ishdan chalg'itish» ga aylandi, keyin so'z ingliz tiliga - disport - «o'yin-kulgi, o'yin-kulgi» ga kirdi, bu erda qisqartirish orqali yangi sport otlari paydo bo'ldi. Ko'rib turganingizdek, nom tahlil qilingan konsepsiyaning «o'yin» tushunchasi bilan bog'liqligini aniqlaydi, bu unchalik murakkab bo'lmagan ramka. Ushbu tushunchalar uchun umumiy bo'lgan ma-lum qoidalar g'oyasi, «natija» ning shartli tabiati, zavq bilan bog'liqlik.

Terminologik faoliyatning mahalliy terminologiyada mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida boshlanishi 1931- yilga to‘g‘ri kelishi mumkinligi haqida qarashlar mavjud. D.Lottening texnik terminologiyani birlashtirish va standartlashtirish muammolariga bag‘ishlangan birinchi konseptual maqolasining nashr etilishi bilan bog‘liq (texnik terminologiya haqida). Terminologiyaning fan sifatida shakllanishi tarixida o‘zbek tilshunoslari G.Vinokur, A.Reformaskiy, A.Lesoxin hamda P.Florenskiy tadqiqotlari milliy terminologiya maktabi faoliyatiga katta hissa qo‘shganligi e‘tirof etiladi. XX asr o‘rtalarida terminologik kontekstda dunyo maktablarida, atamaning muhim xususiyatlari haqida paydo bo‘ladigan nazariy munozaralar alohida ahamiyat kasb eta boladi. U o‘zbek tadqiqotchisi va terminologi R.Piotrovskiy tashabbusi bilan yaratilgan bo‘lib, bu munozarada qatnashgan olimlar, o‘z navbatida, terminologiyani o‘rganishning keyingi yo‘nalishlarini aniqladilar. D.Lotte, G.Vinokur, A.Reformaskiy o‘zbek terminologiya maktabining asoschilari hisoblanadi. Terminologiya nazariyasiga poydevor qo‘ygan g‘arblik olimlardan, birinchi navbatda, avstriyalik olim Evgen Vyusterning ismi tilga olinishi kerak. Hozirgi vaqtda bir qator milliy maktablar - avstriya -nemis, fransuz - kanadalik, o‘zbek, chex tillari maxsus lug‘atni ko‘rib chiqishga yondashuvlari bilan farq qiladigan terminologiyaning nazariy muammolarini ishlab chiqish bilan shug‘ullanmoqdalar. Tadqiqotning ko‘lami va ahamiyati bo‘yicha yetakchi o‘rinni o‘zbek maktabi egallab kelmoqda. Zamonaviy o‘zbek terminologiyasining taniqli vakillari orasida O.S.Axmanova, S.V.Grinev, V.A.Tatarinovni alohida qayd etish lozim.

Rossiyada terminologlarni "RossTerm" o‘zbek terminologik jamiyati birlashtiradi. Terminologiya nazariyasi ko‘plab olimlar tomonidan alohida fan sifatida tan olingan. Xuddi shu davrda o‘zbek tilshunosligida ham o‘tgan asrning 20-yillarida bir qator ijtimoiy-siyosiy, harbiy, yuridik sohalarga oid terminologik lug‘atlar tuzish bo‘yicha gazetalarda maqolalar e‘lon qilina boshlagan edi. 30-yillarda esa Ulug‘ Tursun tomonidan o‘zbek tili terminologiyasini o‘rganishga bag‘ishlangan ilk risola e‘lon qilindi. Zamonaviy dunyoda terminologiyaning muhim rolini inkor etib bo‘lmaydi, chunki jamiyatning rivojlanish darajasi aynan

milliy terminologiyaning holati bilan belgilanadi. U ma'lum bir jamiyat fanining holatini aks ettiradi va siyosat, iqtisodiyot va madaniyatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Atama ixtisoslashtirilgan va kasbiy aloqada, shuningdek, ilmiy, ishlab chiqarish, texnik va boshqa bilimlar almashinuvida "maxsus ilmiy ma'lumotlarning eng muhim va eng ko'p ma'lumot talab qiladigan tashuvchisi" dir. Bu maxsus axborot tashuvchisi sifatida "axborot funksiyasining tabiati" bilan izohlanadi. Terminning konseptual mazmuni uning tizimdagi o'rni bilan belgilanadi.

Bu atama ma'lum bir terminologik tizimning bir qismi bo'lib, ma'lum bir fan, texnika, ishlab chiqarish sohasini bildiradi. Xuddi shu sohadagi atamalar orasida o'ziga xos ta'rifi (aniq ilmiy ta'rifi) bor. Xuddi shu so'z har xil bilim sohasidagi atama bo'lishi mumkin. Bu polisemiya emas, balki homonimiya (masalan, botanika, iqtisodiyot va matematikada "taksonomiya" atamasi), chunki ularning terminologik sohasidagi atamalar odatda "kundalik" so'zlardan farqli o'laroq aniq. Bu atamalar ma'lum ilmiy tushuncha bilan ham bog'liq: ular ilmiy natijalarni aks ettiradi, tadqiqotlar va ularni nazariy tushunishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu jihatdan ular umumiy so'z boyligiga kirish yoki kirmasligi ham munozaralai masala.

Terminlar to'plami lotin va grammatik darajadagi umumiy tilning muhim qismidir. Ular tushunchalar va leksik-semantik munosabatlar asosida shakllanadi. Umumiy nazariy va amaliy tilshunoslik atamani ishlab chiqish va o'rganish uchun muhit hisoblanadi, chunki bu atama milliy til birliklaridan ajralmasdir. Terminning ichki xossalarini tahlil qilish uchun u haqiqiy bilim birliklariga xizmat qiladigan birliklar, terminologik tizimlar doirasida o'rganiladi. Zamonaviy tilshunoslikda atamaning bunday xususiyatlariga ko'ra tushuncha yoki tushunchaning ataylab yurgan ongiga mos kelishi, atamaning maxsus bilim sohasiga mansubligi, aniqligi, ma-nosining to'g'riligi, kontekstual mustaqillik (tematik matn ichida), izchillik, nominativlik, ifoda etishmasligi va nutqda stilistik betaraflik, maqsadga muvofiqlik va doimiylik kabilarni o'z ichiga oladi. Turli mualliflarning asarlarida lingvistik universallardan biri sifatida atamaning ko'plab ta'riflari bor, garchi u zamonaviy tadqiqotlarda maxsus bilim yoki faoliyat sohasi konsepsiyasini bildiruvchi so'z yoki ibora sifatida paydo bo'lsa ham.

Atama soʻz yoki ogʻzaki kompleksdir, ular boshqa soʻzlar va ogʻzaki komplekslar va shakllar bilan tizimli munosabatlarga kiradi, ular bilan birgalikda har birida bu jarayon alohida holat va maʼlum bir vaqtda yopiq tizim boʻlib, ular yuqori axborot mazmuni, aniqligi va ifodali betarafligi bilan ajralib turadi”. D.S.Lotte bu fan va texnika sohasidagi tushunchalar tizimida tovush belgisi va u bilan bogʻliq tushunchaning birligi vazifasini bajaradigan soʻzni (soʻz birikmasi) ataydi. S.V.Grinev bu atamani "maxsus tushunchalarning aniq nomi uchun ishlatiladigan maxsus tilning nominativ maxsus leksik birligi (soʻz yoki ibora) deb taʼriflaydi. A.S.Gerdning soʻzlariga koʻra, bu atama “mazmunan mos keladigan konseptual tizimning maʼlum birligini amalga oshirishdir”. Shunday qilib, turli mualliflar atamaning taʼrifida bir yoki ikkita eng muhim yoki asosiy, ularning fikricha, xususiyatlarni ajratib koʻrsatishga harakat qiladi.

Zamonaviy terminologiya sohasida atamalarni belgilashda nafaqat soʻz yoki iboralarni, balki jummalarni ham ishlatish mumkin. Termin-jumlalar maxsus harbiy, dengiz, sport tillarida qoʻllaniladi va buyruq-semantik yoʻnalishning kichik guruhlari bilan ifodalanadi. Umumiy qabul qilingan kontekstda atama sifatida faqat soʻz va ibora ishlatiladi. Shuningdek, gap grammatik kategoriya sifatida sintaksisda soʻz va iboraga qarama -qarshi turadi. Bu atama nutqdagi nominativlik, barqarorlik va takrorlanuvchanlik xususiyatlariga mos kelishi kerak, bunda jumla xabar birligi sifatida mos kelmaydi. O.S.Axmanova atamani "maxsus (ilmiy, texnik va boshqalar) soʻz yoki ibora" deb taʼriflaydi. Maxsus tushunchalarni aniq ifodalash va maxsus obyektlarni belgilash uchun yaratilgan (qabul qilingan, koʻchma maʼnoda qoʻllash uchun oʻzlashmaga olingan va hokazo) til”.

Bundan maʼlum boʻladiki, tilning har qanday soʻzi yoki iborasi, agar uning maʼnosi "maʼlum bir tizimlashtirilgan mavzu doirasi bilan bogʻliq" tushuncha tizimiga kiritilgan boʻlsa, atama vazifasini bajarishi mumkin degan xulsaga kelish oʻrinli boʻladi. Terminologik birliklar ichki semantik qurilishga(tuzilishga) ega. Terminning oʻziga xosligi shundaki, atama - bu ilmiy tushuncha bilan bogʻliq boʻlgan u yoki bu taʼrif sunʼiy, ataylab berilgan soʻzdir” Shuningdek, atamalar maxsus tushunchalarni namoyish etadi. Agar biz konsepsiyani konkretlashtirsak,

aniqlovchi elementlar oddiy bir soʻzli atamaga qoʻshiladi va shu bilan asl tushunchaning oʻziga xos korrelyasiyasini hosil qiladi. Bu terminologik iboralar yoki murakkab atamalar boʻlishi mumkin. Erkin va frazeologik soʻz birikmalari orasidagi oraliq tur - bu termin birikmasi boʻlib, uning grammatik tuzilishga koʻra erkin deb qarash mumkin. Koʻpgina terminologik iboralar, qoida tariqasida, erkin iboralar turiga semantik jihatdan yaqin va ularning maʼnolari ularning tarkibiy qismlarining maʼnolari yigʻindisiga tengdir deb qaraladi. Uch xususiyat asosida (aloqa, barqarorlik va takrorlanish) murakkab atamalar ajratiladi. Bu atamalar “shakl va mazmun oʻrtasidagi ziddiyatning oʻziga xos namunasidir: shakli boʻlaklarga boʻlinib, ular bittadir, mazmuni va shu funksiyani tilda bajarishi, soʻz-atamalar sifatida”. Ular yangidan yaratilmagan, lekin maxsus nutqni tugatilgan shakli sifatida qabul qilingan. Hatto koʻp komponentli termin-iboralar ham jummalarga kiritilganda, tayyor va mustahkam oʻrnatilgan kompleks sifatida qabul qilinadi.

Shunday qilib, **atama - bu maxsus (yoki professional) obyektning aniq nomi va ifodasi** uchun ishlatiladigan, tegishli maxsus tilning boshqa lingvistik birliklari bilan tizimli aloqada boʻlgan maxsus til birligi (soʻz yoki ibora), tushuncha, hodisa yoki faoliyat turi. Bu atama umumiy milliy tilning birligi sifatida ayni paytda maxsus lingvistik quyi tizimning bir boʻlagidir. **Termin - bu maxsus nom berishning** maxsus funksiyasini bajaradigan maxsus til birligi va professional konsepsiya hamda uni til tizimidagi boshqa lingvistik birliklardan ajratib koʻrsatish hodisasidir. Maxsus lingvistik birliklar boʻlgan atamalar mavjud va ularning xususiyatlarini faqat "oʻziga xos" terminologik tizim orqali amalga oshiradi. Ular turgʻun va umumiy soʻz boyligi, oʻz navbatida, terminologiya jarayonini anglab, terminologiyaga kirib borish imkoniyatiga ega. Terminologik va terminologik boʻlmagan lugʻatning harakatchanligining bu xususiyatlari atamashunoslik va umumiy tilning oʻzaro ta-sirini koʻrsatadi. Shuningdek, terminologiya tizimida har bir atama maʼlum bir oʻrinni egallaydi. U tegishli tushunchaning butun tushunchalar tizimidagi oʻrni bilan belgilanadi. Xullas, bu tizimdan tashqarida, atama oʻziga xos xususiyatlarini yoʻqotadi va lingvistik tizimda (terminologik emas) u oʻzining milliy va madaniy oʻziga xosligini namoyon qilishi mumkin, "buni lisoniy maʼnoning

individual namoyon bo‘lishini polisemiya, metafora, tasviriylilik, ekspressivlik, hissiylik, konnotatsiya, modallik” da ko‘rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Кубрякова, Е. С. Язык и знание: На пути становления знаний о языке: Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира Е. С. Кубрякова. - М.: Языки славянской культуры, 2004. –Б. 57
- 2.Володина М.Н., Когнитивно - информационная природа термина. М.,2000.С.98
3. Граудина Л.К. Вопросы нормализации русского языка. – М.,1980.С.76
4. Костомаров В.Г. Языковой вкус эпохи – М.,1994. – Б. 78
- 5.Малеева В. Е. Социально-культурный компонент семантики терминологической лексики: дис. ... канд. филол. наук. М., 1992.С.165
- 6.Головин Б. Н Лингвистические основы учения о терминах. М.: Высшая школа, 1987.С.56
- 7.Хакимова Г. Термин как лингвистическая единица, термин в рамках теории терминополья. Вестник Башкирского университета. 2013. Т. 18. №4.
8. Ахманова О. С. Словарь лингвистических терминов. М.: Сов. Энциклопедия, 1966.С.199-200.
- 9.Ismailov G‘. O‘zbek tili terminologik tizimlarida semantik usulda termin hosil bo‘lishi. Fil.fan nom..diss...Toshkent.2011.S.24
- 10.Abdullayeva Z. O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportning shakllanish va rivojlanish tarixi. Diss...tarix fan..nomz... Toshkent. 2009.

SPORT O‘YINLARIDA (VOLEYBOL VA BASKETBOL) O‘ZBEK TILINING QO‘LLANILISHI

*Ayxodjayeva M.S., O‘zDJTSU
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsent v.b.
Badalova D.X. O‘zDJTSU 20-01-guruh talabasi*

Annotatsiya. Mualliflar maqolada bugungi kunda mamlakatimizda sport sohasining rivojlanishi ustida to‘xtalib, o‘zbek sport atamashunosligini rivojlantirish

zaruratiga e'tibor qaratganlar. Shuningdek, sport o'yinlari, xususan, voleybol va basketbol sport turlarida o'zbekcha atamalarining qo'llanishi haqida o'z mulohazalarini bayon etganlar.

Аннотация. Авторы статьи акцентируют внимание на развитии области спорта в нашей стране на сегодняшний день и необходимости развития узбекской спортивной терминологии. Они также прокомментировали использование узбекских терминов в спорте, особенно в волейболе и баскетболе.

Ona tilimiz – milliy ma'naviyatimizning bitmas-tuganmas bulog'i. Shunday ekan, unga munosib hurmat va ehtirom ko'rsatish barchamizning nafaqat vazifamiz balki muqaddas insoniy burchimizdir.

Shavkat Mirziyoyev.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda barcha sohalarda izchil islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, sport sohasiga hukumatimiz tomonidan qaratilayotgan jiddiy e'tibor natijasi o'laroq, O'zbekiston jahon sport arenalarida tobora ko'proq tanilib boryapti. Jahon hamjamiyati bugungi kunda sport sohasini millatlarni totuvlikka, hamjihatlikka, do'stlikka, birdamlikka yetaklovchi eng ma'qul yo'l sifatida e'tirof etmoqda. Sportning barcha turlarini, undagi yangi yo'nalishlarni rivojlantirish yo'lidagi harakatlar, o'z navbatida, sport sohasida keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun imkoniyatlar yaratadi. Haqiqatan, sport sohasi chuqur ilmiy izlanishlar olib borish uchun nihoyatda keng jabhadir va, shunday ekan, sportga oid bilimlarni rivojlantirish, jumladan, ancha yaxshi shakllanib qolgan sport milliy atamashunosligini yanada taraqqiy ettirish, uni lingvistik aspektda tadqiq etish, atamalarni tizimlashtirgan holda o'rganish, ular uchun maxsus lug'atlar tuzish ishlarini jonlantirish nafaqat tilshunoslik uchun, balki butun jamiyat hayotining yanada jadallashiga mas'ul har bir soha uchun ahamiyatlidir. Zero, til va jamiyatning bevosita bog'liqligi hamda ularning dinamik holda to'xtovsiz o'zgarishlarga uchrashida mazkur soha atamalari ham salmoqli o'rin egallaydi.

Bilamizki, xalqaro muloqotning butun dunyoda tan olingan vositasi sanalgan ingliz tili sport atamashunosligi taraqqiy etishida alohida ahamiyatga ega. Lekin

sport sohasida o‘zbek tilining mavqeyini oshirish – oldimizda turgan muhim vazivalardan biri. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida: “Globallashuv sharoitida milliy tilimizning sofligini saqlash, uning lug‘at boyligini oshirish, turli sohalarda zamonaviy atamalarining o‘zbekcha muqobilini yaratish, ularning bir xil qo‘llanishini ta‘minlash dolzarb vazifa bo‘lib turibdi”, – deb ta’kidlaganlari bejiz emas [1].

Dunyo tilshunosligida sportga oid atamalarining qardosh va qardosh bo‘lmagan tillar misolidagi chog‘ishtirma tahlili nafaqat o‘rganilayotgan tillar atamashunosligidagi farqli jihatlarni, balki mazkur tillarning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy omillarni ham aniqlashga yordam beradi. Shundan kelib chiqqan holda, sportga, xususan, voleybol va basketbolga oid leksik birliklarni quyidagi shaklda tasniflash va guruhlashtirish samarali hisoblanadi:

1. Sohada narsa yoki obyektini ifodalovchi atamalar: voleybol to‘ri (волейбольная сетка), ustun (стойка), halqa (кольцо), qalqon (щит) [2].
2. O‘yin ishtirokchisini ifodalovchi atamalar: murabbiy (тренер), uchinchi zonadan hujum qiluvchi (темповик), bog‘lovchi o‘yinchisi (связующий) [2].
3. Harakatni ifodalovchi atamalar: hujum (атака, нападение), himoya (защита), aldov (обман), to‘siq qo‘yish (блокировка), qabul qilish (приём), to‘pni hujumchiga yetkazish (развод), to‘pni o‘yinga kiritish (подача, вбрасывание), mixlash (вбить кол), to‘lqin (волна), uch ochkoli tashlash (трехочковый бросок), qayta joylashuv (переход), sakrab tashlash (бросок в прыжке), ilgak tashlash (бросок крюком), yuqoridan tashlash (бросок сверху), tez yorib o‘tish (быстрый прорыв), etak ostidan (из-под юбки), e’tipoz (протест) [3,4].
4. O‘rin-joyini ifodalovchi atamalar: old chiziq – orqa chiziq – markaziy chiziq (передняя линия – задняя линия – центральная линия), maydoncha (поле, площадка), yarim aylana (полукруг), uch soniya zonasi yoki hududi (трехсекундная зона) [3,4].

Ammo voleybol yoki basketbol sohalarida shunday atamalar borki, ular butun dunyoda aynan bir xil shaklda qo‘llanadi va hamma uchun tushunarli, masalan: X

libero, blok-shot, fol, bonus, dribling, drop-step, parashut, tay-breyk, taym-aut, overtaym va boshqalar. Garchi bu atamalarni milliy tillarga tarjima qilish mumkin bo'lsa-da, odatda, sport sharhlovchilari ulardan asliga mos tarzda foydalanadilar [3,4].

Sport atamalari nutq va til birligi sifatida sport jurnalistikasi sohasida keng qo'llaniladi. Mazkur soha mutaxassisleri tomonidan atamalarni talqin etishda yuzaga kelayotgan kamchiliklarning aniqlanishi sport leksikasini tilshunoslik tamoyillari asosida o'rganish ehtiyojini yuzaga keltirmoqda. Sportga oid birliklar bir tildan ikkinchi tilga o'tadi, muqobillashadi va xoslanadi. Ularning ba'zilar asl tilda ko'p vazifalilik xususiyatiga ega bo'lib, bir qancha ma'nolarni anglatishiga qaramasdan, ikkinchi tilga xoslanganida faqat bir ma'nonigina ifodalashi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari tog'risida"gi PF-5850-sonli Farmoni. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 20.04.2019.06/19/5712/3034-son).
2. Ayxodjayeva M.S., Axmedova X.O. Русско-узбекский тематический словарь спортивных терминов. I и II части. Т., 2010 г.
3. <https://ru.wikipedia.org/wiki>
4. <http://niv.ru/doc/sport/slovar/slovar-volejbola>.

XOREOGRAFIYA SAN'ATIDA O'ZBEK TILIDAN FOYDALANISHNING ILMIY ASOSLARI

*Xudoynazarova Shahzoda Tursunovna,
O'zbekiston davlat xoreografaiya
akademiyasi o'qituvchisi*

Annotatsiya. Xoreografik ta'lim – o'z xususiyatlariga ega bo'lgan ta'lim tizimidir. Chunki bunda so'zsiz vositalar ko'proq ishtirok etadi: raqs harakatlari asosan amaliy xarakterga ega. O'zbekistonda raqs san'ati qadimdan rivojlangan

bo'lsa-da, xoreografik ta'limda darslar hozirga qadar rus tilida olib borilgani sababli, raqs harakatlarini ifodalovchi terminologiya yaxshi rivojlanmagan. O'zbek milliy raqsini yanada rivojlantirish hamda uni jahon sahnalarida keng targ'ib etish uchun talabalarga anatomik terminlar ko'proq o'rgatilishi zarur. Buning uchun esa o'zbek, rus va fransuz tillarida anatomik terminlarning tarjima hamda izohli lug'atlarini yaratish zarur.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, xoreografik ta'lim, raqs san'ati, milliy raqs, xalq raqsi, klassik raqs – balet, so'zsiz vositalar, lug'atlar, tarjima lug'atlari, izohli lug'atlar, lug'at-ma'lumotnoma, terminologiya, xoreografik terminlar, anatomik terminlar, tarjimadagi muammolar.

Xoreografik ta'lim deganda o'zbek milliy raqsi, xalq raqslari va klassik raqs (balet) bo'yicha beriladigan ta'lim tizimi tushuniladi. Mazkur ta'lim tizimi o'ziga xos jihatlari bilan boshqa ta'lim tizimlaridan jiddiy farqlanadi. Chunonchi, bunda asosiy g'oya asosan tana harakati orqali ifodalanadi, ya'ni asosiy tushunchalar verbal vositalar bilan emas, balki noverbal vositalar bilan o'rgatiladi. Shu sababli bo'lsa kerak, hozirga qadar o'zbek tilida biror jiddiyroq darslik yoki o'quv qo'llanma yaratilmagan. Xoreografik ta'limda asosiy e'tibor amaliy mashg'ulotlarga qaratilgani uchun aksariyat talabalar nutqi rivojlanmagan, aniqrog'i o'z fikrini ona tilida ifodalab berolmaydi. Bu esa bo'lajak raqs mutaxassisining mahoratiga, kasbiy layoqatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tayyorlanayotgan mutaxassislar faqat ijrochi bo'lib qolmoqda, ularda pedagogik mahorat yetarlicha shakllanmayotir. Bizningcha, xoreografik ta'lim tizimini takomillashtirish uchun, avvalo, ushbu tizimni o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash zarur. Negaki, sohaga doir darslik va o'quv qo'llanmalarsiz ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi.

Raqs san'ati bo'yicha oliy ma'lumotli kadrlar faqatgina O'zbekiston Davlat xoreografiya akademiyasida tayyorlanadi. Ushbu oliy ta'lim muassasasi esa, sobiq Xoreografiya bilim yurti negizida shakllangan. Unda asosiy e'tibor klassik raqs balet san'atiga qaratilgan. O'zbek milliy raqsi va xalq raqslari ham klassik raqs andozalari asosida o'rgatilgan. Tabiiyki, ta'lim rus tilida – rusiyzabon o'qituvchilar tomonidan olib borilgach, barcha darslik va qo'llanmalar ham ruscha bo'lgan. O'zbek tilida

ta'lim oladigan talabalar ham asosan rus tilidagi adabiyotlardan foydalanishga majbur bo'lishgan. Natijada, tayyorlangan mutaxassislarning tafakkur tarzi bir yoqlama shakllangan: milliy-madaniy meros to'liq egallanmagan. Vaholanki, "ilmiy asoslangan yangi so'z va atamalarni iste'molga kiritish, zamonaviy atamalarning o'zbekona muqobillarini yaratish va bir xilda qo'llanishini ta'minlash, geografik va boshqa toponimik obyektlarga qonun hujjatlariga muvofiq nom berilishi borasidagi faoliyatni monitoring qilish va muvofiqlashtirish"ni davr talab etmoqda. Biz mazkur maqolada faqatgina klassik raqs – baletga xos ayrim terminlar haqida, xususan, ularning o'zbek tilidagi qo'llanishi borasida o'z fikrlarimizni bildirib o'tamiz. Nazarimizda, xoreografik ta'limda jiddiy o'zgarish yasash mumkin bo'lgan vositalardan biri – anatomik terminlardan foydalanish mahoratidir. Buni pedagogik jihatdan quyidagicha asoslash mumkin.

Ma'lumki, raqs o'rgatish va o'rganish jarayoni bevosita kishi tana a'zolari bilan bog'liq. Tana a'zolari va ularning harakatini ifodalovchi so'zlarni puxta bilish, tabiiyki, ta'lim samaradorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, mazkur terminlarni qiyosiy o'rganish, ya'ni rus va fransuz tillarida ham o'zlashtirish raqqos hamda raqqosalar uchun juda muhim. Chunki ushbu jarayon vizual xarakterga ega bo'lib, tana a'zolari nomlari – anatomik terminlar talabalar tomonidan tez o'zlashtiriladi. Darvoqe, anatomik terminlarning ta'lim jarayonidagi o'rni muhim ekan, demak, bunday so'zlarni to'plab, maxsus lug'atlar tuzishga to'g'ri keladi. Bunday lug'atlar maqsadi va tuzilishiga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin. Bizningcha, dastlab tarjima lug'atlarini yaratish juda dolzarb hisoblanadi. O'zbek lug'atshunosligida bu borada katta tajriba bor.

Hozirga qadar o'zbekcha-ruscha, ruscha-o'zbekcha lug'atlar, jumladan, bir qator xorijiy tillar va o'zbek tili qiyoslangan tarjima lug'atlari mavjud. Pedagogik tajribadan kelib chiqib, aytish mumkinki, xoreografiya bo'yicha uch tillik tarjima lug'atini yaratish maqsadga muvofiq ko'rinadi. Negaki, xoreografik ta'limda asosiy tushunchalar fransuz tilidan o'zlashtirilgan. Shu sababli ham, o'zbekcharuscha-fransuzcha anatomik terminlar lug'atini yaratish zarur bo'ladi. Buning uchun, avvalo, tuzilajak lug'atning tamoyillari ilmiy-nazariy jihatdan asoslanishi lozim.

Binobarin, hozirga qadar nashr etilgan tarjima lugʻatlari, xususan, ikki jildli “Ruscha oʻzbekcha lugʻat”, “Oʻzbekcha-ruscha lugʻat”lar tajribasi oʻrganib chiqiladi. Soʻngra oʻzbek tilidagi kishi tana aʼzolari bilan bogʻliq barcha soʻzlar toʻplanadi va lugʻatning soʻzligi yaratiladi. Lugʻat soʻzligi mutaxassis lugʻatshunoslar koʻrigidan oʻtkaziladi. Maʼlumki, oʻzbek milliy raqsining ildizlari juda qadim davrlarga borib taqaladi.

Shu boisdan ham, raqs terminologiyasi juda rang-barang, sinonimlarga boy, bir qator dubletlarga ega. Bu holat esa, lugʻat soʻzligini tuzishda murakkablik keltirib chiqaradi. Chunki, raqsning har bir harakati turli vohalarda turlicha atalishi, fonetik oʻzgarishga uchragan boʻlishi mumkin. Binobarin, raqs terminlari faqat oʻzbek milliy raqslaridagina iborat emas. Chunki bir qator xalqlarning raqslarida ham oʻxshash elementlar mavjud. Shundan kelib chiqqan holda, anatomik terminlar bir qator xalq raqslaridagi terminlar bilan solishtirib chiqiladi, oʻzbek tilidagi asosiy muqobil variant aniqlab olinadi. Masalan, qoʻl, panja, barmoq, dasta kabi terminlarning lugʻaviy maʼnolari va ularning raqs amaliyotida qoʻllanayotgan maʼnolari solishtirib chiqiladi. Besh jildli “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da mazkur soʻzlar quyidagicha izohlangan:

Pedagogik amaliyotdan kelib chiqib, anatomik terminlar lugʻatini tuzishda mavjud anʼanalarni saqlagan holda, baʼzi yangicha – innovatsion yondashuvlardan ham foydalanish mumkin. Masalan, lugʻat-maʼlumotnoma shaklidagi materiallar toʻplanib, ayni shu lugʻat maqolasiga daxldor rasm-chizmalar ham berilishi oʻrinli boʻladi. Nazarimizda, ayni shu usul orqali ayrim soʻzlar tarjimasidagi noaniqliklarga aniqlik kiritiladi. Masalan, oyoq tovon, oyoq kafti terminlari rus tilida pyatka (zadnyaya chast stupni), stopa (chast nogi, sostoyashaya iz predplyusni, plyusni i palev), stupnya (chast nogi, sostoyashaya iz predplyusni, plyusni i palev) kabi soʻzlar bilan ifodalanishi mumkin.

Fransuz tilida esa, ayni shu maʼnoda: pied (noga, stopa, stupnya), jambe – noga (ot koleni do stupni; golen) kabi soʻzlar qoʻllanadi. Lugʻatda rasm-chizmalarning berilishi esa ayni shu holatlarga aniqlik kiritib, lugʻatning amaliy ahamiyatini yanada oshiradi. Aslida, soʻzlarning maʼnolari izohli lugʻatlarda yaxshi

ochib beriladi. Shu sababli ham, izohli lug‘atlar har qanday tilning lug‘aviy boyligini, uslubiy imkoniyatlarini obyektiv ko‘rsatib bera oluvchi muhim manba hisoblanadi. Shu ma’noda, anatomik terminlarning izohli lug‘atini yaratish xoreografik ta’limda jiddiy o‘zgarishlarga olib keladi. Chunki, terminlarning izohidagi o‘ziga xosliklar talabanning bilim darajasiga keskin ta’sir qiladi.

Ma’lumki, XX asrdan boshlab o‘zbek tiliga balet san’atiga doir so‘z va so‘z birikmalari o‘zlasha boshladi. Ushbu atamalar o‘zbek tiliga bevosita emas, balki bilvosita, ya’ni rus tili orqali o‘zlashtirildi. Aslida, balet san’atiga xos terminlarning aksariyati asli fransuzcha so‘zlar bo‘lib, bugungi kunda dunyo tillarining barchasida ommalashgan. Jumladan, o‘zbek tilida ham asli fransuzcha, biroq rus tili orqali kirib kelgan so‘zlar miqdori anchagina. Aniqroq aytganda, ular asl manba – fransuz tilida qanday yozilsa, o‘sha tarzda yoziladi: *pas de bourrée*, *dessus-dessous*, *écartée*, *attitude croisée*, *rlié*, *yen dedans*, *grand battement jeté* va shu kabilar.

Xoreografik terminlarning ayni shu taxlitda yozilishi va talaffuz etilishi xususida ayrim mulohazalarni bildirish mumkin. Avvalo, ayni shu tarzda yozilishi va talaffuz etilishi mazkur terminlarning qo‘llanish doirasini kengaytiradi. Masalan, mazkur terminlar dunyoning istalgan bir tilida bir xil o‘qiladi va bir xilda tushuniladi. Bu esa ushbu termin ifodalayotgan tushunchaning o‘rganuvchi ongida tez o‘zlashib, mustahkam saqlanib qolishiga ko‘maklashadi. Oxir-oqibatda, xoreografik ta’limda birmuncha qulaylik kelib chiqadi, ya’ni turli xil millat vakillari ayni o‘sha holat yoki harakatni, pozitsiya yoki pozani to‘g‘ri tushunib olishadi. Ayni paytda baletga xos terminlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilida olib boriladigan ta’lim-tarbiya jarayonida ba’zi bir terminlarning qo‘llanishini o‘ylab ko‘rish, ularning qo‘llanish doirasini belgilab olish va tegishli tavsiyalar berish lozim bo‘lgan holatlar ham mavjud. Masalan, hozirga qadar klassik raqs bo‘yicha nashr etilgan adabiyotlarda *pas* terminidan foydalaniladi. Xo‘sh, *pas* aslida qanday so‘z, qanday ma’nolarga ega, qanday ma’no nozikliklari mavjud? Buni biz quyidagi leksikografik ma’lumotlardan bilib olishimiz mumkin: *pas* 1) shag; 2) *poxodka*; 3) *sled* (nogi); 4) *pa* (v *tansax*); 5) *porog*; 6) *uzkiy proxod*; 7) *proliv*, kanal; 8) *tex. shag*. Ko‘rinadiki, fransuzcha *pas* rus tilida 7 ta lug‘aviy ma’noga ega. Aynan

4-ma'no xoreografik termin sifatida qabul qilingan. Mazkur so'z hozirgi o'zbek xoreografik ta'limida ham aynan shu ma'noda qo'llanadi.

Nazarimizda, har qanday terminni qo'llashda, adabiy til muhitiga olib kirishda ilmiy-nazariy yondashuv zarur. Negaki, so'z o'zlashtirish juda nozik masala bo'lib, biror-bir terminni o'zlashtirayotganda o'sha terminning lisoniy jihatlari bilan birga, uning tarixiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy tomonlari ham hisobga olinishi lozim. Binobarin, "Til amaliyoti shuni ko'rsatadiki, xorijiy so'zning qabul qiluvchi tilda grafik jihatdan to'g'ri uzatilishi juda muhim. Bu o'rinda, ma'lum bir ko'z ko'nikmasi hosil bo'lishi, uning milliy mentalitet bilan bog'liqligini ham nazarda tutishga to'g'ri keladi. Aslida, xorijiy so'z tegishli vositalar orqali grafik va fonetik uzatilmasa, u holda o'sha so'z atrofdagi boshqa so'zlar bilan bog'lanmagan, xorijiy kiritma tarzida qabul qilinadi, mabodo semantik bog'langanda ham uning ko'zda tutilgan tarjimai tub so'zga ma'no jihatdan yaqin bo'ladi.

Ayni shu ma'noda olib qaralganda fransuzcha pas ning o'zbek tilida ham pas tarzida berilishini oqlab bo'lmaydi. Chunki o'zbek tilida fransuzcha shakl – pas ning yozilish jihatidan begonaligi saqlanib qolgan. Bundan tashqari, rus tilida pa deb qo'llanishi oqibatida, o'zbek tiliga ham shu tarzda o'zlashib ketgan. Biroq til amaliyotida bu o'zini oqlagan emas.

Ko'rinadiki, o'zbek tilida xoreografik termin sifatida pas yoki pa emas, balki qadam so'zining qo'llanishi maqsadga muvofiq bo'ladi: ham talaffuz, ham yozilish jihatdan ajoyib bir termin yuzaga keladi, raqsni o'rgatish jarayonida qulaylik kelib chiqadi. Ayni paytda o'zbek adabiy tilida qadamga sinonim sifatida odim so'zining qo'llanishini ham unutmaslik lozim. Shu bilan birga, qadam va odim so'zlaridan fe'llar ham yasalishini, badiiy adabiyotda keng qo'llanishini ham yodda tutish zarur: Qadam-qadam bosib yonimga kelsin, So'zla, shirin tiling kalomga kelsin. Klassik raqsga doir adabiyotlarda keng ishlatilayotgan terminlardan biri eksersiz so'zidir. Ushbu atamada ham noqulay talaffuz sezilib turibdi. Chunki bu so'z ham asli fransuzcha (exercice) bo'lib, faqat yozilishi rus tilida, xolos.

Tarjima qilingan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, faqat polojeniye so'zini holat deb o'girish mumkin. Pozitsiya va poza so'zlari esa, o'z holicha qolishi

maqsadga muvofiq ko‘rinadi. Chunki, ayni shu holatda terminologik aniqlik yuzaga keladi: o‘rgatish va o‘rganish jarayoni yengillashadi. Aks holda, bu uchala so‘zning ham o‘zbek tilida holat deb qo‘llanishi terminologik chalkashlikka sabab bo‘ladi. Xoreografik ta’limda e’tibor qaratilishi zarur bo‘lgan holatlardan yana biri – xorijiy tillardan o‘zbek tiliga tarjima qilishdagi murakkabliklardir. Masalan, klassik raqsdan effacée vpered, effacée nazad kabi atamalar mavjud. Odatda, mazkur terminlar o‘zbek tiliga effacée oldinga, effacée orqaga deb tarjima qilinadi. Aslida-chi? Ushbu terminlar qay tarzda tarjima qilingani ma’qul? Agar masalaga tashqi nuqtai nazardan, yuzaki yondashadigan bo‘lsak, bu tarjima to‘g‘ridek ko‘rinadi. Lekin terminning ichki mazmun-mohiyati hisobga olinadigan bo‘lsa, mazkur tarjimani to‘g‘ri deb bo‘lmaydi. Chunki bu shaklda rus tilidagi shakllar ko‘r-ko‘rona ko‘chirib olinmoqda, aniqrog‘i, ruscha shakllardan so‘zma-so‘z tarjima qilinmoqda. Bizningcha, bunday o‘rinlarda o‘zbek tilining ichki mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda, oldinlama (ilgarilama) efasse (effacée), orqalama efasse (effacée) tarzida o‘g‘irish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ko‘rinadiki, ayni shu holatda o‘zbekona gap qurilishi yuzaga keladi. Natijada, ona tilimiz tabiatiga mos terminologik qolip paydo bo‘ladi, terminologik aniqlik ko‘zga tashlanadi. Bu esa, mazkur qolipdagi o‘zlashmalarning xalq tiliga singib ketishini ta’minlaydi. Klassik raqsdan qo‘llanadigan faol so‘zlardan yana biri palka terminidir. Ushbu atama ham o‘zbek tiliga turlicha tarjima qilinmoqda. Ayrim tarjimonlar uni tayoqcha, ba’zilari uskuna, boshqalari esa dastgoh sifatida tavsiya etishmoqda. Xo‘sh, bunday holat yuzaga kelishining sababi nimada? Bizningcha, bunga quyidagi omillar sabab bo‘lmoqda. Avvalo, rus xoreograflari tomonidan ushbu nom ikki xilda beriladi: palka va stanok. Aniqrog‘i, Sankt-Peterburgda palka, Moskvada stanok deb yuritiladi. Agar masalaning mazmun-mohiyatiga chuqurroq kirib borilsa, terminlardagi nozik nuqtalar oydinlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeiini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. – "Xalq so'zi", 2019 yil 22 oktabr.
2. Po'latova O. O'zbek xoreografiya terminologiyasining shakllanish manbalari va rivojlanishi. Filol.fan.nomz. diss. – Toshkent, 2001. 127 b.
3. Karimova R. Ферганский танец (методическое пособие). – Ташкент: изд. Литературы и искусства им. Гафура Гуляма, 1973. – 224 s.; Karimova R. Хорезмский танец (методическое пособие). – Ташкент: изд. Литературы и искусства им. Гафура Гуляма, 1975. – 114 s.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. To'rtinchi jild. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2008.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. Beshinchi jild. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. Uchinchi jild. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2007.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. Birinchi jild. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2006.
8. Ожегов С.И. Словарь русского языка. – Москва: "Русский язык", 1990.
9. Французско-русский словарь. Dictionnaire français-russe.. – Москва: "Русский язык", 1977.

“O‘ZBEK TILINI SOHADA QO‘LLANISHI” FANINI O‘QITISHDA SOHA MATNLARI USTIDA ISHLASH METODOLOGIYASI

***Tavaldieva Gulbaxar Nishanovna,**
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent,
Toshkent kimyo-texnologiyalari instituti*

Annotatsiya. Maqolada “O'zbek tilini sohada qo'llanishi” fanini o'qitishda kimyo-texnologiya sohasi bo'yicha matnlar bilan ishlash metodologiyasi

ko'rsatilgan. Unda matn turlari, matn tahlili va tahriri, matnga termin tanlash, matnni kengaytirish va qisqartirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Аннотация. В статье описана методика работы с текстами в области химической технологии при обучении предмету «Применение узбекского языка в специальности». Он предоставляет советы по типам текста, анализу и редактированию текста, выбору терминов в тексте, расширению и сокращению текста.

“O‘zbek tilini sohada qo‘llanilishi” fani texnik oliy o‘quv yurtlari o‘quv rejasiga 2020-2021-o‘quv yilidan kiritilgan bo‘lib, bunda talabalarning o‘zbek tilida soha bo‘yicha nutqiy kompetentligini oshirish; mutaxassislikka oid og‘zaki va yozma nutqida sohaviy terminlarni samarali qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish, talabalarga soha bo‘yicha egallagan bilimlarni yozma va og‘zaki ravishda o‘zbek tilida ifoda etish malakalarini takomillashtirish; sohada qo‘llanadigan terminlar, asosiy tushunchalar va soha doirasida qo‘llaniladigan hujjatlarning to‘g‘ri rasmiylashtirilishini ta'minlash, nutq uslublari, xususan, sohada ilmiy va rasmiy uslub imkoniyatlaridan foydalanish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish ko‘nikmasini hosil qilish, shu bilan birga talabalarning o‘zbek tilidan yozma nutqini takomillashtirish va savodxonlikni oshirish maqsad qilib qo‘yilgan.

Fanning vazifasi - mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida davlat tilining imkoniyatlaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanishga erishishni ta'minlash; egallanayotgan soha bo‘yicha nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalarni o‘zbek tilining yozma va og‘zaki nutqi me'yori va qoidalari asosida mukammal o‘zlashtirishga va ularga nisbatan shaxsiy munosabatni o‘zbek tili adabiy normalariga muvofiq holda ifodalashga erishishni ta'minlashdan iborat.

Talabalarga fanni o‘tishda avval mana shu maqsad va vazifalarni anglatish orqali amaliy mashg‘ulotlarga kirishish lozim. Qaysi kasbiy soha bo‘lishidan qat’iy nazar, mutaxassislar ish jarayonida muloqotni og‘zaki va yozma shaklda til orqali ifodalaydilar. Muloqot - fikr-mulohazalar hisobot, ma’ruza, kelishuv, taqdimot, rasmiy ish hujjatlari, xizmat yozishmalari - barchasining asosida matn yotadi. Og‘zaki va yozma shakldagi dialogik va monologik matn turlari amaliy ish

jarayonimizda doimiy qo'llaniladigan vositalardir. Shuning uchun "O'zbek tilini sohada qo'llanilishi" fani dasturiga kiritilgan mavzular matn bilan bog'liqlikda o'tiladi.

O'rta maktabda o'quvchilarga matn mavzusi bo'yicha ham nazariy, ham amaliy bilim keng berilgan bo'lsa-da, unda asosiy e'tibor badiiy-tasviriy matnlar ustida ishlash, o'quvchilar ijodkorligini rivojlantirishga qaratilgan. Oliy ta'limda talabalar ana shu bilimlarini o'zi tanlagan sohalariga yo'naltiradilar, ya'ni sohaviy atamalar, terminologiyani amalda qo'llash, o'zbek tilida to'g'ri ifoda etish rivojlantiriladi.

Amaliy mashg'ulotda dastlab matn va uning turlari haqida qisqa nazariy ma'lumot berib, ilmiy va ilmiy-ommabor matnlarning o'ziga xos xususiyatlari ko'rsatilishi kerak. Shundan so'ng sohaga oid matnlar ustida ishlash, ixtisoslikka oid ilmiy matnlarda sohaviy terminlarning qo'llanishi matnlar tahlili orqali o'rganiladi. Hikoya matni, tasviriy matn, izohli matn, argumentativ matn, direktiv matn, ilmiy matnlar, huquqiy matnlar, ma'muriy matnlar, badiiy matnlar, gumanistik matnlar, reklama matnlari, gazeta matnlari, raqamli matnlar kabi matn turlari sohaviy ish jarayonida faol qo'llanadi.

Ilmiy matn - bu tadqiqotning yutuqlarini ko'rsatish uchun mo'ljallangan matn turi. Unda texnik til ishlatilgan rasmiy uslub ajralib turadi. Tuzilishi izchil va ma'lumot har doim havola qilinishi kerak bo'ladi. Ilmiy tadqiqotlarda matn tuzishda adabiy til me'yorlari, nutqning asosiy xususiyatlari, nutqning ilmiy uslubiga e'tibor qaratish, matnga so'z va terminni to'g'ri tanlash tushuntiriladi.

Ixtisoslikka oid so'z va terminlarni to'g'ri tanlash hamda qo'llash nutq madaniyatining kasbiy bilimdonlikning muhim sharti hisoblanadi. Shuning uchun sohaga oid matn tuzishda esa quyidagilarga e'tiborni qaratish lozim: matnning qaysi nutq uslubida yozilishi kerakligini oldindan bilish; ixtisoslikka oid so'z va shartli belgilarni to'g'ri tanlay olish va o'rinli joylashtirish; so'z va terminlarni imlo me'yorlariga rioya qilgan holda yozish; tanish bo'lmagan yoki faol qo'llanmaydigan termin, shartli belgi yoki qisqartmalarga qavs ichida izoh berish; ixtisoslikka oid terminlarni boshqa tillardan o'zlashtirish va so'z yashda milliy tilning tabiatini


nazarda tutish; terminlarni o‘rinsiz takrorlanishiga yo‘l qo‘ymaslik, ularning ta'sirchanligini oshirish maqsadida leksik, morfologik va sintaktik sinonimiya imkoniyatlaridan o‘rinli foydalanish va boshqalar.

So‘z va termin tanlashda quyidagilarga e’tibor berish zarur: so‘zning lug‘aviy ma’nosini bilgan holda tanlash; tanlangan terminni aniq talaffuz eta olishni nazarda tutish; so‘zning, terminning tushunarli bo‘lishini hisobga olish; terminning ma’no xususiyatiga asoslanib, uni maqsadga muvofiq tarzda tanlash; baynalmilal terminlarni adabiy tilning leksik me’yoriga muvofiq holda tanlash; terminni matn mazmuniga mos tarzda tanlash; so‘z va terminni matnning uslubiy xususiyatiga mos ravishda tanlash.

Matn “Nutqning asosiy xususiyatlari” mavzusida tushuntirilgan mantiq qoidalariga asosan shakllanishi lozim. Izchillik ana shu qoidaning birinchi talabidir. Matnda har bir so‘z har bir gap va xatboshilar o‘rtasida mantiqiy bog‘lanish va izchillik bo‘lishi lozim.

Masalan, bu bo‘yicha “O‘zbekistonda kimyo sanoati”, “O‘zbekistonda uzumchilik sanoati va vino ishlab chiqarish texnologiyasi”, “Neft va gazni qayta ishlash texnologiyasi”, “Yog‘-moy ishlab chiqarish texnologiyasi” mavzularida 200 ta so‘zdan iborat tavsifiy matn tuzish topshirig‘ini berish mumkin.

Yoki boshqa topshiriq - “Metrologik ekspertiza” bo‘yicha quyidagi jadval asosida “Metrologik ekspertizada o‘lchash usullari” nomli matn tuzish tavsiya etiladi:



Mutaxassislar amaliy ish jarayonida ish hujjatlari bilan ishlaganda ko‘proq ma’lumot-axborot aks etgan matn tuzish, matnlarni qisqartirish va kengaytirish, matnni tuzatish, tahlil qilishiga to‘g‘ri keladi.

Talabalarga matnni tahrir qilish uchun dastlab u bilan yaxshilab tanishib, to‘lig‘icha o‘qib chiqish, masalaning mohiyatini tushunib olishi lozimligi uqtiriladi. Birinchi o‘qishdanoq tuzatishlar kiritishga shoshilish xatoliklarga olib kelishi, bu tuzatishlar muallif muddaosini anglamasdan amalga oshirilgan bo‘lishi mumkin. Matn haqida tasavvurga ega bo‘lingandan keyin, unda nimalar yetishmasligi hisobga olingach, ishga kirishish lozim.

Matnni qisqartirish quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi: matnning asosiy fikrini ifodalovchi gaplarni ajrata olish; gaplardagi uyushiq va ajratilgan bo‘laklarni, kiritma va ilova qurilmalarni qisqartirish, qo‘shimcha fikr ifodalovchi gaplarini, sintaktik parallellar va takrorlarni qisqartirish; birikmalarni ma’nodosh so‘zlarga, sodda yoyiq gaplarni yig‘iq gaplarga, qo‘shma gaplarni sodda gaplarga, ko‘chirma gaplarni o‘zlashtirma gaplarga aylantirish; matnni qisqa mazmunli tarkibiy qismlarga ajratish; birikmalarni va boshqa tasviriyl ifodalarni sodda va ixcham shaklga keltirish.

Matnni kengaytirishda matnning asosiy g‘oyasini ifodalovchi tayanch so‘z yoki gapni aniqlash va shunga bog‘liq holda o‘z mustaqil, ijodiy fikrini ifodalovchi gap qo‘shish; matn mazmunini maqol, matal, hikmatlar bilan boyitish, dalillar bilan asoslash; gapni uyushiq bo‘laklar, kiritmalar, ajratilgan bo‘laklar hisobiga kengaytirish; so‘z va birikmalarni ma’nodoshlari - tasviriyl ifodalar, frazeologik iboralar va boshqa badiiy tasvir vositalari bilan almashtirish; sodda gapni qo‘shma gapga, qo‘shma gapni alohida sodda gaplarga ajratish; matnning kirish, xulosa qismlarini qarashlar, mulohazalar, ilovalar bilan to‘ldirish kerak bo‘ladi.

Ushbu nazariyl ma’lumotlardan keyin talabalarga soha matnlari ustida ishlash tavsiya etiladi. Buning uchun kichik guruhlariga sohaga oid bir necha matnlar beriladi va ularni qisqartirish yoki kengaytirish topshiriladi. Masalan, “Uglerod”, “Sintetik materiallar”, “Neft” kabi matnlar shular jumlasidan. TKTI da har bir

yo‘nalish mazmuniga mos matnlar tanlanadi. Jumladan, “Neft va gazni qayta ishlash texnologiyasi” guruhlarida quyidagi “Neft” matnini qisqartirish topshirig‘i beriladi:

“Kishilar neftni qadimdan bilishgan. Suv olish uchun quduq qazilganda yer tagidan suv o‘rniga o‘tkir hidli qora rangdagi rangdagi moysimon suyuqlik chiqqan vaqtlar ham bo‘lgan. Bu qora moy o‘ziga xos xususiyatiga ega bo‘lib, yaxshi yongan (u bilan birga chiqadigan gaz kabi). Neft chiroqlarga solinadigan, o‘q otar qurollarning kanop losi shimdirilgan, g‘ildirak o‘qlariga suriladigan bo‘ladi. Undan turli kasalliklarni davolovchi surkaydigan dorilar tayyorlandi.

Lekin ichki yonuv dvigatellari kashf etilgunga qadar neftga bo‘lgan ehtiyoj unchalik katta emas edi. 19-asr o‘rtalarida neftdan kerosin ajratib olindi. Kerosin chiroqlarni yoritishda ko‘plab ishlatila boshlandi. Kerosinni ajratib olish jarayonida ajratib chiqayotgan benzinni esa keraksiz deb dengizga oqizib yuborilardi.

Neft avtomobillar, samolyotlar, kemalar, teplovozlar, traktorlar, kombaynlar, elektr stansiyalari va zavodlarda ishlatiladi. Ularning dvigatellari, pech va o‘txonalari neftdan olinadigan benzin, kerosin, mazut va boshqa xil suyuq yoqilg‘ilarda ishlaydi.

Olimlar neft uglevodlar, oltingugurt, azot va kisloroddan tashkil topganligini aniqlaganlar.

Neft yer ostida juda chuqur joylashgan. Neftni chiqarib olish uchun bir necha kilometr chuqurlikda parmalab chuqur qazish kerak.

Neft yer qa'rida atrofidagi gazlar bilan birgalikda juda katta bosim ostida bo‘ladi. Shuning uchun neft parmalab qazib bo‘lingan quduqdan otilib chiqadi.

Neft quduqlardan quvurlar orqali omborlarga jo‘natiladi, u yerdan esa temir yo‘l sisternalariga quyiladi, okean va dengizlar orqali ulkan neft kemalari – tankerlarda tashiladi. Ammo, eng yaxshisi neftni yer va suv ostidan o‘tgan neft quvurlari orqali kerakli manzillarga etkazgan ma'kul”.

Xulosa qilib aytish mumkinki, “O‘zbek tilini sohada qo‘llanishi” fani bo‘lajak mutaxassislar uchun zarur bo‘lgan amaliy bilimlarni beradi. Tilsiz hyech bir soha vakillari ish yurita olmaydi. Muvaffaqiyatli ish yuritishning asosini esa sohaviy o‘zbek tili qonun-qoidalarini bilish va to‘g‘ri qo‘llash tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonova M., Fattaxova D., Xalmuxamedova U., Inogamova N., Egamberdiyeva N. O'zbek tili (o'quv qo'llanma). – Toshkent: Mumtoz so'z, 2018.
2. Husanov.N., Husanova M., Xo'jaqulova R., Yusupov E. "Iqtisodiyotda texnik yozuv". T.: "Fan va texnologiya markazi", 2012. -B152.
3. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Ish yuritish (amaliy qo'llanma). – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017.– B 456.
4. G.Tavaldieva, Sh.Quroqova. O'zbek tilining sohada qo'llanishi. Uslubiy qo'llanma. TKTI, 2021. – B.224.
5. T.Tog'ayev, G.Tavaldieva, M.Akromova. O'zbek tilining kirill va lotin yozuvlaridagi imlo lug'ati. Toshkent, "Sharq", 2015. –B.430.

YURIDIK TERMINOLOGIYA XUSUSIDA.

Isaqova Munisa Qahramonjon qizi
O'zRFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori
instituti 1-bosqich tayanch doktoranti.

Аннотация: Термины - это элементы научного аппарата и понятия, используемые человеком для описания определенной области знаний или деятельности. Логическая теория термина основана на отношениях между термином и понятием. Согласно этому, результаты познания человеком мира фиксируются в материальных терминах с помощью терминов.

Annotatsiya. Terminlar inson tomonidan u yoki bu bilim yoki faoliyat sohasini tasvirllovchi ilmiy apparat va konseptlarning unsurlari hisoblanadi. Terminning mantiqiy nazariyasi termin va tushuncha o'rtasida aloqaga asoslangandir.. Unga ko'ra turli sohalarda ishlatiladigan terminlarda o'sha sohalarga oid bilimning natijalari fiksiyasi qilinadi. Ushbu maqolada muhim sohalardan biri hisoblangan huquqiy tizimda terminlarning ahamiyati xususida so'z yuritiladi.

Hozirgi vaqtda dunyo tilshunosligining diqqat markazida turgan masalardan biri bu terminologiyadir. Terminologiya zamonaviy lingvistik tadqiqotlarning aktual yo'nalishi sifatida tez sur'atda rivojlanib yangi tarmoqlarni yuzaga keltirmoqda. Bu

jarayonda terminologiyaning o'sib borishi, bir tomondan ilm-fanning dinamik rivojlanishi tufayli yanggi tushunchalarning ko'payib borishi sababli deb qaralsa, ikkinchi tomondan terminlarning shakllanish jarayoni, sohalar o'rtasida integratsiyalashuv jarayoni kabi masalalarning yetarli darajada o'rganilmaganligi bilan bog'liq hodisa deb izohlanadi.

Dunyodagi uch mingdan ortiq tilning oltmishga yaqinida ilmiy terminologiya masalalari tadqiq etiladi va uch yuzga yaqin terminosistema doirasini qamragan, xalos. Shunga ko'ra har bir tilda ishlangan sohalar terminologiyasi u qadar ko'p miqdorni tashkil etmaydi. Terminologik faollilik har bir sohaning samaradorligi, taraqqiy etganligi kabi holatlar bilan ham belgilanadi [2;4]. Terminlarda mavjud bo'ladigan terminologik ma'no so'z bilan yoki biron bir formal ko'rinishda ifodalanishi mumkin va ilm-fan va texnika taraqqiyotining muayyan darajasi uchun asosiy, muhim bo'lgan tegishli tushunchaning xususiyatlarini anchagina aniq va to'liq aks ettiradi.

Terminlarning o'ziga xos xususiyati ularni tilning boshqa birliklaridan ajratib olish va terminlarni tegishli tartibda guruhlash imkonini beradi. Ularning mazmun – nomlash obyekti bo'yicha tasnifi terminlarni bilim yoki faoliyat sohalarini, boshqacha qilib aytganda, maxsus sohalarga taqsimlashdan iborat. Ilm-fan sohasida ilmiy terminlarning guruhi aniqlanadi. Bu guruh, umumiy tarzda olganda, ilmiy-texnik taraqqiyotning muayyan bosqichida ilm-fanning qancha turi mavjud bo'lsa shuncha sinflarga ajralib ketadi. Soha terminlarining har bir sinfida esa mazkur ilm-fan obyektlari va qonuniyatlarini tavsiflovchi turli mustaqil nazariyalar qancha bo'lsa, shuncha guruhchalar(terminosistemalar) ajraladi. Har bir davr uchun terminlarning tarixiy-leksikologik klassifikatsiyasi tuziladi va unda termin-arxaizmlar hamda termin-neologizmlar mavjud bo'ladi.

M.S.Kamenevaning fikricha, ma'lum sohalarga oid terminlar o'zlarining odatiy terminologik xususiyatlaridan chetga chiqishlari ham mumkin. Turli xildagi maktab va boshqa o'quv muassasalarida bir terminga o'zgacha definitsiyalar, ya'ni ta'riflar berilishi natijasida, ushbu terminning ma'nosi beqarorlashadi [3;66].

Barcha sohalarda bo'lgani kabi huquqiy tizimda ham terminlar muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, har qanday normativ-huquqiy hujjat matnining asosini yuridik terminlar tashkil qiladi. Yuridik terminlar umumiy terminologiyaning ajralmas qismi bo'lib, o'ziga xos lingvostilistik va lingvoyuridik xususiyatlarga ega. Yuridik terminologiya tushunchasi bu huquqshunoslik sohasida ishlatiladigan barcha terminlar degani emas. Unda qonunchilik va ish yuritishdagi leksika, adabiy tildagi ba'zi so'zlar va asosan, Qadimgi Rim huquqshunosligiga asoslangan xorijiy o'zlashma terminlar kiradi. Shuningdek, yuridik terminologiyada ko'plab yangi yasalgan terminlar mavjud bo'ladi [4;50].

Zero yuridik terminlar huquq tilining muhim va ajralmas qismi bo'lib, kun sayin unga bo'lgan e'tibor ortib bormoqda. Rus tilshunosi Glinskaya o'z tadqiqot ishida keltirishicha, Angliya lingvist-tadqiqotchilari (D.Melinkoff, D.Kristal, B.Kilar va L.M.Solenlar) yuridik terminlar tarixiy rivojlanish jarayoni bo'yicha ham, o'z sohaviy spetsifikasiga ko'ra ham bir qator o'ziga xosliklarga ega ekanligini qayd etishgan. Rus tilshunos olimlari T.V.Morshakov, N.P.Timofeev S.P.Xijnyaklarning fikricha, yuridik terminlarni o'rganish lingvistik jihatdan rasmiy uslubda hujjatlar yuritishda qulaylik yaratsa, ilmiy uslubda huquqqa oid terminlarning boyishiga olib keladi. Shuningdek, ular tor doiradagi maxsus terminosistemani ham o'z ichiga oladi.[1; 90]

Qonunchilik tizimi takomillashuvi sayin soha terminologiyasida ham yangidan-yangi terminlar paydo bo'laveradi. Mazkur terminlar qonunlarni konkretligini ta'minlaydi, sud qarorlarini mavhum tushunchalardan holi etishga yordam beradi. Bir so'z bilan aytganda qonunchilik tizimining kompaktlashuviga olib keladi. Milliy qonunchiligimizda terminologiya muammosi ancha dolzarb bo'lib, u jamiyat hayotida qonunlarning o'rni bilan bog'liq. Bu haqida filologiya fanlari doktori Sh.Ko'chimov shunday fikr bildiradi: "Haqiqatan ham, mamlakatda qonunlarning mukammal ishlab chiqilishida, huquqiy ta'minotning ta'minlanishida fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatning yuksalishida yuridik terminlar ham muhim ahamiyat kasb etadi [5;66]. Ushbu

sohada terminlarni aniq ishlatish qonun chiqaruvchi organlarning mahorati va ushbu terminlarning samaradorligiga bog'liq. Yuridik terminologiyadagi eng muhim masalardan biri ularni tasniflash masalasidir. Ilmiy adabiyotlarda yuridik terminlarni tasniflash borasida bir necha takliflar berilgan bo'lsa-da, yaxlit prinsip mavjud emas. Jahon va o'zbek yuridik terminologiyasida olib borilgan tadqiqotlardan kelib chiqqan holda qonun doirasida foydalaniladigan terminlarni quyidagicha tasniflash mumkin.

Umumqo'llanuvchi ya'ni barcha birdek tushunuvchi va kundalik turmushda ham qo'llaniluvchi terminlar. Masalan: **tuzilma, hujjat** va hk. Maxsus-texnik terminlar ya'ni maxsus bilimlar (texnika, tibbiyot, iqtisod, va boshqa sohalarga oid terminlar) doirasida ishlatiluvchi terminlar. Masalan: **depozit, ishlab chiqarish**.

Maxsus-yuridik terminlar ya'ni aynan yuridik harakterga ega va u yoki bu huquqiy tushunchani o'zida aks ettiruvchi terminlar. Masalan: **garov, egalik** Bu borada biz aynan maxsus-yuridik terminlarga alohida e'tibor berishni lozim topdik. Zero ularning inson taqdirida muhim ahamiyat kasb etishini tan olmay iloji yo'q. Misol qilib, oddiygina **“zarar yetkazish”** terminini oladigan bo'lsak. Kundalik turmushda bu kabi so'zni ko'pgina oddiy hodisalarga nisbatan ham ishlatishimiz mumkin, ammo sud jarayonida esa bunday ayblov ayblanuvchiga nisbatan ishlatiladigan bo'lsa, shubhasizki, bu uning qonun oldida javob berishini taqozo qiladi. Yoki bo'lmasa ko'p qo'llanadigan **“kelishuv”** so'zini olsak. Bir qaraganda u boshqa so'zlar qatori oddiy bir so'z, ammo yuridik terminologiya nuqtai nazaridan kelishuv bu yuqori ahamiyat kasb etuvchi huquqiy kategoriyadir. Mazkur sohaga oid terminlardan foydalanish ham yuksak mahorat talab etadi. Huquqiy tizimga biror terminni olib kirishdan avval ushbu so'z ma'no jihatidan to'liq analiz qilingan va uning mohiyati to'liq o'rganilgan bo'lmog'i lozim. Akademik V.V.Vinogradov ta'kidlab o'tganidek, har qanday terminlarni tartibga solishdan oldin, ular anglatayotgan ma'no-mazmunni batafsil tahlil qilib chiqish lozim, zero agar bunday ish bajarilmasa, mazkur terminlarning foydasidan ko'ra zarari ko'proqdir[6;124].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Глинская Н.П. Юридическая терминология в разных функциональных стилях английской речи: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Москва, 1997. – 24 с.
2. Сусперанская А.В. Общая терминология. Вопросы теории. – Москва: Наука, 1989. – С. 4.
3. Узина (Каменева) М.С. Пуризм как проявление национализма в словотворческой деятельности в Иране и Турции (20-70-е годы) // Народы Азии и Африки. – Москва, 1980. – №4. – С. 66-69.
4. Шокиров Т. С. Советская юридическая терминология в таджикском языке. // Вестник таджикского национального университета (научный журнал). – Душанбе, 2010. – С. 51-61. с.
5. Ко‘chimov Sh.N. Huquqiy normalarni o‘zbek tilida ifodalashning ilmiy-nazariy muammolari (lingvo-yuridik tahlil): Filol. fanlari doktori ... dis. avtoref. – Toshkent, 2004. – 28 b.
6. www.wiseowl.ru/showwork/830/ - Юридическая терминология и её классификация

“DEVONI LUG‘OTIT TURK” ASARINING O‘ZBEK TILINI SOHAGA YO‘NALTIRIB O‘QITISH TAMADDUNIDA TUTGAN O‘RNI

Musayev Isomiddin Saidovich

*O‘zDJTSU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi
katta o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Devoni lug‘atit turk” asrining o‘zbek tilini sohaga yo‘naltirib o‘qitish tamaddunida tutgan o‘rni nazariy jihatdan yoritib o‘tilgan. Xususan, unda turkiy xalqlar, jumladan, o‘zbek xalqining tarixi, urf-odatları, so‘zboyligi, adabiy merosini o‘rgatishdagi ahamiyati, til va yozuv masalalari, yozuv haqida umumiy tushuncha, O‘zbek yozuvlari tarixi, O‘zbek yozuvlarining rivojlanish bosqichlariga oid masalalar haqida fikrlar yuritilgan..

Tayanch so‘z va iboralar: Devoni lug‘atit turk, turkey xalqlar, leksema, lingvomadaniy, xalq og‘zaki ijodi, turkologiya, jismoniy tarbiya va sport.

Аннотация: В данной статье теоретически описывается роль тюрков-лугатитов Девони в области преподавания узбекского языка в полевых условиях. В частности, она включает в себя историю тюркских народов, в том числе узбекского народа, обычаи, риторику, важность преподавания литературного наследия, вопросы языка и письма, общую концепцию письма, историю узбекской письменности, развитие узбекской письменности. были мнения по вопросам, связанным с этапами.

Ключевые слова и словосочетания: словарь турецкого языка Девони, тюркские народы, лексемы, лингвокультурология, фольклор, тюркология, физкультура и спорт.

Buyuk madaniyatimiz ildizlari uzoq o'tmishga borib taqaladi. Xususan, qadimgi yozma yodgorliklarni tadqiq qilar ekanmiz ming yillar oldin bitilgan otabobolarimiz yaratgan o'lmas asarlar bunga yorqin misol bo'ladi. Fanda ma'lumki, turkiy millatlar va elatlar o'zlarining boy xalq og'zaki ijodi namunalari va yozma yodgorliklarining qadimiyligi bilak mashhurdir. Dastlabki yozma manbalarning "Urxun-Enasoy" bitiglari nomi bilan Markaziy Osiyo, Sibir va Mo'g'uliston zaminlaridan topilganligi tarixdan ma'lum. Undan keyingi davrda yaratilgan Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari ham qimmat i jihatidan umumturkiy boyligimizdir.

O'zbek tilini sohaga yo'naltirib o'qitishda bu asarni har tomonlama tadqiq etish turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek xalqining tarixi, urf-odatlar i, so'zboyli gi, adabiy merosini o'rgatishda katta ahamiyat kasb etadi. "Devoni lug'otit turk"dagi ijtimoiy-madaniy hayot bilan bog'liq leksemalar, umuman ushbu asar bo'yicha O'zbekiston va jahon olimlar tomonidan bir qancha tadqiqotlar olib borilgandir.

O'zbek olimlaridan asar bo'yicha ilk izlanishlar 1960-1963 yillar orasida olib borgan olim S.Mutallibovdir. Jumladan, XX asrning qir qinchi yillari boshlaridan olim "Devon"ni o'zbek tiliga tarjima qilish ustida ishlay boshlaydi [1].

S.Mutallibov «Devon»dagi ko'pgina so'zlarni izohlashda o'zbek tilida yaratilgan tarixiy asarlar, xususan, Alisher Navoiy asarlari, shuningdek, o'zbek shevalaridagi so'zlar bilan qiyoslaydi. Lug'atdan o'rin olgan so'zlarning hozirgi

o'zbek tilidagi qo'llanishi, uning fonetik va semantik jihatdan o'zgarishini ko'rsatib beradi. «Devon»ning boshqa tillarga qilingan tarjimalarida deyarli bunday holat kuzatilmaydi. «Devon»ning o'zbek tilidagi tarjimasi keng mutaxassislar doirasi tomonidan e'tirof etilgan [2].

Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug‘atit turk” asari turkiy xalqlarning umumiy adabiy tilini ishlab chiqish va arablarga turkiy tilni o'rganishga manba bo'lishdan tashqari, tilning keng imkoniyatlarini ochib berish va nufuzini yanada oshirish uchun xizmat qildi. O'sha davr sharoitida arab tili ilm tili, fors tili adabiyot tili va turkiy til esa hokimiyat yuritish va turmushda qo'llanuvchi kundalik maishiy til hisoblanar edi. Mahmud Koshg'ariy “Turkiy tillar devoni”ni tuzishda butun turkiy tillarga qardosh bo'lgan bir adabiy til normasi asos qilinishi shart ekanligini va arablarga turkiy tilni tanishtirishda, albatta, ana shunday vakillik xarakteridagi tilni tuzishi zarur ekanligini yaxshi tushungan.

O'zbekiston tarixi, sporti, madaniyati, geografiyasi, tibbiyoti, o'zbek tili, adabiyoti, folklori, shevalari kabi qator masalalar tarixi va shakllanish bosqichlari o'rganilish jarayonda sohada qo'llaniladigan atamalar haqida talabalarga ma'lumot berishda bevosita «Devon»dagi materiallarga murojaat qilinadi.

O'zbekistonda «Devon» bo'yicha amalga oshirilgan dastlabki ilmiy ishlar tarixi muallifi ma'lum bo'lmagan bir qo'lyozmaga borib taqaladi. U O'zbekiston Fanlar akademiyasining qo'lyozmalar fondida 5046/1 inventar raqamli «Devonu lug‘ot» so'zlari uchun fihrast» sarlavhasi ostida saqlanmoqda. Qo'lyozma 231 sahifadan iborat bo'lib, oddiy daftarga qizil va ko'k siyohlarda yozilgan. Qo'lyozmada «Devon»ning arabcha nashridagi 6500 tacha turkiy so'z alifbo asosida ko'chirib yozilgan, har bir so'z qaysi jildga, sahifada ekanligi ko'rsatilgan. Ushbu qo'lyozma nafaqat O'zbekistonda, umuman, balki turkiyshunoslikda «Devon» bo'yicha tuzilgan dastlabki indeks-lug‘at bo'lib, 1924-1925 yillarda tuzilgan [3].

Abdurauf Fitrat o'zining bir necha asarlarida «Devon»ga munosabat bildirgan, o'zbek tili tarixining bevosita shu asarga borib taqalishini birinchi bor qayd etgan. Fitrat «Sarf» asarida «Devon» tili «Qutadg‘u bilig», «Hibat ul-haqoyiq» va Ahmad Yassaviy hikmatlari tili bilan juda yaqinligi, keyinchalik chig‘atoy tili

deb nomlangan tilga asos bo'lganligini qayd etgan. Olim bunday fikrni «Eng eski turk adabiyoti namunalari» asarining «So'z boshi»sida ham alohida urg'ulab o'tgan: «Sarf»imning boshlang'ichida yozganim kabi xoqoniy turkchasi yoki turkcha atalgan mana shu adabiy shevaning besh asr keyingi shakli chig'atoychadir... Bu shevaning eng eski namunalarini bizga «Devonu lug'otit turk» kitobi beradir»[4]. Olim «O'zbek adabiyoti namunalari» nomli majmuasida «Devon»dagi she'riy parchalardan namunalar keltirib, ularni hozirgi o'zbek tiliga uyg'unlashtirgan, tushunish qiyin bo'lgan so'zlarga izoh bergan [5].

Fitratning «Devon» bo'yicha amalga oshirgan muhim ishlaridan biri «Eng eski turk adabiyoti namunalari»dir. Asar uch qismdan iborat bo'lib, birinchi qismda 4 qatorli, ikkinchi qismda 2 qatorli she'rlar berilgan, uchinchi qismda esa ba'zi so'zlar, so'zlarning grammatik xususiyatlari izohlangan. She'riy parchalardagi so'zlar «Qutadg'u bilig», «Hibat ul-haqoyiq», «Muqaddimat ul-adab» va eski o'zbek adabiy tilining boshqa asarlaridagi leksik birliklar bilan qiyoslangan.

O'zbek tilini sohaga yo'naltirib o'qitishda Til va yozuv masalalari, Yozuv haqida umumiy tushuncha, O'zbek yozuvlari tarixi, O'zbek yozuvlarining rivojlanish bosqichlari haqida talabalarga Qadimgi turkiy-run yozuvidagi yodgorliklarini, moniy va eski uyg'ur-turk yozuvidagi yodgorliklarni, Qoraxoniylar sulolasi davrida yaratilgan yozma yodgorliklarni asl manba sifatida ko'rsatish mumkin. Mazkur turkiy yozma yodgorliklar hududiy jihatidan va maqsadiga ko'ra turlichadir. Ammo hamma yodgorliklarning til xususiyatlarini birlashtirib turadigan bitta omil shuki, XIII asrgacha qadimgi turkiy yozma yodgorliklar tili ayni paytda mahalliy dialektlar vazifasida ham bo'lgan.

Talabalarga O'zbek tilini sohaga yo'naltirib o'qitishda tilning jamiyatda tutgan o'rni, fonetik, leksik-semantik me'yorlar, o'zbek shevalarini qo'llanishi haqida ma'lumot berishda «Devon» tilining o'zbek shevalariga aloqasi, fonetik hodisalar, grammatik, leksik va leksikografik xususiyatlari, ayrim sohalar atamallari, turkiy tillarning tasnifi, «Devon»dagi uyg'ur yozuvi haqidagi ma'lumotlar, adabiy tilning yuzaga kelishidagi o'rni, nutq fe'llari, asar nashri va noshirlari, toponimlar, Mahmud Koshg'ariyning lingvistik qarashlari, qadimgi turkiylar poeziyasi, o'zbek

xalqining shakllanishi, asarning topilishi, tarjimalari va o'rganilishida «Devon»dagi dalillarga suyanadi.

Mahmud Koshg'ariyning «Devon»idagi ma'lumotlardan keng foydalanadi. Ayniqsa, Istanbul universitetida «O'rta Osiyo turkiy xalqlari tarixi» mavzusida o'qigan o'n ikkita ma'ruzasida, 1926-1927 o'quv yillarida Toshkentda o'qigan «Turk-mo'g'ul xalqlari tarixi» kursida «Devon» ma'lumotlaridan unumli foydalangan [6].

Tatar olimi Jamil Validov «Devon» to'g'risida 1927 -yildagi maqolasi¹ hamda T.A.Borovkova «Devonu lug'otit turk»ning grammatik ocherki bo'yicha nomzodlik dissertasiyasida «Devon»dagi fonetik terminologiya, lab undoshlari, cho'ziq unlilar masalalariga bag'ishlangan maqolalarini e'lon qilgan [7]. «Devon»dagi adabiy manbalarni o'rganishda I.V.Steblevaning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. Olima «Devon»dagi she'riy parchalarni, maqol va matallarni adabiy manba sifatida o'rgandi[8], she'riy parchalarning tuzilishi, vaznini «Qutadg'u bilig» asari matni bilan qiyoslab chiqilgan.

Jahon tilshunosligida ilk bor tilshunoslikning bir necha sohalari, xususan, leksikografiya va qiyosiy, areal tilshunoslikda o'ziga xos ilk izlanishlar olib borgan Mahmud Koshg'ariyning ilmiy izlanishlari ham ayni shu davrda sodir bo'lgan. U Xitoydan to hozirgi Turkiyagacha bo'lgan hududlarni kezib chiqdi va ushbu hududda yashovchi barcha turkiy qabilalarning til xususiyatlarini o'rgandi, natijada, kunimizga qadar yetib kelgan “Devoni lug'atit turk” nomli lingvistik asarini yaratdi. Shuning uchun bu manba eski turkiy til davrini o'rganishda o'qituvchi va talabalar uchun eng qimmatbaho manba bo'lib qolmoqda.

Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asari bir necha tillarga tarjima qilingan. Bu tarjimalar, jumladan, o'zbekcha tarjimasining amalga oshirilishi biz uchun juda quvonarli holga aylandi. Biroq har qanday tilda qilingan tabdil va tarjimada g'alizliklar mavjud bo'lishi mumkin va shunday sababga ko'ra “Devonu lug'otit turk”da ham bo'lishi tabiiy, chunki asardagi turli sohaga oid

atamalarning mazmuni va mohiyati turlicha berilgan o‘rinlar ham mavjud. O‘zbek tilini sohaga yo‘naltirib o‘qitishda endigi vazifalari Mahmud Koshg‘ariy asarining talaba yoshlar o‘rtasida asl mohiyatini to‘la ochib berishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmud Koshg‘ariy. Turkiy so‘zlar devoni (Devonu-lug‘ot it-turk) / Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. M. Mutallibov. 3 tomlik. – T.: Fan, 1960–1963
2. Qayumov A. Qadimiyat qomusi // Sovet O‘zbekistoni. 1966 yil 27 iyul; Кононов А.Н. Изучение
3. Hasanov H. Mahmud Koshg‘ariy (hayoti va geografik me‘rosi). – Toshkent, 1963. – b.18
4. Fitrat. Eng eski turk adabiyoti na‘munalari. – Toshkent, 2008. – b. 45
5. Fitrat. O‘zbek adabiyoti na‘munalari. – Samarqand, 1928. – b. 26-33, 68-70
6. Musaev I.S. Nutq ustida ishlash bola hayotining dastlabki davridan boshlanadi // “Milliy tarbiya va zamon” Respublika ilmiy-amaliy anjumani. 2020. 98-102 betlar.
7. T.Boltayeva, I.S.Musayev, M.O.Rakhimova Literary success—a product of combination with confirmation and denial. Journal of American Studies, 84 (2021), 4, 1816-1825.
8. Musaev, I.S. (2022). Linguistic and cultural approach to physical culture and sports lexemes in "Devoni lugotit turk" "Экономика и социум" №4(95) 2022 www.iupr.ru

ХУҚУҚНИНГ РИВОЖИДА ТИЛНИНГ АҲАМИЯТИ

*Бешимова Моҳичехра. CHDPI Gumanitar fanlar fakulteti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich talabasi.*

*Ilmiy rahbar: Q. Mo‘ydinov, dotsent,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD.*

Аннотация: Мақолада ҳуқуқ ва тилнинг ўзаро муносабати, ҳуқуқнинг ривожига тилнинг ўрни ва аҳамияти ҳамда уларнинг бир-бири билан боғлиқлиги тўғрисида фикр юритилади. Шунингдек, ҳуқуқ соҳасида, қонун

тизимидаги баъзи баҳсли ўринларга тилшунослик нуқтаи назардан муносабат билдириб, айрим фикрлар билдирилди.

Аннотация: В данной статье исследуются взаимосвязи и взаимоотношения права и языка. Адекватные лингвистические рекомендации также предоставляются по спорным вопросам в рамках правовой системы.

Мустақил давлатимизнинг маданий, иқтисодий, ижтимоий, сиёсий ҳуқуқий тараққиётнинг кун сайин юксалиб бориши, албатта, ҳукумат томонидан пухта тузилган режалар ва унинг амалдаги натижаларининг самарасидир. Мамлакатимизда юз бераётган янгиланиш ва ўзгаришлар бевосита жамиятимизнинг барча соҳалари сингари суд-ҳуқуқ тизимига ўз таъсирини ўтказмай қолмади. Шундан келиб чиқиб, юрислингвистика, юридик лексика ва терминология соҳаси бўйича баъзи мулоҳазаларимизни билдириб, сизлар билан фикрлишиб, юридик терминологияда қўлланиб келинаётган айрим атамалар услубиятига доир таклифларимизни сизларнинг ҳукмингизга ҳавола қилмоқчимиз. Хато ва камчиликлар учун узр сўраган ҳолда, билдирилган муносабатлар учун олдиндан миннатдорчилик билдирамыз. Бугунги кунда мустақил орган сифатида эътироф этилаётган Суд тизимининг ўрганилиш объекти бу инсонлар ҳаётига бевосита дахлдор бўлган қонунлар маҳсулидир. Аҳамияти жиҳатидан жуда долзарб бўлган ушбу йўналишда ҳозирги кун талабидан келиб чиққан ҳолда ҳеч қандай номутаносибликларга йўл қўймаслик давр талабидир. Фуқароларнинг ҳуқуқий ҳимоясини бевосита таъминлаш, уларнинг эркин ва фаровон турмушини кафолатлаш мақсадида қонунлар жорий қилинади. Бугунги кун талабидан келиб чиққан ҳолда соҳада маълум ўзгаришлар ҳам қилинди. Юридик тил, қонун тили каби атамаларнинг ҳозирги кунда нутқимизда қўлланилиб келаётгани ҳам бежиз эмас. Қадимдан ҳуқуқшунослар мавжуд қонунларни халққа қандай усулда етказиш борасида турли тўхтамларга келишган. Бунга сабаб ахборот узатиш усулларининг хилма-хиллиги ҳамда улар орасидан энг мақбулини танлаш тўғрисида баҳс-мунозаралар олиб борилганлигидадир. Тузилган қонунлар унга амал қилувчи шахслар учун

тушунарли, аниқ, ўзига хос ҳукми ифода қилиши керак. Қонун ижодкорлигида жаҳон ҳамжамияти томонидан тан олинган тартиб-қоидалардан кенг фойдаланилса, қонунларнинг шакл ва мазмунида ҳеч қандай эътирозга сабаб бўлувчи ҳолатлар учрамайди. Тилшуносликнинг замонавий йўналишлари орасида “Юрислингвистика” деб номланувчи шундай соҳа мавжудки, мазкур йўналиш юқорида таъкидлаганимиз ҳуқуқ ва тилнинг ўзаро муносабатини ўзининг ўрганиш объекти сифатида қабул қилган. Ўтган асрнинг 80-90-йилларида ҳуқуққа бўлган талабнинг ортиши натижасида ҳуқуқшунослик ва тилшунослик фанлари доирасида янги йўналиш “Юрислингвистика” вужудга келди. Ҳозирда ушбу йўналиш алоҳида фан сифатида шаклланиб, унинг ўрганиш соҳаси қилиб қонун тили мезонлари ишлаб чиқилган. Ҳуқуқ ва тил доирасида олиб борилаётган амалий ишлар ўз самарасини кўрсатмай қолмади. Юрислингвистика замонавий йўналиш бўлишига қарамасдан, бу соҳадаги изланишлар анча аввал “илдиз ота бошлаган”. Бир қанча тилшунос олимлар томонидан амалда мавжуд бўлган қонунлар ўрганилиб, бу борада ўз фикр-мулоҳазаларини билдирганлар. Қонун тилининг лингвистик жиҳатдан ўрганилишини вазиятнинг ўзи тақозо қилган эди. Сабаби, сотсиалистик тузум даврида қонунларнинг ўзбек тилига таржима қилинишида қонуннинг моҳиятидан келиб чиқиб эмас, қонунда мавжуд сўзларнинг тўғридан тўғри ўзбек тилига таржима қилиниши оқибатида аслида англашинилиши керак бўлган мазмун ўзгаришига олиб келинган. Таржима қилишдаги номутаносибликлардан ташқари, айрим мурожаат шакллари айнан русча шаклда олиб борилган. Ўзбекистон Республикаси мустақилликка эришган санадан бошлаб, қонуншунослар зиммасига долзарб вазифа юкланди, яъни эндиликда янгича тизимда ўзбек миллий ҳуқуқ эталони(андозаси)ни тузиш масаласи ўртага ташланди. Шунингдек, амалдаги қонун ҳужжатларини уларнинг таркибида муомалада бўлиб келаётган рус тилидаги сўз ва иборалардан “тозалаш” энг асосий вазифа эди. Соҳа ривожини учун олиб борилаётган ҳаракатлар кишини қувонтиради, албатта, шунинг баробарида қонунларда истёъмолда бўлиб келаётган айрим терминлар қайта ислоҳ

қилишни талаб қилмоқда. Ўзбекистон Республикаси Жиноят протсессуал кодексида қўлланилиб келаётган *мурда, юзлаштириш, тамомлаш, малакалаш* каби тушунчалар ҳозирги кунга қадар қонун ҳужжатларида ўзининг ҳуқуқий асосига эга. Шунингдек, Жиноят протсессуал кодексининг 18-боби “Мурдани эксгуматсия қилиш” деб номланади. Бу ерда ифодаланган мурда тушунчаси анча салбий бўёққа эга бўлиб, маҳаллий аҳоли тилида фойдаланилган, ўлган жонсиз кишига нисбатан қўлланувчи лектик бирликдир. Мурда тушунчаси ҳозирда нутқда деярли қўлланмайдиган, фақат айрим қонун ҳужжатларида муомалада бўлиб келаётган термин ҳисобланади. Мазкур атаманинг ўрнига “жасад” тушунчаси қўлланса, қонуннинг ифодалилиқ сифатини оширган ва қўлланиш доирасини анча кенгайтирган бўлар эди. Қонунларнинг ифодаланилаётган моҳиятига мос терминларнинг танланиши борасида тилшунослар ўз таклиф ва тавсияларини беришган: оқловчи, ҳимоячи, қораловчи, айбловчи, малакаламоқ, сўрайман каби сўзларни ишлатиш мақсадга мувофиқ эмаслиги, уларнинг ўрнига адвокат, прокурор, квалификация қилмоқ, талаб қиламан кабиларни қўллаш мақсадга мувофиқлиги таъкидланган. Тузилажак қонунларнинг мазмун-моҳияти билан биргаликда унинг имловий жиҳатдан тўғри қўлланишига ҳам эътибор бериш талаб қилинади. Lex.uz да яъни Қонун ҳужжатларининг базасида:

- 2536 та ҳужжатда **захира**;

- 96 та ҳужжатда **заҳира**; сўзи қўлланган.

Хўш, ушбу сўзларнинг қайси бири имловий жиҳатдан тўғри ҳисобланади. Ўзбек тилининг имло луғатида сўзнинг ягона шакли сифатида **захира** қабул қилинган. Амалда қабул қилинган имло қоидаларига риоя қилинган ҳолда қонунлар шакллантирилса, ҳеч қандай хилма-хилликка йўл қўйилмайди. Яна бир жиҳат эътиборни жалб қиладики, бу жиҳат терминлар қўлланишидаги турличаликдир. Хусусан, суд жараёнида жиноят содир қилган шахсга нисбатан бугунги кунда уч хил мурожаат шакли мавжуд. Булар судланувчи, айбланувчи, гумон қилинувчи терминларидир. Ҳуқуқшунослик жиҳатидан олиб қараладиган бўлса ҳар учала термин ҳам учта шахсга

нисбатан қўлланувчи турли маъно-мазмун англатувчи тушунчалардир. Тилшунос олима М.Қосимованинг “Ўзбек юридик терминологиясининг таркибий тузилиши “деб номланган диссертациясида юридик терминлар тузилиши жиҳатидан таҳлил этилиб, уларнинг ясалиш йўллари ҳақида маълумот берилади. Тадқиқот соф филологик нуқтайи назаридан ёритилади. Шунинг учун айрим юридик терминларнинг семантик маънолари юридик жиҳатдан тўғри изоҳланмайди. Жумладан, олима ўз кузатишларида судланган-маҳкум, судланувчи-айбланувчи каби терминларни жуфт (ҳар доим бирга қўлланиб, бир маънони англатувчи) терминлар сифатида талқин этади.

{1.1.} Судланувчи- жиноят протсессиди судга берилган айбланувчи;

Гумон қилинувчи- жиноят содир этгани тўғрисида маълумотлар бор бўлса-да, бу маълумотлар уни ишда айбланувчи тариқасида иштирок этишга жалб қилиш учун етарли бўлмаган шахс; Айбланувчи- Жиноят протсесуал кодексида белгиланган тартибда айбланувчи тариқасида жиноят ишида иштирок этишга жалб қилиниши ҳақида айблов қарори чиқарилган шахс; Мазкур терминлар моҳияти турлича талқин қилинса-да, суд жараёнида адвокатлар ҳимоя нутқларида уларнинг қўлланишида номутаносибликлар кўзга ташланади. Адвокатлар ўз ҳимоя нутқларида жиноят содир этган шахсга нисбатан ихтиёрий равишда судланувчи, айбланувчи ёки гумон қилинувчи терминларини амалда қўллаб келмоқдалар, айрим вазиятларда эса бу учала терминдан ҳам фойдаланмасдан, шахснинг ўз фамилияси билан мурожаат қилиш шакли ҳам мавжуддир. Юқоридаги каби ҳолатлар юзага келмаслиги учун, қонуншунослардан соҳага оид билимларнинг етук мутахассиси бўлишини ҳамда ишлаб чиқиладиган қонунларнинг моҳиятини тилшунослик жиҳатидан ҳам тадқиқ қилинишини талаб қилади. Юридик соҳа вакиллари билан билимларини ошириш жараёнида уларда тилшунослик кўникмалари ҳам шакллантирилиб борилса, келтириб ўтган мулоҳазаларимиз ўзининг мақбул ечимини топган бўлар эди. Жамиятда соф ҳуқуқий муҳитни юзага келтириш учун ,албатта, ҳуқуқшунос ва фуқаролар ўртасида мунтазам алоқа йўлга қўйилиши зарурий эҳтиёждир. Жамиятда қонун устуворлигини

таъминлаш учун нафақат юридик соҳа вакилларининг фаоллиги, балки аҳоли томонидан ҳам атрофда юз бераётган ўзгаришларга бепарқ бўлмасдан, ҳар бир сиёсий масалага огоҳлик билан ёндашиш талаб қилинади. Хулоса ўрнида айтиш жоизки, ҳуқуқ ва тил доимо биргаликда шаклланган ҳамда бир вазиятда ривожланган бутунликдир. Уларнинг алоқаси бўйича турли хил қарашлар, турлича фикрлар бўлишига қарамасдан давр талаби нуқтайи назаридан келиб чиқиладиган бўлса, ҳуқуқнинг тилга, тилнинг ҳуқуққа бевосита таъсири фақатгина уларнинг тараққиёти учун хизмат қилади. Бугунги кунда Юрислингвистиканинг тадқиқот марказида кишилиқ жамиятида инсонлар онгига ҳуқуқнинг ҳаётимиздаги ўрни ниҳоятда беқиёс эканлигини сингдириш ва фуқаролардан ушбу йўналиш тараққиёти учун ўзларининг иштироки билан муносиб ҳисса қўшишга ундаш асосий ўринда туради. Зеро, қонунчилик тизимининг муносиб йўлга қўйилиши, аҳоли тинчлиги ва фаровонлигининг кафолатидир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Кўчимов Ш.Н “Юридик тил назарияси ва амалиёти “ Тошкент-2013
2. Мўйдинов Қ.А “Ўзбек тилида суд нотиклиги лексикаси “ Тошкент-2015
3. Лех.уз ҳамда утек.уз сайти
4. Ўзбекистон адвокатлари ҳимоя нутқлари Адолат-2008
5. Ўзбекистон Республикаси Жиноят протсессуал кодекси
6. Икромов Р. А & Мўйдинов Қ. А. (2021) ХУҚУҚ ТИЛИ ВА НУТКИ Academic research in educational ssienses 2(9), 719-727
7. А Мўйдинова (2021) Ўзбек миллий уйғониш адабиётида мувашшахлик Academic research in educational ssienses, 2(11), 1219-1224

II SHO‘BA. JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASIGA OID TERMIN VA ATAMALARNING QO‘LLANILISHI.

ЖИСМОНИЙ МАДАНИЯТ (ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТ) СОҲАСИ ТУШУНЧА ВА АТАМАЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС БАЪЗИ ХУСУСИЯТЛАРИ.

*Ҳамроқул Рафиев, ЖТВСМҚТМОИ
Самарқанд филиали профессори.*

Ўзбекистон Республикаси президентининг 2019-йил 21-октябрдаги “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармонида: “Халқимизнинг кўп асрлик маданий, илмий-марифий ва бадиий тафаккури, интеллектуал салоҳиятининг ёрқин ва бебаҳо маҳсули бўлган ўзбек тили жаҳондаги бой ва қадимий тиллардан биридир” деб кўрсатилган.

Жисмоний маданият соҳаси ҳам ҳар қандай соҳа каби, ўзининг ўзбек тилидаги бой тушунча ва атамаларига эга бўлиб келган. Жумладан, “бадан тарбия”, “улоқ кўпкари”, “пойга”, “батба”, “югуриш”, “сакраш”, “отиш”, “улоқтириш”, “найзабозлик”, “қиличбозлик” ва ҳ.к.

Ўзбек тилидаги жисмоний маданият соҳаси асрлар, йиллар давомида шаклланиб, ривожланиб, жаҳон жисмоний маданияти тушунча ва атамалари билан бойиб, уйғунлашиб, ҳозирги замон ҳолати даражасига етиб келди.

Жаҳоннинг етакчи ингилиз, рус, немис ва б. тилларида жисмоний маданият соҳаси тушунча ва атамалари замонавий спортнинг ривожига асосида мукаммаллашиб, соҳанинг илмий-назарий, услубий-амалий, ташкилий томонларидаги барча жараёнларини аниқ ифодаловчи воситага айланди.

Аммо унинг ўзбек тилидаги баъзи ўзига хос хусусиятлари етарли даражада илмий ўрганилмаганлиги сабаб, айрим муаммолар мавжуд бўлиб, ўз ечимини кутмоқда. Шунга мувофиқ ушбу илмий ишимизнинг мақсади,

мавзуга оид амалга оширилган илмий изланишларимизни қисқача баён этишдан иборат.

Илмий изланишларимизнинг таҳлили шуни кўрсатмоқдаки, ушбу мавзу бўйича В.А.Копецкий, А.Брыкин, А.Д.Новиков, Л.В.Банкевич, А.Ефименко, А.Абдиев, П.Ходжаев, Ў.Иброҳимов, М.Бобоёров, Ш.Бутаев, Р.Шониезов, М.Ҳ.Аҳмедова, М.С.Айходжаева, Л.М.Қодирова, И.Болтаева, Л.Шарипова, Б.Ҳудойқулов, О.Собиров, Ҳ.Нематов ва бошқалар томонидан илмий тадқиқотлар ўтказилиб хулосалари баён этилган жумладан, Л.Банкевич ўзининг илмий хулосаларида “Спорт” атамаларининг кўплиги ва уларнинг ўзига хослиги сабаб, мураккаб сўзлашув мавзуларидан бири эканлигини асослаб берган. Л.П.Копецкийнинг фикрича спорт атамалари ўқувчига бўлган сўз таъсири орқали, таълим жараёнидаги самарадорликни ошириш, исботланган ва ш.ў.

Бугунги кунда жисмоний маданият соҳасининг ўзбек тилидаги тушунча ва атамалари сон жиҳатидан, янги спорт турларининг кириб келиши сабаб, кун сайин ўсиб бормоқда. Улар ўзбек тилини ривожлантирувчи манбалардан бирига айланмоқда. Аммо уларни қўлланиш жараёнларини илмий ўрганиш етарли даражада амалга оширилмаяпти. Шунинг учун ҳам жисмоний маданият таълими жараёнларида, махсус ва оммабоп адабиётларида, ОАВ ҳамда сўзлашув ва б. жараёнларда турлихил чалкашликлар, ноаниқликлар учрамоқда, масалан: тўпни *“узатиш”*, *“узатма”*, *“ошириш”*, ёки ядрони *“итқитиш”*, *“улоқтириш”*, *“отиш”*, *“ташлаш”*, *“ирғитиш”*, ва ҳ.к.лар. Шунинг ҳам этирофи этиш керак-ки, жисмоний маданият тушунча ва атамалари жаҳоннинг турли мамлакатлар тилларидан кириб келиши сабаб, уларнинг баъзилари ўзбек тилида қўлланилса, масалан: *“югуриш”*, *“сакраш”*, *“улоқтириш”*, *“осилиш”*, *“тортилиш”* ва ҳ.к. баъзилари эса ўзбекча ва хорижий тил билан қўшиб ишлатилади, масалан: *“спортча юриш”*, *“финишга етиш”*, *“старт қолибчалари”*, *“турникда тортилиш”*, *“гимнастика машғулотлари”* ва ҳ.к. Яна баъзилари эса соф хорижий тилларда қўлланилади, масалан: *“дзю-до”*, *“футбол”*, *“баскетбол”*, *“волейбол”*, *“бейсбол”* ва ҳ.к.

Кўп йиллик илмий изланишларимиз жисмоний маданият тушунча ва атамаларининг соҳадаги жараёнларининг мазмун моҳиятини англашга хос хусусиятларига эга таснифланиши ҳам аниқланиб, улар бир неча гуруҳлардан иборат экан:

1. Шунинг ҳам эътироф этиш керакки, собиқ СССР даврида Ўзбекистонда жисмоний маданиятнинг барча жараёнлари: мактабгача, умумий ўрта, ўрта, олий таълим муассасаларидаги жисмоний тарбия дарслари, спорт тадбирлари, спорт мусобақалари, спорт машғулотлари, йиғинлари, оммавий спорт тадбирлари, ва ҳ.к.лар аксарият рус тилида амалга оширилган эди. Шунинг учун ҳам соҳадаги кўпгина тушунча ва атамалар ҳанузгача рус тилида ишлатилмоқда. Булар: “ядро”, “диск”, “канё”, “самбо”, ва б.

2. Маълумки замонавий спорт турларининг аксарияти мамлакатимизга жаҳоннинг турли мамлакатларидан кириб келган бўлиб, уларнинг кўпчилиги уша давлат тилидаги номлари ва атамалари билан қўллаб келмоқдамиз. Масалан: “дзю-до”, “бейсбол”, “трамполин”, “фосбери-флор”, “у-шу”, “карате” ва ҳ.к.лар.

3. Жисмоний маданият жараёнларининг хилмахиллигига мос бўлган тушунча ва атамаларнинг спорт турлари ва фанларига таалуқлиги.

3.1. Назарий фанларга оид билимларни ифодаловчи тушунча ва атамалар;

3.1.1 Умум-назарий, педагогик ва психологик фанларнинг тушунча ва атамалари: “Жисмоний маданият”, “Жисмоний тарбия”, “Жисмоний тайёргарлик”, “Ҳаракат амали”, “Спорт технологияси”.

3.1.2 Тиббий – биологик фанларнинг тушунча ва атамалари: “Спорт тиббиёти”, “Тиббий кўрик”, “Спорт физиологияси”, “Физиологик хусусият” ва ҳ.к.;

3.1.3 Спорт турлари фанларининг тушунча ва атамалари: “гимнастикани ўқитиш”, “енгил атлетика машқлари”, “спорт ўйинлари”, “баскетбол тўпи”, ва ҳ.к.;

3.1.4 Спорт иншоатларининг тушунча ва атамалари: “спорт зали”, “сузиш ҳавзаси”, “спорт майдони”, “ўйингоҳ”, “стадион” ва ҳ.к.;

3.1.5 Спорт жиҳозларининг тушунча ва атамалари: “*тўп*”, “*баскетбол тўпи*”, “*дастали от*”, “*гимнастик халқалар*”, ва ҳ.к.;

4. Жисмоний сифатлар ва уларни ривожлантирувчи воситаларнинг тушунча ва атамалари:

4.1. Умумий тушунчалари: “*Жисмоний сифатлар*”, “*Жисмоний сифатларни ривожлантириш услубиятлари*”, “*кучни ривожлантирувчи воситалар*” ва ҳ.к.;

4.2. Куч ва кучни ривожлантирувчи воситаларнинг атамалари: “*куч*”, “*куч спорти*”, “*огирлик машқлари*”, “*тош кўтариш*”, “*динамик куч*” ва ҳ.к.;

4.3. Тезкорлик ва уни ривожлантирувчи воситаларнинг атамалари: “*тезлик машқлари*”, “*енгилашган жиҳозлар*”, “*тезлик*”, “*тезланиш*”, “*қувлашмачоқ*”, “*қувлаш*”, “*тез югуриш*” ва ҳ.к.

4.4. Чидамдорлик ва уни ривожлантирувчи воситаларнинг атамалари: “*давомли машқ бажариш*”, “*чидамликни ривожлантириш*”, “*чидамлик машқлар*”, “*давомли югуриш*”, “*огир шароитда югуриш*”, ва ҳ.к.;

4.5. Чаққонлик ва уни ривожлантирувчи воситаларнинг атамалари: “*чаққонлик*”, “*чаққонликни ривожлантириш*”, “*бўгин ҳаракати*”, “*ҳаракат доираси*”, “*эпчил*” ва ҳ.к.

4.6. Эгилувчанлик ва уни ривожлантирувчи воситаларнинг атамалари: “*эгилувчанлик*”, “*эгилувчанликни ривожлантириш*”, “*бўгинлар*”, “*мушак чўзилувчанлиги*”, “*чўзилувчанлик*”, “*эгилиш*”, ва ҳ.к.

Илмий – тадқиқотларимизнинг таҳлили асосида қуйидагича хулоса қилиш мумкин:

1. Жисмоний маданият соҳаси тушунча ва атамалари ўзбек тилини ривожлантирувчи манбалардан бирига айланмоқда.

2. Жисмоний маданият соҳасига янги тушунча ва атамалари асосан хорижий мамлакатлардан кириб келаётган спорт турлари ҳисобига ўсмоқда.

3. Мамлакатимизда жисмоний маданият соҳасида тушунча ва атамалар асосан соф ўзбек тилида, ўзбек-хориж тилларида, соф хорижий тилларда қўлланилмоқда.

4. Ўзбек тилидаги жисмоний маданият соҳасидаги тушунча ва атамаларнинг баъзи хусусиятларининг етарли даражада ўрганилмаганлиги сабаб, уларни қўлланилишида ойрим ноаниқликлар, чалкашликлар учрамоқда.

5. Ўзбек тилидаги жисмоний маданият атамашунослигида, махсус илмий тадқиқотларни янада кенгайтиришга эҳтиёж сезилмоқда.

O‘ZBEK JANG SAN‘ATIDA QO‘LLANADIGAN ATAMALAR XUSUSIDA

*Ayxodjayeva Muborak Saidkarimovna,
O‘zDJTUSU, dotsent v.b.
Shermuhamedova Zarina, O‘zDJTUSU,
Sport o‘yinlari fakulteti talabasi*

Annotatsiya: Maqolada mualliflar o‘zbek tilida sport atamalarining qo‘llanishidagi muammolar ustida qisqacha to‘xtalib, o‘zbek jang san‘ati sport turida qo‘llanadigan so‘f o‘zbekcha atamalarga diqqatlarini qaratganlar. Ota-bobolarimiz jang texnikasi va harbiy uslublaridan iborat merosining bir necha yillar davomida o‘rganilishi ularning yuzaga kelishiga asos bo‘lganligini qayd etganlar.

Kalit so‘zlar: o‘zbek jang san‘ati, jang texnikasi, hujum usullari, himoya usullari, majmua, zarba, Sherdor holati, Vatan majmuasi, Qalqon majmuasi.

Аннотация: Авторы в статье затронули проблемы, связанные с использованием спортивных терминов в узбекском языке, и сосредоточили внимание на чисто узбекских терминах, которые применяются в узбекском боевом искусстве. Они отметили, что многолетнее изучение наследия наших предков, состоящего из боевой техники и военных методов, были основой для их возникновения.

Ключевые слова: узбекские боевые искусства, боевая техника, методы атаки, методы защиты, комплекс, удар, позиция “Sherdor”, позиция “Родина”, комплекс “Щит”.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida: “Globallashuv sharoitida milliy tilimizning sofliğini saqlash, uning lug‘at boyligini oshirish, turli sohalarida zamonaviy atamalarning o‘zbekcha muqobilini yaratish, ularning bir xil qo‘llanishini ta‘minlash dolzarb vazifa bo‘lib turibdi”, – deb ta‘kidlagan edi [1]. Chindan, tilimiz davlat tili maqomini olganiga chorak asrdan oshsa ham, ko‘pgina tor ixtisoslik sohalarida rus tilidan qabul qilingan yoki rus tili orqali kirib kelgan yevropacha atamalar keng qo‘llanib kelmoqda [2]. Jumladan, sport sohasida. Ammo o‘zbek jang san‘ati sport turi bundan mustasno, deb aytishga to‘la haqimiz bor.

Mazkur sport turi qonun-qoidalarini O‘zbekiston Respublikasi Taekwondo ITF federatsiyasi prezidenti, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan murabbiy, qora kamar 7 dan taekwondo sohibi, tajribali jang san‘ati ustasi Po‘lat Usmonov, shuningdek, O‘zbek jang san‘ati federatsiyasi faxriy prezidenti A.X.Nasirova tomonidan ishlab chiqilgan.

Ma‘lumki, turkiy xalqlar qadimdan o‘zlarining jangariligi bilan ajralib turgan, jang san‘ati turlari bu o‘lkalarda nihoyatda rivojlangan. U ota-bobolarimizdan qolgan buyuk meros bo‘lib, Temuriylar jang san‘atining zamonaviy ko‘rinishi hisoblanadi. Bu yangi yakkakurash zamirida “temuriylar jang usuli”, “qo‘l san‘ati”, “kurash”, “yetti tirsak” kabi usullarning eng sara, mukammal harakatlari mujassamlangan [3]. Ota-bobolarimizning jang texnikasi va harbiy uslublaridan iborat merosi bir necha yillar davomida o‘rganilib, ular boshqa jang tizimining eng samarali metodlari bilan boyitildi hamda o‘zbek jang san‘ati sport turining qonun-qoidalarini ishlab chiqildi.

Spot sohasidan yiroq bo‘lgan insonda bir savol tug‘ilishi tabiiy: jang san‘atida yigirmadan ortiq faol jang turlari mavjud, ular xalq ichida keng ommalashgan bo‘lsa,

yana bir jang turining nima keragi bor? Gap shundaki, o‘zbek jang san’ati tizimi bir qancha o‘ziga xos xususiyatlarga ega:

- bu aynan bizning millatimizga xos sport turu, unda o‘zbekona liboslar va o‘zbek tilidan foydalaniladi;
- bir vaqtning o‘zida ham himoya, ham hujum usullari qo‘llaniladi;
- bu sport turu yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun keng imkoniyatlar ochadi;
- huquq-tartibot idoralari va sport maktablarida o‘zbek jang san’ati elementlaridan foydalanish mumkin;
- bu yoshlarda tarixiy merosimizga qiziqish, buyuk ajdodlarimizga nisbatan ehtirom tuyg‘ularini uyg‘otish vositasi hisoblanadi [4].

O‘zbek jang san’ati zamonaviy jang san’ati bo‘lib, u o‘zbek xalqi va boshqa xalqlarga oid jang san’atlarining eng samarali tizimlari elementlari va an’analarini o‘zida mujassam etgan.

O‘zbek jang san’ati 5 yo‘nalishdan iborat:

- sport-sog‘lomlashtiruvchi (40 yoshdan kattalar uchun);
- qo‘l san’ati (3000 dan ortiq qo‘l harakatlari);
- temuriylar jang san’ati (pichoq, qilich, tayoq, nayza bilan ishlash);
- jang kurashi (kurash).

O‘zbek jang san’ati texnikasi – bir necha ming turli qo‘l, oyoq zarbalari, turli predmetlarni (qilich, pichoq, tayoq, uzun tayoq) otishlardan iborat.

O‘zbek jang san’ati sporti yoshlarni vatanga muhabbat, sadoqat ruhida tarbiyalashga yordam beradi. Buyuk ajdodlarimiz va O‘zbekistonning tarixiy shaxslari ismlaridan rasman himoya, hujum harakatlari va majmualarni atash uchun foydalanilgan. Musobaqa davomida albatta mamlakatning davlat ramzlariga katta e’tibor beriladi. Sportchilarning sport kiyimida milliy qadriyatlar aks ettiriladi [4].

2009-yil dekabr oyida Madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan o‘zbek jang san’ati sport turiga O‘zbekiston milliy sport turi maqomi berildi.

O‘zbekiston jang san’ati tarkibiga quyidagi musobaqalar kiradi:

I. O‘zbek jang san’ati sparringlari:

1. Bolalar va o'smirlar - 2 daqiqa muddatli 2 tur, tur o'rtasida 1 daqiqalik tanaffus bilan, shuningdek, 6 nafar sportchidan tashkil topgan jamoa uchun 2 daqiqalik 1 raund.

2. Kattalar - 3 daqiqa, tur o'rtasida va 6 nafar sportchidan tashkil topgan jamoa uchun 3 daqiqalik 1 raund, 1 daqiqa tanaffus bilan.

II. Musobaqada texnik harakatlar majmuyini namoyish qilish:

1. Individual yo'nalishda - 1 ishtirokchi.

2. Jamoaviy yo'nalishda - jamoa 6 ishtirokchidan tashkil topadi.

O'zbek jang san'atida qo'llanadigan atamalar o'ziga xos tarzda tanlangan, muallif ularning jarangdor, esda qolarli bo'lishiga e'tibor qaratgan [4].

Masalan, **Sherdor majmuasi** eng asosiylaridan biri bo'lib, u birinchi holat hisoblanadi, bunda qo'llar mushti tugilgan holida rostlab ko'tarilgan, oyoqlar orasi yelka kengligidan biroz kattaroq ochilgan va tizzalar sal bukilgan vaziyatda bo'ladi.

To'g'ri musht zarbasi: qo'llar mushti tugilgan, birinchi qo'l zarbasi uchun rostlangan holda oldinga chiqadi, ikkinchi qo'l himoya vazifasida qoladi.

Xanjar qo'l zarbasi: qo'l barmoqlari yozilgan, bir-biriga tegib tekis turadi, faqat bosh barmoq bukilgan holatda bo'ladi; bunda bir qo'l zarbaga tayyor, ikkinchi qo'l himoya vazifasida qoladi.

To'g'ri tep zarbasi: dastlab Sherdor, ya'ni tayyorlik holatida turiladi va bir oyoq ko'tarilib, zarba tizzadan chiqariladi; zarba nishonga tekkanidan so'ng oyoq o'z joyiga qaytadi.

Yarim yonbosh zarbasi: Sherdor holatidan bir oyoq ko'tariladi, oyoq uchlari orqaga burilib, tizzadan zarba chiqadi va bunda yerda turgan oyoq yon tomonga burilgan holatda bo'ladi.

Burama musht zarbasi: zarba beradigan qo'l mushti tugilgan holatda raqib yuzining jag' qismiga yo'naltirilgan bo'ladi, himoyadagi qo'l esa xanjar zarbasi kabi tutiladi. Ammo shuni ilova qilish lozimki, bunday zarbalarni amalga oshirishga faqat ko'rgazmali chiqishlardagina ruxsat etiladi, rasmiy musobaqalar chog'ida yuz qismiga zarba berish qat'iyan taqiqlanadi.

Yonlama zarba: Sherdor holatidan orqada turgan oyoq bilan oyoq kaftini ichkariga qayirgan holda zarba beriladi, bunda tizzalar bukilmaydi, tayanch oyoq biroz yon tomonga burilgan bo'ladi.

O'zbek jang san'atining yana bir qancha o'ziga xos majmualari mavjud. Masalan:

Vatan majmuasi. Bu majmua tarkibiga to'g'ri musht, to'g'ri tep, xanjar qo'l, yonlama zarbalari kiradi.

Qalqon majmuasi – bu majmua tarkibiga to'g'ri musht, xanjar qo'l, burama musht zarbalari kiradi.

Shuningdek, **Istiqlol, Barkamol avlod, Berdaq, Amir Temur** kabi majmualar mavjud [4].

Aslida, o'zbek jang san'atining mingdan ortiq zarbalari, demak, ularning mingdan ortiq atamalari mavjud bo'lib, bu atamalarning deyarli barchasi sof o'zbek tilida ekanligi bilan e'tiborga sazovordir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari tog'risida"gi PF-5850-sonli Farmoni. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 20.04.2019.06/19/5712/3034-son).
2. Ayxodjayeva M.S., Axmedova X.O. Русско-узбекский тематический словарь спортивных терминов. I и II части. Т., 2010 г.
3. <https://lex.uz/docs/-3171590>
4. <https://www.ziyouz.com>

O'ZBEK TILIDA SPORT PARAFRAZALARINING IFODALANISHI

*Sayfullayeva Zura Sayfiddin qizi,
Chirchiq davlat pedagogika instituti Gumanitar fanlar
fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 4-bosqich talabasi.
Ilmiy rahbar: f.f.d. prof. Ravshanxo'ja Rasulov,
Q.A.Mo'yidinov, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Annotatsiya: Parafrazalarning sport sohasiga oid matnlarda qo'llanilishi tinglovchi yoki o'quvchining ifodalanayotgan obyektga bo'lgan diqqatini oshiradi, nutqning jozibali, ta'sirchan bo'lishiga xizmat qiladi, tantanavorlik ruhini ifodalaydi. Sport parafrazalarining ko'payishi bevosita sport sohasidagi yangilanishlar bilan birga amalga oshadi. Ayni paytda, ular sport yutuqlarini ommaga keng yoritish uchun xizmat qiladigan muhim omillardan biri.

Kalit so'zlar: parafraza, sport parafrazalari, ta'sirchanlik, publitsistika, kontekstual parafraza, metafora, metonimiya.

Annotation: The usage at sport sphere paraphrases in speech and texts increases listener's and reader's attention to the object and serves to make the speech attractive and effective, represents ceremonial spirit. Expansion at sports paraphrases simultaneously happen with updating at sports sphere. Currently, they are the main factors that make sports achievements widely known to the public.

Keywords: paraphrasa, sports paraphrases, sensitivity, journalism, contextual paraphrase, metaphora, metonymia.

Ma'lumki, sport inson salomatligini mustahkamlovchi hamda davlatni dunyoga tanitadigan muhim omillardan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning "Sog'lom turmush tarzini hayotga keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish to'g'risida"gi farmonida ham sog'lom turmush tarzini hayotga keng tatbiq etish haqida bandlar mavjud². Bu kabi farmonlar ijrosini ta'minlash maqsadida amalga oshirilayotgan tadbirlarni ommaga havola etadigan axborotlar betakror tilimiz ifodasi bo'lmish nutqda namoyon bo'ladi. Zero, Prezidentimizning "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida keltirilgan "davlat tili sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish" vazifasida ham nutqqa e'tibor to'g'risida so'z boradi³.

² Sh. Mirziyoyev. "Sog'lom turmush tarzini hayotga keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish to'g'risida" PF –6099. 31.10.2020-yil

³ Sh. Mirziyoyev. "O'zbek tilining davlat tili sifatiagi nufuzi va maqomini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5850. 22.10.2019-yil

Nutq orqali yuzaga chiqadigan axborotlar OAVda berib borilar ekan, ular ma'lumotni keng miqyosda tarqatuvchi, bevosita tilimizga kirib kelgan yangi so'zlar, birliklarni – umuman olganda, uning ifoda imkoniyatini bor bo'yicha ko'rsatadigan vosita sifatida ahamiyatli. Axborotni ulashish mobaynida nutqimizning ta'sirchan ifodalaridan foydalanish muhim. Ana shunday ifodalardan biri parafrazalardir.

Parafraza predmetning ikkinchi nomi bo'lib, narsa-hodisalarning belgi-xususiyatlarini ochib beruvchi nutq jarayoni bilan bog'liq muhim stilistik vositalardan hisoblanadi. Ular nutqqa ulug'vorlik, ko'tarinkilik, ta'sirchanlik berishi bilan birga so'zlovchi yoki yozuvchining nutqqa jiddiy munosabatda bo'lishi, har bir so'zga e'tibor bilan qarashi uchun xizmat qiladi. Masalan:

Ayon bir xislatning bordini azaldan

Seni atamishlar uyg'onish fasli. (A.Oripov)

Parafrazalar, tabiiyki, publitsistikada keng qo'llanadi. Kuzatishlarimiz davomida biz sportga oid ko'plab parafrazalarni uchratdik hamda ularning sarlavha va matn tarkibida kelib emotsionalik, tantanavorlik ruhini ifodalaganining guvohi bo'ldik. Masalan: *Rossiya Federatsiyasining Yekaterinburg shahrida o'tgan professional boks kechasida o'zbekistonlik charm qo'lqop ustasi muvaffaqiyatli qatnashdi.* ("Sport" gazetasi) Bunday parafrazalar publitsistikada keng qo'llaniladi, ayniqsa, uning og'zaki ko'rinishida ham ko'plab uchraydi: *Jahonning eng yaxshi jamoalari ishtirokidagi bugungi o'yin murosasiz bahslarga boy bo'lmoqda.* (Futbol Tv) Bundan tashqari *sport malikalari-gimnastikachilar, millionlar o'yini-futbol, futbol qiroli-Pele* kabilarni ham uchratamiz.

Parafrazalar nutqda nutq birligi sifatida voqelanishiga ko'ra sof va kontekstual parafrazalarga bo'linadi⁴. Bunda sof parafrazalar hech qanday kontekstsiz muayyan tushuncha ifodalaydi. Masalan: *Aql gimnastikasi-shaxmat, O'zbek shaxmat yulduzi-R. Qosimjonov, raketka ustasi-tennischi* kabi.

⁴ I. Umirov. O'zbek tili parafrazalari. –T.1996.

Kontekstual parafrazalar esa muayyan matnga xos bo‘lib, shu matn uchun yashaydigan parafrazalardir. Masalan: *Mushketyorlar*, olg‘a!⁵

Har yili sentabr oyining ikkinchi shanbasida Xalqaro qilichbozlik kuni butun dunyo bo‘ylab keng nishonlanadi... (“Sport” gazetasi). Ushbu matn parchasini o‘qimay turib, *mushketyorlar* deyilganda, aynan, kim nazarda tutilayotganini anglash qiyin. Chunki sarlavha matnga ta’sirchanlik berish uchun qo‘llangan. Uni o‘qigach tarkibida qatnashgan so‘zning leksik ma’nosiga diqqat qilamiz va nima uchun *mushketyorlar* deyilayotganiga qiziqamiz. Bu qiziqish bizni beixtiyor matn bilan tanishishga undaydi. Matnni o‘qigach, undagi mushketyorlarning *qilichbozlar* ekanini anglaymiz. Demak, parafrazalarning sarlavhada qo‘llanishi ta’sirchanlikni ifodalaydi. Bu ijobiy hodisa, albatta. Umuman olganda, parafrazaning ushbu turi faqat sarlavhalar emas, balki teleko‘rsatuvlarning sport sharhlari, sport sohasidagi yangiliklar hamda gazeta nashrlari matnida ham salmoqlidir. *Konkida yuguruvchi sport-figurali uchish, patli koptok o‘yini-badminton*, kabi. Bunday parafrazalar vaqt o‘tib ommaga tushunali bo‘lib borgani sayin sof parafrazaga aylanadi. Masalan: *O‘zbekiston shaxmat yulduzi-Rustam Qosimjonov, to‘rt yillikning nufuzli musobaqasi-Olimpiada o‘yinlari* kabi.

Yana shu ham ahamiyatliki, sportga oid parafrazalar u bildirayotgan tushuncha bilan yonma-yon qo‘llanish holatlari uchraydi:

1. Bosh sovrinni o‘zbek farzandi Qosimovga shaxsan futbol qiroli Pele topshirgan edi. 2. Bugungi kunda nafis sport-gimnastika bilan shug‘ullanayotgan qizlarimiz soni ortib bormoqda. 3. Afsonaviy bokschilar-Klechko va Meyvezerlar janglari bilan tarixda o‘z o‘rniga ega. 4. Shtanga bilan do‘st tutingan Shahzod sog‘lom turmush tarzi targ‘ibotchilari-sportchilar qatoridan o‘rin egallash harakatida. 5. Vohaning shahar va tumanlaridan saralab olingan 67 nafar yosh “charm to‘p” ustasi-futbolchilar hozirda trenerlar qo‘l ostida musobaqaga hozirlik ko‘rmoqdalar. (Gazetadan) 6. Millionlar o‘yini-futbol endi to‘g‘ridan to‘g‘ri

⁵ “Sport” gazetasi. 37-son(7644) 2020-yil 15-sentabr

teleekranlaringizda!(Tv reklama) kabi. Bunda tinglovchi yoki o'quvchining diqqatini tortish maqsad qilinadi, tushunchaga nisbatan ekspressivlik kuchayadi.

Publitsistikada sportga oid axborotlar og'zaki va yozma shaklda berilishini o'zaro farqlaydigan bo'lsak, og'zaki nutq ko'rinishlaridan biri bo'lgan futbol sharhlari oldindan tayyorlanmagani uchun gap qurilishidagi xato va kamchiliklari ham anchagina bo'lishining guvohi bo'lamiz. Masalan, takrorlar hamda tugallanmagan gaplar. Shu bilan birga o'yin paytidagi qizg'in harakatlar sababli sharhlovchi emotsional-ekspressivlikka ega birliklardan ko'p foydalanadi. O'yinchilarga birgina shiddatli harakati uchun nutq payti yuzaga kelgan ta'sirchan kontekstual parafrazalarni qo'llaydi. Quyidagi jummalarni ko'ramiz.

Leonel Messi, zarba, yana Navas, yana Navas. Super darvozabon. Messi Navasga qarab hayron qoldi. Messi o'zi, chetlatilgan jamoadoshlari, chiqib ketgan ishtirokchilar uchun ham harakat qilmoqda.(Futbol Tv. 2018-yil 7-may. Real madrid va Barcelona uchrashuvi. 37-daqiqadagi sharh). Gap bir qarashda tushunarsiz, lekin shiddatkor zarba paytida aytilganini sezish qiyin emas: Navas Messi tomonidan yaqindan berilgan zarbani darvoza burchagida olib qoladi. Sharhlovchi bu holatda Navasga *super darvozabon* parafrasasini qo'llaydi. Bu orqali tinglovchi e'tibori mashhur futbolchi harakatidan chetlatilib darvoza burchagiga qaratiladi. O'yin sharhlarida bunday holatlar ko'plab uchraydi.

Tilning lug'at tarkibi ma'lum so'z turkumlariga bo'linadi. O'ylashimizcha parafrazalar ot turkumiga mansub. Negaki, ular bildirgan leksik ma'no shaxs, predmet hamda voqea-hodisani ifodalaydi.

Parafrazalarning sportga oid turlarini ifodalashda ma'no ko'chish turlarining ahamiyati katta. Bilamizki, metafora o'xshashlik asosida ma'no ko'chishi demakdir. *Sport malikalari (gimnastikachilar), shaxmat yulduzi (Rustam Qosimjonov)* kabilarda shaxsga xos belgi boshqa shaxs-narsadagi belgiga ko'chirilgan. Shu orqali parafraza vujudga kelgan.

Metonimiya o'zaro bir-biri bilan bog'liq predmetlardan biri ikkinchisining nomi bilan qayta nomlanishidir. Parafrazalarda predmet qayta nomlanayotgan vaqtda tasvirlab, izohlash orqali yuzaga chiqishi kerak. Bunday parafrazalarning

sportga oid turiga quyidagilarni kiritish mumkin: *To‘rt yillikning nufuzli musobaqasi*. Ushbu parafrazda “to‘rt yilda bir marta” bo‘ladigan musobaqa olimpiada o‘yinlariga aloqador ekanligini tushunamiz. *Charm qo‘lqop ustalari* birikmasidagi “charm qo‘lqop” bevosita u bilan mohir jang qiluvchi sportchilarga nisbatan qo‘llangan.

Ko‘rishimiz mumkinki, sportga oid parafrazalarning aksariyati sportchilarga qaratiladi va metonimiya asosida hosil bo‘lishi ko‘p uchraydi.

Demak, parafrazalarning sportga oid turlari ham nutqimizni jozibali, ta’sirchan bo‘lishiga xizmat qiladi. Ularning sport haqidagi matnlarda qo‘llanilishi tinglovchi yoki o‘quvchining ifodalanayotgan obyektga diqqatini oshiradi. Ularning ko‘payishi bevosita sport sohasidagi yangilanishlar bilan birga amalga oshadi. Ayni paytda, sport yutuqlarini ommaga keng yoritish uchun xizmat qiladigan omillardan bo‘ladi.

Nutqdagi ommalashayotgan kontekstual parafrazalarni keng o‘rganish, lug‘atlar tarkibidagi parafrazalar qatoriga kiritib ommalashtirib borish lozim bo‘ladi. Bu nutqimizning boyib borishida ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Mirziyoyev Sh.M. “Sog‘lom turmush tarzini hayotga keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish to‘g‘risida” PF –6099. –T, 2020.
- 2.Mirziyoyev Sh.M. “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5850. – T, 2019.
- 3.Rasulov R, Umirov I. O‘zbek tili tasviriy ifodalarining izohli lug‘ati. – T: O‘qituvchi, 1997.
- 3."Sport" gazetasi. 2020-yil 15-sentyabr soni.
- 4.Umirov I. O‘zbek tili parafrazalari: filol.fan.nomzodi...diss.avto-ref. –T.,1996.
- 5.Umirov I. O‘zbek tili parafrazalari. – T: TDPU, 2004.
6. Xalilova M. O‘zbek tili stilistikasi asoslari. Farg‘ona: “Farg‘ona” nashriyoti, 2009.

MINI-FUTBOL SPORT TURIGA XOS ATAMALARNING O'ZIGA XOSLIGI HAQIDA .

*Meliqulov Davronjon To'ychiyevich,
O'zDJTSU MSF-52-21-guruh magistri.
Ilmiy rahbar: O'zDJTSU dotsenti I.Boltayeva*

Annotatsiya: Ishda mini-futbol sport turiga xos atamalarning o'ziga xos xususiyatlari haqida, xususan, mashg'ulotlar jarayonida atamalardan to'g'ri foydalanish- o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi muloqotda atamalarning o'rni haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: mini-futbol, leksika, atama, nazariy ma'lumotlar, amaliy asoslar, mashg'ulot, faoliyat.

Аннотация: В статье рассматривается специфика мини-футбольных терминов, в частности правильное употребление терминов на практике - роль терминов в общении учителя и учеников.

Ключевые слова: мини-футбол, лексика, терминология, теоретические знания, практические основы, тренировка, деятельность.

Hozirgi kunda xorij va respublikamiz tilshunosligida termin va atamalarni tartibga solish masalasi har doimgidan ham dolzarb masalaga aylangan. So'nggi yillarda bu sohada ko'pgina yangi tadqiqotlar amalga oshirildi.

Maxsus atamalardan narsa, hodisa tushuncha va jarayonlarni qisqa nomlash maqsadida ko'pincha bilimlar sohasi, turli ishlab chiqarish faoliyatida foydalaniladi. Jismoniy tarbiyada, xususan, mini-futbolda atamalar katta o'rin tutadi. Leksika bulimi sifatida atamalar mazkur fan mazmuni, uning nazariyasi va amaliyoti bilan chambarchas bogliq. Mashg'ulotlar paytida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi muloqotni yengillashtiradi, mini-futbol sport turning nazariy va amaliy asoslarini tushunib olishlariga, soha bo'yicha adabiyotlar nashr etishda ya'ni mini - futbolchilar tezkor-kuch tayyorgarligini oshirishda harakatli o'yinlardan foydalanish uchun tushuntirishlarni soddalashtirishga yordam beradi. Bundan tashqari, mini futbol sport turi bo'yicha mavjud termin va atamalarga turlicha yondashuvlarni

bartaraf qilishga, o'quvchilarga o'rgatish jarayonida shu sport turiga xos atamalar juda katta vazifani bajaradi. Lo'nda va qisqa atamalar harakatlanish ko'nikmalarini shakllantirishga kerakli ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki, mini-futbol o'yini Oliy ta'limda "Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha tanlangan fanlar"da ham taqdim etilgan. Mini-futbol umumiy jismoniy tayyorgarlikning samarali vositasi sifatida jismoniy sifatlarni rivojlantirish va sportchilarning harakat tajribasini yuksaltirish maqsadida boshqa sport turlari sportchilari tayyorgarlik jarayonida ham qo'llaniladi.

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida "Mini-futbol" kursi dasturi o'yin texnikasi va taktikasini izchil o'rganishni o'z ichiga oladi. Talabalar futbol tarixi, mini-futbol nazariyasi va ushbu o'yinni o'qitish uslubini o'rganadilar, mustaqil ishlash, murabbiy-pedagogik, ilmiy va tarbiyaviy ishlar uchun amaliy jihatdan o'yin texnikasi, taktikasi, bilim, ko'nikmalarni egallaydilar. Sport o'yinlari turli xil harakat jarayoni va hissiy to'yinganligi bilan ajralib turadi. Xolbuki, yuqoridagi jarayonlarni maxsus atamalarsiz tushunishning also iloji yo'q, deb o'ylaymiz.

Futbolda, qolaversa, mini-futbolda uchraydigan «xavbek», «korner», «vinger» kabi iboralarni ko'pchilik juda yaxshi tushunadi. Lekin zamona zayli bilan paydo bo'layotgan ayrim xorijiy atamalar ham borki, ularning mag'zini chaqish unchalik oson emas. Masalan: avtobus - faqat himoyaga mo'ljallangan taktika bo'lib, futbol olamiga bu ibora Joze Mourinyo orqali kirib kelgan, Portugaliyalik mutaxassisning jamoalari o'z jarima maydonchalari atrofiga to'planib, raqib hujumchilariga bir qarich ham bo'sh hudud qoldirmaganliklar. «Avtobus» iborasidan Joze ilk marta 2004- yili «Portu»ga ustozlik qilgan davrida himoyaviy taktikani izohlashda foydalangan. Angliyaga ko'chib o'tganidan keyin «avtobus» mashhur bo'lib ketdi. Banka - zaxira o'rindig'i. Bu atamani mutaxassislar dengizchilar orqali futbolga kirib kelganligini qayd etadilar. Ular millionlar o'yinining asosiy targ'ibotchilari bo'lishgan va suv yo'llari orqali sayyoramizga tarqatishgan. Banka - dengizchilar qayig'ida o'rindiq vazifasini bajaradigan taxa.

Shuningdek, akademik eshkak eshuvchilar qayig'idagi harakatlanib turuvchi o'rindiqlar ham bankalar deyiladi.

To'qqizlik, uchlik, oltilik - darvozaning yuqori, o'rta va quyi burchaklari. Mashg'ulotlar paytida futbolchilarni darvozaning turli nuqtalariga zarba yo'llashga o'rgatayotgan murabbiy uni ma'lum hududlarga ajratib chiqqan.

«To'qqizlik» - yuqori burchak, «Oltilik» - quyi, «Uchlik» - o'rta burchak. Darvoza shartli ravishda 9ta kvadratga bo'lingan - har birida uchta kvadrat bo'lgan 3 qator kvadratlar 1dan 9gacha bo'lgan raqamlar bilan belgilanadi. Raqamlarning katta-kichikligi kvadratning murakkablik darajasini ko'rsatadi. Shu tariqa futbolchilarning kvadratlariga yo'llagan zarbalari baholab boriladi.

Bisikleta - to'pni o'z ustidan oshirib zarba berish. Ko'pchilik mutaxassislar bunday zarbani ilk marta braziliyalik Leonidas amalga oshirganini ta'kidlashadi. Bisikleta, ya'ni velosiped iborasi ham Braziliyada birinchi bo'lib futbol atamalari orasidan joy olgan. Darhaqiqat, to'pga zarba berish chog'ida futbolchining oyoqlari velosiped pedalini aylantirayotgandek harakatlanadi.

Gorchich - sariq kartochka. Kishilarga shamollash xastaligidan forig' bo'lishga yordam beradigan shifobaxsh qog'ozning rangi sariq. Foydalanish chog'ida u bemorning badanini qizdirib, noxush hissiyotlarni uyg'otadi. Hakam tomonidan ogohlantirilgan futbolchi ham o'yin qoidasini buzgani uchun shunday jazoga munosib, deb hisoblanadi.

Katenachcho - himoyaviy taktika. Italiya futbolining o'ziga xos xususiyati va futbol taktikasidagi muayyan davr. Asosiy e'tiborni himoyaga qaratish va bu yo'lda yengil qoidabuzarliklardan foydalanish evaziga «Inter» Elenio Errera rahbarligida o'tgan asrning 60-yillarida Yevropada hukmronlik qilgan. Katenachcho iborasi italyan tilida eshik zulfini, ochib bo'lmaydigan eshik ma'nolarini anglatadi.

Dribling - fintlar seriyasi. Inglizcha dribble iborasi to'pni olib yurish ma'nosini anglatadi. Biroq u futbol atamalari orasidan sun'iy ravishda joy olgan. Oksford lug'atidagi ma'lumotlarga ko'ra, ibora XVI asrda paydo bo'lgan.

U tomchi, tomchilamoq ma'nolarini anglatadi. To'p bilan muomala qilayotganda futbolchining qadamlar tezligi o'zgarib turadi va shu jihati bilan tomchini eslatadi

Sport o'yinlarining muhim xususiyati murakkab jamoaviy taktik harakatlardir. O'yinda muvaffaqiyatli ishtirok etish uchun o'yin texnikasini bajarish usullarini o'rganish yetarli emas. O'yinda vaziyatga mos ravishda atamalarni ishlatish juda muhimdir, ya'ni o'yinning taktikasini unga mos atamalar yordamida tushunish kerak. Atamalar o'quvchilarning fikrlashini rivojlantirishga, mavjud sharoitda yetarli ta'sirlanishlarga, sharoitlarga moslashishga yordam beradi, Kundalik hayotda ham mini -sport turi bilan mustaqil shug'ullanuvchilarning soha atamalarini bilishlari ulardan unumli va o'rinli foydalanishlariga ko'maklashadi.

Xulosa qilganda, talaba-yoshlarni jismoniy tarbiya bilan tanishtirish - sog'lom turmush tarzini shakllantirishda muhim omil. Shunday ekan, bu jarayondagi o'qituvchi-o'quvchilar o'rtasidagi muloqot hamda kishilarning mustaqil jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishi jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining tashkiliy shakllarini yanada takomillashtirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ta'lim vazifalarining ustuvorligi ta'lim va sog'lomlashtirish vazifalarining birgalikda ustuvorlik kasb etishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Toshkent. 1999- yil, Maxsus son.
2. Usmonxo'jayev T.S. Milliy va harakatli o'yinlar. Darslik. Toshkent. 2015-yil.
3. Usmonxo'jayev T.S. "Ertalabki badantarbiya" maktabgacha va kichik maktab yoshdagi bolajonlar uchun. Darslik. 2019-yil.
4. Usmonxo'jayev T.S. "Sport turlariga oid turdosh harakatli o'yinlar". Darslik. 2020
5. Ismagilov D. K., Boltayeva I.T. Futbol nazariyasi va uslubiyoti. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2022-yil.

TERMINOLOGY FOR UNDERSTANDING OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORT

*Ismoilova Mamlakat Qurbonovna,
Teacher of Karshi State University.
Nuftillayev Bekzod Ubaydillo o'g'li,
Student of Karshi State University*

Annotation: The word, the term, written or spoken, is the most beautiful the value that civilization can create. Therefore, it can be said that special terminology of a particular professional area is her gem. This professional gem, specialized terminological dictionary reflects not only the present period of its development, but also all past centuries, throughout which it developed into the value of culture and civilization.

Аннотация: Слово, термин, написанный или произнесенный, – это самая прекрасная ценность, которую может создать цивилизация. Поэтому можно сказать, что специальная терминология той или иной профессиональной области является ее жемчужиной. Данная профессиональная жемчужина, специализированный терминологический словарь, отражает не только настоящий период ее развития, но и все прошлые века, на протяжении которых она развивалась в ценность культуры и цивилизации.

Annotatsiya: Sivilizatsiya yarata oladigan eng go'zal qiymat - yozma yoki og'zaki so'z, atama. Shuning uchun muayyan kasbiy sohaning maxsus terminologiyasi uning marvarididir deyish mumkin. Bu professional marvarid, maxsus terminologik lug'at nafaqat aks ettiradi uning rivojlanishining hozirgi davri, balki butun o'tgan asrlar davomida u madaniyat va sivilizatsiya qiymatiga aylandi.

A word, a term, written or spoken is the most beautiful jewel that a civilization can make. It can be therefore said that the specialized terminology of a particular profession – is its jewel. This professional jewel, specialized terminology, reflects not only its present time but also all the past ages it was developed through into a jewel of a culture and its civilizational value.

This also applies to the specialized terminology of physical culture that is, the terminology of physical education and sport. It is also the jewel which reflects the present and the past; its developmental path that has always been adjusted to the social circumstances and time it has existed in. Its terminology can provide insight into its development, rises and falls, turns to the prevailing "noble" ideas, inflow of foreign words into the body of the specialized terminology. Development of the specialized terminology for physical culture that is, physical education and sport includes not only deep consideration and proficiency but also good intentions to make improvements to the profession and not to the current geopolitical (in)conveniences.

It is therefore very important to emphasize that search and selection of a term which can indeed reflect the conceptual content in question is neither easy nor automatic. Moreover, if a good intention is missing, then various problems in communication can occur. The Latins described it very well: *Nomen est omen*.

Doubts about terms: physical culture – sport, physical education – sport education, physical exercising – physical activity, physical recreation – sport recreation are just some of the examples indicating that it is necessary to continue the development of the multilingual specialized terminology dictionary for our profession.

Our terminology issues reflected in proper, correct usage of the specialized terminology indicate not only possible misunderstanding in communication but also the need to standardize specialized terminology in the field. Standardization of the specialized terminology is certainly a hard and demanding process that includes proper skills and good intentions. Good intentions are particularly required when Eastern terminology collides with Western terminology, with apparently superior usage of Western terminology. This collision of "the East" and "the West" often results in the "sacrificed" specialized terminology of small speech communities. Specialized terminology divisions sometimes have positive effects because they indicate:

1. Different views of our profession;

2. Different definitions of concepts, particularly of high order concepts, complex concepts;

3. (Not) good intentions of those who are in charge of the specialized terminology.

In the first place, the listed effects can encourage experts with good intentions to learn contents of certain terms both from the West and the East in order to provide successful professional communication. This is the only way to avoid numerous terminology traps.

International conferences provide opportunities to identify not only different terminological references but also completely different concepts termed the same. This linguistic “polycentrism” can cause big misunderstanding within the profession. Therefore, international professional and academic conferences can (and should) provide an opportunity to indicate those language issues. Indeed, there are numerous issues.

The terms *physical education* and *sport*, particularly in Europe and the countries that follow European trends, cause a lot of professional misunderstanding because they refer to very similar conceptual contents. Changes in the conceptual content and in sport in particular, have been caused by (geo)political reasons in the first place.

Physical culture with its compounding is semantically referred to its conceptual framework. The framework encompasses man in addition to culture as a common human value created by his spiritual and material (physical) endeavours, approached through physical exercise viewed as blissful food essential not only for the body. Aims of physical exercising are certainly different in its different areas: *physical education*, *sport* and *physical recreation* but here, the humanizing of physical exercising is included.

Sport as well as its subordinated areas in terms of terminology (sport education, sport recreation, etc.) also focus on man. In order to understand this conceptual framework, one can refer to the Trilingual Dictionary of Sport Science. Here, sport is described as almost identical to physical culture. In fact, sport

reference is a brief version of the theory of physical culture. Little is said about agon which has been an integral part of sport since its ancient origins, which gives us the reason to argue that differences in terminology depend on (geo)political arguments in the first place.

In these compounds: *physical education and sport education*, which are intended to have the same (or almost the same) conceptual framework, their descriptors – *physical and sport* indicate a completely different approach.

In the phrase **physical education** – the descriptor physical indicates that physical exercise as blissful food can help man in his attempts to improve – in every sense. This is also referred to in an old Slavic word for education that implied nurturing as well. It can be therefore said that in physical education, *physical exercise* – as blissful food serves to nurture both the body and the spirit of a human being. And this is the most important aim of physical education.

In the phrase **sport education**, its descriptor sport clearly indicates sport and therefore agon which forms the basis of sport. Notwithstanding any possible (geo)political aspirations and spites, sport includes competition and desire to always excel and strive to be the best. This could have been entirely all right if sport had kept its previous connotations: health, education, socialization; unfortunately, sport has been adapted to the New Age and new connotations have emerged: money and achievements. Where those new connotations have found their way into schools, there the prevailing principle in the New Age – that everything is allowed – has also been enthusiastically embraced. This enthusiasm can promote a step forward into the wrong direction – both in school and society.

These compounds: *physical exercise and physical activity* often cause misunderstanding and miscommunication. Although they are sometimes used interchangeably, they essentially have entirely different conceptual frameworks.

Physical exercise is any planned, structured and purposeful bodily movement or activity done to improve psychophysical and locomotor abilities. In addition to this basic definition (in a very simplified form), at the same time, physical exercise represents blissful food essential for the human being. As with any kind of food,

physical exercise should be used and treated with due care. A “proper extent” or a “dose” should be specified for each individual. Only in this way, blissful food, physical exercise, can have positive effects.

Physical activity is also any bodily movement or activity done with an objective which does not necessarily involve improvement of psychophysical and locomotor abilities. Such activities usually include movements required to satisfy daily needs: reaching, grasping, throwing, skipping, walking, etc. It is only where all these activities have been done primarily to improve psychophysical and locomotor abilities that we can refer to physical activity in terms of our profession. However, this should be clearly emphasized. Misunderstanding and miscommunication are otherwise inevitable consequences.

The several examples we described above indicate that the specialized terminology forms a very important part of our profession and its significance can be seen in any professional communication, preparation of expert reports, announcements, research papers. This why we emphasize the following: it does matter how a concept is termed and how it is used, how to communicate concisely and clearly our opinions on certain subject matters, how to plan future tasks and objectives in our profession. Negligent use of words, terms, due to desire to be “modern” and “in” or lack of knowledge on the subject matter inevitably leads to misunderstanding and miscommunication. Moreover, a rash use of words gives us warning and makes us remember Hamlet’s cry: “Words, words, words!”

REFERENCES:

1. Andrews, C. John. (1979) *Essays on Physical Education and Sport*. Stanley Torns, Cheltnham.
2. Berar, Mirče; Milošević, Zoran. (2009) *Shool Physical Education among the Serbs in Vojvodina until 1914*. Faculty of Sport and Physical Education, Teachers’ College, Novi Sad – Sombor.
3. Большая энциклопедия. (1977) Moscow.


SPORT TOVAR VA XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING-MIKS TUSHUNCHASINI QO`LLASH

Eshanqulov B.A.

*O`zbekiston davlat jismoniy tarbiya
va sport universiteti*

Har bir savdo faoliyati bilan shug`illanuvchi korxona o`z tovar va xizmatlarini sotishda ma`lum bir qolip asosida amalga oshiradi. Bu jarayonda marketingdagi maqsadga erishish uchun mo`ljallangan ma`lum bir qoliplar va bajarilishi zarur bo`lgan ishlar ketma ketligi va jamlanmasi ishlab chiqilgan. Marketingda bu “marketing miks” yoki 4P deb ham yuritiladi. Ushbu jarayon ma`lum bir bosqichlar yig`indisi hisoblanadi. Ushbu bosqichlarni to`g`ri yo`lga qo`yish va amalda bajarish savdo hajmining ortishi va yangi bozor muhitiga oson kirib borish uchun xizmat qiladi.

Marketing-miks tushunchasini marketing nazariyasiga birinchi bo`lib 1964 yilda Garvard universiteti biznes maktabi professori Neyl Borden kiritgan. Marketologlar tayyorlash tizimida marketing kompleksi 4 «P» deb nomlanib, Djeremi Makkarti tomonidan 1960 yilda bu model taklif etilgan. Ushbu modelda marketingning to`rtta asosiy elementlari ajratib ko`rsatilgan: tovar (product), narx (price), joy (place), siljitish (promotion).



Bozorda mahsulot odatda ishlab chiqarilgan tovar sifatida tushuniladi, misol uchun, sportchi uchun kerak bo`ladigan buyumlar, sport maydonlari uchun kerakli uskunalar va boshqalar. Lekin mahsulot deb biz xizmatlarga ham nom bera olamiz. Shunday ekan, sport marketingida mahsulot deb tovar hamda xizmatlarga nisbatan ishlata olamiz. Sport sotuvchilari, eng avvalo, o`zlari sotmoqchi bo`lgan tovar ustida izlanish olib borishlari zarur bo`ladi.

Birinchi qadam mahsulot dizayni, uning alohida ajralib turuvchi jihatlari to'g'risida o'rganish. Mahsulot brendining qanchalik taniqliligiga qarab jarayon osonlashishi mumkin. Mahsulotning assortimenti ko'pligi ham savdo jarayonida ustunlik berishi mumkin. Kafolat taqdim etish bozorda mahsulot savdosining ustun bo'lishiga zamin yaratadi. Uning hayot siklini aniqlash ham keyingi bosqichlar uchun kerakli ma'lumotlar berishi mumkin.

Keyingi bosqichda narx siyosati amalga oshiriladi. Ushbu bo'lim 4P dagi firma daromadini belgilovchi qism hisoblanadi. Marketologning keyingi ishi sport tovar va xizmatlariga narx belgilashdan iborat. Korxonaning kelgusida rivojlanishi, asosan, ushbu jarayonning to'g'ri belgilanganligiga bog'liq. Faoliyatning boshlanish vaqtidagi amalga oshiriladigan chegirma va aksiyalardan tortib, kelgusidagi narx chizig'ining o'zgarishini kuzatgan holda to'g'ri narx qo'yish juda muhim omil sanaladi.

Bozordagi joylashuv mijozlarning tezda mahsulotni topishlari va unga yetishishlari uchun juda muhim hisoblanadi. Joylashuvni to'g'ri tanlash orqali mijozlarga qulaylik yaratiladi. Mijozga yetib borish tarmoqlarini to'g'ri tanlash va tarmoqlar orasida aloqalarni o'rnatish, joylashuv qarorini to'g'ri qabul qilish savdo keng ko'lamda bo'lishiga ko'maklashadi. Misol uchun oladigan bo'lsak, futbol sporti jamoasining kiyimlarini ushbu klub stadioni yaqinida sotish, zamonaviy fitnes zallarini insonlar ko'p harakatlanuvchi yo'l yuzlaridan ochish, sport anjomlari do'konlarini esa sport obyektlari yaqinida faoliyatini yuritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Yaxshi joylashuvni egallagan savdo obyektlari iste'molchilarni tezroq mijozga aylantira oladi. Mijozga aylangan insonlar esa ushbu brendni tezda bozorda o'z mavqeyiga ega bo'lishiga sababchi bo'lishadi.

Yaxshi joy tanlangandan keyin tovarni mavjudligini e'lon qilish vaqti keladi. Bunda, albatta, bizga targ'ibot ishlari yordamga keladi. Targ'ibot o'z ichiga reklama, PR, to'g'ridan - to'g'ri marketing va sotish targ'ibotini oladi. Biz birinchi P da tovar haqidagi ma'lumotlarni o'rganib chiqqan edik, oxirgi bo'limda esa biz yaratilgan tovar haqidagi ma'lumotlarning ijobiy tomonlari, mijozlar uchun qulayliklari, mijoz uchun qanaqa foyda keltira olishi haqida ommaga xabar

berishimiz kerak. Ushbu jarayonda reklamaning to'g'ri yo'naltirilganligi asosiy o'rin tutadi. Maqsadli auditoriyaning tanlanishi, unga eltuvchi yo'llarning eng to'g'risidir. Sport tovarlari reklamasida ham huddi shunday sportga qiziquvchilar auditoriyasini topish va reklamani yo'naltirish maqsadga muvofiq. Bu jihatdan xabarni ommaga yetkazish vositasini aniqlab olish kerak. Xabarlar tarqalishni boshlagandan so'ng savdo hajmining o'zgarishiga qarab xabarlarni namoyish qilish chastotalari(biron xabarni necha marta, qaysi vaqtda, qanday hajmda namoyish etish) belgilab olinadi.

Sport mahsulotlari bozorida yuqoridagi 4P ya'ni marketing-miksni amalda qo'llash orqali ko'zlangan natijalarga erishish birmuncha oson kechadi. Lekin, albatta, Pning barcha jarayonlarini to'liqligicha amalga oshirish orqali. Bu 4 ta jihat bir -biriga chambarchas bog'liq. Biror bo'limning to'g'ri tashkil qilinmasligi butun strategiyadan kutgan natija ololmaslik uchun sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.M.Qosimova, M.Yusupov va b. Marketing.O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.Toshkent, 2005-yil.
- 2.Yusupov M. Marketing.// Ko'rgazmali o'quv qo'llanma.Toshkent, 2001-yil.

SPORT TERMINOLOGIASINING AYRIM MASALALARI XUSUSIDA

Raximova Maloxat Alloberganovna, O'zDJTSU
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi

Annotasiya: Maqolada o'zbek terminologiasining ilmiy-nazariy asoslari, sohaviy terminologiya o'ziga xos rivojlanish bosqichlari, sport atamalarini tartibga solish jarayoni tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Sport, siyosiy-ijtimoiy, termin, atama, kognitiv, sosioprogramatik, konsepsiya, islohot, tilshunoslik, terminologiya, soha.

Davlat tiliga aylangan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zlik va mustaqil davlatchilik timsoli, milliy-ma'naviy boylik hisoblanadi. Qadimiy va boy tillardan

biri bo'lgan o'zbek tili mamlakatimizning siyosiy-ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotida muhim o'rin egallab kelayotgan buyuk qadriyatdir. Barchamizga ma'lumki, mamlakatimizda iqtisodiy-ijtimoiy, xususan jismoniy tarbiya va sport hamda ta'lim-tarbiya sohalarida tub islohotlar o'tkazilmoqda. Ularning samaralari "Jismoniy tarbiya va sport", "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va qabul qilinayotgan bir qator me'yoriy hujjatlarda o'z ifodasini topib, kishilarni ruhiy, ma'naviy qiyofasini va jismoniy qobiliyatlarini shakllantirishda qudratli vosita sifatida muhim rol o'ynamoqda. Shuningdek, jahon tilshunosligida terminlarni tartibga solish masalasi har doim ham dolzarb bo'lib kelgan va bugun ham bu masala o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Ayniqsa, so'nggi yillarda kognitiv terminologiya yangi tadqiqot yo'nalishi sifatida shakllanib ulgurdi. U kognitiv tilshunoslik usullarini ma'lum bir bilim sohasi terminologiyasi ortida turgan kognitiv tuzilmalarni tahlil qilishni amalga oshiradi. Sosiopragmatik jihatdan terminologiyani o'rganish, professional tajriba professional tafakkurga qanday ta'sir qilishini, bir kasb vakillari (sportchilar, sport jurnalistlari hamda muxlislar) atrofdagi voqelikni qanday tasniflashi, shuningdek ular uchun qanday tushunchalar asosiy ekanligini aniqlash hamda uni anglash va qo'llashning ijtimoiy xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Sport terminologiyasini o'rganishda har xil yondashuvlardan - to'g'ri terminologiyadan foydalanish sportning, sport maydonini tavsiflovchi maxsus bilimlar tuzilmalarining xususiyatlarini eng to'liq ko'rsatish imkonini beradi.

Tilshunoslikda terminologiya tadqiqi masalasida ko'plab qimmatli ishlar amalga oshirilgan bo'lib, jumladan sport sohasida ham talaygina ishlar qilingan bo'lsa-da, biroq bugungi kun talablari darajasida emas, "Chunonchi, tadqiqotchilar N.Zisman, Yu.Sholomiskiy, Yu.Kovalevlar tomonidan yaratilgan asarlarda O'zbekistonda jismoniy tarbiya madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi, sovet hokimiyatini jismoniy tarbiya va sport sohasida olib borgan siyosati yoritilib, bu muammoning ayrim qirralariga oid ayrim mulohozalar bildirilgan" Z.Abdullayevaning tadqiqot ishi sport sohasining tarixiylik nuqtai nazaridan o'rganilgan bo'lib, sport terminologiyasining tarixiy takomiliga tegishlilik jihati yoritilmagan.

Sport konsepsiyasi toifali bo'lib, murakkab, ko'p bosqichli deb tasniflanadi, chunki konsepsiyaning ko'lami va mazmuni sport sohasining butun konseptual tizimi bilan bog'liq va bugungi kunda sport haqidagi barcha bilimlarni o'z ichiga oladi. Ushbu konsyepsiya terminologiyada ko'plab verbalizasiyani oldi va sport faoliyatining asosiy mazmunini to'playdi, sport sohasidagi barcha boshqa tushunchalarni birlashtiradi. Konsepsiya mazmuni sport faoliyatining barcha turlarini birlashtirishni o'z ichiga oladi.

Etimologik jihatdan sport so'zi qadimgi lotincha *disportare* – “maza qilish” ga borib taqaladi. Qadimgi fransuz tilida fe'l *desporter* - «ko'ngil ochish, ishdan chalg'itish» ga aylandi, keyin so'z ingliz tiliga - *disport* - «o'yin-kulgi, o'yin-kulgi» ga kirdi, bu erda qisqartirish orqali yangi sport otlari paydo bo'ldi.⁶ Ko'rib turganingizdek, nom tahlil qilingan konsepsiyaning «o'yin» tushunchasi bilan bog'liqligini aniqlaydi, bu unchalik murakkab bo'lmagan ramka. Ushbu tushunchalar uchun umumiy bo'lgan ma'lum qoidalar g'oyasi, «natija» ning shartli tabiati, zavq bilan bog'liqlik.

Terminologiyaning fan sifatida shakllanishi tarixida rus tilshunoslari G.Vinokur, A.Ryeformaskiy, A.Lesoxin hamda P.Florenskiy tadqiqotlari milliy terminologiya maktabi faoliyatiga katta hissa qo'shganligi e'tirof etiladi. XX asr o'rtalarida terminologik kontekstda dunyo maktablarida, atamaning muhim xususiyatlari haqida paydo bo'ladigan nazariy munozaralar alohida ahamiyat kasb eta boshladi. U rus tadqiqotchisi va terminologi R.Piotrovskiy tashabbusi bilan yaratilgan bo'lib, bu munozarada qatnashgan olimlar, o'z navbatida, terminologiyani o'rganishning keyingi yo'nalishlarini aniqladilar. D.Lotte, G.Vinokur, A.Reformaskiy rus terminologiya maktabining asoschilari hisoblanadi. Terminologiya nazariyasiga poydevor qo'ygan g'arblik olimlardan, birinchi navbatda, avstriyalik olim Evgen Vyusterning ismi tilga olinishi kerak.

Atamalarning rivojlanishi, tartibga solinishi fanning har xil sohalarida turlicha bo'lib, ma'lum fanning taraqqiyotiga bogliq. Bu taraqqiyot to'xtovsiz

bo'lgani uchun yangi atamalarning kelib chiqishi, tartibi ham uzluksiz bo'ladi. Umuman, ona tilida atamalarning puxta ishlanishi, tartibiga solinishi darslik va qo'llanmalar tuzish uchun ham, ona tilida dars olib borish uchun ham zarur bo'lgan manbadir. Atamalarning ishlanmaganligi va tartibga solinmaganligi nutq uslubiga ham ta'sir ko'rsatadi. Demak, terminologiyaning tartibga solinishi nafaqat ilmiy sohada, balki ijtimoiy hayotda ham ahamiyati katta bo'lgan masaladir.

Chunki hayotda fan va texnika taraqqiyoti qanchalik katta ahamiyatga ega bo'lsa, uni egallash, boshqarish va taraqqiy ettirish uchun terminlar ham shunchalik muhim ahamiyatga molikdir. Shu jihatdan, terminlarni tartibga solish, uni turli jihatlariga ko'ra tadqiq qilish juda katta ilmiy va ijtimoiy ahamiyatga egadir. Fan-texnikaning tez sur'atlar bilan rivojlanib borishi natijasida yangidan-yangi mashinalar, apparatlar, asbob-anjomlar va texnologik jarayonlarning paydo bo'lishi bilan ularni ifodalovchi yangi terminlar ham vujudga kelayotganligi tabiiy hodisa bo'lgani holda yangi texnika vositalari qaysi sohaga ko'proq kirib kelgan bo'lsa, shu soha terminologiyasi to'xtovsiz ravishda kengayib bormoqda. Masalaning yana bir jihati shundaki, vaqt o'tishi bilan rivojlanib, xalqaro maydonda o'rni va nufuzi ortib borayotgan mamlakatlarning ta'siri ham bunga o'z hissasini qo'shmoqda. Misol sifatida O'zbek milliy kurash sportidagi "*Halol, chala, yonbosh*" kabi terminlarni keltirib o'tishimiz mumkin. Ko'pchilik hollarda yangi terminlar yaratish ishiga oddiy tarjima yoki kalkalash jarayoni sifatida qaraymiz. Terminologiyadagi mavjud kamchilik hamda tartibsizliklarning asosiy sabablaridan biri ham shundadir. Zotan, yangi termin yaratish har taraflama mukammal bo'lgan ijodiy jarayondir.

Bugungi kunda jismoniy tarbiya va sport tez rivojlanib borar ekan uni rivojlantiruvchi mutaxassislar, ya'ni murabbiylarni malakasini oshirib borish, zamonaviy talablar doirasida tayyorlash soha rivojidadagi asosiy masalalarni biri bo'lib qolmoqda. Shu jihatdan, jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini tayyorlashda termin va atamalarning mohiyatini anglashi, tushunishi, ularning yuritilishida o'ziga xos o'rganish muhim hisoblanadi. Bugun o'zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeyini oshirish maqsadida amalga oshirilayotgan tadbirlar jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid atamalar yuzasidan ham chuqur tadqiqotlar

olib borishni taqozo etadi. Jumladan, sport turlari, sportchilarning nomlari, harakatlar, usullar, holatlar, vaziyatlar, sport asbobuskunolari hamda anjomlarining nomlari, qoidabuzarliklar, xatolar, jazo turlari, sport inshootlari bilan bog'liq atamalar ustida izlanishlarni yo'lga qo'yish – davr talabidir.

Bu xalqimizning jismoniy tarbiya va sport sohasida o'zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomini mustahkamlashda juda katta yordami hisoblanadi. Ya'ni keyinchalik ushbu shug'ullanuvchilar orasidan mahalliy sportchilar, sportchilardan esa mahalliy murabbiylar safi yanada kengayib boraveradi. Bu esa chekka hududlarda murabbiylarni termin va atamalarni to'g'ri qo'llashni talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, insonning o'z Vataniga, ona tiliga ehtiromi, avvalo, oiladan, kerak bo'lsa, o'z onasiga mehr-muhabbatidan boshlanadi. Bosh maqsad Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq faravonligi bo'lmish milliy g'oyamizning kurashchanligini ta'minlashda mukammal ma'naviyat va ma'rifat hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Shu omilni esa ona tiliga bo'lgan muhabbat, davlat tiliga bo'lgan e'tibor va ehtirom shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Mahmud Koshg'ariy. Devoni lug'otit turk. 1-jild. T.: Fan, 1960. 102-b.
- 2.Винокуп Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии // Сборник статей по языковедению. - М., 1939. - С.224.
- 3.Kuldosheva N. O'zbek-fransuz tillarida sport terminologiyasining milliy-madaniy xususiyatlari dissertasiya avtoref.Buxoro. 2020. 52-b.
- 4.O'zbek tilining izohli lug'ati. –T.: O'zbekiston. 2020. 4-jild. 74-b.
- 5.O'zbek tilining izohli lug'ati. –T.: O'zbekiston. 2020. 5-jild. 554-b.
- 6.Шоломинский Ю.В. С. Физическая культура и спорт в советской Средней Азии и сопредельных странах востока. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, –1972. –25 с.
- 7.Ismoilov R., Norkin M. Ruscha va o'zbekcha sport -fizkultura terminlari izohli lug'ati. – Toshkent, 1961. –95 b.;

8.Реформатский А.А. Что такое термин и терминология? // Вопросы терминологии. М., 1961. С.121-122.

9.Рафиев Х.Т. Некоторые вопросы преподавания физической культуры в Узбекских школах. Автореф. дисс. ... канд.филол. наук.—Ташкент,—1972.—25 с.;

BASKETBOL O‘YINIGA DOIR AYRIM SPORT ATAMALARINING QO‘LLANISHI XUSUSIDA.

***Boltayeva Iqbol**, filologiya fanlari nomzodi,
O‘zbekiston Davlat Jismoniy
tarbiya va sport universiteti dotsenti*

Annotatsiya: Maqolada basketbol o‘yiniga doir ayrim sport atamalarining sohaviy lug‘atda qo‘llanishi, jumladan, ayrim lingvokulturologik nuqsonlar tahlili xususida mulohazalar bildiriladi.

Kalit so‘zlar: Sport, basketbol, so‘z, termin, sport ustasi, havaskorlik federasiyasi, olimpiya o‘yinlari.

Аннотация: В статье комментируется использование некоторых спортивных терминов, связанных с баскетболом, в отраслевом словаре, в том числе анализируются некоторые лингвокультурологические недостатки.

Ключевые слова: Спорт, баскетбол, слово, срок, мастер спорта, любительская федерация, Олимпийские игры.

Ma’lumki, Davlatimiz rahbari may oyining so‘nggi dekadasi o‘tkazilgan selektor yig‘ilishida O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportning ahvoli hamda uni rivojlantirishning dolzarb masalalari to‘g‘risida tanqidiy nutq so‘zlab, amaliy vazifalar rejasini belgilab berdi. Mazkur dasturiy nutqda barkamol avlodni jismoniy jihatdan chiniqtiruvchi bir qator sport turlari qatorida basketbol o‘yiniga, shuningdek, sportdagi sohaviy terminologiya muammolariga ham aloqador dolzarb masalalar xususida fikr yuritilgan.

Biz soha rivojida generatorlik vazifasini o‘tay oladigan qudratdagi bu tarixiy nutqning mazmuni va mohiyatidan kelib chiqib, har bir soha mutaxassisi o‘z amaliy

faoliyatiga tanqidiy ko‘z bilan nazar tashlamog‘i kerak, deb o‘ylaymiz. Chunki tandiqiy tahlil va bahosiz taraqqiyot yuz bermaydi. Qolaversa, har qanday mukammal darslik yoki qo‘llanma ham vaqt o‘tgani sayin nazariy-metodik islohga muhtoj bo‘lib qolishi tabiiydir. Inchunun, bizning muallifligimizda, 2020 -yilda “Lesson press” nashriyoti orqali ommalashtirilgan “Jismoniy tarbiya va sport atamalarining izohli lug‘ati” nomli o‘quv qo‘llanmamizda izohlangan sohaviy atamalar talqinini qayta ko‘zdan kechirgan holda, tezkor zamon o‘zgarishlariga hamohang ravishda isloh qilish lozim bo‘lgan o‘rinlarni belgiladik. Jumladan, qo‘llanmadagi basketbol o‘yiniga taalluqli bir qator tushunchalarga yanada chuqurroq ilmiy aniqlik kiritilishi lozimligini payqadik. Mazkur qo‘llanmada basketbol o‘yiniga doir “basketbol”, “basketbol (ing)”, “basketbol halqasi”, “basketbol maydoni”, “basketbol qalqoni”, “basketbol qurilmasi”, “basketbol savati”, “basketbol bo‘yicha sport ustasi”, “basketbol koptogi”, “basketbol murabbiysi”, “basketbol musobaqasi”, “basketbolchilar jamoasi”, “basketbol o‘yini qoidalari”, “basketbolchining bo‘yi”, “basketbolning rivojlanishi”, “basketbolchi ayol” singari izohlar berilgan.

Ma‘lumki, basketbol so‘zi inglizcha “basket” - “to‘r” va “ball” – “to‘p” qo‘shma so‘zidan tarkib topgan bo‘lib, dastavval XIX asrning so‘nggi choragida AQSHda sport musobaqalarining bir turi sifatida keng yoyilgan. Bu o‘yinining ijodkori asli kanadalik bo‘lgan yosh jismoniy tarbiya o‘qituvchisi Jeyms Neysmit sanaladi. U 1891 yilda Massachusut shtatining Springfield shahridagi kollej o‘quvchilarini jismoniy tarbiya darslariga yanada qiziqtirish maqsadida maktab binosining ko‘shkiga (bolkon panjarasi)ga paqirsimon, ammo tagi teshik savatchani bog‘lab qo‘yib, bolalarga futbol koptogini uzoqdan uloqtirib, uning teshigidan tushirishni o‘rgatadi. Bir yildan so‘ng J.Neysmit basketbol o‘yining raqib komandalar ishtirokidagi tartib-qoidalarni ishlab chiqib, keng ommalashtiradi. Mazkur sport turi tezda Yaponiya, Xitoy va Filippin mamlakatlariga ham tarqaladi. 1902 yilda Sent-Luis shahrida basketbol bo‘yicha amerika shaharlari o‘rtasidagi birinchi musobaqa o‘tkaziladi. Sportning bu turi bo‘yicha birinchi xalqaro musobaqa 1904 yilda AQSH va Kanada terma komandalari o‘rtasida o‘tkazilgan. 1932 yilda

tarkibiga AQSH, Kanada, Argentina, Gresiya, Italiya, Latviya, Portugaliya, Ruminiya, Shvesiya va Chexoslovakiya davlatlarining vakillari kiritilgan basketbol bo'yicha Xalqaro havaskorlik federasiyasi tashkil etilgan. Bu sport turi 1936 yildan boshlab Xalqaro Olimpiya o'yinlari ro'yxatiga kiritilgan. Natijada 1946 yilda basketbol o'yini bo'yicha AQSH assosiasiyasi (BAA) tashkil topgan.

Bilamizki, tilshunoslikda so'z bilan terminning o'zaro mushtarak va farqi belgilab qo'yilgan. Ularning ikkalasi ham so'z tarkibida tugal ma'noni ifodalasalar-da, termin doimo bir ma'nolik, so'z esa ko'pma'nolilik xususiyatini o'zida saqlab qoladi. Masalan "ko'z" degan birgina so'z odamning, yog'ochning, ishning kabi so'zlar bilan birikkanida uch xil ma'noni tashiydi. Yoki "quloq" degan so'z odamning, radioning, ariqning degan so'zlar bilan biriksa, uch xil ma'no ifodalanadi. Ilmiy atama esa doimo yagona va barqaror ma'noga ega bo'ladi. Masalan, "partiya", "delegat", "traktor", "kislород" so'zlarining ikkinchi yoki uchinchi ma'nolari mavjud emas. Shu jihatdan olib qaralganida, yuqoridagi qo'llanmada keltirilgan "Basketbol bo'yicha shahar birinchiligida 20 ta jamoa qatnashdi", "Basketbol dadillikni va chaqqonlikni o'stiradi" singari jummalarni termin o'rnida taqdim etishni maqsadga muvofiq emas, deb hisoblaymiz. Yoki "basketbol maydoni" izohining bir xil matn bilan ikki karra berilishi, mazkur o'yinning tarixiga oid ma'lumotning to'rtta izoh tarkibida takror keltirilishi ham lug'atga fazilat bag'ishlamasligi ayon bo'lib qoldi.

Xulosa qilib aytganda, muhtaram Yurtboshimizning ma'ruzalari mazmunidan kelib chiqqan holda endilikda jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi uchun mas'ul bo'lgan har bir olim va muallim o'z faoliyati va yozgan asarlariga tanqidiy nazar bilan yondosha bilishi, ularni zamon talablariga mos holda qayta ko'rib chiqishi hamda ilg'or innovasion ta'lim yutuqlari bilan sug'orishi kechiktirib bo'lmas zaruratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Jismoniy tarbiya va sport lug'ati. 1 jild. -T., 1992. 183 b.

2. Kerimov, F.A. Metodika obucheniya slojnym texnikotakticheskim deystviyam v volnoy borbe. // Tema dissertatsii i avtoreferata po VAK RF kandidat pedagogicheskix nauk. 1983 g. .
3. Niyozov I. Olimpiya sport o'yinlari. Uslubiy qo'llanma. -T.: "Fan", 2006. -127b.
4. Russko - uzbekskiy slovar . Tom I. -T., 1983.
5. Russko - uzbekskiy slovar . Tom II. -T., 1984. - 807 s.
- 6 O'zbek milliy entsiklopediyasi."O'zbekiston milliy entsiklopediyasi " Davlat nashriyoti. Toshkent.: 14-jildlik. 2000-2005 yil.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh jildlik."O'zbekiston milliy entsiklopediyasi " Davlat nashriyoti. Toshkent.: 2006-2008 yil.
8. Usmonxo'jaev T., Rahimov M., va boshqalar. Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari. -T.: "O'qituvchi" nashriyot - matbaa ijodiy uyi. 2005. -350 b
9. Boltayeva. I. Jismoniy tarbiya va sport atamalarining izohli lug'ati (o'quv qo'llanma). "LESSON PRESS", Toshkent, 2020 yil.
10. Boltayeva I., Ayxodjayeva M. O'zbek tili (Jismoniy tarbiya va sport yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma). Toshkent, "LESSON PRESS", 2020 yil .

O'ZBEK TILI TURISTIK TERMINLARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI VA LEKSIKOGRAFIK TAHLILI

*Tursunova Nasiba Yo'ldoshevna, O'zDJTSU,
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada o'zbek tili turistik terminlarining dublet ma'nosi hamda leksik-semantik va leksikografik xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: termin, turistik, evristik, dublet, sinonimiya, omonimiya, ko'p ma'nolik, antonimiya..

Аннотация: В статье рассматривается двусмысленность узбекских туристических терминов и их лексико-семантические и лексикографические особенности.

Ключевые слова: термин, турист, эвристика, дублет, синоним, омонимия, многозначность, антоним.

Terminlar ilmiy bilimlarni, ilmiy natijalarni qayd qilish va ularni sistemalashtirish bilan bir qatorda juda katta evristik vazifani ham bajaradi, ya'ni ular yangi bilimlarni ochishga ham ko'maklashadi.

Terminologiyadagi doimiy masalalardan biri terminlar sinonimiyasi, omonimiyasi, ko'p ma'noligi va antonimligidir.

O'zbek tili turizm terminologiyasida sinonim yoki dublet termin juftliklar uchraydi.

O'zbek tili terminologiyasida “otel” – “mehmonxona”, “nomer” – “xona”, “marshrut” – “yo'nalish”, “reception”, “administratsiya” – “ma'muriyat”, “turist” – “sayyoh”, “turizm” – “sayohat”, “agentlik” – “tashkilot”, “rekreatsion” – “ko'ngilochar”, “piknik” – “sayr”, “ikkinchi klass – ekonom klass”, “bronlamoq – bandlash” kabi dublet terminlar uchraydi. Bu juftliklardagi birinchi birliklar xalqaro terminoelementlardan tashkil topganligi uchun umumiylik kasb etsa, ikkinchilari o'z qatlamga mansubligi uchun ularda milliy-madaniy unsur yorqinroq ifodalanadi.

“Otel” – “mehmonxona” dubletligida “otel” leksik birligi asosan turizmga oid darsliklarga va soha mutaxassislari nutqida ko'p uchraydi. So'zlashuv nutqida “mehmonxona” va uning ruscha “гостиница” shakli faol iste'mol qilinadi. Shuningdek, inglizcha “hotel” varianti ham ko'p uchraydi.

Mehmonxonalaridagi xonalar raqamlanganligi uchun ularga nisbatan “nomer” termini faol ishlatiladi. Xalqaro turizm terminologiyasini kuzatar ekanmiz, unda ham xuddi shu holat mavjudligini ko'ramiz: *accommodation - room*. Har ikki termin ham xona birligi ifodalagan ma'noni bildiradi.

“Sayyoh” – “turist”, “sayohat” – “turizm” kabilarga dublet terminlar deb qaralsa-da, soha doirasida ma'lum bir farqli jihatlariga ega. “Sohalardan hayot faoliyatining alohida jozibador usuli sifatida yangi shakl – turizm ajralib chiqib, u o'ziga xos xususiyatlar va xislatlar bilan tavsiflanadi. Turizmni sayohatlardan ajratib turuvchi asosiy jihati bu uning tashkiliy jihatdan yo'lga qo'yilganligida, maqsadli va ommaviyligidadir”. [1.1]

Sayyoh termini ham turist birligiga nisbatan kengroq ma'noga ega. Turizmga doir adabiyotlarda quyidagicha ta'rif beriladi: "*Sayyoh* – bu birinchi navbatda, agar ta'bir joiz bo'lsa, kasb bo'lib, odamlarning kun ko'rish manbai yoki sayohatda ishtirok etuvchilarning turmush tarziga aylanishi mumkin. Bu esa faoliyatning maqsadi bo'lib, turizm maqsadlaridan farq qiladi". [2.1]

Demak, turist bo'sh vaqt va mablag'ga ega shaxs sifatida turli hududlarga tashrif buyuradi. Uning asosiy maqsadi sayyohdan farqli ravishda vaqtni ko'ngilli va mazmunli o'tkazish, yangi joylar bilan tanishishdir.

Yuqoridagi terminlar dublet terminlar deb hisoblansa-da, semantik nuqtai nazardan farqli jihatlarga ega. Turizm sohasidagi mutaxassis esa bu farqlarni yaxshi bilishi maqsadga muvofiqdir.

Aytilganlarni hisobga olgan holda o'zbek tili turizm terminologiyasida sistema nuqtai nazaridan asosiy ilmiy termin sifatida baynalminal xarakterdagi terminlarni qoldirib, ularning dubletlarini uslubiy maqsad uchun umumadabiy til boyligi hamda texnikaviy termin sifatida foydalanish mumkin deb hisoblaymiz.

Administratsiya birligiga o'zbekcha ma'muriyat birligi muvofiq kelsa-da, bugungi kunga kelib uning o'zlashma shakli faol ekanligi kuzatiladi. Bundan tashqari, bu terminlarning inglizcha "*reception*" shakli ma'lum tovush o'zgarishiga uchragan holda ("resepsion") so'zlashuv nutqida keng iste'moldagi birlikka aylanib bormoqda. Shu o'rinda, mehmonxonalarda kelib-ketuvchilarni ro'yxatga olish bilan shug'ullanuvchi bo'limni anglatgan *ma'muriyat* termini bir vaqtning o'zida ikkita sinonimga ("*administratsiya*", "*reception*") ega bo'ldi. Bu holatni ijobiy deb hisoblaymiz. Retsipient tilning fonetik xususiyatlarini hisobga olish, tilning sofligini saqlash nuqtayi nazaridan reception shakli o'zbek tili qonuniyatlariga muvofiq kelmaydi. "*Administratsiya*" shakli esa so'zlashuv uslubida mustahkam o'ringa egaligi va faol iste'molda ekanligini inobatga olsak, sinonim termin sifatida ishlatilishini salbiy holat deb hisoblamaymiz.

Terminlar sinonimiyasi doimo termonologiyaning muammolaridan biri sifatida qayd etib kelinadi. Yangi tushunchaga berilgan nom o'sha tilga singib,

lisoniy fondan mustahkam joy olgunga qadar uning o'zlashma varianti ma'lum muddat iste'molda faol qo'llanishi bir qator tilshunoslar tomonidan qayd etiladi.

Rus va ingliz tillaridan farqli ravishda o'zbek tili turizm terminologiyasida polisemiya va antonimlik hodisalari uchramaydi.

O'zbek tili turistik terminlarining izohli, tarjima lug'atlarini yaratish bugungi kundagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Turistik terminlarni lug'atga qaysi tartibda joylashtirish, ma'nolari izohida qaysi tamoyillardan foydalanish kabi masalalar dolzarbdir.

O'zbek tilining 5 jilddan iborat izohli lug'atida 183ta turistik termin tanlab olingan va mazkur qo'llanma va yo'riqnomalarda, boshqa qo'llanma va tadqiqotlarda berilgan tavsiyalarga qat'iy amal qilingan.

Izohli lug'atga kiritilgan har bir so'z yoki termin bosh so'z hisoblanib, bosh so'z va unga oid materiallar alohida lug'at maqolasini tashkil etadi. Bosh so'zga oid materiallar esa asosan so'zning o'zi, u haqdagi etimologik ma'lumot, grammatik va uslubiy belgilar, uning izohi (agar so'z yoki termin ko'p ma'noli bo'lsa, ayni ma'nolarni qayd etish va izohlash) hamda dalillovchi misollardan iborat bo'ladi.

Bosh so'zga oid etimologik ma'lumot lug'at maqolasining bosh so'zdan keyingi komponenti hisoblanadi va u o'quvchida qiziqish uyg'otadi, uning bilim saviyasini oshiradi, dunyoqarashini kengaytiradi.

Turistik terminlarning bir ma'noli ekanligi yoki bu holat terminologiyaning ideali bo'lganligi sababli izohlash umumiste'moldagi, ayniqsa, ko'p ma'noli so'zlarni izohlashdan ko'ra osonroq kechadi. Albatta, izohda muayyan terminning barcha semalari (belgilari)ni qamrab olishning imkoni bo'lmaydi. Aks holda, lug'at izohli lug'atdan ko'ra ensiklopedik lug'atga o'xshab qoladi.

Turistik terminlarni izohlashda ularning eng muhim jihati – termin ifodalab kelgan ma'no asos qilib olinadi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"ga bir qator turistik terminlar kiritilgan bo'lib, "O'zbek tili turistik terminlari izohli lug'ati" ni yaratishd ham shu tamoyillar saqlab qolinishi lozim.

Izohli lug'atda gid termini quyidagicha keltiriladi:

Gid (fr. Quide – yo'lboshlovchi; o'tkazgich) Turistlarni, sayyohlarni shaharning yoki biror hududning xushmanzara, diqqatga sazovar joylari bilan tanishtiradigan shaxs. [3.2]

Termin qisqa, aniq, tushunarli izohlangan.

Turist – (fr.touriste -touriste) Turizm bilan shug'ullanuvchi shaxs; turistik sayyoh, yurish qatnashchisi. [4.2]

Bu termin ham izohlashdagi barcha talablarga muvofiq holatda keltirilgan.

“O'zbek tilining izohli lug'ati”ga kiritilmagan kelgusida yaratiladigan “O'zbek tili turistik terminlarining izohli lug'ati”ga kiritilishi lozim bo'lgan ayrim terminlar ifodasini taklif sifatida taqdim etmoqchimiz.

Treking – [ingl. raking – “izidan quvish, axtarish qidirish”] tog'li hududlar bo'ylab piyoda yurishga asoslangan turizm shakli.

Rafting – [ingl.rafting – solda suzish] mahalliy tez oqar daryolarda, sharsharalar, tez oquvchi qiyaliklar, sayoz toshli, qoyali oqimlarda suzish.

Villa – [lot.villa – qishloq uyi] O'rtayer dengizi uslubida quriluvchi dengiz qirg'oqlarida joylashgan shahar tashqarisidagi hashamatli uy.

Shamol syorfingi – [ingl.windsurfing, wind – shamol, surfing – to'lqin] suv sportining yelkanli maxsus doska (syorf)da suziladigan ko'rinishi.

Botel – [ingl.boat – qayiq, kema; hotel - mehmonxona] – suzib yurivchi mehmonxona.

Karaoke – [yapon.kara- bo'sh, oke - orkestr] – jo'rlik ostida qo'shiq aytishga asoslangan ko'ngilochar mahsulot turi.

Piknik – [ingl.picnic - sayr] ziyofat maqsadida tabiat qo'yniga uyushtiriladigan jamoaviy sayr.

Macmura6 - Xaritada muayyan joy tasvirining kichraytirilgan darajasi, o'lchami. Sanoqli masshtab – joyning o'lchami qay darajada kichraytirib berilgani sanoq sonlarida ifodalanadi. Tabiiy masshtab – o'lchamning so'z bilan ifodalanishi (bir sm. kartada 25ming sm.li so'z mujassam bo'ladi). Chiziqli masshtab – joyning har qarichi, metri yo kilometri to'g'ri chiziq bilan tasvirlanadi.

Маятник - Sayyohlik musobaqalaridagi sahna tebranadigan arqoncha bilan jihozlangan bo'lib, yuqori uchi bilan mahkamlangan nuqtada yopiladi, Ishtirokchi harakatlanuvchi pastki uchini ushlab, bir qirg'oqdan itarib, to'siqni (oqim, ariq va boshqalarni) yengib o'tishi kerak.

Местность (joy) - Har qanday belgilarning (tabiiy, tarixiy yoki boshqa) umumiyliги bilan ajralib turadigan hududning bir qismi.

Yotoq qopi (мешок спальный) - Dala sharoitida ikki qavatli yengil to'qilgan matodan qilingan, orasi yoyilgan - sintetik qishlash moslamasi, suvda uchadigan qush pati bilan jihozlangan uxlash qopi.

Микрорельеф - Kichik tebranishlarga asoslangan relyef shakli (tepaliklar, past qiyaliklar, chuqurlar va boshqalar).

Sayyohlik ko'pkurashi (многоборье туристское) - Sayyohlik turlari bo'yicha musobaqalar, u sayyohlik ko'pkurashi qoidalariga muvofiq o'tkaziladi.

Joy - Muayyan mo'ljallarga ega bo'lmagan joy, yer uchastkasi.

Муфта - Karabinning ochilishini oldini olish uchun ishlatiladigan detal.

Ta'mirlash to'plami (набор ремонтный) - Sayohat qilish uchun zarur bo'lgan uskuna va inventarlarni ta'mirlash uchun ishlatiladigan asboblari, materiallar va mahkamlagichlar.

Нимоя niqobi (накомарник) - Bosh va bo'yinni chivin va pashsha chaqishidan himoya qilish uchun yuqori qismi halqa bilan ingichka to'rdan yasalgan maxsus g'ilof. Sayyohlik yurishida asalarichining to'ridan va himoyalanuvchi preparatlar singdirilgan doka niqobiidan ham foydalanish mumkin.

Sayyohlik ko'nikmalari (навыки туристские) - Sayohat davomida o'rttirilgan bilim, malaka, ko'nikma va mahorat.

Нарты - Tog 'chang'i sayohatida yuk yoki shikastlangan (kasal)ni tashish uchun moslama.

Наст - Qor yaxshi erimagan paytda hosil bo'lgan qattiq qobiq.

Носилки - Bemorlarni yoki jarohat olganlarni tashish moslamasi. Sayyohlik paytida ular turli xil qo'lbola vositalardan - ustunlar, chang'ilar, bo'ronli etiklar, arqonlar yordamida quriladi.

Sovuqda tunash (ночевка холодная) - Chodirlar va uxlash qoplarisiz sovuq havoda (noldan past yoki noldan yuqori haroratlarda) majburiy tunda uxlash. Muzlamaslik uchun bunday tunda sayyohlar olov o'chib qolmasligi uchun qo'riqlab, navbat bilan uxlashadi.

Ustun (стойка) - Chodirni o'rnatishdagi tayanch element. Yig'iladigan ustunlar diametri 1-1,5 sm, uzunligi 40-45 sm bo'lgan duralumin naychalarining bo'laklaridan tayyorlanadi, odatda chodir bilan birga g'ilofda tashiladi.

Shamolga qarshi tomon (сторона подвертренная) - shamoldan himoyalangan taraf.

Sayyohlik sug'urtasi (страховка туристская) - Sayyohlarning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar majmui. Tog' sayyohlari musobaqasida murakkab joyda qaltis harakatlangan ishtirokchini saqlash jarayonida sug'urta usullari jamoa a'zolari tomonidan arqon va karabin yordamida amalga oshiriladi.

Sublimat (сублимат) - Mahsulotning tashqi ko'rinishini, ta'mini, hajmini, xushbo'yligini va ozuqaviy qiymatini saqlab, vazni va namlikni kamaytiradigan, salbiy harorat va vakuum sharoitida namlikni bug'lanishiga asoslangan quritish usuli. Ko'p kunlik sayohat vaqtida quritilgan go'sht, tvorog, sabzavot tavsiya etiladi.

Tagan (таганок) - Olovda pishirishda idish-tovoq tayyorlash uchun tayanch vazifasini bajaradigan metall. Uchburchakli metaldan yasalgan oyoqli, moslamali halqa.

Harakat tempi (темп движения) - Yo'nalish bo'ylab sayyohlik guruhining harakat tezligi. Odatda piyoda sayrda 12-15 daqiqada 1 km ga teng (yerning tabiati va ob-havoga qarab). Tezlik guruhning eng yosh va zaif a'zosiga qarab belgilanadi.

Tent (тент) - Sayyohlarning yuklari, xaltasi, oziq-ovqatini tabiat ofatlari, quyosh nuridan saqlash, guruh a'zolarining dam olishini ta'minlashga xizmat qiluvchi mato yoki polietilendan tayyorlangan yengil yopinchiq.

Sayyohlik uskunalari (техника туристская) - Chodirlarni o'rnatishda, tabiiy to'siqlardan o'tishda va boshqalarda qo'llaniladigan texnikalar to'plami.

O'tish (переход) - Turizmda bir kun mobaynida bosib o'tiladigan masofa, kunlik yurish harakatining normasi.

Sug'urta arqoni (перила страховочные) -Sayyohlik vaqtida daryo bo'ylab sayyohlar o'tayotganda ushlab turadigan arqon tortilgan moslama. Xuddi shu arqonlar jarliklarni, baland daraxt tanalari bo'ylab oqadigan ariqlarni, ingichka daralarni, tik ko'tarilishlarni va tushishlarni kesib o'tishda ham foydalanishga mo'ljallangan. Turistik musobaqalarda texnik bosqichlarda xavfsizlik tutqichlari ishlatiladi.

Пикет-Sayyohlik musobaqalari masofasida joylashgan va masofani bosib o'tishni boshqarish uchun xizmat qiluvchi nuqta.

Safar oziq-ovqati (питание походное) - Yo'nalishdagi sayyohlarning energiya sarfini qoplaydigan yuqori kaloriyali oziq-ovqat zahirasi.

Reja (план) -Muayyan joyning uncha katta bo'lmagan maydon yoki ob'ektlarining qog'ozdagi tasviri. Xaritada aksini topmagan ma'lumotlar rejada batafsil berilishi mumkin. Sababi – xarita masshtabining kichraytirilishi hisobiga ma'lumotlar qisqarishi mumkin.

Планшет - Turizmda suratga olish uchun kompas va qog'oz yopishtirilgan planshet yoki papka. Tog 'chang'isida xarita va kompas uchun stol vazifasini bajarib, u ko'krakka bog'lanadi va xohlagan paytda xaritaga qarashga imkon beradi.

Плащ-палатка-Suv o'tkazmaydigan matodan tayyorlangan, yomg'irda chodir yoki plash sifatida ishlatiladigan mato.

Плот - Odamlar va yuklarni quyi oqim bo'yicha tashishga mo'ljallangan cho'kmaydigan predmetlar bilan o'zaro bog'langan (taxta, bochkalar va boshqalar) platforma.

Pishirish idishi (посуда варочная) - Dala sharoitida ovqat pishirish uchun chelaklar, kostryulkalar va boshqa idishlar: sayyohlarning guruh uskunalariga kiritilgan. Ovqat pishirish uchun ruhlangan idishlardan foydalanish taqiqlanadi.

O'quv maydoni (полигон) - O'quv mashg'ulotlari yoki musobaqalarni o'tkazish uchun jihozlangan sayyohlik yo'li, shuningdek o'quv mashg'ulotlari yoki yo'nalish bo'yicha musobaqalar o'tkaziladigan maydon,

Xulosa qilib aytganda, izohli lug'atlarda, turistik terminlar uchun tuziladigan maxsus lug'atlarda terminlarning berilishi va izohlanishi o'quvchining shu fanga doir eng zaruriy va umumiy tushunchalar bilan tanishishga, uning bilim saviyasini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-1947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.
- 2.Mirzayev M., Aliyeva M. Turizm asoslari. – Toshkent, 2011. – B. 66.
- 3.O'zbek tilining izohli lug'ati. – T.O'z.milliy ensiklopediyasi, 2006. -4-j.-b-195
4. Арутюнова, Н. Д. Язык и мир человека Текст. / Н. Д. Арутюнова. М.: Язык ўзбекской культуры, 1999. - 896 с.

III SHO‘BA. TIL VA YOZUV MASALALARI: MUAMMO VA YECHIMLAR.

TEACHING UZBEK IN MULTILINGUAL ENVIRONMENT

Adilova Saodat Abdurakhimovna,

*PhD, associate professor of General linguistics department
of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami,
associate professor of the Critical Languages Institute\
at Arizona State University
Email: saodat.adilova@gmail.com*

Multilingualism is the ability of an individual speaker or a community of speakers to communicate effectively in two/three or more languages. Multilingualism is a very common phenomenon all over the world. Teaching Uzbek in multilingual environment has some peculiar properties. At first, teaching Uzbek has three different and at the same time closely connected directions: teaching Uzbek as native language, as official/state language, as foreign language.

Uzbek can be taught in a natural language environment or outside a language environment. In a natural language environment, students can be native speakers, representatives of related languages, or representatives of unrelated languages. They learn the language in educational institutions, in language centers/courses, and they can also learn the language individually during the private lessons. Thus, students of different nationalities, speaking different languages of different levels, can be gathered in one university auditorium. In addition, it is necessary to distinguish between areas of education, such as pedagogy, medicine, architecture, agriculture and so on. In turn, outside Uzbekistan, students of Uzbek language courses are foreigners, people with Uzbek roots, also students who are planning to get married with Uzbeks. All these features of the class where the Uzbek language is taught create difficulties in planning the process of learning the language. In each case, the educational goals, objectives, program, methods, materials will be different from others.

In this regard, there is a need to find new effective methods of teaching Uzbek language. There is such a large-scale didactic tool that helps the studying and

teaching languages as a linguistic corpus, the creation, development of which is one of the urgent problems of both theoretical and practical linguistics.

N.V. Kozlova under the corpus means an electronic complex of texts in one or several languages, created on the basis of certain parameters. In her opinion, being a collection of texts in written or verbal form, the corpus differs from ordinary texts in that it is digitized, that is, texts are analyzed electronically, have special tags, they are stored electronically, have linguistic annotations that put all this information in order.}1.1|

We believe that the definition given by V.P. Zakharov can be considered the most complete:

Linguistic corpus of texts is a large, electronically presented, unified, structured, tagged, philologically competent array of language data designed to solve specific linguistic problems{2.2}

In general, the following qualities are indicated in each description:

1. It is necessary to provide many texts (on the Internet or on disk).
2. The material must be authentic, not edited, it must show the variability of the language units, it is possible to include materials of “live speech”.
3. To carry out linguistic analysis, language units must be tagged.
4. As a result of the analysis, it should be possible to distribute language material based on various principles (for example, by genre, date of creation of the text, topic, and so on).

So how exactly can Uzbek instructor use the corpus while teaching languages? Corpora can help in the following cases:

- in determining the lexical minimum, i.e. the minimum number of words that students need to know to master the language at a particular level. To understand how necessary is for students to know exactly these words, what is their frequency, which words are outdated and which are considered neologisms;

- in choosing theoretical material for writing textbooks or for a regular lesson.

Answer the questions - how important are these grammatical rules, when exactly it

is necessary to study which rule, how often there are exceptions to the rules; do the norms of the literary language change, if so, how and for what reason;

- in demonstrating linguistic realities, in order to show how a particular word or phrase actually behaves in life, in which context the studied language units can most often be found, when explaining the valence of words, their compatibility. In demonstrating style differences and syntactic synonymy;

- in teaching a language for special purposes, that is, to know what medical students, engineering students, businessmen and others should pay attention to.

- in using an inductive approach to teaching. Students can make certain conclusions by studying examples of concordance. In some cases, this is much more effective than doing exercises to activate vocabulary or grammar rules or reading artificially created texts.

- in analyzing the teaching process and preparing the lesson plans in order to increase the effectiveness of classes.

Obviously, the quality of a corpus depends on its creators, on the amount of base material, on the time of its creation. Unfortunately, for many years, the national corpus of the Uzbek language did not exist. Only the corpus created in 2012 was available on the Internet. Below is given information about it:

“The Uzbek Web Corpus (uzWaC) is an Uzbek corpus made up of texts collected from the Internet. ... total size 18 million words. A complete set of tools is available to work with this Uzbek corpus to generate:

- word lists - lists of Uzbek words organized by frequency;
- n-grams - frequency list of multi-word units;
- concordance - examples in context”. {3.3}

Trial use of this case showed that the creation of the case is a painstaking and large-scale work, the quality of which is influenced by each element of the material. The corpus in question is written in the Uzbek Latin alphabet. In all parts of the corpus, except the frequency list, diacritical marks are not recognized by the computer program. Words containing such sign < ' > are divided into parts and these parts of words behave as separate tokens. For example, when identifying the

compatibility of the word "baland", variants that did not exist in the language were encountered. As examples from some context the corpus showed such word collocations as "yi baland", "li baland keldi", "baland ko'", and so on. In fact, these should be word combinations "yi baland", "li baland keldi", "baland ko'". The problem is related to the presence of a special element in the letters o' and g'. Also, the problem will exist if use the Cyrillic alphabet, since in the Uzbek Cyrillic there are also some elements that are not recognized by a computer program. These thoughts, in turn, prove the need to revise and somewhat change the current Uzbek alphabet.

Recently, the academic community was informed about the creation of a new corpus of the Uzbek language, which works in a test mode. Hopefully, that soon both students and teachers can use it to the fullest.

In the world practice of language teaching, corpus methods are recognized as highly effective innovative methods. These methods have aspects of intersubject integration, empirical adequacy, authenticity, flexibility, adaptability, "discovery" in language learning. And after all, being familiar with corpuses should be a standard characteristic of both today's language instructors and students.

REFERENCES:

1. Козлова Н. В. Лингвистические корпуса: определение основных понятий и типология. Вестник НГУ. Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. 2013. Т.11 Выпуск 1. – С. 79.
2. Захаров В. П. Корпусная лингвистика. СПб., 2005 – С. 3.
3. uzWaC: Uzbek corpus from the web <https://www.sketchengine.eu/uzwac-uzbek-corpus/>

KINOQISSALARDA SOTSIOPRAGMATIK TAVSIF.

Xolmurodova Mexrninisa Ibraximovna

*O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi,
San'at nazariyasi va tarixi kafedrasida katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
xolmurodova1971@mail.ru*

Annotatsiya: Mazkur maqolada badiiy asarlar, ayniqsa, kinoqissalar matnining sotsiopragmatik xususiyatlarini o'rganish, o'zbek tili imkoniyatlarining

badiiy nutq tarkibida voqelanishi bilan bog‘liq holatlar xususida, har bir qahramonining ichki dunyosini, o‘tmishi va kelajagini ularning o‘z nutqi orqali ochib berishi tasniflangan.

Kalit so‘zlar: Nutq obyekti, sotsiopragmatika, pragmatika, semantika, ichki nutq, tashqi nutq, ichki monolog, matn, nutqiy akt, adresant, adresat, til kodi, muloqot, nutqiy tuzilmalar, lisoniy imkoniyat.

Аннотация: В данной статье исследуются социально-прагматические особенности текста художественных произведений, особенно киноповестей, обстоятельства реализации потенциала узбекского языка в художественной речи, раскрытие внутреннего мира, прошлого и будущего каждого героя через собственную речь. секретный

Ключевые слова: объект речи, социопрагматика, прагматика, семантика, внутренняя речь, внешняя речь, внутренний монолог, текст, речевой акт, адресат, адресат, языковой код, общение, речевые структуры, языковая возможность.

Matn o‘ziga xos lingvistik hodisa sifatida alohida yondashuv va tadqiqni taqozo qiladi. Matn tashqi nutqni ichki, ichki nutqni tafakkurga va aksincha, ichki fikrga, ichki nutqni tashqi nutqqa aylantirish belgisi bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu jarayonlarning har biri o‘ziga xos semantikaga ega, shuning uchun matnning semantik tuzilishi uchta asosiy tuzilishni o‘z ichiga oladi: informatsion struktura (tashqi nutqning tuzilishi), aqliy tuzilma (ichki nutq tuzilishi), kognitiv struktura (fikrlash tuzilishi).

Nutq obyekti uning denotativ-predikativ ma’nosi bilan ifodalanishi mumkin. So‘zlovchi matnning ma’nosini qurish mantig‘iga javobgardir. Tinglovchilar matnning ma’nosini qadrlashadi. Bunday ma’noni aksiologik deb atash mumkin. “Akseologiya” va “qadriyatshunoslik” atamaları muayyan fan sohasi yoki bilimlar sistemasini ifodalaydi, “qadriyatlar falsafasi” esa, qadr va qadriyatlar bilan bog‘liq falsafiy yo‘nalishni anglatadi, ammo bunda alohida fan sohasi to‘g‘risida gap bormaydi. Qadriyatlar nazariyasi ko‘proq sobiq sovet ittifoqi davrida ishlatilgan atama bo‘lib, u qadriyatlar sohasidagi bilimlarni falsafaning nihoyatda mo‘jaz qismi

sifatida e'tirof etishni anglatar edi. Bunda akseologiya ko'proq burunda fan sifatida tanqid etilar edi. Chunki qadriyat haqida so'z borganda avvalo shaxs, millat, xalqning eng yuksak, oliy qadriyatlari bo'lmish erkinlik, ozodlik, adolat, millatchilik tushunchalari haqida gapirilar edi"⁷.Va nihoyat, yaratilgan matn uning ma'nosi ramzi sifatida ishlaydi.

O'zbek xalqining sevimli yozuvchisi Erkin A'zamning "Anoyining jaydari olmasi", "Pakananing oshiq ko'ngli", "Xonadon egasi", "Tangrining toshi" kinoqissalari matnining sotsiopragmatik xususiyatlarini o'rganish jarayonida onomastikaga oid keyingi yillarda o'zbek tili imkoniyatlarining badiiy nutq tarkibida voqelanishi bilan bog'liq holatlar xususidagi tasavvurlarni muayyanlashtirishga xizmat qildi.

Yozuvchi tomonidan mahorat bilan yozilgan "Anoyining jaydari olmasi" kinoqissasi matnining sotsiopragmatik xususiyatlari so'zlovchi va tinglovchi, matn muallifi va adresat o'rtasidagi munosabatlar doirasida yaqqol namoyon bo'lishini kuzatish mumkin: *Sudga ikki kun qolganda – kuyadori hidi anqib turgan kostyumiga urushda olgan medallarini taqib Ramazonning otasi va sovxozda shofyorlik qiladigan akasi yetib keldi.*

Ota ko'rgan odamiga nuqul bir gapni takrorlaydi:

*– To'ydan qochib kelib edi. Tog'asining qiziga ko'ngli yo'qmi, to'ydan gap ochdingiz – o'qishni bahona qilib, **Toshkandga** jo'naydi. Armiyadan qaytganidan beri shu ahvol. Uyoqda **enasi** og'ir yotibdi, "**Ulimning** mavridginasini ko'rmay ketadigan bo'ldim-da", deb chirqillagani chirqillagan. Bozor bormoq tugul og'zidagini eplab yutolmaydigan bolaning bu ishini qarang endi! (E.A'zam, Anoyining jaydari olmasi).*

Ko'rinadiki, asar qahramonining ijtimoiy holati, tafakkuri, dunyoqarashi haqida ma'lumotlardan iborat tafsilotga sira hojat qolmagan, har bir qahramon o'z nutqi orqali kimligini, jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyini ro'y-rost namoyon qilmoqda. Ramazonning otasi o'z nutqida jonli til elementi hisoblangan sheva so'zlaridan

⁷ Nazarov Q. Qadriyat tizimi: barqarorlik va o'zgaruvchanlik dialektikasi (aksiologiyaning ijtimoiy-falsafiy muammolari): fals.f.d-ri diss...-T., 1996.-B.105

foydalanyotgani, o‘zbekcha, eski urf-odatlarining ota-ona orzusiga bog‘liqligi suhbat mazmunidan anglashilib turibdi. Muallif adresatga onaizor holatining yaqqol tasvirini berish uchun otaning tilidan “*chirqillagani chirqillagan*” fe‘lini qo‘llaydi. Farzandining hayoti bilan yashayotgan, uning kelajagidan qayg‘urayotgan, bolasining taqdiridan xavotir olayotgan onaning tashvishu g‘amlarini to‘la yoritib bera olish uchun birgina shu birikmaning qo‘llanishi yetarli bo‘lgan. Bu esa ijodkorning mahorati, ijodiy tafakkur kuchining yuqoriligidan dalolat beradi.

Muloqot inson tafakkuri faoliyatining mahsuli bo‘lib, bu jarayonda nutq egalari tomonidan turli maqsadlarga yo‘naltirilgan rang-barang nutqiy tuzilmalar (nutqiy aktlar) hosil qilinadi. Nutqiy akt jamiyat a‘zolari tomonidan qabul qilinib, nutq xulqi qoidalariga muvofiq tarzda amalga oshiriladigan, muayyan maqsadga yo‘naltirilgan nutqiy harakat hisoblanadi. Nutqiy akt nazariyasi ilk bor ingliz filosofi J.Ostin tomonidan ilgari surildi. Nutqiy akt nazariyasi asoschilari J.Ostin, J. Serl, J. Rosslarning qarashlariga ko‘ra muayyan mazmunni ifoda etuvchi, tilning qonun-qoidalariga asoslangan holda bayon etilgan elementar nutqiy harakat nutqiy akt hisoblanadi. Xususan, J.Ostin nutqiy aktda quyidagilar amalga oshishini qayd etadi: umume’tirof etilgan til kodiga mansub aniq tovushlarni talaffuz etish; ushbu tilga mansub so‘zlardan grammatik qoidalar asosida jumla tuzish; jumlaning mazmun, referensiya va boshqalar bilan ta’minlash; nutqiy qo‘llanishlarni hosil qilib, voqelik bilan muvofiqlashtirish; nutqiy qo‘llanishlarni illokutiv aktga aylantiruvchi muayyan maqsadga yo‘naltirish; kerak bo‘lgan natijaga erishish, adresat ongiga yoki xulqiga ta’sir ko‘rsatish, yangi nutqiy vaziyatni yaratishdan iborat. T.V. Jerebiloning qayd etishicha, nutqiy akt psixofizik jarayon bo‘lib, so‘zlovchi (adresant) va tinglovchi (adresat) o‘rtasidagi nutqiy aloqani aks ettiradi va quyidagi komponentlardan tashkil topadi: 1) so‘zlash (yozish); 2) idrok etish; 3) nutq (matn)ni tushunish.

Tadqiqotchi M.Hakimovning fikricha, nutqiy akt tushunchasi odamlar o‘rtasidagi aloqa-aralashuv jarayonida sodir etiluvchi o‘zaro ma’no aktlari munosabatining bayonidir. Ta’riflardan ma’lum bo‘ladiki, nutqiy akt nutqiy muloqot doirasida amal qiladi, so‘zlovchi va tinglovchidan iborat nutq ishtirokchilari, nutqiy vaziyat, til egalarining nutq obyekti haqidagi umumiy bilimlari, nutq

ishtirokchilarining til bilimi va ko'nikmalari bilan bog'liq holda shakllanadi. M.Hakimov nutqiy aktda umumiy holda quyidagi komponentlar ishtirok etishini qayd etadi: so'zlovchi, tinglovchi, nutq obyekti – faktik material hamda nutqiy vaziyat. M. Qurbonova nutqiy aktning amal qilishi uchun zarur bo'lgan komponentlar qatoriga nutq ishtirokchilarining umumiy til bilimi va til ko'nikmasini ham kiritish lozimligini ta'kidlaydi.

Darhaqiqat, agar nutq ishtirokchilari umumiy til bilimiga ega bo'lmasa, nutqiy akt nafaqat tomonlarga tushunarsiz, balki amalga oshishi dargumon bo'lib qoladi. Nutqiy akt so'zlovchining muayyan kommunikativ maqsadiga bo'ysundirilgani bois uning turli ko'rinishlari farqlanadi. Xullas, kinoqissa matnidagi nutqiy faoliyatlarida muayyan maqsadga yo'naltirilgan nutqiy aktning bevosita va bilvosita turlaridan unumli foydalanadilar. Ularning nutqida qo'llangan bilvosita nutqiy akt turlarida quyidagi ikki xil holat kuzatiladi: a) sintaktik strukturaning birlamchi ma'nosi saqlanib qoladi, unga qo'shimcha sintaktik ma'no yuklanadi. Boshqacha aytganda, ayni sintaktik struktura orqali u ifodalashga xoslangan axborot va qo'shimcha axborot bayon etiladi. Bunda ayni sintaktik strukturaning semantik ko'lami kengayadi; b) sintaktik strukturaning birlamchi ma'nosi butkul yo'qoladi, uning o'rnini o'zga sintaktik ma'no egallaydi. Boshqacha aytganda, ayni sintaktik struktura orqali so'zlovchi maqsadi bilan bog'liq tarzda o'zga axborot bayon etiladi:

Tajangroq akaning battar tajangligi tutadi:

– *Shuningizni o'zi boshdan erkalatib yubordingiz-da, ota! Oyog'iga kishan urib bo'lsa ham, to'yni boshlash kerak edi. Bu muttahamga nima yetishmasdiki, bizni bunday sharmanda qilib o'tiribdi!* Ushbu nutqiy vaziyatda so'zlovchi – adresant adresatga o'zining undan norozi ekanligi haqidagi xabar aktini va o'g'lini bu yo'ldan qaytarishi mumkin bo'lgan tanbehni ifoda qilmoqda.

Asar davomida so'zlovchi tomonidan mohiyatni aniqlashtiruvchi, mavzuni oydinlashtiruvchi savollar beriladi:

– *Ayblanuvchi Haydarov Ramazon, oldin ham shu ish bilan shug'ullanganmisiz? – deb so'raydi sudY.– Men, Haydarov Ramazon, 1950 yili Boysun rayonida tug'ilib edim. Keyin... – deya tutilib qoladi.*

– *Ayblanuvchi Haydarov, hech kim sizdan tug‘ilgan yilingizni so‘rayotgani yo‘q. Oldin ham chayqovchilik qilganmisiz, deyaрман?*

– *Keyin maktabni bitirib, Sovet Armiyasi safida xizmat qilib edim. Keyin bo‘lsam... (E.A‘zam, Anoyining jaydari olmasi).* Mazkur nutqiy aktda adresatning bergan muhim savollariga adresant chalkashtiruvchi mavzuga aloqasi bo‘lmagan javoblarni bermoqda. Bu nutq vaziyatiga bog‘liq bo‘lgan hodisadir. Ijtimoiy muhit nutqiy sharoit Ramazonni shunday ma‘lumot berishga majbur etgani ko‘rinib turibdi.

Kinoqissalarning o‘ziga xos jihatlaridan yana biri shundaki, voqelik, asosan, adresant va adresat o‘rtasidagi muloqotlar orqali ma‘lum bo‘lib boradi:

– *Menga qarang, Haydarov, uch chamadon va ikki quti bilan qo‘lga tushgansiz-ku? Qolganlari kimniki edi bo‘lmasa?*

– *Demak, ular boshqa shaxsga tegishli bo‘lgan. Organ odamlari kuzatayotganini sezib, u sizga tashlab qochgan, shundaymi? A, Haydarov?*

– *Shunday... E, yo‘q-yo‘q, meniki edi, meniki!*

– *Ayblanuvchi Haydarov! Esingizni yig‘ib oling. YO tob-pobingiz yo‘qmi? Qayeringiz og‘riyapti, ayting, sud majlisini to‘xtataylik.*

– *Ebi, nimaga? Soppa-sog‘man. (E.A‘zam, Anoyining jaydari olmasi).* Adresat so‘zlovchining berayotgan savollarini aniq-tiniq tushunib turgan bo‘lsa-da, unga mantiqli javob bermaydi. Mazkur nutqiy akt mazmunidan Ramazonning nimanidir aytgisi kelmayotgani, kimnidir himoya qilib aybni o‘z bo‘yniga olmoqchiligi anglashiladi.

Nutqiy vaziyat so‘zlovchiga so‘zlarni tanlab nutq so‘zlashni taqozo qiladi. Sud jarayoni rasmiy maqomga ega nutqiy sharoit bo‘lsa-da, so‘zlovchi – sudya ayblanuvchini o‘ziga yaqinroq olib, uning ruhiyati, ijtimoiy muhitidan kelib chiqib gapiradi, ammo nutqiy sharoit, vaziyat talablariga mos kelmay qoladi:

– **Uka**, tushunsangiz-chi, biz sizga yordam qilmoqchimiz. Yaxshilab o‘ylab, to‘g‘risini ayting. Taqdiringiz hal bo‘lyapti, axir!

– **Opajon**, bir marta kechiring!

– *Men sizga “opajon” emasman!*

– O‘zingiz “**uka**” deyapsiz-ku, men nima deyin sizni? Otingizni bilmasam, familiyangizni bilmasam...

– Otimni bilishingiz shart emas. Men siz uchun – **grajdanin sudyaman!**

– Men ham **grajdanman**.

– Yo ‘q, siz endi – **ayblanuvchisiz, aybdorsiz!**

– Men... **aybdorman?! Aybdorman**, kechiring... (E.A ‘zam, Anoyining jaydari olmasi). Ma’lum bo‘ldiki, so‘zlovchi – adresant, ya’ni sudya adresatga “uka” deya murojaat qildi, biroq sudlanuvchi ham unga shu ohangda javob qaytargan edi, so‘zlovchi va nutq vaziyati uchun g‘ayriodatiy holat sodir bo‘ldi. Demak, muloqot sharti, mazmuni va qiymati nutqiy vaziyatga bevosita aloqador sanaladi.

Kinoqissalarda nutqning turli shakllaridan foydalaniladi. Ayniqsa, ichki monologlardan. Erkin A‘zam ham o‘z kinoqissalarida asar qahramonlari ruhiyatini ochish uchun shunday monologlarga ham o‘rin ajratadi: *Ramazonning qamalganiga besh oy bo‘ldi. Besh oydirki, yursam ham, tursam ham – ichimda bir tugun, qattiq, ozorli tugun. Jonim chiqadi, Ramazonni so‘kaman, so‘kaman-u, ajabo, ko‘rgim keladi uni, ko‘rgim! Uning oldida o‘zimni aybdor sezaman. To‘g‘ri, u ko‘p g‘ashimga tekkan, meni ko‘p g‘alvalarga qoldirgan; balki muttahamdir, chayqovchidir, lekin baribir – jo‘ram! Jo‘ram yotibdi. Qamoqda. Qanaqa joy ekan u? Xabar, tafsilot, kechinma shaklidagi mazkur nutqiy akt so‘zlovchining insoniylik qiyofasini ochib beradi. Bu Ramazonning qadrli inson ekanligini (yozilmagan bo‘lsa-da) ifodalab turibdi.*

Erkin A‘zamning istalgan kinoqissa janriga doir asarini o‘qigan kishida haqqoniy tasvir ko‘z o‘ngida namoyon bo‘ladi. Jumladan, “Tangrining toshi” asarida ham bu holatni kuzatish mumkin. Mazkur kinoqissada so‘zlovchi o‘z tinglovchisiga iltimos qilayotgani aks etgan nutqiy vaziyat o‘rin olgan:

M a r j o n y a n g a (sobiq o‘quvchisini tanib). Ziyodullayev, o‘zingmisan? Hozircha turib tursa bo‘larmidi...

M a r j o n y a n g a. Namuncha tiqilinch qilyapsan-a, Shaydulla? YO meni tezroq ketsin deysanmi? O‘zaro muloqotdan ham ko‘rinib turibdiki, adresant adresatga iltimos mazmunida talab qo‘ymoqda, adresat esa xaridor bir paytlar ustozi

bo'lganini inobatga olib uning so'zini ikki qila olmasa-da, sharoitni tushuntirishga harakat qilmoqda.

Suhbatning keyingi o'rinlarida so'zlovchi va tinglovchining ichki olami birin-ketin ochilib boradi. Shogird harf o'rgatganligini e'tirof etadi, ammo uning amaldagi ifodasini namoyish eta olmaydi. Bu vaziyatda ustoz uning avval aytgan gaplarini eslatadi. Qisqasi, uni insofga chaqiradi:

Sh a y d u l l a (sovuqqina). Men ish odamiman, Marina Grigoryevna, vaqtim ziq! Ruxsat bersangiz bugunoq buzib tashlayman.

M a r j o n y a n g a. Nimani buzmoqchisan o'zi? Do'kon qilaman deyayotuvding-ku?

Erkin A'zamning "Pakananing oshiq ko'ngli" kinoqissasi ham badiiy jihatdan juda puxta yozilgan, estetik jihatdan ham o'quvchini o'ziga jalb qiluvchi asarlardan. Asardagi voqealar qatori qahramonlarning o'ziga xos xususiyatlari ham diolog shaklida yorqin tasvirlangan:

D a d i l (xaxolab kulib). Balo ekansan. To'g'risi, buning hech qanday davosi yo'q, hech narsa foyda ham bermaydi. Masalan, mening qilmagan ilmu amalim qolmadi: ukol ham olib ko'rdim, hovuchlab vitamin ham ichdim, turnikka ham osildim, qoplab sabzi ham yeb ko'rdim... Foyda qilgan-qilmaganini, mana, o'zing ko'rib turibsan! Uni buni qo'y, qanchasan? Biru ellik bo'lsang kerag-a?

Sh a m sh o d. Biru ellik bir!

D a d i l. Ja-a, opqochasan-a? (Shamshodniing tuflisiga ishora qilib) Poshna hisobiga bo'lsa kerak-da?

N a y n o v (ajablanib). Menmi? (E.A'zam, Pakananing oshiq ko'ngli). Adresant bir paytning o'zida adresatga aylanishi va, aksincha, bo'lishi mumkin, bunday sharoitda muloqotni boshqarayotgan shaxs adresant – so'zlovchi, orada nutq so'zlayotgan bo'lsa-da, ikkinchi kishi adresat – tinglovchi bo'lib qoladi. Asarda o'z nomi bilan Dadil nutq vaziyatini boshqaruvchi, u mavzuni istagan tomonga bura oladi va suhbatdoshidan o'zi aytganlarga munosabatini so'raydi. Shamshod tinglovchi – adresat. Uning suhbat mavzusiga doir fikrlari so'zlovchiga juda muhim emas, faqat ma'lumot sifatida qabul qiladi, biroq o'zi aytgan har bir fikrni

suhatdoshiga uqtirishga, bajartirishga da'vat qiladi. Erkin A'zam qissalarida tilning ijtimoiy ixtisoslashuvi masalasi ham o'ziga xos tarzda namoyon bo'lgan. Yozuvchi tilning barcha lisoniy imkoniyatlaridan samarali foydalana olgan. Shuningdek, kinoqissalarda adresant va adresatning ichki va tashqi olamini yorqin tasvirlab berish uchun faqat verbal vositalarning o'zi kamlik qiladi, mazkur janrdagi asarlarning muvaffaqiyati noverbal vositalardan ham foydalanishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azizov O. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 1996 yil
2. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – Toshkent: Fan, 1985 y.
3. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 1-jild. –T.: Akademnashr, 2012 y.
4. Saidxonov M. Aloqa-aralashuv va imo-ishoralar. –T.: Fan, 2008 y.
5. Safarov SH. Pragmalingvistika. - Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008 y.
6. Serl Dj.R. Klassifikatsiya illokutivnix aktov // Novoye v zarubejnoy lingvistike. Vip. 17: Teoriya rechevix aktov. – M., 1986. – S. 88-89.
7. Ostin Dj.L. Slovo kak deystviye // Novoye v zarubejnoy lingvistike. Vip. 17: Teoriya rechevix aktov. – M., 1986. – S. 55-59.
8. Jerebilo T. V. Slovar lingvisticheskix terminov / T. V. Jerebilo. – Nazran: Piligrim, 2005. – 376 s.
9. Hakimov M. O'zbek tilida matnning pragmatik talqini: Filol. fan. dokt. ... diss. – Toshkent, 2011. – B. 94.
10. Hakimov M. O'zbek tilida matnning pragmatik talqini: Filol. fan. dokt. ... diss. – Toshkent, 2011. – B. 95.
11. Qurbonova M. Bolalarga xos nutqiy akt turlarining pragmalingvistik tahlili // Xorijiy filologiya. – Samarqand, 2016. 4-son. – B. 96-97.
12. Erkin A'zam. Pakananing oshiq ko'ngli. Kinoqissalar. – T., 2001. – B. 13.

ИСМ МОТИВЛАРИДА ПРЕЦЕДЕНТЛИК ҲОДИСАСИ

*Сайдалиева Мухлисахон Бахтиёр қизи,
ЎзР ФА Ўзбек тили, адабиёти ва
фольклори институти таянч докторанти
only_mms@mail.ru*

Аннотация: Ушбу мақола турли халқларда кузатиладиган исм танлаш мотивлари, уларнинг маданий, ижтимоий, сиёсий, диний, қонуний асослари қиёсий ўрганишга бағишланган, ўзбек исм мотивларининг ўзгариши борасидаги фикрлар баён этилган.

Таянч сўз ва иборалар: исм, исмлар фонди, социолингвистик омиллар, прецедент номлар, гендер нейтрал исмлар, мотив.

Аннотация: Данная статья посвящена сравнительному изучению мотивов выбора имени, наблюдаемых у разных народов, их культурной, социальной, политической, религиозной, правовой основе, приведены размышления об изменении выбора мотивов.

Ключевые слова и выражения: имя, фонд имён, социолингвистические факторы, прецедентные имена, гендерно нейтральные имена, мотив.

Ўзбек антропонимияси тарихида энг йирик академик тадқиқотларни амалга оширган тилшунос, шубҳасиз, Эрнст Бегматовдир. Тилшунос ўзигача бўлган туркий тиллар антропонимияси тараққиётини ўрганди ва турк, қирғиз, қозоқ, татар, туркман, қорақалпоқ исмлари тарихини даврлаштириш билан боғлиқ илмий қарашларини таҳлил қилди ва таснифлардаги баҳсли масалаларга, уларнинг камчиликларига муносабат билдиради. Э.Бегматов ўзбек (шунингдек, туркий тиллар) антропонимиясини даврлаштиришда қуйидаги таснифни келтиради:

1.Исломгача бўлган қадимий давр (тотемистик, анимистик, фетиш, космогоник ва бошқа турли хил қадимий диний ишончлар мотиви);

2.Ислом дини қабул қилингандан XX асргача бўлган давр. Бу даврда исм мотивлари ислом дини тушунча ва тамойилари асосига қурилди, исломгача бўлган туркий исмларнинг айримлари бу даврнинг тасаввури ва қарашлари таъсирида ўзгаришларга учради, сиқиб чиқарилди.

3.XX аср даври. Бу даврда (XX асрнинг 40-йилларидан бошлаб) отаисм, фамилия пайдо бўлди, ўзбек исм бериш тамойиллари исм – фамилия – отаисм учлиги асосида берила бошланди. Арабча ўзлашмалар қисқариб, янги исмлар пайдо бўлди. Исм бериш жараёнида диний мотивлардан кўра эстетик, илмий тушунчаларни ифодаловчи исмлар сони ортди [1; 147-148].

Исмлар билан боғлиқ тадқиқотларни кузатар эканмиз, давр ўтиши ва аجدодлар алмашилиши натижасида исмлар фонди ва улар асос бўлган мотивлар доимий ўзгариб турганини кўраимиз. Қадимда туркий халқлар орасида кўёш, ер, сув, осмон культларига сиғиниш асосида фарзандни шу илоҳий Тангриларга бағишлаш мотиви [2; 15] асосида пайдо бўлган кўплаб исмларни кузатиш мумкин. Шунингдек, маълум тарихий давр ўтгач, бу исмлар билан боғлиқ генетик асос йўқолган, кейинчалик бу исмлар (масалан, “ой”, “юлдуз”, “моҳ” компонентли исмлар) бошқа тушунчалар, чунончи, гўзаллик, куч-қудрат каби тушунчалар билан боғланиб қолган. V–VII асрларга оид ёзма ёдгорликларда учрайдиган Оқбош, Қорахон, Куч Барс, Бўри Сангун ёки “Бобурнома”да келтирилган Бадақабегим, Бўға, Жўҳа, Ўғонберди (“ўғон” – мўғулча “худо”) каби исмлар ижтимоий, сиёсий, маданий, диний қарашлар ва қадриятлар ўзгариши асосида бошқа исмларга алмашинади. Шу билан бирга, исм компонентларини қисқартириш ҳолати шўролар даврида анча оммалашгани, исм таркибидаги -уллоҳ (-улла), -(ид)дин қисмлари қисқаришларга учраб, янги исмлар ҳосил қилингани айтилади [3; 82-83].

Эрнст Бегматов ўзининг “Исм чиройи” номли рисоласида машҳур кишилар ёки қаҳрамонлар шарафига, уларнинг хусусиятларини, инсонийлик жиҳатларини орзулаб, тақлидан чақалоққа уларнинг номлари берилишини ҳам айтиб ўтадилар. Муаллиф бу ҳолатни ўзгалар номига тақлид қилиш деб атайди. Чиндан ҳам, ўтган асрнинг 70–90-йиллар оралиғида Алишер, Бобур,

Улуғбек, Нодира, Фуркат, Зулфия, Баҳром, Аваз, Фарҳод, Ширин, Кумуш, Йўлчи, Гули, Гулнор, Гулойим, Барчин, Рустам, Анвар, Отабек исмларининг чақалоқларга берилиши шу даврларда кенг тус олганини сезиш мумкин. Олимнинг бу фикрлари исм бериш мотивлари орасида прецедентлик ходисаси ҳам алоҳида ўрин эгаллашини исботлайди. Биз ўзбекча исм қўйиш билан боғлиқ ҳолатларни таҳлил қилиб, прецедентлик мотиви асосида исм беришни қўйидаги гуруҳларга ажратишни маъқул топдик:

- диний мотивлардаги прецедент онимлар (теонимлар (Аллоҳнинг 99 исми), пайғамбарларнинг исмлари, диний матнларда, илоҳий китобларда исмлари келтирилган ва фаолияти дин тарғиботига тааллуқли кишилар) асосида берилган исмлар;
- машҳур тарихий шахслар (миллий қаҳрамонлар, олим, ёзувчи ва шоирлар, давлат арбоблари, сиёсий фигуралар, машҳур қўшиқчи, санъаткор, спортчи, ижтимоий фаол жамият аъзолари ва ҳ.к.) исми асосида берилган прецедент исмлар;
- бадиий манба қаҳрамонлари (миф, фольклор ва бадиий адабиёт намуналари қаҳрамонлари, шунингдек, экранлаштирилган образ ва персонажлар) исмлари асосидаги исмлар.

Алишер Навоий образи, унинг умуминсоний қадриятларни тараннум этганлиги, комил инсон орзуси, асар қаҳрамонларидаги эзгуликка интилиш ва яхшилик йўлида курашувчанлик хислатлари барча даврларда ҳам юксак қадрланиб келинган. Шу сабабли ҳам Навоий асарларига, хусусан, “Ҳамса” эпопеясига бўлган юқори маънавий, адабий эҳтиёж бу асарнинг узоқ йиллар давомида қайта-қайта қўчирилишига, асарнинг тез-тез янги нашрлари пайдо бўлишига ва кенг миқёсда тарқалишига [4; 52-53] сабаб сифатида кўрсатиш ўринли. Алишер Навоий шахсига чексиз ҳурмат ва унинг асарлари қаҳрамонларига идеал сифатида интилиш халқ орасида Алишер, Гули, Фарҳод, Ширин, Баҳром исмларининг ўтган асрларда кенг оммалашишига сабаб бўлган, бугунги кунда Навоий номи билан билан боғлиқ жуда кўплаб географик объектларнинг номланиши ҳам бежиз эмас – Навоий вилояти ва

шаҳри, Тошкент шаҳридаги кўплаб маданий-маърифий марказлар (театр, кутубхона, музей, боғ, халқаро жамоат фондлари), кўча ва ҳоказо. Шахс номи асосида географик объектларни номлаш тарихан кўп кузатилади. Масалан, янги географик ёки космик объектларга ном берилаётганда ҳам шу тамойилга асосланилганликни кузатишимиз мумкин. Америка, Колумбия номларини фикримиз исботи тарзида келтирамиз.

Бадиий асардаги қаҳрамоннинг сифатлари қай даражада ҳаққоний чиқиши, персонажнинг бирор мафкурага бўйсундирилмаганлиги ёки ҳокимиятга эргаштирилмаганлиги (бу каби асарлар ва уларнинг қаҳрамонлари аксар ҳолларда маълум давр учунгина хизмат қилади) унинг халқчиллигини таъминлайди ва ўқувчиларни шу эзгу фазилатлар руҳида бирлаштиради. Шу сингари санъат асарлари асосида оммалашган исмлар сирасига Абдулла Қодирий, Чўлпон романларининг персонажлари таъсирини ҳам келтириш мумкин. Биргина “Ўткан кунлар” романининг 1969 йилда экранлаштирилиши халқ орасида Отабек ва Кумуш номлари сонининг кескин ортишига сабаб бўлганини кўрсатишимиз мумкин. Анвар, Раъно исмларининг оммалашшида ҳам персонажлар машҳурлигига, уларнинг халқ орасида ижобий қабул қилинганига том маънода ишора бор. Умуман, асар қаҳрамони маълум давр ичида ўқувчининг қизиқишига сабаб бўлган айрим фазилатнинг эталонига айланади. Мана шу каби ҳолатни Тоҳир Маликнинг “Шайтанат” асари орқали ҳам кузатиш мумкин. 1992 йилда дастлабки китоби журналда эълон қилиниб, катта қизиқиш билан мутолаа қилинаётган, жуда бўлмаса бадиий фильмини томоша қилган ўзбек китобхони ва томошабини асар номини эшитиши билан аввало Асадбек образини ёдга олади. Асарнинг ўқувчилар орасида кенг оммалашши, шунингдек, бадиий фильмнинг муваффақиятли экранлаштирилиши (1998 йил) нафақат ўша даврга хос хусусиятларни очиб бера олган, шунинг баробарида Асадбек образини қатъиятли, талабчан, бир сўзли ва ориятли эркак сифатида идеал даражасига кўтарилишига сабаб бўлди. Асарнинг бундай шуҳрат топиши яна бир ижтимоий ҳодисага ўз таъсирини

ўтказган – ундан кейин халқ орасида туғилган чақалоқлар орасида Асадбеклар сони сезиларли ошди.

Айнан шундай яна бир ҳолат турк ёзувчиси Решат Нури Гунтекин қаламига мансуб “Ҷолиқуши” романининг таржимаси нашр этилиши ва телесериали экранга узатилиши билан ҳам кузатилади. Асар персонажлари Камрон (Комрон), Муниса, Фарида образлари халқ орасида кескин оммалашди ва халқ уларни жуда яқин, алоҳида илиқлик билан қабул қилди. Шу аснода халқ орасида Камрон (Комрон) ва Муниса номлари сони ҳам сезиларли ортди.

Маълумки, мусулмон дунёсида Муҳаммад исми алоҳида ўрин тутди, бу исм алоҳида эъзозланади. Муҳаммад исми ва шу компонентли исмлар қўйилиши туб аҳолиси ислом динига эътиқод қилувчи мамлакатлардан ташқари, бошқа дин вакиллари яшайдиган мамлакатларда ҳам фаол учрамоқда. Бу исм бугунги кунда америкаликларнинг энг кўп қўйилувчи исмлари рўйхатининг ўнталигига кирган [5], Дания, Англия, Буюк Британия, Голландияда, шунингдек, Австрия (2017 йилнинг энг кўп қўйилган исмлар рейтингда 3-ўринда) [6] ва Бельгияда (2017 йилда энг кўп қўйилган ўғил болалар исми орасида биринчи) [7] ҳам янги туғилган чақалоқларга Муҳаммад исми кўп берилмоқда, дунё бўйлаб 150 миллион киши Муҳаммад исмини олган [8]. Бу исмнинг дунё миқёсида фавқулодда оммалашishi ислом дини ва биринчи мусулмонлар жамоаси асосчиси, ислом аҳкомларига кўра, Аллоҳнинг охирги пайғамбари (Расулуллоҳ) Муҳаммад ибн Абдуллоҳ (с.а.в) номи билан боғлиқ. Мусулмон дунёсининг олий идеали, даҳо сифатида тан олинган Аллоҳнинг расули Муҳаммад (с.а.в) қатор оммавий нашрларда, хусусан, америкалик астрофизик Майкл Харт томонидан нашр этилган “Тарихдаги энг нуфузли 100 киши” (The 100: A Ranking of the Most Influential Persons in History) [9] китобига ҳам динни қисқа фурсатларда катта ҳудудларга ёйиб, кенг оммага тарғиб эта олган даҳо сифатида биринчи рақамли энг машҳур киши сифатида эътироф этилади.

Бугун ҳам ўзбек исмлари, уларнинг замонавий мотивлари тадқиқига бағишланган илмий ишларга эҳтиёж сезилмоқда. Исмларни ўрганиш,

уларнинг мотивлари таҳлилини бошқа миллатлар ёки турли даврлардаги ўзгаришлар билан таққослаш ва кузатиб бориш зарурати ҳам пайдо бўлмоқда. Бу йўналишдаги тадқиқотларни амалга ошириш миллатнинг исмлар фондида пайдо бўлаётган янги исмларнинг асос мотиви сақланиб қолишига, кейин юзага келиши мумкин бўлган чалкашликларнинг олди олинишига сабаб бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар:

- 1.Бегматов, Эрнст. Ўзбек антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. 147-148 б.
- 2.Бегматов, Эрнст. Исмларнинг сирли олами. – Тошкент : «Ўзбекистон», 2013. 15-бет.
- 3.Бегматов Э. Исм чиройи. 82-83-бетлар.
- 4.Эшонбобоев А. Алишер Навоий ижоди ва тарихий-функционал метод \\\ “Ўзбек тили ва адабиёти”. – Тошкент, 2021. №2. 52-53-б.
- 5.<https://www.aljazeera.com/features/2019/12/6/muhammad-breaks-into-top-10-most-popular-us-baby-names-in-2019>
- 6.<https://kun.uz/46686079>
- 7.<https://kun.uz/98647910>
- 8.<https://davxizmat.uz/oz/news/farzandlarimizga-mos-bolgan-islarni-qoyishganimalarga-etibor-berishimiz-zarur>
- 9.<https://ru.wikipedia.org/wiki/>

THE ROLE OF DEICTIC UNITS IN TEXT CREATION

UGILOY NOMOZOVA

*Academy of Sciences of Uzbekistan
Institute of Uzbek language, literature and folklore
Junior Research Fellow,
Department of Terminology and Lexicography
nomozova96@bk.ru*

Abstract: This article describes the deixis phenomenon and the deictic units, their sign semantics, and their functions. As you know, deixis is a universal phenomenon that occurs in all languages. Therefore, the study of deixis and deictic

units, especially their study in context, serves to further reveal the expressive potential of linguistic units in linguistics. To this end, this article examines and articulates the scientific theories of a number of linguists about deictic units, and the author's views on scientific theories.

Keywords : pragmalinguistics, deixis, deictic units, speech situation, context, text.

Introduction

In recent years, linguistics has been dominated by the idea of linking language units to the human factor, the person who uses it. In this case, the study of language phenomena in relation to non-linguistic factors: age, gender, profession, language skills, linguistic thinking, psyche, knowledge of the object of speech, perceptions of the world, etc. and new directions have emerged that explore the attitude of the language owner. In particular, areal linguistics, linguoculturology, sociolinguistics, neurolinguistics, psycholinguistics, ethnolinguistics. Pragmalinguistics is one of such field of modern linguistics which is considered to be a unique field. Pragmalinguistics is one of the disciplines of modern linguistics that studies the units of language in relation to the human factor. In this process, the analysis of language units focuses on external factors such as their speech situation, the general knowledge of the speaker and the listener about objective existence. This field began to take shape as an independent science in the 60s and 70s of the last century. His subject matter expanded. As a result, a number of internal branches of pragmalinguistics began to emerge, such as the theory of speech act, discourse theory, pragmasemantics, pragmatilistics, deixis theory. Although a number of studies have been conducted in this area by linguists in recent years, there are still many unresolved issues in pragmalinguistics. The deixis case is one such issue.

Research method

In pragmalinguistics, one of the issues in the study of linguistic units in relation to the context of speech is deixis theory. "In pragmalinguistics, the use of language units to interpret participants in communicative communication, a

particular reality, the time and location it took place and etc., is interpreted as a deixis phenomenon, and the sign units of language are interpreted as deictic units [10].

Depending on the purpose of the speaker in speech, it is necessary to study the phenomenon of deixis, such as finding a semantic connection between language units, referring to the context and thereby restoring information known to the participants [3, 19]. Consequently, the deictic units that give rise to the deixis phenomenon are one of the important factors determining the communicative function of language units. This means that in speech activity there is always a need to connect the linguistic form with reality and to express a personal attitude towards it. The implementation of the same tasks is the responsibility of deictic means [10, 168].

The word "deixis" means "show" in Greek. In linguistics, it means "a sign of reality." Deictic units are used by some linguists as indexes. Scholar Y.V. Paducheva unites sign-specific units under the name of egocentric units. According to him, egocentric units are units that arise through reference to the speaker, referring to the concepts of person, space, and time. Simply put, you, here, now, the words point to the speaker (me, us). Accordingly, the ego (Latin: "ego" - I), the center, is the unit in which the speaker is in the center. As can be seen, in linguistics, along with the term deictic unit, there are other terms, which, although called differently in form, are used in a semantic sense, that is, they are all semantically specific units.

It is known that from the second half of the twentieth century, the phenomenon of deixis began to be studied as a universal category that applies to all levels of language. In fact, the concept of deixis has existed since ancient times, but has not been studied as a separate branch of linguistics. With the development of human-centered anthropocentric linguistics, the emphasis on the study of language units in relation to the state of speech and context has increased significantly. In linguistics, the deixis phenomenon was studied first by the German scientist K. Brugman [9, 63]. His work was developed later by K. Buhler. In particular, K. Buhler in his work "Language Theory" expressed his views on the essence, types and functions of deictic units of deixis theory [2].

There are units in language that have a sign language feature, and deixis is a linguistic phenomenon that reflects this feature. The text plays an important role in understanding the essence of deixis. Levinson (grammaticalisation) describes the pragmatic nature of the deixis phenomenon and its ability to express a specific content directly related to the text of the dialogue: Deixis is also concerned with the analysis of dialogue text. In contrast, this (this) pronoun does not refer to any real object, but rather to the object of reality spoken of in a particular context” [6].

The main function of deictic means of creating deixis is to connect language units with reality in the process of communication and to express a subjective attitude towards it. The use of deictic phrases plays an important role in the correct formation of speech. At the same time, it ensures that the speech is meaningful and effective. In this regard, the following statement of the Russian scientist B.A.Serbrenko on the phenomenon of deixis is valid: “Deixis is a peculiarity of human speech activity. In the world of inanimate things, there are no deictic means, and there is no need for that. Distinguishing an object from other objects and pointing to it does not change the nature of the object. It takes a person to get a deixis of speech. Speech deprived of deictic units may be completely incomprehensible to the listener [11, 146]. It is understood that in human speech activity, even morphemes can act as deictic units and create a grammatically correct literal speech as well as a pure communication environment that is understandable to both the speaker and the listener.

Indeed, the notion of relativity in the semantics of deictic units is a characteristic of deictic characters because deictic expressions do not directly name a particular object, but rather describe that object according to its speech situation. This process is based on the situation of the speech or the purpose of the speaker. Dictate units differ from nominative units in that they directly name an object with this feature. According to the linguist N.Mahmudov, the essence of deixis is as follows: can be considered as” [7, 18].

Deictic units are used to identify a specific part (s) of information being transmitted. Therefore, the components of a deictic center are:

1. The central person is the speaker.
2. Central time (time) – the time when the speech action is performed.
3. The central space is the position of the speaker during the speech.
4. Social center – the social status of the speaker [5].

In the center of each of the four parts listed above is the individual. This is because the narrator determines the central time and the central space in relation to the time and place he occupies. The social center is also determined by the position of the speaker. As can be seen, deixis creates a unique semantic field in the language, at the center of which is the creator of speech, i.e. the speaker himself [12, 163–167].

The views of Y.D. Apresyan are also important in a better understanding of the Deixis phenomenon. He also emphasizes that the concept of personality is at the heart of deixis. Y.D. Apresyan points out that the following basic concepts and contradictions should be taken into account when understanding deixis:

1. Deixis is an egocentric concept. Its semantic basis is the concept of "I", "speaker". In this case, the speaker is the center, which determines the time and place of the act of speech.

2. The contradiction of "I am different" is a deictic opposition. There is a difference between near and far deixis.

3. Primary and secondary deixis. Primary deixis is a deixis of communication, a state of live, real communication. In this, the speaker and the listener see each other, and the situation around them, the perception of being is open to everyone. Secondary deixis is not related to the situation of the speech, but to the narration. In such a deixis, the role of the speaker and the timing of the narrative are characterized by a mismatch between the real place and the time of the situation being narrated. In this case, deictic units are used to express the consciousness of another and serve an anaphoric function [1].

According to S.D. Katznelson, who spoke about the essence of deixis, deictic words are characterized by:

- 1) situational – semantic dependence on the state of speech;
- 2) egocentricity – a constant dependence on the subject of speech;

3) subjectivity – an external object is defined by a completely random feature associated with the speaker [4].

As can be seen from all of the above considerations, deixis is a phenomenon that occurs directly in relation to the speech situation and the speech performer. This means that the process of studying deixis does not take place without a text environment.

According to M.Kurbanova, deixis is a universal phenomenon specific to all languages, reflecting the functional nature of linguistic units. Its main essence is to refer to things in the external world using verbal and nonverbal means in language [9, 50]. As we have seen, the deciphering function of deictic units determines its true nature. Thus, the indication semantics and function of deictic units are comprehensive, as reflected in the dialogue text.

Conclusion

In conclusion, the study of the deixis phenomenon is of particular importance in illuminating the expressive potential of linguistic units. The judicious use of deictic units in the text of a conversation increases the effectiveness of the speech, which is important for the correct formation of the speech and the delivery of the speech in a way that is understandable to the listener. After all, it is impossible to imagine a particular speech situation without the units of sign – deictic units. In the process of studying deictic units, it is necessary to analyze it in relation to the text, the context. Speech and deixis are closely related. The role of deictic units in the creation of text is unique. At the same time, they bind the parts of the text together, clarifying the information conveyed by the speaker in the text, and preventing speech confusion that can occur as a result of repeated use of the same word in the same text.

References:

1. Апресян Ю.Д. Дейксис в лексике и грамматике и наивная модель мира. http://lpcs.math.msu.su/~uspensky/journals/siio/35/35_12APRES.pdf
2. Бюлер К. Теория языка. Репрезентативная функция языка. – Москва: Прогресс, 2001. – 528 с.

3. Давлатова Р. Ўзбек тилининг дейктик бирликлари: Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2020. – 19 б.
4. Кацнельсон С.Д. Общее и типологическое языкознание / С.Д.Кацнельсон ; под ред. А. В. Лесницкой. – Ленинград : Наука, 1986. – 298 с
5. Крылов С.А. К типологии дейктических систем, в сб.: Лингвистические исследования, ч. 1. – Москва. 1984. – 64 с.
6. Levinson S.C. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge Univeristy Press, 1984.
7. Mahmudov N. Ergash gaplarning tabiati va tasnifi masalasi // O‘zbek tili va adabiyoti jurnali, 1991. – №3, – В. 18.
8. Курбонова М. Ўзбек болалар нутқининг прагматик хусусиятлари: Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2018.
9. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2008. – 318 б.
10. Серебренников Б.А. Роль человеческого фактора в языке: Язык и мышление. – Москва: Наука, 1988. – С. 146.
11. Умурзокова М. Дейктик белгили сегмент курилмалар прагматикаси // НамДУ илмий ахборотномаси. – Тошкент, 2019. – №11. – Б. 163-167.

BADIIY TARJIMA VA TIL

(badiiy tarjimada til xususiyatlarini inobatga olish xususida ba’zi fikr-
mulohazalar)

*Hoshimjon Quchqorov, Chirchiq davlat pedagogika
instituti O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrası o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada badiiy tarjima va til, tarjima san’ati, tarjima nazariyasi va tarjimaning o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, tarjima usullari va uning tasnifi, tarjimonning kasbiy mahorati va imkoniyatlari xususida ham ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: badiiy tarjima, til, tarjimon, matn, muqobillik, tarjimonning kasbiy mahorati, tarjima nazariyasi, tarjima usullari.

Аннотация: В статье рассматриваются художественный перевод и язык, искусство перевода, теория перевода и специфика перевода.

Также предоставляется информация о способах перевода и их классификации, а также о профессиональных навыках и возможностях переводчика.

Ключевые слова: художественный перевод, язык, переводчик, текст, альтернатива, профессиональные навыки переводчика, теория перевода, методы перевода.

Asrlar davomida tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, hech bir adabiyot, hatto nufuzli xalqlarning buyuk adabiyoti ham boshqa xalqlar adabiyoti va madaniyati bilan bog'lanmagan holda shakllanmagan va rivojlanmagan. Antokolskiy aytganidek: "Tarjima bu xalqlar o'rtasidagi do'stlikning eng oliy ko'rinishidir"

Shekspir, Mark Tven, Daniyel Defo, Jeyn Osten, Charlz Dikkens, Jonatan Svift, Artur Konan Doyl kabi ingliz yozuvchilarining mashhur asarlari jahon tillariga, shuningdek, mahoratli tarjimonlarimiz tufayli tojik tiliga tarjima qilindi va xalqning sevimli kitoblari ro'yxatidan joy oldi. H.Ahrori, A.Dehoti, U.Xoliqov, R.Hoshim, M.Rahimiy, A.Edelman, V.Demidchik, X.Irfon, E.Muloqandov, Iskandariy, M.Azizmurokov, S.Ulug'zoda, M.Shukurov, K.Ayniy, Sh.Sobir, J.Odina, Sh.Sharaf, S.Saloh, A.Nasimov kabi mashhur tojik tarjimonlari ingliz adiblari ijodi ustida ishlagan va ularni rus tilidan tojik tiliga imkon qadar tarjima qilganlar. Ular tojik kitobxonlarini yuqori sifatli tarjimalar bilan ta'minlash va ularda ingliz xalqi madaniyati va hayotini o'rganishga qiziqish uyg'otish uchun barcha sa'y-harakatlarini amalga oshirdi.

Til va madaniyat qoidalarining xilma-xilligi tufayli tarjimon uchun tarjima qilishda bir qator qiyinchiliklar mavjud. Tarjima tilshunoslikning bir tarmog'i sifatida o'ziga xos qonun va qoidalarga, shart va jarayonlarga ega. A.S. Barxudarov, A.V. Fyodorov, A.D. Shveysariya, V.N. Komissarov kabi mazkur soha mutaxassislari tarjima san'ati bo'yicha qimmatli ilmiy asarlar yaratdi, uning nazariyasini har tomonlama mukammallashtirdi.

Badiiy asarlarni tarjima qilishda ba'zan so'zlarning ma'no doirasi, grammatik ifoda vositalari, gaplarning sintaktik tuzilishi, terminologiyasi mos kelmaydi. So'zlar va gaplar tarjima qilinmaydi, balki boshqa ma'noda, turli yo'llar bilan beriladi. Tarjima nazariyasi bo'yicha mutaxassislar N.I. Solntseva, A.S. Barxudarov tarjimaning uchta usulini aytib o'tgan: yo'qotish, qo'shish va almashtirish [5;2].

H.Axroriy badiiy tarjima nazariyasida "yo'qotish" va "almashtirish" tushunchalari mavjudligini, ayrim o'ziga xos leksik elementlarni so'zma-so'z tarjima qilib bo'lmashligini, shuning uchun ular yo'qolib qolishi yoki so'z yoki ibora bilan almashtirilishini ta'kidlaydi. Binobarin, «yo'qotish» «almashtirish» o'rnini egallab, asar ruhiga xalaqit bermasa maqsadga muvofiqdir [7;101].

Ingliz adabiyoti bo'yicha kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, o'rganilayotgan tildagi asl matnning ma'nosini to'liq va chuqur anglash uchun biz muqarrar ravishda ushbu uchta tarjima usuliga duch kelamiz, jumladan:

a) yo'qotish, ya'ni so'z, ibora, hatto jummalarni yo'qotish. Tarjimon asl ma'nosini yo'qotmagan holda gapning ayrim qismlarini kesib tashlashi mumkin. Buni Hakim Karim tarjimasida ham ko'rishimiz mumkin: Tom he made a sign to me – kind of a little noise with his mouth – and we went creeping away on our hands and knees. - Tom sekin hushtak chaldi va biz oldinga emakladik [8;10].

Bunda "qo'l-tizamizda" so'zlari yo'qolib, gapning birinchi qismi "menga ishora qildi – og'zi bilan bir oz shovqin" kesib tashlangan, agar bu gapni butunligicha tarjima qilsak, shunday bo'ladi: "Tom past ovozda menga ishora qildi va biz qo'llar va tizzalar ustida emaklay boshladik." Agar tarjimalarni solishtirsak, ular orasida farq yo'q. Ya'ni, bunday yo'qolgan iboralar matn badiiyligiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi.

b) qo'shimcha, ya'ni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilganda fikrni to'liq va aniq ifodalash uchun tarjimon so'z va iboralarni qo'shish orqali mavzuni aniq tushuntirishi kerak. Xususan, tojik tarjimonlari qo'shish usulini qo'llashga muvaffaq bo'lgan: The King thy father! Oh, my child! unsay these words that be freighted with death for thee... [10;32]. – Seni otang shoh! Ey o'g'lim! Bu gaplarni boshqa aytma, o'zingni nobud qilma ... [10;52].

Asl jumlagi nazar tashlaydigan bo'lsak, "yo'q joydan" iborasi tarjimon tomonidan qo'shilmagan ko'rinadi, ko'zda tutilgan tilda tilga olingan jumlar takomillashtirilgan, bu esa tarjimonning yaxshi iste'dodi tufaylidir.

Darhaqiqat, tarjima sodda va tushunarli bo'lib, o'quvchiga hissiy ta'sir ko'rsatadi, bu tarjima qilingan matndagi asl matnning ta'sirini aks ettirishi kerak:it had a hundred thousand inhabitants some think double as many"[10;2]. - ... bu shaharning aholisi yuz ming deb baholangan va ba'zi odamlar uni ikki barobarga, ya'ni ikki yuz ming yil taxmin qilganlar [10;4].

Agar gapning birinchi qismini so'zning to'g'ridan-to'g'ri ma'nosida tarjima qilsak, bu: "London o'n besh yuz yoshda edi" degan ma'noni bildiradi. Masalan, ushbu asar yozilayotganda ingliz tilining nutq qismlari va boshqa lingvistik qoliplari hozirgi mavqeiga ega emas edi. Natijada "o'n besh yuz" emas, "o'n besh asr" ma'nosini bildiradi. Biroq ikkinchi jumlada "bir" sonini bildiruvchi "a" artiklining taxminiy sonini ham beradi: "yuz ming". "Ikki barobar ko'p" so'zi qo'shilgan, bu ikki barobar ko'p degan ma'noni bildiradi. Bunda Chukovskiyning rus tiliga tarjimasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi: Bunda tojik tarjimoni R.Hoshim "double as many"("ikki barobar ko'p") ma'nosini aniqroq ko'rsatish maqsadida "iiki baravar, ya'ni ikki yuz ming yil"ni qo'shadi.

Badiiy matnlarni tarjima qilishda tarjimon uchun boshqa muammolardan biri tarjimada ma'noni ochib berish to'sqinlik qiladi. Muammo shundaki, boshqa xalqda emas, balki bir xalqning real mavjudligida mujassamlashgan so'zlar turkumi mavjud bo'lib, bu ularni tarjima qilishga to'sqinlik qiladi.

c) almashtirish usulining o'ziga xos usullari bor: leksik konvertatsiya, gap bo'laklarini o'zgartirish, sintaktik tuzilmani o'zgartirish, fikr almashish, kompensatsiya va hokazo. Tarjima jarayonida transformatsiyalar muqarrar, chunki turli tillarning grammatik tuzilishi, leksik tarkibi, tillarni tavsiflash vositalari tubdan farq qiladi. Masalan, "Shahzoda va tilanchi" tarjimasida lug'aviy konvertatsiya usuli ko'p uchraydi: Drunkenness, riot and brawling were the order, there, every night and nearly all night long [10;3]. – Bu yerda ichish, urishish, janjal qilish odatiy hol edi [10;6].

Frazeologik brikmlar tarjima qilinmasligi aniq. Bu jumlada ham qo‘l iborasi ikki-uch kishi o‘rtasidagi kelishmovchilik va qo‘l berib ko‘rishishini bildiradi: The King hath said it. None may palter with the King’s command, or fit it to his ease, where it doth chafe, with deft evasions.

Shoh chunin farmudaand. Hej kas jur’at nadorad, ki az farmoishoti shoh gardantobi kunad va yo misli libose, ki ba badan tang ast, onhoro ba mayli xud burida digargun namoyad. – Podshoh shunday buyurgan. Hech kim podshohning buyrug‘iga bo‘ysunmaslikka, yoki tanaga tor kelgan kiyim kabi ularni o‘z xohishiga ko‘ra kesib o‘zgartirishga jur’at eta olmaydi.

Shu nuqtai nazardan, “yuz o‘girmoq”, “qochmoq”, “e’tiroz bildirmoq” iboralari umumiy rad etishdir. Darhaqiqat, ingliz tilida, asosan, modal fe’llar va yordamchi fe’llar keng ma’noga ega bo‘lib, o‘zbek tiliga tarjima qilishda ularga aniqlik kiritish lozim.

Har tomonlama tahlil qilish natijasida shunday chuqur xulosaga keldikki, iste’dodli tojik tarjimonlari ingliz tilida yozilgan asarlarning g‘oyaviy mazmuni, shakl va ruhi, ingliz yozuvchilarining uslubidan yaxshigina xabardor bo‘lib, tojik kitobxonlari mutolaa jarayonida ingliz tilining boyligi, ingliz xalqining madaniyati, urf-odatlar bilan yaqindan tanishishga muyassar bo‘ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Александрова, О.А. Лексические трудности перевода с английского языка на русский: теория и практика / О.Л. Александрова. Лексическая семантика. - М.: Наука, 1974. - 345 с.
2. Мамадназаров, А. Фарҳанги англисӣ-тоҷикӣ / А.Мамадназаров – Душанбе, 2007. – 1016 с.
3. Муллоджанова, З. Стил ӯригинала и перевод / З. Муллоджанова. – Душанбе, 1977. – 136 с.
4. Прошина, З.Г. Теория перевода / З.Г. Прошина. Уч. на англ. яз. – Владивосток: Изд-во Дальневост. ун-та, 2008 (3-е изд., перераб.), 2002 (2-е изд., испр. и перераб.), 1999 (1-е изд.).

5. Ахрорӣ, Ҳ. Тӯйхӯрии мӯйсафедон / Ҳ. Ахрорӣ // Маҷмӯи ҳикоя ва мақолаҳо. – Душанбе, 1984. – 160 с.
6. Твен М. Саргузашти Геклберри Финн / М.Твен. – Сталинобод: Нашриёти Давлатии Тоҷикистон, 1952. – 312 с.
7. Твен М. Шохзода ва Гадо / М.Твен / Аз забони русӣ тарҷумаи Р.Ҳошим., - Душанбе: Ирфон, 1975. – 220 с.
8. Ҳемингвей Э. Пирамард ва баҳр / Э. Ҳемингвей – Душанбе: Бухоро, 2014. – 167 с
9. Hemingway E. The Old Man and the Sea / E.Hemingway. – Душанбе: Бухоро, 2014. – 167 с.
10. Twain M. The adventures of Huckleberry Finn / M.Twain. – М., 1973. – 303 p.

O‘ZBEK TILIDA FE’L ZAMONLARINING ALMASHINIB QO‘LLANISHI

*Ayxodjayeva M.S., O‘zDJTU, dotsent v.b.
Muxiddinova F.A., BD-01-20-guruh talabasi*

Annotatsiya: O‘zbek tilida boshqa ko‘pgina tillarda, jumladan, rus tilida ham bo‘lgani kabi, fe’l zamonlarining almashinib qo‘llanishi deb ataluvchi hodisa ko‘p uchraydi. Maqola mualliflari turli misollar yordamida mazkur hodisaning sodir bo‘lish sabablariga e’tiborlarini qaratganlar.

Аннотация: В узбекском языке, как и во многих других языках, в том числе и в русском, распространено явление взаимозаменяемости времен глагола. Авторы статьи, используя различные примеры, обратили своё внимание на причины данного явления.

Fe’l harakatni bildiruvchi so‘zlar turkumi va shu turkumga oid so‘zlar bo‘lib, nima qilmoq? nima bo‘lmoq? so‘roqlariga javob bo‘ladi. Grammatikada “harakat” so‘zi keng ma’noli tushuncha bo‘lib, nafaqat harakatni, balki holat yoki hodisani ham bildiradi, masalan: **yurmoq, sakramoq, uloqtirmoq, yig‘lamoq, uxlamoq, zavqlanmoq, hayajonlanmoq, tinchimoq, qurimoq, ko‘paymoq** va hokazo.

Fe'l asosida ifodalangan harakat-holatning uch zamondan birida sodir bo'lishini bildiruvchi shakllar zamon shakllari sanaladi. Fe'l uchta zamon shakliga ega: o'tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon.

O'tgan zamon shakllari harakat va holatning gap aytilayotgan vaqtdan oldin bo'lganini bildirib, uning yaqin o'tgan zamon (**-di**), uzoq o'tgan **zamon (-gan (-kan, -qan))**, o'tgan zamon davom (**-r(-ar))**, o'tgan zamon hikoya (**-b(-ib))** kabi shakllari mavjud. Masalan: **bordi; borganman yoki borgan edim; borar edik; boribdi** kabi.

Hozirgi zamon shakllari harakat va holatning gap aytilayotgan vaqtda yuz berishini ifodalab, uning hozirgi zamon davom (-yap, -moqda, -(a)ytir), hozirgi-kelasi zamon (-a(-y)) shakllari qo'llanadi. Masalan: **kelyapmiz, kelmoqda, kelayotir; kelasiz, kelmaysiz** kabi.

Kelasi zamon shakllari harakat yoki holatning gap aytilayotgan vaqtdan so'ng yuz berishini bildiradi. Uning kelasi zamon maqsad (-moqchi) hamda kelasi zamon gumon (**-r(-ar))** shakllari bor. Masalan: **ko'rmoqchimiz; (balki) ko'rarman** [1].

Shu o'rinda aytish kerakki, boshqa ko'pgina tillarda bo'lgani kabi, hozirgi zamon o'zbek tilida, ayniqsa, og'zaki nutqda, jumladan, badiiy asar qahramonlari tilida grammatik zamon shaklining voqea sodir bo'lgan (bo'layotgan) vaqt bilan mos tushmasligi hodisasi tez-tez uchrab turadi. Bunda fe'l zamonlarining almashinib qo'llanishi hodisasi kuzatiladi [2].

1. Odatda, kelasi zamon ma'nosini ifodalaydigan fe'l shakli (dastlabki ikki misolda shart maylidagi fe'llar) o'tgan zamon ma'nosini ifodalaydi:

- **Kelsam... Bu ahvol. Rustam akamni olib ketishgan ekan. Uy to'la odam. Melisalar...** [3].

- **O'tgan kuni desangiz, uyni boshdan oyoq tozalagan edim.**

- **– Hasanjon kerak edi.**

- **O'zlari kim *bo'ladilar?* (N.Safarovdan) [5].**

2. Hozirgi-kelasi zamon shakli o'tgan zamon ma'nosini ifodalaydi:

• Ul muhtarama (Oisha roziyallohu anho) aytadi: “Rasululloh alayhissalom meni shavvol oyida nikohlab oldilar....” (“Хадис”dan).

3. Hozirgi zamon davom shakli o‘tgan zamon ma’nosini ifodalaydi:

• Tikka qirga yo‘l oldik. Hali ketyapmiz, hali ketyapmiz. Qani lolazor ko‘rina qolsa! (Sayyor) [5].

• ...maydalab, ezib, yomg‘ir yog‘moqda. Qayoqqa qaramay, ko‘z o‘ngimda tuman..., go‘yo olam faqat tumandan yaralganday. O‘rmon ichra adashib, tentirardim. (“Sharq Yulduzi”)

Bu yerda soz‘lovchi o‘tgan voqealarni ko‘z oldiga keltirib, yangidan tasavvur etadi. Tinglovchini ham shu voqealarni o‘zi kabi tasavvur qilishga hozirlaydi. Ana shunday ruhiy talab natijasida hozirgi zamon fe‘l shakllaridan o‘tgan zamon voqealarini tasvirlash yuzaga keladi.

4. O‘tgan zamon shakli hozirgi-kelasi zamon ma’nosini ifodalaydi.

Aslida, o‘tgan zamon fe‘l shakllari juda kam o‘rinlardagina boshqa zamonga ko‘chishi mumkin. To‘plagan materiallarimiz o‘zbek tilida o‘tgan zamon fe‘l shakllarining ko‘chish o‘rinlari bir necha xil ekanligini ko‘rsatadi.

• Urush talab chiqqan Avazxon,
Bir yurtlarga *safar qilding* begumon.

Rost aytgin, jon bolam qayga borasan? (Fozil Yo‘ldoshdan) [5].

• – Xo‘p, *bordim* ham, *topdim* ham deylik, ammo bu gaplarni unga qanday aytaman?

• – Bizning sexda har kuni bir yangilik o‘ylab topishadi. Lekin bu haqda maqtanayotganim yo‘q-ku! Sen bo‘lsang nuqul o‘sha...

– Ilg‘orlaringni maqtaysan, xolos, degin.

– Nima maqtasa *arzimaptimi*? Axir, sen bilan biz shunday kishilarimiz bilan faxrlanishimiz kerak. (J.Abdullaxonovdan) [5].

Bu so‘nggi misolda o‘tgan zamon hikoya fe‘li orqali hozirgi zamon ma’nosi ifodalanganda, o‘tgan zamonda boshlangan va davom etib turgan harakatlar haqida fikr yuritiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'zbek tilshunosligida fe'l zamon shakllarining ko'chma qo'llanishi – turli ma'no nozikliklarni bildirish, ifodalilik, tezkorlik, badiiy tasvir, jonlantirish uchun xizmat qiladi, asarning janr xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan bu vositadan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduraxmonov R. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent.: O'qituvchi. 1997.
2. Сайфуллаева Р., Менглиев Б. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т.- 2009.
3. Хошимов Ў. Тушда кечган умрлар. Роман. Т.- 2019.
4. Ҳадис. Ал-Жомий Ас-Саҳих. Қомуслар бош таҳририяти. Т.- 1992
5. <https://forum.ziyouz.com/index.php>.

O'ZBEK XALQ SHEVALARI - ADABIY TILNING BOYISH MANBASI SIFATIDA

*Sh.T.Mo'minova, TVCHDPI
O'zbek tili va adabiyoti magistri.
Ilmiy rahbar: A.M. Shofqorov
TVCHDPI dotsenti*

Annotatsiya: Ushbu tezisda adabiy til va uning boyish manbalari, o'zbek xalq shevalari hamda lahjalari haqida so'z boradi.

Аннотация: В данной работа идет о литературном языке и источниках его обогащения, узбекских диалектах и говорах.

Kalit so'zlar: Adabiy til, sheva, I chki manba, tashqi manba, dialekt, dialektologiya, milliy til, lahja.

Shevalar tilshunoslikning dialektologiya bo'limida o'rganiladi. O'zbek Shevalarini o'rganishga G'ozzi Olim Yunusov, Ye.D. Polivanov, A.K. Borovkov, V.V. Reshetov, F. Abdullayev, ShevaShoabdurahmonov, A. Ishayev, S. Otamirzayeva, O. Madrahimov va boshqalar katta hissa qo'shdilar.

O'zbek tili leksikasi bir qancha manba asosida boyib, rivojlanib boradi. Uni, eng avvalo, ikki katta guruhga ajratish mumkin: 1) ichki imkoniyat; 2) tashqi imkoniyat.

Birinchisi ichki manba, ikkinchisi tashqi manba deyiladi: 1. O`zbek tili lug`at tarkibining birinchi yo`l bilan boyib borish imkoniyati juda keng. Masalan: a) ilgari qo`llanib, keyin iste`moldan chiqib ketgan so`zdan yangi tushunchani ifodalash uchun foydalanish: vazir, hokim, viloyat, shirkat, noib, tuman kabi; b) yasovchi qo`shimcha yordamida yangi so`z yasash: uyali (telefon), omonatchi, pudratchi, bojxona, auditchi (auditor), dizaynchi (dizayner) va boshqa; d) shevaga xos so`zni faollashtirish: mengzamoq (Xorazm) «o`xshatmoq», «tenglashtirmoq», «qiyoslamoq» ma`nosida. 2. O`zbek tili lug`at tarkibi tashqi manba asosida ham boyib bormoqda. Dunyoda ichki imkoniyati asosidagina rivojlanadigan til yo`q. Faqat ma`lum zarurat tufayli yangi tushunchani tilimizning ichki imkoniyati asosida ifodalab bo`lmagandagina tashqi manbaga murojaat qilish foydali. Mahmud Koshg`ariy, Alisher Navoiy ham shunga da`vat qilgan. Keyingi davrda tilimizga Yevropa tillaridan bir qancha so`z yangi tushuncha bilan birgalikda kirib keldi. Masalan: monitoring, diler, skaner kabi. Buning hammasi o`zbek tili leksik imkoniyatini kengaytirib, boyitmoqda.

Sheva– faqat muayyan hududga xos ayrim belgini o`zida namoyon qilgan til shakli. Dialekt so`zi gohida sheva, gohida lahja atamasi o`rnida keladi: Toshkent dialekti (shevasi), qipchoq dialekti (lahjasi) kabi. Adabiy til lahja va sheva negizida umumlashtirish, qat`iy me`yorni ishlab chiqish yo`li bilan hosil qilinadi va undan oziqlangan holda muttasil rivojlanib boradi. Shuning uchun adabiy til xalq shevasidan uzilgan emas. Adabiy til uchun sheva boyishning ichki manbasi ya'ni yuqorida ta'kidlab o'tganimdek 1-manbasidir.

Sheva so`zi fanda dialektizm deb ham yuritiladi. Sheva (fors. — harakat tarzi, tarz, usul) — tilning fonetik, grammatik va lug`aviy jihatdan o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`lgan eng kichik hududiy ko`rinishi — sezilarli lisoniy tafovutlari bo`lmagan bir yoki bir necha aholi maskani (odatda, qishloq)da yashovchilarning so`zlashuv vositasi sifatida qo`llanadi. Sheva — bu boshqa Sheva tizimlaridan fonetik, grammatik, so`z yasalishi va lug`aviy belgilariga ko`ra farqlanuvchi lisoniy tizim sifatida mavjud bo`ladi. Masalan qipchoq lahjasining mang`it yoki saroy shevasi, qarluq lahjasiga mansub marg`ilon shevasi va boshqalar

o'zbek tilining eng kichik hududiy ko'rinishlari hisoblanadi. Alohida Shevalar birikib, lahjani tashkil etadi.

Shevalar tizimining murakkablik darajasi, asosan, ekstralingvistik omillar: Shevaning alohidalanish (ajralib qolish) darajasi, muayyan Sheva vakillarining boshqa Shevalar va tillarning vakillari bilan aloqa qilish darajasi, adabiy tilning shahriga ta'siri va shahrik.ga bog'liq. Alohida ajralib qolgan Shevalarda uning vakillari bilan atrofdagi aholi o'rtasida aloqalarning yo'qligi (geografik yoki siyosiy sabablar, atrofdagi aholining til, madaniyat, diniy e'tiqod jihatdan ayni Sheva vakillaridan keskin farklanishi tufayli), sheva vakillarining an'anaviy turmush tarzini saqlab qolishga astoydil intilishi oqibatida Sheva juda sekinlik bilan o'zgaradi, katta va kichik yoshdagilarning tilidagi farq sezilarsiz darajada bo'ladi. Adabiy tilning yoki boshqa shaharining kuchli ta'siri ostida bo'lgan shaharida aholining turli guruhlari nutqiga xos bo'lgan, bir-biriga qarama-qarshi qo'yilgan va turli darajada farqlanadigan an'anaviy (qad.) va yangi qatlamlar ajralib turadi.

Har qanday Adabiy til xalq og'zaki nutqi asosida shakllanib, shu xalq tiliga xos shevalarni umumlashtiradi va barcha sheva vakillari uchun tushunarli shakl oladi. Rivojlangan Adabiy tilsiz boy madaniyatga ega xalq bo'lishi mumkin emas.

Shevalar tarixan qanchalik barqaror bo'lsa, Adabiy til uchun shevalarning vakillarini lingvistik nuqtai nazardan umumlashtirish shunchalik murakkab-lashadi. Hozirgi kunda ko'pgina mamlakatlar (masalan Italiya, Indoneziya va boshqalar)da shevalar Adabiy til bilan teng suratda qo'llanmoqda.

Milliy til tushunchasining hajmi va qo'llanish doirasi keng bo'lib, lahja va Shevalarni ham qamrab oladi. Shevalar adabiy til tushunchasiga kirmaydi, biroq ular tilning quyi shakli va tarmoqlari hisoblanib, adabiy tilni boyitish uchun xizmat kiladi. Adabiy til me'yorlarining takomillashuvi, fan va madaniyat taraqqiyoti, shahar bilan qishloq o'rtasidagi tafovutlarning kamayib borishi kabi ekstralingvistik omillar tufayli Shevalar ham asta-sekin o'z hususiyatlarini yo'qota boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.B.Tòychiboyev, B.Xasanov . O'zbek dialektologiyasi. Toshkent-1994
- 2.U.Tursunov, B.O'rinboyev. O'zbek adabiy tili tarixi.Toshkent-1982

- 3.B.Tòychiboyev. O‘zbek tilining taraqqiyot bosqichlari. Toshkent-1996
- 4.A.Aliyev, Q.Sadiqov. O‘zbek adabiy til tarixidan.Toshkent-1994
- 5.N.Rajabov. O‘zbek shevashunosligi. Toshkent-1996
- 6.G‘.O.Yunusov. O‘zbek lahjalarining tasnifida bir tajriba. Toshkent-1936
- 7.www.google.uz

JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHISINING NUTQ ODOBI

Izrailbekova M.R.,
O‘zDJTSU o‘qituvchisi

Annotatsiya:Ushbu maqolada oliy o‘quv yurti jismoniy tarbiya o‘qituvchisining nutq odobi va nutq madaniyatining ahamiyati haqida so‘z boradi. Materialni taqdim etishda o‘qituvchiga qo‘yiladigan talablar, shuningdek, uning soha bo‘yicha bilimlari ta’lim jarayoni va ta’lim sifatiga qanday ta’sir etishini ko‘rib chiqamiz.

Аннотация. В данной статье речь пойдет о значении речевого этикета и культуры речи для преподавателя физической культуры высших учебных заведений. Мы рассмотрим требования к педагогу касемо изложения материала, а также влияние образованности педагога в данной сфере на учебный процесс и качество обучения.

O‘qituvchining nutqi ta’lim jarayonida muhim o‘rin tutadi, shu sababdan ham o‘qituvchi nutq va talaffuz me’yorlarini yaxshi bilishi kerak. O‘qituvchi bu holda talaba uchun qadriyat tashuvchi rolini o‘ynaydi va shunga mos ravishda malakali nutq hamda til bilimiga asoslangan ma’naviy poydevor ustida ishlashi kerak.

Ushbu maqolaning ilmiy yangiligi haqida gapirganda, zamonaviy, o‘zgaruvchan dunyoda nutq madaniyatining ahamiyati ustida to‘xtalish kerak. Jamiyat ham, til va muloqot vositalari ham rivojlanadi, shuning uchun universitetda har qanday fanni, shu jumladan, jismoniy tarbiyani o‘rganishga yondashuv nutqiy savodxonlikni nazarda tutadi.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchisining nutqiy odoq-axloq qoidalariga oid bir nechta yangi manbalarni ko‘rib chiqqandan so‘ng, ushbu maqolada zamonaviy oliy

o'quv yurti o'qituvchisining nutqiga ta'sir qiluvchi ayrim muhim omillarni tahlil qilishga urindik.

Dastlab "jismoniy tarbiya o'qituvchisining nutq odobi" tushunchasi mohiyatini aniqlab olish kerak. Buning uchun biz O.V.Borodinaning "Pedagogik muloqot etikasi" darsligiga murojaat qilamiz: "Nutqiy odob-axloq - bu ma'lum bir madaniyatda bayon etilayotgan fikrlarning shakli, mazmuni, tartibi, tabiati va vaziyatga bog'liqligi uchun qabul qilingan talablar to'plami".

Nutqiy odob-axloq qoidalariga kishilarning xayrlashuv, iltimos, kechirim so'rash kabilar bilan bog'liq "odobli" nutqini tavsiflovchi ohang xususiyatlari va b. uchun ishlatadigan so'z va iboralari kiradi. Nutq odobi - odob-axloq munosabatlari namoyon bo'ladigan til vositalari tizimi. Ushbu tizimning elementlari turli til darajalarida amalga oshirilishi mumkin" [1]. Nutq madaniyati tushunchasi nutq odobi bilan bog'liq. Aytish mumkinki, o'qituvchining nutq madaniyati talabaga ma'lumotlarni maksimal semantik aniqlik bilan yetkaza olishidir [2]. Nutq madaniyati rivojlangan o'qituvchidan tahsil olayotgan o'quvchilar o'quv materialini yaxshiroq o'zlashtiradilar, mashqlarni to'g'ri bajaradilar va shunga mos ravishda jismoniy tarbiya darslarida ko'proq natijalarga erishadilar. To'g'ri qo'yilgan ovoz bilan aniq, ixcham so'zlash talabalarga o'qituvchi ulardan nimani talab qilishini tezda bilib olish imkonini beradi. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi o'z nutqida materialni taqdim etishdan tashqari, talabalarini ixtisoslikka qiziqtirishi va ularning jismoniy tarbiyaga bo'lgan munosabatiga ta'sir ko'rsatishi kerak. O'qituvchi nafaqat tayyor materialni to'g'ri taqdim etishi, balki diqqat bilan tinglashi va o'z fikrlari, savollarini aniq shakllantirishi muhimdir.

O'qituvchi o'z bilimidan tashqari, talabalariga nutq madaniyati va nutqiy odob-axloq qoidalari bilan ta'sir ko'rsatadi va o'z nutqini nazorat qilish odatini rivojlantiradi.

O'qituvchining nutq madaniyati o'quvchilar uchun nutq namunasidir. Talabalar nutqi yaxshi rivojlangan o'qituvchi bilan qanchalik ko'p muloqotda bo'lsalar, o'zlari yoki do'stlarining nutqiga e'tiborli bo'ladilar [3]. Bundan tashqari, oliy ta'lim muassasasida jismoniy tarbiyaning vazifalaridan biri shaxsni tarbiyalash

va uni ma'naviy yuksaltirish hisoblanadi. Madaniy jihatdan rivojlangan o'qituvchigina o'z o'quvchilariga munosib o'rnak bo'la oladi, ularga xuddi shunday shaxsiy fazilatlarni shakllantirishda yordam beradi. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida jismoniy takomillashtirishdan tashqari, o'quvchilarda nutq madaniyati bilan bog'liq bo'lgan ma'lum ijobiy shaxsiy xususiyatlar shakllanadi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisining nutqi o'ziga xosdir, chunki u mashg'ulot doirasidagi faoliyat bilan bog'liq [4]. Keling, ushbu o'ziga xoslikni batafsil ko'rib chiqaylik. Avvalo, jismoniy tarbiya o'qituvchisi mashqni ko'rsatish sifatini, harakatlarni tasvirlashning to'g'ri va ixchamligini buzmaganda jismoniy mashqlarni tushuntirib, bajara olishi kerak. Bundan tashqari, o'qituvchi talabalarni harakatga malakali ravishda rag'batlantirishi kerak, bu o'quvchilarning jismoniy tarbiya sohasidagi terminologiya, pedagogika va eruditsiyani bilish darajasiga bog'liq. O'qituvchi taqdimoti qisqaligining afzalligi shundaki, malakali yondashuv bilan tushuntirish kamroq vaqtni talab qiladi, bu esa juda muhim.

Jismoniy madaniyat o'qituvchisining nutq madaniyatida noverbal vositalar ham muhim o'rin tutadi. Bularga imo-ishoralar, shuningdek, o'ziga xos akustikaga ega bo'lgan jismoniy faoliyat uchun hududlarda eshitishning maksimal ravshanligini ta'minlaydigan ovoz tembrini o'zgartirish qobiliyati kiradi. Aks holda, dars hamma talabalar uchun qulay bo'lmaydi, kimdir o'qituvchining gaplarini eshitishga harakat qilish uchun jismoniy faoliyatdan chalg'iydi. Demak, umuman olganda, barcha talabalar uchun jismoniy tarbiya darslarining samaradorligi pasayganligini kuzatish mumkin. O'qituvchi mashg'ulotlar samaradorligini pasaytirmaslik uchun dars o'tadigan hududning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishi va ovoz tembrini to'g'irlashi kerak, shuningdek, barcha zarur imo-ishoralarni bajarish uchun barcha talabalarga o'zining birdek ko'rinishini, mashqlarning namoyishi haqiqatan ham har bir talaba uchun yaqqol idrok etilishni ta'minlashi lozim.

Shunday qilib, o'qituvchining talabalar o'rtasidagi obro'-e'tibori uning nutq madaniyatini o'zlashtirganlik darajasi, materialni mahorat bilan, tushunarli taqdim etishi, harakatlarni tasvirlash jarayonini vizualizatsiya, imo-ishoralar, ovoz tembri bilan uyg'unlashtirish qobiliyati va hatto yuz ifodalari orqali shakllanadi. Darsning

natijasi o'qituvchining umumiy ma'lumoti va nutq madaniyatiga to'g'ri nisbatdadir. Zamonaviy o'qituvchi nafaqat talabalar bilan ishlash va ularga o'rgatish, balki mashg'ulotlar samaradorligini oshirish va rivojlangan, moslashuvchan, malakali nutqqa ega shaxs sifatida namuna bo'lishi uchun o'z ustida ko'p ishlashga majburdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бородина О.В. Этика педагогического общения. Учебное пособие. Липецк, 2016.
2. Ксенофонтова А.Н. Совершенствование речевой деятельности учителя и учащихся в учебном процессе. Автореф. дисс. канд. пед. наук. - Л., 1983.
3. Винокур Т.Г. Говорящий и слушающий. Варианты речевого поведения М.,1993.-172с.
4. Колдашов А.И. Физическая и техническая подготовленность лыжников-гонщиков МГТУ им Н.Э.Баумана на предварительном этапе подготовки. Сборник материалов научных конференций Министерства спорта Российской Федерации. М., 2018.

INGLIZ TILINI O'RGANISHDAGI MUAMMO VA KAMCHILIKLAR

***S.S.Mustafayeva O'zDJTSU,
Xorijiy tillar kafedrasi katta o'qituvchisi***

Bugungi kunga kelib chet tillari, ayniqsa, ingliz tili o'rganishga bo'lgan talab va qiziqish shunchalik kuchaydiki, bog'cha yoshidagi bolalardan boshlab katta yoshdagi mutaxassislargacha ingliz tili o'rganishga harakat qilyaptilar. Bu ijobiy holat albatta, chunki, til o'rganish o'sha tilda gaplashuvchi davlatlar madaniyati, tarixi va urf-odatlarini o'rganish bilan birga shaxsiy manfaatlar yo'lida ham eshiklar ochilishiga zamin yaratadi.

Avvalo, o'rganuvchi yoshi, qiziqishi va izchillik asosida til o'rganishga kundalik sarflaydigan vaqt miqdori, inglizcha muhit kabilar muhim bo'lsa, foydalaniladigan darslik sifati, mahoratli va bilimli o'qituvchi va til o'rganishdagi to'g'ri yondashuv usullari kabilar ham yangi til o'rganishda muhim ahamiyat kasb

etadi. Ba'zan, o'quvchilar til o'rganishdagi qiyinchiliklarini shu tilda gaplashuvchi chet davlatlarida bo'lishga sharoitlari yoki inglizcha gaplashadigan do'stlari yo'qligi bilan bog'laydilar. Aslini olganda esa, hozirgi texnologiya va Internet rivojlanayotgan davrda bu kabi vajlar o'rinsiz.

Ijtimoiy tarmoqlarda, xususan, Facebook, Twitter, Telegram orqali onlayn darslar olish yoki Youtube va Skype orqali video darslar ham til o'rganishda juda ommalashgan va qulay usullardandir. Til o'rgatuvchi o'quv kurslarining ham o'rni beqiyos. Chunki, guruhdagi boshqa til o'rganuvchilar bilan maqsadingiz bir va shu yo'lda bir-biringiz bilan inglizcha muloqot qilishingiz, ma'lumot almashishingiz yoki raqobatbardosh bo'lishingiz mumkin.

Til o'rganishning innovatsion usullari borasida tajribali tilshunoslar va poliglottlar (bir necha tilda gaplashuvchilar) tavsiyalaridan foydalanib qiziqarli dars tashkillashtirish mumkin. Xuddi shu singari kattalar ham tinglaganlarini takrorlash orqali so'z boyliklari oshirib, gapirishni boshlaydilar. Eng muhimi, ular gapira olish uchun bolalardek ko'p muddat sarflamaydilar, chunki ularda til o'rganish ko'nikmasi bor va boshqa tillarni o'rganish yanada osonlashib boraveradi. Yangi tilda gapira olish uchun esa hamma so'zlarni bilish muhim emas, hattoki ona tilimizda ko'p so'zlarni bilmasak ham juda yaxshi muloqot qila olamiz.

Ingliz tilini o'rganishni maqsad qilgan inson o'zi uchun inglizcha muhit yaratishi ya'ni doimo inglizcha tinglab, o'qib, yozib va gapirishi maqsadga erishishning eng samarali usulidir.

Ko'pchilik insonlar "Maxsus til kurslariga borsam, albatta, chet tilini o'rganaman", deb o'ylashadi. To'g'rirog'i, chet tili kurslarini o'z maqsadlariga erishishda mas'ul deb o'ylashadi. Bu umuman noto'g'ri. Unutmang, har doim o'zingiz uchun o'zingiz mas'ulsiz, o'qituvchi o'rgatishi mumkin, ammo saboqning 99 foizi o'zingizga, 1 foizi o'qituvchiga bog'liq" deydi Alisher Absalomov o'zining "Rus tilini o'rganishning samarali usullari" kitobida. Aslida, chet tili o'rganishda muhim bo'lgan omillar juda ko'p, lekin men, o'rganuvchi nazorat o'rnatishi, o'zi tashkillashtirishi mumkin bo'lgan sharoitdan kelib chiqib o'ziga bog'liq bo'lgan omillarni sanashga harakat qildim.

Insonlar doimo o'zlari uchun qiziqarli va huzurbaxsh mashg'ulotlar bilan shug'ullanishga harakat qiladilar va hattoki, vaqt qanchalik tez o'tganini ham sezmay qoladilar. Agarda, yangi til ham kuchli qiziqish va ishtiyoq bilan o'rganilsa, maqsadga shunchalik tez va oson yetishish mumkin. Biz esa, ko'pincha bu jarayonni majburiyat sifatida qabul qilamiz va natijada, yangi til o'rganish jarayoni biz uchun juda zerikarli tuyuladi. Natijada, siz uchun zerikarli bo'lgan mashg'ulotdan qochishga yoki kamroq vaqt ajratishga moyillik vujudga keladi. Aksincha, o'zingiz qiziqqan soha yoki mavzu bo'yicha yangi o'rganayotgan tilingiz orqali ma'lumot olishga, tinglashga, yozishga va gapirishga harakat qilsangiz, bu jarayon qanchalik qiziq ekanligini sezishingiz mumkin. Masalan, sport sohasiga qiziquvchilar o'rganayotgan tillari orqali sport yangiliklarini kuzatib borishi, shu tildagi sport sohasiga oid teleko'rsatuvlarni tomosha qilishi, yoki shu soha bo'yicha chet tilida o'z fikrlarini bo'lishishi mumkin. Yana bir ko'pchilik yo'l qo'yadigan xatolardan biri, bu noreal maqsadlarni oldiga qo'yish. Ayrimlar ish, o'qish tufayli yangi til o'rganishga kuniga yarim yoki bir soat vaqt ajratsa-yu, reja asosida esa ikki yoki uch soatlik vaqt belgilasa, kun oxiriga kelib ulgurolmagani uchun stresga tushishi yoki til o'rganishni butunlay tashlab qo'yishi mumkin. Bu esa, uzoq muddatda va sekin bo'lsa ham umuman to'xtatib qo'yishdan yoki stresga tushib foydasiz asabiylashishdan ko'ra, oz-ozdan o'rganib bo'lsa ham maqsadga erishishni foydaliroq ekanligini ko'rsatadi. Shu o'rinda "Toshbaqa va quyon" haqidagi ertakni eslashni o'zi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Garchi sekin bo'lsada, toshbaqaning sabri va maqsadga tomon sobitligi (perseverance) insonlarga o'rnak bo'la oladi.

Shuni ham qo'shimcha qilmoqchi edimki, yaxshi kayfiyat, ijobiy ichki ruhiy kechinma va yaxshi hordiq ham chet tili o'rganishda katta ahamiyatga ega. Toni Robinsning aytishicha, "Eng yaxshi usul va qoidalar ham muvaffaqiyatning atigi 20 foizini tashkil etadi. Qolgan 80 foiz inson psixologiyasiga bog'liqdir". Mutaxassislarning e'tirof etishicha, ijobiy - ruhiy ichki kechinmani saqlab qolish va shakllantirish til o'rganishda qo'llaniladigan usullardan ham kuchli hisoblanadi.

Yana bir turdagi o'quvchilar borki, ular yuzlab kitoblarni yig'ib oladilar, lekin amalda ulardan deyarli foydalanmaydilar. Bunday o'quvchilarni, velosiped yoki

moshina sotib olib, uning qismlarini, qanday ishlashi va minishni o'rganmaydigan kishiga o'xshatish mumkin. Har qanday kitobdagi tavsiyalar faqat amalda bajarilgandagina foydali bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytishim mumkinki, yangi til o'rganish majburiyat emas, sevimli mashg'ulot yoki hobbi sifatida qaralsa, uni o'rganish shunchalik osonlashadi. Bu jarayonga qanchalik moslashish yoki qiziqarli muhitni yaratish ko'pincha o'quvchining o'ziga bog'liq. Intizom, mas'uliyatlilik va sabrlilik esa har qanday yutuqning poydevoridir.

BADIIY MATNLAR ORQALI TALABALAR MA'NAVIY DUNYOQARASHINI O'STIRISH

***Muxtarova Shaxnoza Mashrabovna,**
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika
instituti Gumanitar fanlar fakulteti O'zbek
tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada talabalarning mutaxassisligiga doir so'zlar leksikasini rivojlantirish, ularning so'z boyligini oshirish, nutqda undan to'g'ri hamda o'rinli foydalanish malakalarini takomillashtirishda o'zbek tili mashg'ulotlarida badiiy matnlar bilan ishlash haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: matn, leksika, so'z boyligi, atamalar, "Ko'hna dunyo", o'quvchi, yozuvchi, mutaxassislik, o'rinli, foydalanish.

Аннотация: В статье речь идет о развитии словарного запаса студентов специальностей, увеличении их словарного запаса, работе с художественными текстами на уроках узбекского языка для совершенствования навыков правильного и уместного употребления в речи.

Ключевые слова: текст, лексика, лексика, термины, «Старый Свет», читатель, писатель, специальность, уместность, употребление.

Badiiy asarning qimmatini uning o'quvchilar qalbini rom etish darajasi orqali aniqlanadi. Ma'lumki, ko'p hollarda talabalar o'zbek tilidagi matnlarni o'qishda, tahlil qilish va mazmunini qayta hikoya qilishda, shuningdek, insho,

bayonlar yozish va rasmiy ish qog'ozlaridan foydalanishlarida so'z boyliklarining kamligidan qiynalib qoladilar. Shu sababli talabalarning mutaxassisligiga doir so'zlar leksikasini rivojlantirish, ularning so'z boyligini oshirish, ayniqsa, sohasiga doir atamalarning ma'nosini bilishlari va nutqda undan to'g'ri hamda o'rinli foydalanish malakalarini takomillashtirishda badiiy matnlar mazmuniga singdirilgan mazmun va ma'nolar ham muhim ahamiyatga egadir.

Shuning uchun ham, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o'zbek tili darslarida tavsiya qilinadigan matnlarni o'rgatish jarayonida innovasion yondashuvni amalga oshirish kerak. Talabalar badiiy matnlardagi iste'mol doirasi keng - ya'ni kundalik hayotda, muomala-munosabatda, nutqida tez-tez qo'llaniladigan so'zlar ma'nolarini ilg'ashlari oson bo'lib, aksincha, badiiy jilo berilgan - badiiy uslubda qo'llaniladigan ko'pgina so'zlar ma'nolari ular uchun izoh talabdir. Badiiy asar tilini o'rgatishga yo'naltirilgan barcha innovasion yondashuvlar, bunday darslarni tashkil etishga xizmat qiladigan barcha usullar, o'qitishning yangi vositalari talabalarda badiiy tahlil ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Badiiy asarni o'rganishning har bir bosqichi o'zining muayyan maqsadi va vazifalariga ega. Xuddi mana shu maqsad va vazifalar bilan bog'liq holda materiallar tanlanadi va uni o'zlashtirish jarayoni tashkil etiladi. Filologiya yo'nalishlari uchun olib boriladigan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fanini o'qitish jarayonida ham mavzuga mos badiiy matnlar tanlash mumkin. Biz Odil Yoqubovning tarixiy romani «Ko'hna dunyo» asarini tahlilga tortishni maqsad qildik. «Ko'hna dunyo» asarida olam hodisalari va insonning asl mohiyati haqidagi qarashlarini o'zgacha bir tarzda aks ettirgan. Shuning uchun badiiy asarda ifodalangan tarixiy davrni o'rganish uning qahramonlari faoliyatini o'sha davr nuqtai nazaridan tahlil qilgan holda baholash hujjatli materiallarni ko'proq jalb etishni talab etadi. Bu esa muayyan vaqt va davr bilan tavsiflanadi.

Bu asar adib ijodida, qolaversa, milliy romanchiligimizda tamomila o'ziga xos hodisa bo'lgan turli tabiatli shaxslar qismatini tasvirlash jarayonida, umuman, inson, uning hayotdagi o'rne, insof, adolat, haqiqat va qismat to'g'risidagi falsafiy

qarashlarni aks ettiradi. Ijodkor bu asarda inson hayotining ma'nosi va yashashdan maqsadini anglab yetmoqchi bo'lgan mutafakkir adib sifatida namoyon bo'ladi.

Yozuvchi bu ko'hna dunyoning chigal va tushunarsizligi, unda asl qolib, soxta narsa ko'proq e'tibor topishi, hurmat ko'rishi, yaxshi odam bir chetda qolib, yomon kimsa ezgu nom chiqarishi singari holatlar qo'ynidagi kishilar ruhiyatini hayrat va alam bilan qalamga oladi.

O'quvchi asar bilan tanishar ekan romanda o'ta chigal muammolar butun murakkabligi bilan aks ettirilganiga guvoh bo'ladi va ularning asarda aslida kuchli qudratli deyilmoqdami, yoki ojizmi, buni bilishi oson kechmaydi. Mahmud G'aznaviy davri aks etgan bu romanda jahongirman deganlar aslida ojizlar qo'lida o'yinchoq ekani, mamlakatni idora qilyapman deb o'ylaydigan sulton Mahmud G'aznaviy, aslida, nafaqat mamlakat va saroy, balki o'z oilasidagilarga ham hukmi o'tmasligi juda ta'sirli aks ettirilgan. Sirtidan bechora-yu shikasta, ojizu natovon, faqat hukmdorning buyrug'iga mahtal ijrochilar bo'lib ko'rinadigan kaslar, aslida, mamlakatni ham, hukmdorni ham sezdirmay boshqarayotgan bo'lishadi. Asarda, hatto, yaxshilik ham yolg'on ekani, ezgulikka ham yomonlik qo'shilgani ishonarli yo'sinda tasvirlanadi.

Dunyoning katta qismini zir titratgan, millionlab odamlar taqdirini hal qilgan shahanshoh G'aznaviyning o'z vazirlari qo'lida o'yinchoqligi, sultonni o'ynatayotgan vazirlar esa, nayrangboz va yolg'onchi Abu shilqimning yo'rig'iga yurishga majbur ojiz kimsalar ekani romanda butun shafqasizligi bilan aks ettiriladi. Bu tasvirlardan ko'hna bu dunyoning adolati qayerda-yu, haqiqati qayerda ekanini bilib bo'lmasligi anglab etiladi. Zamonining deyarli barcha ilmini egallab, olam taraqqiyotining ko'pchilikdan yashirin qonuniyatlarini biladigan Beruniy va Ibn Sino singari allomalar esa ba'zan tasodifning, ba'zida kayfiyatning, ba'zan oddiygina nafs bandalarining shumliklariga qurbon bo'lishadi. Dunyoni o'zgartira olgan bu shaxslar romanda o'z taqdiri ne bo'lishini, ertangi kuni nimadan boshlanib, qanday yakunlanishini bilolmaydigan notavon kimsalar holatida aks ettiriladi.

Talabalar asar mazmunidan bugungi kun uchun juda muhim xulosaga kelishadi: hech bir shaxsni qat'iy tarzda yaxshi yoki yomon deb bo'lmasligi, yaxshi

sanalgan kishi, kutilmaganda o'ta yomon ishlar qilib qo'yshi, mutlaqo insofsiz deb o'ylangan odam esa, hech bir xayolga kelmaganda, olijanob shaxs bo'lib chiqishi ham mumkinligi haqidagi mulohazalarga keladilar. Bu sirli, tushunarsiz va chigal ko'hna dunyoning mohiyatini el qatori oddiy odamlar emas, balki Beruniy va Ibn Sinoday daholar ham anglab etolmaydi. Hatto shunday zotlar ham bu ko'hna dunyoni anglash, izohlash va o'zgartirish tugul, uning qo'lida o'yinchoq bo'lishga mahkum. Dunyoning hayoti aynan shunday g'alati, izohsiz va tushunarsizligi bilan qiziqdir.

Asardagi: *“Sulton, dilida ajib bir nur, qoqsuyak vujudida favqulodda bir kuch, hamon tasir-tusir ot surib borar, u bilan uloqcha o'rtasi tobora qisqarmoqda edi. Nihoyat uloqchani quvib etdi-da, lochinday chang solib ko'tarib oldi. Shu zahotiyoq yiroqlashib qolgan ona kiyik shartta to'xtadi, bir zum joyida dir-dir titrab turdi-da, asta-sekin orqaga qayta boshladi... Sulton hayajon ichida egilib, dir-dir titrayotgan uloqchani yerga qo'yib yubordi, qo'yib yuborishi bilan dilida ajib bir chiroq «lop» etib yondi-da, vujudida o'zgacha bir holat, qandaydir sirli, ilohiy bir holat sodir bo'ldi. Hatto o'ng biqinidagi og'riq ham tappa to'xtab, ko'ziga qorong'u ko'ringan olam birdan yorishib ketdi. ...Tog'lar bilan o'ralgan bu keng sayxonlik boyagidan ham keng, osmon boyagidan ham tiniq, archalar hidi boyagidan ham xushbo'y, qorli cho'qqilar boyagidan ham yuksak, odamlar esa bir-biridan yaxshi, bir-biridan mehribon ko'rinib ketdi sultonning ko'ziga”* tasvirida qancha o'lkalarni bosib olgan, hech bir qiynalmay, minglab odamlarni o'limga hukm qilgan, Beruniyday allomani izmiga yurgizib, Ibn Sinoday shaxsni o'lkama-o'lka sargardon kezzirib qo'ygan Mahmud G'aznaviy holati g'oyat nurli, olijanob, ko'ngli ezgulikka to'la qilib chizilgan.

O'zbek tili mashg'ulotlarida qo'llaniladigan asarlar matni voqealari tarixiy mavzudami, xoh mumtoz yoki zamonaviy mavzuga bag'ishlangan bo'lmasin, hayotiyligini saqlab qolgan va bularning barchasi asarning milliyligini ta'minlagan.

Demak, o'zbek tili mashg'ulotlarida o'zbek adabiyoti namunalarini o'rganish jarayonida talabalar:

- o'zbek tili va adabiyoti faniga bo'lgan qiziqishlari oshadi;
- asar muallifi haqida qisqacha ma'lumot oladilar;
- asar mazmuni haqida tushunchaga ega bo'ladilar;
- asar qahramonlari bilan tanishib, adabiyot orqali o'zbek xalqining milliy urf-odat va an'analari, odob-axloq, tarixan shakllangan xalqimizga xos milliy tarbiyaning o'ziga xos jihatlarini chuqur tushunib oladilar;
- tarixiy asarlarni o'rganish orqali o'zbek xalqining ma'lum davrlardagi siyosiy-ijtimoiy, ma'naviy-madaniy hayoti, turmush tarzi haqida ma'lumotga ega bo'ladilar;
- talabalarning nutqi takomillashib, yangi atamalar va so'zlarni o'rganish imkoniga ega bo'ladilar;
- o'zbek xalqidan yetishib chiqqan taniqli adabiyot va san'at namoyandalari ijodini, shuningdek, ular qoldirgan boy, adabiy meroslarini biladilar;
- mustaqillik yillari o'zbek adabiyotida mavzu va obrazlar rang – barangligi, janrlar ko'lamining o'ziga xosligi haqida tushunchalarga ega bo'ladilar;
- Zamonaviy yozuvchi va shoirlarning ijodiy faoliyati, yaratgan asarlarini o'rganish, talqin qilish orqali talabalarning ma'naviy dunyoqarashini yanada kengaytirishga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Mirziyoyev.Sh.Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib - intizom, va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.Toshkent -"O'zbekiston", 2017 yil,45-bet.
- 2.Qozoqboy Yo'ldosh. So'z yolqini. –T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2018.
- 3.Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari. –T.: "Kamalak", 2016.
4. Odil Yoqubov.Ko'hna dunyo.// Saylanma.Uch jildlik.Birinchi jild. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.Toshkent.1986-yil.
- 5.Mirqosimova M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – 112 b.
- 6.Niyozmetova R. Uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek adabiyotini o'rganish metodikasi. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2006. – 216 b.

7.Husanboyeva Q. Adabiy ta'limda mustaqil fikrlashga o'rgatish asoslari. – T.: O'zinkomsentr, 2003. – 103 b.

O'ZBEK AYOLLARI NUTQIDA QARG'ISH SO'ZLARNING QO'LLANISHI

***Dildora Ho'jamberdiyeva,**
CHDPI Gumanitar fanlar fakulteti O'zbek
va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi.
Ilmiya rahbar: **Q. Mo'ydinov,** dotsent,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada folklorning mustaqil janri bo'lgan qarg'ish so'zlar haqida so'z boradi. Ularning kelib chiqish tarixi haqida ma'lumotlar beriladi. Gender tilshunosligida qarg'ish so'zlar qo'llanishining o'ziga xos xususiyatlari ochib beriladi. Ayollar nutqida keng qo'llanuvchi qarg'ish so'zlar yoritib beriladi. Qarg'ish so'zlar lingvokulturologik va psixolingvistik jihatdan tadqiq etiladi. Milliy korpusning rivojlanishida lingvokulturologiya sohasining ayollar nutqini o'rganuvchi jihati katta hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: ayollar nutqi, qarg'ish so'zlar, biomaydon, gender tilshunosligi, lingvokulturologik jihat, psixolingvistik xususiyat.

Annotation: This article deals with cursing words, which are an independent genre of folklore. It provides information about the history of their origin. Cursing words that are widely used in women's speech are highlighted cursing words are studied from a linguaculturological and psycholinguistic point of view. The study of women's speech in the field of linguoculturology makes a significant of the national corps

Keywords. avols speech, curse words, gender linguistics, lingvokulturogic aspect, psycholinguistic feature.

O'zbek tilining nufuzini oshirish borasida mamlakatimizda keyingi yillarda olib borilayotgan islohotlar birin-ketin o'z samarasini ko'rsatmoqda. Til o'zini lug'atlarda namoyon etadi. Departament tashabbusi bilan o'zbek tilini rivojlantirish

mablag'laridan 20dan ortiq lug'atlar chop etildi. Bu amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar milliy til korpusini yaratishga zamin hozirlaydi. Milliy korpusning yaratilishi o'zbek tili taraqqiyotida muhim yutuq bo'ladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Milliy korpus milliy til xazinasidir. Bugungi kunda jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlar xalqimiz ongida milliy istiqlol g'oyalarini to'la shakllantirishga hissa qo'shmoqda. Milliy istiqlol g'oyalarining shakllanishida folklor asarlarining salmog'i beqiyosdir. Mustaqillik tuyg'usi uyg'otgan ommaviy qiziqish tufayli xalq og'zaki ijodining shu vaqtgacha kam e'tibor berilgan janrlariga mansub bo'lgan asarlarni ilmiy tadqiq etish imkoniyati yuzaga keldi. Xususan, so'z sehriga ishonish asosida kelib chiqqan marosim folklor janrlarini mukammal o'rganishga kirishiladi. Qarg'ish so'zlarning biomaydonga bevosita ta'sir o'tkazish imkoniyati bo'lganligi bois, barcha xalqlarda va barcha zamonlarda keng qo'llanilib kelingan.

Qarg'ish qarg'ovchining qarg'aluvchiga nisbatan so'z vastasida ziyon yetkazishdek yomon niyatda ijro etiladigan folklor asar hisoblanadi. Qarg'ish janri nihoyatda qadimiyligi bilan ajralib turadi. Mahmud Qoshg'ariy XI asrda yashagan turkiy xalqlar lahjasidagi „qarg'aq" so'zini „qarg'ish" so'ziga sinonim tarzda ishlatganligi haqida ma'lumot beradi. „Qarg'ish" so'zining ma'nosi „yomon so'z aytish" degan tarixiy ma'noga ham ega. Umuman olganda qarg'ish so'zlar qadimdan mavjud bo'lib, barcha xalqlar tilida keng foydalanilib kelingan folklor janri hisoblanadi. Qarg'ish so'zlar folklor janri bo'lishiga qaramay, ular biror doston, qo'shiq, ertak kabi janrlarda bo'lgani singari alohida tayyorgarlik bilan maxsus obraz tomonidan ijro etilmasligi bilan ham ajralib turadi. Ba'zi qarg'ishlarda zamonga yoki biror tarixiy voqeaga xos so'zlar qo'llanilib qarg'ishlarning etimologik jihatini yangilab boradi. Misol uchun „fashistning o'qiga uchragur", „telfoning singur", „Telvizoringga o't tushgur" kabi qarg'ishlar fikrimizga yorqin dalildir. Qarg'ish so'zlar ko'lamdorligi bilan ham alohida ajralib turadi. Qarg'ishlarning mavzu doirasi juda keng: insonning yoshi va jinsi bilan bog'liq qarg'ishlar, diniy e'tiqod bilan bog'liq qarg'ishlar, inson o'limi bilan bog'liq qarg'ishlar hamda inson a'zolari bilan bog'liq qarg'ishlardir.

1. – Qachon esing kiradi, *juvon o'lgur!* (O'.H., Ikki eshik orasi")

2. – Maniki bo'lsa bir paqir suv olib kelmaydi, qo'lgining sinib akashak bo'lgur. Uyim-joyim deb bo'ynini egmaydi, bo'yniginang kesilgur eshshak! *Xudoyo bo'yniginang hazrat Alining qilichida kesilmasa*, u dunyo-bu dunyo rozimasman-a! (O'.H., Dunyoning ishlari")

3. – O'shanda nega unaqa deding, *bo'yginang lahatda chirigur!* – dedi u yana dag'dag'a bilan. (O'.H., Dunyoning ishlari)

4. – *Basharang qursin!* Qayoqdan keldi bu so'xtasi sovuq! (O'.H., Ikki eshik orasi")

Qarg'ish so'zlar lingvokulturologiya sohasining ham o'rganilishi zarur manbalaridan hisoblanadi. Chunki har bir xalq madaniyatida qarg'ishlar o'z o'rnini va mavqeyiga egadir. Istalgan xalqning foydalanayotgan qarg'ishiga qarab u xalq haqida ilk tasavvurga ega bo'lish mumkin. Qarg'ish so'zlarni gender tilshunosligi jihatidan tadqiq etadigan bo'lsak, ushbu so'zlar ayollar nutqida keng qo'llanilishiga guvoh bo'lamiz. Ayollar foydalanadigan qarg'ish so'zlar ijobiy va salbiy jihatiga ko'ra ham farqlanadi. Ayollar nutqida qo'llanayotgan qarg'ishlarning salbiy jihati ularning katta qismida o'lim tilash ma'nosi anglashilishidadir. O'lim tushunchasini anglatuvchi

qarg'ishlarda „mozor“ , „lahad“ , „go'r“ , „jon“ , „maraka“ , „tobut“ , „murda“ kabi so'zlar keng qo'llanadi.

- Hoy Shayx o'lgur, qayoqqa ketyapsan? - ayollardan biri uning yo'lini to'sdi. (O'.H., Dunyoning ishlari")

Ayollar qarg'ishlaridagi yana bir jihat qarg'ishning o'ziga qarata aytilishidir. Biror bir ishni bajarganidan ko'ngli to'lmasa yoki qilgan ishidan pushaymonlik o'ziga qarata qarg'ish aytishga sabab bo'ladi. Bu qarg'ishlar biomaydonga ta'sir o'tkazmaydigan qarg'ishlar hisoblanadi.

1. – *Tush ko'rmay man o'lay*, – dedi ingrab. – *Beshik ko'rmay men o'lay!* (O'.H., Ikki eshik orasi")

2. Molni arqoni bilan sotib bo'lmaydi. *Voy meni yer yutsin!* – dedi oyim. (O'.H., Dunyoning ishlari")

Qarg‘ish so‘zlar ayollar nutqida qo‘llanishida yana bir e‘tiborga loyiq xususiyat borki, bu ularning yosh doirasiga nisbatan farqlanishidir. Yosh ayollar nutqida o‘lim ma‘nosini beruvchi qarg‘ishlar juda kōp qo‘llanadi. Yoshi katta ayollar nutqida duo mazmunidagi qarg‘ishlardan foydalaniladi. Ayollar farzandlariga alla aytish jarayonlarida ham duo mazmunidagi qarg‘ishlardan foydalanishadi. Ayollar farzandlariga tarbiy berish jarayonida juda ko‘p qarg‘ishlarni ishlatishadi. Bu qarg‘ishlar goh ijobiy ,goh salbiy mazmunda bo‘ladi. Eng ijobiy qarg‘ish namunalarini shoir Marhabo Karimova ijodida uchratamiz. Ularning „Eng go‘zal qarg‘ish” she‘rlarida farzand tarbiyasiga, ruhiyatiga ijobiy ta’sir o‘tkazuvchi duo mazmunidagi qarg‘ishlar keltirilgan:

..., „Hoy ipimni qirqmagin,
Qalbingga ilm to‘lgur.
Hoy, meshimni teshmagin,
Ka‘baga imom bo‘lgur!
Sichqon dumin kesmagin,
Beozor bo‘l to‘g‘ri yur
G‘arib yo‘lin to‘smagan,
Ka‘baga imom bo‘lgur”.
Demas ekan: „Juvonmarg”,
„Haromi”, „Maraz”, „O‘lgur”
Bitta ekan qarg‘ishi:
Ka‘baga imom bo‘lgur!”...

Yoshi katta ayollar nutqida ham duo mazmunidagi qarg‘ishlar keng qo‘llanadi. Ezgu niyat bildirish, kelajakka yaxshi umid bog‘lash ushbu qarg‘ishlarda mujassamlashgan bo‘ladi. Yoshi katta ayollar suhbat jarayonlarida duo mazmunidagi qarg‘ishlar juda ko‘p foydalanishadi.

1. – Bu nonga tegib bo‘lmaydi, *ko‘paygur*, – dedi boshimni silab buvim. (O‘.H., „Dunyoning ishlari”)

2.– Hoy, *uyingga bug‘doy to‘lgur*, osilma! – dedi chirqillab opoqim. (O‘.H., „Dunyoning ishlari”). Ayollar nutqida qarg‘ish so‘zlarning keng

foydalanilishini lingvokulturologik sohada o'rganish maqsadga muvofiqdir. Chunki qarg'ishlar ham folklor janri hisoblanib, xalqning madaniyati, ayniqsa, ayollar nutqining alohida xususiyatini ham ochib berishga xizmat qiladi.

Qarg'ishlar ayollar nutqining salbiy jihatlarini ko'rsatib beradi. Ayollar ishlatadigan qarg'ishlar biomaydonga ta'sir etish va etmasligiga ko'ra ham farqlanadi. Ayollar farzandlariga aytadigan qarg'ishlar farzandlarining biomaydonlariga ta'sir etmaydi. Duo mazmunidagi qarg'ishlar inson biomaydoniga ijobiy ta'sir etadi va ijobiy bashorat bo'lib ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari. – Toshkent, “Sharq”, 2005-yil
2. O'tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi. – Toshkent, “Sharq”, 2012-yil
3. Siddiq Mo'min. So'zlashish san'ati. – Farg'ona, 1997-yil.
4. Internet saytlari: Forum. Ziyouz.com

O'ZBEK TILIDA O'XSHATISHLAR

*To'rabekova Malika Hakim qizi,
CHDPI O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-kurs talabasi.
Ilmiy rahbar: Muydinova Arofat Urinovna,
CHDPI o'qituvchisi.*

Annotatsiya: Maqolada nutqning ta'sirchanligini ta'minlaydigan vositalardan biri bo'lgan o'xshatishlar, ularning turlari, vazifalari G'afur G'ulomning “Shum bola” asari orqali yoritishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: o'xshatishlar, erkin o'xshatishlar, turg'un o'xshatishlar, qiyoslash.

O'xshatishlar – har bir xalqning lingvomadaniy boyligi bo'lib, ular milliy dunyoqarash, predmet, hodisa va harakatlarni milliy tasavvurga ko'ra taqqoslash va qiyoslashdir. Insonning dunyoni bilishida o'xshatish-qiyoslash benihoya katta o'rin tutadi. Ikki yoki undan ortiq predmet yoki tushunchani o'xshash yoki farqli jihatlarini aniqlash maqsadida qiyoslash, taqqoslash tashqi dunyoni bilishning eng

keng tarqalgan mantiqiy usullaridan biri sifatida inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida kuzatiladi.

Bu behad muhim mantiqiy kategoriya, tabiiyki, tilda ham o'z aksini topadi. "O'xshatishlar qadimdan poetik figura sifatida o'rganilgan va adabiyotlarda o'xshatishning to'rt unsuridan tarkib topishi ta'kidlangan" [2; 5].

"O'xshatishlar nutqda hamisha badiiy estetik qiymatga molik bo'ladi, nutqning emotsional-ekspressivligi, ifodaliligi, ta'sirchanligini ifodalashga xizmat qiladi. O'xshatishlarning ikki turi bor: 1) individual-muallif o'xshatishlari yoki erkin o'xshatishlar; 2) umumxalq yoki turg'un (doimiy) o'xshatishlar" [2; 5]. Erkin o'xshatishlar muallifning o'ziga xos original o'xshatishlari bo'lib, badiiy-estetik qimmat, lingvopoetik salmoq nuqtai nazaridan yozuvchining mahoratini namoyon etuvchi vositalardan biri sifatida badiiy nutqda alohida o'rin egallaydi. Yozuvchi o'zining badiiy tasvir maqsadiga muvofiq ravishda xilma-xil o'xshatishlar yaratadi, bu o'xshatishlar kutilmaganligi, oxoriligi bilan rom etadi, muayyan ruhiy holatni o'quvchi ko'z o'ngida yaqqol gavdalantiradi. "Turg'un o'xshatishlarning mohiyati shundan iboratki, ularda o'xshatish etalonida ifodalangan obraz barqarorlashgan bo'ladi. Bunday o'xshatishlar, garchi muayyan shaxs va ijodkor tomondan qo'llangan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan til jamoasida urfga kirib, doimiy ifodalar sifatida turg'unlashgan, umumxalq tili leksikonidan joy olib ulgurgan bo'ladi. Bunday o'xshatishlar xuddi tildagi tayyor birliklar kabi nutqqa olib kiriladi"[2;6].

Ham nazmda, ham nasrda betakror mahorat ustasi sifatida tanilgan G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasi o'xshatish, sifatlash, ibora kabi badiiy tasvir vositalari mohirona qo'llangan asarlardan hisoblanadi. Asarda erkin va turg'un o'xshatishlarning betakror namunalarini uchratamiz.

"– Endi qayoqqa boramiz? – dedi Omon.

– Qo'rqma, bultur tog'am bilan shu yaqin orada bir bo'zagir kampirning uyida tunab qolganmiz. Yaxshiqiz degan kampir, meni taniydi. O'shaning o'tovida tunab qolamiz. *It quvgan tulkiday olazarak* Omon menga ergashdi" [4;26]. Mazkur gapda qo'llangan "it quvgan tulkiday" o'xshatishi Omonning qo'rquvini, his-hayajonini ifodalab kelgan va o'xshatishlarning turg'un turiga kiradi, ya'ni o'xshatish xalq

tomonidan ko‘p yillardan beri qo‘llanib kelinadi va yozuvchi buni o‘z asarida mahorat bilan qo‘llagan. Bu o‘xshatishning kelib chiqishi ovchilik bilan bog‘liq. Odatda, har bir ovchi o‘zining ovchi iti bilan ovga chiqqan va o‘ljani birinchi bo‘lib itlar payqagan. O‘lja birinchi ovchi itlardan qochishni boshlagan, shuning uchun ham “it quvlagan tulkiday” o‘xshatishi ko‘p ishlatilib kelinadi.

“Oy botib, kecha qorong‘ilashib qolgan. Juda avaylab, tusmol bilan harakat qilamiz. Omon tomida. Lekin mening ko‘nglimga sal shubha kelib qoldi. “Balki bu gal rostakam qilib mendan o‘chini olar, o‘zi ketib qolar-da, men bu yerda xumchaga tushgan sichqonday qamalib qolarman”, deb o‘yladim-da, darrov qopdagi go‘shetni bo‘shatib ichiga o‘zim tushib oldim”[4;92]. *Xumchaga tushgan sichqonday* o‘xshatishi ham o‘z madaniy qatlamini bosib o‘tgan o‘xshatishlardan biri sanaladi. Xum silliqlangan, kemiruvchilardan hosilni saqlash maqsadida foydalanilgan idish. Kemiruvchi sichqon donni yeyish uchun xumga tushishni eplagani bilan, ammo chiqishni eplay olmaydi. Shuning uchun nima qilarini bilmay, ilojsizlikda qolgan odamga nisbatan ana shu ibora qo‘llanadi.

“Yoz kunlari jazillatib, tovondan uzadigan qizg‘in yo‘llarga kech kuzakning salqin ivishig‘i tushgan tuproq og‘irlashgan, chang ko‘tarilmaydi, suvlar tip-tiniq. Ba’zi sovuqroq tonglarda shabnam ham tushadi, ariqlarning cheti *ko‘kka tekkan sigirning qaymog‘iday* yupqa shirava bog‘laydi”[4;97]. Uzoq qishdan keyin bahor nafasi urilgan, yerda maysa ungan, tabiat ko‘k libosda jonlangan paytda sigirlar o‘tloqqa olib chiqiladi va qishki quruq yem-xashaklar o‘rnini bahorgi ko‘k o‘tlar egallaydi. Bu davrda sigirdan olinadigan sutning tarkibi ham o‘zgaradi va undan olinadigan qaymoq suyuqlashadi. Yozuvchi shu jarayonni tabiat hodisasiga bog‘laydi, ya’ni ariqlarning chetini shu ko‘kka og‘zi tekkan sigirning qaymog‘i kabi yupqa bo‘lishini mazkur erkin o‘xshatish orqali mahorat bilan tasvirlagan.

“Biz bozorga yaqinlashganimizda xo‘jayin chiqib qarshi oldi. Kechga qolganimiz uchun yaxshigina so‘kish eshitdik. Qo‘yni qistov bilan bozorga yetkazdik. Boy qo‘shoqlashga buyurdi. Har ikkimizning yuragimiz *dard tekkan terak yaprog‘iday* qaltirab turibdi”[4;82]. Dard tekkan yaprog‘ ham o‘z shoxida arang turadi, shoxdan tushib ketish ehtimoli katta bo‘ladi. Yozuvchi bu bolalarning

ham yuragi shu *terak yaprog'iday* qaltirab turganini, ya'ni gap eshitishdan qo'rqib xavotirda turgan holatlarini dard tekkan terak yaprog'iga o'xshatish orqali juda ishonarli tasvirlagan.

Xullas, badiiy tasvir vositalarining, jumladan, o'xshatishlarning qo'llanishi badiiy asar tilini shirali, bo'yoqdor, jozibali, eng muhimi, o'qishli bo'lishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nasiba Bozorova. "G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasini ta'lim jarayonida o'rganish". O'quv-uslubiy qo'llanma. – T.: TDYU, 2021.
2. Nizomiddin Mahmudov, Durdona Xudoyberganova. "O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati". – T.: "Ma'naviyat", 2013
3. Nizomiddin Mahmudov. "O'zbek tilidagi sodda gaplarda semantik-sintaktik asimmetriya". – T.: "O'qituvchi", 1984.
4. G'afur G'ulom. "Shum bola". Qissa. –T.: Ilm-ziyo-zakovat, 2019.
5. Shoira Usmanova. "Lingvokulturologiya". Darslik. – T.: 2019.

IV SHO'BA. SOHADA DAVLAT TILIDA ISH YURITISH MASALALARI.

ДАВЛАТ ТИЛИДА НОРМАТИВ-ҲУҚУҚИЙ ҲУЖЖАТ ЛОЙИҲАЛАРИНИНГ ЛИНГВИСТИК ЭКСПЕРТИЗАСИ

*Шухрат Кўчимов – Тошкент давлат юридик
университети профессори, филология фанлари доктори*

Аннотация: Мазкур мақолада давлат тилида норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳаларини лингвистик экспертизадан ўтказиш тартибининг амалий-методик асослари, қоидалари ёритилади. Шунингдек, норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳаларини лингвистик экспертизадан ўтказишга қўйиладиган юрислингвистик талаблар, унда юридик тил, грамматик меъёр ва юридик терминология қоидаларига қатъий риоя қилиш масалалари юзасидан муҳим таклиф ва услубий тавсиялар берилган.

Аннотация: В данной статье рассматриваются практические и методические основы и правила процедуры проведения лингвистической экспертизы проектов нормативных правовых актов. Также были сделаны важные предложения и методические рекомендации по вопросам юридических требований к ведению проектов нормативно-правового документа с лингвистической точки зрения, строгого соблюдения правил юридического языка.

Бугунги кунда мамлакатимизда норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳаларини давлат тилида мукамал даражада ишлаб чиқиш ва уни лингвистик экспертизадан сифатли ўтказиш масалалари муҳим аҳамият касб этмоқда.

Бу соҳадаги ижро сифатида янада такомиллаштириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 28 октябрда “Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини лингвистик экспертизадан ўтказиш ўтказиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги 662-сонли қарори қабул қилинди. Унга асосан 2023 йил 1 январдан бошлаб лойиҳани ишлаб чиқувчининг ташаббуси билан ёхуд топшириққа асосан вазирлик, идоралар билан келишишдан олдин лойиҳа матни давлат тили қоида ва талабларига мувофиқлигини текшириш мақсадида лингвистик экспертизадан ўтказилади.

Шу нуқтаи назардан ҳужжат лойиҳаларини мукамал даражада ишлаб чиқишда лингвистик экспертиза ва унинг қоидаларини билиш ва уни тўғри қўллаш мутахассислар олдида турган долзарб вазифалардан бири

ҳисобланади. Бу эса норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳаларини саводхонлик билан тузиш ва тайёрлаш ишлари уни тайёрловчи ва уни лингвистик экспертизадан ўтказувчи мутахассислар, давлат тилида иш юритиш бўйича масъул ходимларга маълум бир қийинчиликларни туғдиради, улардан маълум бир билим, малака ва амалий кўникмаларни талаб қилади.

Норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳаси ва уни лингвистик экспертизадан ўтказиш деганда нима тушунилади?

Норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳаси матнининг давлат тили қоида ва талабларига мувофиқлигини мутахассис томонидан ўрганилиши **лингвистик экспертиза деб номланади.**

Лингвистик экспертизанинг мақсади ва асосий вазифалари қуйидагилардан иборат:

- норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳаси матнини давлат тили қоида ва талабларига мослаш, янги атамаларни тўғри қўллаш ҳамда грамматика, имло, пунктуация қоидаларига мувофиқ бўлишини таъминлаш;
- норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳаси матнининг давлат тили қоида ва талабларига, жумладан, имло, услубий, грамматик ва орфография қоидаларига мос бўлишини таъминлаш;
- норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳасида соҳа атамаларининг тўғри қўлланиши, янги атамалар қўлланилганда, уларга мос таъриф берилишини текшириш;
- норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳаси матни аниқ ва тушунарли баён қилинганлиги, сўз бирикмалари тўғри танланганлигига ва ўзаро тўғри боғланганлигига баҳо бериш;
- норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳаси матнидаги тушунча ва атамаларнинг маъносига мувофиқ ягона шаклда ва тўғри қўлланишини таъминлаш.

Норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳаси матнини давлат тили қоида ва талабларига мослаш лингвистик экспертизанинг асосий мақсади ҳисобланади.

Давлат тили қоида ва талабларига нималар киради?

Ўзбекистонда давлат тилининг асосини ўзбек адабий тили ташкил қилади. Адабий тил - халқ тилининг энг олий ифодаси бўлиб, у тилнинг барча қоидалари (фонетик, лексик, морфологик, синтактик, услубий қабилар) бўйича тартибга солинади. Шунга кўра у давлат тилининг асосий замини ҳисобланади.

Шундан келиб чиққан ҳолда, давлат тили қоида ва талабларини ўзбек адабий тилининг қуйидаги асосий қоидалари ташкил қилади:

- орфографик (имловий) қоидалар;
- пунктуация қоидалари,
- лексик қоидалар;
- атамашунослик ва уни тўғри қўллаш қоидалари;
- морфологик қоидалар;
- синтактик қоидалар;
- вазифавий-услубий қоидалар;
- расмий иш услуби ва юридик тил қоидалари;
- юрислингвистик қоидалар;
- юридик техника ва қонунчилик техникаси қоидалари
- матнда мантиқий хатоликларга йўл қўймаслик талаблари ва бошқалар.

Ҳар қандай норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳасини мукаммал даражада тузишнинг асосий шarti – юқоридаги умумадабий тил қоидаларига қатъий риоя қилиш ҳисобланади. Бунинг учун шу соҳа мутахассиси бу талаб ва қоидаларни мукаммал даражада эгаллаган бўлиши ва уларни тўғри қўллай олиши зарур.

Шунинг учун ҳар қандай норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳаси, биринчи навбатда, орфография ва пунктуация қоидаларига қатъий жавоб бериши лозим. Норматив-ҳуқуқий ҳужжат тилида оддий, арзимас нарсанинг ўзи йўқ. Айниқса, суд ва норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳасининг тилида ўрни келганда, оддий бир вергул ҳам фикрни бутунлай ўзгартириб юборади. Жумладан, тарихда “*Ўлим, йўқ шафқат. Ўлим йўқ, шафқат*” дейилиши

натижасида, яъни битта вергулнинг ҳар хил жойда ишлатилиши оқибатида бир инсон қатл этилган ёки унинг ҳаёти сақлаб қолинган.

Албатта, бу мисол тарихий даврга оид, лекин бугунги кунда бундай ҳолат учрамайди деб бўлмайди. Ҳозирда ҳам юридик ҳужжатларда юқоридагига ўхшаш ҳолатлар жуда кўп учрайди. Масалан, баъзан айрим норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда *“энг кам таъминланган ёш болали оилаларга ёрдам пули ажратилсин”* жумласи *“энг кам таъминланган, ёш болали оилаларга ёрдам пули ажратилсин”* тарзида берилади ёки аксинча. Ҳужжат тузаётган мутахассис юқоридаги ҳар икки гапни бир хил мазмунга эга деб ўйлайди. Аслида эса бу юридик ва молиявий жиҳатдан жуда катта хатоликка олиб келади.

Жумладан, *“Энг кам таъминланган ёш болали оилаларга ёрдам пули ажратилсин”* дейилганда, фақат бир тоифадаги, яъни энг кам таъминланган ёш болали оила тушунилади. *“Энг кам таъминланган, ёш болали оилаларга ёрдам пули ажратилсин”* дейилганда эса, икки тоифадаги, яъни ҳам энг кам таъминланган оилалар, ҳам ёш болали оилалар тушунилади.

Шунга кўра, норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳаларини тўғри тузиш ва уни лингвистик экспертизадан ўтказиш ҳам бир санъат ҳисобланади. Бу санъатни тўла эгаллаш норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳаларини тайёрловчи ва уни лингвистик экспертизадан ўтказувчи мутахассислар, давлат тилида иш юритиш бўйича масъул ходимлардан маълум бир билим ва малакани тақозо этади.

Норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳаси матни унинг тилига қўйиладиган талаблар асосида ҳар жиҳатдан мукаммал, аниқ ва равшон тузилиши, аввало, сўздан тўғри фойдаланишга боғлиқ. Матнда сўзларнинг маъносини фарқламасдан бериш, ортиқча сўз ва ибораларнинг ишлатилишига йўл қўйилиши ҳуқуқий норманинг ўта аниқ ва содда ифодаланишига тўсқинлик қилади, натижажа уни тушуниш қийинлашади.

Шу боис ҳуқуқий ахборот норма сифатида шакллантирилаётганида ва лингвистик экспертизадан ўтказилаётганда, унда ифодаланаётган ҳар бир сўз,

қўшимча, ҳатто тиниш белгиси биттама-битта таҳлилдан ўтказилиши, лозим бўлсагина шу сўз ёки қўшимча қолдирилиши мақсадга мувофиқ. Ҳуқуқий норма шундай тузилиши лозимки, ундаги ҳатто битта “вергул” ни ҳам олиб ташлаш мумкин бўлмасин. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ҳамда Ўзбекистон Республикаси Фуқаролиги тўғрисидаги қонуннинг қуйидаги моддаларига эътибор беринг:

Ўзбекистон Республикаси Конституцияси	Ўзбекистон Республикаси Фуқаролиги тўғрисидаги қонун
18-модда. Ўзбекистон Республикасида барча фуқаролар бир хил ҳуқуқ ва эркинликларга эга бўлиб, жинси, ирқи, миллати, тили, дини, ижтимоий келиб чиқиши, эътиқоди, шахси ва ижтимоий мавқеидан қатъи назар, қонун олдида тенгдирлар.	2-модда. Ўзбекистон Республикасининг фуқаролари келиб чиқишларидан, ижтимоий ва мулкӣ ҳолатидан, ирқи ва миллатидан, жинси, маълумоти, тилидан, динга муносабатидан, сиёсий ва бошқа эътиқодларидан, машғулотининг тури ва сажияси ҳамда бошқа ҳолатлардан қатъий назар, қонун олдида тенгдирлар.

Кўринадикӣ, иккала қонунда ҳам бир хил ҳуқуқий норма ифодаланган. Лекин уларнинг ифода усули бир-биридан фарқ қилади. Бу ҳуқуқий норма Конституцияда ҳаммаси бўлиб 29 та сўз орқали ифодаланган бўлиб, бирорта ортиқча сўз ишлатилмаган. Ҳуқуқий нормани тузишда ўзбек тилининг грамматик қонун-қоидаларига тўла риоя қилинган. Шунинг учун ҳам бу модда ўта аниқ ифодаланган.

Ўзбекистон Республикаси Фуқаролиги тўғрисидаги қонунда эса бу ҳуқуқий норма ҳаммаси бўлиб 33 та сўз орқали ифодаланган бўлиб, бунда ҳар бир сўзни ўз ўрнида ишлатилган деб бўлмайди. Жумладан, *динга муносабати* бирикмасидаги *муносабати* сўзи ортиқча бўлиб, шу тушунчани Конституциядаги сингари *дини* сўзи билан ифодалаш мумкин эди. Шунингдек, бу моддада *сажия* сўзининг ишлатилиши билан қўпол хатоликка йўл қўйилган. Чунки норматив-ҳуқуқий лойиҳаси матнида эскирган, тарихий

сўзларни бериш мақсадга мувофиқ эмас. Матнда лингвистик нуқтаи назардан лексик-грамматик тавтология ҳам юз берган. Жумладан, *ҳолати* сўзи икки марта ишлатилган. Ваҳоланки, шу сўзни бир марта ишлатиш ҳам мумкин эди. Бу моддада грамматик қўшимчаларни ишлатишда ҳам услубий жиҳатдан хатоликка йўл қўйилган. Матнда *машғулотининг тури ва сажияси ҳамда бошқа ҳолатлардан қатъи назар, қонун олдида тенгдирлар* дейилганда ҳолатлардан сўзида кўплик қўшимчасидан сўнг учинчи шахс эгалик қўшимчаси (-и) тушириб қолдирилган. Бундан ташқари, матнда чиқиш келишигининг қўшимчаси (-дан) 7 марта (*келиб чиқишларидан, мулкӣ ҳолатидан, миллатидан, тилидан, динга муносабатидан, бошқа эътиқодларидан, бошқа ҳолатларидан*) ишлатилган. Аслида -дан қўшимчасини Конституциядаги сингари бир марта ишлатиш йўли билан шу ҳуқуқий нормани аниқ ифодалаш мумкин эди. Матнда сон категориясини қўллашда ҳам хатоликка йўл қўйилган. Конституциянинг юқоридаги моддасида сўзлар асосан бирликда (*жинси, ирқи, миллати, тили, дини, ижтимоӣ келиб чиқиши, эътиқоди, шахси ва ижтимоӣ мавқеидан*) ифодаланиб тўғри шаклда берилган бўлса, Ўзбекистон Республикаси Фуқаролиги тўғрисидаги қонунда эса -лар кўплик қўшимчаси уч марта (*келиб чиқишларидан, бошқа эътиқодларидан, бошқа ҳолатларидан*) ишлатилиб услубий жиҳатдан хатоликка йўл қўйилган. Шунингдек, бу моддада *қатъи назар* сўзини *қатъий назар* тарзида бериб, орфографик хатолик ҳам юз берган.

Агар юқоридаги икки нормани фуқароларга тушунарлилик нуқтаи назаридан ҳам таҳлил этилганда Конституциядаги шаклнинг муваффақиятли эканлигини таъкидлаш лозим. Лингвистик экспертизанинг асосий мазмун ва моҳиятини норматив ҳуқуқий ҳужжатлар тили ва услубини юқоридаги сингари таҳлил ташкил этиши лозим.

ДАВЛАТ ТИЛИ ТАКОМИЛИДА ТИЛ ВА ҲУҚУҚ ИНТЕГРАЦИЯСИ

Р.А.Икрамов, Тошкент вилояти

Чирчиқ давлат педагогика институти
Гуманитар фанлар факультети декани, ю.ф.н., доц.
Қ.А. Мўйдинов, *Ўзбек тилишунослиги кафедраси доценти,*
филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Аннотация: Мақолада ўзбек адабий тили, ҳуқуқ тили ва терминологияси ва уларни тартибга солиш масаласи ифодаланган бўлиб, юридик тил, юрислингвистика соҳасидаги масала ва муаммолар изоҳланган ҳамда ечимлари бўйича таклифлар билдирилган.

Калит сўзлар: ўзбек адабий тили, юридик тил, қонун тили, ҳуқуқ тили ва нутқи, терминологияси, терминологик меъёр, норматив ҳуқуқий ҳужжат тили ва услубияти.

Аннотация: В статье обсуждается тема координации норм юридического языка и терминологии со свойствами узбекского литературного языка, а также рассматриваются вопросы приведения их в порядок, проблемы и вопросы в данном направлении разъясняются при помощи примеров, даются их уместные решения.

Ключевые слова: юридический язык, фундаментальные науки, судебные реформы, терминологические нормы.

Жаҳонда юз бераётган глобаллашув жараёни жамият тараққиётида янгича ёндашувлар, турлича фикр ва ғоялар кўринишида яққол намоён бўлмоқда. Бу ўз навбатида илм-фанга: бошқа фанлар қаторида тилшуносликка ҳам таъсирини кўрсатмоқда. Ҳозирги кунда тилшунос олимларни хавотирга солаётган энг катта муаммолардан бири баъзи тилларнинг йўқолиб кетаётганлиги ёки тилларнинг ўзаро қоришиб кетаётганлигидир. Сўз ўзлаштиришнинг тартибсизлиги натижасида тилнинг софлигига путур етаётганлиги ҳам сир эмас. Шундай бўлса ҳам, бугунги кунда тилнинг софлиги, тозалигини сақлаш борасида жиддий изланишлар олиб борилмоқда. Муайян бир тилдаги лексик бирликларни илмий жиҳатдан ўрганиш ва улардан тўғри фойдаланиш, умуман тил такомили борасида кўплаб илмий тадқиқот ишлари олиб борилмоқда. Ҳозирда ўзбек миллий адабий тилини чуқур

ўрганиш, ундан унумли фойдаланиш, асраш ва келажак авлодга етказиш асосий вазифаларимиздан бири саналади. Бу, ўз навбатида, ўзбек тилшунослиги муаммоларини замонавий тилшунослик ютуқлари асосида тадқиқ ва татбиқ этиш вазифасини қўймоқда. Ўзбекистон Республикаси Президентининг кейинги йилларда қабул қилган қатор қарор ва фармонлари ва бошқа меъёрий-ҳукукий ҳужжатлар миллий тилимиз бўлган давлат тилини ривожлантиришга қаратилган. Айниқса, президентимиз Ш.М.Мирзиёев ташаббуси билан Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси тузилмасида Давлат тилини ривожлантириш департаментининг ташкил этилиши оламшумул воқеа бўлди десак муболаға бўлмайди. Она тилимизни асраб-авайлаш ва ривожлантириш, ўзбек тилининг халқимиз ижтимоий ҳаётида ва халқаро миқёсида обрў-эътиборини янада ошириш, давлат тилининг амал қилиниши билан боғлиқ муаммоларни аниқлаш ва бартараф этиш, миллий тилимизни такомиллаштириш бўйича меъёрий-ҳукукий ҳужжатларни ишлаб чиқиш ҳамда амалиётга татбиқ этиш, мазкур соҳага оид илмий-тадқиқот ишларини қўллаб-қувватлаш ва бошқа ишлар юзасидан Давлат тилини ривожлантириш департаменти қисқа муддат ичида бўлса ҳам кенг қўламли вазифаларни амалга оширди. Бу ҳам ўз навбатида жамият маданий тараққиёти, миллат маънавий камолотининг муҳим белгиси саналган тилга, нутқ маданиятига бўлган алоҳида эътибордан далолатдир. Олий таълим муассасаларинг барча таълим йўналишларида мутахассислик тилини яхши билиши, ўзбек тилини шу соҳада тўғри ва намунали даражада қўлланишини таъминлаш мақсадида Ўзбек тилининг соҳада қўлланиши фани ўқитилмоқда.

Мазкур фан муайян соҳанинг тили, лексикаси, терминологияси ва уларни нутқда қўлланиш ҳолатини ўрганиши билан аҳамиятлидир. Ҳар бир соҳанинг тили ва терминологияси ўша соҳа вакили томонидан, энг камида шу соҳанинг тилини яхши биладиган тилшунос томонидан ўрганилиши лозим. Зарурат бўлганда тилшунос мутахассис фикрини инобатга олган ҳолда соҳа тили ва терминологияси ҳақида муносабат билдирилиши ўринли бўлади. Шундан келиб чиққан ҳолда, таълим тизимида фаолият олиб борадиган

педагогнинг тилдан фойдаланиш маданияти ҳақида фикр юритиш долзарб масалалардан биридир. Чунки ўзбек тили ижтимоий вазифаларининг кенгайиши, жамиятдаги ўзгаришлар ва тил ривож, тил ижтимоий вазифалари кенгайишининг сўз семантик структурасига таъсирини инобатга олган ҳолда маданий нутқ тузиш кўникмаларига эга бўлиш; ўзбек адабий тили меъёрлари, имло қоидалари, нутқ услублари ва уларнинг хусусиятлари ҳақида маълумотга эга бўлиш шарт. Мутахассис нутқининг коммуникатив сифатлари, касбий этика, соҳа тили ва нутқи, соҳавий терминларнинг ясалиши, соҳада давлат тилида иш юритиш масалалари, ўз фикрини илмий асослаб бериш ҳамда амалий масалаларни ҳал қилишда тил илмидан фойдалана билиш малакаларига эга бўлиш муҳим аҳамиятга эга. Ўзбек тилининг соҳада қўлланиши фанини ўқитишда талаба ва тингловчиларнинг ўзбек тилшунослигининг барча бўлимлари билан бирга, фалсафа, мантик, психология, педагогик маҳорат каби фанлардан эгаллаган билимларига асосланилади. Ўз навбатида, бу ўқув фани стилистикани ўрганиш учун замин ҳозирлайди. Ўзбек тилининг соҳада қўлланиши фани ўзига хос амалий соҳа сифатида шаклланмоқда. Бу фан тилшуносликнинг (фақат тилшунослик билан боғлиқ томонлари ҳақида сўз юритамиз Қ.М) назарий фанларидан олинган билимларга суянган ҳолда тўғри, таъсирли нутқ тузиш йўлларини ўргатади. У тил, тил меъёрлари, нутқ, нутқнинг сифатлари, нутқ услублари, нутқда учраши мумкин бўлган камчилик ва хатолар, нутқ талаффузига доир муаммолар юзасидан баҳс юритади.

Мамлакатимизда фундаментал фанлар қаторида ижтимоий ҳаётнинг барча соҳаларида давлат тили, ўзбек тилини илмий асосда ҳар томонлама ўрганиш, тилимизнинг қўлланилиш доирасини кенгайтириш, илмий адабиётлар, имло, таржима, қиёсий луғатлар нашр этиш масаласига алоҳида эътибор қаратилмоқда. Бошқа соҳалар қаторида суд-ҳуқуқ ислохотларининг ўтказилиши ўзбек тилида юридик тилни ўрганишга зарурат юзага келди. Натижада юрислингвистика ҳам илмий тадқиқот объекти сифатида ўрганилмоқда. Бугунги кунда ушбу соҳа тилини таҳлилга тортиш, соҳа

лексикасини ҳар томонлама тадқиқ қилиш, илмий-назарий жиҳатдан ўрганиш долзарб муаммолардан бири ҳисобланади. Бошқача айтганда, ҳуқуқ соҳасида фаолият олиб бораётган ходимлар касбий нутқининг тушунарлилиги, мантикийлиги ва мақсадга мувофиқлиги, луғат бойлиги, сўз ва терминларни қўллашдаги маҳорати муҳим аҳамиятга эгадир. Юридик терминлар соҳа вакиллари нутқида фаол қўлланиб, жараённинг ўзига хослигини таъминлайди. Бу эса тилшуносликда юридик терминларни алоҳида ўрганиш, унинг аҳамиятини кўрсатиб бериш лозимлигини келтириб чиқаради ҳамда бугунги кунда ечимини кутаётган масалалардан бири эканлигини белгилайди. Демак, ўзбек тили доирасида тил ва ҳуқуқ интеграцияси асосида ҳуқуқ тили ва нутқининг функционал-семантик ва семантик-услубий хусусиятларини тадқиқ қилиш долзарб масалалардан биридир.

Ўзбекистонда шу пайтгача ҳуқуқ тили масаласи, асосан, умумий нотиклик таркибида кўрилган бўлиб, мазкур соҳа тили ва нутқи тилшунослар томонидан эмас, балки, асосан, ҳуқуқшунослар томонидан ўрганилган. Бу ишларда асосий эътибор ҳуқуқшуносларнинг касбий маҳоратига, нутқининг психологик жиҳатларига қаратилган. Масалан, А.Саидов, Г.Сарқисянцларнинг “Юридик тил ва ҳуқуқшунос нутқи” китоби маълумотларга бой бўлиб, асосий эътибор юристларнинг тилдан фойдаланиш маҳоратига қаратилган. К.Назаров, С.Усмонов, Қ.Тоҳировларнинг “Юристининг нутқи маданияти” китоби бўлғуси юристларнинг ижтимоий-ҳуқуқий фаолиятида шахслараро мулоқот кўникмаларини, турли юридик вазиятларда профессионал нутқдан фойдаланиш маҳоратини, шунингдек, ҳуқуққа оид билимларни амалиётда қўллашда тил меъёларига мувофиқ онгли ва оқилона фойдаланиш кўникмасини шакллантириш ва такомиллаштириш мақсад қилинган

Демократик ҳуқуқий давлат барпо этиш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш сари дадил амалий қадамлар қўйилаётган ҳозирги кунда инсон ҳуқуқлари ва эркинликларини таъминлаш, қонунларнинг устуворлигига эришиш, давлат бошқарувининг изчил, мукаммал тизимини жорий этиш, суд-

ҳуқуқ ислохотлари амалга оширилаётган бир пайтда фуқароларни ҳуқуқий жиҳатдан тарбиялаш кенг қамровли муаммолардандир. Бу шарафли ишни амалга оширишда ҳуқуқшунослар билан бир қаторда тилшуносларнинг ҳам ўзига хос ўрни бор. Зеро, қонунлар жамиятнинг ҳар бир аъзоси учун тушунарли бўлиши керак. Бу борада буюк мутафаккир Абу Наср Форобий “Афлотун қонунлари моҳияти” номли асарида “Соҳиби қонуннинг ҳар бир гуруҳ одамларга мурожаати тушунарли бўлиши лозим. Бунинг учун қонун чиқарувчи одамларнинг идрок этиш имкониятларини ҳисобга олиши керак, токи одамлар уни тушунсинлар. Чунки одамларга бирор нарсани тушуниш ва амалда қўллаш қийин бўлиши мумкин. Тушунмовчилик бундай соҳиби қонундан воз кечишга туртки ва ағдариб ташлашга сабаб бўлиши мумкин”, - деб таъкидлайди.

Бугунги кунда юридик тил масаласида, тил ва ҳуқуқ доирасида ҳам юридик, ҳам лингвистик билимларга эга бўлган тадқиқотчилар томонидан илмий изланишлар олиб боришни даврнинг ўзи кўрсатмоқда. Чунки мазкур тадқиқотлар бир вақтнинг ўзида юридик ҳамда лингвистик билимларни талаб қилади. Ҳуқуқшуносларнинг тил имкониятларидан етарлича фойдалана олмасликлари натижасида қонун ҳужжатлари матнларида баҳсталаб ўринлар учрамоқда. Ўз навбатида, тилшунослар ҳам юридик билимлардан яхши хабардор бўлмасликлари сабабли қонун ҳужжатларини ёза олмайдилар. Ҳуқуқ тилини ҳуқуқшунос ҳам, тилшунос ҳам ўрганиши мумкин, лекин уларнинг муайян масалага ёндашуви фарқ қилади. Ҳуқуқшунос норматив ҳуқуқий матннинг ҳуқуқий жиҳатларига эътибор қаратса, тилшунос эса унинг лингвистик томонига эътибор қаратади. Шундай экан, муайян норматив ҳуқуқий ҳужжат матнини ёзишда лингво-юридик билимга эга бўлган мутахассисга эҳтиёж сезилади.

Мамлакатимизда юридик тил ва юридик нутқ масалаларини такомиллаштириш, бу соҳани ривожлантириш, тил ва ҳуқуқ, юридик тил ва юридик нутқ назарияси билан боғлиқ илмий тадқиқот ишларини рағбатлантириш ҳамда шу соҳада етук малакали кадрлар тайёрлаш мақсадида

“Юрислингвистика” деб номланган янги илмий йўналишни йўлга қўйиш борасида бир қатор мутахассисларнинг, жумладан, тилшунос олим Ш.Кўчимовнинг саъй-ҳаракатларини алоҳида эътироф этиш муҳим.

Тилнинг ижтимоий ҳаётдаги мавқеи ва камрови жуда кенг. Уни мустаҳкам ушлаб турган манба тилнинг ҳуқуқий ҳимояси бўлса, унинг бойиб боришида бошқа соҳа тилини камситмаган ҳолда ҳуқуқ тили алоҳида ўринга эга. Шундай экан, тил ҳуқуқи ва ҳуқуқ тили кишилиқ жамияти тараққиётида ижтимоий зарурият сифатида пайдо бўлган. Умуминсоний ахлоқ меъёрларига мос келадиган, халқ ва давлат, айни пайтда, айбланувчи ва жабрланувчи манфаатини ҳимоя қиладиган адолат ва ҳақиқат тушунчаларига аниқлик киритишда ҳуқуқ тили тушунарли бўлиши шарт.

Юристларнинг ижтимоий-ҳуқуқий фаолиятида шахслараро мулоқот кўникмаларини, турли юридик вазиятларда профессионал нутқдан фойдаланиш маҳоратини, шунингдек, ҳуқуққа оид билимларни амалиётда қўллашда тил меъёрларига мувофиқ онгли ва оқилона фойдаланиш кўникмасини шакллантириш ва такомиллаштиришга йўналтирилган дарслик ва қўлланмаларга эҳтиёж катта бўлиб, уларни яратиш бугунги куннинг долзарб масалаларидан биридир.

Бугунги кунда жаҳон илм-фанининг бир фан доирасида эмас, балки фанлараро йўналишда ривожланаётганлигидан келиб чиққан ҳолда, мамлакатимизда ҳуқуқ ва тил, уларнинг бир-бирига ўзаро муносабати, бу масалаларнинг жамият ҳаётига таъсири каби муаммоларни ўрганиш муҳим аҳамият касб этмоқда. Бинобарин, уни чуқур илмий-назарий жиҳатдан таҳлил этмасдан ҳамда ўзбек миллий юридик тилини такомиллаштиришнинг илмий асосларини ишлаб чиқмасдан туриб, бу вазифани амалга ошириш анча мураккабдир. Шунга кўра, ҳуқуқ ва тил ўртасидаги ўзаро муносабатлар, ҳуқуқнинг ривожига тилнинг қандай вазифаларни бажариши, тил тараққиётида ҳуқуқнинг тутган ўрни аниқланади. Шунингдек, юридик тил, қонунчилик услубияти, юридик терминларнинг ҳуқуқ ва тил фанлари билан

алоқадор алоҳида бир соҳа сифатида ўрганиш, уни илмий жиҳатдан тадқиқ қилиш зарурлигини кўрсатади.

Бундан ташқари, ўзбек юридик терминларининг ягона ифода шакллари ишлаб чиқиш ва уларни барқарорлаштириш юзасидан тавсиялар беришни, ҳуқуқий амалиётда қонунчилик услубиятини махсус бир соҳа сифатида шакллантиришни, мантиларнинг қонунчилик техникаси талабларига қай даражада жавоб беришини назарий жиҳатдан аниқлаш ва бу соҳадаги муаммоларни кўрсатиш лозим.

Ҳуқуқ соҳасига бошқа тиллардан терминлар кириб келиши ёки ички имкониятлар асосида янги ҳуқуқий терминларнинг ясалиши натижасида ҳам ўзбек тили лексик қатлами бойиб бормоқда, шунингдек, янги ҳуқуқий тушунчалар юзага келмоқда. Жумладан, ҳуқуқий соҳада кейинги пайтда *миллий-ҳуқуқий тизим, миллий-ҳуқуқий қонунчилик, суднинг сайёр мажлиси, одил судлов, суд амалиёти, суд-филологик экспертиза, суд-лингвистик экспертиза, муаллифлик ҳуқуқи, қилмиш, қонун устунлиги* каби юридик терминлар тилимизга кириб келди.

Бундан ташқари, ҳуқуқ бошқа соҳаларга нисбатан ижтимоий ҳаётда анча оммалашган. Шунга кўра бу соҳага кириб келган янги сўз ва иборалар, деярли, барча соҳаларда қўлланиб, ижтимоий ҳаётда оммалашиб, бошқа соҳалар тилига нисбатан ҳуқуқ тил ривожланган. Шундай қилиб, ҳуқуқ тил ривожига икки энг муҳим вазифани: тил ривожига учун ҳуқуқий пойдевор, тил луғат бойлигининг бойиш манбаларидан бири вазифаларини бажаради.

“Ўзбекистон Республикаси қонунларини тайёрлаш тўғрисида”ги қонуннинг 20-моддасида: “Қонун лойиҳасидаги қоидалар аниқ ва равшан бўлиши лозим”- дейилади. “Ўзбекистон Республикаси Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлари тўғрисида”ги қонуннинг 19-моддасида: “Норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг матни лўнда, оддий ва равон тилда баён этилади. Норматив-ҳуқуқий ҳужжатда фойдаланиладиган тушунчалар ва терминлар уларнинг амалдаги қонун ҳужжатларида қабул қилинган мазмунига мувофиқ турлича шарҳлаш имкониятини истисно этадиган тарзда бир хилда қўлланилади.

Эскирган ҳамда кўп маънони англатадиган сўзлар ва иборалар, мажозий таққослашлар, сифатлашлар, киноялар қўлланилишига йўл қўйилмайди”, – деб таъкидланади.

Масаланинг моҳиятидан келиб чиққан ҳолда хулоса қилсак, тил ва ҳуқуқ интеграциясини илмий-назарий жиҳатдан ўрганиш орқали миллий юридик тил моделини яратиш, ҳуқуқшунос ҳамда тилшунос олимларнинг ўзаро ҳамкорлигини йўлга қўйиш орқали ҳар иккала соҳага оид фундаментал илмий тадқиқот ишлари олиб бориш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар

- 1.Каримов С., Маматов Х., Бўриев И. Юристинг нутқ маданияти.-Тошкент: Зарқалам, 2004. - 158 б.
- 2.Кўчимов Ш. Ўзбекистон Республикаси қонунларининг тили. Филол.фан.номз...дис. автореф. –Тошкент, 1995.
- 3.Кўчимов Ш. Ҳуқуқий нормаларни ўзбек тилида ифодалашнинг илмий-назарий муаммолари. Филол.фан.док-ри...автореф. –Тошкент, 2004.
- 4.Расулов Р., Мўйдинов Қ. Нотиқлик санъати ва нутқ маданияти. –Тошкент, 2015.- 200 б.
- 5.Саидов А.,Саркисянц Г. Юридик тил ва ҳуқуқшунос нутқи. –Тошкент: Адолат, 1994. - 32 б
- 6.Ғуломова Г. Ўзбек юридик терминологиясининг истиқлол даври тараққиёти. Филол. фан.номз...дис. –Тошкент, 2005. -125 б.

РАСМИЙ ИШ ЮРИТИШ ҲУЖЖАТЛАРИДА ЛИНВИСТИК МОДЕЛЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

*Саидов Ўлмас Рахматович,
Чирчиқ давлат педагогика институти
Ўзбек тилишунослиги кафедраси таянч
докторанти.
Email: saidov75@umail.uz*

Аннотация: Давлат тилининг жадал жорий қилинишидаги асосий масалалардан бири мамлакатимизда иш юритиш тизимини тўлалигича ўзбек

тилига ўтказишдан иборат. Айни пайтда турли соҳа ходимларининг иш юритиш борасидаги билим ва малакаларини мунтазам ошириб бориш ҳам зарурий эҳтиёждир.

Мақолада ташкилот ва муассасаларнинг иш юритиш фаолиятида энг кўп қўлланадиган ҳужжатлар, уларни тузиш тартиб-қоидалари, ҳужжатлар матнида ишлатилувчи лингвистик қолиплаган моделлар тўғрисида фикрлар берилди. Шунингдек, ҳужжат турларининг тил меъёрлари хусусида алоҳида тўхтаб ўтилди.

Калит сўзлар: ҳужжатлар тили, иш юритиш қоғозлари, расмий иш услуби, ҳужжатчилик, ўзбек ҳужжатчилиги, телеграф услуби, қолиплаган бирликлар, лингвистик модель, расмий нутқ, ҳужжат.

Аннотация: Одним из основных вопросов скорейшего введения государственного языка, является перевод всей системы делопроизводства в нашей стране на узбекский язык. При этом возникает потребность в постоянном совершенствовании знаний и навыков сотрудников в различных сферах делопроизводства.

В статье приведены взгляды на наиболее часто используемые документы в делопроизводстве организаций и учреждений, а также порядок их составления, языковые стереотипы, используемые в тексте документов. Особое внимание уделяется языковым нормам типов документов.

Ключевые слова: язык документов, канцелярия, официальный стиль работы, документальный, телеграфный стиль, унифицированные единицы, языковая модель, официальная речь, документ.

Жамиятда кундалик сўзлашув тилидан ташқари расмий иш юритиш тилига ҳам эҳтиёж катта, яъни корхона, ташкилот, муассасалар фаолиятини иш юритиш қоғозларисиз тасаввур этиб бўлмайди. Иш юритишнинг бевосита асосларини эса турли ҳужжатлар ташкил қилади. Мазмунан, шаклан ва ҳажман ҳар хил бўлган ҳужжатлар иш юритишда кишилиқ жамиятининг узлуксиз фаолиятини тартибга солиб туради. Шу маънода, ҳар бир шахс ўз фикрини тўлиқ ва равон ифодалаши, фикрни қисқа, лўнда ҳолда ёзма баён эта

олиши учун ҳужжатлар билан ишлаш тили ва услубидан ҳам хабардор бўлиши керак.

Бугунги глобллашув жараёнида ўзбек ҳужжатчилигида иш юритиш қоғозларининг тили ва услубидаги ўзига хос хусусиятларни аниқлаш, ҳужжатчилик тарихини пухта ўрганиш, иш юритиш тилига доир муаммоларни аниқлаш ҳамда ўзбек тилида юритилаётган ҳужжатчиликни янада такомиллаштириш дабр талабидир.

Иш юритишнинг тилга алоқадор жиҳатлари “Ўзбекистон Республикасининг Давлат тили ҳақида”ги Қонунида ҳам яққол ўз аксини топган. “Корхоналар, муассасалар, ташкилотлар ва жамоат бирлашмаларида иш юритиш, ҳисоб-китоб, статистика ва молия ҳужжатлари давлат тилида юритилади, ишловчиларнинг кўпчилиги ўзбек тилини билмайдиган жамоаларда давлат тили билан бир қаторда бошқа тилларда ҳам амалга оширилиши мумкин”, деб алоҳида моддада иш юритиш ҳужжатлари тили қоидалаштирилган.[1]

Расмий ҳужжатлар тилини соф ўзбекчада юритиш, ҳужжатлар билан ишлашда ўзбек тилининг морфологик структураси, сўз ясалиши, синтаксиси, орфоэпияси, орфографияси бўйича етарли билимга эга бўлиш муҳимдир.

Ўзбек ҳужжатчилигининг бой ва узоқ тарихи бор. Шундан келиб чиқиб, ҳужжатчиликни мукаммал даражага олиб чиқиш, ҳужжатлар матни ва тилини ўзбек тили негизида тузиш, расмий иш услубини такомиллаштириш муҳим вазифа саналади. Мазкур соҳада Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5850-сонли Фармони дастуриламал бўлиши лозим.[2]

Ҳужжатлар тилининг алоҳида хусусиятларини ўрганиш, ҳужжат матнини тузишда лингвистик меъёрларга амал қилиш, иш юритишда ўзбек тилининг лексик-услубий, грамматик, морфологик ва синтактик жиҳатларига эътибор қаратиш ҳужжатчиликда долзарб муаммолардан биридир.

Ҳужжатлар тилида ҳеч қачон ноаниқ тушунчалар ишлатмаслиги, ҳужжат мазмунида ишлатилган сўзлар барча учун бирдек тушунарли, услуб эса раван бўлиши керак. Қисқа ва сиқик ҳолда ёзилиши билан ажралиб турадиган “*телеграф услуби*”ни айнан расмий ёзишмалар тилининг намунаси деб ҳисоблаш мумкин.

Ҳужжатларнинг мазмуни ва таркиби ўзига хос меъёрларга ва лингвистик хилма-хилликка эга. Хизмат ёзишмалари тилининг асосий хусусияти унинг қолиплаганлигидир. Бу уларни тузиш ва фойдаланишни осонлаштиради, тил ресурсларини тежайди, маълумотларнинг такрорланмаслиги учун хизмат қилади.

Стандарт тузилмалардан фойдаланиш хизмат хатлари мазмуни ва матнида сўз туркумлари: *от, сифат, сон, феъл, олмош кабиларни ишлатишда ҳам маълум бир қулайлик яратади. Қуйида ҳужжатлар билан ишлашда биргина сифат туркумига доир сўзларнинг таҳлилига эътибор қаратамиз.*

Ҳужжатларда сифатларга мурожаат қилиш, қуйидаги заруратлар билан боғлиқ:

- кўп ҳолда ҳужжатда ёритилаётган шахслар ва нарсаларнинг маълум бир белгиларини очиб бериш (...*катта аҳамиятга эғалигини таъкидлаймиз; кўрсатган улкан хизматлари учун миннатдорчилик билдиради; ...буюк давлат арбоби ҳақида маълумотлар берилади; ...гўзал ва бетакрор масканимиз тарихи эътироф этилади ва ҳ.к.*);

- нарса (шахс)ларнинг турли хусусият-ҳолатларини ифодалаш (...*хурсанд ҳолда кўришганимиздан бахтиёрмиз; ...камтарин инсон эканлигини эътироф этиш; ...қурилган янги иморатлар ҳақида статистик маълумот тайёрлаш; ...улуг воқелик бўлганлигини айтиб ўтиш ва ҳ.к.*);

- ҳужжатда акс этаётган нарсаларнинг ҳажми, вазни, ўлчови ва шаклини тасвирлаш (...*катта даромад олинishi учун ҳаракат қилинди; семинар иштирокчилари айлана стол атрофида суҳбатлашishiди; ...қалин мато ишлаб чиқарishi учун дастгоҳларга буюртма берилди; ...узун йўл қуриш ишлари*

бошланди; режани қисқа муддатда бажариши белгиланди; кенг имкониятлар очилиши кутилади; ... баланд иншоот қурилишига жалб қилинади ва ҳ.к.);

- макон ва замонни ифодалаш (*эрталабки* бадантарбия машқлари ўтказилди; *қадимги* давр ҳақида кўрсатув тайёрланди; *ёзги* таътил бошланганини маълум қилиш; *бултурги* ҳосил тўғрисида таҳлилий маълумот тайёрланди ва ҳ.к.).

Нисбий сифатлар ҳужжатларда кўрсатилаётган маълум бир атама ва терминларни ифодаловчи сўз бирликларида ҳам фаол қўлланилади. Масалан, *илмий* (иш)нинг натижалари тўғрисида ахборот берилди; *деворий* (газета)да эълон қилинди; *даврий* (нашр) орқали маълумотлар бериб борилади; *молиявий* (маблағ) кўрсаткичлари айтиб ўтилди; *моддий* (рағбатлантириш) масаласи кўриб чиқилди; *мажбурий* (шартлар) ҳақида тўлиқ ахборот айтилди кабилар.

Шу ўринда айтиш керакки, ҳужжатлар матнида сифат туркумига оид сўзларни ўз ўрнида тўғри қўлламаслик ҳужжат тилининг ғализлигини келтириб чиқариши мумкин. Масалан, хизмат хатининг бир тури бўлган сўров хати матнида ишлатиладиган “... маҳсулот ишлаб чиқаришининг *юқори кўрсаткичи* ҳақида маълумот беришингиз сўралади” қолипдаги “*юқори кўрсаткич*” бирикмаси ўрнида “*баланд кўрсаткич*”, “*унумдор кўрсаткич*” ёки “*яхши кўрсаткич*” бирликларини ишлатиш мазмунан хато саналади. Айниқса, ҳужжатлар матнида сифат туркумига оид синонимик бирликлар қаторидан мосини танлаш ва қўллашда ҳар бир синоним сўзнинг маъно таркиби ва қўламини, нозик маънони тўғри идрок қила билиш зарур.

Ҳужжатлар матнида узун жумлалар, мураккаблашган, уюшиқ бўлакли гаплар, эргашган қўшма гаплар кўп қўлланади. Бундай мураккаб жумлалар қисмларини боғлаш учун бириктирувчи, эргаштирувчи боғловчилар (*.....ва.....; ...шундай бўлса ҳам;ҳамда.....; асосларига кўра...; шу сабабли; шарти билан; шундай тарзда; шундай ҳолатда.....; шу сабабли...; шу туфайли.....; ҳақиқатдан ҳам.....; ва ҳ.к.*) равишдош, сифатдошли бирикмалар (*...шунга асосланиб айтиш;келишиб ҳал қилиш*)дан фойдаланилади.

Расмий ҳужжатлар давлатлар, идоралар, ташкилотлар, корхоналар ўртасида, шунингдек, бир томондан шахс, бошқа томондан жамият, давлат, муассаса ўртасида ўрнатиладиган расмий муносабатлар соҳасига хизмат қилади. Шунинг учун расмий нутқ таркибига олиб кирилган ҳар бир сўз, ҳар қандай грамматик қурилиш манзил эгасига жуда муҳим аҳамиятга эга бўлган хабарни олганлигини, унга жиддий ва масъулиятли муносабатда бўлиши, у ёки бу вазифани бажариши кераклигини билдиради.[3]

Ҳужжатлар матни ихчам бўлиши билан бирга унда тил воситаларидан тежамли фойдаланиш талаб этилади, ҳужжат матнида материалнинг стандарт жойлашувидан, кўпинча қолиплаган лингвистик моделлардан унумли фойдаланилади. Исмлар, терминлар (юримдик, дипломатик, ҳарбий, маъмурий ва бошқалар)дан кенг фойдаланиш, матнга қўшма сўзлар, қисқартмалар киритилиши ҳужжат тилининг меъёри саналади. Матндаги жумлаларда сўз тартибига қатъий амал қилинади ҳамда гап қурилишида аниқликка эътибор қаратилади, баъзи фактларнинг бошқаларига мантикий бўйсунилишини акс эттирувчи мураккаб жумлалардан фойдаланиш тенденциясига амал қилинади, матн мазмунида эмоционал-экспрессив нутқ воситаларидан деярли фойдаланилмайди.

Иш ҳужжатлари одатда расмий-идоравий услубда юритилиши сабабли, бундай ҳужжатлар тили адабий тилнинг бошқа услублари (илмий услуб, бадиий услуб, публицистик услуб) тилидан фарқланади. Расмий услубда нутқнинг юқори даражада тартибга солинганлиги, расмий оҳанг, сўзларни ўз маъносида тўғри ишлатиш, маълумотларни ахборот ва тавсиф шаклида бериш кабилар устун бўлади.[4] Шунга монанд ҳолда ҳужжатлар тили ҳам расмий бўлиб, аниқ ва равон, барчага бирдек тушунарли бўлиши талаб этилади.

Расмий ҳужжатларнинг лингвистик меъёрларини таҳлил қилган ҳолда қуйидаги амалий таклифларни беришни лозим топдик:

- ҳужжатнинг мазмуни тўлиқ ва мукаммал бўлишини таъминлашда тил бирликларидан тўғри фойдаланиш;

- хужжатларнинг расмий хусусиятидан келиб чиқиб матнда сўз ва шаклни танлаш, жумлалар тузиш, маълумотни тўғри етказиш;
- хужжатлар тилининг тўлиқ ва тушунарли бўлишини таъминлаш;
- хужжатлар матнида бир хил лингвистик дизайнга эга бўлган тил бирликларини ўз ўрнида ишлатиш;
- хужжатларда лингвистик моделлар ва уларнинг нутқий вариантларидан тўғри фойдаланиш ҳамда тегишли гапга мос келадиган синтактик моделни ва унинг нутқ вариантини тўғри танлай билиш;

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг Давлат тили ҳақида”ги Қонуни (янги таҳрирдаги). 10-модда. –Тошкент, 2017.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5850-сонли Фармони. – Тошкент, 2019 йил 21 октябрь.
3. Андреева В.И. Делопроизводство.–3-е изд.–М.: журнал “Управление персоналом”, 1996.
4. Головач А.С. Оформление документов. – Киев-Донецк, 1983.
5. Муҳиддинова Х.С., Абдуллаева Н.А. Расмий услубнинг дипломатик ёзишмалар тури. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги Республика таълим маркази, 1997.
6. Аминов М., Мадвалиев А., Маҳкамов Н., Маҳмудов Н., Одилов Ё. Давлат тилида иш юритиш. Амалий қўлланма. – Т.: “Ўзбекистон” нашриёти, 2020.

SHIFOKORNING KASBIY TILI MUTAXASSISLIK TILI SIFATIDA.

Gulbaxor Kerimbaevna Rasulova,
Toshkent to‘qimachilik va
yengil sanoat instituti o‘qituvchisi

Bugungi kunda o‘zbek tili o‘zbek millatining fikr almashuv quroli sifatida xalqimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida - ish yuritishda, o‘qish –o‘qitishning turli pog‘onalarida, radio va televideniya, matbuotda g‘oyat mas’uliyatli muhim

vazifani bajarmoqda. Bunda albatta, badiiy adabiyotimiz rivojiga hissa qo'shayotgan shoir va yozuvchilar, so'z san'atkorlari, tilimiz sofliigi uchun kurashayotgan tilshunos olimlarimiz va ommaviy axborot vositalari xodimlarining xizmatlari beqiyosdir.

Ma'lumki, qadimgi davrlardayoq tilga insonning xulqi, madanyatini ko'rsatuvchi belgi sifatida haraganlar. Inson faoliyatining hamma qirralari til bilan bevosita bog'liq bo'lganligi uchun til birgina aloqa qilish vositasigina emas, balki odob, axloq ziynati ham hisoblangan. Ajdodlarimizning nutq odobi to'g'risidagi qarashlari, falsafiy mushoqadalar asrdan asrga o'tib puxtalanib, silliqlasha borgan, tildan foydalanib, o'z fikrlarini jozibador, go'zal tarzda ifodalash maxsus san'at darajasiga ko'tarilgan. Tildan foydalanishda qo'pol, beparda so'zlarni ishlatmaslik, manmanlik, g'iybat qilmaslik hamda yolg'on so'zlamaslik kabi bir qancha talablar qo'yilgan. Shuning uchun Mahmud

Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarida "Erdam boshi til", ya'ni odobning boshi tildir, deyilishi ham bejiz emas. Nutq odobiga doir bildirilgan fikrlarni Kaykovusning "Qobusnoma", Ahmad Yugnakiyning "Hibatul haqoyiq", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarlarida, shuningdek, Alisher Navoiyning deyarli hamma asarlarida ko'rishimiz mumkin.

Insonni ma'naviy kamolga etkazish – komil inson qilib tarbiyalashga ajdodlarimiz ma'naviy merosining nodir xazinasi –mumtoz kitoblarda ham asosiy masala sifatida qaraladi. Shuning uchun insoniy g'oyalarini targ'ib etishga qaratilgan mumtoz adabiyotda so'z ulug'lanadi, barcha yaratilganlar ichidan eng ulug'i bo'lgan insonning so'zi, nutqi bilan bog'liq jihatlarga alohida e'tibor beriladi. Bu holatni Ahmad Yassaviy, Sulaymon Bog'rg'oniy, Mashrab singari shoirlar ijodida ham kuzatishimiz mumkin.

Demak, nutqiy tarbiya ma'naviy yetuk inson tarbiyasining asosi hisoblanadi. Bu tarbiyada kitob, oila, maktab va jamiyatning o'rni juda katta. Bularning nutqiy tarbiyada tutgan o'rnini aniqlash bugungi kunda kishilik jamiyati oldida turgan muammolardan biridir. Birgina ta'lim sohasida nutq madaniyatining alohida fan sifatida o'qitilishi bilan ko'zlangan maqsadga erishish qiyin, albatta.

Bizningcha, nutqiy ko'nikma dastlab hosil bo'ladigan joy, ya'ni oilaga dastlabki e'tiborni haratish lozim. Bunda avvalo, oila a'zolaridan o'z nutqlarida adabiy til me'yorlariga qat'iy amal qilishlari, boshqa tillarga oid til birliklarini keraksiz holda qo'llanmaslik, turli haqoratli, beparda so'zlardan qochish talab etiladi. Bunday tarbiya bolalar bog'chasiga ham tegishli bo'lib, u erda to'g'ri so'zlash, yolg'on gapirmaslik, ko'p gapirmaslik, o'ylab gapirish kabi nutq odobiga oid xususiyatlar bolalar ongiga singdirilishi lozim.

Kishining nutqi to'la shakllanib ulguradigan ikkinchi bosqich maktab ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, o'qituvchilik kasbining juda ma'suliyatli ekanligi seziladi. Bu davrda o'quvchi o'zbek tilining qonun – qoidalari bilan yaqindan tanishadi, adabiy til me'yorlari, milliy til adabiy til va shevalar, ular orasidagi farqlarni o'rganadi, badiiy adabiyot bilan yaqindan tanishadi.

Ko'rinadiki, nutq madaniyati insonning nutqiy faoliyati bilan bog'liq bo'lib, u barcha kasb egalarining, shu jumladan, shifokor nutqining ham adabiy til me'yorlariga mos kelish darajasini belgilovchi, tildagi me'yorlashtirish muammolarini ham qamrab oluvchi keng tushunchadir. Inson faoliyatining barcha sohalari bilan chambarchas aloqada bo'lgan shifokor nutqi madaniyatining boshqa fanlar bilan qay darajada aloqadorlikda ekanligini aniqlamay, ular orasida tutgan o'rini belgilamay turib, bu sohaning rivoji, uning o'ziga xos qonuniyatlari

to'g'risida so'zlab bo'lmaydi. Chunki sog'lom bo'lmagan insonning nutqi risoladagidek bo'lmasligi tabiiy. Inson nutqining talab darajasida bo'lishi uning qanday jamiyatda yashayotganligi, borliq, yon-atrofdagi kishilar bilan qay darajada munosabatga kirishishi, qanday kasb egasi ekanligi, sog'lig'i kabi bir qator jihatlar bilan bog'liqdir. Demak, til inson faoliyatining hamma sohasi bilan, shuningdek, tibbiyot bilan ham aloqada ekanligini yana bir karra isbotlaydi. Jamiyat hayotining bardavomligi, inson jismoniy va nutqiy faoliyatining bir tekis, me'yoriy bo'lishi tibbiyot bilan bog'liq. Shunday ekan, insoniy munosabatlarning orasida til orqali amalga oshadigan aloqa eng muhim hisoblanadi. Shuning uchun ham nutq madaniyati insoniyat tarixining deyarli hamma davrlarida o'ta dolzarb masalalaridan biri hisoblanib keldi.

Shifokor nutqi madaniyatining ham kengroq doirada tadqiq etilishi tilshunoslik fani uchun katta ahamiyatga ega. Shifokorning kasb madaniyati asosida u mansub bo'lgan jamoaning barcha a'zosi uchun birday tegishli bo'lgan umummilliy madaniyatning muhim qoidalari yotadi. Shifokorlik kasb madaniyati o'zida tibbiyotga xos mutaxassislik doirasida qo'llanuvchi andazalar qatorida ish jarayonida bemorlar va boshqa kishilar bilan munosabatlarda namoyon bo'luvchi chuqur bilimga egalik va me'yoriy va axloqiy sifatlarni qamrab oladi. Madaniy fikrlar har bir xalqning milliy-ma'naviy qadriyatlari asosi bo'lgan tilda o'z aksini topadi. Til shifokorning kasbiy faoliyatida uning shaxsiy layoqatini yuzaga chiqarish vositasi hisoblanadi. Shifokorning kasb madaniyati uning faoliyati ob'ekti bo'lgan tirik inson, uning hayoti va sog'ligi bo'lib, bu madaniyat o'zida bemor bilan bo'ladigan o'ziga xos muomala, ramzlar, an'ana va odatlarni qamrab oladi. Shifokorning kasbiy madaniyati tuzilishiga ko'ra ko'p qirrali bo'lib, oiladan tortib davolash muassasasida hamkasblar bilan bo'ladigan muloqot, bemorlar bilan sodir bo'luvchi suhbatlarni o'z ichiga oladi hamda u maxsus kasbiy bilimlar, shifokorlikda asrlar davomida ardoqlab kelingan ma'naviy qadriyatlar, ma'naviy tushunchalar yig'indisini, mazkur sohaga taalluqli alohida o'ziga xos unsurlardan tashkil topadi.

Davolashda shifokorlik faoliyatining asosiy maqsadi nafaqat davolash, balki shifokor va bemor o'rtasidagi bir-birini tushunish hamdir. Bu kasbiy madaniyatning mazkur turining o'ziga xos xususiyati shundaki, unda shifokor kasbiy faoliyatining asosiy ob'ekti inson sog'ligi va hayoti hisoblanadi. Shifokorlik o'ta mas'uliyatli kasb. Og'ir ahvoldagi bemorning tuzalib, o'z oilasi bag'riga qaytishi davolovchining bilimiga, to'g'ri muolaja qilishiga bog'liq. Bu kasbning asosiy qoidasi bemor sog'ligi uchun qayg'urish bo'lib, bu uning davolashida emas, balki muomalasida, kasallangan kishi bilan lisoniy aloqaga kirishishida ham namoyon bo'ladi. Shifokor va bemor o'rtasida yuzaga keluvchi muloqotda asosiy e'tibor shifokorning bemor uni to'liq tushunishini ta'minlashga qaratiladi va bu davolash hamda sog'liqni saqlashda zarur hisoblanadi. Buning uchun shifokordan o'z kasbida talab etiladigan va uning madaniyatini ko'rsatadigan omil - bemor bilan muloqotga kirishadigan tilni yuqori darajada bilishi talab etiladi. Shuning uchun shifokor kasbiy madaniyati

asosida bir tomondan uning til birliklarini to'g'ri va o'rinli qo'llay olishi, ya'ni lisoniy layoqati va ikkinchi tomondan, shaxs madaniyati birligi yotadi. Bular ikkisi birgalikda tibbiyot sohasida ta'lim olish jarayonida talabalarning umumiy madaniyatini oshiradi, bo'lg'usi shifokorlarning tafakkur doiralarini kengaytirishga xizmat qiladi. Tibbiyot yo'nalishidagi yuqori kasbiy ta'limda nutq madaniyatini talabalarga puxta o'rgatish bo'lg'usi shifokorlarni tayyorlashning barcha bosqichlarida muhim o'rin tutadi.

Yirik tilshunos olim Nizomiddin Mahmudovning quyidagi fikrlari malakali mutaxassis kadrlarni, jumladan shifokorlarni ham tayyorlashda nutq madaniyati fanining muhim ahamiyat kasb etishidan dalolat beradi: "Jamiyatning har bir a'zosi, har qanday mutaxassis, zamon bilan hamqadam har qanday kadr, eng avvalo, o'z ona tilining sadoqatli sohibi bo'lmog'i lozim. Ona tilining chinakam sohibi bo'lmoqning bosh sharti esa uning tuganmas imkoniyatlarini tugal egallamoq, ya'ni fikrni mustaqil, ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta olmoqdan iborat nutqiy madaniyat malakalarini shakllantirishdan iborat. Zotan, nutq madaniyati tildan bemalol va maqsadga o'ta muvofiq tarzda foydalana olishni ta'minlaydigan ko'nikma, malaka va bilimlarning jami demakdir"

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 dekabrda 5590-sonli «O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni bilan tasdiqlangan 2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish kontseptsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari dasturining 5-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirining 2019 yilning 17 iyulida 161-sonli buyruqiga asosan, «Tibbiyot xodimlarining odob-axloq kodeksi» tasdiqlandi. Bu kodeksning 3 bobida "Tibbiyot xodimlari xushmuomala, odobli, e'tiborli, fuqoralar va hamkasblari bilan munosabatda sabr-toqatli bo'lishi, ularni hurmat qilishi shart. Tibbiyot xodimlari o'z faoliyatida ularga bevosita murojaat qilgan har bir fuharoga nisbatan qo'pollik qilmasligi, ularning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitmasligi kerak." deb, 7 bobda esa "Tibbiyot xodimi bemor harindoshlarining sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishi va ularning ruhiy

xolatini inobatga olgan holda muloqatda bo'lishi, bemorning sog'ligiga hamxo'rlik qilishga undashi, ularning shaxsiy hayoti ma'lumotlarining sir saqlanishiga bo'lgan huquqini hurmat qilishi lozim.” deb belgilab qo'yilgan. Bu ham bugungi kunda shifokor nutqi madaniyatiga e'tibor nechog'lik kuchli ekanligidan dalolat beradi. Yuqorida aytilganlardan nutq madaniyati tilshunoslikning maxsus bo'limi bo'lib, uning rivojlanishi va taraqqiy etishi adabiy til rivoji va taraqqiyoti bilan, uning me'yorlariga, uslubiy imkoniyatlari hamda qo'llanish qonuniyatlariga bog'liq ekanligi ma'lum bo'ldi. Tilshunosligimizda bu sohani, xususan, shifokor nutqi madaniyati bilan bog'liq muammolarni o'rganish bo'yicha hali amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar juda ko'p bo'lib, bu sohani chuqur tadqiq etish navbatdagi vazifalardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Mirziyoyev. Sh. M. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 30 yilligiga bag'ishlangan tantanali nutqi. Toshkent “Xalq so'zi”, 2019- yil 21- oktabr.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. 446 b.
- 3.O'zbekiston Respublika Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 2017 -yil 19- sentyabrdagi 72-sessiyasida so'zlagan nutqi. 2017
- 4.Mirziyoyev Sh.M Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. -Toshkent: O'zbekiston. 2017.
- 5.Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N., Ish yuritish. Toshkent, 2000.
6. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Ish yuritish (amaliy qo'llanma). – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi,2017.456 b.
7. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo'ldoshev. I., Davlat tilida ish yuritish. - Toshkent, 2015.

JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASIDA YURITILADIGAN HUJJATLARNING ISH YURITISH TILI HAQIDA

Raximova Maloxat Alloberganovna

Annotatsiya: Maqolada davlat tilida ish yuritish hujjatlarini amal qilinishi bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish, mazkur sohaga oid dolzarb masalalardan biri hujjatlarning tili va uslubi masalalari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Hujjatchilik, hujjat tili, rasmiylashtirish, davlatchilik, shaxslararo, davlatlararo, me'yori, asos.

Аннотация: В статье анализируются вопросы языка и стиля документов, одним из наиболее актуальных вопросов в этой области является устранение проблем, связанных с выполнением документов на государственном языке.

Ключевые слова: Документация, язык документа, оформление, государственность, межличностное, межгосударственное, норма, основание.

Davlat tiliga aylangan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zlik va mustaqil davlatchilik timsoli, milliy-ma'naviy boylik hisoblanadi. Qadimiy va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili mamlakatimizning siyosiy-ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotida muhim o'rin egallab kelayotgan buyuk qadriyatdir. Barchamizga ma'lumki, mamlakatimizda iqtisodiy-ijtimoiy, xususan jismoniy tarbiya va sport hamda ta'lim-tarbiya sohalarida tub islohotlar o'tkazilmoqda. Ularning samaralari "Jismoniy tarbiya va sport", "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va qabul qilinayotgan bir qator me'yoriy hujjatlarda o'z ifodasini topib, kishilarni ruhiy, ma'naviy qiyofasini va jismoniy qobiliyatlarini shakllantirishda qudratli vosita sifatida muhim rol o'ynamoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining keyingi yillarda qabul qilgan qator qaror va farmonlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar milliy tilimiz bo'lgan davlat tilini rivojlantirishga qaratilgan. Ayniqsa, prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tuzilmasida Davlat tilini rivojlantirish departamentining tashkil etilishi olamshumul voqea bo'ldi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Ona tilimizni asrab-avaylash va rivojlantirish, o'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosida

obro‘-e‘tiborini yanada oshirish, davlat tilining amal qilinishi bilan bog‘liq muammolarni aniqlash va bartaraf etish, milliy tilimizni takomillashtirish bo‘yicha me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish, mazkur sohaga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini qo‘llab-quvvatlash va boshqa ishlar yuzasidan Davlat tilini rivojlantirish masalasida keng ko‘lamli vazifalarni amalga oshirildi. Bu ham o‘z navbatida jamiyat madaniy taraqqiyoti, millat ma‘naviy kamolotining muhim belgisi sanalgan tilga, nutq madaniyatiga bo‘lgan alohida e‘tibordan dalolatdir.

O‘zbek tili davlat tili sifatida ijtimoiy turmushimizning barcha sohalarida qonuniy ravishda qo‘llanilmoqda. Ana shunday sharoitda, davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, “o‘z fikrini mutlaqo mustaqil, ona tilida ravon, go‘zal va lo‘nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni, avvalambor rahbar kursisida o‘tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin”. Darhaqiqat, kishi o‘z fikrini aniq va ravon ifodalashi uchun, avvalo, yetuk mutaxassis bo‘lib yetishib chiqish uchun tildagi uslublardan xabardor bo‘lishi, kundalik so‘zlashuv tilidan tashqari, rasmiy-ish yuritish tilini ham bilishi kerak. Chunki oddiy ishchimi, dehqonmi, tadbirkormi, yoki ziyolimi kim bo‘lishidan qat’iy nazar, hech bo‘lmaganda ariza, tarjimai hol, bildirgi, tilxat yoki ishonchnoma yozishiga to‘g‘ri keladi. Korxona, muassasa yoki tashkilot rahbarining faoliyatini esa ish yuritish qog‘ozlarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ish yuritishning bevosita asosini hujjatlar tashkil qiladi.

Mamlakatimizda iqtisodiy-ijtimoiy, xususan, jismoniy tarbiya va sport hamda ta’lim-tarbiya sohalarida tub islohotlar o‘tkazilmoqda. Tan olish joizki, ko‘pgina tashkilot va muassasalar, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi tizimidagi sport tashkilotlari (boshqarma, OZK, BO‘SM, oliy mahorat maktablari, federasiyalar, assotsasiyalar, oliy ta’lim muassasasi va h.)ga davlat tilida ish yuritish, me‘yoriy hujjatlar bilan ishlash, zaruriy hujjatlarni belgilangan qoidalarga muvofiq rasmiylashtirishda kamchilik va nuqsonlar uchramoqda. Bugungi kunda davlat tilida ish yuritish imkoniyati yetarli bo‘lgan ayrim muassasalarda hanuzgacha rus tilida ish yuritilini kelinayotganligi yoki ayrim sohalarda faoliyat yuritayotgan mutaxassislar o‘z ish faoliyatlarida o‘zbek

tiliga rus va boshqa tillardagi soʻz va jummalarni aralashtirib, foydalanib kelayotganliklarini guvohi boʻlmoqdamiz. Chet tillardan kirib kelgan soʻzlar, ayniqsa, yoshlarimiz oʻzaro muloqot jarayonida tillarni aralashtirib gaplashish, oynayi jahonda berilayotgan reklamalar, peshlavhalardagi imloviy xatolar oʻzbek tili meʼyorlariga bepisandlik bilan munosabatda boʻlinayotganligi fikrlarimizning dalilidir. Eʼtibor beradigan boʻlsak, koʻpgina sport turlari boʻyicha murabbiy-oʻqituvchilarning faoliyatlarida ham davlat tilida ish yuritish jarayonidagi kamchiliklar va muammolarni yigʻilib qolganligiga koʻplab misollar keltirish mumkin.

Vazirlik tizimidagi tashkilot va muassasalarda davlat tilida ish yuritish jarayonida muammolar mavjud: Meʼyoriy hujjatlarga tartib berish, ularning ijrosini taʼminlash, yuqori tashkilotlardan kelgan huquqiy hujjatlarni belgilangan tartib asosida nazoratga olish masalasida turli yondashuvlar mavjud. -Tizimda faoliyat koʻrsatayotgan xodimlar- murabbiy, tarbiyachi, texnik xodimlarining davlat tilini bilishi va unda ish yuritish malakasi qoniqarsiz darajada -Davlat tilida ish yuritishdagi meyoriy hujjatlar (ariza, kafolat xati, tushuntirish xati, bildirgi, dalolatnoma v.h.)ni tartib berish talab darajasida emas, oʻzbek tilida ish yuritish tizimini tartibga keltirish, davlat tilining nufuzini oshirish, sohada faoliyat koʻrsatayotganlarning til bilish darajasini yanada yaxshilash, jismoniy tarbiya va sportdagi yutuqlarni targʻib etish hamda mavjud muammolarni tahlil etish maqsadida sport taʼlim muassasalarida “Davlat tili toʻgʻrisida”gi Qonunning bajarilishi va davlat tilida ish yuritishning bugungi holati tahlil etish, davlat tilida ish yuritish boʻyicha sport taʼlim muassasalariga koʻmak berish. Sportchi talabalar oʻrtasida tilshunoslik masalasidagi muommalarning toʻgʻri oʻrgatish orqali ulardagi kasbiy nutqning toʻgʻri shakllanishiga yordam berish hamda talaba- yoshlarimiz koʻproq foydalanadigan Intepnet va ijtimoiy tarmoqlarda tilimizning butun jozibasini koʻrsatuvchi oʻzbek tilining kompyuter dasturlarini, atamalarining elektron lugʻatini yaratish va talabalarga ish yuritish hujjatlari bilan toʻgʻri ishlashni oʻrgatish zarur. Oliy taʼlim muassasalarining barcha taʼlim yoʻnalishlarida mutaxassislik tilini yaxshi bilishi, oʻzbek tilini shu sohada toʻgʻri va namunali

darajada qo'llanishini ta'minlash maqsadida "O'zbek tilining sohada qo'llanishi" fani o'qitilmoqda. "O'zbek tilining sohada qo'llanishi" fani adabiy til me'yorlari, uslublar va davlat tilida ish yuritish masalalari hamda mutaxassis nutqining kommunikativ sifatlari, kasbiy etika, soha tili va nutqi, sohaviy terminlarning yasalishi, sohada davlat tilida ish yuritish masalalari, o'z fikrini ilmiy asoslab berish hamda amaliy masalalarni hal qilishda til ilmidan foydalana bilish malakalarini oshirishga qaratilgan. "O'zbek tilining sohada qo'llanishi" fanini o'qitishda talaba va tinglovchilarning o'zbek tilshunosligining barcha bo'limlari bilan birga, falsafa, tarix, psixologiya, pedagogik mahorat kabi fanlardan egallagan bilimlariga asoslaniladi. Talabalarning yetuk mutaxassis bo'lib yetishishida bu fan muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, fikrning asosini tashkil qiladigan birlik bu so'zdir. So'z orqali nutq va fikr oydinlashadi. So'zlarning xarakterini yaxshi bilgan kishi hech qachon qiynalmaydi. Har qanday so'zning xosiyati esa uni o'z o'rnida, to'g'ri ishlata olish bilan belgilanadi.

Xullas, mustaqil diyorumizda yashayotgan har bir kishi ona tilini asrab, unga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka e'tibor, ehtirom va sadoqatni ona- Vatanga bo'lgan ehtirom va sadoqat deb qarasa, so'zsiz ona tilimizning nufuzi, sha'ni, obro'-e'tibori yanada ziyoda bo'ladi. Biz o'z tilimizni o'zimiz hurmat qilmasak, bu muammolarni o'zimiz bartaraf etmasak, buni bizga chetdan kelib hech kim hal qilib bermaydi. Davlat tilida to'g'ri ish yuritish uchun esa "O'zbek tilining sohada qo'llanishi" fani yosh mutaxassislar uchun ayni muddaodir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Sh.M.Mirziyoyev. "Jismoniy va ma'naviy yetuk yoshlar –ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir" mavzusida "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi. Xalq so'zi. 2017-yil <http://uza.uz/oz/society/zbek-tili-milliy-manaviyat-poydevori-27-04-2020>.
2. O'zbekiston Respublikasining davlat tili to'g'risida qonuni. <https://www.lex.uz>.

3.O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son Farmoni. <https://www.lex.uz>.

4.Davlat tilini rivojlantirish departamenti to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019- yil 12- dekabrda 984-son qarori. <https://www.lex.uz>.

5.G'afforov N.N. Davlat tilida ish yuritish (o'quv qo'llanma). "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2021.

6.Boltayeva. I. Jismoniy tarbiya va sport atamalarining izohli lug'ati (o'quv qo'llanma). "LESSON PRESS", Toshkent, 2020 yil.

7.Boltayeva I., Ayxodjayeva M. O'zbek tili (o'quv qo'llanma). Toshkent, "LESSON PRESS", 2020 yil .

JISMONIY TARBIYA VA SPORT ATAMALARINI QO'LLASHDA DAVLAT TILINING O'RNI

Musayev Isomiddin Saidovich, *O'z.DJTSU*
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o'qituvchisi.

Sultonova Zarifa O'ktamovna, *O'z.DJTSU*
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

Bo'riyev Abduhamid, *O'z.DJTSU*
MGM-51-18 guruh magistri.

Annotatsiya: Maqolada o'zbek tilining fan, sport, madaniyat kabi barcha sohalarga oid atamalarni rivojlanib, vujudga kelishiga sabab bo'layotgani, xususan, jismoniy tarbiya va sport atamalarini qo'llashda o'zbek tilining o'rnini haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Davlat tili, jismoniy tarbiya, sport, atama, termin, bir ma'nolilik, ko'p ma'nolilik.

Аннотация: В статье рассматривается развитие и появление узбекского языка во всех областях науки, спорта, культуры, в частности роль узбекского языка в использовании терминов физической культуры и спорта.

Ключевые слова: Ключевые слова: Государственный язык, физическая культура, спорт, терминология, однозначность, неоднозначность.

O‘zbekistonning milliy mustaqilligi hech bir istisnosiz ona tilimiz rivoji uchun ham keng yo‘l ochdi. Davlatimizning asosiy qonuni – Konstitutsiyamizda, “Davlat tili haqida”gi qonun va boshqa rasmiy hujjatlarda o‘zbek tilining huquqiy maqomi va istiqboli aniq ko‘rsatib berilgan. Necha asrlar mobaynida goh yuksak rivoju shuhrat topgan, gohida nopisandlik, turtkilash va kamchiliklardan ezilgan, ammo yorug‘ kunlarga salomat yetib keldi.

Ayniqsa, bugungi kunda “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan ustuvor g‘oya asosida o‘z taraqqiyotining tamomila yangi bosqichiga dadil qadam qo‘yayotgan mamlakatimizda barcha sohalar dagidek davlat tilinng o‘rni va nufizini oshirish borasida ham tub burilish jarayonlari boshlandi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tattanali marosimdagi nutqida bu borada qilinadigan ko‘lamli ishlarning to‘laqonli tarixini chizib berar ekan, bu ishlarning pirovard natijalarini qo‘yidagicha ifoda etadi: “Muxtasar aytganda, har birimiz davlat tiliga bo‘lgan e‘tiborni mustaqillikka bo‘lgan e‘tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz lozim”[1.1] Har bir fuqaroning ongu shuurida ana shu qoidaning salomatligi va sobitligi yurt yuksalishining ham, mamlakat mustaqilligi muhofazasi muntazamligining ham garovidir.

Mazkur tarixiy nutqda ta’kidlanganidek, “dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli, bebaho ma’naviy boylik, buyuk qadriyatdir”. Albatta, bu bebaho boylik, buyuk qadriyat milliy o‘zlikning asriy ildizlari sifatida o‘zbek qavmining ona tilisi sifatida o‘zbekning milliy-ma’naviy dunyosini charog‘on qilib tursa, davlat tili sifatida ko‘p millatli mamlakatimiz fuqarolari qalbiga bir davlatga, bir yurtga mansublik, birdamlik tuyg‘ularini joylaydi, ularni yagona davlat ramzi

sanalmish bayroq, gerb, madhiya kabi muqaddas timsollar singari bir yurtning sadoqatli farzandlari to'laroq birlashtiradi. Aytish mumkinki, ana shu ma'noda o'zbek tili O'zbekistonda faqat bir emas, balki ikki ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy vazifani bajarmoqda, ana shunday zalvorli va muazzam vazifalarni yelkasiga ortmoqlagan holda takomil yo'llaridan jadal odimlamoqda.

Bu esa o'zbek tilida fan, sport, madaniyat kabi barcha sohalarga oid atamalarni mislsiz rivojlanib, vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda. Ularning asosiy ko'pchiligi tilda puxta o'zlashgan, ommalashgan, stabillashgan bo'lsada, ayrim atamalar xato va kamchiliklardan xoli emas.

Jismoniy tarbiya va sport termin [Mazkur ishimizda "atama" so'zi o'rnida "termin" so'zidan ham foydalanganmiz] ni ta'riflash uchun, odatda, u so'z bilan qiyos qilinadi. Lingvistik adabiyotda, terminologiyaga bag'ishlangan ilmiy ishlarda har qanday termin so'zdir, lekin har qanday so'z termin bo'lolmaydi, degan fikr etirof qilinadi. Demak, avvalo termin bilan so'zni chegaralab olish kerak.

Terminning ma'nosi, mohiyati, uning nomidan kelib chiqadi. Terminus-chegara, chek demakdir. "[2.8] Binobarin termin chekli, chegaralangan, aniqrog'i-bir ma'noli so'zdir. So'zlarning ko'p ma'noli bo'lishi tabiiydir. Ma'lumki, har qanday so'z tug'ilishida bir ma'noli bo'ladi, lekin kishilik jamiyati taraqqiyoti davomida u ko'p ma'noli so'zga aylanib boradi.

Tushunchalarning ana shunday harakati, o'zgarishlari yangi tushunchalarning paydo bo'lishi va o'zgarishi tilning lug'at tarkibida bevosita o'z aksini topadi. Ammo jamiyat taraqqiyoti davomida yuzaga kelayotgan barcha yangi tushunchalar, voqea, hodisalarni ifodalash uchun tilda hamma vaqt yangi so'z yaratilavermaydi. Buning uchun ko'pincha tilda mavjud bo'lgan so'zlardan foydalaniladi. Masalan, "darvoza" – (ikki tabaqali katta eshik) 1. Shahar, qo'rg'on, qa'la, hovli va sh.k. ga kiriladigan ikki tabaqali katta eshik, qopqa. *Texta darvoza. Temir darvoza. – Darvozaning bir tabaqasi ochiq edi. Oybek, Tanlangan asarlar. Tongda, qal'a darvozalari ochilgan hamon Avaz yo'lga tushdi. S.Siyoyev, Yorug'lik.*

Shahar darvozasi 1) tar. atrofi mustahkam qilib o‘ralgan shahar qipqasi. *U Xivaga borib etguncha, shahar darvozasi ham berkilib qolgan.* Oydin, Gulsanam, *Qipchoqlar bizning tomondan otilgan miltiq o‘qlariga chidolmay, Samarqand darvozasini tashlab, kamolon darvozasiga yuzlandilar.* A.Qodiriy, O‘tgan kunlar; 2) shaharning ana shunday qopqasiga yopishgan, yondosh mahalla yoki mahallalar.

2. Kanallarda suvni to‘shish yoki qo‘yib yuborish uchun ishlangan maxsus qurilma; qopqa. Qani, kanal darvozasini ochib yubor.

3. cprt. Futbol, xokkey va sh.k. o‘yinlarda maydonning raqib yo‘llagan to‘pni (shaybani) kiritmaslik uchun himoya qilinadigan chekli qismi. *Paxtakorchilar raqib darvozasiga uchta to‘p kiritdilar.* Gazitadan. *“Dinamo” xokkeychilari raqib darvozasiga beshta shayba urib, g‘alabaga erishdilar.* Gazitadan.

4. *ko‘chma* Imkoniyat. Bir darvoza bekilsa, Ming darvoza ochiladi. “Xalq durdonalari”. v.h. kabi iboralardagi ma’nolarni olib, ko‘p ma’noli so‘zga aylanib borgan. Shunday qilib, ko‘p ma’noli so‘zlar kishilik jamiyati taraqqiyotining, til taraqqiyotining tabiiy mahsulidir. [3.7]

Ko‘chma ma’noli so‘z nutqda, har bir konkret holda o‘zining ma’lum bir ma’nosida ishlatiladi, ya’ni bir ma’noli so‘z sifatida reallashadi. Har bir ayrim holda so‘zning qanday ma’noda ishlatilganligi kontekstdan, birikmadan anglashilib turadi. Masalan “milionlar o‘yini” deganda “milionlar” so‘zi futbolni bildiradi.

Termin esa cheklanganligi, ya’ni bir ma’noliligi tufayli maxsus kontekstda hamma vaqt o‘z ma’nosini saqlaydi. U emosionallik va ekspressivlik xususiyatlariga ega emas. Heya qanday intonasiya terminma’nosida o‘zgartira olmaydi.

Terminning bir ma’noliligi haqida talab ba’zan anglashilmovchiliklarga sabab bo‘ladi, chunki termin so‘z sifatida umumiy adabiy tilda ko‘p ma’noda ishlatilishi ham mumkin. Ayrim terminlar hatto, umumiy adabiy tildagi ko‘p ma’noli so‘z negizida vujudga keladi. Masala shundaki, terminning bir ma’noliligi to‘g‘risida so‘z borar ekan, hamma vaqt uning ma’lum terminologik sistemaga mansubligi ko‘zda tutiladi. Ma’lumki, har bir sohaning o‘ziga xos tushunchalari bo‘ladi. Shu tushunchalar majmui shu sohaning tushunchalari sistemasini tashkil

qiladi. Unga mos terminlar majmui esa shu sohaning terminologik sistemasini, boshqacha qilib aytganda terminologiyasini tashkil qiladi. [4.4]

Demak, terminologiya tor ma'noda ma'lum bir sohaga oid maxsus leksikadir. Keng ma'noda esa, terminologiya umumiy lug'at tarkibining ayrim sohalarda ishlatiladigan qismidir. Termin ma'lum bir terminologik sistemaning a'zosidir. Shu terminologik sistemada birgina ma'noga ega bo'lishi mumkin. Shunday qilib, terminni quyidagicha ta'riflay olamiz: termin ma'lum bir sohada aniq bir ma'noga ega bo'lgan so'zdir. Ba'zilar ma'lum bir so'zning termin bo'lishi uchun uning qo'llanish doirasi biror soha bilan cheklanishi shart, ya'ni ma'lum bir tushunchaning aniq va barqaror ifodasi bo'lgan so'z va so'z birikmalari termin bo'laveradi. [5.5]

Bu to'g'ri emas, chunki tilda ma'lum tushunchanining aniq va barqaror ifodasi bo'lgan so'zlar ko'p. Ular faqat biror terminologik sistema a'zosi sifatida qaralgandagina termin bo'la oladi.

O.P. Frolova esa "terminologiya" ga shunday ta'rif beradi: "Ma'lumki fanning atamalar tizimi sifatida tushunchalar tizimiga muvofiq bo'ladi, har qanday tushunchalar tizimiga aniq bir atamalar tizimi bog'liq bo'ladi. Fan rivojlanishi bilan atamalar tizimi ham rivojlanib boradi. [6.5]

Har qanday termin terminologik sistemaga mansub bo'lishi bilan birga so'z sifatida tilning boyligi hamdir. Terminologiya umumxalq tilning leksikasi negizida vujudga keladi va boyidi. O'z navbatida u umumxalq tilining boyishi uchun xizmat qiladi. Terminologik leksika umumxalq tili leksikaning ajralmas qismi sifatida u bilan birga rivojlanadi, jamiyat va til taraqqiyotidagi barcha prosesslarni boshdan kechiradi.

Termin, umumiy adabiy tilda ma'no doirasini kengaytirgani bilan, terminologik sistemada o'zining monosemantiklik xususiyatini yo'qotmaydi. Boshqacha qilib aytganda, termin ma'lum bir terminologik sistemaning a'zosi sifatidagina bir ma'noli so'zdir, umumiy adabiy tilda esa, u har qanday so'z singari, turli ma'nolarda ishlatila oladi.

Umumiy adabiy tilda, kundalik nutqda soʻzning koʻp maʼnoligi (polisemantligi) kishilarning bir-birlarini tushunishlariga sira ham asarlarni oʻqish va tushunishni qiyinlashtirmaydi. Aksincha soʻzning koʻp maʼnoliligi tilning boyligidir. Koʻp maʼnoli soʻzlar tilning ifodaquvvatini oshiradi, har qanday nozik fikrlarni ham ifodalash imkoniyatini beradi. Terminologiyada esa terminning koʻp maʼnoliligi kishilarning bir-birlarini tushunishlarini qiyinlashtiradi, oʻqish oʻqitish posesslarini murakkablashtiradi, fan va texnika yutuqlarini ommaga yetkazishda maʼlum darajada xalal beradi.

Terminlarning koʻp maʼnoliligi (polisemiya) kabi sinonimiya (bir terminologik maʼnoda bir necha parallel terminlarning ishlatilishi) ham terminologiyaning katta nuqsonlaridan biridir. (Oʻzbek tili terminologiyasida sinonimik, paralel, dublet terminlarning qanday yoʻllar bilan yuzaga kelishi toʻgʻrisida quyida alohida toʻxtab oʻtamiz).

Terminologiyada polisemiya va sinonimiya singari omonimiya (yaʼni boshqa boshqa terminologik maʼnodagi shakldosh soʻzlar) ham maqsadga muvofiq emas. Agar umumiy adabiy tilda sinonimiya, omonimiya va polisemiya tilning boyligi boʻlsa, terminologiyada bu hodisalar turlicha chalkashlik va anglashilmovchiliklarga sabab boʻladigan nuqsonlardir. [7.3]

Termin tuzilishi jihatidan aniq boʻlishi, yaʼni tushunchaning mohiyatini yoki eng asosiy belgilarini aniq ifodalashi kerak. Tuzilish jihatidan ixcham, qisqa va qulay boʻlishi kerak. U sistemali boʻlmogʻi kerak. Shuni ham aytish kerakki, tilda terminlarni qoʻllashdan asosiy maqsad har qanday murakkab fikrni ixcham, oson va tushunarli ifodalash, shu yoʻl bilan fikr almashinuvi prosessini osonlashtirishdir.

Darhaqiqat, “sermehnat” misolidagi kabi termin oʻrniga shu termin ifodalangan tushunchaning uzundan-uzoq taʼrifi ishlatilsa, fikr va tushunchalarning ifodasi uzayib, murakkablashib, fikr almashinuvi juda ham qiyinlashadi. Termin nominativ (yaʼni atash) funksiyasidan tashqari, kommunikativ (yaʼni aloqa) funksiyasiga ham ega. Terminning kommunikativ funksiyasi tilning funksiyasidan

kelib chiqadi, chunki, “Til kishilarning eng muhim aloqa vositasidir” terminologiya esa, til leksikasining tarkibiy qismidir.

Ayni zamonda hayot talabi, O‘zbekistonda sanoat, qishloq xo‘jaligi, fan, texnika, madaniyat va sportning ravnaqi o‘zbek tilida terminologik leksika salmog‘ini kundan kunga oshirmoqda. Hozir o‘zbek tilida fan va texnikaning deyarli barcha sohalariga oid termin va terminologik sistemalar vujudga keldi. Ular, asosan, tarjima va original asarlar yaratish prosessida yuzaga kelmoqda.

Biroq o‘zbek tilida shu kungacha to‘planib qolgan boy terminologiya va terminologik tajriba o‘rganilmay va umumlashtirilmay kelayotir. Natijada umumxalq adabiy tilda mustahkam o‘zlashgan, ommalashgan terminlar qatorida, terminologiya ishi va nazariyasining terminologiya praktikasidan, hayot talablaridan orqada qolib borayotganligi tufayli, ozmi-ko‘pmi nomuvofiq (dublet, polisemantik, noqulay, noaniq va boshqa)terminlar ham paydo bo‘lmoqda.

Ko‘ramizki, o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan so‘z yoki terminning biror terminologik sistemada termin sifatida qabul qilinishi uchun u, bir ma’noli bo‘lishidan tashqari, almashtirilayotgan terminga adekvat, ya’ni har jihatdan teng bo‘lishi ham kerak. Bu yerda terminlarning yana bir muhim xususiyati ustida to‘xtab o‘tish o‘rinlidir.

Modomiki, har qanday termin so‘z ekan, uning terminologik ma’nosidan tashqari, lug‘aviy ma’nosi ham bo‘ladi. Shu jihatdan terminlarni uch guruhga ajratish mumkin: 1) lug‘aviy ma’nosi bilan terminologik ma’nosi mos terminlar; 2) lug‘aviy ma’nosi bilan terminologik ma’nosi mos bo‘lmagan yoki zid terminlar; 3) neytral terminlar. [8.3]

Birinchi guruhdagi terminlar o‘zi ifodalagan tushuncha haqida eng yaqqol tasavvur beradi (*g‘ildirak, yassi egov, halqa* va h.k)

Ikkinchi guruhdadagi terminlar ma’lum darajada shartlidir. Masalan, jonli kuch termini harakatdagi jism energiyasini (kinetik energiyani), ot kuchi esa 75 kgm/sek ga teng quvvatni bildiradi. Bu terminlarda tushunchalarning hech qanday belgisi yo‘q, chunki kinetik energiya jonli ham emas, “ot kuchi” esa kuch emas,

quvvatdir. Bu terminlar faqat o'zlashib ketganligi sababli o'zlari ifodalagan tushuncha haqida so'z borayotganligini bildiradi.

Uchinchi guruhdagi terminlar, asosan boshqa tillardan o'zlashtirilgan terminlardir. Ular o'zlari ifodalagan tushuncha bilan birga qabul qilinadi, lekin o'zlashtirgan tilda lug'aviy ma'noga ega bo'lmaydi. Masalan, elektr, radio, televizor, traktor, internet, kompyuter deganda hamma vaqt shu terminlar ifodalangan tushunchalar tasavvur qilinadi, chunki zotan bu terminlar o'zbek tilida hech qanday lug'aviy ma'noga ega bo'lmasa ham, ular ifodalagan tushuncha hammaga ma'lumdir.

Indonez tili boshqa tillarga o'xshab o'z leksik boyligiga ega. So'z boyligining ma'lum bir qismini atamalar tashkil qiladi.

Ilm-fan, texnika, qishloq xo'jaligi va boshqa soxalarga oid tushunchalarning ochiq atamasi bo'lgan so'z yoki so'z birikmasi termin deyiladi. Xar bir fan, kasb-hunar o'z terminlariga, shu terminlar jamidan iborat leksikaga ega. Bunday maxsus leksika terminologiya deb ham yuritiladi: fizika terminologiyasi, lingvistik terminologiyasi va boshqalar.

Terminlar muayyan bir sohaga oid tushunchalarni ochiq ifoda etuvchi so'zlar bo'lsada, lekin u so'zlarning qo'llanishi shu soha kishilari ko'rish mumkin:

1. Terminlarning ma'nosi, sohaga aloqasi bo'lmagan kishilar uchun ham tushunarli bo'ladi va ular tomonidan ham qo'llanaveradi. Masalan, botanikaga oid bug'doy, paxta, o'rik, g'o'za, uzum, nok; sa'natshunoslikka oid: sahna, afisha, aktyor; tibbiyotga oid: ukol, norkoz, gripp kabi terminlar.

2. Terminlarning ma'lum qismi shu terminga oid bo'lgan soha kishilari uchun tushunarli bo'ladi va shular nutqida qo'llanadi. Tilshunoslikka oid: morfema, fonema, urg'u, o'zak; ximiyaga oid: oksidlar, indikator kabi.

Shuni aytish kerakki, umumiste'moldagi so'zlar ma'lum bir sohaga oid tushunchani ifodalovchi so'z sifatida terminga aylanishi mumkin. Bunday yo'llarda u so'z dastlabki ma'nosi (yoki ma'nolari) bilan umumiste'moldagi leksikaga maxsus (terminologik) ma'nosi bilan esa terminologik (chegaralangan) leksikaga oid bo'ladi:

“G‘o‘za parvarigshini sug‘orish bilan juda muhim ahamiyatga ega” “Bosh kelishigidagi asosiy sintaktik funksiyasiga ega bo‘lib kelishidir”.

Birinchi gapdagi ega so‘zi o‘zining dastlab ma’nosida qo‘llangan. Bu ma’nosi bilan keng iste’moldagi so‘zlar jumlasiga kiradi. Ikkinchi gapdagi ega so‘zi esa tilshunoslikka oid termin hisoblanadi.[9.2]

Hozirgi zamon jismoniy tarbiya va sport atamalarini qo‘llanishda davlat tilida juda ko‘p yangi yo‘nalishlarga oid atamalar paydo bo‘lyapti, shu jumladan xalqaro olimpiya sport sohasida ham tashqi sport atamalarini qo‘llanish yo‘nalishi o‘z rivojini topmoqda. Shu jarayonda sport atamalarini o‘zbek tiliga o‘girishda hamda ularni taftish etish muhim ahamiyatga egadir.

Atama va oddiy so‘zlar orasida ma’lum darajada farq bo‘lsada, biroq bu bir til leksik boyligiga kiradigan birliklardir, shu sababdan ular o‘zaro munosabatlarga ham ega. Masalan, ayrim so‘zlar ma’lum sharoitlarda atama sifatida ishlatilsa, boshqa holatda oddiy so‘z sifatida qo‘llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi//Xalq so‘zi,2019 yil 22 oktyabr
- 2.Sh. Shoabdurahmonv, “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, T.1980. 129bet
- 3.Akobirov S.F, Til va terminologiya, T., O‘zbekiston. 1968y. 22-23 betlar
4. Даниелко В.П. О терминологическом словообразовании-ВЯ, 1973 №4.
- 5.Q.N. Mamatov, Termin va uning ta’rifi haqida “O‘zbek tili va adabiyoti”, № 1. 1966, 68-bet.
- 6.О.П Фролова “Словообразование в терминологический лексике современного китайского языка” Новосибирск. Наука 1981.
7. Суперанская А.В Общая терминология-М. Наука 1989.
- 8.Ensiklopedik lug‘at. T. 1990 y-262 bet

V SHO‘BA. KASBGA DOIR SOHAVIY MADANIYAT, TA’LIM-TARBIYA, URF-ODAT VA AN‘ANALAR TALQINI.

ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТ УНИВЕРСИТЕТИ ТАЛАБАЛАРИНИНГ НУТҚИЙ-МУЛОҚОТ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Ауходжыева М.С. , ЎзДЖТСУ, доцент в.б.

Аннотация: Муаллиф мақолада замонавий жамиятда мулоқот компетентлиги қандай аҳамият касб этаётганлиги, жисмоний тарбия ва спорт соҳаси бўлажак мутахассисларининг мулоқот компетентлигига қўйилаётган талаблар хусусида фикр юритган. Жисмоний тарбия ва спорт университети талабаларининг нутқий-мулоқот компетентлиги даражасига эътибор қаратиб, уни ривожлантириш йўллари устида тўхталган.

Аннотация: В статье автор рассматривает значение коммуникативной компетентности в современном обществе, требования к коммуникативной компетентности будущих специалистов в области физической культуры и спорта. Акцентируя внимание на уровне речевой и коммуникативной компетентности студентов университета физической культуры и спорта, размышляет о путях ее развития.

Бугунги кунда ОТМ битирувчиларига қўйилаётган талаблар меҳнат бозоридаги ҳолат билан, жамиятнинг ривожланиш суръатлари ҳамда муҳитнинг ахборотларга тўйиниб бораётганлиги билан боғлиқ. Фақат билим, кўникма ва малакаларни олишга йўналтирилган таълим ҳозир кўп жиҳатдан эскириб қолди, дейиш мумкин. Ўзгариб бораётган дунёдаги таълим тизими битирувчида янги сифатларни: ташаббускорлик, ижодкорона фикрлаш, янгиликларга интилиш каби хусусиятларни шакллантириши лозим. Бўлажак мутахассис бутун умри давомида ўз устида ишлаши, янги технологияларни эгаллаши ва улардан фойдаланиш имкониятларини яхши тушуниши, мустақил қарорлар чиқара билиши, ижтимоий ва касбий соҳаларга мослашиши лозим. Бундай ёндашув тарафдорлари таълим мазмуни асоси фақат билим эмас, мураккаб маданий-дидактик тузилма — яхлит компетентлик деган қарашни

химоя қилиб чиқдилар. Европа таълими соҳасида ОТМ лар битирувчиларининг касбий малакаси даражасини ифодалаш учун “компетенция” атамаси қўлланади.

“Компетентлик” (лот. “competere” – мувофиқлик, мос келиш) – фаолиятда назарий билимлардан самарали фойдаланиш, юқори даражадаги касбий малака, маҳорат ва иқтидорни намоён эта олиш демакдир. Компетентли ёндашувда олий маълумотлилиқ белгиси мутахассиснинг назарий билимлари ҳажми эмас, балки турли даражадаги мураккаб касбий муаммо ва вазифаларни мавжуд билимлар асосида еча олиш қобилияти ҳисобланадиган бўлди [6].

Мулоқот компетентлиги бугунги кун кишисининг билим, кўникма ва малакаларга эга бўлиш билан бирга, бевосита ўз касбий фаолиятида улардан самарали фойдаланишга тайёр бўлиши, жамоада меҳнат қилиб, бошқа кишилар билан ўзаро муносабатга кириш йўллариини белгилай олиши, нутқ орқали муаммоларини ҳал қила билиши, таранг шароитларга кўника олишини назарда тутди [3]. Бундай ижтимоий ва касбий жиҳатдан фаол шахсни тарбиялаш замонавий олий мактаб педагогларида мутлақо янги иш методларини, усул ва шакллариини қўллашни талаб қилади.

Кейинги йилларда спортчилар, мураббийлар, жисмоний тарбия-спорт ташкилотлари раҳбарларининг мулоқот компетентлигини, улар қўллайдиган мулоқот услубининг шогирдлари натижаларига таъсирини [1,2,4], ОАВ билан ўзаро алоқаларини таҳлил қилишга бағишланган тадқиқотлар анча кўпайди.

Замонавий ОТМ ларда ўзбек тилини ўқитишнинг мазмуни компетент ёндашув асосида тузилган. Шунга мувофиқ ҳолда ОТМ ларда ўзбек тилини ўқитишнинг алоҳида мақсади талабаларнинг лисоний ва мулоқот компетенцияларини шакллантириш ҳисобланади. Бу бўлажак бакалаврларнинг тил ҳодисаларини уларнинг турлича талқин қилинишини эътиборга олиб таҳлил қилиш, таққослаш, таснифлаш, тил ҳодисаларига тарихий изоҳлар бериш ҳамда тил меъёрлари ва нутқнинг бузилиши ҳолларини англаш кўникма ва малакаларини эгаллашини таъминлайди.

Тадқиқотнинг мақсади – “Спорт фаолияти” йўналиши бакалаврларининг нутқий-мулоқот компетентлигини ривожлантиришнинг зарур шартларини аниқлаш. Талабаларнинг мулоқот компетентлигини ривожлантириш муҳим ижтимоий аҳамиятга эга, чунки нутқ шахснинг маънавий ва касбий маданиятининг етакчи кўрсаткичи саналади. Шунинг учун жисмоний тарбия университети бакалаврларига ўзбек тилини ўқитиш методикасининг асосий йўналишларидан бири талабалар сўз бойлигини ошириш, боғланишли нутқини такомиллаштириш ҳамда унинг ифодалилигини ривожлантиришдир.

“Спорт фаолияти” йўналиши талабалари ОТМ да тўлиқ педагогик таълим оладилар. Шунинг учун мулоқот компетенциясини шакллантириш ва ривожлантириш соҳанинг бўлажак мутахассисини касбий тайёрлашнинг муҳим жиҳатларидан бири ҳисобланади.

Жисмоний тарбия ва спорт университети бакалаврларининг нутқий-коммуникатив компетентлигини ривожлантириш, жумладан, “Ўзбек тили” ва “Ўзбек тилининг соҳада қўлланиши” фанлари бўйича машғулотларда амалга оширилади, улар талабаларда тил воситаларидан оғзаки ва ёзма мулоқот чоғида мақбул тарзда фойдаланиш кўникмасини шакллантиришга йўналтирилган.

“Ўзбек тили” ва “Ўзбек тилининг соҳада қўлланиши” фанлари ҳозирда жисмоний тарбия бўйича бакалаврлар тайёрлашнинг мажбурий дастури таркибига киради. Фан ўқитувчиси қуйидаги педагогик вазифаларни ҳал этиши керак: самарали тинглаш кўникмаларини ривожлантириш, турли нутқий малакалар, энг оддий маданий кўникмалар (кундалик сўзлашувдан то мулоқотни бошқаришга қадар), алоҳида ахлоқ ва қадриятлар мажмуасини шакллантириш ва б.

Ўқитувчилик тажрибасидан маълумки, “Ўзбек тили” фанининг мазмуни яқин ўн йил мобайнида тубдан ўзгарди. Жумладан, назарий маълумотлар ҳажми қисқарди, фаннинг амалий жиҳати кенгайди, тил бирликлари ва ҳодисаларини амалиётда қўллашга аҳамият ортди, фаннинг умумий маданиятдаги ўрни юксалди. Методик нуқтаи назардан фан

такрорлаш асосида талабаларнинг ҳозирги замон ўзбек адабий тили меъёрлари бўйича билимларини тизимлаштириш, кўникма ва малакаларини мустаҳкамлашга қаратилган.

Бакалаврларга “Ўзбек тилининг соҳада қўлланиши” фани ўқитилаётганига эса энди икки йил бўлди, у миллий ва рус гуруҳларига киритилган бўлиб, жисмоний тарбия ва спорт соҳасида тил бирликлари, атамалардан ўринли фойдаланиш малакаларини ривожлантириш, касбий нутқ жанрлари ҳақидаги тасаввурларини кенгайтириш, касбий маданият ва зиёлилик даражасини кўтаришга қаратилган.

Ўзларининг кундалик меҳнат фаолиятларида жисмоний тарбия ўқитувчилари ва, айниқса, мураббийлар ўқувчи ҳамда шогирдларини жисмоний тарбия ва спорт билан жиддий шуғулланишга қизиқтира олишлари, бошқача айтганда, уларга мотивация беришлари, шахсий саломатлик, соғлом турмуш тарзи чинакам қадрият эканлигига ишонтиришлари, спорт тури ёки спорт ўйинлари қоидаларини, мусобақа ўтказиш қоидаларини, у ёки бу ҳаракат фаолиятини бажариш хусусиятларини батафсил тушунтира олишлари, маънавий-маърифий, ахлоқий мавзуларда суҳбатлар ўтказишлари зарур. Ёхуд касбдошлари билан тажриба алмашаётганда, ўз мулоҳазаларини баён этганда, фикрларини оғзаки ва ёзма шаклда тўғри, асосли, мантиқли шакллантиришлари, мақсадли тарзда касбий мазмундаги маълумотларни етказиб беришлари талаб этилади. Бу касб эгалари фақат болалар ёхуд касбдошлари билан эмас, ота-оналар билан ҳам мулоқот қиладилар, улар билан тушунтириш ишларини олиб боришларига, ўқувчи-шогирдларининг типик руҳий муаммолари ҳақида фикр алмашишларига тўғри келади. Яна йўриқчи-услугчилар, ўз ташкилотлари раҳбарияти, соҳанинг бошқа ихтисосликдаги ходимлари – шифокорлар, уқаловчилар, допингга қарши иш олиб борувчи ташкилотлар мутахассислари ва ҳ.к. [3].

Хуллас, жисмоний тарбия ва спорт ходимлари гап билиши шарт эмас, дегувчилар жуда қисқа ўйлайдилар ва келажакни кўра билмайдилар.

Ўзбек тили дарсларида ўқиш ва ўрганиш учун берилган матнларнинг бир қисми буюк аجدодларимиз, бугунги Ўзбекистоннинг ижтимоий, маданий ҳаёти, ажойиб урф-одатларимиз тўғрисида бўлса, кўпчилиги спорт билан боғлиқ: Олимпиада тарихи, Ўзбекистон спортчиларининг жаҳон спортга кириб келишлари, таниқли олимпиадачиларимиз, спорт машғулотларининг бориши ва бошқалар. Курс охиридаги бир неча машғулотда талабалар расмий-идоравий нутқ услуби, ҳужжат турлари ҳақида маълумот оладилар ва айрим ҳужжатларни расмийлаштиришни ўрганадилар.

Аммо шу ўринда, талабаларимизнинг ўзлари мулоқот компетентлиги масаласига қандай қарайдилар? – деган савол туғилади. Мавзуларимиздан бири – “Замонавий мутахассис қандай бўлиши керак?” матни устида ишлаш. Амалий машғулот давомида матн устида ишлаб, савол-жавоблар ўтказганимиздан кейин, гуруҳ талабаларини кичик гуруҳчаларга тақсимлаб, ҳар бир гуруҳга бир варақдан қоғоз бераман ва замонавий мутахассис учун зарур бўлган сифатларни ёзиб чиқишни сўрайман, энг кўп тўғри хусусиятларни ёзган гуруҳ ғолиб бўлишини таъкидлайман. Шуниси қизиқки, жами талабаларимнинг тахминан 25-30% қисмигина бугунги кун мутахассиси ҳушмуомала бўлиши кераклигини қайд этади, 75-80% талабалар фикрича чет тилларни албатта билиш шарт. Аммо, афсуски, ҳеч ким замонавий мутахассис ўз она тилини чуқур билиши зарур деб ўйламайди, ҳар ҳолда варақаларда бундай жавоб акс этмайди.

“Ўзбек тилининг соҳада қўлланиши” фанидан амалий машғулотда эса қуйидагича ҳолатни кузатиш мумкин: ўзбек тилидаги жисмоний тарбия ва спорт атамалари, уларнинг нутқда қўлланиши тўғрисида маълумот берганимизда, миллий гуруҳларнинг кўпгина талабалари – турли вилоятлардан келган ўзбек йигит-қизлар ўзлари учун мутлақо янги сўзларни кашф қиладилар: **қўшпоя, босқон, лангарчўп, чавгон, чўқморча** ва б.

Шундан сўнг, уларга ихтисосликларидан келиб чиқиб, 10-15 та спорт атамасини ёзиш топширилади. Ҳайратланарли жиҳати шундаки, курашчилар **“бросок через плечо”, “бросок через колено” “бросок через бедро”** каби

бирикмаларни комил ишонч билан ўзбекча деб ўйлаб дафтарга туширадилару, бироқ алоҳида плечо, колено, бедро сўзларининг маъносини билмайдилар, у ёки бу жумла нимани англатиши сўралганда, уларни ҳаракат орқали кўрсатиб бера оладилар, холос. Буни қандай тушуниш мумкин?

Демак, компетентлик бир маъноли тушунча эмас, айтилиши вақтда бир турли сифат ҳам эмас, унинг таркиби хилма-хил хусусиятлардан иборат. Шундай экан, талабаларнинг мулоқот компетентлигини ривожлантириш таълим-тарбия жараёнларини илмий асосда ташкил этиш, талабалар фаоллигини таъминлаш ва фаолиятини мувофиқлаштириш йўлида олиб бориладиган кенг миқёсли тизимли ишлар орқали амалга ошади.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Власова Е.В. Технология оптимизации направленности общения тренеров и её социально-психологическая ценность // Вестн. Псков. гос. ун-та. Сер. Психол.-пед. науки. – 2016., №24.– С. 95-103.
- 2.Волков П.А. Анализ необходимости и сформированности профессиональных умений и навыков у работников организаций в сфере физической культуры и спорта // Общество: политика, экономика, право. – 2017. – № 12.– С. 74-79.
- 3.Захарова Т.В. Коммуникативная компетентность: понятие, характеристики / Современ. проблемы науки и образования. – 2015.– № 4.
- 4.Макеева В.С. Организационно-коммуникативные умения и навыки, способствующие эффективности профессиональной деятельности тренера по баскетболу // Организационные основы физической культуры, спорта и туризма. – Калининград : Балтийск. федер. ун-т им. И. Канта, 2016. – С. 118-134.
5. Муслимов Н., Усмонбоева М., Сайфуров Д., Тўраев А. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари. - Т.: Сано стандарт, 2015.
6. <https://ru.wikipedia.org/wiki>

ОҲАНГАРОН ВОДИЙСИ ЧОРВАДОР ЎЗБЕКЛАРИНИНГ ХЎЖАЛИК ЮРИТИШДАГИ АЙРИМ АНЪАНАВИЙ УДУМЛАРИ

*Исомиддин Ёрматов, филология фанлари доктори,
Тошкент Кимё-технология институти Янгиер
филиали “Умумий фанлар” кафедраси профессори*

Аннотация: Мақолада Тошкент вилоятидаги Оҳангарон водийсида яшаб келаётган чорвадор ўзбекларнинг анъанавий маиший турмуши ва хўжалик юритиш удумлари хусусидаги мулоҳазалар билдирилган.

Калит сўзлар: водий, тоғ, сейсмик фаол минтақа, яккасинч, қўшсинч, зилзилабардошлилик, пешхари, пойтеша, васса, чалма.

Аннотация: В статье исследуются национальные особенности, которые пресущее традиционным скотоводческим хозяйствам узбеков Ахангаранской долины. Излагается методы построения жилища и коровника.

Ключевые слова: долина, гора, сейсмоактивная зона, одинарный каркас из древесины, двойной каркас, сейсмостойкость дома, нижняя балка каркаса, васса, чалма.

Оҳангарон водийси ўзбекларининг ижтимоий тарихи ва этник таркиби хусусида В.В.Бартольд асарларида, Турғун Файзиевнинг 1963 йилда ҳимоя қилинган “Ўзбеки-курама” сарлавҳали номзодлик диссертацияси, академик Юрий Буряковнинг Оҳангарон археологияси ва тарихига оид бир қатор монографиялари, академик Владимир Решетовнинг 1952 йилда ҳимоя қилинган курама шевасининг фонетик хусусиятларига доир докторлик диссертацияси, шунингдек, ушбу сатрлар муаллифининг “Илоқ тарихи” (2005), “Юқори Оҳангароннинг табиати, тарихи ва маданияти” (2008), “Қорасувёқа” (2010) ва “Саодат водийси” (2012) монографиялари ва бошқа манбаларда муайян фикрлари баён этилган.

Оҳангарон водийси тоғли сейсмик фаол минтақа доирасига кирганлиги ҳамда терак ва тол сингари қурилишбоп дарахтлар кўп экилгани учун ўрта асрлардан бошлаб яккасинчли ва қўшсинчли уй қуриш таомилга айланган. Бу

худудда уйни қўшсинчли қуришнинг зилзилабардошлиликдан ташқари иккинчи бир сабаби ҳам мавжуд бўлиб, у йиллик ёғин миқдорининг бошқа жойларга нисбатан кўплиги билан изоҳланади. Синчсиз, фақат пишган ғиштан асосан масжид, мақбара ва сағаналар қурилган. Кекса кишилар пойдевор тошини теришдан аввал атрофдан ёғин сувларининг тўпланмаслиги ва сел-сурилма хатарсизлигини пухта режалаштирганлар. Бошқа худудларда девор бир қатор тош ёки пишган ғиштининг устидан кўтарилган бўлса, Оҳангарон водийсида намнинг ортиқ даражада бўлиши ва сойларда тошнинг сероблиги туфайли пойдевор тоши ўртача 4-5 қатор кўтарилган.

Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, Оҳангарон водийсидаги уйлар Қуёш тик нуқтада қиздирадиган жануб томонга қаратиб қурилган. Бу тажрибанинг асрлар мобайнида синалган жуда муҳим биологик, циркуляцион ва психологик аҳамияти бор. Бинобарин, Қуёшнинг ҳаракат йўналишига тесқари қурилган уй куз ва қиш ойларида зах тортиб, яхши исимаиди. Иморат соясида қолган ҳовли эса куз ва қишда яхмалакли ва лойли бўлади, кўклам ва ёзда эса бурга ва чивин кўп бўлади. Қолаверса, бундай уйда туғилиб ўсган одамларнинг феъли тунд ва мунофиқ ҳолда шаклланишини халқ кўп кузатган. Одатда, уйнинг тарҳи эгасининг моддий имкониятлари ҳамда оила аъзоларининг мавжуд ва истикболдаги сонига қараб бир неча хона, даҳлиз ва айвондан иборат ҳолда қурилган. Хўжалик хоналари ва ошхона анъанага кўра, ҳовлининг шамол эсадиган ғарб томонига, ҳожатхона ва молхона эса шамол йўналишига қарши шарқ томонга қурилган. Бундай ёрдамчи биноларни қуришда кўпинча яккасинчли ёки синчсиз оддий гувала ва лойдан фойдаланишган. Оҳангарон водийсида пахса девор уриш урф бўлмаган. Чунки бу ердаги қум аралаш аллювиал тупроқ нам ҳаво ва ёғин таъсирида тез нурайди. Ўртамиёна оилаларнинг бир аср аввал кенг тарқалган тарҳида уйлар айвонли бўлмай, киравериш хонадан чап томонда меҳмонхона, ўнг томонда болалар хонаси жойлашган. Болалар хонасига девордош ҳолда алоҳида эшикли ошхона жойлашган. Ошхонадан ўнг томонда эса омборхона мавжуд бўлган. Уларнинг барчаси битта умумий бўғотли том билан ёпилган.

Одатда, бўғотли томдан чакки ўтмаслиги учун тўсин ва вассалар устидан бир метр қалинликдаги қамиш боғламлари тартиб билан териблиб, унинг устига 70-80 сантиметр қалинликда тупроқ чиқарилган. Тупроқ ҳашар иштирокчилари томонидан тепкиланиб зичлангач, юза қисмига намақоб сепилгач, белкурак билан уриб шиббаланган. Том ҳар йили сомонли лой билан суваб турилган, ёмғир сувлари оқиши учун унинг бўғотида ёғоч ёки сопол тарнов ўрнатилган. Қиш ойларида томга ёққан қор махсус ёғоч курак билан мунтазам равишда кураб турилган. Уйнинг икки ярим метрдан баланд бўлмаганлиги, орқасида эса устма уст тўпланган қор уюми салкам бўғотга етганлиги боис томни кураган одам шотисиз ҳам баланд қор уюми орқали ерга тушиши мумкин бўлган.

Демак, шунча оғир юк ва қалин қор ёққан пайтда янада оғирлашадиган томбошини мустаҳкам қўшсинчли уй бир асргача кўтариб турган. Илгари дурадгорлар михни деярли ишлатишмаган. Пешхари (пойтеша билан чошиб тўртбурчак ҳолга келтирилган ва синчлар устидан уйнинг муайян томонидаги икки чеккасини ўзаро туташтириб турувчи узун ёғоч), хари (қўшсинчли уйларда пешхарига параллел ҳолда синчлар устига қўйиладиган узун тўртбурчак ёғоч), тагсинч (пойдевор устидан қўйиладиган бақувват ва узун тўртбурчак ёғоч), синч (тагсинч билан пешхари ва ва харилар орасига тикка ҳамда бурчакли ҳолда мустаҳкамланадиган йўғон ходалар), тўсин (пешхари ва харилар устидан, вассанинг (васса – тут дарахтининг 5-7 см. энлиликдаги ходасидан 60-70 см. узунликда тайёрланадиган ва турли ранг бериладиган ёғоч) тагидан кўндаланг равишда қўйиладиган йўғон ва узун тўртбурчак ёғоч) ҳамда бошқа керакли ўлчамдаги ёғочлардан бири оддий бурғу (дастасидан тутган ҳолда қўл кучи билан бураб ёғочни тешадиган шурфсимон учли темир асбоб) ёки қачов (учи қиясимон пўлат тиғли, ёғоч дастали қўл асбоби) билан ўйилиб, иккинчисининг учи ўша ўйиққа мос ҳолда теша билан айланасига йўнилган ва ўйиққа киритиб кетилаверган. Синчли ёки гувалали деворлар сомонли лой билан суваб чиқилган (соз тупроқли лойга сомон аралаштирилмаса, девор сувоғи ёрилиб, кейинчалик кўчиб тушган). XX

асрнинг ўрталарига келиб сомонли лойсувоқнинг устидан қумсувоқ қилиш ва оҳакли ранг бериш урф бўлди. Водийдаги истиқомат уйларининг деразалари ичкари томонга очилган. Ташқи кўриниши оддийгина бўлса-да, ўзига тўқ хонадонларнинг дарвоза, айвон устуни, тўсин ва эшикларига ўйма нақш берилган, даҳлиз ва айвонлари ихчам ва пештоқли бўлган. Дарвозахона айвонли бўлиб, айвон тагида дарвозага кираверишда икки томонда икки-уч метрли ёғоч ўриндиқлар ўрнатилган. Қўшсинч уйларнинг икки ён деворлари бўйлаб тўғрибурчакли ёки пештоқ (гумбаз) шаклидаги токчалар қурилган. Уларга ҳар хил идиш-товоқлар териб чиқилган. Тўрда эса ўртада ичига қутича қўйилиб, унинг устидан ёстиқлар тахланадиган токча ва унинг икки ёнида ичига сандиқлар қўйилиб, устига кўрпа-тўшак тахланадиган тахмонлар мавжуд бўлган. Ёстиқ-болишлар чиройли қилиб кашталанган ёки қуроқ қилиб тикилган. Тахмондаги кўрпа ва ёстиқлар баъзан нақшли сўзаналар билан ёпиб қўйилган. Деворнинг токча ва тахмонсиз қисмига ҳам сўзаналар осилган. Сўзаналар, одатда, 2х2 ёки 2х3 м. ҳажмда сидирға қора, қизил ёки оқ мато устидан аввал қалам билан чизилиб, сўнгра ранг-баранг иплар билан кашталанган қўл меҳнатининг маҳсули бўлган. Кашта тасвирида миллий нақшлардан ташқари бир жуфт анор, бир жуфт лола, бир жуфт куш ва ҳоказолар ўрин олган. Оҳангаронликларнинг анъанавий оилавий тарбиясида қизлар ўн-ўн икки ёшидан бошлаб ана шундай сўзана, палак, чойшаб, сочиқ ва дастрўмолларни хилма-хил рангдаги иплар ёрдамида тўқиш билан шуғулланганлар. Чевар келиннинг сепи ёйилганида кайвонилар томонидан таҳсин айтилган.

Уйнинг ичига қамишдан тўқилган бўйра тўшалиб, унинг устидан кигиз ёки олача ёйилган. Уйни иситишга камин кўринишидаги туйнукли ўчоқ, баъзи хонадонларда эса сандал ишлатилган. Сандалнинг чуқурига ҳовлида чўғлантирилган кўмир солинган. Баъзан кўмир ўрнида ўрик ёки тут дарахтларининг ўтини ёқилган. Сандал устига катта кўрпа ташланган ва оила аъзолари унга ўралиб ўтирганлар ҳамда ёпиниб ётганлар. Сандалдан

фойдаланган одамларда ҳар хил шамоллаш касалликлари, шу жумладан, буйрак хуружи, бел ва оёқ оғриғи дардлари бўлмаган.

Оҳангарон қишлоқларида молхоналарнинг гувалали девори атайлаб пастқам урилиб, усти қалин бўғотли том билан ёпилган. Шунинг учун молхона ичкарасини қишнинг қаҳратон совуғида ҳам молларнинг ҳовури илитган. Наврӯз кирганидан сўнг қорамол ва қўй-эчкилар шамол эсиб, Қуёш нури тушиб турадиган усти очик ёзги қўрага қамалган. Саратондан сўнг қишки молхонанинг ичида қотган гўнг қатлами (чалма) кўчириб олиниб, ташқаридаги Қуёш нурида қуритилган ҳамда ўчоқ ва тандирга ёқилган. Унинг қули ниҳоятда доривор қукунга айланган. Жумладан, шу қукуннинг асосий қисмини томорқанинг бир чеккасига уйиб тўкиб қўйилса, товуқлар ағанаб, баданидаги майда қонхўр ҳашоратлардан ҳалос бўлишган (у пайтларда товуққа тиббий таблетка бериш ёки эмлаш (укол қилиш) деган тушунчалар бўлмаган). Чалма қулининг катта қисмини қушанда ҳашоратлар йўламаслиги учун картошка, сабзи, бодринг ва пиёз поясининг устидан сепиб чиқилган ва сувга қўшиб жўяк ичига оқизилган. Унинг бир қисми қишки мавсумга тозалаб қўйилган молхона ичига айлантириб сепиб чиқилса, бирорта ҳашорат (эшакқурт, қирқоёқ, чаён, қорақурт в.б.) ўрмалаб қирмаган. Ёз ва кузда бузоқ, улоқ ва қўзичоқлар жуни орасида бит, кана ва бурга пайдо бўлмаслиги учун ҳар ҳафтада чалма қули сурқаб турилган. Илгари дарё бўйидаги қишлоқларнинг яқин атрофи ботқоқзор ва тўқайзор бўлгани учун инсон қонини сўрувчи ҳашоратлар кўп бўлган. Оҳангаронликлар кечкилик сўри атрофига таппи ёки чалмани тутатиб қўйганлар. Натижада атрофга чиркай, капалак, қўнғиз ва бошқа ҳашоратлар яқинлашмаган. Таппи ёки чалма тутуни билан дудланган узум касалланмаган.

Ҳозир Оҳангарон қишлоқларининг деярли барчаси газлашгани боис таппи ёки чалма ёқиш удум бўлмай қолди. Моллар ва паррандаларда қузатилган арзимаган ҳасталик учун ҳамма ветеринария дорихоналарига югурадиган, ҳуллас, табиий даво усуллари унутилиб, сунъий препаратларга таяниладиган бўлди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Решетов В.В. Кураминские говоры Ташкентской области. Фонетическая и морфологическая система. Докторская диссертация. Ташкент. 1952.
2. Қозоқбоева Д. Оҳангарон водийсидаги курама шевасининг айрим фонетик хусусиятлари. Тошкент. “Фан”. 2003.
3. Ҳасанов А., Мирзакулов Т. Истиқлол: Тарих ва тақдир. Тошкент. “Мухаррир” нашриёти. 2010.
4. Жилина А.Н. Современная материальная культура сельского населения Ташкентской области УзССР. // Материальная культура народов Средней Азии и Казахстана. М., Наука. 1966;
5. Она же. Жилище и семья у узбеков (на материалах Ташкентской и Хорезмской областей). // Семья и семейные обряды у народов Средней Азии и Казахстана. М., Наука. 1978. С.С.55-94;
6. Файзиев Т. Узбеки-курама. Дисс. и автореф.. Ташкент. 1963;
7. Ёрматов И.Т. Илоқ тарихи. Т.: 2005.
8. Ёрматов И. Юқори Оҳангароннинг табиати, тарихи ва маданияти. Т.: 2008.
9. Ёрматов И. Қорасувёқа. Т.: 2010.
10. Ёрматов И. Саодат водийси. Т.: 2012.

МИЛЛИЙ ЎЗИГА ХОСЛИКНИ АНГЛАШ МАСАЛАСИ

Р.Х.НИЁЗМЕТОВА,
ТОШДУТАУ профессори, пед.ф.д.

Ўзбек адабиётида образ яратиш билан боғлиқ равишда сўзларнинг қўлланилишида ҳар қандай ўзга адабиётда бўлгани каби миллий ўзига хослик мавжуд. Бундай ўзига хослик санъатда ҳам амал қилади. Методист-олим В.Г.Беленький буни қуйидагича тушунтиради: "Ҳар бир халқнинг миллий сири унинг кийимида ва таомида эмас, балки унинг буюмларни англаш тарзидадир"[1]. Дарҳақиқат, ўзбек мусаввири қўзичоқни бир хил, рус мусаввири уни бошқача тасвирлаши мумкин. Ўзбек халқи қўзичоқ орқали

ўзига хос муносабатларини тимсоллайди (фарзандини кўзичоғим деб эркалайди), шу жиҳати билан унга бошқача қарашни ифода этади. Шундай қилиб, адабиёт ва санъатдаги миллийлик ҳақида сўз юритганда, "..... муайян миллатга мансуб санъаткорнинг оламни кўриши орқали намоён бўладиган миллий хусусиятлар ҳақида гапириш мумкин" [2].

Ўзга халқ адабиёти асарлари билан танишаётган кишида икки хил ҳолат юз беради:

1. Ўзи учун таниш нарсаларни кўриш ниятида бўлади. "Шу таниш нарса билан учрашув юз берганда, қаноатланиш, эстетик завқ ҳисси бошланади" [2].

2. Кутилмаган, нотаниш тимсолларга дуч келади. А.Н.Толстой шундай деб ёзган эди: "Ҳар бир халқ санъатда умумий идеални ифодалаш учун ранг-баранг усулларни қўллайди ва айти шу тўғрисида биз идеализмнинг янги кутилмаган тимсол орқали ифодаланганини кўриб, алоҳида завқ оламиз"[2].

Биз ўқувчиларнинг адабий тайёргарлиги деганда таълим мазмунига адабиётда тимсол яратишдаги миллий ўзига хосликларни ҳам киритишни зарур деб ҳисоблаймизки, бу миллий тафовутлар, миллий ўзига хосликларни англаб етиш ўқувчиларнинг эстетик туйғулари билан бадиий дидининг ўсишига имконият яратади, ўзга тил мактабидаги ўзбек адабиёти дарсларининг самарадорлигини таъминлайди.

Умуман, миллийлик муаммоси миллий объектив воқеликни ва миллатнинг бадиий онгини, бадиий амалиёти ва эстетик тажрибасини, онгидаги миллий ассоциатив боғланишларни ўз ичига оладиган мураккаб муаммодир. Миллий хусусиятлар ҳар бир миллатнинг шаклланишидаги конкрет тарихий шарт-шароитлар: сиёсий, иқтисодий, тарихий-географик, этник, психологик ва бошқа омиллар билан белгиланади.

"Миллий" деган тушунчага миллий муҳит (табиат, маиший турмуш), миллий тарих, дин, руҳшунослик, миллий анъаналар, маданият ҳамда адабиётнинг тараққий этиш хусусиятлари, оламни бадиий ифодалашнинг мавжуд тажрибаси, миллий маданиятнинг шаклланган амаллари, бадиий ифодалилиқ воситалари, миллий адабиётнинг тимсолли ва метафорик

курилиши киради. Шуни унутмаслик керакки, ҳар бир ижодкор табиат тасвири яратилган асарларда ўз миллий руҳиятидан келиб чиқиб рамзлар яратади. Маълум миллатга мансуб ижодкорларнинг ўзига хос тафаккур тарзи у яратган асарларда акс этади. Масалан, Шарқ шеъриятидаги қофиялар, ўхшатишлар, метафораларнинг узундан-узун занжири ва бошқалар. Грузинлар шеъриятида тоғлар, дарёлар, бургутлар ва бошқаларга ўхшатиш орқали анъанавий образлар яратиш усулини кўрсатиш мумкин.

Реал воқеликдаги миллийликни бадий адабиётдаги миллийликдан фарқлаш зарур. Миллий объектив олам миллатнинг замон ва макондаги турмуши сифатида (яъни тарихи, муҳити, маиший турмуши, дини, руҳияти сифатида) ҳамда объектив оламини қайта яратувчи бадий миллий олами сифатида мавжуд. У шартли бўлиб, биринчисига нисбатан иккиламчидир.

Ўзга тилда сўзловчи ўқувчилар ўрганиши учун танланадиган бадий асар ўзбек халқининг маълум даврдаги тарихий-адабий воқеалари фонини акс эттиради. Албатта, бу жиҳат бадий асарда яққол бўртиб турмайди, ўқувчиларнинг эътиборини унга қаратиш иши методик йўналишда, бадий матнни ўрганиш жараёнида амалга оширилади. Бир асар билан ўзбек адабиётидаги миллийликни тўла-тўқис ўрганиб бўлмайди, албатта. Бу хусусиятлар деталлаштирилади, оз-оздан англашиб борилади.

Олимлар Е.М.Верещагин, В.Г.Костомаровлар рус ва рус бўлмаган ўқувчиларнинг рус адабиётини ўрганишлари ҳақида сўз юритиб, уларнинг миллий рамзларни англашларида фарқ мавжудлигига эътиборни қаратадилар

Уларнинг фикрича, рус бўлмаган ўқувчиларда рус ҳаёт тарзи, шароит ва муҳит тасвирланган рус адабиёти асарларини тушуниш ва ўрганиш қийинроқ кечади. Т.В.Романович ҳам рус бўлмаган ўқувчиларнинг рус ёзувчиларининг асарларини тушунишлари ўз миллий қадриятлари қирралари орқали амалга ошувини таъкидлаб, «бу нарсa маълум қоришувларни туғдириши билан шартланадиган қийинчиликларни келтириб чиқаради», – деган фикрни илгари сурган. Муаллифларнинг уқтиришларича: «бу қийинчиликларнинг олдини олиш, уларни бартараф этиш учун ёзувчи бадий асарни ёзишда фойдаланган

миллий маданият хусусиятларига доир билимлар йиғиндиси бўлмиш "минифон"ни яратиш ва шу модель орқали унинг хусусиятларини ўқувчига ўргатиш зарур. ..."минифон" яратишда сўз билан тушунтиришдан ташқари тас-вирий санъат ҳамда мусика асарларидан фойдаланиш катта роль ўйнайди» [4].

Лекин бадиий асарнинг ўзини ўрганишда кўрув кўрсатмалиликнинг бирор воситасини жалб этиш санъатнинг бир турини идрок этишни бошқа турини идрок этиш билан алмаштиришга олиб келади. Бунда ўқувчилар сўз билан тасвирланган бадиий образни идрок этиб ўтирмай, унинг тасвирий эквивалентига диққатларини қаратадилар. Бу гапларнинг асар танлашга дахли йўқ, албатта. Аммо асарга доир кўрсатмалилик танлашда бу шарт ҳам ҳисобга олиниши керак.

Шуни алоҳида таъкидлаб ўтиш жоизки, миллий адабиётларнинг ўзига хос хусусиятлари билан бир қаторда аниқ миллийлик орқали намоён бўладиган умумий байналминал мазмун ҳам мавжуд. Танланаётган асарларнинг бу жиҳати улар мазмунини тушунишни осонлаштиради. Эҳтимол, дастлабки кезларда, аниқса, қуйи синфларда кўпроқ ана шундай муштарак асарлар ажратилгани маъқулдир.

Хуллас, ўзбек адабиёти асарларини ўрганишда ўзбек бўлмаган китобхон ўз бадиий идроки тажрибасига асосланади. Ўз миллий адабиёти нуқтаи назаридан қарайди. Асар мазмунини тушуниш ана шундай мураккаблашган вазиятларда амалга ошади.

Ўзбек адабиёти асарларини осонроқ тушунишни таъминлаш мақсадида рус фольклоридан ҳам фойдаланган маъқул. Икки адабиётга таяниш, ўзбек адабиётидан тушунилмаган нарсаларни рус адабиётидагига ўхшаш ҳодисалар орқали изоҳлаш ё қиёслаш ўқувчилар дунёқарашига таъсир этади, уларни ўзбек адабиётини эстетик жиҳатдан англашга яқинлаштиради.

Ўқувчиларга ўзга миллий адабиёт асарини идрок этиш сари тегишлича йўл кўрсатиш учун ўзбек ва рус ёзувчиларининг мулоқотлари, адабий алоқаларидан ҳам фойдаланиш мақсадга мувофиқдир. "Адабиёт дарсларида

кардош халқларнинг фольклор материалларини қиёсий ўрганиш шуни кўрсатдики, уларда ҳар бир халқнинг ривожланиш тарихини белгиловчи миллий хусусиятлар ва тафаккур шакллари акс этган бўлади. Ижтимоий-иқтисодий тизимларнинг бир хиллиги ва ҳудудий яқинлик кардош халқларнинг бадий тафаккурида ўхшашликни келтириб чиқарган омиллардандир” [5]. Аммо, шуни назарда тутиш керакки, кардош халқлар фольклоридаги умумийлик бир халқнинг бошқа халқ ижодига таъсири натижаси сифатида мазкур халқ ҳаёт тарзи шароитида қайта ишланади ҳамда миллий хусусиятга эга бўлиб қолади.

Хуллас, таълим ўзга тилида олиб бориладиган мактабларда ўзбек адабиётини ўқитишда бадий асардаги миллийликка, миллий рангларга, шароит тасвирига, фонга ("минифон"га) катта эътибор берилади, асар танлашда оз-оздан миллий хусусиятларни ўргатишни моделлаштириш кўзда тутилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

- 1.Беленький Г.И.Приобщение к искусству слова. –М.:Просвещение,1990. – 190с.
- 2.Методика преподавания литературы в средних специальных учебных заведениях. – М.:Высшая школа, 1987. 31с.
- 3.Верещагин Е. М., Костомаров В. Г. Язык и культура /Лингвостроноведение в преподавании русского языка как иностранного/.–М.:Русский язык,1976.– 210 с.
4. Романович Т. В. Особенности изучения произведений русской литературы в киргизской школе: Автореферат дис. канд. пед. наук. –М., 1980. -4-8-с.
- 5.Абдувалитов Е.Б.Умумий ўрта таълим мактабларида кардош халқлар адабиётини қиёсий ўрганиш. Докт.дисс. –Т., 2020. -46-47-бетлар.

ҚОРАХОНИЙЛАР ДАВРИДА ИСЛОМИЙ ВА УНГАЧА БЎЛГАН ДИНИЙ ЭЪТИҚОДЛАР ТУТАШУВИ

Исомиддин Ёрматов, филология фанлари доктори,

Араб босқинчилари Мавороуннаҳрдаги шаҳар ва қишлоқларни эгаллаб бўлганларидан кейин ҳам маҳаллий халқларга нисбатан нафратомуз муносабатни бас қилмадилар. Чунончи, Ибн Қутайба Сўғд ўлкасининг подшоси Гурек билан 712 йилда тузилган шартномасида ҳар бир оиладан арабларга катта миқдорда мутелик товонини тўлаш билан бирга ҳар бир турар жойнинг, умуман, шаҳарнинг ёки қишлоқнинг ярмини араб жангчилари учун бўшатиб бериш талабини ҳам қўйган (Муминов, 2003, с.108). Бундан ташқари, ўша ваҳший Ибн Қутайбанинг “...Буйруғи билан ерли аҳолининг бой ёзма мероси ва юксак санъат асарлари бозор майдонларига йиғдирилиб ёқиб юборилган эди” (Асқаров, 2004, с.26). Натижада Ўрта Осиё халқлари эътиқод қўйиб келган монийлик, бурҳонийлик, настурийлик ва зардуштийлик динларининг туркий, анаткак (санскрит), тўхри (тоҳар), сўғд, табғач (хитой) тилларида ёзилган ва китобат қилинган кўплаб диний-фалсафий асарлари абадий йўқ қилинди. Улар билан бирга маҳаллий халқларнинг илк ўрта асрлардаги ҳаёти ва қарашларига оид муҳим тарихий маълумотларнинг изи ҳам ўчирилди. Мана шундай зуғум ва ситамлар туфайли Сирдарё ва Амударё оралиғидаги аҳолининг бир қисми VIII асрнинг биринчи ярмида Еттисув, Шарқий Туркистон ва Хитойга қўчиб кетишга мажбур бўлди. (*Восточный Туркестан в древности и раннем средневековье*, 1992, с.538). Қолаверса, Сўғд конфедерациясининг Кўк Турк хоқонлиги билан яқин савдо ва маданий алоқалари давридан сақланган анъаналарнинг таъсири ҳам катта эди. Мавороуннаҳрликлар у ерда буддавий эътиқод унсурлари билан танишиб, кейинчалик қорахонийлар маданиятининг юзага келиши учун муайян ҳиссани қўшдилар. Туркий сўзларнинг илк изоҳли луғати (М.Кошғарий) ва илк туркий ёзма дostonнинг (Юсуф Хос Ҳожиб) айнан Баласоғунда яратилиши заминида биз тилга олаётган эътиқод ва маданиятлар туташувининг аҳамиятини кўрамиз. Бу икки аллома туғилиб ўсган Баласоғун шаҳри аҳолиси исломий

этиқодга нисбатан кеч - XI асрнинг ўрталарида ўтган. Араб тарихчиси Ибн Ал Асирнинг шаҳодат беришича, ўша пайтда Еттисув, Или, Чу, Талас водийлари ва Сирдарёнинг ўнг томонидаги ҳудудларга ҳукмронлик қилган Сотук Қорахон (Сотук Буғраҳон Ибн Ал Карим) қорахонийлар орасида биринчи бўлиб мусулмончиликни қабул қилган.

Маълумки, Сомонийлар ва Қорахонийлар давлатлари исломий, уларнинг шарқий қўшниси бўлган Қорахитойлар ва Идикут давлатлари эса буддавийлик этиқодига амал қилганлар. Туркистон тарихида умуман мусулмончилик талабларига амал қиладиган, аммо ўзга динлардаги умуминсоний ғояларни пухта ўрганган, у динлардаги шахс камолоти билан боғлиқ ибратли фикрларни ўз амалиётида ва асарларида қўллаган мутафаккирлар ҳам бўлган. Чунончи, Юсуф Хос Ҳожиб “Қутадғу билиг” достонида бу икки этиқод ва маданиятларнинг умумий белгиларини мужассамлаштирган, деб айта оламиз. Негаки, “Қутадғу билиг” билан буддизмнинг муқаддас китобларидан бири бўлган “Весантара жаката” асари мазмунини чоғиштириб кўрсангиз, улар ўртасидаги умумийлик, ғоявий муштаракликдан ҳайратланасиз.

“Весантара жаката” Ўрта Осиёда яшаган сўғд халқининг буддавий этиқодига доир энг йирик ва қимматли ёзма ёдгорликларидан биридир. Уфалсафий-бадий асар бўлиб, қадимги сўғд ёзувида ўттиз тўрт варак, бир ярим минг сатрни ташкил этади. Мазкур асар Париж кутубхонасидаги сўғдча қўлёзма фотонусхаси асосида 1977 йилда тарих фанлари доктори, профессор Мирсодиқ Исҳоқов ва тарих фанлари номзоди Аъзам Отахўжаевлар томонидан сўғд тилидан ўзбекчага таржима қилинган. Унинг қисқача мазмуни қуйидагича: Шиватхоши шаҳар-давлатининг подшоси Шивининг хотини илоҳий нурдан ҳомиладор бўлиб, ўғил фарзанд кўради. Унга Судашан деб исм қўядилар. Дунёни фақат роҳат-фароғатдан иборат деб билган Судашан, иттифоқо ташқи дунёдаги воқеликдан хабар топади. Бу тафсилот Будда дини таълимотидаги моделлардан бири ҳисобланади.

Судашан роҳат-фароғат дунёсидан воз кечиб, таркидунёчиликни ўзига муносиб билади. У буддавий дарвешлар (праманлар) билан яқин мулоқатда бўлади, ўзида бор нарсаларни праманларга эҳсон қилади. Унинг бу ҳатти-харакати сарой аҳлини таажжублантиради ва ғазаблантиради. Судашан салтанат рамзи бўлмиш олти бебаҳо хусусиятли оқ Ражварт исмли филни ҳам праманларга совға қилиб юборгач, Шиви ўз атрофига аъёнларини тўплаб, бу масалани жиддий муҳокама қилади, Судашанни қаттиқ жазолаш таклифини киритади. Бош вазирнинг фикрига кўра Судашан Дандарак тоғига (афсонавий жазо манзилига) сургун қилинади. У хотини Мандри ҳамда фарзандлари Кришнайон ва Жолиналар билан бирга саройни тарк этади. Йўлда у праманларга бор-будини: бош вазир совға қилган олтин атиргулни, ҳатто хотини ва фарзандларини ҳам инъом қилиб юборади. Бир праман уларни бозорда ким ошди савдосига қўйиб турган пайтида бош вазир мингта ҳўкиз ва минг мисқол олтин эвазига сотиб олади. Подшо Шиви Судашаннинг эътиқодида қойимлигига қойил қолиб, уни саройга таклиф қилиб чопар юборади. Судашан эса жазо муддати тугамаганлигини айтиб, саройга қайтишга рози бўлмайди. Отаси у яшаётган ғорга бош вазирни уч марта жўнатгач, хотини ва фарзандлари билан саройга қайтади. Шиви ўғлининг нафсини ўлдирган комил инсонга айланганини кўриб, мамнун бўлади ва салтанат тожини унга топширади. Асар Судашаннинг Будда даражасига эришгани, Будда эса ўз умрининг бир ҳикоясини сўзлаб бераётгани билан интиҳо топади (*Отахўжаев, 1999, б.23-29*).

“Весантара жаката” композицияси шогирд Ананданинг устози Будда Шакьямун билан нирванага етишиш йўлида буддасафлар босиб ўтадиган йўл машаққатлари, инсоннинг комиллик сари интилиши босқичлари тўғрисидаги савол-жавоблари тарзида тузилган.

“Весантара жаката” асари сўнгида бош қаҳрамон Судашаннинг саройга қайтишдан бош товлаши ҳолати “Қутадғу билиг” асарида қаноат туйғусининг рамзий ифодачиси бўлган Ўзғурмиш фаолиятига ўхшашдир. Юсуф Хос Ҳожиб Ўзғурмишга яна бир адабий-мажозий қаҳрамон Ўгдулмиш тилидан

куйидагича таъриф беради: “Ҳамма эзгуликка қўл ургандир. Ва лекин (у) бу дунёдан юз ўгирди. Туриб тоққа чиқиб кетди. Кўнглини тўғри қилди (яъни беғубор ва пок кўнгил бўлиб, худо йўлига кирди). Тоат-ибодат билан гуноҳ касалини даволатмоқда” (*Юсуф Хос Ҳожиб, 1972, б. 3109-3110*).

Ушбу асар мазмунидан маълумки, юрт эгаси Кунтуғмиш элиг вазири Ўгдулмишга Ўзғурмишни саройга бошлаб келиш вазифасини юклайди. У элигнинг сарой хизматига таклифи ёзилган хатини икки марта олиб борганида ғор ичида ёлғиз яшаётган Ўзғурмиш рози бўлмайди. Элигнинг илтимоси билан Ўгдулмиш унинг ҳузурига учинчи марта борганида “Майли бўлмаса, аввал саройга эмас, сенинг уйингга бориб кўрай”, дейди. Ўзғурмиш Кунтуғмиш элигга насиҳатлар қилади.

Маълумки, жатакалар буддавий таълимотнинг сутра деган муқаддас матнидан кейин турувчи ва мазкур диннинг асосчиси – шимолий Ҳиндистоннинг Шакъямун қишлоғида эрамиздан аввалги 563-483 йилларда яшаб ўтган Сиддхартхи Гаутама Будданинг ҳаёт йўли, насиҳатларини жам этган асарлар йиғиндисидир. Машҳур инглиз буддашуноси Роберт Чарльз Лестернинг “Буддизм (Путь к нирване)” номли асарида қайд этилишича, Сиддхартхи Гаутаманинг ўзи жаҳонгашда дарвеш бўлган, Тхераведа (“Қариялар йўли”) ва Махаяна (“Катта чархпалак”) ғояларини пухта ўрганиб, уларнинг синтези бўлган янги таълимот – Буддизмга асос солган. Буддизм таълимотида олий инсоний бахтга эрушувнинг йўли ўзининг жисмоний қувватига ишониш, мустаҳкам ахлоқ, совуққон ақл-заковат ва олий руҳ билан медитация босқичларини ўз ичига олади. Сиддхартхи Гаутама Будда ўткинчи ҳаёт қувончларидан, оиласи ва мол-мулкидан воз кечиб, ғорда яшашга мажбур бўлади. Олти йиллик таркидунёчилик даврида ўзлигини, инсон умрининг моҳиятини англаб, янги таълимотни тарғиб эта бошлайди. Даставвал унга Дхарма, Санга каби шогирдлари эргашган бўлса, ҳозирги кунда Буддизм сомеъларининг ер юзидаги сони олти юз миллион кишига яқин. Р.Ч.Лестер ёзади: «Ко времени Будды монашеское движение уже сложилось в рамках брахманизма. Кушанские цари, чья власть в I и во II вв. н. э.

простирались от северных территорий центральной части Индии до Центральной Азии (Афганистан, Узбекистан и Китайский Туркестан), были ревностными покровителями Буддизма. Царь Канишка (78-101 гг.н.э.) возводил ступы и монастыри; на его монетах чеканилось изображение Будды» (Лестер, 1997, с. 42.)

Буддизм шимолий Ҳиндистондан Афғонистон орқали Сурхон воҳасига ва бутун Туркистонга сўнгра Еттисув орқали Мўғулистон, Хитой, Курия, Япония ва бошқа мамлакатларга ёйилган. Ўрта Осиё сўғдийлари кенг тарғиб қилган Буддавий жатакалар Балосоғун туркийлари орасида ҳам кенг ёйилган. Балосоғунликлар жатакалардан аввал Буддизм ғоялари билан таниш бўлганликлари эҳтимолдан холи эмас. Нима бўлганида ҳам Юсуф Хос Ҳожиб Буддизм эътиқодидан хабардор бўлган ва ўзининг машҳур “Қутадғу билиг” асарини яратишда ғоявий-композицион жиҳатдан унга таянган, дейишимизга асос бор. Бу китобнинг мазмун-моҳияти Буддизмнинг адолат, давлат, ақл-заковат ва қаноат деган тўртта принципига асосланган. Қолаверса, асар тўқимаси худди “Весантара жаката”даги сингари маънавий устоз билан шогирднинг комиллик ҳақидаги савол-жавоблари негизига қурилган. Марказий Осиё халқларининг диний эътиқод масаласидаги толерантлик анъаналари ҳозирги кунда ҳам давом этмоқда.

Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, “Қутадғу билиг” туркий тилда ёзилган илк лиро-эпик асар бўлишидан ташқари XI-XII асрларда Мавороуннаҳр ва Туркистонда кечган ҳарбий ҳаракатлар йўриғи тўғрисида тасаввур бериши билан ҳам аҳамиятлидир. Шоир, жумладан, доно Ўғдулмиш тилидан қуйидагича қўмондонлик тактикасини баён этган: “Кўп киши кераксиз, сара лашкар керак. Қўшин кўп сонли бўлса, бебош ва юраксиз бўлади, ичидан бузилади. Лашкарбоши ёвни урувчи кишиларни ўзига яқин тутиши лозим. Илғор саф (авангард) ва айғоқчи саф (разведка) кўз ва қулоғини соқ қилиб узоқ-узоқларга тутиши керак. Йўлбошловчи киши ўз режаларини сир тутса, мустаҳкам ерни танлаб қисмни туширса, мардлар кейинда қолмаса ё илғорлаб кетмаса, тил олдириб қўймаса, лашкари оз-кўплигини ёв билмаса,

агар тилни тингласа (ундан маълумот олса), сўнг ишга киришса, ёв бўйнини янчса...

Ёвинг кўп лашкар тутса, сеники оз бўлса, у жангга ташланишини мувофиқ кўр. Ғафлатда қолдир, ухлатиб кечаси бос. Лашкар кечаси оз-кўплигини ёв қандай аниқ билади? Жангни чўзсанг, ёв сирларингни тушуниб олади.

Кўшиндан бир қисмини пистирмага кирит. Пиёда ўқчилар тушириб, сен олдинда югуриб бор. Жанговар, синчи, ёши катта тажрибали баҳодирларни олдинги қаторга қўй, тадбиркор бўлади. Энг аввал узоқдан ўқ билан урушиш керак. Ёв аралашиб кетса, қилич ва ойболта билан уруш, тиш-тирноғинг билан ёпиш, ёқа тут, олиш. Ёвга бўш келиб орқа берма. Ёвни бир тарқатилса, яна қайта йиғила олмайди. Ким жангда иш кўрсатса, унга дарҳол инъом бер, жароҳатланганларни сен кўриб, давола. Асир тушганлар бўлса, эваз бериб, қайтариб ол. Агар ўлганлар бўлса, ҳурматини келтириб, кўтар, дафн қил. Ўғил-қизлари бўлса, уларга ҳақини бнр. Буни сарбозлар кўрса, севинчли бўлади, жанг пайти севимли жонини беради...” (*Юсуф Хос Ҳожиб, 1972, б.388-393*).

Ушбу парча мазмунига эътибор берсангиз, “Қутадғу билиг” бадий асар саналса-да, ўз даврида ҳарбий ҳаракатлар иштирокчилари, айниқса, зобит ва кўмондонлар учун йўриқнома сингари аҳамият касб этган.

Тарихий маълумотлардан маълумки, Чоч ва Илоқ ҳудудлари IX асрнинг сўнгги чорагидан бошлаб расман Бағдод халифалигига бўйсундирилган бўлса-да, арабларга қарши кураш бу ерларда бирон кун тўхтамаган. Зотан, балхлик Сомонхудоғнинг ўғиллари ва неваралари салкам икки аср мобайнида бутун Мавороуннаҳрга халифа ноиблари сифатида ҳукмронлик қилганлар, аммо минтақадаги сиёсий ва иқтисодий вазият барқарор бўлмаган. Мана шу даврда Оҳангарон водийси Яҳё ибн Асад, Аҳмад ибн Асад, Ёқуб ибн Яҳё, шайх Жалилхонлар қўл остида бўлди. Ҳукмдорлар томонидан форсий тил расмий ҳужжат юритиш учун мажбуран жорий этилди. Секин-аста тожик тили туркий тил қаторида кенг истеъмолга кира бошлади. Ўша даврда Боласоғундан ўлкамизга келган Маҳмуд Қошғарий тузаётган луғатига “Тотсиз (тожик ва

сўғдларсиз) турк бўлмас, бошсиз бўрк бўлмас” деган мақолни киритган эди. (ДЛТ, 1-том, Т., 1960. Б. 333).

Сомонийлар даврида ҳозирги Тошкент воҳасида яшаган аҳоли томонидан асрлар мобайнида орттирилган билим, кўникма ва малакалар чорвачилик, деҳқончилик, хунармандчилик ва кончиликнинг баравж тараққий этиши учун замин ҳозирлади. Ишлаб чиқаришнинг тез ривожига товар-пул муносабатларнинг ҳар томонлама кенгайиши учун имконият яратди. Илоқда (ҳозирги Оҳангарон водийсида) яшовчи йирик феодал деҳқонлар (ер эгалари) жамғармаларини деҳқончилик ва чорвачиликдан юз ҳисса кўп фойда келтираётган олтин ва кумуш каби қимматбаҳо металлларни қазиб олиш ишларига сарфлай бошладилар.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. II жилд. Биринчи қисм. 1405-1429 йиллар воқеалари. Тошкент. “Ўзбекистон” НМИУ. 2008.
2. Авфий Муҳаммад. Жомий ул-ҳикоят. Тошкент. 2002.
3. Алимова Д.А., Филанович М.И. Тошкент тарихи (Қадимги даврлардан бугунги кунгача). Тошкент. “Art flex”. 2007.
4. Али Сафи Фахриддин. Занимательные рассказы. Москва. “Комил”. 1991.
5. Ал Муқаддасий. Аҳсан ат-тавосим фи маърифат ал-ақолим. – Материалы по истории туркмен и Туркмении. Том 1. М-Л., 1939.
6. Аминов В, Буряков Ю.Ф., Ходжаев Т.К. Новые материалы к этнической истории долины Ахангарана. - В кн: История материальной культуры Узбекистана. Т, 1979, Вып. №14.
7. Андреев М.С. Новые данные по установлению значения слова “Фергана”. // Сообщения Таджикского филиала АН СССР. Выпуск XIV. Сталинабад. 1950.
8. Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий Давлат кутубхонаси, 2007. – 275 б.
9. Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. Тошкент. “Ўқитувчи”. 2001.

10. Бичурин И.Я. Собрания сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Т.1, М.-Л, 1950.
11. Бобоёров Ғ. Чоч тарихидан лавҳалар. Тошкент, “Янги нашр”. 2010.
12. Бобобеков Ҳ ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи. Т, 1995.
13. Бобур. “Бобурнома. Тошкент. Ўздавнашр. 1960.
14. Буряков Ю.Ф. Историческая топография Ташкентского оазиса. Ташкент. 1975.

CREATIVITY OF UZBEK FOLK BARDS AND MANUSCRIPTS-LITOGRAPIES COPIES OF THE EPOS “GOROGLY”.

*San'at Matchonboyevich Sariyev, Doctor of Philology (DSc),
professor Urgench State University,
Department of uzbek language and literature.
Rustam Aminovich Egamov, teacher Urgench State University,
Department of Russian language and literature .*

Abstract: Folklore has played a distinctive role in the formation of written literature, just as written literature , in turn, influenced the development of folklore. Based on folk stories have appeared many famous works of classical literature, at the same time, some subjects , going to the written literature , in processed form are back in folklore and under a variety of names have proliferated . Article interrelation and interaction of written literature and folklore illuminated based on the lyrics Makhtumkuli. Place this handwritten copies work in oral folklore and written literature is studied on the example of the lyrics Makhtumkuli. Uzbek folk art Bakhshi, oral variants and handwritten copies dastans «Gorogly».

Keywords: Folklore, written literature, folk stories, the relationship of written literature and folklore, the lyrics Makhtumkuli poems, creativity Uzbek folk Bakhshi, oral options and handwritten copies of the epos «Gorogly».

Аннотация: Устное народное творчество сыграло своеобразную роль в формировании письменной литературы подобно тому, как письменная литература, в свою очередь, повлияла на развитие устного народного

творчества. На основе фольклорных сюжетов появились многие известные произведения классической литературы, в то же время отдельные сюжеты, перейдя в письменную литературу, в переработанном виде вновь вернулись в фольклор и под множеством названий получили широкое распространение. В статье взаимосвязь и взаимовлияние письменной литературы и устного народного творчества освещается на основе рукописных экземпляров дастанов, творчество узбекских народных бахши и творчество Махтимкули. Место данного рукописных экземпляров народном творчестве и письменной литературе исследуется на примере лирики Махтумкули, творчества узбекских народных бахши, устных вариантов и рукописных экземпляров дастанов “Гороглы”.

Ключевые слова: Устное народное творчество, письменная литература, фольклорные сюжеты, взаимосвязь письменной литературы и устного народного творчества, лирика Махтумкули, творчество узбекских народных бахши, устные варианты и рукописные экземпляры дастанов “Гороглы”.

Nations, similar languages and historical and ethnological point of view, especially geographically, could have a significant impact on the social and cultural development of each other. In particular, the peoples of Central Asia since ancient times were in close contact with each other. This intimacy and relationships observed in the oral and classical works written literature of the peoples concerned. This is evident in the oral folklore traditions in Bakhshi and performing songs. In the formation of the tangible and intangible cultural heritage of the peoples of the world and the development of traditions played a huge role of socio- political and cultural relations of the peoples concerned.

As the Uzbek scientist folklorist Zhumaniyaz Kabulniyazov «personal friendship and creative collaboration representative Samarkand and Narpaj Dastan school Bakhshi folk Islam oglu Nazar with prominent Turkmen Bakhshi Ataniyazom served folklore development of both nations, that is, Uzbek and Turkmen. In fact, as a result of this friendship and creative collaboration Nazar Islam oglu enjoyed great prestige among the Turkmens and Ataniyaz Shair - among

Uzbeks» (1). This fact states and prominent Turkmen folklore scholar S.Garriev, noting: «The plot of Dastan Islam oglu Nazar «Nigor and Zamon» is taken from the repertoire of Turkmen Bakhshi» (2). In addition, the founder of the school of the Southern Dastan Khorezm, Uzbekistan folk songwriter Bola Bakhshi - Kurbonnazar Abdullayev and his sons and disciples - folk Bakhshi Uzbekistan Norbeck and Etmishboy Abdullayev known Bakhshi Matyakub Abdullayev, People Bakhshi Qalandar Normetof Uzbekistan, of the famous bard Halfa - Ozhiza Halfa, Onazhon Halfa Sobirov Suna Halfa, Sanobar Halfa, a prominent representative of the school Dastan Northern Khorezm Ahmed bakhshi and his disciples - Karakalpak bakhshi and zhyrau could perform folk epics in Uzbek, Turkmen and Karakalpak languages.

In fact, the origins of this tradition, is execution Dastan in several languages, laid in earlier times. Representatives Dastan school Poors, which functioned in XVII-XVIII centuries, and was kind of a training center for many prominent Uzbek, Turkmen and Karakalkaks Bakhshi, and their followers Suyav Bakhshi, Garibniyaz Bakhshi, Muso Bakhshi, performing Dastan in three languages: Uzbek, Karakalpak and Turkmen, continued the tradition of multilingualism in art bakhshi. In this regard, Suyav Bakhshi and Muso Bakhshi favorite performers were Uzbek, Turkmen and Karakalpak nations, and everyone wanted to see them as mentors of their children with a penchant for art Bakhshi. It is known that the vast majority of Bakhshi XVIII-XIX centuries were literate people, and some of them could remember Dastan in its execution, and in the future have to execute it. Young Bakhshi primarily offered to explore the songs on poems Makhtumkuli differing national spirit and distinctive style. First, it increased the musical experience Artist - Bakhshi, and, secondly, to satisfy people's needs. For weddings Uzbek, Turkmen and Karakalpak nations necessarily began with poetry Makhtumkuli. Literate Bakhshi studied all the epics and didactic songs drew from special books, manuscripts, and after they moved to the assimilation of their immediate execution. During this process, used manuscripts and printed copies of songs Makhtumkuli and became widespread folk epos.

Handwritten copies were distributed through their repeated rewriting calligraphers and scribes, as well as competent people from the people. At the end of the XIX century was invented printing (litho) way to publish books that served as the basis for the appearance, along with many works, printed copies of the epos «Gorogly» evolved into a unique and epic favorite Uzbek, Turkmen, Karakalpak, Kazakh, Tajik, Azeri and more than 22 non-Turkic and Turkic peoples. These manuscripts and printed copies were very useful for artists, Bakhshi. For this reason, recently studied Bakhshi Khorezm epics, mainly through written texts and then move on to their oral performance. Born in the village Karakis Samarqandskogo viloyat dastans singer - narrator (Bakhshi) Yusuf Rahmatullah oglu recalls the following: «We know that Dastan» Bringing Goroglybekom Avazhana «was first published in Kazan traders and Tashkent, and soon became popular among the Uzbeks. Copy of this book , published in Tashkent , got to our village in 1927, and among all the performers - Bakhshi, even the great Shair Ergash Zhumanbulbul oglu, who believed that» in a book written Arabic script, everything is true, «there is an idea what you need to perform dastan exactly as written in the book that was the basis for the disappearance of other options». Thus, the printed copy, disseminate receiving all Bakhshi, contributed to the emergence of custom perform Dastan established pattern. Currently, for example, if you ask an obscure Bakhshi: «It was performed before any other option Dastan?», He replied: «No» (3). Indeed, information G.Vamberi, A.Samoylovicha, K.Ayimbetova and Rahmatulla Yusuf oglu fully confirm the correctness of the above arguments. Yusuf Rahmatullah oglu, resulting Naming information known to him Bakhshi, their place of origin, particularly with the work of storytellers stop - Bakhshi, noting: «However Tashniyaz Bakhshi was storyteller, assimilated the epics of the book. «Consequently, with the advent of manuscripts and printed copies dastans «Gorogly» many literate person played an important role in the dissemination and popularization of these copies. It should be noted that these manuscripts and books printed copies put an end to the practice of adding the part Bakhshi to the original texts and plots dastans «Gorogly» other texts and stories. For example, «there is

evidence that when Zhassok Sangzorskom Bakhshi was in the fog, he performed Dastan «Deer and Turtle» as one of dastans cycle «Gorogly» (4). The rise of these instances has been important in terms of conservation for future generations intact unique and priceless spiritual heritage of our people , which certainly belongs epic «Gorogly».

Of course, is not accidental that among the people and among educated people Bakhshi and distributed copies of books of favorite works. Dissemination of manuscripts and printed copies of folk and classical works dastans resulted from the needs of our people in this spiritual heritage. This circumstance is evident in the example of creativity Makhtumkuli, which is not only the pride of the Turkmen people , but also loved and revered poet Uzbek and Karakalpak nations. Speaking of Turkmen literature, we, along with the names of Kamina Andalib Durdy Klich, remember, first of all, Makhtumkuli. For his poem, saturated homilies and instructions, most willingly performed famous folk singers and Bakhshi. Makhtumkuli, created under the pseudonym Firogi many great poetic samples today takes its rightful place in world literature. Makhtumkuli received his primary education in the village school aul Hozhigovshon where he was born and raised. Although his ancestors were craftsmen, they were people very close to poetry, art. His grandfather also bore the name Makhtumkuli he received in honor of his grandfather same. Poet grandfather was a craftsman - artisan, thus creating a lot of songs in the national spirit. Davlatmamad father was also a craftsman and at the same time was a very talented poet. His poems, reflecting moralizing ideas, and the poem «Va'zi Ozodiy» features a huge educational and educational significance. Thus, Makhtumkuli that gets raised in a family of enlightened people with early childhood combined study and work, and nine years old began to write poems. Further, he was educated in madrassas Shirgazihana in Khiva. In addition, the preserved information that he was trained in the madrassas in the village Idrisbobo Kiziloek Kukaldosh and Bukhara.

Makhtumkuli following their ancestors, and perfectly mastered the craft. At the same time created a didactic poem in the national spirit. In his poems in

moralizing spirit promoted such qualities as sincere and devoted love, friendship, compassion, dignity, humanity, courage, a sense of patriotism. No poems of the poet, who do not comply to the Uzbek and Karakalpak Bakhshi. In particular, it is evident in the repertoire Bakhshi Samarkand, Bukhara, Khorezm and Karakalpak Bakhshi. In Khorezm, Bukhara and Karakalpakstan Bakhshi perform a dozen songs on poems Makhtumkuli, and then proceed to the immediate execution of the epos. Covenants Makhtumkuli played on weddings and celebrations, feasts, lovingly perceived by the people. In the national environment and met such person who sang songs Makhtumkuli without instrumental accompaniment, with a loud voice, and in a kind of rhythm. Performance without music is one of the oldest traditions of our people. An example of this can serve as a performance of the song «Katta ashula» included in makoms Tashkent and Fergana. The tradition of singing without musical accompaniment is widespread among the Turkic peoples, in particular, olonkhosut representing performers Yakut folk heroic epic «Olonkho» also performed their national epic without instrumental accompaniment, covering his ear with his right hand . At the same artist is able to control his voice matching musical tone, feel harmony and harmony execution. Performance tradition of poetic texts without musical accompaniment in a peculiar manner was laid , in fact, the performers of «Avesta», «carp» («kalpa»). They are pleasant voice without musical accompaniment performed ritual texts during the ceremonies connected with the beliefs of the Zoroastrians. Due to the fact that the lyrics Makhtumkuli different breadth of its coverage and is very popular among the people, it has had a significant impact on people's creativity Bakhshi.

O.Sabirov folklorist in his article «Makhtumkuli and Uzbek Bakhshi» mentions that lived in the village Kamashi Beshkent fog Kashkadarya region farmer Berdy Avazov played loud voice and without musical accompaniment in the national environment Makhtumkuli many poems , in particular, «the steward», «Sunny», «Boulard», etc (4).

Creativity Makhtumkuli its richness, availability and conciseness of language, melodic poems shows consonance with Uzbek folk dastans, particularly oral and

manuscript variants, as well as printed copies dastans «Gorogly». In Uzbek folk dastans, including oral and manuscript versions and printed copies received reflected a lot of meaningful ideas. For example, it reflects almost all processes, starting with the birth and upbringing of the child and ending with the last days of the character. In dastans to the fore values such as love for children and respectful attitude to parents, loyalty to a friend, faithful love, patriotism and the struggle against evil, the triumph of justice, the hardness of belief, etc. Makhtumkuli survivor in his lifetime many injustices, who saw the plight of his people, who had lost his beloved Menglikhon grieving for their children (according to his sons and Sory Ibrahim died at an early age), expressed his grief in the poem. If certain aspects of the lyrics remind Makhtumkuli literary works glorifying the idea of heroism, in particular, Ruban Pahlavan Mahmud, the simplicity and conciseness of language, and the idea of artistry express harmony with folk dastans and handwritten copies.

The impact of creativity on the Turkmen poet Makhtumkuli folk repertoire Bakhshi can be observed on the basis of analysis of oral options dastans «Gorogly», as well as an autobiographical poem with Redif «Kunlarim» occurring in their manuscripts and printed copies. It is known that Makhtumkuli lived and worked in the second half of the XVIII century. And epics «Gorogly», as noted in the sources emerged in XVI-XVII centuries in Azerbaijani- Turkmen environment. Meanwhile, despite the environment in which formed epic in every nation he managed to emerge as separate versions. It is known that folklore played a role in shaping the kind of written literature, just as written literature, in turn, influenced the development of folklore. In particular, based on folk stories have appeared in classical literature «Xamsa» and other important works. That folk stories and traditions formed the basis for the original dastans Sayyad and Mullanefesa «Tahir and Zohra» of Uzbek writers - A.Kadyri novel «The past few days», the story Gafoor Ghulam «Mischievous child». At the same time, some subjects, going from folklore in written literature, received treatment and, once again returning to the folklore, widespread under the names of popular books, novels - dastans. In this regard, we

can mention such works as «Tahir and Zohra», «Layla and Majnun», «Malikai Dilorom» etc.

Consequently, in the poem shows Makhtumkuli deepest arguments within the artistic style of the poet and his talent. Here are evident philosophical judgment, the spirit of mysticism, appealing to the highest perfection. And in a speech Gorogly, unlike Makhtumkuli basis of the characteristics of the character, factors felt desire for combat power, movement, work, real life. It should also be noted that the emergence of dastans autobiographical poem «Kunlarim» primarily due to the inspiration and enjoyment of creativity Makhtumkuli. For this sample originally appeared in the works Makhtumkuli and folk Bakhshi, reworking it, included in the structure of the national epos, in particular, in the epics «Gorogly». All that we have considered in the analysis of the above texts. Here are a few examples showing that this tradition is rooted in folklore. In particular, this phenomenon can be seen in children's folklore. Folklorist Khamid Ruzmetov exploring children's folklore, in his article «Schitalki in childhood folklore» gives the following examples:

Literal translation:

One – pepper,

Two – snake,

Three – none,

Four – scorpion.

Literal translation:

Один – перец,

Два – змея,

Три – вздорный,

Четыре – скорпион.

It is easy to understand the symbolic meaning of the definitions given in respect of each year rhymes of a child's life. For example, «One - Pepper»: one year old child is like pepper bitter, whiny and tearful, and in two years, moving writhing like a snake (5). These concepts are introduced at a young age in the minds of

children, here for the formation of children concepts related to human life, used accessible and concise words from the children's items.

Thus, pronouncing the words with reference to the different stages of life is one of the oldest of our traditions. This tradition in the national language is determined by the words «Yoshnoma», «Yilnoma» Makhtumkuli undoubtedly get creative inspiration from them. When the poet studied at madrassas Shirgazihana in Khiva, he perfectly mastered samples of written literature, well studied folk epics. It should be noted that the autobiographical «Kunlarim» pertaining to creativity representatives Samarkand Dastan school Fazyla Yuldash and Abdulla oğlu Nurali general, it is a new phenomenon . Because data poets Bakhshi poem «Kunlarim» from the song raised the level of the autobiographical genre term (song sung narrators). Muzayyana Alaviya speaking about this kind of products, said:»based on the content and nature of the work, «Kunlarim» can be called autobiographical Dastan» (6). A scientist evaluates folklorist Askar Musakulov works like «Kunlarim» as «a song perfectly characterizes the genre term» (7), that we believe is very close to reality.

Muzayyana Alaviya, did a great job of recording and publishing the creative repertoire Fazyla Yuldash and Abdulla oğlu Shair, including works «Kunlarim» in «Abdullah Shair» notes: «Kunlarim» - is a genre of Uzbek folk poetry, who turns bakhshi at a certain age, becoming widely known among the people, presenting them in a song endured bitter experiences (6).

Term «Kunlarim» Fazyla Yuldash and Abdullah Nurali oğlu, representing individual works, consists of two parts. Here Abdullah Shair, as well as Fazil Shair in his time engaged in pastoral one rich man in the pathetic manner shows they experienced heavy, sorrowful days. Through two of these terms, we learn that valiant work of the Uzbek people in the most difficult times is one measure of its greatness.

In general, though , these two works created specified Bakhshi, similar in its compositional structure that is composed of two parts, in terms of plot are independent samples. It depicts a completely different event. The emergence and transformation of tradition in this type of works in the repertoire Bakhshi associated

with greater authority, which enjoyed the creativity of Makhtumkuli Uzbek storytellers - Bakhshi. Consequently, Makhtumkuli their creativity, in particular the poem «Kunlarim» has made a worthy contribution to the further development of both written literature and folklore .

LITERATURY

1. Kabulniyazov Djumaniyaz. (1969). Puti razvitiya uzbekskogo sovetskogo folklora. Tashkent: "Fan".
2. Garriyev Seyyid. (1967). Iz istorii vzaimootnosheniy turkmenskoy literatury s literaturoy sovetskix vostochnyx narodov. Ashxabad: "Ylm".
3. Mirzayev Tura. (1996). Sikl dastanov / Rojdenie Gyorogly. Tashkent: "Yozuvchi".
4. Sabirov Axundjan. (1967). Maxtumkuli i uzbekskie baxshi / Uzbekskoe narodnoe tvorchestvo. Tashkent: "Fan", pp.138-143.
5. Ruzmetov Xamid. Sobytiynye schitalki v uzbekskom folklore / Filologicheskie issledovaniya. 2002. 5-Tom. Urgench: "Xorezm".
6. Alaviya Muzayyana. (1956). Abdulla shair // Zvezda Vostoka. №8. pp.38-43.
7. Musakulov Askar. (1981). Formy terma i oralik v uzbekskom folklore / Uzbekskiy yazyk i literatura. № 4. pp.41-45.

TELEVIDENIYA ORQALI SPORT MASALALARINING YORITILISHI.

***Rahimjonov Lazizbek, O'zDJTSU
Sport jurnalistikasi 1-kurs magistri.
Ilmiy rahbar: dotsent I.Boltayeva***

Annotatsiya: Ijtimoiy hayotda muhim o'rin tutuvchi ommaviy axborot vositalari, xususan, televideniya, uning hozirgi zamon globallashuvi davridagi ahamiyati, bu ijtimoiy hodisa orqali sport masalalarining yoritilishi, sport jurnalistikasi va televideniyaning o'zaro hamkorligi va vazifalari haqida fikr yuritildi.

Kalit sozlar: ommaviy axborot vositalari, publisistika, televideniya, sport, sport jurnalistikasi, tasvir, tahlil, ta'sir.

Аннотация: Обсуждена важная роль средств массовой информации в общественной жизни, в частности, телевидения, его роль в современной глобализации, освещение вопросов спорта через это социальное явление, взаимодействие и задачи спортивной журналистики и телевидения.

Ключевые слова: СМИ, журналистика, телевидение, спорт, спортивная журналистика, имидж, анализ, воздействие.

Hozirgi kunda kundalik hayotimizni oynayi jahonsiz tasavvur qilolmaymiz. Texnika taraqqiyot etgan sari televideniya ham rivojlanib, mukammallashib bormoqda. Ma'lumki, ommaviy axborot vositalari orasida televideniya eng keyingisi bo'lib, mamlakatimizga uning kirib kelganiga endi bir asr bo'lib qoldi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tkazilgan chet tillarini yanada rivojlantirishga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida O'zbekistonda to'liq chet tillarida efirga uzatiladigan yangi tele va radiokanallar ishga tushirilishi haqida ma'lum qilindi. Unda Davlatimiz rahbari : "Mas'ul tashkilot rahbarlari yil yakuniga qadar xususiy sektor bilan hamkorlikda tilni o'rgatuvchi interaktiv materiallarning internet-platfomasi va mobil ilovalarini yaratib, maktab va bog'chalarda ommabop videodarslardan keng foydalanishni yo'lga qo'ysin. Keng aholi qatlamining nutq va muloqotini rivojlantirishga qaratilgan chet tillaridagi multfilm, hujjatli va badiiy filmlarni hamda eshittirishlarni ko'paytirsin. Bunga taniqli madaniyat va san'at vakillari, sportchi va blogerlarni faol jalb qilish zarur" deya ta'kidlaganlar.

Televideniya paydo bo'lishi bilan ommaviy axborot vositalari tizimida sifat o'zgarishi yuz berdi va insoniyat ijtimoiy hayot voqealarini bevosita ko'rish imkoniyatiga ega bo'ldi, ijtimoiy ong bilan ijtimoiy borliq o'rtasida eng qisqa va qulay yo'l barpo etildi, inson ongiga va his-tuyg'usiga ta'sir etishning ishonchli vositasi vujudga keldi. Televideniya garchi so'zni bosma ravishda ko'paytirmasdan ijtimoiy hayotni ovoz va tasvir vositasida aks ettirsada, u matbuotning, ommaviy axborot vositalarining bir turi hisoblanadi va uning qonun-qoidalarini asosida ish

ko'radi. Televideniya matbuotning ijtimoiy informatsiya yig'ish va tarqatish vazifasining 3 qirradi bo'lmish tasvir, tahlil va ta'sir funksiyalarini to'la bajaradi, ya'ni u hayotdagi voqea va hodisalarni tasvirlaydi, ularni tahlil qiladi, hayotga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Matbuotning umuminsoniylik, xalqchilik, milliylik, haqqoniylik va boshqa tamoyillari ham televideniye faoliyati uchun bosh qonun hisoblanadi. Matbuotning ijodiy an'analariga amal qilish va yangi omillar yaratish, jamoatchilik fikrini ifodalash va boshqa qonuniyatlari ham televideniya uchun bevosita taalluqlidir. Matbuot materiallarining o'zagini tashkil etuvchi publitsistika ham televideniye faoliyatida keng qo'llanadi va uning o'ziga xos xususiyatlari bilan birlashgan holda telepublitsistikani tashkil etadi. Televideniya ommaviy axborot vositalarining o'ziga xos, alohida bir turidir. U o'z funksiyasini bajarishda publitsistika bilan bir qatorda og'zaki nutq san'ati, adabiyot, teatr san'ati, kino, musiqa san'ati kabilardan ham keng foydalanadi. Shuning uchun ham televideniye boshqa ommaviy axborot vositalari orasida yuqori o'rinda turadi. Teleko'rsatuvlarda san'atning bu xildagi turlaridan keng foydalanish natijasida adabiyot va san'at turlari bilan mushtarak bo'lgan telenovella, teleminiatiyura, telefilm, telespektakl, telekompozitsiya va boshqa janrlar ham qo'llaniladi.

Televideniyada publitsistikaning har 3 - informatsion, tahliliy va badiiy ko'rinishlari keng xizmat qiladi. Televideniyega sport jurnalistikasining kirib borishi bilan jurnalistika yo'nalishi yanada kengaydi va televideniya faoliyati sport jurnalistikasi qonuniyatlari asosida olib borila boshladi. Telejurnalistika - jurnalistika qonun-qoidalarining televideniye imkoniyatlarining birlashmasidan iborat. Sport jurnalistikasi va televideniye xususiyatining qo'shilishi jurnalistikaning o'ziga xos jarayonini yuzaga keltirdi. Sport jurnalistikasining informatsion, tahliliy va badiiy- publitsistik janrlari televideniye xususiyatlari bilan mushtarak holda telexabar, telereportaj, telelavha, telesuhbat, telehisobot, telesharh, teleocherk, telefeleton va boshqa xillarga aylanadi. Sport mavzusiga bag'ishlangan teleko'rsatuvlar yig'indisini yuzaga keltirdi.

Sport jurnalistikasi - bu sport mavzulari va musobaqalari bilan bog'liq masalalar bo'yicha xabar beruvchi yozuv shakli. Sport jurnalistikasining paydo

bo'lishi 1800-yillarning boshlarida ijtimoiy elitaga yo'naltirilgan va maxsus sport bo'limlariga ega bo'lgan gazetalar bilan yangiliklar biznesining ajralmas qismiga aylana boshlangan davrlarga to'g'ri keladi. O'rta va quyi sinf o'rtasida sportning ommaviyligi oshib borishi nashrlarda sport mazmunining ko'proq yoritilishiga olib kelgan. Dastlab sportga bo'lgan qiziqish Sports Illustrated va ESPN kabi faqat sport ommaviy axborot vositalarida paydo bo'lgan. Texnologiya va internet asri sport jurnalistikasi maydonini tubdan o'zgartirdi.

Sport yangiliklari va sharh, sport reportaji va intervyular telekanallar orqali uzatila boshladi. Sport jurnalistikasi tizimli ravishda sport turlari va jurnalistika, internetdagi sport saytlari, sport sharhlovchisi mahorati, sport jurnalistikasida tahliliy janrlar, sportda axborot xizmatlari, sport sharhlovchisi mahorati kabi mazmun bilan boyidi.

Bugungi kunda Respublikamizda "Sport", "Futbol", "O'zbekiston", "O'zbekiston-24", "Yoshlar", "MY-5", "Mening yurtim", "Sevimli", "Zor", "Milliy", "Toshkent", "Dunyo" va boshqa TV dasturlari orqali sport xabarlarini uzatilmoqda. Yuqorida tilga olinganidek, endi O'zbekistonda to'liq chet tillarida efirga uzatiladigan yangi tele va radiokanallar ishga tushirilisa, sport xabarlarini ham bu dasturlar orqali to'liq shet tillarida efirga uzatilishi, shubhasizdir. Bu esa sport jurnalistikasi oldiga yangi vazifalar qo'yadi, biz, sport jurnalistlari uchun, o'z sohamizga mas'uliyat bilan yondashish hissinini kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizning mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 485 b.
2. Люлевич А.А. Образ спорта в отечественных СМИ: социокультурный анализ: автореф. дис. ... канд. култ. наук. – М., 2006. – 23 с.
3. Михайлов С.А., Мостов А.Г. Спортивная журналистика. – М.: Издательство Михайлова В.А., 2005. – 224 с.
4. Мураковский А. Спортивные журналисты: кто они?: учебное пособие / А.Мураковский. – М.: Абажур, 2001. - 12 с.

- 5.Олимпизм, олимпийское движение, Олимпийские игры (история и современность). – М.: Советский спорт, 2004.
- 6.G'afforov N.N. Davlat tilida ish yuritish (o'quv qo'llanma). "O'zkitobsavdonashriyoti", Chirchiq, 2021.
7. Boltayeva. I. Jismoniy tarbiya va sport atamalarining izohli lug'ati (o'quv qo'llanma). "LESSON PRESS", Toshkent, 2020 yil.
- 8.Boltayeva I., Ayxodjayeva M. O'zbek tili (o'quv qo'llanma). Toshkent, "LESSON PRESS", 2020 yil .

BARKAMOL AVLODNI AXLOQIY TARBIYALASHDA SO'FI OLLOHYORNING "SABOT UL-OJIZIN" ASARINING O'RNI

*Qo'ldosh Axmedov, TKTI Yangiyer filiali doTsenti,
Ergash Axmedov, TKTI dosenti v.b., falsafa
fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya: Maqolada buyuk mutasavvuf So'fi Ollohyor yaratgan "Sabot ul-ojizin" asarida insonlarning o'zaro to'g'ri munosabatlarda bo'lishi, bir-biriga nisbatan jabr-zulm qilmaslik, xarom-xarish ishlarga berilmaslik, sharm-hayoni yo'qotmaslik singari fazilatlarga undovchi o'gitlar, diniy rivoyatlar va Qur'on talablariga asoslangan hikoyatlar barkamol avlodni axloqiy tarbiyalash talablari negizida tahlil doirasiga tortilgan.

Kalit so'zlar: Bashar, abas, inson, nafs, xirs, tama', takabbur, jiyfa, til, qanoat.

Аннотация: В данной статье рассматриваются назидательные высказывания великого узбекского представителя суфизма Суфи Аллохьяра на примере его произведения под названием "Сабот ул-ожизин" ("Терпение праведных"). Ибо данное произведение играет огромный роль в воспитании современной молодежи на основе наставлений Корана и других религиозных притч и легенд.

Ключевые слова: Человечество, небытия, личность, желания, домагательства, коррупция, язык, благосклонность.

So‘fi Ollohyor yaratgan “Sabot ul-ojizin” asari xalqimizning sevib o‘qiladigan adabiy manbalaridan biriga aylangan. Undagi purma’no va xalqchil o‘gitlar bugungi avlod vakillarining ruhiy-ma’naviy kamoloti uchun xizmat qilishi shubhasizdir.

So‘fi Ollohyor o‘zining o‘gitlarida insoniy xususiyatlarning ijobiy va salbiy tomonlarini tasvirlay turib, har qanday ezgu ishning ham, yomon ish va xulqning ham hisobi, javobi borligini ta’kidlab o‘tadi. Jumladan:

Tilingda xalq aro tasbihi taxlil,

Va lekin botining tazvir ila xil...

Ko‘rar ko‘zga ajab so‘fiynomasan,

Nixonda nafsi itga mubtalosan. – dan ko‘rinadiki, shoir tili boshqayu dili boshqa, badnafs va makkor kishilardan jirkanadi. Jirkana turib, ularni o‘z xoliga tashlab qo‘ymaydi, balki ularni xayrli ishlar tomon hidoyat qiladi:

Bashar bo‘lsang qo‘y af’oli basharni,

Abas o‘tkarmagil isno asharni.

Ushbu baytida “bashar” so‘zi ikki marta kelsa-da, ikki xil ma’noda ishlatilyapti. Bashar – inson, bashar – nojo‘ya ishlar, yomon xulq. Abas – behuda, inso – ikkilik, ashar – hajning o‘n kuni. Demak, kimki insoniy xulqni o‘ziga singdirmas ekan, u umrining hajdagi eng savobli o‘n kunini ikki baravar ketkizganidek – behuda o‘tkazadi.

Kamtarlik, tavozelik, muloyimlik insonning eng oliyjanob xislatlari va bu musulmonchilik belgilaridandir. Takabburlik va manmanlik insonga yot:

Kel, ey nafs ochmagil ko‘z har qayona,

Yo‘q ermish e’timod ushbu zamona.

Muyassar bo‘lsa tillodin sanga taxt,

O‘zingdin pastga zinhor aymagil saxt.

Agar rutbang erur a’loyi ofoq,

Yiqilg‘on xastalarning xoliga boq

Boylik, mansabga mag'rurlanib, o'zidan past-miskinlarga kamsitish nazari bilan qarashni qoralaydi.

Agarchi ul oyog' ostidadur xor,
Xudo maxluqidir og'ritma zinhor.
Takabbur qilmag'il ey bema'oniy,
Fuloniy o'g'lidurman deb fuloniy.

So'fi Ollohyor qattiq qoralagan inson tabiatidagi jirkanch xislatlardan biri ota-bobosi, nasl-nasabini pesh qilib, manmanlik bilan "men faloniy o'g'liman, faloniy nasabidanman" deb faxirlanishdir. Shoir, o'zidan kuchsiz yoki nochorlarni ozor berish, o'zining kuchiga, davlati, vazifasi yoki imkoniga qarab kishilarni kamsitishni qoralash bilan birga Alloh nazdida hammamiz ham bir ekanligimizni unutmaslikka chorlaydi.

Nafs balosi kishida xirsu havoni ko'paytiradi, g'ururni ketkizadi, kishini tama'gir va nokas qilib qo'yadi. Shoir tama'dan tiyilishni maslahat beradi:

Kel, ey ozoda, bo'l ximmat bilan yor,
Tama' zindoniga bo'lma giriftor.
Bir igna bo'lmasa dunyo ishidin,
Qil, istig'no tama' qilma kishidin.
Yoki:

Tama'lik siyladi behdur silingan,
Tilangondin erur ortuq tiling'on.

Yuqoridagi baytdan ko'rinadiki birovning tama' bilan siylashini qoralash bilan birga, tilab olingandan ko'ra tiling'on yaxshi deb uqtiradi.

Shoir kishilarni takabburlikdan parhez qilishga chaqirar ekan, tama'girchilikni kishi xulqidagi eng jirkanch xususiyat deb biladi. Chunki kishi tama'ga giriftor bo'lsa, samimiyat ketadi, har qanday ezgulik o'z hisob-kitobi evaziga bajariladi. Bir so'z bilan aytganda tama'girchilik kishini asta-sekin odamiylikdan chiqaradi, xox do'sti bo'lsin, xox begona undan foyda kelsagina muomila qiladi. Hamma narsani faqat foyda va kirim bilan asoslashga o'rganib

qoladi. Natijada xalq nazaridan qolib, obro‘-yu e’tiborni yo‘qotadi. Tama’girda himmat, mardlik bo‘lmaydi.

Takabbur bilan tavozeni bir-biriga taqqoslar ekan kishi fe’lidagi bu xislatlarni qay darajada ekanligini chiroyli chizg‘ilar bilan beradi.

Agarchi bo‘lsang ahli ilm zuxxod,
Takabbur qilmagil, aslingni qil yod.
Takabbur aylamoq Shayton fi’oli,
Yig‘ivu zoridur odamni xoli.

Yuqoridagi baytlarni olib qarasak, shoir kishi qancha ilimli, toat ibodatli zoxid bo‘lsa ham aslini, ya’ni bir musht tuproq ekanligini eslatadi. Takabburlik esa Azozildek buyuk bir mudarrisni tavqi la’natga giriftor qilganini uqtiradi:

Riyozat birla ham ochsang ko‘zingni,
Azozildek ulug‘ tutma o‘zingni.
Agar yorning yuziga aylasang dars,
Takabbur bo‘lmagil, bo‘lgil xudotars.

Tavozelik kishini mevali daraxtga, manmanni esa samarsiz terakka o‘xshatadi:

Tavozeli bo‘lib tutgil o‘zing kam,
Shajarkim, mevali bo‘lsa bo‘lur ham.
Terakkim, ul ko‘tardi yuqori bosh,
Samarsiz bo‘ldi ko‘rdungmi ani fosh?

So‘fi Oллоhyor xaromdan xazar qilishni, agarchi arzimas bo‘lsada u toatni, iymonni buzishni ta’kidlaydi. Xarom luqma zaxar-zaqqumdan battar ekanligini uqtiradi.:

Libosida xarom og‘ishta bo‘lsa,
O‘shal og‘ishtasi bir rishta bo‘lsa.
O‘shal tun birla o‘tkazgon namozi,
Qabul ermas dedi ul Faxri Roziy.
Agar bo‘lsa xarom luqmai shum,
Ani ne’mat dema, de zaxri zaqqum.

Dunyoga xirs qo‘ygan, molparastlarni qoralab turib, xarom topilgan mol-mulkni najosat, jiyfa (o‘limtik) deb ataydi. Xarislikni ko‘p mol yig‘ish bilan emas, balki dunyoga (boylikka) ko‘ngil berish bilan baholaydi.

Qolibsan tanga deb ahvoli tanga,
Mashaqqatlar boshingda ranga-ranga.
Yugurma jiyfa ko‘b yig‘moqqa yil-oy,
Bo‘lay boy deb, bisoting bermagil boy.
Yaqin bilgin shuni, ey sohibi xol,
Xaris ermas ziyod etgon bila mol.
Xaris uldur agar dunyoyi foni,
Yig‘ay desa muhabbat birla oni.

Shoir nafsni shumni ilonga o‘xshatadi, semirgan sari shiddat olib, butun dunyoni yutishga chog‘lanadi deb ishontiradi:

Yilonni asrading necha yil oni,
Ulug‘ bo‘lg‘on sori o‘sti ziyoni.
O‘tibdur qo‘l bilan bo‘ynin tutardin,
Xatardur kuch qilib boshing yutardin.
Erur xaloki bobi tavba maftux,
Yomon nafsingni qilgil tobei rux.

Darhaqiqat, nafs o‘z vaqtida jilovlanib, ruxga tobe bo‘lmas ekan u xatarli ajdahoga aylanadi. Demak nafs seni qul qilib olmasdan burunoq sen nafsni jilovlab olsang, ko‘pgina gunohlarning oldini olgan bo‘lasan.

Hazrati Naqshband “Nafsi xudro ba badi shinoxtan, xud shinoxtan ast” deb bekor aytmaganlar. Nafs barcha gunohlarning ibtidosidir.

“Sabot ul – ojizin” asarida qattiq qoralangan yana bir illat xiyonat, kazzoblik va dilozorlikdir:

Kel, ey komil, kamol etsang diyonat,
Kishiga qilmagil hargiz xiyonat.
Xiyonatkim, erur paydo ko‘ngildin,
Nakim tushsa ko‘ngilga yoki ko‘z unga,

Ravo ko‘rmasang ul ishni o‘zunga.

Ravo ko‘rmasang musulmonga oni,

Muni derlar xiyonatni yomoni.

Yuqoridagi parchani e’tibor bilan tadqiq qilsak, kishilarni xiyonatdan yiroq bo‘lishga hidoyat qilish bilan birga “O‘zingga ravo ko‘rmagan ishni o‘zga mo‘minga ham ravo ko‘rma” degan hadisning ma’nosini ham singdirib yuborganini ko‘ramiz.

Albatta barcha dilozorlik tildan va yomon oqibatli qiliqlardan keladi. Shoir tilga, so‘zlash odobiga qattiq rioya qilish lozimligini uqtiradi, aks holda o‘zini xor qilishga ham sabab bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi:

Dema, harfiki bo‘lsa bema’oniy,

Agar til zaxrli bo‘lsa til oni.

Kalidi ganji ma’nikim zabondur.

Anga bir nuqta ko‘b bo‘lsa ziyondur.

Ba har joye tilingni saqla zinhor,

Kishi tilni yomondin bo‘lur xor.

Shoir til zaxri va zari mundarijasini kengaytirib, undan isyonlar yuz berishi, hattoki ikki dunyongga xatar yetib iymoning xatarda qolishi mumkinligidan xabardor qiladi:

Yomon til ikki olamda zarardur,

Gahe isyon, gahe xavf xatardur.

Yomon til shumligini jonga urgay,

Gahe jondin o‘tib iymonga urgay.

Til–so‘zlash vositasi, kishilik jamiyatidagi o‘zaro yaxshi–yomon muomilalarning amalga oshishida vositachilik vazifasini bajaradi. Demak, so‘zlash odobi, tilning chuchukligi, so‘zning o‘z o‘rnida va ma’noli qilib ishlatilishi katta ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi va shunga chorlaydi:

Musulmon o‘g‘liga yaxshi qiliq qil,

Tilingni xush, chiroyingni iliq qil.

Og‘izdin soch yerinda durri ma’ni,

Agar bo'lmasa xomush ayla ya'ni.

So'fi Oллоhуor tolibi haq bo'lmoqlikning asosiy shartlaridan biri jahon savdosidan mosivo bo'lmoq deb biladi, ya'ni havoyu havasga yon bosish, tavba va pushaymonlik yo'lini bog'laydi, qanoatni barbod etadi. Natijada noshukrlik va kufr ishlar baydo bo'ladi:

Jasad qolmasdin ilgori nafasdin,
Havo ko'p qilmagil kechgil xavasdin.
Dari tavba ochiqda ista maqsud,
Ish o'tgan so'ng pushaymondin nachuk sud.
Nadur tavba demoq yonmoq gunohdin,
Tuzuk yo'lga yurumak o'zga roxdin.
Qanoatlik bayonida aytadi:
Agar chandaki bo'lsang bebizoat,
Sulaymonsan agar qilsang qanoat.
Qanoatdur ko'ngillarning safosi,
Qanoat barcha illatlarning shifosi.
Qanoatkim tabibi har kasaldur,
Qanoat ahliga og'u asaldur.

Shoirning bunday aysh-ishratdan voz kechib, boriga qanoat qilib, qazoga rozi bo'lishga undashi asosida tarkidunyochilik yoki ishyoqmaslik emas, balki u xaromdan topilgan mol-dunyodan, minnatli aysh-ishratdan, tama' va noshar'iy yo'l bilan topilgan boylikdan jirkanish yotadi. Xarna topilsa mehnat bilan erishish lozimligini uqtiradi, topilgan ne'matga shukr qilishni o'rgatadi:

Agar shukr etmasa Haq ne'matiga,
Qachon loiq bo'lur banda otiga.
Minnatli boylik haqida esa quyidagicha yozadi:
Agar boshi bilan chox qazsa banda,
Ko'zini yoshiga suv topsa anda.
Vagar qazsa ariq kiprik bila mard,
Anga bir xushaye ju qilsa parvard.

Bu mehnat birla topsang parchai non,
Kishini minnatidan uldur oson.

O‘z asarida shoir mansabdorlikdan ham saqlanishga maslahat berib, qanoatni yana bir marta madh etadi:

Bu dunyodin agar o‘tsang quruq lab,
Ko‘ngulga olma hargiz yodi mansab.
O‘tar dunyoda har kim bo‘lsa dinlik,
Bilur mansabdin ortuq xo‘sha chinlik.

Shoir boshqoq terib umr o‘tkazishni mansabdor bo‘lishdan afzal biladi.

Xulosa qilib aytganda So‘fi Oллоhyorning “Sabot ul-ojizin” asarini chuqurroq tahlil va tadqiq etsa, har bir bayon va hikoyada axloqiy tarbiyaga daxldor o‘git, rivoyat yoki ogohlantirishni ko‘ramiz. Dinga, iymonga va kishilik jamiyatiga sobit qadam bo‘lishga oid chaqiriq va otashin xitoblarni topamiz. Muqaddas kitoblardan keltirilgan oyat va xadislarning ma‘nosini o‘qiymiz. Asarni batafsil o‘rgangan o‘quvchi, o‘z hayot yo‘lini bir karra ko‘zdan kechirishga, diniy, axloqiy va insoniy nuqtai nazardan turib baho berishga majbur bo‘ladi. Bu asar shunday bir chamanzorki, undagi har bir gulning o‘ziga xos bo‘yi, zavqi va xayratga soluvchi asrorlari bor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. So‘fi Oллоhyor. Sabot ul-ojizin. Toshkent. “O‘zbekiston” nashriyoti. 1990.
2. Niyozov G., Ahmedov Q., Tojiboyev Q. Sharq allomalari va mutafakkirlari ta’lim-tarbiya haqida. T., “O‘zbekiston” nashriyoti. 2010.
3. Abdullayev I. Mab dai nur. Namangan. 1994.

TABAQALASHTIRILGAN ADABIY TA’LIM: SHARHLAB O‘QISH VA MOHIYATNI ANGLASH MUAMMOSI

Shermatova Umida Sapayevna,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti
O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi dotsenti

Adabiyot mashg'ulotlarida har qanday badiiy asar izohi sharhlanishi bilan amalga oshiriladi. O'qituvchining sharhli o'qishi – bu asarning ma'lum qismini ovoz chiqarib o'qishda uning bevosita mazmunini chuqur izohlab berishi bilan izohlanadi.

Sharhlab o'qishning metodik asoslari rus oimlari M.A.Ribnikova, G.I.Shneyerson, I.N.Stirkas, o'zbek olimlari S.Dolimov, A.Zunnunov, Q.Yo'ldoshevlarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan.

Asar mazmuni yuzasidan sharhlar matn o'qilishadan avval, o'qish davomida, o'qishdan so'ng berilishi mumkin. Sharhlab o'qish samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchining tayyorgarligi darajasiga bog'liq. Metodist olim I.N.Stirkas tavsiya etgan sharhlab o'qishga tayyorgarlik quyidagi ishlarni amalga oshirishni nazarda tutadi:

- sharhlab o'qish maqsadini aniqlash;
- sharhlash uchun materialni belgilash;
- jumlar, savollar, kengaytirilgan izoh shaklida sharhlar ifodasini shakllantirish;
- sharhlab o'qish maqsadiga mos savol va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish.

Sharhlab o'qishda kerakli materialni tanlab, ajratib olish, ma'no tushunarsiz so'z va jumalarning aniq izohini topish o'qituvchi uchun qiyinchilik tug'diradi. Sharhlash uchun ajratilgan materialni tanlashda muallif g'oyasi, asarning tub mohiyati aks etgan o'rinlarga e'tibor qaratish tavsiya etiladi. Darsni shu tarzda tashkil etish birinchi soatdayoq o'qituvchiga o'quvchilar bilan birgalikda asar bilan bog'liq bir qator muammolar yechimini topish imkonini beradi.

Dars maqsadlaridan kelib chiqqan holda sharhlashning rivojlantiruvchi, chuqur bilim beruvchi, umumlashtiruvchi kabi turlari qo'llanadi.

Rivojlantiruvchi sharhlash badiiy matnni anglash yo'llarini osonlashtiradi.

Chuqur bilim beruvchi sharhlash o'quvchilar bilimini yangi ilmiy dalillar bilan chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Umumlashtiruvchi sharhlashdan umumiy xulosa chiqarish, taqqoslash va qiyoslash vositasida xulosalash maqsadida foydalaniladi.

Metodikada badiiy matn ustida ishlash jarayonida sharhlashning quyidagi turlari farqlanadi:

- *lingvistik* (tushunarsiz soʻz va iboralarni izohlash);
- *tarixiy-maishiy* (tarixiy voqealar va faktlar bilan tanishtirish, ism va voqea, joy nomlarini izohlash, maishiy va etnografik maʼlumotlar berish);
- *tarixiy-adabiy* (davr va adabiy oqimlarni tavsiflash);
- *gʻoyaviy-uslubiy* (asarning obrazli, gʻoyaviy tizimini aniqlash).

Asarni sharhlab oʻqishdan oldin oʻquvchilarning asar mazmunini anglashga qaratilgan emotsional tayyorgarligi talab etiladi.

Mutolaa jarayonida gʻoyaviy-badiiy munosabatga daxldor asar detallari oʻqituvchining qisqa remarka shaklidagi sharhlari berib boriladi.

Oʻqilgan maʼlum epizod, asar parchasi yuzasidan beriladigan mufassal sharhlar muallif gʻoyasi va uni ifodalashga xizmat qilgan badiiy tasvir vositalariga qaratilgan boʻladi.

Quyida sharhlab oʻqish metodi asosida Erkin Vohidovning “Ruhlar isyoni” dostonini oʻqitish mashgʻulotini tashkil etish usulini yoritamiz.

Badiiy materialni ajratib olishda quyidagi yoʻnalishlar belgilanishi mumkin

Адолат мавзуси;

Юрт озодлиги мавзуси;

Абадият мавзуси;

Инсон қадри мавзуси.

“Ruhlar isyoni” dostonida muallif yurt ozodligi mavzusini yoritar ekan voqealar rivojini uch davrga ajratatib tasvirlaydi: birinchi – Nazrul Islomning betashvish voyaga yetish davri; ikkinchi – gʻalayon (hindu va musulmonlar toʻqnashuvi) davri; uchinchi – yurt istiqlolini Nazrul Islomning anglay olmasligi (jismi yerda, ruhi esa osmonda)

Mazkur uch bosqichga mos ravishda oʻqituvchi darsni uch bosqichda tashkil etadi.

Birinchi bosqichda o‘quvchilar faoliyatga tayyorlanish jarayonida asarning birinchi faslini o‘qib chiqishadi. Ma’lum guruh o‘quvchilariga qaram mamlakatning ayanchli ahvoli yoritilgan joylarni topish va uni ifodali o‘qishga tayyorlanish topshirig‘i beriladi. Ikkinchi guruh “Ozodlik uchun kurash” mavzusida hikoya tuzadi. Uchinchi guruh “Hurlik diyori” mavzusida hikoyaning yozma matnini tuzadi.

Mashg‘ulot davomida asarning alohida ikkinchi faslidagi

Aslida-ku

Beiztirob

Ho‘plab qora qahvoni,

Derazadan oq tan janob

Kuzatar mojaroni ...misralari bilan boshlanuvchi parchalar ifodali o‘qitiladi.

O‘qilganlar yuzasidan muhokama o‘qituvchining quyidagi savollari asosida boshlanadi:

- 1.Hindu va musulmon xalqlarining qanday umumiy jihatlari mavjud? (Ularning umumiy jihatlari Hindiston ularning yagona vatani ekanligidadir)
- 2.Shoir oq tan janob deganda kimlarni nazarda tutgan? (Buyuk Britaniya bosqinchilarini nazarda tutgan)
- 3.Xalq jaholatining asosiy omili nimadan deb o‘ylaysiz? (Xalq jaholatining asosiy omili ilmsizlikdan, dunyoqarashning torligidan, to‘g‘ri fikrlay olmaslikdandir)

O‘qituvchi o‘quvchilar diqqatini Aslida-ku...Beiztirob. Ho‘plab qora qahvoni...misralarga qaratib, ularni sharhlab beradi.

I	G‘alayon (hindu va musulmonlar to‘qnashuvi)	
2 fasl	Muallif matni	O‘qituvchi sharhi
	Aslida-ku... Beiztirob Ho‘plab qora qahvoni, Derazadan oq tan janob Kuzatar mojaroni. U ko‘p xursand, Labda kulgu, Ko‘zi chaqnar komiron. Musulmonni yanchar hindu,	Mazkur parchada Hindistonga qora niyatda kelib, ikki xalqning asrlig kin va adovatini qo‘zg‘ab o‘zi bir chekkada qahva ichib g‘alayonni kuzatayotgan ingliz mustamlakachilari tasvirlangan. Shoir ular oq tan janob deb tilga olgan. Ular ikki xalqni

	Hindni esa musulmon. Janob shodon, Ushalmoqda Niyatning eng ulug‘i. Hosil berdi shu tuproqda Ekkan nifoq urug‘i. Bo‘lmasin, deb qilar orzu, Bu nizoga hech poyon. Mayli, Ko‘proq o‘lsin hindu, Ko‘p qirilsin musulmon.	urishtirib, o‘zi bir chekkada kuzatib o‘tiradi, xalq holdan toygach, ularni bosib olish oson bo‘lishini o‘ylab shu ishlarni amalga oshirishganligi tarixdan ayon bo‘lgan.
	Nazrul Islom nomi oxir Ming baloga taqaldi. El uchun Jon tikkan shoir El dushmani ataldi. Hukm o‘qildi. Bosh egib u Asta borar hibs tomon. Ajab! Aybnomani tinglang, hatto – Soqchi – bir yon hindu, Bir yon esa musulmon. Uni turtar musulmon ham, Qutqu solgan – shul odam!» Siltalar hind havoldor.	Ingliz mustamlakachilari ayyorlik bilan ish tutib, g‘alayonning bosh sababchisi qilib ozodlik kurashchisi Nazrul Islomni ko‘rsatishgan. Muallif istehzo bilan Nazrul Islomning qamoqqa olinishini bir yon hindu, bir yonda musulmon deb tasvirlashidan maqsad ikki tomonning-da haqiqiy dushmanning kimligini anglamasligini ko‘rsatib berish bo‘lgan.

Ikkinchi fasl yuzasidan olib borilgan ishlardan so‘ng o‘qituvchi o‘quvchilarga “Ozodlik uchun kurash” mavzusidagi hikoyani taqdim qilishni taklifini kiritadi. Bu faoliyat vositasida “Yurt ozodligi” mavzusida o‘qilgan ikkinchi fasl mazmunini o‘ziga hos xulosasi yasaladi.

Mashg‘ulotning ikkinchi bosqichida o‘qituvchi hal qiluvchi rolni o‘taydi. U uchinchi faslidagi ozodlik uchun kurash voqealari aks etgan o‘rinlarni sharhlab beradi.

II	Hurlik diyori	
5 fasl	Muallif matni	O‘qituvchi sharhi
	Shoirini qo‘ymay – Qo‘lda – El ko‘tarib eltardi. Na quvonar Shoir bundan Va na parvo etardi. Bir yonidan quchar hindu,	Xalqning ongi o‘sib, ozodlikka erishgach o‘z shoirini tutqunlikdan chiqarib oladi, lekin endi kech bo‘lgan buyuk shoir hushidan ayrilgan, faqat jismiga bor edi. Muallif uni mustaqillik

	Bir yonidan musulmon. Ammo Hushdan ayrilgan u, Unga yotdir bu jahon. Tabriklaydi Uni Tokur, «Ozodliging muborak!» Ro‘znomalar qutlov yozur. Bular unga ne kerak? U na uyg‘oq Va na uxlar, Hissiz boqib turardi.	bilan hatto buyuk hind yozuvchisi Robindranat Tokur ham tabriklaganligini e’tirof etgan.
	«Shoirlik – yurakda qon – Silqib turgan jarohat. Tilamasman senga, o‘g‘lon. Osuda baxt, Farog‘at. Tilamasman bir zum orom, To tiriksan, Bedor bo‘l. Azob bersin senga ilhom, She’r dardida bemor bo‘l.	Shoir bu misralarda Nazrul Islom obrazi vositasida o‘ziga murojaat qilgan. Murojaatida haqiqiy shoir el dardida doim bedor bo‘lishi, she’r shunchaki ko‘ngilxushlik uchun emas, u dard bilan tug‘ilishini bayon etgan.

Mashg‘ulotning uchinchi bosqichi o‘qituvchining “Hind xalqining ozodlik harakati nima sababdan muvaffaqiyatsizlikka uchradi?” shaklida tuzilgan savoli bilan boshlanadi. Savolning javobi bir o‘quvchining Nazrul Islom boshchiligidagi ozodlik harakati haqidagi hikoyasi tarzida bo‘lishi mumkin.

O‘qituvchi o‘quvchilar diqqatini shoir urushning ayanchli oqibatlarini tasvirlagan o‘rinlarga qaratadi. O‘quvchilar asarning beshinchi faslini mustaqil o‘qib chiqadilar.

Muhokama so‘ngida uchinchi guruhning “Hurlik diyori” mavzusidagi hikoyasi bilan xulosalash tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Axmedova L.T., Kon O.V. Metodika prepodavaniya literaturi. T.: Natsionalnoye obshestvo filosofov Uzbekistana, 2009.
- 2.Shermatova U.S. STRATEGIC EDUCATION IS AN IMPORTANT FACTOR IN UNDERSTANDING THE ESSENCE // Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal 5-10-2022

ШЕЪРИЯТ ВА БАДИИЙ НАФОСАТ ТАЛҚИНИ

*Райхонова Мухайё Мухаммадиевна,
Филология фанлари бўйича фалсафа доктори
Қарши давлат университети
m.rayxonova @bk.ru*

Аннотация: Мазкур мақола Абдулла Орипов ижодининг бадийлик мезонлари унинг адабиётимиздаги ўзига хос шеърятини таҳлил этаган. Абдулла Ориповнинг индивидуал услуби, у яратган образлар тизими, дунё талқини, Ватан талқини, одам ва оламга дахлдор, бир иқтидорли шоирнинг бошидан кечган воқеликни, қалбидаги нозик инсоний туйғуларини ўзига хос услубда ифода қилиш жараёни акс этган. Шоирнинг ҳозирги давр ўзбек шеърятида инсон қалбидаги мураккаблик, зиддиятлар, ҳақ-ноҳақликларни, адолат, разолатни теран ва ҳаққоний, айниқса ўзига хос бетакрор қуйлаганлиги шарҳланган.

Калит сўзлар: Глобал, мезон, ўлчов, кечинма, ижод, поэтик тафаккур, миллийлик руҳи, бадий-эстетик пафос.

Улкан сўз санъаткори, нодир истедод эгаси Абдулла Ориповнинг бетакрор ижоди теран фалсафий мушоҳадалари, миллий руҳи ва ҳаётийлиги билан ўзбек адабиёти хазинасидан муносиб ўрин олди.

Ўзбек халқининг юксак маънавий-ахлоқий фазилатларини ўз ташвишидек бадий таъсирчан бўёқларда бетакрор тасвирлашга эришади. Шундай вазиятлар бўладик, бутун дунё ташвишини ўйлайди, ўзи мансуб бутун бир халқ ғам-ташвишларини “тоғдай оғир юкни” зиммасига олиб, “Қушдай енгил бўлиб юради шоир”. Табиийки, бу шоир қисмати. Бу ҳам Абдулла Ориповнинг ижодкорлик тақдиридир. Шоир руҳан, маънан, жисман ўзини бунёд этган халқ билан, киндик қони тўкилган Ватан билан бирга ҳис этади. Ортиқча сўзамоллик, ноўрин ғийбату машмашалар унга ортиқча.

Ахир унинг билан гуллагай очун,

Ахир унинг билан умрлар шоён.

Фақат савоб борки жаҳон бус-бутун,

Фақат савоб борки азиздир Инсон. [2-жилд 26-бет]

Инсоният дунё ташвишлари деб, била туриб, тўғри ва нотўғри йўлдан юради. Ижобий ва салбийлик инсониятга хос. Шоир инсонларни шу фазилят ва нуқсонлар холи бўлишга чақира

О,кибор туйғулар,эзгулик,виждон...

Булар ҳаётдаги мавжуд бир ишдир

Ўзингни осмонда санама, Инсон,

Сени енгадиган ...майда ташвишдир. [263-бет Танланган асарлар]

У ҳозирги давр ўзбек шеъриятида инсон қалбидаги мураккаблик, зиддиятлар, ҳақ-ноҳақликларни, адолат, разолатни теран ва ҳаққоний, айниқса ўзига хос бетакрор куйлаган ижодкордир.

Абдулла Ориповнинг ижоди таг-томиригача миллийлик руҳи билан суғорилган. Бу миллийлик маҳдудлик, биқиқлик, фақат ўзинигина ўйлаб, ўзгаларни менсимаслик ёхуд ҳақорат қилиш асосига қурилган эмас. Бу миллийлик замирида ўзбекона бағри кенглик, тантилик, олижаноблик ва инсониятнинг бахт-саодатига, меҳр-мурувватига бўлган куюнчаклик ҳиссининг уйғунлиги ётади.

Инсон қалбини гўзаллаштириш, инсонни комил кўриш, “эртанинг ташвиши” – шоирнинг бош ташвишидир. Шоир англаб етган ҳикмат шуки, ўтмиш турфа хил, бугун ўтиб бормоқда. XX аср ўзбек адабиёти қаҳрамонларининг олами Абдулла Орипов шеъриятидаги лирик қаҳрамонлар ҳисобига янада бойиди ва ривож топди. Бу қаҳрамонларда уларни яратган муаллифнинг руҳий-маънавий қиёфаси, тафаккури ва идроки, дунёқараши ва тарбия топган муҳити, орттирган билимлари салмоғи ҳамда ўзига хос алоҳида шахс сифатидаги ўзлиги белгиларининг жамул-жами сифатида намоён бўлади.

Қанча диёрларда сайр этиб юрдим ,

Қанча манзилларда туздим ошён.

Ва буюк ҳикматга ахир юз бурдим.

Сийланган жойида азиздир Инсон.[1-Жилд 283-бет]

“Бадий асар бизнинг кўз олдимизга рух ва эркининг олий манфаатларини намоён этиши зарур”. Абдулла Ориповнинг бой ижодий мероси ўзининг теран мазмундорлиги, ниҳоятда серкирралиги билан ажралиб туради. Шоир шеърларида инсон бу дунёнинг гултожи эканлиги куйланади.

Абдулла Орипов шеърларида шахс ва жамият руҳияти, олам ва одам ғам-ташвишлари, орзу-умидлари, бахт-саодати куйланади. Шу боисдан ҳам шоир асарларида эзгулик, адолат, гўзаллик сингари умуминсоний қадриятлар талқини асосий ўрин тутди. Шоир ўз истеъдодини миллат ва Ватан манфаатлари учун хизмат қилишга қаратади. Хусусан, инсонсеварлик, ватанпарварлик ғоялари ўзаро муштарақликда шоир ижодиётининг негизини ташкил этади. Зеро, Абдулла Орипов шеърляти она халқи ва Ватанига бўлган оташин муҳаббатнинг ёрқин кўринишидир. Ушбу жараёнда халқона поэтик тафаккур, миллийлик руҳи бадий-эстетик пафос сифатида бўй кўрсатади. Бунинг замирида инсонга муҳаббат – инсонпарварлик туйғулари ётади. Зеро, Абдулла Орипов шеърлятида, барча буюк адиблар ижодида бўлгани каби, миллий ва умуминсоний қадриятлар уйғунлашиб, яхлит бир бутунликни ташкил этади.

Халқ дардини бадий талқин этган асарлар миллатнинг юксак маънавий салоҳиятини ўзида мужассамлаштиради; миллий ва умумбашарий қадриятларни эъозлаш, ҳимоя қилиш ва улуғлаш йўлида курашишга илҳомлантиради. Рус адиби А.Островский таъкидлаганидек, “... халқ ёзувчиси бўлиш учун халқни яхши билиш керак. Шу халқ билан чамбарчас боғланган бўлиши, узвий бирлашиб кетиши керак. Ўз элини ўрганиш-билиш бадий талант учун энг яхши мактабдир. Уни бадий акс эттириш эса ижодий фаолият учун энг яхши майдондир”. Шоир инсон руҳи ва вужудини ларзага соладиган туйғуларни қаламга олди. Унинг шодлиг-у қувончини, ғам-у ташвишини ўз шеърларида акс эттирди. Шоирнинг меҳр-муҳаббати, халқининг забун аҳволи учун инграётгани яққол кўзга ташланади. Мисралар моҳиятига жам бўлган зидлов, туйғуларнинг ўзаро қаршиланишида майдонга келган фалсафий

мазмун ва оҳанг шоир тафаккур тарзининг ўзига хос сифат даражаларини, миллий руҳ қувватини кўрсатади. Зеро, бу ҳолат бадиий матннинг барча қатламларига ҳаёт бағишловчи бадиий-эстетик тафаккур табиатидан келиб чиқади. Бу эса, ўз-ўзидан миллий руҳ ва онг-шуур орқали зоҳир бўладиган миллий маънавиятнинг бадиий асар жисмига нечоғлик сингдириб юборилганига дахлдор ҳодиса. Миллий руҳ деганда маълум бир миллатга хос маънавий-ахлоқий маданият белгилари: инсоф, ҳалоллик, ҳақгўйлик, орият, вафо, ор-номус каби эзгу ҳислат-фазилатлар кўзда тутилади. Эзгулик, адолат, гўзаллик сингари башарий қадриятларни ўрганиш ва баҳолашдаги миллат ва Ватан манфаатлари бадиий тафаккур табиатига ўрнашган бўлади. Демак, бадиий асардаги миллий руҳ - ижодкорнинг халқ билан алоқаси, халқ оммасининг ҳаёти, кураши, ғоялари, ҳиссиёти ва интилишлари, манфаатлари ва мақсадларининг адабиётдаги поэтик ифодасидир. Ўзига хос хусусиятларга эга бўлган халқона поэтик тафаккур ва миллий маънавият тушунчалари ўзаро узвий яхлитликка эга бўлган тушунчалардир. “Шахс ва миллат руҳияти маънавият билан туташ бўлиб, асосий фарқларидан бири – руҳият мураккаб воқелик сифатида ўзида ҳам раҳмоний, ҳам шайтоний ҳислатларни, ҳам фазилат, ҳам қусурларни, ҳам табиий, ирсий, ҳам атроф-муҳит таъсиридаги ҳолатларни акс эттирса, маънавият шахснинг, миллатнинг инсоний фазилатларини, унинг қалбидаги илоҳий нур инъикосини намоён қилади” Демак, ижодкор талқинида икки ёқлама зиддиятли табиатга эга бўлган руҳият ва маънавият тушунчалари бир вақтнинг ўзида бир-бирини тақозо қилади: яна инкор ҳам этувчи ҳодисалар сифатида бадиий аҳамият касб этади.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, ўзбек шеъриятида фалсафийлик устуворлик қилади. Абдулла Орипов ижоди орқали ўқувчи қалби тарбияланади. Инсон қалби ва унинг инжа туйғулари шоир ижоди орқали камол топади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

- 1.Абдулла Орипов. Танланган асарлар. Тўрт жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – Б.62.
- 2.Абдулла Орипов. Танланган асарлар. Тўрт жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – Б.62.
3. Островский А. Русские писатели о литературном труде. – Л., 1954. – С.558.
- 4.Гегель Г.В.Ф. Сочинения. Т.ХII. – М., 1938. – С.286.
- 5.Имомназаров М. Миллий маънавиятимиз назариясига чизгилар. – Тошкент: Шарқ, 1998. – Б.168.

“DUNYONING ISHLARI” QISSASIDA DIALEKTIZMLARNING QO‘LLANILISHI

*A.Shofqorov, TVCHDPI O‘zbek tilshunosligi
kafedراسi dotsenti, f.f.n., S. Omonova, TVCHDPI
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy asarda qo‘llangan dialektizmar, ularning semantik va stilistik xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, badiiy asardagi fonetik, morfologik, leksik o‘ziga xosligi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: dialekt, dialektizm, fonetik o‘ziga xoslik, morfologik o‘ziga xoslik, leksik o‘ziga xoslik, semantika, stilistika.

Аннотация: В данной статье рассматриваются диалектики, используемые в художественном произведении, их смысловые и стилистические особенности. Также выделены фонетические, морфологические и лексические особенности художественного произведения.

Ключевые слова: диалект, диалектизм, фонетическая идентичность, морфологическая идентичность, лексическая идентичность, семантика, стилистика.

Adabiyot inson ongini boyituvchi, oziqlantiruvchi buyuk kuchdir. Mana shu kuchning manbai, obykti bu – so‘z. Adabiyotda so‘z va jumlar orqali go‘zal va ta’sirchan asarlar yaratiladi. Bu asarlar jozibasini xalqimiz tili – sheva so‘zlar tashkil

etadi. Dialektlar uzoq o'tmishdan xalqimiz ongi va shuuriga singib ketgan lison va tushunchalardir.

Badiiy adabiyotda dialektizmlardan o'rinli foydalanish asarning xalqchilligini oshirishga yordam beradi. Dialektizmlar asar tilini boyitishda, voqelikni haqqoniy tasvirlashda personajlarning individual nutqini yaratishda yozuvchi uchun yaxshi manba vazifasini o'taydi.

Dialektizmlarning badiiy asar tilida me'yorida qo'llanilishi asarning estetik qimmatini va ta'sir kuchini oshiradi va asar tilining ravonligini ta'minlaydi. Shuningdek, ular nutqiy ekspressivlikning, ifodaviylikning ham manbai bo'la oladi.

Dialektal so'zlarning badiiy asarlarda qo'llanishi birinchidan, yozuvchi mahoratini ko'rsatsa, ikkinchidan, badiiy asarning boyligini, badiiyligini, shuning bilan milliy koloritni ham ochib beradi.

Dialektizmlar yordamida muallif qahramon obrazini yaratadi, xalqning milliy xususiyatini tasvirlab beradi. turli uslubiy vazifalarni bajaradi, hodisa va predmetlarning xususiyatini haqqoniy, to'g'ri tasvirlashga yordam beradi.

Mana shunday buyuk mahorat sohibi O'tkir Hoshimov ham asarlarida dialektal so'z va jumalarga murojaat qilgan. Yozuvchi badiiy asarning ta'sirchanligini oshirish maqsadida ham shevaga xos so'zlardan ustalik bilan foydalangan. Ana shunday asarlardan biri "Dunyoning ishlari" qissasi hisoblanadi. Asarda dialektizmlar mahorat bilan qo'llangan.

- Yozuvchi bo'psan, gazetda ishlavotsan deb eshitdim, shu rostmi? –dedi Naim sartarosh mening qobiliyatimni chamalab ko'rmoqchi bo'lganday, boshdan oyoq bir sidra qarab chiqdi.

- Ha shunaqa, -dedim bosh silkib.

- Bu diyman, uka, gazetlaringga bizniyam yozsa bo'lavuradimi? Yo "ohoni" bormi?

Olim paravoz bilan Hakim naynov davlatga xizmat qilgan bo'lsa, bizziyam o'tqazib qo'ygan joyimiz bor. Bular Moskovga borgan bo'lsa manam borganman. Ularni ko'tar-ko'tar qilasanlaru mani yozmaysanlar, shunaqami? Mani suyanchig'im yo'qda, a?! [II; 121].

Keltirilgan parchada Naim satarosh va yozuvchi o'rtasidagi suhbatda asar qahramonlaridan biri Naim sataroshning nutqida qarluq lahjasiga oid xususiyatlarni ko'rishimiz mumkin. Masalan: ishlayapsan so'zining *ishlavotsan*, bo'laveradimi so'zining *bo'lavuradimi*? shaklida Toshkent guruhi shevasining o'ziga xos fonetik va morfologik xususiyatlarini aks ettirgan. Kishilik olmoshi men so'zining *man* shaklida aytilishini, shuningdek, bo'lipsan - *bo'psan*, gazeta - *gazet* shaklidagi qisqartma holatlarni ham uchratamiz. Bu kabi fonetik, morfologik hodisalar asar badiiyligini yanada oshirgan.

Asarda qahramonlardan biri Dalavoy obrazi orqali ham Qarluq lahjasi Toshkent guruhiga oid ba'zi fonetik o'ziga xosliklar namoyon bo'ladi. Xususan: singarmonizmga amal qilinmaydi: aka - oka (old qator unlining orqa qator unliga o'tishi) kuzatiladi. *O'ziyam ja kattasini ag'daribsizda, oka* [II; 91].

Ba'zi qo'shma fe'llarning talaffuzida ham o'ziga xoslik mavjud: olib chiqmoq - *ob chiqmoq*, qilib qo'yib - *qip qo'yib*. *Qilar ishni qip qo'yib, tag'in odamni so'kib o'tiribsiz, oka* [II; 91].

Shuning bilan birga asarda bosh qahramon – yozuvchi nutqida bir qancha sheva so'zlarini uchratamiz. Masalan, *cho'pchak* (ertak), *sandal* (tancha - mahalliy isitish vositasi), *chakka* (tomchi), *turshak* (qoqi), *kavshandoz* (eshik oldi, ostona), *rapida* (yengsa, tandirdan non uzib olish uchun qo'lga kiyiladigan maxsus buyum), *xarrak* (o'rindiq), *egov* (qayroqtosh), *paqir* (chelak), *keragi* (o'tovning tom qismi), *namat* (o'tovda oyoq ostiga solinadigan mato) va boshqalar.

Bu kabi dialektizmlar orqali yozuvchi asar qahramonlarining o'ziga xos xarakterini ham shakllantirgan.

“Dunyoning ishlari” asarida fonetik, morfologik dialektizmlar qahramon nutqining jozibasini ochib berish bilan uning ichki xarakterini ochib berishga xizmat qiladi. Xususan: O'qchi qishlog'ida yashovchi satarosh nutqidagi *sho'tlikmiz* - shu yerlikmiz, *bo'larkin* - bo'lar ekan, *kepti* – kelibdi, *ma'lim* – muallim [2; 51].

Xulosa qilib aytganda, O'tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasi qahramonlari nutqida dialektizmning o'ziga xos fonetik, morfologik, leksik

xususiyatlari namoyon bo'lgan. Har br obraz nutqidagi o'ziga xoslik idiolektning yorqin namunasi sifatida ko'zga tashlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2021. B.175.
2. Hoshimov O'. Dunyoning ishlari. – Toshkent, “Sharq” nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2005.
3. Rajabov N. O'zbek shevashunosligi. – Toshkent, “O'qituvchi”, 1996 .
4. To'ychiboyev B., Hasanov B. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2004.
5. Umarov E. Eski o'zbek lug'atlari. – Toshkent, 1991

ДАВР ВОҚЕЛИГИНИНГ БАДИИЙ ТАСВИРИ

*Эшбоева Ҳамидаҳон Ҳусановна,
Қариш давлат университети магистри.
Илмий раҳбар: Қариш давлат университети
Адабиётшунослик кафедраси доценти,
ф.ф.н. Шоҳида Карамова*

Аннотация: Ушбу мақолада ёзувчининг “Урушнинг сурати” асарида келтирилган бир неча ҳикоялари таҳлил қилинган. Адиб унда ўзи кўрган, кузатган, таъсирланган воқеаларни қаламга олади. “Урушнинг сурати” асарида бевақт ўлим, бешафқат тақдир, ота ва она изтироби масалалари қаламга олинган.

Калим сўзлар: Афғон уруши, Урушнинг сурати, уруш хотиралари, инсон фожиаси, руҳий зарба, давр зиддиятлари, урушга нафрат.

XX асрга келиб жаҳон тарихидаги энг даҳшатли урушлар рўй берганини кўришимиз мумкин. Айниқса биринчи ва иккинчи жаҳон урушлари фикримизга исбот вазифасини ўтай олади. Тўғри, урушнинг яхшиси бўлмайди. Бироқ, ҳозир санаган урушларимиз ичида яна бир уруш борки, у уруши чинакамига қабих уруш десак бўлади. Қандай сиёсат, ва нима учун деган саволга жавобсиз уруш бу Афғон уруши эди. Бу урушдан омон қайтган

одамнинг рухий зарбаси кейинги ҳаёти ёки бўлмаса ўлимига қадар жараёнда ҳам уни хотиралар таъқиби билан яшашга маҳкум қилиб қўяди.

Инсон ўлимига, инсон фожиасига сабаб бўлган уруш мавзуси азал-азалдан бадиий адабиётнинг фаол мавзу-мундарижаларидан бири бўлиб келган. Уруш мотиви Ғарб ва Шарқ мамлакатлари адабиётида, бадиий тафаккурида бирдек ифода этилган бўлса-да, бироқ турли минтақа муаллифларининг дунёқараши, услубий индивидуаллиги ва ёндашувларида маълум тафовутлар мавжудлиги кўзга ташланади.

Айрим адиблар жанг майдонлари, уруш манзаралари каби воқеаларни баён этса, бошқа хилдаги ёзувчилар, асосан, ўз асарларида қаҳрамон руҳияти, ботиний оламини тасвирлаш орқали одамларнинг мусибатлари, мушкул аҳволини, кайфиятини, ҳаётга муносабатини ёрқин картиналарда ифодалайди.

Ўтган асрда дунё тарихида собиқ шўро тузумининг мудҳиш хатоси дея таърифланган Афғон уруши глобал муаммога айланди. Адабиётимизда бу уруш даври акс эттирилган талай асарлар яратилди. Замоноваий ўзбек адабиётида Афғон уруши мавзусида ёзилган асарлар анчагина. Жумладан, Ўткир Ҳошимовнинг “Тушда кечган умрлар”, Абдурашид Нурмуродовнинг “Қон ҳиди” романлари, Ш.Холмирзаевнинг “Йиғи” ҳикояси ва шулар қаторида биз объектга тортган адиб Қучқор Норқобилнинг талай асарларини мисол келтиришимиз мумкин.

Қучқор Норқобил ана шу уруш иштирокчиси сифатида урушни асарларида тасвирлади. Урушнинг бутун фожиасини лирикада сиғдириш душвор. Бунда прозанинг имкониятлари кенгроқ. Адиб прозада бу мавзуда талай асарлар яратди.

Филология фанлари доктори, профессор Ҳакимжон Каримов ҳақли таъкидлаганидек, “Ёзувчи давр зиддиятларини, унинг муаммоларини, тарихий ютуқларини инсон орқали акс эттиради. Унинг қаҳрамони маънавий оламида, хатти-ҳаракатида, фаолиятида, қилган ишида у яшаган давр ўз ифодасини топмоғи лозим. Шундай экан, ҳар бир даврда яратилган асар қаҳрамонлари

ҳаётга нисбатан ўз позициялари, концепциялари билан иккинчи бир давр қаҳрамонларидан фарқ қилади”

Афғон урушининг салбий асоратлари, қабоҳат ва разолатнинг дунё бўйлаб кенг қулоч ёйиши адибларни яна қўлга қалам олишга мажбур юўлиши табиий. Шу маънода уруш қатнашчиси Қўчқор Норқобилнинг “Ўн саккизга кирмаган мен бор” қиссаси адиб Шукур Холмирзаевнинг “Ўн саккизга кирмаган ким бор?” асарига муқояса этилса, сўроқ таъкид оҳанги замиридаги муддао равшанлашади.!” Шулар қаторида адиб ижодида “Дарё ортида йиғи”, “Уруш сурати”, “Кулиб тур, Азизим” каби бир қатор асарлари майдонга келди.

Адиб ўзи кўрган, гувоҳи бўлган барча ҳаётининг воқеаларни кундаликларида ёзиб боради. Мана шу кундаликлар ёзувчининг уруш мавзусида ёзадиган асарларига факт вазифасини ўтаган.

Уруш шундай нарса экан, уни кўрган инсон руҳияти бир умр у билан бирга яшаркан. Унинг отини нима деб аташни билмайман... Фақат уруш ҳақида ўйлаганимда, нафақат одамлар балки азият чекаётган еру-осмондан тортиб, титраётган дарахту қушларгача кўз олдимга келади. Энди буларни ўз кўзи билан кўрган одамнинг ҳолатини тасаввур қилаверинг. Адибнинг кўзларининг туб-тубида уруш ҳали бери тугамайдиганга ўхшайди. Қараб туриб, раҳмим келади... Хотиралар, қўлларида жон таслим қилган қанча дўстларининг ёди. Қанийди, эсларидан чиқиб кетса... Одамга бир нарса алам қилади, наҳотки, инсон ҳаётига арзимаган ўлим якун ясаса? Уруш сабабчи бўлса? Уруш кўрган одам урушдан ҳеч қачон келмайди деб, ўзлари ёзгандилар кундаликларида. Бир нарсани билдим, уруш хотиралари ҳамиша ўзидан қонли из қолдираркан... Шунданми, уруш киноларининг ҳар бир эпизодлари таниш кўринади. Худдики, унда ўзим ҳам иштирок этгандайман...”

Ёзувчининг “Урушнинг сурати” асарида бир неча ҳикояларни ўз ичига қамраб олган ва унда урушнинг манзарасини очиб бера олади. Унинг таркибида “Этикчалар”, “Бир бурда нон”, “Замон”, “Устун”, “Уруш”, “Энг кучли бола”, “Гуллаган қурол”, “Урушнинг сурати”, “Она” каби кичик ҳикояларидан таркиб топган, адибнинг бошидан ўтказган ҳаётининг

тафсилотлари эвазига туғилган сатрлар мавжуд. Айниқса, унинг “Урушнинг сурати” асарида бевақт ўлим, бешафқат тақдир, ота ва она изтироби масалалари қаламга олинган.

“Ёлғиз – ёлғиз ўғил. Ғулом бобо билан Ойсара холанинг ёлғизи, ортида қоладиган ёруғ изи.

Ҳарбийга чақирув келди.

Ёлғизни афгон урушига олиб кетишди.

Асарда келтирилган парчада шуни илғашимиз мумкинки, умид билан ўстирган ягона фарзанди Ёлғиз исмли ўғлини бешафқат тақдир унинг ёлғизлигини ҳам инобатга олмай ота она бағридан олиб кетди. Бу уруш манзилидан омон қайтиши даргумонлигини хис қилиб, ҳар бир ўтган кунидан ич ични еб ўтирган онанинг изтироблари унинг соғлигига таъсир қилмай қолмади. Фарзанди келмай омонатини топширди. Балки она учун бу ўлим бахтдир. Чунки фарзандининг тобутини кўришлик ўлимдан ҳам оғирроқ бир кўргуликдир.

Ғулом бобо букчайиб қолди. Икки кўзи эшикка қадалди. Фақат эшикни кўрди. Ёлғизнинг йўлига тикилди икки кўзи.

Пахса деворга омонат илинган пастак эшик тиқ этса, бобонинг юраги шиғ этади. Жони халқумига келади. Нураб, тўкилиб кетаман деб турган озурда кўҳна кулбадан отилиб чиқиб, ялангоёқ югургилайди.

Овулдошу қўни-қўшни далда беради: “Келади бобо, келади, Ёлғизингиз келади...”

Ёлғиз келмади.

Темир тобути келди.

Бу парчадаги охирги сўзда Ғулом бобонинг кутишдаги изтиробидан ҳам ортиқ биргина сўз борки, “Темир тобути келди”. Бу тобут ёлғиз фарзанди бор отанинг фожеаси, бу тобут бутун қишлоқ аҳолисининг ларзага солган изтироби, бу тобут сулоланинг давомчисининг нуқтаси, бу тобут ота она чироғининг учгани, бу тобут урушнинг даҳшатли манзараси, бу тобут бегуноҳ йигитнинг бесабаб ўлими тасвиридир.

Ўлим ёш танламайди. Ўлимга фақат сабаб бўлади. Афғон уруши номини олган даҳшатли уруш кўпгина фарзандларнинг ёстиғини кўритди. Энг аламлиси ўзингни тинч юртингга туғилиб, ўзга юртнинг тупроғида нима учун, нима сабабдан, қандай мантиқ орқали бу ерларда юришга мажбур қилингани, бегуноҳ гуноҳкорларнинг нола фиғонидир. Асардаги “*Мен отамдан олдин ўлганман*”, “*Мен боламдан кейин ўлганман*” деб ёзилган ёзув одамлар хотирасида уруш жароҳати муҳрланиб қолганлигини кўрсатади.

Уруш мавзусида ёзилган ҳар қандай асарда ўлим муқаррар. Қучқор Норқобилнинг “Уруш” парчасида ҳам бу манзарага эътибор қилинса, ёш гўдакнинг урушга нафрати акс этган. Ёш мурғак қалбининг ноласи акс этган. Яшашдан умиди бор қизалоқ, яшашга ҳақли фақат тинч осуда ҳаёт унинг орзуси. Лекин уруш сабаб қабрлар кўпайди. Мана шу кичкина қабрга ҳам ёш гудакнинг, урушга нафрати чексиз қизалоқнинг орзулари билан кўшиб кумилган.

Қизалоқ олти ёшда.

Дийдаси тош эди.

Деразадан ташқари қаради.

Кўчада уруш.

Пардани тортди.

Оғир-оғир юриб стол ёнига келди. Тик турган алпозда оппоқ қоғозга ажи-бужи қилиб ёзди: “Кетдим. Уруш тугаса, менга хабар беринглар. Қайтиб келаман...”

Қизни онаси олис-олисларга олиб кетди.

Вақт ўтди. Вақт учди. Ўша олис-олисларда бир қабр пайдо бўлди. Қабртошда ажи-бужи ҳарфлар билан шундай ёзилганди: “Кетдим. Уруш тугаса, хабар беринглар. Қайтиб келаман...”

Адибнинг “Этикчалар” парчасида аянчли бир манзара тасвири берилган. Уруш сабаб ўлим ва шу билан бир қаторда ногиронлик инсон қалбини ларзага келтирувчи бир фожеа эканлигини кўрсатиб ўтади. Шу ўринда асардан парча келтирамиз:

Бу урушда этикчалар эгасиз қолди.

Аёл этикчаларни хона бурчагига олиб бориб қўйди.

– Қани, ўгирилиб тур, – дея этикчалар тумшуғини деворга тақади.

Эгасиз этикчалар девор бурчида чорак соат турди.

Аёлнинг раҳми келди:

– Бошқа тўполон қилмагин-а, хўпми?! У этикчаларни кўксига босди. Сўнг стулчага олиб келиб қўйди:

– Қани, энди овқатингни еб ол!..

Аёл этикчаларга узоқ тикилиб турди. Нимадир ёдига тушгандай бўлди.

Сўнг... сўнг... чинқириб йиғлаб юборди.

Этикчалар соҳибаси бор-йўғи олти ёшдагина эди. (1.)

Адибнинг “Уруш сурати” ҳикоясидаги “Она” парчасида ўзгача бир манзара акс этган. Унда қай миллат онаси бўлмасин она деган номнинг остида меҳр, шафқат тушунчалари қалбини эгаллаганлигини кўриш мумкин.

Албатта, урушда энг азоб чекадиганлар фарзандини жанг оловига жўнатган ота ва оналардир. Қўчқор Норқобил ижодида нафақат уруш манзаралари, оловли жанг тасвирлари, балки уруш ортида қолган ота-она изтироблари ҳам қаламга олинади.

Қўчқор Норқобил ўзи кўрган, кузатган, таъсирланган воқеаларни қаламга олади ва майда тафсилотларга берилиб кетмасдан, ҳодисалар кечаётган замон ва маконнинг энг муҳим деталларига эътибор қаратади. Замон ва макон манзарасини чизишда энг эътиборли жиҳатларини топа билиш эса ижодкорнинг воқелик моҳиятини, қаҳрамонлар ҳолати, кечинмасини аниқ ҳис этганини билдиради. Қўчқор Норқобилнинг қисса, ҳикояларида айни шу хусусият бўртиб туради.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Қ.Норқобил. “Уруш сурати” «Ёшлик» журнали, 2017 йил, 4-сон.

**ЁШЛАР МАЪНАВИЙ ДУНЁҚАРАШИНING ШАКЛЛАНИШИДА –
АБУ НАСР ФАРОБИЙ МЕРОСИНING ЎРНИ.**

Усаров Фахриддин- ТКТИЯФ
“Умумий фанлар” кафедраси мудири,
тарих фанлари номзоди, доцент.
Умаралиев Аслиддин - ТКТИ талабаси

Ота-боболаримиз бизга қолдирган бой ва ранг-баранг маънавий меросни, миллий қадриятларимизни асраб-авайлаб, уларни замонавий илм-фан ютуқлари билан ижодий бойитиб, келажак авлоднинг тафаккури, дунёқарашини миллий ва умуминсоний қадриятлар асосида шакллантириш, долзарб масалалардан биридир.

Ёшлар дунёқарашинининг шаклланишида миллий қадриятларнинг алоҳида ўрни бор. Аجدодларимиз томонидан яратилган миллий - маънавий қадриятларимиз она юртга эҳтиром, авлод хотирасига садоқат, катталарга ҳурмат, кичикларга иззат, ҳаё, андиша кабиларнинг устуворлиги билан ҳам белгиланадики, ушбу жиҳатлар ёшлар онгида ёт ғояларга қарши иммунитетнинг ривожланишида етакчи омил бўлиб ҳисобланади.

“Ёшларимиз ҳақли равишда Ватанимизнинг келажаги учун жавобгарликни зиммасига олишга қодир бўлган, бугунги ва эртанги кунимизнинг ҳал этувчи кучга айланиб бораётгани барчамизга ғурур ва ифтихор бағишлайди”, [1; -Б.13.] - деб таъкидлайди давлатимиз раҳбари Ш.М.Мирзиёев.

Одам ўз тажрибасига таяниб яшашга ўрганган. Унинг назарида аجدодлар тажрибаси эъзозланадиган, аммо амал қилиш мушкул меросдир. Ота – боболаримиз эзгу амалларнинг қимматбаҳо фазилат экани ҳақида жилд жилд асарлар, умр бўйи топинадиган ўғит насихатлар қолдиришган, аммо ҳар бир авлод уларни қайтадан кашф этишга интилади. Демак, одам адашса, янглишса ҳам ўз тажрибасига мувофиқ яшашни афзал кўради” [2; -Б.169.]

Маънавий ҳаётимизда ёш авлодга, аввало, миллий қадриятларимизнинг тарихий илдизларини, ўтмишда яшаган авлод - аجدодларимизнинг маънавий

меросини чуқур ўрганиш муҳимдир. Буни биз буюк аллома Абу Наср Фаробий мисолида талқин этамиз.

Абу Наср Фаробийнинг ижоди фақат муайян бир тарихий даврнинг маҳсули бўлибгина қолмай, ҳозирга қадар илм-фан соҳибларида катта қизиқиш уйғотмоқда. Хусусан, бугунги шароитда буюк аجدодимизнинг фикр-мулоҳазалари, орзу-умидлари ёш авлодни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда, маданий анъаналаримизни ва маънавий қадриятларимизни қайта тиклашда, янгича дунёқарашимизнинг шаклланишида катта аҳамиятга касб этади.

Фаробий тиббиёт, мантиқ, ҳикмат, математика, мусиқа илми билан шуғулланган. Ҳозирги замон файласуфи Умар Фарруҳ Фаробийнинг дорий - форс, туркий, юнон, сурийёний каби кўпгина тилларни ўрганганлиги ва унинг бу тилларда сўзлаша олганини айтади [3;-Б.40].

Фаробий ўз умри давомида 160 дан ортиқ асар яратган, улар орасида ижтимоий-сиёсий ҳаёт, давлатни бошқариш масалаларига ҳам алоҳида тўхталиб ўтган. “Рисола фит танбиҳ ала асбоб ас-саодат” (“Бахт-саодатга эришув йўллари ҳақида рисола”), “Ас-сиёсат ан-мадания” (“Шаҳарни бошқариш”), “Ассийрат ал-фазилат” (“Фазилатли хулқлар”), “Фозил одамлар қарашлари” ва ҳ.к. Фаробий ўз замонаси илмларнинг барча соҳасини мукамал билганлиги, юнон фалсафасини шарҳлаб, дунёга кенг танитгани туфайли Шарқ мамлакатларида унинг номи “Ал-муаллим ас-Соний - “Иккинчи муаллим (Аристотелдан кейин)”, “Шарқ Арастуси” деб улуғланган [3; -Б.69].

Фаробий - инсонни билиш, уни тарбиялаш ва камол топтириш йўлларини аниқлаш орқали жамиятни бошқариш ва идора қилишнинг тўғри воситаларини топиш, кишиларнинг ҳатти-ҳаракатларини тартибга солиш ва бошқариш қонун-қоидаларини яратиш мумкин, деб билади.

Бахт-саодат эшикларининг калити инсоннинг ўз кўлидадир: бу мақсадга одамлар фазилатли ишлари ва яхши ахлоқий сифатлар соҳиблари бўлиши орқали эришадилар. Демак, бахт-саодат ва уни қўлга киритиш

воситаси-фазилатли ишлар узвий равишда бир-бири билан боғланган бўлиб, бахт инсоннинг орзу умиди бўлган мавҳум тушунча (ахлоқий ёки ижтимоий идеалгина) эмас, балки барча жамоа аъзоларинг фаол ҳаракатлари ва фазилатли ишлари натижасининг маҳсулидир.

Фаробийнинг фикрича, адолат тушунчаси кишиларнинг бир-бирига бўлган муҳаббатига асосланади. Уларнинг бахтга эришиш учун нималарни билиш, қандай воситалардан фойдаланиш мумкинлиги тўғрисида ҳамфикрлиги ва умумий интилишлари асос қилади. Бахтга эришиш йўли фазилатли ишларнинг моҳиятини англаш ва уларни юзага чиқариш воситаларини билишдан иборатдир. Шундагина инсон ўзининг билимлари ва қобилиятларини жорий этиш имкониятига эга бўла олади. Мана шу нуқтаи назардан “бахт” - бу шундай бир мақсадки, унга илм олиш, турли санъатларни, касб - ҳунарларни ўрганиш ва уларни ўзлаштириш каби фазилатли ишлар орқали олинган билим ва ўрганилган санъатларга муносиб ишларни юзага чиқариш йўли билан эришилади. [3; -Б.168]. Демак, назарий жиҳатдан бахт ҳақидаги билимга эга бўлиш, амалий жиҳатдан бахтга эришиш воситаларини, йўллари билан билиш керак эканлиги, яъни назария билан амалиётнинг бирлиги шарт қилинади.

Бахтга эришиш йўлида кишиларга таълим ва тарбия бериш учун авваламбор гўзаллик, яхшилик ҳақида билимларни, ҳикмат илмини билиш талаб қилинади. “Ҳар кимки илми ҳикматни деса, уни (ўрганишни) ёшлигидан бошласин, ... яхши ахлоқ - одобли бўлсин, сўзининг уддасидан чиқсин, ёмон ишлардан сақлансин, ҳиёнат, макр ва ҳийладан узоқ бўлсин, барча қонун-қоидаларни билсин, билмдон ва нотик бўлсин, илмли, доно кишиларни ҳурмат қилсин, илм ва аҳли илмдан мол - дунёсини аямасин” [3; -Б.158].

Хулоса ўрнида, қадриятларга янгича ёндошув жамият ижтимоий, тарихий жараёнида шаклланган урф-одатлари, анъаналари, маданияти, маънавияти ўзига хос қадриятлар тизимини ташкил қилади ва бу тизим нафақат бугунги ижтимоий ҳаётда, балки келажакда ҳам миллий ўзликни

англашда ўз ўрнига эга бўлади, ҳамда ёшларнинг маънавий дунёқарашини шаклланишида муҳим омил бўлиб хизмат қилади.

Абу Наср Фаробий меросини ўрганиш орқали, ёшлар учун муҳим бўлган инсонийлик, одамийлик туйғулари шаклланади; Инсонни маънавий озод этишига, имкониятларини, қобилият ва истеъдодларини очишга ва юзага чиқаришга, хизмат қилинадиган теран фикрларнинг шаклланишига олиб келади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз.-Т.: Ўзбекистон, 2016.б -53.
2. Алимасов В. Фалсафа ёхуд фикрлаш санъати. –Тошкент., “NOSHIR”, 2008. 169 - б.
3. Хайруллаев М.М. Фаробий ва унинг фалсафий қарашлари. Тошкент., Фан, 1963. 516 - б.

“ALPOMISH” EPOSI O‘ZBEK VA BOSHQIRD VERSIYALARINI QIYOSIY VA TIPOLOGIK JIHATDAN O‘RGANISHNING AYRIM MASALALARI

I. Boltayeva, O‘zDJTSU
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya: Maqolada “Alpomish” qahramonlik eposi o‘zbek va boshqird versiyalarining variantlariga xos milliy xususiyatlar, jumladan, syujet va kompozitsiya, motiv va obrazlar tizimi hamda poetika masalalari xususida mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: Epos, versiya, variant, qiyosiy-tipologik tadqiq usuli, syujet, kompozitsiya, motiv, obraz, badiiyat, baxshi, sesen.

Ma’lumki, so‘nggi yillarda mamlakatimizda Milliy istiqlol g‘oyalari ruhidagi qadimiy qadriyatlarni o‘rganish va avaylab- asrash davlatimiz rahbariyati ichki siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ta’kidlash joizki, bugungi

kunda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasidan Taraqqiyot strategiyasi bosqichiga o'tish, shuningdek, Uchinchi Renessans g'oyalarini amalga oshirish yuzasidan ilgari surilgan vazifalar asosida xalq og'zaki ijodiyoti namunalarini yangi nazariy konsepsiyalarga tayanib o'rganish keng avj oldi. Zotan, "milliy ma'naviy o'zlikka ega bo'lish, madaniy merosni o'zlashtirish uchun kurash yalpi ijtimoiy harakat belgisi sifatida ziyoli millatdoshlarimizning birortasini befarq qoldirmaydi [1].

Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasining bo'lim va bandlarida qo'shni va qardosh xalqlar bilan iqtisodiy-siyosiy va madaniy aloqalarni yanada mustahkamlash va hamkorlikning innovatsion dasturlarini yo'lga qo'yish vazifalari belgilab berilgan. Bu - qo'lga kiritilajak samarasi o'zining ajoyib mevalarini beradigan sivilizatsion integrasiyaning jahon xalqlari tajribasida sinalgan shakllaridan biri bo'lib, ayniqsa, Sho'rolar davrida ataylab bir-biridan uzoqlashtirilgan tili, dini, ko'hna tarixi va urf-odatlarini bir bo'lgan turkiy xalqlarning madaniy hayotida yangi sahifalarni ochishi shubhasizdir.

Biz ushbu maqolada o'rta tashlayotgan mavzu ana shu jihatdan dolzarblik kasb etib, Oltin O'rda xonliklari davridan boshlab "Alpomish"dek olamshumul badiiy-estetik ahamiyatli eposni birgalikda shakllantirgan o'zbek va boshqird xalqlarining badiiy tafakkur tarzlari, ularda epik ong, epik xotira, epik bilim va epik ko'nikmalarning intensiv takomili milliy versiyalarning tipologik tadqiqi orqali ochiq qilinishi mumkinligiga qaratilgan. Shu asnodan o'zbek folklorining jahon xalqlari badiiy ijodi bilan mushtaraklik kasb etadigan xususiyatlarini aniqlash, jumladan, uning turkiy xalqlar folklori kontekstidagi o'rni belgilash, shuningdek, ikki qardosh xalq epik tafakkuri tadrijiy taraqqiyotiga xos qonuniyatlarni oydinlashtirishning imkoniyatlari ochiladi, degan maqsad ko'zlanadi.

Ma'lumki, boshqirdlar dunyoga keng tarqalgan turkiy xalqlardan biri bo'lib [2,3,4], uzoq ijtimoiy-madaniy tarixga egadir. Maqola mavzusining o'rganish obyekti sifatida "Alpomish" dostonining Fozil Yo'ldosh o'g'li kuylagan, bir necha bor qayta nashr etilgan varianti bilan mazkur epos boshqird versiyasining Orenburg guberniyasidagi turli volostlarda XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida

yashab o'tgan Gatiatulla Bikkujin, Gabit va boshqa sesenlar ijrosidan Muhammadsho Bo'ronqulov, A.G.Bessonov, S.F.Mirjonova, M.M.Sag'itov, N.D.Shunqorov, S.A.Galin va boshqa o'lkashunos ziyolilar va olimlar tomonidan yozib olingan "Alpamisha", "Altiyashar Alpamisha", "Alpamisha menen Barsinhiliu", "Ak buzat" nomli variantlarning boshqird tilidagi nashrlari tanlab olindi.

"Alpomish" eposining ikki versiyasiga oid namunalari syujet tuzilishi, kompozitsion qurilishi, obrazlar tizimi va poetik xususiyatlari jihatidan qiyosiy-tipologik tahlil doirasiga tortilishi, o'zbek folklorshunosligi uchun juda muhim bo'lgan ilmiy xulosalarni keltirib chiqarishi shubhasizdir. Ushbu maqsaddan kelib chiqadigan vazifalar quyidagicha tarhda belgilash mumkin deb hisoblaymiz: "Alpomish" eposining umumjahon va turkiy xalqlar folklorshunosligida o'rganilishiga umumiy nazar, Yevropa xalqlari "Alpomish" shunosligi erishgan so'nggi yutuqlar, rus olimlarining mazkur eposni o'rganish borasidagi xizmatlari, qardosh turkiy xalqlar folklorshunosligida "Alpomish" dostoni milliy versiyalarining ilmiy tadqiqi, o'zbek va boshqird folklorshunoslarining ushbu qahramonlik eposini o'rganishdagi xizmatlari, O'zbekistonda "Alpomish" dostonini ilmiy jihatdan o'rganishga bo'lgan munosabat va uning samaralari, "Alpomish" dostonining Boshqirdistonda o'rganilishi, "Alpomish" eposi o'zbek va boshqird versiyalarining syujet va kompozitsion jihatdan qiyosiy-tipologik tadqiqi, syujet tuzilishidagi mushtarak va farqli o'rinlarning milliy-tarixiy sabablari, ikki millat versiyalarining kompozitsion qurilishidagi umumiy o'zgacha komponentlar, "Alpomish" eposi o'zbek va boshqird versiyalarining obrazlar tizimi va poetikasi, ikkala versiyada ishtirok etgan badiiy obrazlar tarkibining qiyosiy tahlili, "Alpomish" eposi o'zbek va boshqird versiyalari matnlarining badiiy xossalari.

Xulosa qilib aytganda, "Alpomish" dostonining o'zbek va boshqird versiyalari tarkibidagi milliy variantlar matnini qiyosiy-tipologik yo'sinda tadqiq etish folklorshunoslik fani va umuman, turkologiya tarmog'i uchun qiziqarli ilmiy faraz va kashfiyotlarni keltirib chiqarishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni/ Xalq so'zi.- Toshkent: 2017. – 8 fevral.-№28 (6722).
2. История башкирского народа. В 7 т./Москва-Уфа. Изд. Наука-Гилем. 2009-2012;
3. Кузеев Р.Г. Происхождение башкирского народа. Этнический состав, история, расселения.- М. Наука. 1974. -571 с.;
4. Руденко С.И. Башкиры: Историко-этнографические очерки.-М.-Л.,1955.-394 с.,
5. Мирзаев Т. Узбекский героический эпос "Алпамыш". Москва. 2019.
6. Жўраев М. Фольклоршунослик асослари. Тошкент. 2017.

РОЛЬ ИНДИВИДУАЛЬНОГО ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В ОБНОВЛЕНИИ ПОЭТИЧЕСКОЙ ФОРМЫ

*Давлатова Адипа Рахматовна,
Доктор филологических наук (DSC),
Ёрбулова Дилдора (студентка 2-курса ЧГПИ)*

В мировой литературе проводятся обширные исследования творчества феноменальных авторов той или иной нации, их вклада в развитие национального и мирового художественно-эстетического мышления, литературного наследия, идей общечеловеческого значения, творческой лаборатории. В частности, комплексное исследование эволюции поэтического мышления поэтов и писателей, произведения которых признаны явлениями в узбекской литературе, отражают самобытность нации, их литературно-этическая, нравственная и творческая концепция определяет направление литературы следующего периода.

Тюркские народы, в том числе узбекская литература, занимают особое место в оглавлении мировой литературы. Это литературное повествование так же древнее и богато, как история народа. История тюрков, их образ жизни как народа и государства, их образ мышления, иногда спокойный, а порой

противоречивый, безусловно, нашли отражение в литературе. Таким образом, образы, сформированные как облик народа, линии эмоциональных переживаний, мечта о свободе и совершенстве, стремление к Истине и Правде, призыв к спасению человечества, закрепились как основные черты национальной литературы. Кроме того, в результате использования опыта мировой литературы использование новых типов и жанров в узбекской литературе создало основу для изменения характера произведения.

Узбекская литература обновлялась на основе национального и мирового художественно-эстетического опыта, а также через произведения поэтов и писателей, вошедших в сферу творчества в соответствии с требованиями времени и пространства. Особенно, подавление редких талантов в начале двадцатого века затмило развитие национальной литературы. Позже насильственное усвоение различных «изм»ов в природе литературы привело к лукавству и лозунгам-призывам. Литература была удалена от задач отражения реальной жизни, человеческой души и выражения искренности. Но даже в этом случае настоящий талант проявился. В частности, в 60-е годы прошлого века, когда в литературе царил дух лозунга «Да здравствует!», такие талантливые поэты, как Эркин Вахидов и Абдулла Орипов подняли художественно-эстетическое мышление нации на новый уровень. Особенно в поэзии Абдуллы Орипова национализм, изображение человека в разных ракурсах, в разных образах, жанрах и символах поднялось до уровня главного литературного критерия. Потому что «Абдулла Орипов был редким талантом, который поднял узбекскую литературу на новый уровень. Его высокохудожественные, глубоко философские стихи глубоко укоренились в сердцах людей. Его драматические и публицистические произведения, былины и переводы внесли большой вклад в развитие нашей литературы. Как автор государственного гимна Республики Узбекистан Абдулла Орипов навсегда останется в сердцах нашего народа». С этой точки зрения необходимо оценить феномен Абдуллы Орипова, динамику развития поэзии, поэтического мышления посредством художественного, сравнительно-

типологического, философского, психобиографического, статистического анализа.

Объем темы стихов Абдуллы Орипова, образы и жанры, использованные поэтом, комплексное изучение нововведений в литературе обеспечивают актуальность статей. Ведь лирика поэта – особый период в истории народа и общества, как художественное отражение эстетического идеала в развитии художественно-эстетического мышления узбеков. В связи с этим комплексное изучение сущности лирики поэта, воплощающей его личность и талант, научно-теоретическая экспертиза лаборатории творчества, научная оценка эволюции поэтического мышления являются важными проблемами современной литературы.

Теоретическая интерпретация термина «поэтическое мышление» и анализ его проявления в творчестве поэта. Данный термин ввел в науку французский ученый Деррида. Он выдвигает тезис о взаимозависимости философии и поэзии, о специфике текстовой структуры и типов, а также о моделях влияния и создания.

В мировой литературе внимание ученых сосредоточено на анализе эволюции поэтического мышления на основе психологии творчества, творческой лаборатории, единства лирического героя и поэта. Фактически, настоящий творец вводит совершенно новые критерии и подходы к литературе, не отрицая предшествовавших ему традиций. Это также обогащает содержание художественной литературы и литературного процесса. Принципы народного творчества, строго традиционные формы, типы, а отчасти и некоторые изображения оказали влияние на последующий стиль художественного мышления. В таких жанрах, как притча, пословица, сказка, басня, песня отражаются идеи стремления к добру, неминуемого наказания зла, пропаганда правды и истины, сострадания к природе и животным. Такой социальный и эстетический идеал проявился в различных жанрах и образах в письменной литературе. Сюжеты и мотивы в народных сказках, былинах, песнях и легендах – это, прежде всего, средства выражения

психологии, образа мышления и менталитета того или иного народа. Итак, вдохновение древними истоками, глубокими корнями - характерная черта всех современных авторов. Эта ситуация может не составлять содержания того или иного творчества, но есть стихи, рассказы и повествования, в которых ярко выражены его элементы. Среди них части сказочного или эпического сюжета, синтаксические конструкции. Творческий потенциал и упорный труд, постоянные исследования текста готовят почву для рождения великих произведений. Поэт или писатель сначала находит свой собственный стиль и путь в результате глубокого знакомства с народным устным искусством, а затем и с искусством классического выражения. Поэма Абдуллы Орипова «Люди» - это уникальная художественная интерпретация узбекского духа щедрости и отваги. Философский вывод каждой строки поэта, неповторимый художественный образ пословиц, неповторимое выражение узбекского характера на самом деле объясняются тем, что высокий талант гармонирует с гениальностью народа

В основе идеи этого стихотворения лежат вопросы и ответы о бренном мире в сказках, которые являются образцом народной мудрости, тенденции делить жизнь на три этапа - детство, юность и старость. *Колыбель, кобыла и трость* - образные изображения. В лирике Абдуллы Орипова много элементов фольклора, фольклорных мотивов. Но это не значит, что лирика поэта от начала до конца построена на народных, героических мелодиях. С первых дней вхождения в литературу поэт определил свою цель, путь и творческий замысел. Поэтическое мышление, изначально сформировавшееся на основе народного творчества, естественным образом занимавшее сознание детства и юности, впоследствии выросло в результате высшего образования, жизненного и творческого опыта и превратилось в великую поэзию.

На протяжении всей своей творческой деятельности поэт активно использовал черты узбекского народа, некоторые эпитеты, метафоры и сравнения народной мудрости.

Книга «Цвета и тона» играет важную роль в поэзии Абдуллы Орипова. Сам поэт признает это в своем кратком предисловии и пишет: «Человеческий дух – очень загадочный, чрезвычайно сложный мир, это страна постоянных признаний, глубоких желаний, бесконечных мечтаний. В серии стихотворений «Цвета и тона» я обратился к обычной, насыщенной событиями форме выражения». Газели в начале серии подготовили почву для духовных переживаний, представленных в форме трио.

*Тунда ой, кундуз қуёш навбат билан боққай сенга,
Мендайин собит эмасдир, мендайин мафтун эмас.*

Моление лирического главного героя к Создателю образно описывается как следование пути великих предшественников, зор чередой луны и солнца в надежде встречи Всевышнего Творца и тот момент осознания сиюминутного чуда перед лицом этой славы.

Серия «Цвета и тона» состоит из 15 стихотворений в форме троицы, каждое из которых состоит из 15 стихов. Таким образом, серия состоит из 675 строк. Каждое стихотворение написано на отдельную тему, но логически взаимосвязано, то есть образует единое целое. Эти трио отражают «глубокие желания и бесконечные мечты поэта». Если не принимать во внимание одну или две строчки личного опыта, они выражают чувства Родины, нации, добра и веры:

*Аввал-охири йўқ мажҳул дунёнинг
Суврату сийратин чиза олган ким?!
Синаб кўражак у сени ҳам албат.*

Так первое стихотворение в категории отражает глубокую философию. Хотя было дано много возможностей, было заявлено, что человек беспомощен, что человеческое дитя не может видеть цвета плача, ветра, угнетения, высокомерия и сердца, и что если это произойдет, он не сможет спать в такой толпе. “Бироқ сен, ижодга азм этган шоир, Уни адаштирамай фарқламогинг шарт” – эти строки составляют основу концепции творчества поэта. «Абдулла Орипов - поэт и мыслитель. Поэтому он может прийти к

оригинальным художественным обобщениям, которые вряд ли войдут в семь чужих мечтаний, - пишет литературовед Нурбой Жабборов. – В частности, по его мнению, поэт, настроенный на творчество, должен воспринимать цвета не невооруженным глазом, а внутренним взором. Потому что человеческий глаз – это не фотографическое устройство, его ухо не является простым - они принадлежат к тонким алтарям. То есть взгляд поэта должен замечать красоту, которую никто не заметил. Ухо поэта должно слышать звуки, которые не слышит ни одно человеческое дитя»⁸.

Стихотворение «Гармония» также богата философскими выводами. В этом стихотворении поэт гармонизирует чувства времени, мира, любви и родины. По его мнению, в этой вселенной существует только ощущение пустоты. Человек не может этого увидеть. Фактически, он мог быть населен верховным судьей времени и бесчисленными духами.

*Буюк истисно бор дунёда бироқ,
Бунёд этиб бўлмас уни қўл билан
Муҳаббат дейдилар, уни, Муҳаббат.*

В статье подробно анализируется высокая гармония поэтического содержания и философского мышления в творчестве поэта.

ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Орипов А. Йиллар армони. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – 592б.
2. Орипов А. Дунё. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1995. – 56 б.
3. Орипов А. Ҳикмат садолари. – Т.: Фан, 1993. – 104 б.
4. Орипов А. Адолат кўзгуси. – Т.: Адолат, 2005. – 400 б.
5. Жабборов Н. Маоний аҳлининг соҳибқирони. – Т.: Adabiyot, 2021. – Б.238.

⁸ Жабборов Н. Маоний аҳлининг соҳибқирони. – Т.: Adabiyot, 2021. –Б.238.

6. Davlatova A. Image of mentality in Abdulla Oripov's lyrics // International scientific journal Theoretical & Applied Science p-ISSN: 2308-4944 (print) e-ISSN: 2409-0085 (online) Year: 2021 Issue: 11 Volume: 103. P. 904-908. (10.00.00. №
7. Davlatova A. Philosophy of Abdulla Oripov's lyric // International Journal of Advanced Research in Management and Social Sciences Impact Factor ISSN: 2278-6236: 7.624, Vol. 10 | No. 11 | Nov 2021. P. 259-264
8. Davlatova A. The role of world literature in the development of Abdulla Oripov's poetic thinking // ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal, DOI: 10.5958/2249-7137.2021.02225.4, ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 10, October 2021 Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492, P. 1027-1032
9. Давлатова А. Ижодкор бадий – эстетик концепцияси // ЎЗМУ хабарлари. – Тошкент, 2014, - № 3/1. Б. 242-246 (10.00.00. №15)
10. Давлатова А.Р. Бадий тафаккур ривожига халқ оғзаки ижодининг ўрни. Филологиянинг умумназарий масалалари. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. - Жиззах. 2021. – Б,46-47. <https://hp.jspi.uz>

ДИАЛЕКТАЛ НОМИНАЦИЯДА МИФОЛОГИЗМНИНГ ЎРНИ

*Мусаева Феруза, ф.ф.б. фалсафа доктори (PhD)
Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти
докторанти*

Аннотация: *Мазкур мақолада ўзбек диалектал лексика мисолида диалектал номинацияда мифологик дунёқараиш илдишлари тадқиқ этилган. Оламнинг диалектал манзарасининг муҳим белгиларидан бири – мифологизмнинг тилда намоён бўлишида анимистик, фетишистик ва тотемистик қарашларнинг ўрни ўрганилган ва мисоллар келтирилган.*

Калит сўзлар: *диалектал номинация, мифологизм, анимизм, фетишизм, тотемизм.*

Аннотация: В данной статье на примере узбекской диалектальной лексики исследуются следы мифологического мировоззрения в диалектальной

номинации. Рассмотрена роль анимистических, фетишистических и тотемистических взглядов в реализации важнейшей характеристики диалектальной картины мира – мифологизма и приведены примеры.

Ключевые слова: *диалектальная номинация, мифологизм, анимизм, фетишизм, тотемизм.*

Номинация ономазиологиянинг марказий масалаларидан бири саналади. Мазкур терминининг лингвистик талқинларини ўрганган Ж.А.Вардзелашвили номинация термини воқеликнинг турли қисмлари учун номларни яратиш, бириктириш ва тақсимлаш жараёнини ҳам, номлаш жараёнида ҳосил бўлган маъноли лисоний бирликнинг ўзини ҳам ифодалашини таъкидлайди [1, 62].

Маълумки номинация ҳодисаси тилшуносликнинг лексикология, терминология, сўз ясалиши каби соҳаларида ўрганилади. Ушбу ҳодисани шева материаллари асосида тадқиқ этиш тил эгаларининг олами идрок этиш механизмлари, бунда миллий менталитетнинг ўрни каби масалаларга ойдинлик киритиш имконини беради. Шева вакилларининг ўзига хос дунёқараши, тафаккури ва ижоди маҳсули сифатида қаралиши мумкин бўлган диалектал номинация антропоцентризм (марказда инсон туради – у яратади, барбод этади, баҳолайди), аниқлик, образлилик, мифологизм, деталлаштириш, табиийлик, турмуш тарзига боғлиқлик, субъективизм, экспрессивлик ва эмоционаллик, пессимизм, мурасизлик каби қатор белгилар билан характерланади.

Мифологик дунёқараш оламнинг билишнинг энг қадимги усулларида бири бўлиб, қадимги одамларнинг ўзларига муносиб ҳаёт шароитларини яратиш эҳтиёжлари билан боғлиқ. “Эзгулик ва ҳақиқат учун кураш ғояларининг ифодаси бўлган афсона ва ривоятларда миллатнинг муайян руҳий ҳолати, келажакка ишончи, ватанга муҳаббати, инсоний камолотга интилиши бадиий воситалар, афсонавий қаҳрамонлар тимсолида ифода этилган” [2, 19-20].

Шева тил тараққиётининг дастлабки кўриниши бўлгани боис, шева вакиллари дунёқарашида мифологизм унсурлари кўринади. Ҳаммамизга

маълумки, қадимги одамлар чакмоқ чақиши, момоқалдирок гумбурлаши, ёмғир ёғиши каби табиий ҳодисаларни қандайдир ғайритабиий кучлар, мифологик мавжудотлар ҳаракати билан боғлиқ деб ўйлашган. Шунинг учун табиат ҳодисалари номида мана шундай мифологик қараш илдизлари кўринади. Хусусан, шеваларимизда момоқалдирокнинг *момогулдур*, *момогулдурак* номлари учрайди: *Тўйиннинг устида эса савр булутлари қисмат ла'натлаган шип-шийдам тоғ-у тош, яп-яланғоч адирларга чақин найзаларини беаёв санчар, **момагулдир** силсиласи еру заминни ларзага соларди.* (М.Сафаров, Айришоҳ). ***Момогулдур** сурпо қоқар фалакда, Ҳалинчак сол, сен инак камалакка. Фарзанд бўлсанг дунё деган малакка, Шошил, сен ҳам кет баҳорга айланиб.* (Шафоат Раҳматулло Термизий, Озод сўз). *Сукут этма, азизам, гапир, Жимжитликдан сиқилар юрак. (Жимжит булут ортида ахир Пинҳон бўлар **момогулдурак**...)* (Иқбол Мирзо, Сукунат). *Бирдан осмонни тилиб юборган **момогулдурак** устма-уст гумбурлаб, Арчалитогни зириллатган.* (Ўринбой Усмон, Сафо чиқириғи). Бу диалектал номлар Момо култи билан боғлиқ. Қадимги одамлар Момо гулдур осмонда олтин аравада юради, момоқалдирок пайтида осмоннинг гумбурлашини шу арава шовқини билан изоҳлашган. “Халқ қурғокчиликда ёмғир сўраб, Гулдур момо ҳамда Шалдир Момога мурожаат қилган.

Қуриганмиш гул ҳовуз

Балиқлардан

Бирор из.

Гулдур момо, келсанг-чи,

Шалдир момо, келсанг-чи,

Савобдир емак

Ушбу кўшиқда Гулдур момо – момоқалдирок, Шалдирмомо – ёмғир тангриси сифатида тилга олинган” [3, 185-186].

Маълумки, мифологик қараш анимистик, фетишистик ва тотемистик тасаввурлардан иборат. Диалектал манзаранинг **анимистик** хусусияти шунда кўринадики, олам кўриш, ҳис этиш мумкин бўлган аниқ образ орқали ўзлаштирилади. Масалан, Қашқадарё шеваларида “адишак” мифоними мавжуд. Адишак – ёвуз махлуқ қиёфасидаги афсонавий куч [4, 15].

Галамўлаликлар “озиб кетган” деган тушунчани ифодалаш учун “адишак урган” бирикмасидан фойдаланишади. Зеро, халқ тушунчасида озиб кетган бола ёки ҳайвонга мана шу ёвуз махлуқ таъсир этган деб ҳисоблашган.

Жиззахликлар наъматакни “ажинабута”, “ажинапитта”, “жингул” дейишади. Бундай номланиш ҳам анимистик тасаввур билан боғлиқ. “*Чунки илгарилари ҳамма жойда бор эди, барининг тагида камида биттадан, бўлмаса, уч-тўрттадан ажина ўтирган. Кечалари, айниқса, кун тизига келган ёзнинг саратонида болаларни қўймас эди. Вай-вуй, дод-вой, гингшиши, тап-туп дўмбира чалишлар. Қуюн бўлиб ўйинга тушганда «Ош-пичоқ, қалампир!» демасангиз, айлантириб олиб кетиб ҳам қолар эди. Бизда гапи гапига тўғри келмаётган одамни «Нима, хаёли қочибдимми?» ё «Эсини еб қўйибдимми?» деб айтиш ўрнига: «Ажинапиттанинг тагидан ўтиб келяптими, нима бало?», дейдилар. Ажинабута ажина билан шу қадар боғланиб кетган» [5, 180-181].*

Наъматак тагида ажина ўтириши ҳақидаги қараш Усмон Азимнинг “Болаликнинг бир кечаси” номли шеърида ҳам ўз ифодасини топган:

Занжирбанд ит ҳуради,
Тунга қараб гингшинар...
Гулбутанинг тагида
Ўлтиради ажина.

Анимистик қарашлар *арвоҳкапалак* – кечаси чироқ ёруғига келадиган ҳажми нисбатан катта, қўнғир рангли капалак номида ҳам яққол кўринади: *Намозшомгулнинг бошига катта чиройли арвоҳкапалак қо‘нади. Қизик, арвоҳ капалаклар, одатда, тунда келарди-ку. (Х.Аҳмедова, Бухорога қайтиш). Орадан бир ҳафта ўтиб, Мансур уй хонасини супурар экан, радиатор тагида ўша арвоҳ капалакнинг жонсиз ётганини кўрди. (Н.Норматов, Бисот).* Халқимиз инсон вафотидан сўнг унинг руҳи капалакка айланади деб ишонган, шунинг учун чироқ ёруғига интилган тунги капалакни ҳеч қачон ўлдирмаганлар.

Бойсун аҳолиси май оyi бошларида ўсиб чиқадиган ёввойи ўтнинг турини “тилакўти” деб номлашади. Бу номинацияда *фетишистик* қараш

устувор эканлиги кўриниб турибди. Зеро, ерли аҳоли шу ўтдан уйига олиб келиб, илдизи билан осиб қўяди ва бирор қариндош ёки фарзанди узоқ жойга кетса, унинг номини шу ўтга қўйиб, шу ўт орқали узоққа кетган фарзандининг соғ юришини тилайди. Шунинг учун ҳам ўт “тилакўти” деб ном олган [6, 116].

Аксарият шеваларимизда туғилган вақтда оғизда бўладиган кичик тиш ёки биринчи чиққан тиш “бўритиш” деб юритилади [4, 61]. Ёки “кучли даражада ва ҳолатда тикилиш, кўз нуруни тик қилиб қараш” Тўрсари қишлоғи вакиллари шевасида “бўриқараш” деб юритилади [4, 61]. Бу каби ифодалар ўзбек халқининг “бўри” билан боғлиқ қадимги *тотемистик* қарашларига бориб тақалади. Тарихчи Л.И.Гумилёв VI асрда бўри номи туркийлар учун муқаддас бўлиб, ривоятга кўра туркийлар хунн шаҳзодаси билан урғочи бўрини илк аждоди деб билганликларини ва ўз байроқларини олтин бошли бўри тасвири билан беаганликларини ёзади [7, 59]. Юқорида келтирилган мисоллар шева вакиллари дунёқараши мифологик дунёқарашга яқин эканлигини кўрсатади.

Диалектал ибораларда ҳам мифологик қарашлар унсурларини кўришимиз мумкин. Масалан, Сурхондарё ва Қорақалпоғистон шеваларида учрайдиган “унаштирмоқ” маъносидаги “рўмол ташлаб қўймоқ”, “рўмол боғламоқ” ибораларида халқимизнинг “рўмол” култи билан боғлиқ қадимий қарашлари ўз ифодасини топган. Халқ қарашларига кўра, рўмол оила, муҳаббат рамзидир. Шунинг учун ҳам халқ қарашларининг ёрқин ифодаси бўлмиш ўзбек фольклори асарларида рўмолни йўқотиш, уни қўлдан чиқариш, шамол учириб кетиши ёки рўмолнинг ўғирланиши айрилиқ, оиланинг барбод бўлиши аломати сифатида талқин қилинади. Бунинг учун халқ ижоди сюжети асосига қурилган “Тоҳир ва Зухра” драмасини эслаш кифоя. *“Кўнгилларни орзиқтирадиган мусиқа оҳанглари фонида саҳнага югуриб чиққан Зухра “Қани рўмолим? Шамол қурғур, қани, рўмолим? Қаерларга учириб кетдинг? Шамолжон, шамолжоним! Мени овора қилма! Рўмолим қани?” деб саҳнада зир югурганча ўзининг рўмолини излайди”* [8, 27].

Урганчликлар пакана одамни “*жин қиссон*” ибораси билан, иқонликлар телба одамни “*жин урган*” ибораси билан ифодалашадики, бундай номлашда ҳам халқимизнинг “ажина”, “жин” мифологик мавжудотлар билан боғлиқ қарашларнинг актуаллашганини кўрамиз: бўй ўсмаслик, телба бўлиш халқ тасаввурига кўра жин-маҳлуқларнинг ишидир.

Юқорида таҳлил қилинган мисоллар номлаш жараёнида мифологизм, мифологик дунёқарашнинг ўрнини далиллашга хизмат қилади. Диалектал лексикадаги номлар номлаш жараёнида ўзбек халқига хос идрок механизмларини аниқлаш имконини беради.

Фойдаланган адабиётлар:

1. Вардзелашвили Ж. А. К вопросу о толковании термина «номинация» в лингвистических исследованиях // Славистика в Грузии: сб. науч. ст. Тбилиси, 2000. № 1.
2. Фалсафа асослари. – Тошкент, 2005.
3. Нарзуллаева Д. Халқимизнинг момо култига алоқадор мифологик қарашлари // «Филологические исследования: проблема и решение» материалы международной научной конференции (доктор филологических наук, профессор Хамид Гуломович Негматов посвящается к 80-летию со дня рождения) Бухоро, 2021.
4. Нафасов Т. Қашқадарё ўзбек халқ халқ сўзлари. – Тошкент, 2011.
5. Аъзам А. Рўё ёхуд Ғулистонга сафар. – Тошкент, 1996.
6. Файзиева Х. Сурхондарё шеваларида ўсимлик номлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 2011. - №3.
7. Мусакулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Тошкент, 2010.
8. Турсунова Н. Ҳозирги ўзбек драматургиясида фольклор стилизацияси. Фил. фанл... фалс. доктори (PhD) дисс. автореферати. – Тошкент, 2019.

SPORT VA KO'NGILOCHAR TADBIRLARNING IJTIMOIY AHAMIYATI

*Ismoilov Jahongir Jaloliddinovich, O'zDJTSU
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi.*

Yosh avlod - bu davlatning kelajagi, u mamlakatni taraqqiyot sari yetaklaydi, uning himoyasi va rivojlanishini ta'minlaydi. Mamlakatning eng yaxshi kelajagini kafolatlash uchun bugungi kunga, bolalar va o'smirlarning turmush tarziga e'tibor qaratish lozim. Inson o'zini qiziqtirgan narsani tanlaydi, o'zi uchun nima muhimligini hal qiladi, qiziquvchan va jozibali hamma narsani sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'lish huquqiga ega. Aynan mana shu - **sport turi** bo'lishi kerak.

Hukumatimiz tomonidan sport – sog'lomlashtirish tadbirlarining o'tkazilishiga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi PQ-3583-son «O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligini tashkil etish to'g'risida»gi [1, 1].qaroriga muvofiq ommaviy sport tadbirlarini o'tkazish Nizomi umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilaridan iborat sport jamoalari o'rtasida (sport turlari bo'yicha) ushbu muassasalar, tuman(shahar)lar, viloyatlar va respublika darajasida ommaviy sport tadbirlarini o'tkazish tartibini belgilaydi.

Ijtimoiy imkoniyatlar va sharoitlarni optimallashtirish uchun davlat darajasida aholining turli toifalari uchun ommaviy jismoniy tarbiya, sog'lomlashtirish, sport tadbirlarini tashkil etish aspektlari ishlab chiqilmoqda. Ushbu sohani boshqarish eng yaxshi natija uchun barcha resurslardan, vaqt va kuchdan, moliyaviy mablag'lardan oqilona foydalanishni o'z ichiga oladi. Shunday bo'lganki, aholining e'tiborini sportga va sog'lom turmush tarziga jalb qilish eng muhim vazifalardan biriga aylandi - so'nggi yillarda uning ahamiyati sezilarli darajada oshdi. Sport va ko'ngilochar tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish umuman madaniyatning bir tomoni bo'lgan, shuningdek, ijtimoiy faoliyat yo'nalishi bo'lgan jismoniy madaniyatni rivojlantirish va targ'ib qilishga qaratilgan. Jismoniy tarbiya ham moddiy qadriyat, ham ma'naviy

qadriyat bo'lib, u jamiyat tomonidan shakllantiriladi va u ma'lum bir inson manfaati uchun foydalaniladi. Bu kundalik hayotda harakatlarning ko'pligi tufayli fuqaro sog'lig'ini mustahkamlashga va uni yanada mukammal qilishga yordam beradi.

Jismoniy tarbiya, sport an'anaviy ravishda ikki guruhga bo'linadigan katta soha: maxsus yutuqlarga yo'naltirilgan professional mashg'ulotlar va ommaviy vazifalar, ularning vazifasi har birining istisnosiz normal hayoti uchun zarur bo'lgan darajada rivojlanishi. Professional sport - mintaqaviy, davlat darajasidagi ixtisoslashgan kuch tuzilmalarining mas'uliyat sohasi. Lagerlarda, maktablarda, stadion va istirohat bog'larida sport va ko'ngilochar tadbirlar mahalliy hokimiyat tomonidan tashkil etiladi. Jismoniy tarbiya, sport bilan shug'ullanish butun xalqning sog'lig'ini ta'minlaydi, shu bilan birga davlat xavfsizligi darajasini oshiradi. Hukumatning vazifasi sportni barcha zarur narsalar bilan ta'minlashdir va amaldagi qonunchilikda qo'llab-quvvatlash hokimiyatning vazifasi va har qanday darajadagi mansabdor shaxslarning vazifasi sifatida belgilangan. Shuning uchun ham sport va dam olish tadbirlari ko'pincha turli darajadagi byudjetlar tomonidan homiylik qilinadi va hukumat boshqaruv tizimiga xos bo'lgan byurokratik kechikishlar murakkabligiga qaramay, mansabdor shaxslar tadbirga hech qanday to'siq qo'yishmaydi.

Jismoniy tarbiya jamiyatning madaniyati bilan bir vaqtda shakllangan, asosan, uning hayotiy va rivojlanayotgan qismi bo'lgan maxsus ixtisoslashgan madaniy yo'nalishdir. An'anaviy ma'noda madaniyat asrlar davomida sport bilan chambarchas bog'liq edi va aksincha. Jismoniy tarbiyaning rivojlanishi asosan haykaltaroshlik, me'morchilik, rasm va musiqa, zamonaviy multimedia badiiy shakllari orqali targ'ib qilingan go'zallar haqidagi falsafiy hisob-kitoblar, ilmiy yutuqlar va g'oyalar bilan bog'liq. Bizning vaqtimizga xos bo'lgan sport va ko'ngilochar tadbirlarni o'tkazish o'tmishda ma'lum o'xshashliklarga ega edi: uzoq vaqt davomida turli xil kuchlar hokimiyati fuqarolar uchun bunday tadbirlarni uyushtirib kelmoqda. Jismoniy madaniyat insonning atrof-muhitni o'zlashtirish va uni yanada samarali va samarali boshqarish imkoniyatini beradigan turli xil vositalardan foydalanish tajribasi bilan shartlanadi. Bunday tajriba kelajak avlodga berilishi kerak edi va ta'lim jismoniy

madaniyat haqidagi ibtidoiy g'oyalar orqali amalga oshirildi - hatto o'sha davrda atamaning o'zi ham mavjud emas edi. Bundan tashqari, ilgari tarbiya deyarli butunlay jismoniy jihatlariga qisqartirilgan.

Maktablarda, lagerlarda, universitetlarda o'tkaziladigan sport va ko'ngilochar tadbirlar, shuningdek, shahar tashqarisidagi bog'larda ommaviy tadbirlar jismoniy madaniyatni jamiyatning ko'plab a'zolarini birlashtirgan ommaviy hodisa sifatida targ'ib qilishga yordam beradi. Turli xil odamlar turli darajalarda faol bo'lishadi, ammo jismoniy tarbiya deyarli barchaga ta'sir qiladi.

Sport jamiyatning ongli tanloviga aylandi. Endi bu jismoniy imkoniyatlarni va aql-idrokni qo'llashni talab qiladigan sohadir. Siz alohida yoki jamoa a'zosi sifatida ishtirok etishingiz mumkin. Faoliyat har doim eng yaxshi natijaga erishishga qaratilgan bo'lib, ular uchun odamlar tayyorlanib, harakat qilishlari kerak. O'zingizning qobiliyatingizni isbotlash va tayyorgarlik darajangizni ko'rsatish uchun siz tadbirlar doirasida tanlovda ishtirok etishingiz mumkin. Odatda yutib olish sizga sovrinni taqdim etadi.

Sport- jismoniy tarbiya jihatlaridan biri bo'lib, insonning harakatlanish faoliyatini aks ettiradi, ya'ni har ikkala hodisa ham inson faoliyati, ham aholi, ham fuqaroning takomillashishiga imkon beradi. Bunday faoliyat sog'liqni yaxshilaydi, odamlarni tarbiyalaydi. Siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy vaziyatga aniq ta'sir ko'rsatiladi.

Ommaviy sport va ko'ngilochar tadbirlar nafaqat jamiyat salomatligini yaxshilash vositasi, balki shaxs shaxsini shakllantirish uslubidir. U o'qish, mehnat faoliyati, boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatlar va sport bilan yaratilgan, jismoniy tarbiya har tomonlama rivojlanishga imkon beradigan jihatlariga aylanadi. O'qish, o'qitish, raqobat - bu inson psixikasi va tanasida kuchaygan stressni yengishga majbur bo'lgan hodisalar. Vaziyatning tez va oldindan aytib bo'lmaydigan o'zgarishi sharoitida omon qolishingiz, dushmanga qarshi turishingiz, natija nafaqat sizga, balki jamoadagi boshqa odamlarga ham bog'liqligini anglab, kuch sarflashingiz kerak. Jismoniy faollik sizni o'z manfaatlaringizni qo'mondonlarga bo'ysundirishga, belgilangan qoidalarga rioya qilishga va raqibni hurmat qilishga

o'rgatadi. Bularning barchasi har bir ishtirokchini o'ziga xos irodali, kuchli shaxs sifatida shakllantiradi. Odamlar qat'iyatlilik va o'zini tuta bilishni o'rganadilar, tartibli, o'ziga ishongan bo'lishadi.

Sport va ko'ngilochar tadbirlar e'tibor va sezgirlikni, chidamlilikni, kuzatuvchanlikni rivojlantirish usullaridan biridir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, jismoniy tarbiya intellektual ko'rsatkichlarni yaxshilaydi. Muntazam ravishda mashg'ulotlarda qatnashadigan, uyda jismoniy tarbiya bilan shug'ullanadigan odam, harakatlantiruvchi organlarni kuchaytiradi, suyaklarni mustahkamlaydi, eng qarilik yoshiga qadar sog'lom yashash imkoniyatlarini yaxshilaydi. Shuni tushunish kerakki, mukammal tibbiyot ham barcha kasalliklarni istisnosiz oldini olmaydi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, yozgi dam olish joylarida, sanatoriylarda, sport markazlarida o'tkaziladigan sport tadbirlarida muntazam qatnashish, shuningdek, shahar parklarida, zal va stadionlarda hamma uchun mavjud bo'lgan sport tadbirlariga vaqt ajratish sizning hozirgi va kelajagingizni sezilarli darajada yaxshilashi mumkin. Olimlarning fikriga ko'ra sog'lig'ining deyarli yarmi turmush tarzi bilan belgilanadi. Asosiy tajovuzkor omillar orasida yomon odatlar, noto'g'ri ovqatlanish va kundalik hayotda kam harakatlanish mavjud. Yuqumli kasalliklar, yomon yoki yetarli bo'lmagan uyqu va yetarli dam olishning yetishmasligi rol o'ynaydi. Xatarlarni minimallashtirish uchun odam muntazam ravishda harakat qilishi, jismoniy tarbiya mashqlari va sportni o'z rejimiga kiritishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, bularning barchasi tana holatini mustahkamlashga yordam beradi va sog'lom tanada, donolar aytganidek, ruh sog'lomdir. Sog'lig'ini uzoq muddat saqlashga qaratilgan jismoniy tarbiya, sog'liqni saqlash va sport tadbirlari odamga o'zini o'zi uchun eng muhim - tana holatini, uning barqaror ishlashini uzilishlarsiz ta'minlashga imkon beradi. Bu, o'z navbatida, ishlash qobiliyatini, uyg'un va har tomonlama rivojlanishini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining.Qarori .O'zbekiston respublikasi jismoniy tarbiya va sport vazirligini tashkil etish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi "Jismoniy tarbiya va sport

- sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5368-son Farmoni Toshkent sh.,2018-yil 5-mart, PQ-3583-son.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari"gi PQ-3031-sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining. O'zbekiston respublikasi jismoniy tarbiya va sport vazirligini tashkil etish to'g'risida Qarori. 2018-yil 5-mart.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5368-son Farmoni. Toshkent sh.,2018-yil 5-mart, PQ-3583-son.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tuzish to'g'risida. Toshkent sh., 2002-yil 24-oktabr, PF-3154-son.
- 6.Axmatov M.S. Ommaviy sport musobaqalarida boshqaruv tizimi va uni takomillashtirish. Toshkent. 2003- y
- 7.Salamov R.S., Aripov Yu.Yu. Maktab yoshidagi bolalar jismoniy tarbiyasi uslubiyati asoslari. - T.: Moliya, 2011 -y

БЕРДИЁР ПИРИМҚУЛОВ – ПИСКЕНТ ДОСТОНЧИЛИК МАКТАБИНИНГ ВАКИЛИ

*Марғуба Қаршибоева, Тошкент Кимё-технология
институтини Янгиер филиали ўқитувчиси.*

Аннотация: Мақолада ўзбек халқ оғзаки бадий ижодиёти анъаналарининг муносиб давомчиси, “Алпомиш” достонининг нашр этилган машҳур олтита вариантдан бирининг куйчиси бўлган бахши Бердиёр Пиримқул ўғли фаолиятига доир янги маълумотлар ёритилган.

Калит сўзлар: атрибут, миллий психика, достон, қаҳрамонлик эпоси, вариант, номад, бадий-эстетик.

Аннотация: В данной научной статье исследуется поэтическое и сказительское мастерство один из выдающихся народных поэтов Узбекистана Бердияр Пиримкул оглы.

Ключевые слова: атрибут, национальная психика, дастан, героический эпос, вариант, номад, художественно-эстетическое.

Миллат атрибутлари саналганида, одатда, асосан умумхалқ тили, миллий фалсафа, миллий психика, миллий тарихий хотира, халқ педагогикаси, урф-одат ва маросим кабилар тилга олинади. Бизнингча, булар қаторида миллий эпос, айниқса қаҳрамонлик эпоси миллат маънавияти ва ёшини белгиловчи муҳим белгилардан бири саналади. Айтайлик, бир юз йигирма миллион кишидан зиёд нуфусга эга рус миллатининг “Манас”га тенг келувчи қадимий, муаззам ва яхлит достони йўқ. “Манас” эпоси қирғиз миллатининг уч ярим минг йиллик давлатчилик тарихидан сўзлайди ва қуйлайди. Умуман олганда, туркий халқлар яратган “Китоби дада Кўркут”, “Манас” ва “Алпомиш” достонлари Евроосиё тамаддуни тарихида алоҳида маданий қатламни ташкил этади. Бинобарин, биргина “Алпомиш” достони қўнғирот версиясининг Ўзбекистон ҳудудида тарқалган вариантлари йигирма саккиз нафар бахши ижросида ўттиз тўрт марта турли ҳажмда ёзиб олинганлигининг ўзи мазкур эпос ўзбек этноси уруғларининг ижтимоий-тарихий тақомилида қанчалик муҳим бадиий-эстетик ўрин тутганлигидан дарак беради.

Маълумки, “Алпомиш” ўзбек халқининг илк оғзаки достони, дастлабки қаҳрамонлик эпосидир. Унинг ўзбекча вариантлари тўғрисида акад. Т.Мирзаев салмоқли тадқиқотлар яратган ¹. Чунончи, биз ҳаёти ва ижоди тўғрисида сўз юритмоқчи бўлаётган Берди бахши вариантынинг илк нашрига ҳам Т.Мирзаев томонидан “Алпомиш” достони ва унинг Берди бахши варианты ҳақида” сарлавҳали қарийб беш саҳифалик сўзбоши ёзилган².

Бердиёр бахши Пиримкул ўғли тахминан 1886-1887 йилларда ҳозирги Олмалиқ шаҳрининг 3/2 даҳаси ва “Ойдин” деҳқон бозори ёнидаги Эвалак қишлоғида камбағал пахтакор Пиримкул ота оиласида тўнғич фарзанд бўлиб дунёга келган. Ҳозир бу қишлоқнинг номи деярли айтилмайди. Чунки бу ном

2018 йилда “Мустақилликнинг 27 йиллиги даҳаси” деб ўзгартирилган (уни Оҳангарон дарёсининг ўнг соҳилидаги Оҳангарон-Гулистон трассаси ёнида, Ойбулоқ қишлоғининг ғарбий қисмида жойлашган Эвалак қишлоғи билан адаштирмаслик лозим - М.Қ.). Бердиёр баҳши яшаган пайтда қишлоғининг шимолий томонида Ёрдам ариғи ва Ёрдам маҳалласи, жанубий тарафида Бўка канали оқиб ўтган. Ундан жанубда Суйритепа, Тошқишлоқ, Кўрпасой ва Жалойир қишлоқлари бўлган. Ғарб томонда геологларнинг Қалмоққир ва Қорақиясойга қатнайдиган тош йўли, шарқ тарафда эса янги ташкил этилган Пискент туманининг пахта далалари бор эди. Пиримкул бобонинг Исор, Ҳамди исмли ўғиллари ва Бибисора исмли қизи ҳам бўлган. Бердиёр 14-15 ёшга тўлганида отаси вафот этади. У укалари ва синглисини боқишда онасига қўмак бериш учун аравакашлик қилади. Тўй ва бошқа тантанали йиғинларда дўмбирасини чалиб, “Алпомиш”, “Авазхон”, “Қундузой ва Юлдузой”, “Рустамхон”, “Малика айёр”, “Золим хон”, “Санжархон” сингари достонларни, лапар ва ўланларни куйлайди ва совринларни олади. Қариндошларининг М.Асқаров мақоласида шаҳодат беришларича³, Чор ҳукуматининг Туркистон ўлкаси аҳолисидан мардикор олиш рўйхатига Бердиёр Пиримқуловнинг исми ва шарифи ҳам киритилади. У олти ой мобайнида Сибирь ўрмонларида дарахт кесиб, ёғоч тайёрлайди, рус тилини ўрганади. Большевикларнинг Чор ҳукуматини ағдариши Б. Пиримқулов сингари ҳақ-ҳуқуқсиз мардикорларнинг жонига аро киради, улар ўз ватанларига қайтадилар. Сиёсий онги ўсиб қайтган Бердиёр баҳши Чўлпон, Ҳамза ва Ойбекларга ўхшаб, ўзаро курашаётган икки ижтимоий тўлқин орасида қолади. У комфирқа вакилларининг олдида Ленин ва инқилобни мақтаб термалар куйласа, Усмон узун, Бойир кўрбоши, Бойботир кўрбоши, Раҳмон кўрбоши ва бошқа озодлик курашчилари ҳузурида бир неча кун ва тун мобайнида юқорида тилга олинган анъанавий достонлар ва миллий ҳурликка даъват этувчи термаларни ижро этади. Қозоғистоннинг Туркистон шаҳридан Марғилонгача, Тожикистоннинг Хўжанд шаҳридан Чортоққача бўлган ҳудудда унинг дўмбираси янграган.

Одамлар олқишидан завқланган бахши халқининг абадий эркин ва озод ҳаётга етишишига умид боғлаган.

Қариндошлари ва шогирдларининг гувоҳлик беришларича, Бердиёр бахши 1918 йилда кўрпасойлик Анорбувиш исмли қизга уйланган. Аммо улар фарзандли бўлмайдилар. Ўша пайтларда машҳур Парпиота зиёратгоҳининг ғарбий қисмида (ҳозирги Олмалиқ шаҳрининг шарқий чеккасида - М.Қ.) бозор расталари қурилган бўлиб, атрофдаги қишлоқлардан садо-сотик учун оламон тўпланар эди.

“Берди бахши куйлаган “Алпомиш” достонида ғоявий-бадий жихатдан бошқа вариантлардан ажралиб турадиган муҳим хусусиятлар мавжуд Унда самимий юмор ва комизмга ўта мойиллик сезилиб туради, бахши кутилмаган ҳолатларда ажойиб комик ситуациялар яратади” (б.6). Ушбу мақолани ёзишдан мақсад Т.Мирзаевнинг Бердиёр Пиримкулов ҳақидаги фикларини такрорлаш бўлмай, илмий жамоатчилик диққатига бахши шахсиятига оид янги маълумотни етказишдир. Чунки бундай маълумот ўзбек достончилиги анъаналарига оид бошқа илмий манбаларда келтирилмаган.

Бердиёр бахши Пиримкулов кўнғирот уруғининг эвалак тобинига мансуб оилада дунёга келган. Умуман кўнғирот уруғи, хусусан эвалаклар қадимдан номад (кўчманчи чорвадорлар) сифатида хўжалик юритишиб, қалмоқлар босқини ва Абулхайрхон давригача (XVIII асрнинг ўрталаригача) Сирдарёнинг Орол денгизига қуюлувчи қуйи қисмидаги Жийдали Бойсун деган ҳудудида, кейинчалик эса Амударё дельтасидан ҳозирги Сурхондарё, Қашқадарё, Жиззах, Тошкент ва Наманган вилоятларининг тоғли ўтлоқ майдонларига кўчиб келиб яшаганлар ва ўтроқлашганлар. Бердиёр бахши онгида достончилик анъаналарининг барвақт уйғониши ва шаклланиши ота-боболарининг ана шу тарихий миграцияси билан боғлиқ. Навоий Кончилик институти Олмалиқ тоғ-кон саноати факультетининг (ҳозирги И.Каримов номидаги Тошкент Давлат Техника университетининг Олмалиқ филиали –М.Қ.) марҳум доценти, техника фанлари номзоди Мусулмонқул Асқаров 90-йилларнинг бошларида Бердиёр бахши таржимаи

холига қизиқиб, унинг қариндошларидан сўраб-суриштириб, “Бердиёр бахши Пиримкул ўғлини биласизми?” деган мақолани эълон қилиш орқали ўз вақтидаги савоб ишни амалга оширган эди ^(2.2).

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Мирзаев Т. “Алпомиш” достонининг ўзбек вариантлари. – Т.: Фан, 1968;
2. Мирзаев Т. Халқ бахшиларининг эпик репертуари. Т.: Фан, 1979; Мирзаев Т. Эпос и сказитель. – Т.: Фан, 2008.
3. Мирзаев Т. “Алпомиш” достони вариантларини излаб // Ўзбек тили ва адабиёти. —Тошкент, 1964. -№2. - Б.78—79;
4. Қўшқиялик бахши // Ўзбекистон маданияти. -Тошкент, 1964 йил, 8 июль;
5. Мирзаев Т. “Алпомиш” достонининг ўзбекча прозаик мазмунлари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. -Тошкент, 1963. —№5. —Б.17-20;
6. Мирзаев Т. “Алпомиш” достонининг ўзбек версиялари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. -Тошкент, 1963. -№6. -Б.23-27;
7. Асқаров М. Бердиёр бахши Пиримкул ўғлини биласизми? -“Олмалик ҳақиқати” газ., 1991, 28 октябрь сони (№ 46).

БЕРДИ БАХШИ ЗАМОНДОШЛАРИ ХОТИРАСИДА

*Марғуба Қаршибоева, Тошкент Кимё-технология
институтини Янгиер филиали ўқитувчиси.*

Миллат атрибутлари саналганида, одатда, асосан умумхалқ тили, миллий фалсафа, миллий психика, миллий тарихий хотира, халқ педагогикаси, урф-одат ва маросим кабилар тилга олинади. Бизнингча, булар қаторида миллий эпос, айниқса қаҳрамонлик эпоси миллат маънавияти ва ёшини белгиловчи муҳим белгилардан бири саналади. Айтайлик, бир юз йигирма миллион кишидан зиёд нуфусга эга рус миллатининг “Манас”га тенг келувчи қадимий, муаззам ва яхлит достони йўқ. “Манас” эпоси қирғиз миллатининг уч ярим минг йиллик давлатчилик тарихидан сўзлайди ва куйлайди. Умуман олганда, туркий халқлар яратган “Китоби дада Кўркут”, “Манас” ва

“Алпомиш” дostonлари Евроосиё тамаддуни тарихида алоҳида маданий катламни ташкил этади. Бинобарин, биргина “Алпомиш” дostonи кўнғирот версиясининг Ўзбекистон ҳудудида тарқалган вариантлари йигирма саккиз нафар бахши ижросида ўттиз тўрт марта турли ҳажмда ёзиб олинганлигининг ўзи мазкур эпос ўзбек этноси уруғларининг ижтимоий-тарихий такомилида қанчалик муҳим бадиий-эстетик ўрин тутганлигидан дарак беради.

Маълумки, “Алпомиш” ўзбек халқининг илк оғзаки дostonи, дастлабки қаҳрамонлик эпосидир. Унинг ўзбекча вариантлари тўғрисида акад. Т.Мирзаев салмоқли тадқиқотлар яратган ¹. Чунончи, биз ҳаёти ва ижоди тўғрисида сўз юритмоқчи бўлаётган Берди бахши вариантининг илк нашрига ҳам Т.Мирзаев томонидан “Алпомиш” дostonи ва унинг Берди бахши варианты ҳақида” сарлавҳали қарийб беш саҳифалик сўзбоши ёзилган ². Сўзбоши муаллифининг таъкидлашича, “Берди бахши қуйлаган “Алпомиш” дostonида ғоявий-бадиий жиҳатдан бошқа вариантлардан ажралиб турадиган муҳим хусусиятлар мавжуд. Унда самимий юмор ва комизмга ўта мойиллик сезилиб туради, бахши қутилмаган ҳолатларда ажойиб комик ситуациялар яратади” (б.6). Ушбу мақолани ёзишдан мақсад Т.Мирзаевнинг Бердиёр Пиримқулов ҳақидаги фикларини такрорлаш бўлмай, илмий жамоатчилик диққатига бахши шахсиятига оид янги маълумотни етказишдир. Чунки бундай маълумот ўзбек дostonчилиги анъаналарига оид бошқа илмий манбаларда келтирилмаган.

Бердиёр бахши Пиримқулов кўнғирот уруғининг эвалак тобинига мансуб оилада дунёга келган. Умуман кўнғирот уруғи, хусусан эвалаклар қадимдан номад (кўчманчи чорвадорлар) сифатида хўжалик юритишиб, қалмоқлар босқини ва Абулхайрхон давригача (XVIII асрнинг ўрталаригача) Сирдарёнинг Орол денгизига қуюлувчи қуйи қисмидаги Жийдали Бойсун деган ҳудудида, кейинчалик эса Амударё дельтасидан ҳозирги Сурхондарё, Қашқадарё, Жиззах, Тошкент ва Наманган вилоятларининг тоғли ўтлоқ майдонларига кўчиб келиб яшаганлар ва ўтроқлашганлар. Бердиёр бахши онгида дostonчилик анъаналарининг барвақт уйғониши ва шаклланиши ота-боболарининг ана шу тарихий миграцияси билан боғлиқ.

Навоий Кончилик институти Олмалик тоғ-кон саноати факультетининг (ҳозирги И.Каримов номидаги Тошкент Давлат Техника университетининг Олмалик филиали –М.Қ.) марҳум доценти, техника фанлари номзоди Мусулмонкул Асқаров 90-йилларнинг бошларида Бердиёр бахши таржимаи ҳолига қизиқиб, унинг қариндошларидан сўраб-суриштириб, “Бердиёр бахши Пиримкул ўғлини биласизми?” деган мақолани эълон қилиш орқали ўз вақтидаги савоб ишни амалга оширган эди ³. Мазкур мақоладаги маълумотларни М.Асқаров домлага бахшининг туғишган жияни ва шогирди Юсуф бахши бобо айтиб турганлар. Ундан маълум бўлишича, Бердиёр бахши тахминан 1886-1887 йилларда ҳозирги Олмалик шаҳрининг 3/2 даҳаси ва “Ойдин” деҳқон бозори ёнидаги Эвалак қишлоғида камбағал пахтакор Пиримкул ота оиласида тўнғич фарзанд бўлиб дунёга келган. Ҳозир бу қишлоқнинг номи деярли айтилмайди. Чунки бу ном 2018 йилда “Мустақилликнинг 27 йиллиги даҳаси” деб ўзгартирилган (уни Оҳангарон дарёсининг ўнг соҳилидаги Оҳангарон-Гулистон трассаси ёнида, Ойбулоқ қишлоғининг ғарбий қисмида жойлашган Эвалак қишлоғи билан адаштирмаслик лозим - М.Қ.). Бердиёр бахши яшаган пайтда қишлоғининг шимолий томонида Ёрдам ариғи ва Ёрдам маҳалласи, жанубий тарафида Бўка канали оқиб ўтган. Ундан жанубда Суйритепа, Тошқишлоқ, Кўрпасой ва Жалойир қишлоқлари бўлган. Ғарб томонда геологларнинг Қалмоққир ва Қорақиясойга қатнайдиغان тош йўли, шарқ тарафда эса янги ташкил этилган Пискент туманининг пахта далалари бор эди. Пиримкул бобонинг Исор, Ҳамди исмли ўғиллари ва Бибисора исмли қизи ҳам бўлган. Бердиёр 14-15 ёшга тўлганида отаси вафот этади. У укалари ва синглисини боқишда онасига кўмак бериш учун аравакашлик қилади. Тўй ва бошқа тантанали йиғинларда дўмбирасини чалиб, “Алпомиш”, “Авазхон”, “Қундузой ва Юлдузой”, “Рустамхон”, “Малика айёр”, “Золим хон”, “Санжархон” сингари достонларни, лапар ва ўланларни куйлайди ва совринларни олади. Қариндошларининг М.Асқаров мақоласида шаҳодат беришларича, Чор ҳукуматининг Туркистон ўлкаси аҳолисидан мардикор олиш рўйхатига

Бердиёр Пиримқуловнинг исми ва шарифи ҳам киритилади. У олти ой мобайнида Сибирь ўрмонларида дарахт кесиб, ёғоч тайёрлайди, рус тилини ўрганади. Большевикларнинг Чор ҳукумати ағдариши Б. Пиримқулов сингари ҳақ-ҳуқуқсиз мардикорларнинг жонига аро киради, улар ўз ватанларига қайтадилар. Сиёсий онги ўсиб қайтган Бердиёр бахши Чўлпон, Ҳамза ва Ойбекларга ўхшаб, ўзаро курашаётган икки ижтимоий тўлқин орасида қолади. У комфирқа вакилларининг олдида Ленин ва инқилобни мактаб термалар куйласа, Усмон узун, Бойир қўрбоши, Бойботир қўрбоши, Раҳмон қўрбоши ва бошқа озодлик курашчилари ҳузурида бир неча кун ва тун мобайнида юқорида тилга олинган анъанавий достонлар ва миллий хурликка даъват этувчи термаларни ижро этади. Қозоғистоннинг Туркистон шаҳридан Марғилонгача, Тожикистоннинг Хўжанд шаҳридан Чортоққача бўлган ҳудудда унинг дўмбираси янграган. Одамлар олқишидан завқланган бахши халқининг абадий эркин ва озод ҳаётга етишишига умид боғлаган.

Қариндошлари ва шогирдларининг гувоҳлик беришларича, Бердиёр бахши 1918 йилда кўрпасойлик Анорбувиш исмли қизга уйланган. Аммо улар фарзандли бўлмайдилар. Ўша пайтларда машҳур Парпиота зиёратгоҳининг ғарбий қисмида (ҳозирги Олмалиқ шаҳрининг шарқий чеккасида - М.Қ.) бозор расталари қурилган бўлиб, атрофдаги қишлоқлардан садо-сотик учун оламон тўпланар эди. Кўрпасойлик Бўрибек бобонинг хотирлашларича, бу ерда достон куйлаб турган Бердиёр бахшини қуюнлик бир эшон тўйга таклиф қилади. Эшоннинг Қундузой исмли кенжа хотини уч кун тинмай достон куйлаган бахшига маҳлиё бўлиб, мойиллик кўрсатади. Шунда Берди бахши достон куйлаш асносида унга қарата қуйидаги мисраларни тўқийди:

*Уйқуни сен ихтиёр этмайсанми, ёр-ёр,
Бердиёрга ёр бўлиб кетмайсанми, ёр-ёр,
Кетар бўлсанг, йўлимни пойлаб тургин, ёр-ёр,
Ва отимга жиловдор бўлиб юргин, ёр-ёр.*

Кекса эшоннинг ёш хотини тўй тугаганидан сўнг Бердиёр бахшининг отига мингашиб қочиб кетади. Ғазабга минган эшон бахшининг калласи учун катта микдордаги пул мукофотини эълон қилади. Аммо тез орада Бойботир кўрбоши орага тушиб, эшондан Қундузойнинг талоғини беришни сўрайди. Эшон ноилож кўнгач, бахши билан Қундузойни никоҳлаб, кичик тўй ўтказадилар. Уларнинг никоҳидан Абдурахмон исмли ўғил ва Хуриниса исмли қиз дунёга келган.

Бердиёр бахшининг пискентлик мухлисларидан бири бўлган шоир ва олим Абдулла Алавий ЎзССР Маориф комиссарлиги қошида ташкил этилган Ўзбекларни ўрганиш илмий қўмитасига хабар бериб, унинг ижросидаги асарларни 1925 йилдан бошлаб араб алифбосида қоғозга туширади. Жумладан, “Алпомиш” достони унинг томонидан 1926 йилда тўлиқ ёзиб олинади.

Бердиёр бахши Пиримкулов тахминан 43 ёшида ўпка шамоллашидан вафот этган. Олмалиқ шаҳрининг марказий кўчаларидан бири кўп йиллар мобайнида унинг номи билан атаб келинди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Асқаров М. Бердиёр бахши Пиримқул ўғлини биласизми? - “Олмалиқ ҳақиқати” газ., 1991, 28 октябрь сони (№ 46).
2. Мирзаев Т. “Алпомиш” достонининг ўзбек вариантлари. – Т.: Фан, 1968;
3. Мирзаев Т. Халқ бахшиларининг эпик репертуари. Т.: Фан, 1979;
4. Мирзаев Т. Эпос и сказитель. – Т.: Фан, 2008. Мирзаев Т. “ Алпомиш” достони вариантларини излаб // Ўзбек тили ва адабиёти. —Тошкент, 1964. - №2. - Б.78—79; Яна ўша. Қўшқиялик бахши // Ўзбекистон маданияти. - Тошкент, 1964 йил, 8 июль; Яна ўша. Тожикистонда яшаётган ўзбек достончилари ижодини ўрганиш ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. -Тошкент, 1964. -№5. -Б.64-66. Мирзаев Т. “Алпомиш” достонининг ўзбекча прозаик мазмунлари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. -Тошкент, 1963. —№5. —Б.17-20; Яна ўша. “Алпомиш” достонининг ўзбек версиялари ҳақида // Ўзбек тили

ва адабиёти. -Тошкент, 1963. -№6. -Б.23-27; Яна ўша. Ўзбек эпосида вариация масалалари //Ўзбек тили ва адабиёти. -Тошкент, 1964. -№4. -Б.59-62

МАКТАБДА ГЕРМЕНЕВТИК МЕЗОНЛАР БИЛАН ЛИНГВОПОЭТИКА САНЪАТИНИ ЎРГАНИШ

*Тўрабекова Малика Ҳаким қизи, Чирчиқ давлат
педагогика институти 3 босқич талабаси
Илмий раҳбар: Чирчиқ давлат педагогика институти
доценти Таджибаев Мусажан Сабирович*

Аннотация: Мақолада мактабда поэтик тилнинг санъат яратиш имкониятлари герменевтик мезонларда ўрганиш усуллари тадқиқ қилинган ҳамда бу борада ижтимоий-сиёсий фактор мезонлари таҳлил қилинади.

Калит сўзлар: сўз санъати, миллий тил, индукция, дедукция, индивидуализм, ғоя, ёлқин, оммавийлик, бадий ижод.

Annotation: The article analyzes to Study of lingvopoetic art with Hermeneutic parametros the principles of social and political factors in the creation of art poetic language in school.

Key words: art of the word, the national language, induction, deduction, individualism, the idea, yalkin, publicity, poetry.

Санъат инсон ҳаётининг мазмуни. Санъатсиз ҳаёт ваҳшийлик, деган гап аксиома. Бироқ санъатни эгаллаш, уни эшитиш, кўриш ва ҳис қилиш ҳамда ундан завқланиш баробарида уни тушуниш, уни тўлақонли ўзлаштириш муаммоси ётади. Санъатнинг замирида оддий инсоний маданият туради. Маданият эса, инсонлар ва халқлараро толерантликнинг таянч нуқтаси. Санъатни тушуниш борасида инсон ҳиссиётнинг олий шакли-сўз воситасидаги ёлқиндан фойдаланади.

Бадий адабиёт эса, сўз санъатидир. Сўз тил демакдир. Тил эса турли шаклларда реаллашади: инсон тили, ҳайвон тили, ўсимликлар тили.

Тилнинг бу шакллари ундан фойдаланувчилардаги ижтимоий муҳитга муносабат воситасида вариантлашади.

Бу ўринда биз ижтимоий - сиёсий алоқа воситаси ҳисобланган инсон тили хусусида фикр юритар эканмиз, тилнинг этник-географик категорияларини ҳам фарқланишимиз даркор:

миллий тил, давлат тили, халқаро тил.

Миллий тилнинг ўзи ҳам турли шаклларда намоён бўлади: умумхалқ тили, адабий тил, расмий тил, илмий - публицистик тил, китобий тил, сўзлашув тили, кўча тили, маҳаллий тил, турли табақа ва гуруҳлар тили, бадий тил.

Қўлланиши кўлами ҳолатига мувофиқ:

*қўлланиш доираси чегараланган тил,

*қўлланиш доираси чегараланмаган тил.

Тилнинг бу каби классификациялари серқирра ва улар орасидаги бўлиниш ҳозирда ҳам давом этмоқда. Бироқ, биз бу ўринда тилнинг ҳар қандай шакллари умумлаштира оладиган шакли ҳақида фикр юритмоқчимиз: бу тил - бадий тил, бадий адабиёт тилидир.

Бадий адабиёт тили умумлаштирувчи характерга эга, чунки бадий асар мавзу доирасида воқелик ва персонажларнинг реал инъикоси жараёнида ижтимоий ҳаётнинг ҳар қандай соҳасига даҳлдор бўла олади. “Ёзма адабиёт ўз тараққиётида сон-саноксиз авлодларнинг коллектив ижоди бўлган фольклордан доноликни, образ яратиш соҳасида тўпланган тажрибаларни, тил бойлигини ва хаёл уфқларининг кенглигини ўрганди”.

Бадий асар матни герменевтик таҳлили жараёнида бадий адабиётнинг энг муҳим атрибутларидан бири унинг бадийлигини, аниқроғи, бадийликнинг инсон тафаккуридаги фалсафий-эстетик фантазияга муносабатини назарда тутиш лозим. Бу ўринда бадийлик “ўзига хослик”, “истиснолик”, “ишланганлик”, “сайқаланганлик”, “меъёрланганлик” маъноларига яқин ва айнан шу ҳодиса санъат мавжудлик белгисининг энг биринчи талаби. Бу маънолар бадий адабиёт намунасининг шакли ва ғояси

бинобарида юзага чиқади. Шакл ва ғоя эса мантиқ – билишнинг ўзига хос қирралари. **Билиш – тафаккур фаолияти, тафаккурнинг бу фаолияти эса, тилда намоён бўлади.** Бадиийлик бадиий адабиётда сўзда намоён бўладиган алоҳида хусусият сифатида унинг тили ҳам демакдир: **бадиийлик бу – бадиий тил.**

Бадиий адабиётнинг яна бир муҳим хусусияти – унинг индивидуал ижод намунаси эканлиги. Бадиий адабиётда энг муҳим ҳодиса – индивидуализм – ижодкорнинг ўз ғояси, унинг ўз асари орқали инсониятга айтмоқчи бўлган сўзи, гапидир. Гап, сўз - тил бадиий асар намунасининг борлиғи, унинг мавжудлик ҳолатидир. Бу тамойил ижоднинг, асарнинг барча мавжудлик категорияларини қамраб олади. **Оламнинг мавжудлиги ғоя экан, ғоя сўз билан ифодаланар, сўз эса, тилнинг намоён бўлиш шакли экан, онг, ғоя - тил, сўз эса, нутқдир.** Бадиий асар эса, бадиий нутқнинг реаллик касб этган варианты.

Тил, умумхалқ тили онгнинг мавжудлик ҳолати. Ҳар бир инсон ўз онгини тил орқали реаллаштиради. Тил - бу ўринда онгнинг реаллик калити. Нутқ эса, тилнинг ёзма, оғзаки, ички туйғуда реаллашган шакли. Сўз эса, нутқнинг, амалдаги тилнинг товушда либосга эга бўлган кўриниши. Буларнинг ҳаммаси умумхалқ тилида умумий, айрим ижодкорда хусусий, индивидуал кўринишга эга. Индивидуал ижод индивидуал тилни, аниқроғи тилнинг янги воситаларини талаб қилади. **Индивидуал тил – ижодкорлик.**

Бадиий асарда ижодкор икки шаклда намоён бўлади: янги ғоя ижодкори ёки мавжуд ғоянинг янги шакли ижодкори сифатида. Биринчисида у даҳоликка даъвогар, иккинчисида мавжуд даҳоликнинг давомчиси. Бадиий ижод даҳолари ёки унинг давомчилари ўз ғоялари билан ҳали башарият тасаввури уфқлари илғамаган қирраларни кашф этишга интиладилар.

Борлиқни билиш – англаниш меъёри ҳозирги мутафаккирларнинг тадқиқотларига кўра 36 даражани ташкил этади. Ердаги мавжудот шундан бор – йўғи 3 даражасини истифода эта олади. **0 дан 1 гача ўсимлик, 1 дан 2 гача хайвонот, 2 дан 3 гача инсоният.** Албатта, буларнинг ўзи ҳам чексиз ички

бўлинишларга эга. Шу боис бу шаклдаги классификация жуда нисбий характерга эга бўлиб, фақат материалистик таълимот нуқтаи назардан талабга жавоб бера олади. Ваҳоланки, уфология илмида борлиқнинг мавжудлик ҳолатини ўзаро тортишув, мувозанат натижаси билан белгилайдилар. Бутун олам мувозанати илмда гравитация деб номланган. Гравитация борлиқ бирлигининг энг муҳим ҳолатики, усиз борлиқнинг мавжудлик инъикоси ҳақида гап бўлиши мумкин ҳам эмас. Қолаверса, гравитация ҳар бир мавжуд нуқтанинг борлиқда ўз ўрни ва аҳамияти борлигининг зарурий шарти ҳисобланади. Бинобарин, ўша нуқтани истисно қилиш борлиқда мувозанатнинг бузилишига олиб келади. Мувозанатнинг бузилиши эса, борлиқнинг ҳалокати демакдир. Герменевтика жамиятдаги гравитациянинг мавжудлик ҳолатини ўрганишга қаратилган фан. У борлиқнинг (Ер сайёрасида) мавжуд ҳар бир воқеа-ҳодисасининг ўрни ва ролини меъёрлаштиришга қаратилган таълимот. Герменевтиканинг предмети ва таълимоти бу-тушуниш назарияси, яъни олам ва одам борлиғи ва бирлигини тушуниш муаммоси. Тушуниш бу-геометрик фикрлаш демакдир. Ваҳоланки, Аллоҳ томонидан яратилган ҳар бир нарса ва мавжудотнинг ўрни ва аҳамияти борлигини тушуниш, унинг мавжудлиги билан келишиш, ўзаро нифоқ, айниқса, интиқомга ўрин йўқлигини тушуниш ва атрофдагиларга шу тушунилган ғояни етказиш ҳақидаги таълимот. Бу борада Ўрта асрларда тасаввуф таълимоти қатор эътиборга молик ғояларни илгари сурган.

Бадий адабиёт, бинобарин, конкрет бадий асар бадий ғоя, бадий тафаккур сояси эканлигини ҳисобга олган ҳолда ғоянинг реал шаклини истисно қилиб, биз бу каби бўлинишларни бадий ғоя мавжудлигининг фақат бир шакли билан боғлиқ эканлигини эътироф қиламиз. Санъат ёки бадий адабиёт борлиқнинг образли инъикоси бўлганлиги боис бундай реалистик моддий жараёнларни ғояга айлантиради ҳамда уларнинг мавжудлик ҳолатини образларда инсон табиатига мутаносиб тасвирлайди. Бундай тасвир индивидуал ижодкорнинг ўз менталитети ва дунёқараши ҳамда худо берган таланти бинобарида ижодга, борлиқнинг оригинал кўринишига айланади.

Бадиий адабиётда бу каби ҳодисалар сўзнинг лексик-семантик ёки стилистик имкониятлари ичида ётади. Герменевтика санъатнинг образли инъикосини инсоният борлиғи ижтимоий гравитациянинг қонуний кўринишларини яратишга қаратилган таълимот сифатида санъат воситасида борлиқ ҳодисаларининг образли изоҳини унинг барча қонун-қоидалари доирасида тушуниш, тушунтириш ҳамда уни ҳис қилиш методларини яратади.

Ижоднинг индивидуаллиги кўп ҳолларда айнан шу қобикни ёриб чиқишга интилган даҳолар фаолиятининг тўлқинидир. Соя моддий ҳолат, тўлқин эса, ички туйғу, шаклсиз фаросатга бўйсунмас ёлқин. Ёлқин категорияси табиат ва жамият қонунларини тушуниш борасида инсон менталитетининг мавжудлик ҳолати. Инсон нималар биландир тарих ва келажакни ҳозирги ҳолатга боғлай олиши, улардаги воқеа-ҳодисаларни ёдда сақлаши, тасаввур қилиш ва қайта ишлаши, энг муҳими улардан ўзига хос хулоса, тушунчалар ярата олиши лозим. Унга бундай имкониятни тақдим қила оладиган ҳодиса ёлқин бўлиб, инсоният унинг воситасида борлиқ ва жамият мавжудлик категориялари устидан ўз тушунчаларини ярата олади. Ҳар қандай ёлқин инсонда аввало тасаввур орқали гавдаланади. Тасаввур эса, образлар билан ишлайди. Айнан шу ҳодиса санъатни борлиқнинг мавжудлигини тушунишнинг энг муҳим шарти сифатида тасдиқлайди.

Герменевтик индивидуализм асар яшаш тарзининг энг муҳим шарти. Борлиқни индивидуал кашф этган ёки билишнинг, тафаккурнинг индивидуал ҳолатини кашф этган асаргина унинг муаллифига шуҳрат келтиради, кейинги авлод учун классик намуна сифатида яшайди. Шуҳрат – машҳурлик, машҳурлик – таниқли бўлмоқ. Таниқли инсон - мавжуд материал, реал қобикни, ғоя – тафаккур ёлқини билан ёриб чиққан одам. Бундай бахт талантларга, салоҳиятлиларгагина насиб қилади. Талант ва салоҳият эгалари даҳолар, даҳолар эса ижодкорлардир. Ижодкор ягона, индивидуал кўринишга эга. Ғоя – индивидуал тафаккур ёлқини. Оммада ғоя фақат материаллашади, реалликнинг қулига айланади, ижодийликни йўқотади. Шу боис ижод – ғоя – тафаккур олий заминий кўринишдир.

Заминнинг олий кўриниши унинг ўзидан йироқлашади. Тўғарак жаҳонда ҳамма геометрик томон само, фазо - космос. Шу боис заминдан узоқлашган, кўтарилган тафаккур, у қайси томонга қаратилган бўлмасин самовий ҳисобланади.

Индивидуал тафаккур ёлқини самовий, самовийлик - оригиналлик, оригиналлик - янгилик, янгилик - бетакрорлик, бетакрорлик - ижодийлик. Ижодийлик билан индивидуаллик бу тизимда бирлашмоқда.

Асарда ижодкор айтмоқчи бўлган ғоя сўзларнинг ўз ва ҳаттоки кўчма маънолари ҳосиласи бўлмаслиги ҳам мумкин. Ижодкор яратган ғоя афористик шаклда бутун асар заминиди мужассам қилинади. Асар ғоясини ўқувчи - китобхон унинг сюжетида, образлар ва воқеалар динамикаси, уларнинг психологияси ҳаракатидан излаши лозим. Кўпинча муаллиф ўзи айтмоқчи бўлган гап бошқа ёқда қолиб, умуман бошқа мазмун, сюжет, ҳатто ғояни ҳам яратиши мумкин. Бу ҳам, албатта, асар сюжети, қаҳрамонлар психологияси, воқеалар ривожининг муаллифга боғланмаган ҳолдаги тараққиётга боғлиқ. Бу тасодифийлик онг маҳсули идрок билан белгиланади. Ғоя ҳар доим ва ҳар қандай ҳолатда бир умумий қобикқа эга. У асарнинг кўламида бошдан охиригача воқеа – ҳодиса, ҳаракат, сўз, образ, бадиий - тасвирий воситаларнинг умумий ёки хусусий инъикосларида ёлқин воситасида сезилиб туради. Ижодкор ғояни лингвистик воситалар семантикаси жараёнида эмас, балки ёлқин билан етказди ўқувчига. Ёлқин бизнинг назаримизда шундай универсал психологик ҳодисаки, унда нафақат инсоният жамияти ёки менталитетига боғлиқ ҳодисалар, балки умумборлиқ воқеа-ҳодисаларнинг ҳам тасаввурий акси намоён бўлади. Бу ҳодиса энг аввало ҳар инсоннинг шахсий фазилатлари борасида, у дунёга келган ва яшаб турган ижтимоий муҳитнинг менталитети билан ҳам боғлиқ. Биз ҳеч қачон бир шароитдаги одамдан у шахсий тасаввурига сиғдира олиши мумкин бўлганидан ортиқроқ нарса талаб қила олмаймиз. Чунки у шундай яралган ва фақат ўз муҳитида муносиб борлиқ. Бироқ бундай митти оламлар ўзаро бирлашиб, яхлит жамиятнинг борлиғини ташкил қилар эканлар ҳамда макон ва замонда мавжуд эканлар

улар ўз мавжудлиги доирасида борлиқ ва инсониятнинг маълум (ўз имкониятидан келиб чиқиб) билим ва ғоялар запасини истифода этадилар ҳамда ҳар бир воқеа-ҳодисага шу позициядан туриб шахсий муносабатини яратадилар. Бундай психологик жараён ҳозирда нафақат инсонларда исботланган, балки ҳайвон ва ўсимларга ҳам хос эканлиги аниқланган.

Борлиқдаги ҳар бир мавжудлик митти олам экан, унинг мавжудлиги мана шундай ёлқинни истифода қилиш орқали борлиқ қонуниятлари ва воқеликни бевосита иштирокчисига айланиши учун имкон яратади. Демак борлиқ, унинг мавжудлик қонуниятлари реал ва абадий воқелик экан, уларнинг ёлқини ҳам абадий, шунингдек, уларнинг инсон психологиясида менталитетига муносиб акс этиши ҳам реал воқелик. Санъатнинг оммавийлиги шартида энг муҳим нуқта мана шу.

Оммавийлик – бадий асар мавжудлик функциясининг, унинг герменевтик шароитда шаклланишининг муҳим шарти. Бадий асар фақат кенг омма тамонидан қабул қилингандагина адабиёт, санъат намунаси бўла олади. Омма – халқ асарни уч муҳим хусусиятга таянган ҳолда қабул қилади: биринчисида бадийлиги учун, ўзининг эстетик эҳтиёжини қондириш мақсадида, иккинчисида алоҳида даҳо тамонидан яратилган индивидуал ижод намунаси сифатида ва ниҳоят, унинг янги, инсон учун номаълум бўлган, унга янги дунё сирларини очадиган бадий ғоя ташиганлиги учун. Бу ўринда бадийлик ва ижодийлик худди ягона денгизга бирлашган дарёлар каби бир манзил ва ғояда-оммавийликда бирлашадилар.

Бу уч хусусият оммага бадий асарни реаллаштирган нутқнинг мавжудлик ҳолати – сўз орқали етиб боради. Сўз ва унинг маъно хусусиятлари бадий асар умумий ғоясининг реаллиги калити сифатида онг билан англаниб, тилга айланади. Бадий асар ғоясининг лисоний - тил хусусияти айнан шу шаклда намоён бўлади.

Оммавийлик бадий асар ғояси тилидан ташқари, унинг ифода – шакл тилига ҳам боғлиқ. Асарнинг эстетик эҳтиёжга мувофиқлашуви айниқса, шеърый асарларда янги лингвопоэтик материал яратишни ёки мавжуд

материални янги архитектоникада - шакл ва маънода истифода этишни талаб қилади. Омма ижодкордан янги асар, бинобарин, янги сўз кутади. Бу ўринда янги сўз жумласидаги “сўз” калимаси “ғоя” маъносини англатади. Ҳозирги вақтда “сўз” калимасининг бошқа маънолари ҳам шаклланмоқда. Унинг “китоб”, “бадий асар” “таълимот” маъноларидан ташқари матбуотда “спортда ғалаба”, “устунлик”, сиёсатда “қатъийлик”, “ваъдага вафо қилиш”, ижтимоий ҳаётда “менлик” каби маъноларда қўлланмоқда. (Бу борада яна юқорида айтилган бой ва камбағал сўзлар гуруҳига эътибор беринг). Инсон мавжудлиги борлиқни тушуниш, тушунтириш орқали намоён бўлар экан, инсон уни сўз билан тушунтиради, талқин ва тақрир қилади. Демак, борлиқ асосида сўз ётади. Бутун борлиқни битта ягона “сўз” билан изоҳлаш мумкин.

Бу ҳол оммавий ҳолатда бадий асар ғоясининг мавжудлик шакли сўз - тил билан боғлиқ эканлигини исботламоқда. Дунёнинг асосида ғоя – сўз ётади. Ҳар қандай ҳаракат, ҳолат - реаллик, реаллик эса, ғояга эга, ғоя эса сўз билан реаллашади, яъни оммалашади. Сўз ҳар қандай ҳаракат ва ҳолатнинг реаллашган қобиғидир. Ҳаракат ва ҳолатнинг, воқеа-ҳодисаларнинг ранг-баранглиги инсоният луғавий имкониятлари ичида ётади. Инсоният онги фаҳмламаган воқеа - ҳодиса онг ҳодисасидан ташқари ҳисобланади, яъни ўзининг моддий қобиғи – сўзга айланмайди. Демак, у тил ҳодисаси эмас. Бадий ижод ҳаёт ранг - баранглигини кашф этиш жараёнида кўп ҳолларда айнан мана шу анланмаган ҳодисаларни номлайди, яратади, инсониятга тақдим қилади. Табиатдаги индуктивлик, яъни марказга интилиш, кўп воқеа – ҳодисаларни умумлаштиришнинг энг муҳим ролини таъкидлайди, яъни уларни сўзда - тилда реаллаштиради, умумлаштиради.

Бадий тилнинг бадий адабиёт специфик хусусиятларига муносабати юзасидан олиб борилган қисқача таҳлил шуни кўрсатадики, бадий асар шахс ижодийлиги ва асарда акс этган маълум ғоянинг омма онгидаги ёлқинидан иборатдир.

Ёлқин индивидуал инсонда ҳиссиёт ва жамиятда тил – сўз воситасида реаллашади. Ёлқиннинг реаллик қобиғи адекват равишда ҳис ва тилдир.

Бадий матннинг герменевтик шароитда ёлқини унинг тил орқали ўзлаштирилишига асосланади. Бадий асар муваффақияти у яратган ёлқиннинг рангоранг товланиши ва ёлқин ранглари спектрининг оригиналлиги билан боғлиқ. Халқнинг асрлар мобайнида тўплаган бой ҳаётий тажрибаси қисқа матнларга-мақолларга, бадий асарда умумий ғояни шакллантира оладиган афоризмларга айланади ва келажак авлодга мерос қилиб қолдирилади. Мақоллар халқнинг дунёқараши, миллий маънавиятини белгиловчи мезонлардан бири ҳисобланади. Мақолларда инсон турмуш тарзи, орзу интилишлари унинг ҳаётий тажрибасига қиёсан акс этади, шу боис мақол рационал ёки сентиментал билишдан кўра кўпроқ бадий тилнинг эмпирик фаолияти самараси сифатида баҳоланади.

Бадий тилнинг мукаммал, теран, жозибадор ва нафис бўлиши бадий асар муваффақиятининг энг муҳим гарови. Инсоният бадий асарни мана шу хусусият гарови воситасида қабул қилади, ўзлаштиради, оммавийлаштиради.

Бадий адабиёт-бадий асар бадий тилда акс этган поэтик образли борлиқ сифатида олам ҳақидаги индивидуал инсон тасаввурини герменевтикада ёлқин воситасида оммалаштириш демакдир. Жамиятнинг ҳар бир вакили ўз менталитети ва худо берган имкониятларидан келиб чиқиб, асар воситасида табиат ва жамиятдаги муносабатларни тақдим қилинган образларда кўради, эшитади, ҳис қилади ҳамда улардан хулоса, тушунчалар яратади. Охир-оқибат ўзининг руҳий-психологик дунёсини қайта яратиш бинобарида жамиятнинг тўлақонли аъзоси бўлишга интилади. Катарсис-бадий адабиётда ижтимоий тушунишнинг калити сифатида мана шундай тарбиявий аҳамиятга эга.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Тисельтон Э. Герменевтика. – Черкасси: 2008.
2. Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида.-Т.: Маънавият. 2010.
3. Михайлов А.А. Современная философская герменевтика. –Минск: 1984.
4. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. –Москва: 1986.

5. Шпет Г.Г. Герменевтика и ее проблемы // Контекст. Литературно-теоретические исследования.-Москва:1989-1992.
6. Султонов И. Адабиёт назарияси. –Тошкент: 1982.
7. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. –Тошкент: 1968.

НАВОИЙ ЛИРИКАСИДА АЖДАР ОБРАЗИ: МУХТАСАР ТАЛҚИН

*Хасанова Лайло Фирдавсиевна
Чирчиқ давлат педагогика институти ўқитувчиси*

Аннотация: Ушбу мақолада Алишер Навоий лирикасида қўлланилган аждар образи билан боғлиқ масалаларга тўхталиб ўтилган, Аждар образининг мумтоз адабиётдаги маънолари ўрганилиб, мухтасар баён этилган.

Калит сўзлар: Алишер Навоий, аждар образи, илон, мажозий маъно, нафс, зулф.

Шарқ халқлари адабиётида аждар образи кенг қўлланилган. Ўзбек адабиёти намуналарида: халқ оғзаки ижоди ва мумтоз адабиёт асарларида ҳам мурожаат қилинган. Ўзбек халқ оғзаки ижоди, дostonларда аждарҳо образи қаҳрамоннинг мардлигу жасоратини намоён этиши учун восита вазифасини бажариб келади.

Халқ қарашларига кўра, илон тўққиз ёшгача “илон” дейилди, тўққиз ёшдан тўқсон ёшгача “Афҳи дейилади. Тўқсон тўққиз ёшдан тўққиз юз ёшгача аждарҳо дейилди. Тўққиз юздан тўққизминг ёшгача “юҳо” дейилади. [Жўраев Маматқул. Фольклор ва адабиёт. – Т. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. 46-бет].

Аждодларимиз аждарни ҳосилдорлик, ёмғир, сув, шамол ва булут билан бевосита алоқадор мифологик жонзот деб тасаввур қилганлар

Аждарга қарши курашиш халқ оғзаки ижоди ҳамда мумтоз адабиётда жасурлик ва қўрқмаслик тимсолига айланган. [Алишер Навоий: қомусий луғат.

Т.: “Sharq”, 2016. – 54-бет]. Шунга кўра дoston ва эртакларда келтирилган аждар образи қахрамоннинг жасоратини синовчи восита вазифасини бажаради. “Равшан”. “Кунтуғмиш” дostonларини оласизми, “Уч оғайни ботирлар” эртагини оласизми, барчасида қахрамонларнинг мардлиги ва баҳодирлигини шу тариқа намоён этади.

Алишер Навоий асарлари билан халқ оғзаки ижодининг ўзаро муносабати ҳақидаги қарашлар Нодир Жўрақўзиевнинг “Алишер Навоий ва мифология” номли мақоласида аждар образининг генезиси тадқиқи қилинади. Унда образ тасниф қилиниб, аждар образини “Ёвузлик ҳақидаги мифлар” турига киритади. [Жўрақўзиев Н. “Алишер Навоий ва мифология”/ “Алишер Навоий ва ХХI аср” мавзуидаги республика илмий-назарий анжумани, Тошкент: 2016. – 60 б.]

Бу тасниф ҳам аждар образини мазмуни англашга ёрдам беради.

Мумтоз адабиёт намуналарида юқорида акс эттирилган мазмунга мажозий мазмун юкланган ҳолда инсон учун энг катта рақиб сифатида кўриладиган нафс образини намоён қилади ва Навоий асарларида бунинг турли хил шаклдаги талқини кўзга ташланади.

Аждар, асосан, ишқ туфайли мўр (чумоли)дан ҳам ожизлик қилишини ифода этади ва шу орқали ишқнинг куч-қудрати нақадар эканлигин кўрсатиб беради.

Не айб, ишққа бу мўри мубтало ожиз

Ки, ишқ агар будурур, бўлғай аждаҳо ожиз.

Мазмуни: не айбки, мўри ожиз ишққа мубтало бўлса , ишқ шундай нарсаким бунда аждарҳо ожиз бўлғай деган мазмун англашилади.

Яъники, ишқнинг даражаси шунчалар юксакки, аждарҳо (нафс) бу ўринда қанчалар қудратли бўлмасин, ожизлик қилади, деган мазмунни англашимиз мумкин.

Ёхуд ушбу байтларда мазкур фикрларни яна ҳам образли шаклда, жонли тасвир орқали ифода этилганлигини кўришимиз мумкин:

Ажаб муҳлик эмасму ишқ дашти, эй мусулмонлар

Ки, бир мўрига ҳар кун туъма икки аждаҳо бўлди.

Мазмуни: Эй мусулмонлар, ишқ дашти ғаройиб ҳалокатли жой эмасми, негаки, ҳар куни бир чумолига икки аждарҳо ем бўлади.

Бундан ташқари аждаҳо образи зулф детали билан ҳам биргаликда ифода этилади. Маълумки, тасаввуфда бу детал ягоналикдан ажратиб турувчи олам, илоҳий манбани аглашга тўсиқ рамзини англатади. Н. Комилов бу образни дунё– қасрат маъносида келишини ҳам айтиб ўтади.

Қилич боғи белинг қучқон ҳасаддин

Кўзумга аждаредур шакли қуллоб.

Аждар образининг зулф билан параллел шаклда истифода этилиши юқорида таъкидлаган нафс маъносини образли шаклда яна ҳам гўзалроқ ўқувчига етказиш воситаси бўлади дейиш мумкин. Айни зулф, яъни сочининг ҳалқплари дунё ташвишларини, Мутлақ Ҳақдан узоқлаштирувчи воситаларни ифода этади ва байтда айни унинг аждар шаклида тасвирланиши нафснинг асоси бу дунёнинг ташвишларидан иборат эканлигини образли шаклдаги кўришниши сифатида намоён бўлади. Тасавуф адабиётини бел тушунсани толиб ва матлуб ўртасидаги азалий муносабат, ошноликни назарда тутди шу маънода Дунё ташвишларини солиқнинг белидан қучиши унинг дунё ташвишлари билан оввора эканлигини тасвирлайди.

Навоийнинг бу шаклдаги образлардан ёрқин кўринишда фойдалана олиш санъати ўқувчини тасавуф адабиётини теран тушунишга ҳамда шу орқали руҳини тозартириши учун восита бўлишга хизмат қилади.

Хулоса қилиб айтганда, аждар образи мумтоз адабиётда нафс маъносини ифода этади. Аждар образи соч билан биргаликда ифода этилади. Бунда тасаввуфда англанадиган мажозий маъно билан биргаликда аждарнинг дунё ташвишлари, илоҳий файздан мосуволик маъносини ифода этади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Sirojiddinov Shuhrat, Yusupova Dilnavoz, Davlatov Olimjon. Navoiyshunoslik [Матн] Q. 1: darslik / Sh. Sirojiddinov [va boshq.]. — Тошкент: «TAMADDUN», 2018. — 520 b
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 га яқин сўз ва сўз бирикмаси. Ж. III. Н – Тартибли/ масъул муҳаррир А. Мадвалиев. – Т.: “O‘zbekiston nashriyoti” davlat unitary korxonasi, 2020. 219-бет
3. Алишер Навоий: қомусий луғат. Т.: “Sharq”, 2016. – 54-бет.
4. Жўрақўзиев Н. “Алишер Навоий ва мифология”/ “Алишер Навоий ва XXI аср” мавзuidaги республика илмий-назарий анжумани, Тошкент: 2016. – 60 б.
5. Жўраев Маматкул. Фольклор ва адабиёт. – Т. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. 46-бет
6. Абдуллаев А. Тасаввуф ва унинг намоёндалари, Термиз, 2007. 189-бет
7. Хасанова, Лайло Фирдавсиевна (2021). Some comments on the etymology of the word “It” (dog) // Экономика и социум" №7(86) 2021, 574-576 бетлар
8. Хасанова, Лайло Фирдавсиевна (2021). “Оқчарлоқ Ливингстон” асарида тариқат мақомлари талқини // Academic research in educational sciences, Volume 2, Issue 3, 325-329-бетлар
9. Хасанова, Лайло Фирдавсиевна (2021). Interpretation of dog image in Badoe'u-l-bidoya // Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, Volume 2021, Issue 4, 8-1-2021

МИЛЛИЙ КОЛОРИТНИНГ БАДИИЙ ИФОДАСИ (ХОЛМУҲАММАД ҲАСАН ИЖОДИ МИСОЛИДА)

*Шоҳида Карамова, Қарши давлат университети
Адабиётшунослик кафедраси доценти, ф.ф.н.,
Зарина Норбоева, Қарши давлат университети
ўзбек тили ва адабиёти йўналиши 3 курс талабаси*

Бадий адабиёт ва унинг таркибий қисми – шеърият инсон руҳини, маънавий оламини бойитади ва камол топтиради. Поэтик асарларда инсоният ҳаёти, жамият ҳаётининг энг долзарб муаммолари лирик қаҳрамоннинг маънавий оламини теран, ҳаққоний, сирли, яширин, гўзал ёки хунук

томонларигача тасвирлаш орқали кўрсатиб берилади, кашф этилади. В.Г.Белинский қайд этишича, “ҳар бир санъат асари санъаткорнинг ўз идеалларини юзага чиқариш, ўз ички дунёсидан ташқарида гавдалантириш йўлидаги илҳом билан қилинган хатти-ҳаракатининг самарасидир”

Демак, шеърда турли бадий гўзалликлар муҳим бўлса-да, теран, бой салмоқли мазмун асосий ўринни эгаллаши керак. Унда ижтимоий мазмун, фикр, ғояга нисбатан, баъзиларга арзимас кўринган, лекин турли сиёсий, ижтимоий, тарихий муаммолардан холи, инсон руҳиятининг бир лаҳзали, бетакрор кайфияти ва ҳолатларининг тасвири муҳим аҳамият касб этади. Бу талаб ҳам, албатта, шеъриятнинг асосий вазифаси—инсонпарварлик, гуманизм, ҳаётпарварлик руҳидан, турли сиёсий найранг, низо, қирғин урушлардан кўра, жамият ҳаётидан четроқда, қишлоқда, тоғ этакларида, дала, боғлар, табиат кучоғида бир лаҳзали инсоний кувонч ва ором муҳимроқдир, деган санъат талабидан келиб чиққан.

Ана шундай ижодкор Қашқа воҳасининг танти фарзанди, шоири Хол Муҳаммад Ҳасан. Унинг ижоди бир қараганда Ватанини, воҳасини, қишлоғини севган фарзанднинг дил изҳорларидан иборатдек. Аммо ўша секингина жаранглаган мисралар замирида ори осмон, бели боғлиқ жўмард воҳа кишисининг камтарин ва айни чоғда катта қалби мужассам. Самимий лирикаси билан адабиёт ихлосмандлари орасида суюмли бўлган бу шоирнинг ижоди бир қадар ҳайратли, бир қадар ҳаяжонли. Олис Деҳқонобод тоғларидан таралган бу каби сархил садо шовқин тўла шаҳарларда, ёхуд ўзга қишлоқларда, дарёбўйи ҳудудлар-у, қўйингки, саҳройи манзилларда яшайдиган ўқирманларнинг қалбига етиб бориши, ҳис-туйғуларини безовта қилиши сўзнинг қудрати, муаллифнинг маҳорати билан чамбарчас боғлиқдир.

Дарҳақиқат, Буало фикрича, ҳаёт ҳақиқатини ёзиш ўрнига, жимжимадор, мураккаб, туманли қилиб ёзиб, мен бошқалардай фикрламайман, деб мақтанган шоирларга эргашмаган маъқул. “Халққа севимли шоир бўлишни истасангиз, бир хилликдан, зерикарли ёзишдан қочинг, бундай шеърлар одамни ухлатиб қўяди”,—дейди у

Хол Муҳаммад Ҳасан ижодини жимжимадорликдан холи, Қашқа воҳасининг ўзига хос “ҳужжати” дейиш мумкин. Негаки ундаги қишлоқ лаҳжасидаги гўзал диалектларнинг жаранглаши, кундалик турмушдаги сиз-у бизга деярли ҳар куни учрайдиган ҳодисотлар, урф-у одатларнинг жонли тасвири, қишлоқча содда ҳаётнинг таъсирчан сўздаги чизгилари такрорланмасдир. Ватанни севган, уни жон қадар суйган ошиқнинг ошиқона ижодидир.

Ҳар кишининг қайси миллатга мансублигини қиёфасига қараб тахмин, тилига қараб тафаккур қилиш мумкин. Шоир ижодининг энг эътиборли жиҳати унда фольклор мотивларининг устуворлигидир. Шеърлари қатъий оҳангдан йироқ, балки тилга олиниши билан қўшиқ бўлиб жаранглайдиган халқона изҳорлардир. Шоирнинг “Оҳува” шеъри фикримизнинг айна тасдиғидир. Шеърда қўшиққа хос шўхлик, халқ термаларига хос шижоат, бадий ғайратни сезиш қийин эмас. Муаллиф гўё бир-бирини қувлаётган фикрлар, ҳис-туйғуларни айтиб олишга улгурмаётгандай ёзади. Танланган сўзлар сеҳри эса созланган создан таралаётган шўхчанг куй каби ёқимлидир. Унда миллий анъаналаримиз, шарм-ҳаёга йўғрилган муҳаббатимиз, садоқатимиз акслантирилади. “Оҳува”нинг жаранги ғоят гўзал, бадий ифодаси ғоят бежиримдир.

Ўтириб эдим-а ўй тортиб,
Бўй йигитга бўй тортиб.
Қайданам чиқди қотган чол
Қосоғадан най тортиб.
Наймиди наво-я, оҳува,
Жабрми жафо-я, оҳува,
Ўтар бўлдим дунёдан
Кўрмай вафо-я, оҳува.

Ҳар қандай асар борки ундаги воқеа, сюжет, образ кабиларнинг ҳар бири асарда маълум бир вазифа ташийдир. Ўқувчининг диққатини асарнинг ғоявий ҳалқаларида тақсимлайди, ўрни келганда сергаклантиради ва асар сўнгида

катта умумлашмалар яратади. Муаллифнинг маҳорати мана шу бўлиш, кўрсатиш ва яхлитлаш жараёнларини одилона бошқаришда намоён бўлади. Мақсади эса китобхоннинг юзида, сўзида ва қалбида гул очади. “Оҳува”да айни мана шу ҳолат яширмасдан, оширмасдан тасвирланган. Унда миллий менталитет масаласи устун. Муҳаббатга ғарқ бўлган юрак, висолга интиқ аёл, аҳдига содиқ она образи чизилган. Садоқат масаласи катта ҳарорат билан битилган.

Шоир ижоди халқоналикнинг ижтимоийлик билан синкрет ҳолатда келиши ҳайратимизга сабаб бўлади. Биргина тўртликда элининг яхши кунларини, гўзал одатларини, миллий қадриятларини сўз воситасида қайта жонлантиради. Воҳамизга хос тилда ўқувчига етказди. Бу каби жонли мулоқотнинг бош сабаби муаллифнинг шу эл, шу макон фарзанди эканидан ҳақли равишда туяётган фахрдир.

Кекса тулпор кўпкарида кўп югурар, кўп елар,
Чавандозин қаҳрини ҳам, қамчи зарбин хўп билар.
Зот айирар-соврин олар, бироқ ҳамон топганин,
Ҳанграшидан дунё безор-яғир эшак еб келар.

Бу мисралар бевосита кўз ўнгимизда кўз илғамас кенгликлар, қир-у адирлар, саноксиз чавандозлар, ишқибоз болалар ва шунингдек, нафақат халқимиз, балки қардош халқлар эътирофига сазовор бўлган миллий кўпкари тасвирини гавдалантиради. Отлар ҳансираши, туёқлар дупур-дупури, минглаб “қамчи бос”ларнинг саси қулоғимизда эшитилгандек бўлади. Айни бу ҳолат ўқирманни муаллиф маҳоратидан рози қилгандек бўлади. Яна бир шеърда айни шу мавзу ёритилади:

Мен-чи кўзга чизиб олиб,
Кўпкарининг суронин,
Найнинг махзун ноласини
Кўксим узра қучоқлаб.
“Бош табок”қа талабгор, ул,
Нор билак полвонларинг

Шухратини ташлаб сендан

Қандай кетай йироқлаб.

Юқоридаги мисраларда Ватанпарварликнинг шоирона шарҳи ўз аксини топади. Миллий кадриятлар кадр топган кадрли макон ва унга бўлган хайрли туйғулар тараннуми куйланади.

Хол Муҳаммад Ҳасан шеърларида шева ва лаҳжаларга хос сўзларнинг учраши ва уни китобхон медресига тегмайдиган қилиб ёзиши нозиктаъб илм аҳли олдида ҳам, қизиқувчан китобхон олдида ҳам муаллифнинг юзини ёруғ қилган жиҳатлардан биттасидир. Айнан Қашқа воҳасининг жонли тилида келтирилган каломлар, қайноқ иборалар муаллиф лирикасининг ўзига хослигини таъмин этади.

Сибизғамни чаламан-а,

Бой қизини оламан-а,

Бой қизини бермаса-я,

Соқолларин юламан-а.

Бойнинг соқоли сори-я,

Ўтовни товдан нари-я,

Қўш қадига сув тўлдириб,

Саҳар ўтар қизлари-я.

Шоир ижодидаги халқ оғзаки ижодидан кўчиб ўтган унсурлар ҳақида ёзиб тугатиш анчайин мураккаб вазифа. Негаки ҳар қадамда фольклор мотивлари, анъаналари кўзга ташланади. Айниқса шеърлари ичида мақол қўллаш ва уни айтган ва айтмоқчи бўлган фикрларининг исботи тарзида келтириш маҳорати айтиб ўринлидир. Мақоллар қадимдан ҳам сўз беағи, фикрнинг жимжимадор тасвир воситаларидан биридир. Уларнинг шеърий мисраларда моҳирона қўлланилиши эса янги фикрларнинг янада янгилалишига туртки бўлган.

“Қолган ишга қор ёғар” деди

Тун-кун шу иш ғамини еди.

“Бузоқнинг югургани сомонхона” дейман мен,

Ҳайит ўтгунча, майли, қўйсин хино дейман мен.

Бош айланиб,

Ё алданиб

Тутолмасанг.

Енг шимартиб,

Тўр кўтартиб

Юбор совчи.

“Қор ёнармиш”

Деган миш-миш

Ҳақиқатмиш,

Истаб шаҳар

Топсанг агар,

Зўр қаловчи.

Баъзан ҳориб, баъзан илҳомланиб, баъзан недир ахтариб адабиётга, шеърятга, шеърга мурожаат қиламиз. Мутолаа сабаб ҳорғинлик унутилиб, дардлар даво топади. Илҳомимиз аланга олиши турган гап. Айнан Хол Муҳаммад Ҳасан ижоди ҳам толиққан кўнглимиз, чиниққан тафаккуримиз, ҳорғин туйғуларимизга бир қатра шифо тутгувчи бадий муолажаа десак айни топиб гапирган бўламиз.

Ўзи яшаб турган давр, замоннинг ижтимоий, сиёсий, ахлоқий, тарихий муаммоларини нозик ҳис қилувчи, оламни поэтик идрок этувчи, ўз қалбида, маънавий оламида даврнинг илғор, гуманистик тенденциялари – ҳаётнинг энг муҳим ҳодисалари ҳаққоний ифодааланган ижодкорларгина ўз халқининг сеvimли шоири, фаҳри бўлиб қолади.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Буало Н. Поэтическое искусство. М.: ГИХЛ, 1957. -С.87.
- 2.Белинский В.Г. Адабий орзулар. –Тошкент: Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987.– Б. 112.

FIROQIY G‘AZALLARINING TIL XUSUSIYATLARI

Go‘zal Jo‘rayeva, O‘zDJTSU

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi

Firoqiy she‘riyatidan bahramand bo‘lar ekanmiz, beixtiyor undagi poetik ohang bilan uyg‘unlashgan, o‘quvchi ongiga yetkazayotgan kechinmalarni qulay tarzda ifodalashga xizmat qilgan til xususiyatlaridan chiroyli foydalana olganini guvohi bo‘lamiz. Xususan, ijod namunalarining sintaktik, leksikologik, morfologik, stilistik qurilishi e‘tiborni o‘ziga tortadi. Biz quyida ayni shu jihatlariga nazar tashlab, ijodkorning badiiy mahoratini ochib berishga harakat qilamiz.

Nutqimizda biror predmetni o‘z nomi bilan emas, qaysidir bir jihati bilan o‘xshash bo‘lgan boshqa predmetning nomi bilan atash hodisasini tilshunoslikda metafora deb ataymiz. Bu ma‘no ko‘chishi jamiyki ijod ahli ijodida salmoqli o‘rin egallaydi. Buning sababi, bir tarafdin go‘zal dalillash bo‘lsa, boshqa tarafdin so‘z ma‘nolarining o‘ziga xosligini ko‘rsatishdir.

Zuhur aylab labingdinkim tabassum qilmog‘ing chog‘i,

Jaholatda qolur gullar ko‘rub ruxsor olingni.[1]

Ushbu baytda metaforaning go‘zal namunasini uchratish mumkin. Jaholat tushunchasi insoniyatga xos bo‘lib, “ilmsizlik”, “qoloqlik”, “madaniyatsizlik” kabi ma‘nolarni bildiradi. Bu o‘rinda gullarning yor husnidin keyingi darajaga tushirilib, jaholatda tasvirlanishi ma‘noning ko‘chishiga asos bo‘lgan. Bundan tashqari, “ol-qirmizilik, qizillik” ning inson yuziga nisbatan ishlatilishi metafora jihatlarini namoyon qilgan. Yuzdagi “ol” lik sifatining predmet-ruxsor so‘zidan keyin qo‘llanishi ham ma‘no ko‘chishining kuchayishiga sabab bo‘lgan.

Yog‘liqq‘ina ko‘chadek qizorgan,

Gullola kabi yuzi chiroylik.

Yuqorida keltirilgan “chiroylik” radifli g‘azalidagi baytda ham yuzga nisbatan “yog‘liqq‘ina ko‘chadek qizorgan gullola kabi” o‘xshatishining qo‘llanishi metaforaning betakror namunasini yuzaga chiqargan va ijodkorning so‘z qo‘llash

mahoratining yuksakligini ko'rsatgan. Binobarin, ayni shu g'azalning radifi bo'lgan "chiroylik" so'zi asli ot so'z turkumidan –lik qo'shimchasi orqali yana ot yasagan(mavhum ot). Lekin, baytda shoirning mahoratini ko'z-ko'z qiluvchi ma'noviy ko'chish yuz bergan. Ya'niki, chiroylik so'zi g'azalda xususiyatni bildirgan va ot kesim vazifasida qo'llangan. Ayni shu g'azalning maqta'siga e'tibor bersak, "so'zning tusi" birikmasi uchraydi:

Madhida Firoqiy safodurman,

So'zlarda so'zin tusi chiroylik.

So'zga nisbatan, shirinlik belgisi berilgan she'rlarni ko'p o'qiganmiz. Lekin rang-tus belgisi berilganligi sanoqli. Quyida "Kuydurma" radifli g'azalidan keltirilgan bayt misolida ma'no ko'chishining metonimiya va sinekdoxa turlarini ko'rishimiz mumkin.

Karam qil la'l nobing bodasidin tashna qullarg'a,

Yotur yo'lingda naylay zor xumoringni kuydurma.

Ya'ni, lab so'zi o'ziga uzviy aloqador la'l nomi bilan keltirilgan va bu metonimiya ma'no ko'chishini hosil qilgan bo'lsa, yor yo'lida yotgan oshiqning sifatlaridan biri "xumor" qismi orqali ifodalanishi sinekdoxani vujudga keltirgan. Bundan tashqari, baytda uchragan "naylay" so'zining turkiy so'zlarning an'anaviy fonetik tarkibiga moslashib qolganini ko'rish mumkin. Naylay so'zi na qilay birikmasining bir so'zga birlashuvi bilan hosil bo'lgan.

Ijod namunalari orasida omonimlardan foydalana olish darajasi ancha yuqorilikni zabt etganini quyidagi bayt misolida ko'rishimiz mumkin:

G'arazlik oshno ko'p chun bozoring rivojida,

Tonar sendan qochar ketkanda bu bozor kamdan-kam.

Haqiqiy oshnolarni Firoqida adodurman,

Jahonni sayr qildim do'st bozor kamdan-kam.

Bozor so'zi izohli lug'atda quyidagicha ma'nolarni ifodalay olishi ko'rsatilgan:

I. Aholi savdo-sotiq qiladigan maxsus joy, maydon

II.Shunday joyda savdo-sotiq qilinadigan kun.

III.G‘ala-g‘ovur, shovqin-suron holat.

IV.Sotuvchilar va xaridorlar o‘rtasida tovar ayriboshlash munosabatlari.

V.Taqdir, qismat.

VI.Biror harakat yoki faoliyatning haddan oshishi, avjiga chiqishi, qizishi.

VII.Ism.

Baytning birinchi misrasidagi bozor so‘zi umr, taqdir ma’nosida, ikkinchi baytdagi esa dunyo ma’nosida kelgan.

Firoqiy she’riyatidan o‘rin olgan hamd g‘azalining besh o‘rnida Alloh ismlari zikr etilgan baytlar uchrasa, bir o‘rinda to‘rt xalifa ismlarining keltirilishi va yana bir o‘rinda Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) ning qizlari Fotima (r.a)ning nomlari keltirilishi uchraydi.[2]

Anga yor ayladingkim chahoryor besafolarni,

Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali – haydar dono

Sipehr badr uldurga nujum ul ol-as’habno,

Ikki sibotayn nura’yn ul Fotimat uz-Zahro.

Ko‘rinadiki, yuqoridagi baytlarda mavjud shaxslar ismi antroponimlarni hosil qilgan.

Ko‘plab ijodkorlar o‘zi jod namunlarida maqollar, iboralardan unumli foydalana olishadi. Qaysidir ijodkor baytida maqolni ochiq qo‘llasa, yana bir boshqa ijodkor maqolning mazmunini saqlagan holda, boshqa strukturada ifodalaydi. Firoqiyning “vafo qilur” g‘azali matla’dan maqta’gacha o‘gitlar, hikmatli so‘zlar mazmunida didaktik yo‘lda yaratilgan. Binobarin,

El xizmati kishini maqomin baland etar,

El ham aning uchun hamma jonin fido qilur.

Bayti ham xalq orasida yuruvchi “Erning ishi-elning bo‘ynida, Elning ishi-erning bo‘ynida” maqoliga ham ohanglik hosil qiladi.

Frazeologik iboralarni qo‘llash uslubiga e’tibor qaratsak.

Na qilsang sen qilursan, hech kim mone’ etolmaydur,

Qilursan ko‘z yumub ochguncha har paydoni no paydo.

Ushbu baytda “ko‘z yumub ochguncha” iborasi qollanib, “ozgina vaqt orasida” degan ma‘noni bildirmoqda va g‘azal matnidan kelib chiqib, Yaratuvchining har narsaga har vaqtda qodirligini ko‘rsatish uchun foydalanilgan.

Agar himoyating ey yil bog‘i guli gulshan,

Yotarmen ostonangda urub boshimni devora.

Yuqoridagi baytda ham yorning qadrini endi bilib, ya‘ni boshi devorga urilib, ostonada yotgan oshiq obrazi orqali chiroyli tasvirlangan bo‘lsa, quyidagi baytda yorning rahm etishidan umidvor oshiq holati “ko‘z tutorman” iborasi orqali ifodalangan.

Davoyi darmanding, ey Firoqiy, sanga rahm etsun,

Umidim rahm etar deb ko‘z tutormen zor bechora.

Firoqiy Muqimiy g‘azaliga bog‘lagan muxammasida undalmalar va ma‘no farqlovchi ko‘makchilardan unumli foydalana olgan. Undalmalar qo‘llanish o‘rniga ko‘ra, gap boshida, o‘rtasida va oxirida kela oladi va o‘rniga qarab, mazmun kuchaytirish vazifasini bajaradi. Quyidagi bandda ham “ey qosid” undalmasining misra oxirida takrorlanishi e‘tiborni kuchli jalb qilish uchun ishlatilgan bo‘lsa, undalmadan oldin kelayotgan kesimlarning buyruq shaklida ifodalanishi bildirilayotgan fikrning ijrosi bo‘lishi lozimligini ta‘kidlagan.

Bayon et holi zorim ojiz ayla shirin til, ey, qosid,

O‘zing hushyor etib holi dilin sharhin bil, ey, qosid,

O‘lar holimg‘a tedim dardima darmon qil, ey, qosid,

Qo‘narg‘a o‘zga manzil istamay tayin qil, ey, qosid,

No‘shmin holi ko‘zlar manzuridir boibo kelsun.

Boshqa bir bandida “uzra” ko‘makchisining ma‘no qirralarini ochib bergan:

Yubordim nomai bedorni nigor mahvashim uzra,

Unib chiqti giyoh, mehr oqqan ko‘z yoshim uzra

G‘arib holim so‘rarg‘a kelmadi bir yo‘l quyoshim uzra

G‘uborim yerda qoldi bir xirom aylab boshim uzra,

Qilurg‘a zarrani xurshid birlan oshno kelsun.[3]

Birinchi misrada jo‘nalish kelishigi, ikkinchi misrada chiqish kelishigi vazifasini, uchinchi misrada tomonga so‘zi, to‘rtinchi misrada ustida (o‘z ko‘makchilik ma‘nosida) so‘zi o‘rnida qo‘llangan va bu shoirning tildagi mavjud bir so‘zning serqirra ma‘nolaridan foydalana olganini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Firoqiy. Devon. Qo‘lyozma.- Qo‘qon, 1964-yil.
2. P.Qayumov. “Tazkirai Qayumiy”. 1-daftar.-Toshkent, 1998-yil.
3. G.Q.Jo‘rayeva. Firoqiy - Qo‘qon adabiy muhitining vakili. “Qo‘qon xonligi davlatchilik tarixi” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. 2022-yil , 14-15-aprel
- 4.G.Q.Jo‘rayeva. Firoqiy devoni: tuzilishi va tarkibi. “Qo‘qon adabiy muhiti va uchinchi renessans” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. “Farg‘ona” nashriyoti. 2022-yil, 28-may

AYRIS MYORDOKN ASARLARINING TALABA-YOSHLAR MA'NAVIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDAGI O‘RN

***Gulbaxor Kerimbaevna Rasulova,**
Toshkent to‘qimachilik va yengil
sanoat instituti assistenti*

Annotatsiya: Maqolada iste’dodli ingliz yozuvchisi Ayris Myordokning qisqacha biografik ma’lumoti va yozuvchi sifatida shakllanishiga oid ba’zi ma’lumotlar keltiriladi. Ayris Myordok ham olim, ham yozuvchi sifatida, ayniqsa, modernizm va postmodernist dunyo qarash shakllangan davrda faoliyat yuritganiligi, bunga jamiyatdagi madaniy-ma’naviy inqiroz, yangiliklarning jadal kirib kelishi kabi muammolar ta’sir etib, XX asr o‘rtalaridagi “asabiy yoshlar avlodi”davrini o‘z asarlarida aks ettirganligi bilan e’tiborga loyiq. Ishda yozuvchining o‘ziga xos ijod yo‘li, romanlaridagi ingliz xarakteriga xos xususiyatlar ko‘rsatib o‘tiladi.

Kalit so‘z va iboralar: roman, Ayris Myordok, modernizm, ekzestensializm, xarakter, muammo.

Аннотация: В статье представлена краткая биография талантливой английской писательницы Айрис Мердок и некоторые сведения о его становлении как писателя. Айрис Мердок, как ученый, так и писатель, была особенно активна в модернистском и постмодернистском мире, с культурным и духовным кризисом в обществе и бурным наплывом инноваций. В произведении показан уникальный творческий путь автора, черты английского характера в его романах.

Ключевые слова и фразы: роман, Айрис Мирдок, модернизм, экзистенциализм, персонаж, проблема.

XX asr o‘rtalaridan XXI boshigacha bo‘lgan davrda Buyuk Britaniya qator ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. Bu, avvalo, ikkinchi jahon urushi, urushdan keyingi ruhiy tushkunlik davri, iqtisodiy nochorlik, qator mustamlaka o‘lkalarga mustaqillik berilishi, o‘tgan asr etmishinchi-saksoninchi yillaridagi qattiqqo‘llik siyosati, Evropa birlishishi uchun intilishi va unda o‘z o‘rniga ega bo‘lish hamda mamlakatda Shodlandiya, Shimoliy Irlandiyaning mustaqillik uchun kurashi kabi qator ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ingliz adabiyotiga ham katta ta’sir ko‘rsatdi. Bu davrni hali hech kim yaxlit tizim sifatida o‘rganib, unga tegishli ta’rif bermagan. Chunki buning imkoni yo‘q. Ana shunday murakkab yillarda ingliz nasrida etakchi o‘rinlardan birini egallagan iste’dodli yozuvchilardan biri Ayris Myordok bo‘ladi.

Jin Ayris Myordok (Jean Iris Murdoch) sermahsul yozuvchi, dramaturg, shoir va olim sifatida Buyuk Britaniya adabiyoti tarixida salmoqli o‘ringa ega. Yozuvchi o‘z ijodiy faoliyatida yigirma oltita roman, bir nechta dramatik asarlar, Antik adabiyot tarixi, Angliya adabiyoti etakchi xususiyatlari, ekzestensillizm va Jon-Pol Satr ijodiga oid ilmiy risolalar yozib qoldirgan.

Uning otasi Uils Jon Nyus Myordok birinchi jahon urushi paytida ingliz otliq qo‘shinida xizmat qilgan [1]. “Myordok” so‘zi shotland-gaels (kelt) tiliga mansub bo‘lib, adibaning onasi, qizlik familiyasi bo‘yicha Iren Alis Richardson, irland

operasida qo'shiqchi bo'lgan. Otasi urushdan keyin Dublin shahrida davlat xizmatchisi lavozimida ishlagan. Shu erda Iren Alis Richardson bilan tanishib oila qurishadi. Oradan bir yil vaqt o'tib, aniqrog'i 1919 -yilda qizchalik bo'lishadi va unga Deym Jin Ayriss Myordok deb ism qo'yishadi. Myordoklar oilasi qizcha tug'ilgach, 1920 -yilda Angliya poytaxti London shahriga ko'chib o'tadi. Deym Jin Ayrissning bolaligi shaharning g'arbiy chekkasida, Xammersmit va Chizvichda o'tadi. Dastlab Frebel namunaviy maktabida, so'ngra Bristoldagi Badminton maktabida o'qiydi. Jin Ayriss maktabda yaxshi ta'lim oladi. O'zi ham namunali o'quvchi sifatida e'tirof etiladi. Keyin esa Angliyaning ikki nufuzli universitetini tamomlagan. 1938-1942-yillarda Oksford universiteti qoshidagi Sommervill kollejida qadimgi tillar, antik davr tarixi va falsafasidan ta'lim oldi. So'ngra Qirollik universitetining Nyuxem kollejida falsafa bilan yanada keng va chuqurroq shug'ullandi. Aynan shu erda u o'z davrining o'z davrining etuk professori, asli shvetsariyalik bo'lgan faylasuf Lyudvig Vitgenshteynning ma'ruzalarini tinglaydi. Shu terda u modernizm falsafasi, xususan, ekzestensializm nazariyasiga qiziqib qoladi. To'g'ri, u qadimgi antik mutafakkirlari, jumladan, Platon va uning olamni bilish, jamiyat qurish nazariyasini, rivojlangan jamiyatda kishilarning o'rni, shaxsiy hayoti kabi masalalarga ham jiddiy qiziqish bildiradi va bu qarashlar uning romanlarida o'z ifodasini topadi. Ammo, u aynan, magistraturada tahlil olish jarayonida Jon Pol Sart nazariyasini o'rganadi. Sart bilan uchrashib suhbat quradi. Ayriss Myordok modernistik adabiyotning ushbu oqimi ta'limotini shu qadar teran anglar, tushar ediki, o'z hayoti va romanlari qahramonlari ongiga ham aynan ekzestensializm g'oyalarini singdirib yuboradi. Natijada uning romanlari bayoni, asar tili, personajlarning ruhiy holati zamondoshlari tomonidan e'tirof etiladi. Ayniqsa, fanda o'tgan asrning o'rtalarida "asabiy yoshlar avlodi" nomi bilan kirgan yoshlar tasviridagi, ularning biror qaror qabul qishidagi ikkilanishida buni yaqqol kuzatish mumkin. Qizig'i, ekzestensializm ikkilanishning, hayot yo'lida bir nechta imkoniyatdan qay birini tanlash kerakligi haqidagi qarashlarni yozuvchi o'z hayotida ham sinab ko'radi.

Ayris Myordok, dastlab, marksizm g'oyalariga ergashadi. Ma'lum muddat Buyuk Britaniya kommunistik partiyada faoliyat yuritadi. Ularning gumanizm, ijtimoiy adolat kabi g'oyalarini yoqlaydi. Hukumatning ba'zi qarorlariga qarshi chiqadi. Lekin doimiy taraddulanish, ikkilanish, sermulohazalik yoki tavakkalchilik uning fikrini o'zgatiradi. Natijada, ma'lum vaqt o'tgach, kommunistik qarashlardan ko'ngli soviydi. Endi o'zi faoliyatini vatan rivojiga bag'ishlashga qaror qiladi. Buyuk Britaniya moliya vazirligida ish borligini eshitib, u erga ishga kiradi va 1942-1944 -yillarda shu erda ishlaydi. Ma'lum bo'ladiki, bu yerda ham uni tushunadigan, ishini qadrlaydigan odamlar kam yoki umuman topilmaydi. 1945-1946- yillarda esa Birlashgan Millat tashkilotining Avstriya va Belgiyadagi bo'limlaridagi gumanitar yordam va rehabilitatsiya yo'nalishida ma'muriy xodim sifatida faoliyat yuritadi. Ammo tezda yana uyiga qaytadi va ma'lum vaqt ishsiz yuradi. Shu davrda u o'zining butun hayotini qaytadan tahlili etib ko'radi. Natijada, endigi faoliyatini falsafa va adabiyot ilmda deb biladi. Magistraturada boshlagan ilmiy tadqiqotini yana davom ettirib, falsafasa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi dissertatsiyani himoya qiladi.

Shu davrda u asli kelib chiqishi chexiyalik yaxudiylardan bo'lgan shoir, zukko yigit Frans SHtaynerni sevib qoladi. Ular to'rt yilcha birga yashaydilar, ammo bevaqt kelgan o'lim 1952 -yilda Fransni olib ketadi. Shundan keyin Ayris Merdokda hayotida o'z muammolariga echim izlash, hayot mohiyatini, mavjudligini odamlarga namoyon etish kabi muammolar yana qiynay boshlaydi. U o'z ko'nglini tushunadigan odamlarni topolmaganidan qiynalgan. Hayotdagi asosiy vazifasi talabalarga saboq berish emasligini tushunadi. O'zini qiynayotgan hayot falsafasi haqida bosh qotiradi. Natijada badiiy ijodda o'zini sanab ko'rishga harakat qiladi.

Butun ilmiy izlanishlari natija sifatida 1953-yilda "Sartr-romantik ratsionalist" nomli ilmiy-tanqidiy monografiya yozadi. Jon Pol Sartr bilan bahsga kirishib, ekzistensializmga oid shaxsiy qarashlarini ham ilgari suradi. Natijada ilmiy doiradagi shuhrati oshib boradi. Lekin ko'p o'tmay u ilmiy tafakkur, ilmiy-nazariy qarashlar bilan oddiy odamlar ongi va fikrlashini o'zgartirib bo'lmasligini anglab etadi..

Badiiy ijodiy faoliyatda esa birinchi yirik romanini “Tuzoqda” (Under the Net) deb nomlaydi. Asar 1954 yilda e’lon qilinadi. Bu erda hayotda o’z o’rnini topishga uringan, biroz dangasa, ayyor, ammo yaxshigina shoir, tarjimon yigit timsolida urushdan keyingi yillardagi ma’naviy bo’shliq, ikkilanish, quruq falsafa sotish bilan umrini o’tkazadigan odamlarni tasvirlaydi. Badiiy asarda ilmiy ishdan farqli o’laroq voqelikni badiiy ifodalaydi. Natijada roman ko’pchilikka ma’qul bo’ladi. Roman muallifiga katta shuhrat keltiradi.

To’g’ri, Ayris Myordok faqatgina ekzestensializm bilan cheklanmaydi. Uning ba’zi romanlarida odob-axloq masalalari afsona va asotirlar asosida yoritiladi. Bu esa uning doimiy izlanishda, voqelikni badiiy idrok etishda individual uslubini yaratishga intilgani va unga erishganini ko’rsatadi. Qizig’i, yozuvchi ijodini tadqiq etgan olimlar uning ijodkor sifatidagi shakllanishini bevosita falsafa bilan bog’lashadi. Bu bir tomondan to’g’ri, chunki yozuvchi faylasuf olim edi. Ammo, boshqa jihatdan olganda badiiy adabiyot ham badiiy tafakkur mahsuli bo’lib, unda ham falsafa mavjud bo’ladi. Ko’rinadiki, tadqiqotchilar deyarli Ayris Myordok ijodi bo’yicha umumiy tamoyildan ortiq gap aytishmagan.

Frans vafotidan to’rt yil o’tgach Ayris Myordokning hayotida uzoq va baxtli muhabbat egasi Jon Beyl paydo bo’ladi. To’g’ri, u o’zidan olti yosh kichik edi. Ammo u yozuvchi, universitetda ishlaydigan adabiyotshunos olim, professor bo’lib, ko’p jihatdan Ayris Myordok qarashlarini ma’qullardi. SHu tariqa Ayris Myordok 1956- yilda Jon Beylga turmushga chiqadi va missis Jin O’ Beylga aylanadi. Beyl bu paytda o’zining bir nechta nasriy asarlarini chop ettirgan, o’z o’quvchilariga ega yozuvchi edi. Oksford universitetining ingliz tili kafedrasi professori lavozimida ishlardi. Ana shunday o’xshash jihatlar va o’zaro hamfikirlik ularni o’zaro yaqinlashtirdi. Ular o’ttiz yildan ko’proq Stipl-Eshton shaharchasidagi Kedar Loj nomli eski uyda istiqomat qilishadi. So’ngra Oksford universiteti yaqinidagi uylardan biriga ko’chib o’tishadi. Bu nikoh ikki olim, ikki yozuvchining baxtli ittifoqi edi. Beyl xotini Ayris Myordok nomidan taqrizlar yozadi. Uning ijodiga katta baho beradi. Ayris nomiga muxlislardan kelgan xatlarga javoblar qaytaradi. Ammo Ayrisning ijodiy faoliyatiga hech qanday ta’sir ko’rsatmagan. Ularda ko’plab

umumiy qiziqishlar bor edi. Ikkalasini suzish sporti birdek qiziqtirgan. Ikkalasi ham ilm va adabiyotni sevgan.

Ayris Myordokning yozuvchi sifatida birinchi asari “Tuzoqda” deb nomlanadi. Dastlab adabiyotshunoslar asarni yosh qahramonlari asabiy bo‘lgan boshqa asarlardan biri sifatida qabul qilishadi. Ammo keyinchalik Jeyk Donagyuning turmushda o‘z o‘rnini topmasa-da quvnoq, hayotni eng yaxshi deb tushunishi, hayotda hamma narsa to‘g‘ri va yaxshi yo‘lga qo‘yilganu lekin amalda boshqacharoq ekanligidan hayron qolishini anglab, asar boshqalardan ustun ekanligi tan olishadi. Asar Myordokning eng yorqin romani hisoblanadi. U hayot davom etayotganligini, imkoniyatlar doimo borligini muntazam uqdirib turadi. Roman an‘naviy madaniyatga qarshi kurash boshlanmasdan oldin yozilgani uchun unda Buyuk Britaniyada yashovchilarning an‘naviy hayoti va hali yangi moda hamda g‘ayriaxloqiy qiliqlar bilan buzilmagan ko‘hna Evropaning tasviri berilgan.

O‘zida ham ayyorlikka, ham makkorlikka moyillikni, ham to‘g‘riso‘zlik, soddalikni jamlagan bosh qahramonni boshqa romanlarida yaratishning imkoni bo‘lmagan. Hayotning fojeaviy boshlanishi ustidan komediyaviylikning ustunligi, qahramonlar bilan mo‘‘jizalar yuz berayotgani, bu mo‘‘jizalarni hayot girdobida payqashning o‘zi mo‘‘jiza ekanligini Jeykning olamni anglashi orqali ko‘rsatib o‘tadi. Donakyu o‘z-o‘zi bilan o‘ralashib qolgan, o‘z tuyg‘usi, intilishi, harakatlari orasidan keragini topa olmay qolgan odam edi. Uni faqat ezgu ishlar qiladigan yaxshi yoki yomon ish qiladigan axmoq deb ham atash anchayin qiyin ish hisoblanadi. U yozuvchining boshqa qahramonlari singari bitta tuzoqda tipirchilab yotibdi. Bu tiriklik tuzog‘i sanaladi. Ayris Myordokning tushunchasi bo‘yicha, bu tuzoq yaxshi ham emas, yomon ham emas. U inson hayotining maishiy boshboldoqligini ochib beruvchi ob‘ektiv bo‘lib, barcha muammolarning boshlanishi odamning ichki dunyosidan boshlanadi, degan asosiy g‘oya etakchilik qiladi.

Shu erda Ayris Myordok qadimgi Sharq diniy-falsafasining, aniqrog‘i, tasavvufning “Har neki istarsan, o‘zingdan istagil” degan mashhur tamoyiliga amal qiladi. Natijada romandagi voqea-hodisalar, bosh qahramonning o‘ziga ham

tushunarsiz hayotiga mazmun olib kiradi. Bu haqda asarning bosh qahramoni shunday deydi: “Hayotimning mohiyati o‘zim bilan qurgan sirli suhbatdadir. Bu suhbatni oshkor qilish esa o‘lim bilan barobar”[4]. Bosh qahramonning o‘ziga bu qadar ko‘p e‘tibor qaratishi atrofidagilarni butunlay ko‘r, kar, fikr yuritmaydigan, qahramonni esa o‘ziga ishonuvchan qilib qo‘yadi. Natijada romandagi syujet kompozitsiyasida Myordok qahramoni ana shunday ishonuvchanlik, egoizm natijasida grotesk holatiga, ya’ni aql bovar qilmas kulgili va achchiq qismatga to‘qnash keladi.

Ayris Myordok ijodining etakchi muammolar tizimida yoshlarning jamiyatda o‘z o‘rnilarini topishidagi muammolar, milliylik va zamonaviylik o‘rtasidagi ziddiyat, personajlarning nozikta’b didi bilan o‘ta xunuk tasvirlar qorishig‘ini, kelishuvchan xarakterga qarama-qarshi tomondagi bo‘ysunmas kishilar tasvirini o‘zaro muvofiqlikda bera olishi ko‘zga tashlanadi. Masalan, uy hayvonlari, jumladan itlarga mehr qo‘yish inliz milliy xarakterining etakchi qirralaridan biri sanaladi. Ana shu jihatni “Yovvoyi atirgul” (An Unofficial Rose) romanida Fanni ismli ayolni so‘nggi manzilga kuzatish marosimini tasvirlayotib quyidagicha ifodalaydi: *Har qalay Fanni yaxshi yashadi, mashhur odamga turmushga chiqdi, ikkita farzand ko‘rdi, u o‘z erini, farzandlarini, nabiralari, it va mushuklarini sevardi. Albatta u baxtli bo‘lgan. U hayot aldadi, deb bo‘lmaydi* [2, 2]. Diqqat qilinsa, bu erda bir qarashda oddiy ayol tavsifi berilgan. Lekin “*it va mushuklarini sevardi*” jumlasida milliy xarakter namoyon bo‘lgan. Boshqa o‘rinda yozuvchi itni shu qadar ulug‘ganki, hatto personaj yuzini itnikiga o‘xshatgan: «*Ammo uninu qora ko‘zlari Milredga o‘ychan boqardi, ujim turgancha Milredning fikrlarini anglardi, uning keskin, aqlli itnikiga o‘xshash yuzi o‘zgalar uchun yopildi va tingandek bo‘ldi.... va hattoki, xayolida o‘sha davrni, “chigirtkaga em bo‘lgan yillari”ni qayta his etdi*» [2, 31]. Bu erda ham yozuvchi voqelikni ifodalar ekan, Emmi ismli ayolning yuzini itnikiga o‘xshatishi orqali unga bo‘lgan salbiy munosabatini ifodalaydi. O‘zining baxtini qachonlardir chigirtka talab, g‘orat qilganiga afsuslanadi. Demak, yozuvchi hayvon va hashoratlarga asar tiliga jalb etish orqali qahramonlarning voqelikka munosabatini ham ishonchli tarzda ochib beradi. Lekin

shuni ham aytish kerakki, it va itga o'xshatish ijobiy ma'noda ham qo'llangan. Masalan, «Xyu tepadan uning aql itnikiga o'xshash yuziga qarab turardi. Bu ko'zlar endi alamdanda yongan, g'amdanda tashvishli edi»[2, 121]. Ko'rinadiki, yozuvchi romanda ingliz milliy xarakteridan kelib chiqib tasvirda itga qiyoslashdan unumli foydalangan. Bunday tasvirlar o'z navbatida ifodagi realistik tasvir bilan ironik ifodani aralash qo'llanishini yuzaga chiqaradi. U badiiy nutq ifodasi sifatida keltirgan kinoyada mag'rurlik, go'zallik, g'amginlik, vahimalilik, kulgili, ikkiyuzlilik kabi yashashning barcha ranglari namoyon bo'ladi. Bunday ironiya voqelikda bir kishi timsolida sof holda uchramaydi.

O'z asarlari haqida fikr yuritar ekan, Ayris Myordok shunday qayd etadi: "Roman yozish oddiy odamni tasvirlash, uni boshqalarga qiziqarli bo'lgan jihatlarini ifodalashdir. Bu qiziqish real ma'noda kerakli bilimlarga ega, o'z-o'zi bilan band, o'z fikri, ichki olami bilan ovvora odamni yaratish ehtiyojini izohlaydi"[3].

Darhaqiqat, yozuvchi romanlari XX asrning ikkinchi yarmida jamiyatda o'z-o'zini anglash, hayotda o'rni topishga intilayotgan, bunda birinchi o'rinda o'z orzu-havasi bilan yashab, boshqalarni o'ylamaydigan, qisman xudbin, turli vaziyatlarga psixologik yoki ijtimomiy muammolar qurshoviga tushib qolib, ulardan hafaqat o'z kuchi bilan chiqishga intiladigan, kelajakka ishonch bilan qaraydigan odamlar tasviri beriladi. Masalan, uning "YOvvoiyy atirgul" (An Unofficial Rose) nomli romanida Xyu va Fanni oilasi, ularning farzandlari, nabiralari hayoti, Avstraliya va Angliyada yashaydigan avlodlari haqida tasvirlanadi. Bir qarashda roman Xyu va uning saraton kasalidan vafot etgan xotini Fanni bilan qirq yillik hayoti davomidagi voqealar tasviri, aniqrog'i, bir oilaning tarixidek tuyuladi.

Xullas, Ayris Myordok romanlarida anglagan davr va jamiyatning etakchi tamoyillari, ingliz xalqining milliy xarakteri ajralib turadi. YOzuvchi har bir epizodga imkon qadar shaxsiy tafakkur tarzidan kelib chiqib yondashadi. Natijada asar muallif badiiy olamning kichik parchasi sifatida namoyon bo'ladi. Aynan shu jihat badiiy adabiyotning bosh vazifasi sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Iris Murdoch. British writer and philosopher. Alternate title: Dame Iris Murdoch, Jean Iris Murdoch. Mrs. John O. Bayly. www.britanica.com.
2. Iris Murdoch. An Unofficial Rose (London, 1962). – 2-bet. <http://www.gribuser.ru/xml/>
3. www.the-guardian.com Retrieved from an interview with Iris Majordoc, press secretary for the publication.
4. Yulchiev K. Postmodern writers. - Ferghana, 2011. - 72 p.

НАЗАР ЭШОНҚУЛНИНГ “УРУШ ОДАМЛАРИ” ҚИССАСИДА ОБРАЗЛАР ТАЛҚИНИ

*Нилуфар Чўлиева,
Қариш давлат университети
Адабиётшунослик кафедраси катта ўқитувчиси,
филология фанлари бўйича фалсафа доктори.*

Аннотация: Мақолада “Уруш одамлари” қиссасидаги баъзи образлар талқин ва тадқиқ этилган.

Калит сўзлар: образ, жанр, муаллиф диктати, онг ости туйғулари, руҳият, воқелик динамикаси.

Адабиётшуносликдаги асосий истилоҳлардан бири, бадий асарнинг “юраги” образдир. Ҳар қандай образ муаллифнинг ижодий нияти, адабий-эстетик қарашларидан, ёки муайян воқеликка бўлган муносабатидан бунёд бўлади. Асарда тўлақонли шаклланган, етук, “жон” ва “руҳ”га, фикр, ўй-кечинмага эга; матннинг воқелик майдонида ўз “йўл”ида характер мантиғига таяниб мустақил ҳаракат қиладиган, муаллиф диктатини қабул қилмайдиган инсон қиёфаларигина мукамал образлар (инсон тасвири)дир. Образлар ташкилланишининг жанрлараро тафовутланишини, даставвал, мутафаккир олим Аристотель ўз қарашларида ифодалаган эди: “Санъаткорлар муайян шахсларни тасвирлайдилар, улар эса яхши ёки ёмон бўлиши мумкин... Трагедия ва комедия орасида ҳам худди шундай тафовут мавжуд: комедия

ҳозирги вақтда яшаётганлардан кўра ёмонроқ, трагедия эса яхшироқ кишиларни тасвир этишга интилади”.

Мустақиллик даври насрига ўзига хос оҳанг, бадиий ифода, тасвир йўсини олиб кирган адиб Назар Эшонқулдир. Унинг ижодидаги, жумладан, қиссаларидаги образлар, ҳам ўзбек насрининг кўп асрлик адабий тажрибаси маҳсули, ҳам Ғарб адабиёти модерн тасвир шаклининг бадиий синтезлашуви сифатида гавдаланди. Ижодкор қиссаларидаги образлар ўзининг мукамаллиги, ўқувчини мулоҳазага чорлаши, воқелик динамикасининг кутилмаган суръатларида, бурилишларида аксланган турфаликлари билан ажралиб туради. Унинг анъанавий йўлда ёзилган “Уруш одамлари” қиссасида турли ёшдаги, феъл-атвордаги, ўй-фикрдаги қиёфаларни кўрамиз. Аммо уларни битта ташвиш, битта ғам бирлаштириб туради. Асарда уруш ва унинг исканжасидан қутулиш қаҳрамонларни бирлаштирган мурод-маслакка айланган.

Қиссадаги бош қаҳрамон Нормат полвон образи бўлиб, у асарда “урушнинг тирик гувоҳи” сифатида гавдаланади. Нормат урушдан нафратланадиган, ундан йироқ бўлишни истовчи образ. Бу хусусият асарда унинг тилидан шундай берилади: “Одамларни отар эканман, этим ҳамиша сесканиб кетар, худога тавба қилар, иложи борица тегизмай отишга ҳаракат қилардим. Буғдойзорларда одамларнинг қони оқиб ётганини кўрганимда, йиғлагим келар, шунда қоним қайнаб, тўғри келган ҳар бир кимсани отиб ташлагим келарди...”

Урушнинг бу каби даҳшатли таассуротлари Норматнинг тани ва қалбини тарк этмайди. Аммо у уйига қайтгач барини бошидан бошлашга ҳаракат қилади. Тинчгина ўз тирикчилигини қилиб, одамларга яхшиликлар қилиш, ёрдам бериш орзусида бўлади. Лекин Нормат Анзиратнинг хиёнат қилганини билгач, унинг учун яна нотинч кунлар бошланади. У хотинининг хиёнатини бошида кечири олмайди, озорланади. Нормат ҳам бошқа ўзбек эркакларига ўхшаб номус-ориятни, ғурурни устун қўяди. Унинг Анзиратни кечири олмаслигининг асл сабаби фақат шу эрлик шаъни билан эмас, хотинини

яхши кўргани, севганининг бундай хатосини ҳазм эта олмагани билан боғлиқ. Масалан, “кўнғиротларнинг қишлоқ удумини бузиб хотинини исмини айтиб” чақириши унинг бу удумларни хоҳламаганидан эмас, Анзиратни ўзига, қалбига яқин олишидан дарак беради. Ижодкорнинг маҳорати шундаки, қиссага Маллабой образини олиб киради ва унинг тақдир йўли Норматга таъсир этади. Натижада Норматнинг хотинини кечиришга тайёрлиги ишонарли чиққан. Нормат асли полвонлар зотидан шунинг учун ҳам унинг исми ёнига “полвон” сўзи қўшиб қўлланган. Муаллиф ушбу образни “Нормат полвон” тарзида таништиришидан биринчи мақсад унинг полвонлигига ишорадир. Иккинчидан эса, унинг полвонлигидан айрилиб, ногирон бўлиб қолишида урушнинг асоратларини яна бир бор таъкидлаш мақсадидир. Бу орқали эса ўқувчига уруш даҳшатини теранроқ ҳис эттириш ва Норматга нисбатан ачиниш туйғусини уйғотишдир. Асарда урушнинг асоратлари, айниқса, Нормат – уруш даҳшатини кўрган одам руҳиятида яққол намоён бўлган. Нормат урушдан қайтиши муносабати билан уйида йиғилган қариндошлари, ҳамқишлоқлари олдида ўзини ғалати ҳис этарди: “...қишлоқдошларининг юзларига сўзсиз, жим тикилиб қўяр, нимадандир изтироб ёки хижолат чекаётгандай эди. Ҳамманинг олдида чўзилиб ётишни эп кўрмай, ўрнидан туриб ўтиришга ҳаракат қилар, бироқ ясама оёғи ҳалақит берар, у яна аввалгидай чўзилиб олар... қишлоқдошларининг юзидаги ачиниш ва ҳамдардлик ифодаларини кўриб, оёғини кесишаётганда бошланган камситилгандек туйғу уни яна гирдобига олмоқда...эди” Матнда Нормат ўзини бундай ҳис этиши, унинг руҳиятига қарама-қарши, шу билан бирга, унинг “ўзида уруш жароҳатини енгишга қудрат” сезиши, қалбининг “янги, умидбахш туйғуларга” тўлишига сабаб бўладиган яна бир оҳанг борки, шубҳасиз, бу ўз ерининг, яқинларининг дийдори эди.

“Уруш одамлари” қиссаси сюжетидаги асосий масала уруш ва аёл хиёнатини ҳисобланади. Норматнинг аёли – Анзиратнинг хиёнатини уруш туфайли ночор қолгани ва алданганлик натижаси дейиш мумкин. Яъни асар сюжетида кўра, Анзиратнинг қизи Ҳожар иситмалаб, тоби қочиб қолади.

Шундан сўнг Анзират Мирзакул раисдан ёрдам сўрайди, натижада у раиснинг тузоғига илиниб қолади. Аммо Анзират хиёнатининг бошқа бир сабабларини образ руҳияти тасвирлари орқали англаймиз: “...Ўша кундан кейин анчагача Анзират бу воқеа қандай содир бўлганини англолмай гарангсиб юрди. Ўз ёғига ўзи коврилди... Йигирма тўққиз ёшида сочиға оқ тушди. Кейин... гуноҳининг кечирилмаслигини англаш, Мирзакулнинг кейинги келишига замин яратди. Эридан қорахат келгани уни бир оз хотиржам қилди: гуноҳи унча катта кўринмади. Англашилган ва содир бўлган гуноҳ иккинчи гуноҳнинг оstonасидир. Аслида, унга барибир эди. Энди қандай қилиб бўлса ҳам яшаса бўлди, қийналмаса бўлди эди. Қийинчиликлар унинг юрагини олиб қўйганди... У болаларимнинг ҳаётини сақлаб қолиш учун шундай қилдим, бўлмаса, улар ўлиб кетарди, ана, шусиз ҳам қишлоқда очликдан касал бўлиб ўлаётганлар озми, деб ўйларди ва енгил тортганга ўхшарди. Бироқ бу ерда яна бошқа биров бор эди. Ўша бошқа биров, бошқа бир вужуд ҳар куни Мирзакулнинг суйиб эркалашини... кумсарди... У вужудидаги ўша бошқа бировни бўғиб ўлдиролмас, аста-секин унга таслим бўлган, ўзининг бутун инон-ихтиёрини, келажагини, орзу-умидларини унга топширган; унинг қули, унинг одами бўлиб қолган эди”

“Уруш одамлари” қиссаси Назар Эшонкулнинг дастлабки йирик асари бўлиб, 1986 йилда, 24 ёшида эълон қилинган. Ёзувчи ўша пайтларда ўзининг Ғарбнинг етук психолог олими Зигмунд Фрейднинг инсонни ундаги онг ости туйғуларининг асосида турадиган майллар бошқариши ҳақидаги қарашлари таъсирида бўлганини таъкидлайди: “Илгарироқ ёзилган “Уруш одамлари”да ўзим ҳам анча таъсирланганим фрейдчиликдан дарров қайтдим. Мен инсонни коинот маҳсули деб тушунаман. Унинг яралишида коинотдаги барча оламлар иштирок этган. Унинг майллари илдизини ҳам шундан излаш керак. Фрейд эса ҳамма нарсани жинсий майлга тақайверади. У буюк олим, психолог. Бу ҳақда гап бўлиши мумкинмас. Мен ҳамиша уни ўқийман, ҳозир ҳам. Ундан кўп нарса ўрганиш мумкин. Аммо унинг қарашларига қўшилмайман. Аёлга майл кўзи биланмас, уни аёл деб, гўзал илоҳий хилқат деб қараш тарафдориман”.

Албатта, айниқса ўзбек аёллари шарқ аёллари ичида ҳам энг садоқатли, ўзига ва ақлига ишонган кучли аёллардир. Зеро, уруш даврида ҳам ўз ёрига, оиласига, ўзига вафоли бўлган аёллар миллионлаб топилган. Ўзбек аёли образини яратишда миллий этнонимга, асрлардан асрларга авлодларга ўтиб келаётган мерос фазилатлардан келиб чиқиб ёндашиш ҳаққоний йўлдир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. Риторика. – Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2018.
2. Қуронов Д, Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент, Akademnashr, 2013.
3. Эшонқул Н. Ялпиз ҳиди. Қиссалар ва ҳикоялар. –Тошкент: Шарқ, 2008.
4. Эшонқул Н. Мендан “мен”гача. – Тошкент: Akademnashr, 2014.
- 5.

ABDULLA QODIRIY SHAXSIYATI VA IJODINI O‘RGANISH BO‘YICHA MULOHAZALAR

***M. M. Xodjiyeva, Chirchiq olimpiya va paralimpiya
zaxiralari kolleji ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi***

Abdulla Qodiriy o‘zbek romanchiligining asoschisi, yozuvchi, tilshunos, jurnalist, tarjimon, qo‘yingki, serqirra ijodkordir.

Adib ijodi huqur lirizmga boy, badiiy go‘zal, mazmunan teran, barkamol asarlari o‘quvchini to‘lqinlantirib, qalbiga larza solib, jo‘shib kuldirmay, yurakdan yig‘latmay qo‘ymas...

“O‘tgan kunlar” milliy roman janrining ilk namunasi sifatidagi jozibasi, latofati, tarbiyaviy ahamiyati bugungi yosh avlod uchun nihoyatda kattadir. Yoki adib asos solgan va aytish mumkinki, yolg‘iz o‘zi 99 ta taxallus ostida chop ettirgan “Mushtum” jurnalining nomi, o‘z vaqtida Qodiriy ta’biricha aytganda, zamonasining zo‘ravonlariga qarshi uning “MUSHTI” bo‘lib xizmat qilganligi xususida,

taxalluslarning Qodiriyga xos ham kulgili, ham nishtarmonand tanlangani xususida ko‘p gapirish mumkin. Shuningdek, uning ijodiy faoliyati bilan deyarli barcha yoshdagilar xabardor. Rostini aytish kerakki, Qodiriy shaxsi haqida fikr bildirish g‘oyat ta’sirli va hayajonlidir.

Abdulla Qodiriyning hali ko‘plab qirralari kechagi mash’um tuzum ta’sirida chuqur o‘rganilgan emas. Qodiriy adib, ham ijodkor, millat uchun jon kuydiruvchi haqiqiy vatanparvar inson, jonkuyar ota, mas’uliyatli va mehnatkash o‘zbek o‘g‘loni sifatida xalqimiz uchun “ideal” darajada qadrli. Avvalo, uning mehnatkashligi haqida shuni aytish kerakki, Qodiriyning to‘ng‘ich o‘g‘li Habibullo tug‘ma suyak sili kasalligi bilan tug‘ilgan bo‘lib, shifokorlar unga qat’iy qarov va doimiy ravishda taxtakachda yotishi kerakligini, yana uning ko‘p yashamasligini aytishadi. Shunda Qodiriy go‘yo alamini ishdan olishga qastlashgandek, tashlandiq, xaroba bir chakalakzorni yolg‘iz o‘zi tozalab, tekislab, oilasi uchun bog‘ yaratadi. Bog‘ning o‘rtasiga 2 qavatli shiypun qurib, uning 2-qavatini oynavand katta xonaga aylantiradi hamda xonaning o‘rtasiga baland qilib, taxta krovat yasaydi. O‘g‘li Habibulloni o‘sha taxtaga yotqizib, bog‘lab qo‘yadi va uning savodi, ilmi ustida shaxsan o‘zi qat’iy shug‘ullanadi. Oqibatda o‘g‘lini Tibbiyot institutining sirtqi bo‘limiga o‘qishga kirishiga sababchi bo‘ladi.

Abdulla Qodiriy 1926-yilda “sho‘ro rahbarlarini matbuot orqali obro‘sizlantirdi” degan tuhmat bilan sudlandi. Qamoqdan chiqqach, matbuotda Qodiriyga yangi hujumlar boshlanadi.

1937-yil Qodiriy uchun og‘ir keldi, lekin u haqiqatni aytishdan, o‘z davrining, xalqni zulmiga sababchi bo‘layotgan amaldorlarga qarshi adolat talab qilishdan to‘xtamadi. Taxtakashlangan joyida o‘qish, izlanishdan to‘xtamagan Habibullo (1918-1988) bog‘ o‘rtasidagi oynavand shiypunning 2-qavatida yotib, atrofni kuzatib yotganida otasining boshida yana - yangi “qora quzg‘unlar” aylanishayotganini sezib, xavfsiray boshlaydi. Otasini ogoh etsa-da, undagi shijoat, iroda otani adolat uchun tik borishdan qaytara olmadi. Shunday kunlarning birida, to‘g‘rirog‘i, 1937- yilning 31-dekabr kuni kechki payt oila Yangi yilni kutish taraddudini ko‘rayotgan bir vaqtda sobiq NKVDchilar (hozirgi MXX) Qodiriyning uyiga bostirib kirib, uni qamoqqa olishadi.

Shunda Qodiriy og‘ir-bosqlik bilan ulardan baland gapirmaslikni, o‘g‘li yuqorida kasal yotganini, u bilan xayrlashib tushgach, qarshilik ko‘rsatmasdan ular bilan ketishga rozilik bildiradi. Yuqoriga ko‘tarilar ekan, o‘g‘li Habibulloga xavotir olmaslikni, do‘stlari bilan Yangi yil kutgani ketayotgani, ertalab qaytishini bildirib, xayrlashadi. Lekin Habibullo pastdagi shovqinni eshitib bo‘lgan edi. U otasi zinadan tushib ketayotganidayoq, bog‘langan oyoq-qo‘llarini yechib, pastga tushib, otasini olib qolish maqsadida ko‘chaga yugurib chiqqanida, otasi o‘tirgan mashinaning tezlik bilan uzoqlashayotgan chiroqlarini ko‘ra oldi, xolos. E’tibor qilgan bo‘lsangiz, Tohir Malik o‘zining “Shaytanat” asarida Asadbekning otasini qamoqqa olinishini aynan 31- dekabr deb tanlaganda, Qodiriyning hibsga olingan kunini asos qilib olgan.

O‘sha mash‘um 1937-yil qahraton qish bo‘lganligini ko‘pchilik qariyalar tasdiqlashadi. Mashina ortidan termulib qilgan kasalvand Habibulloni sovuq suyak-syyagidan teshib o‘tadi.

Habibullo Qodiriyning Tibbiyot instituti diplomini qo‘lga kiritishi uchun “Xalq dushmanining o‘g‘li” tamg‘asi bilan haydalgani sabab, qayta-qaytalab o‘qishga kirishiga to‘g‘ri kelgan.

Abdulla Qodiriy ijodiy faoliyatining boshlanishi 1910-yillarga to‘g‘ri keladi. “Shu miyonalarda, - deb eslaydi A. Qodiriy, - bozor vositasi bilan tatarlarda chiqadig‘on gazetalarni o‘qib, dunyoda gazeta degan gap borlig‘iga imon keltirdim. 1913-yilda o‘zbekcha “Sadoi Turkiston”, “Samarqand”, “Oina” gazetolari chiqa boshlag‘och, menda shularga gap yozib yurish fikri uyg‘ondi”. “Sadoi Turkiston” gazetasining 1914- yil 1-aprel sonida Abdulla Qodiriy imzosi bilan “Yangi masjid va maktab” sarlavhali xabar bosiladi.

Oradan ko‘p o‘tmay “To‘y “, “Millatimga”, “Ahvolimiz” she‘rlari, “Baxtsiz kuyov” dramasi, “Juvonboz“ hikoyasi(1915) chiqadi. Abdulla Qodiriy 1919-yilda “Oziq ishlari” gazetasiga muharrir bo‘ladi, so‘ngra “Ro‘sta” gazetasiga muxbir, “Ishtirokiyun” va “Qizil bayroq” gazetalarida xodim bo‘lib ishlaydi, “Mushtum” jurnalining vujudga kelishida jonbozlik ko‘rsatadi, ijodkor Gogol va Chexov ijodidan tarjimalar ham qilgan.

Yozuvchi o‘z asarlarini “Qodiriy”, “Julqunboy”, “Kalvak Maxzum”, “Toshpo‘lat”, “Ovsar”, “Dumbul”, “Shig‘oy“ degan imzo-taxalluslar bilan e‘lon qilgan. Qodiriy matbuot, jurnalistika sohasidagi bilim va malakasini oshirish maqsadida 1924-1925-yillarda Moskvadagi oliy jurnalistika institutida ham ta‘lim olgan.

Abdulla Qodiriyning “Amir Umarxonning kanizagi”, “Namoz o‘g‘ri”, “Dahshat” kabi romanlar yaratish niyati bo‘lgan. 1958-yildan boshlab Qodiriyning qutlug‘ nomi, asarlari xalqqa qaytarila boshlandi. Istiqlol davriga kelib Qodiriyga Alisher Navoiy nomidagi davlat mukofoti berildi, birinchi bo‘lib Mustaqillik ordeni bilan taqdirlandi.

Yaratilganidan buyon ko‘pchilikni diqqat-e‘tiborida bo‘lib kelayotgan mashhur “O‘tgan kunlar” romani haqida shuni ta‘kidlash joizki, bu asardagi tasvirlar badiiylilikni soddalik bilan uyg‘un holda, xalqona iboralarni adabiy til talablari bilan to‘yintirilgan holda ko‘pchilikka yetib boradigan bo‘yoqlar orqali kashfiyot yaratish mahsuli ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Asarni o‘qir ekanmiz, unda nasrning nazm bilan chatishib, barcha go‘zal va xunuk manzaralarning jonliligi, hayotbaxsh shirasi, musaffo havosi, kishini asir etuvchi hokimligining asiriga aylanamiz.

Adib faqat qalam bilan yozmaydi, balki so‘z bilan surat chizadi, surat chizganda ham, rassomga o‘xshab, odamlarni beharakat tasvirlamaydi, balki ularni harakatlar oqimida, uzluksiz to‘qnashuvlarda, shaxslar kurashida tasvirlab beradi. Bu asar orqali biz o‘zbek xalqining XIX asrdagi hayotining chuqur ma’noli, keng va yorqin manzarasi bilan, hayotning eng yirik masalalaridan tortib, o‘sha davrning maishiy mayda-chuydalarigacha – hamma narsa haqida to‘laqonli tasavvurga ega bo‘lamiz, go‘yo o‘sha davr qozonida qaynaymiz, asarni qomusiy asar, muallifni esa “qomusiy ijodkor”ga mengzaymiz.

Asarning jozibasi va sehri shundaki, yozuvchi voqeani xuddi do‘stiga, yaqiniga aytib berayotgandek, fikr alishayotganday, so‘zlashayotganday o‘quvchi bilan hamnafas, hamdard hikoya qiladi. Bu esa asarni yanada xalqchil, o‘qishli, hikmatli, sevimli bo‘lishiga sabab bo‘lib, moziy bag‘ridan hozirgi davrimizga ham hamohang nafis kuydek jaranglamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Ulug‘bek Dolimov. Abdulla Qodiriy portreti.// «Unutilmas siymolar».To‘plam. Toshkent.1999-yil.
- 2.Begali Qosimov, Sharif Yusupov, Ulug‘bek Dolimov, Shuhrat Rizayev, Sunnat Ahmedov. Milliy uyq‘onish davri adabiyoti.Toshkent.”Ma’naviyat”, 2005-yil
- 3.Habibullo Qodiriy. Otam haqida. Toshkent.”Ma’naviyat”,1996-yil

АХБОРИЙ ЖАМИЯТ ШАКЛЛАНИШИДА ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ АХБОРОТ АГЕНТЛИГИНИНГ ЎРНИ

Нурулло НАСРИЕВ,

ЎзДЖТСУ СЖМ I-босқич магистри

Илмий раҳбар:доцент Н.Н.Ғаффоров

Демократик ислохотларни янада чуқурлаштиришда ахборот соҳасини ислоҳ қилиш, ахборот ва сўз эркинлигини таъминлаш устувор йўналишлардан бири ҳисобланади.

Сир эмас, бугунги глобаллашув жараёни ахборот тизимларидан самарали фойдаланишни тақозо этади. Зотан, ахборот оқимининг хилма-хиллиги кенг омма руҳияти ва онг-тафаккурини йўналтирувчи, шакллантирувчи куч сифатида баҳоланмоқда.

Шу нуқтаи назардан қараганда, мамлакатимизда ҳар кимнинг фикрлаш ва сўз эркинлиги, ахборотни олиш, излаш ва тарқатиш ҳуқуқлари, оммавий ахборот воситаларининг эркинлиги Конституциямизнинг тегишли моддалари билан мустаҳкамланиб, бир қатор қонун ҳужжатлари билан кафолатланган.

Эътироф этиш керак, сўнгги йилларда оммавий ахборот воситаларини янада демократлаштириш ва либераллаштириш, олиб борилаётган ижтимоий-сиёсий, социал-иқтисодий ислохотларнинг очиқлиги ҳамда ошқоралигини таъминлаш, медиамаконга илғор ахборот-коммуникация технологияларини кенг жорий этишга қаратилган қатор қонун ва кўплаб қонуности ҳужжатлари қабул қилинди. Оммавий ахборот воситалари соҳасидаги қонунчилик халқаро

андозалар ва замон талабларига мос равишда такомиллашиб, норматив-хукукий база янада мустаҳкамланиб бормоқда.

Ўзбекистон Республикасининг «Ахборот олиш кафолатлари ва эркинлиги тўғрисида»ги, «Ахборот эркинлиги принциплари ва кафолатлари тўғрисида»ги, «Журналистлик фаолиятини ҳимоя қилиш тўғрисида»ги қонунларда ахборот олиш эркинлиги ва кафолатлари, шунингдек, ҳуқуқ ва мажбуриятлар ўз аксини топган.

Шунингдек, кейинги йилларда қабул қилинган «Давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари фаолиятининг очиқлиги тўғрисида»ги, «Электрон ҳукумат тўғрисида»ги ва бошқа қонунларда давлат органлари, жамоат бирлашмалари фуқароларга уларнинг ҳуқуқ ва эркинликлари ҳамда қонуний манфаатларига дахлдор бўлган ахборот билан танишиб чиқиш имкониятини таъминлаши кераклиги аниқ қилиб белгилаб қўйилган.

Шу билан бирга, қонунчиликда журналистларнинг мажбуриятлари ҳам белгилаб қўйилган. Жумладан, журналист ўзи тайёрлаётган материалларнинг тўғри ёки нотўғри эканлигини текшириши ва ҳолис ахборот тақдим этиши, айбсизлик презумпцияси принципига амал қилиши, шахснинг ҳуқуқлари ва эркинликлари, шаъни ва қадр-қимматини ҳурмат қилиши шарт.

Чунки ахборот жамияти шаклланаётган бир шароитда, айниқса, фуқароларнинг шаъни ва қадр-қимматида дахл қилишдан, шахсий ҳаётга аралашишдан ҳимояланишга бўлган ҳуқуқ ҳамда қонуний манфаатларига риоя қилиш тобора долзарб аҳамият касб этиб бормоқда.

ОАВ – бугун халқ овози, “тўртинчи ҳокимият”га айланиб бормоқда. БМТ Инсон ҳуқуқлари комиссиясининг эътирофи бўйича, сўз эркинлиги – инсон ривожланишининг ажралмас омили. Инсонларнинг ҳақ-ҳуқуқлари, манфаатлари ҳақида сўз юритадиган бўлсак, унга демократиясиз, сўз ва матбуот эркинлигисиз эришиб бўлмайди.

Сўз эркинлиги, матбуот эркинлиги – демократиянинг қон айланиш тизимидир, усиз бу тушунчалар фаолият кўрсата олмайди. Инсон ҳуқуқлари

соҳасида қилинган ишлар боис халқимиз ўз ғурурини англаб бошлади. ОАВ, блогерларнинг хатти-ҳаракати ҳам ана шу ғурурни кўрсатмоқда.

Ўзбекистон – янги дунёда обрў орттирди. Бунда ОАВнинг ўрни ниҳоятда катта бўлди. Ахборотдан фойдаланиш ҳуқуқини таъминлаш, ахборот хилма-хиллигини барпо этиш ва ривожлантириш – бир томондан инсон ҳуқуқларига оид масала, айтилиши вақтда миллий ҳавфсизликнинг манбаларидан бири ҳисобланади.

Мамлакатимиз тараққиётининг янги босқичида амалга оширилаётган ислохотларнинг мазмун-моҳиятини холис ва тезкор ёритиб бориш, халқимизга етказиш ҳар бир журналистдан зиммасидаги масъулиятли вазифани чуқур ҳис қилишни талаб этади.

Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг сўз эркинлиги таъминланишида собитлиги, соҳага оид қонунчилик нормаларининг такомиллаштирилиши, қолаверса, матбуот аҳлининг ҳар жиҳатдан қўллаб-қувватланиши ўз натижасини берди. Яъни уларда замон билан ҳамнафас бўлиш, бир қадам олдинда юриш ҳисси ва масъулиятини оширди.

Бугунги кунда барча даражадаги бошқарув идоралари раҳбарларининг оммавий ахборот воситалари вакиллари, журналистлар билан мунтазам учрашиб, жамият ҳаётига дахлдор муҳим масалаларни эркин мулоқот асосида кенг муҳокама этиши яхши анъанага айланиб бормоқда. Бундай ёндашувни Ўзбекистонда олиб борилаётган очиқлик, ошкоралик ва демократик сиёсатнинг энг муҳим йўналишларидан бири десак муболаға бўлмайди.

Шу сабабли оммавий ахборот воситаларининг жамият ҳаётидаги ўрни ва таъсири, фаолият самарадорлиги ва таъсирчанлигини ошириш, уларнинг моддий-техник базаси, кадрлар салоҳиятини мустаҳкамлаш, соҳа ходимларининг меҳнатини ҳар томонлама рағбатлантириш биз учун ҳамиша устувор вазифа бўлиб келмоқда.

Бу борада аввало мавжуд меъёрий-ҳуқуқий базани кучайтириш мақсадида кейинги тўрт йилда 12 та қонун ҳужжати қабул қилинганини, медиа соҳаси, ахборот хизматлари тизими тубдан янгиланганини таъкидлаш лозим.

Давлат идораларининг жамоатчилик билан алоқаларини мустаҳкамлашга алоҳида аҳамият қаратилмоқда. Жумладан, ҳокимият ва бошқарув органлари томонидан мамлакатимизда амалга оширилаётган ислохотларнинг бориши, миллий дастур ва стратегияларнинг бажарилиши юзасидан доимий равишда матбуот анжумани ва брифинглар, очик мулоқотлар ташкил этилмоқда.

Агар 2019 йилда давлат ва нодавлат ташкилотлардаги ахборот хизматларининг манбалари – расмий веб-сайтлар, ижтимоий тармоқлардаги каналлар 559 тани ташкил этган бўлса, 2021 йилда бу рақам 2410 тага етди.

Оммавий ахборот воситаларидаги танқидий чиқишларга вазирлик ва идоралар, ҳокимликларнинг ахборот хизматлари орқали тезкор муносабатлар билдириш амалиёти шаклланимоқда. Бунинг тасдиғини давлат идоралари томонидан танқидий материалларга жавоб қайтариш кўрсаткичи 2018 йилда 12 фоизни ташкил этган бўлса, 2020 йил якунига кўра қарийб 90 фоизга етгани мисолида ҳам кўриш мумкин.

Яқинда қабул қилинган “Давлат органлари ва ташкилотларининг фаолияти очиқлигини таъминлаш, шунингдек, жамоатчилик назоратини самарали амалга оширишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги фармон бу борадаги ишларни янги босқичга кўтаришга хизмат қилади.

Ҳозирги вақтда электрон оммавий ахборот воситалари, хусусан, Интернет журналистикаси ҳаётимизга тобора чуқур кириб бормоқда. Республикамизда фаолият юритаётган 1893 та оммавий ахборот воситасидан 638 таси ёки 33,7 фоизи Интернет нашрлари – веб-сайтлар сифатида рўйхатдан ўтган.

Шу ўринда, мамлакатимизда сўз ва матбуот эркинлигини таъминлаш мақсадида оммавий ахборот воситаларини рўйхатдан ўтказишда барча жараёнлар инсон омилисиз, электрон шаклда амалга оширилаётгани бу йўлдаги яна бир муҳим қадам бўлганини қайд этиш зарур.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги, Халқаро пресс-клуб,

Миллий матбуот марказида ўтказилаётган тадбирларда турли вазирлик ва идоралар бевосита раҳбарлари соҳада амалга оширилаётган ишлар юзасидан мунтазам ахборот бериш амалиёти шаклланди ва улар журналистларни қизиқтирган барча саволларга жавоб бермоқдалар.

«Халқ давлат идораларига эмас, давлат идоралари халқимизга хизмат қилиши керак» деган тамойил асосида юртдошларимизнинг оғирини енгил қилиш, ватандошларимизнинг ҳаёт даражасини яхшилашга киришилганини ҳар қанча эътироф қилсак арзийди. Негаки, бундай саъй-ҳаракатлар барча соҳада жамоатчилик назоратининг кучайишига олиб келди.

Мамлакатимизда матбуот ва оммавий ахборот воситаларига кўрсатилаётган эътибор йилдан-йилга ошиб бораётгани, юртимизда кечаётган кенг қамровли тарихий ислохотлар мазмун-моҳиятини халқимизга етказишда журналист масъулияти хусусида сўз юритганда, оммавий ахборот воситалари бугунги реал воқеликларни очиқ-ойдин ёритиш билан чекланиб қолмасдан, истиқболда нималар кутаётганини яққол тасаввур қилишимизга ҳам кўмаклашмоқда ва эртанги кунга ишончимизни янада мустаҳкамлашга хизмат қилмоқда.

Сўз эркинлиги ва ахборий жамият шаклланишида мамлакатимизнинг расмий ахборот манбаси бўлмиш Ўзбекистон Миллий ахборот агентлигининг ўз ўрни бор. Бугунги кунда ЎЗА Ўзбекистон Республикаси давлат органлари фаолияти ва мамлакатдаги муҳим ижтимоий-сиёсий воқеаларни тўлалигича ёритиб келмоқда. Агентликнинг вилоятлардаги мухбирлар тармоғи мамлакатнинг барча ҳудудларидаги ўзгаришлар ва янгиликлар ҳақида тезкор ва объектив ахборот узатиш имконини беради.

Ўзбекистонда амалга оширилаётган туб ислохотларнинг асл мазмуни ва моҳияти ҳақида холис хабарларни аҳолининг барча қатламларига ҳамда дунё ҳамжамиятига тезкорлик билан ва сифатли етказиш, миллий ахборот маконини ривожлантириш, глобал ахборот майдонида республиканинг ўрнини янада мустаҳкамлаш борасида Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги самарали фаолият олиб бормоқда.

Юртимизнинг ижтимоий-сиёсий ҳаётига оид расмий маълумотларни излаш, олиш, қайта ишлаш ҳамда ахборот, ахборот-таҳлилий, таҳлилий-танқидий материаллар тайёрлаш ва тарқатиш, Ўзбекистон Республикаси қонунлари, Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарорлари, расмий баёноtlари ва маърузаларини, шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталари ва Ҳукуматининг қарорлари ва уларнинг фаолиятига оид ахборотларни мунтазам ёритиб бориш агентликнинг асосий вазифалари сирасига киради.

Республиканинг ички ва ташқи сиёсатини, мамлакатимизда амалга оширилаётган кенг миқёсли ислохотларни, жамиятимизда кечаётган ижтимоий-сиёсий ва социал-иқтисодий ўзгаришлар ва янгиланишларни тезкор ёритиш, жамоатчиликнинг катта қизиқишини уйғотаётган воқеаларнинг моҳияти бўйича фуқароларда ҳолис фикрни шакллантириш ҳамда маълумотлардан бузғунчи ва бошқа ғайриқонуний мақсадларда фойдаланиш имкониятини бартараф этиш учун аҳолини бундай ҳодисалар ҳақида ўз вақтида хабардор қилиб бориш юзасидан тизимли ишлар амалга оширилмоқда.

ЎЗА ахбороти ўзбек, рус, инглиз, француз, немис, испан, араб, қozoқ ва хитой тилларида тарқатилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

- 1.Ш.Мирзиёев.Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги фаолиятини янада такомиллаштириш чоратadbирлари тўғрисида”ги қарори”.2019 йил 2 декабрь.
- 2.«Ахборот олиш кафoлатлари ва эркинлиги тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси қонуни (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 й., 4-5-сон, 108-мoдда; 2001 й., 1-2-сон, 23-мoдда; 2015 й., 52-сон, 645-мoдда; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон)

MA'NAVIYATNI YUKSALTIRUVCHI

MANBA

(Alpomish - jismonan sog'lom, ma'nan barkamol shaxs timsoli)

Raximova Nuquljon Yusupovna,

*Chirchiq shahar XTB tasarrufidagi 6-sonli umumiy
o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada o'quvchilarga ma'naviy va jismoniy barkamollikni o'zida jamlagan "Alpomish" dostonini o'qitish b'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqdik.

Kalit so'zlar: Adabiyot, ma'naviy, og'zaki, ijod, jismoniy tarbiya, sport, ommaviylik, sog'lom, Alpomish, Barchinoy, testlar.

Аннотация: В статье нами разработаны методические рекомендации по обучению студентов эпосу «Алпомыш», сочетающему в себе духовное и физическое совершенство.

Ключевые слова: литература, духовность, устное творчество, физическое воспитание, спорт, гласность, здоровье, тесты, Алпомыш, Барчиной.

Doston–O'rta va Yaqin Sharq xalqlari, shu jumladan, turkiyzabon xalqlar og'zaki va yozma adabiyotidagi katta hajmga ega bo'lgan liro-epik asarlardir. Xalq og'zaki ijodi tarkibidagi doston va yozma adabiyot namunasi sanalmish dostonlar bir xil atalishidan qat'iy nazar, yaratilishi, shakliy xususiyatlari, ijro qilinishi jihatlari bilan farqlanadi. Badiiy adabiyotning o'quvchilar ma'naviyatiga ta'sir quvvati, tarbiyaviy ahamiyatini doston janridagi asar tahlili orqali singdirishga harakat qildik.

Xalq dostonlari ma'lum shaxs tomonidan og'zaki tarzda yaratilgan bo'lib, ular turli ijodkorlar tomonidan ijro etilib, avloddan-avlodga o'tib, sayqallanib, an'anaviylik kasb eta boradi. Natijada uning muallifini aniqlash qiyin bo'lib qoladi. Shuning uchun ham bu xil asarlar jamoa ijodi mahsuli deb qaraladi. Yozma adabiyot namunasi sanalgan dostonlar esa, muayyan ijodkor qalamiga mansub bo'ladi va shu holicha saqlanadi.

Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Alpomish" - qahramonlik dostoni" mavzusini o'qitish bo'yicha fikr-mulohaza olib boriladi. Xalq og'zaki ijodi namunalarini o'qib- o'rganish va tahlil qilish jarayonida shunday ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish, yanada takomillashtirish ko'zda tutiladi.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, sportning ommaviyligini oshirish, keng aholi qatlami orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etishga qaratilgan qator tadbirlar amalga oshirilayotgani hech kimga sir emas. Xususan, o'quvchilar "Alpomish" dostonini o'rganishda 2000 -yildan buyon 7-yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan Respublikamiz aholisining ommoviy salomatlik darajasini aniqlash, xalqimizning jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarliklarini tekshirish maqsadida "Alpomish va Barchinoy" testlari Normativ me'yorlari o'tkazilib kelinishi haqidagi ma'lumotlar bilan tanishtiriladi. Aynan uzluksiz ta'lim tizimining barcha pag'onalarida testlar ishlab chiqilgan talablar asosida 3 ta bosqichda olinayotgani, jumladan, Respublikamizdagi barcha Oliy o'quv yurtlarining I-bosqichlari "Jismoniy tarbiya" darslarida bu me'yorlarni topshirishadi. "Alpomish va Barchinoy" testlariga qo'yilgan talab va me'yorlar, sport turlari bo'yicha topshirish usullari "Jismoniy tarbiya nazariyasi" fani orqali mutaxassislik yo'nalishlarida o'qitilishi o'quvchilar diqqatiga yetkaziladi.

«Alpomish» dostonidagi voqealar hayotiyli va ta'sirchanligi bilan ajralib turishi, mardlik, fidoiylilik, samimiyat, to'g'rilik, hamiyatlilik, do'stga sodiqlik, vatanparvarlik va mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlardan iborat bo'lgan o'zbek milliy ruhiyati yaqqol ko'rinadi.

Alpomish va Barchinning, ularni qurshab turgan el-yurtning o'zaro munosabatlari, xatti-harakatlari, tutumlari, qarashlari juda katta o'rnakdir. Ammo ularni o'z o'rnini bilan hozirgi yoshlar ongi va qalbiga singdirish, shu yo'l orqali yuksak ma'naviyatli inson tarbiyasiga daxldor ma'naviy-axloqiy fazilatlarni o'zlashtirib olishiga imkoniyat yaratish adabiy mashg'ulotlarning, faqat adabiyot emas, balki barcha o'quv predmetlarini o'rganish jarayonidagi eng muhim vazifalardan biridir.

O'quvchilarning so'z boyligini oshirishda, **davlat tilidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishda**, madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishda o'zbek adabiyoti namunalarining o'rni beqiyos.

Doston matni tahliliga quyidagicha kirishish mumkin:

Dars "Alpomish" dostoni asosida ishlangan videofilm namoyishi bilan boshlanadi, so'ng o'quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

1. Yuqoridagi videolavha(kontekst)dan xulosa qilsak Boysari to'g'ri ish qilganmi?
2. Dostonlarimizda Rustam, Ravshan, Go'ro'g'li kabi ko'plab qahramonlar mavjud, lekin sportda yuksak natijaga erishgan sportchi yigitlar Alpomishga, qizlar esa Barchinoyga qiyoslanadilar. Buning sababi nimada?
3. "Alpomish" dostoni variant va versiyalari ko'pligining sababi nimada deb o'ylaysiz?
5. Demak, kimning Alpomish dostoni bo'lsa, ushbu xalq ... (mo'g'il) emas!!! (A.Bo'ronov tomonidan aytilgan fikrni to'ldiring)
6. To'yga borgan Boybo'ri va Boysari befarzandligi tufayli izzat-ikromga loyiq ko'rilmaydi. Qalmoqlarga turmushga rozi bo'lmagan Barchinoy kanizlari bilan o'z urug'idan ajratilib, adirga chodir tikilib ajratiladi. Jamiyatdan ajratish, turli kategoriyalarga qarab odamlarni tabaqalarga ajratish keyingi davr o'zbek adabiyotida ham uchraydigan hodisadir. O'zingiz mutolaa qilgan qaysi asarda shunga o'xshash jaroyonga guvoh bo'lgansiz? (Masalan, "Muzqaymoq" hikoyasi)

Dostonni o'rganish jarayonida quyidagi topshiriq savollari beriladi:

1. Kurash paytida Barchinoydagi shijoat, motivatsiya berish qaysi o'rinlarda yaqqol aks etgan?
2. Jismonan kuchli bo'lgan Barchinoy, ayrim o'rinlarda o'zini milliy qadriyatlarimizga, mentalitetimizga mos bo'lmagan xolda tutadi. Hozirgi davr "Barchinoylari" (sportchi qizlar) qanday bo'lishi kerak?
3. Dostonda obrazlar tasviridagi an'anaviy qo'llangan so'z va jummalarni eslab qoling. Ushbu shakllarga qaysi asarlarda guvoh bo'lgansiz?
4. Dostonda obrazlar tasviridagi an'anaviylik qanday shaklda yuzaga chiqqan?

Doston bilan to'liq tanishib chiqqan o'quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilish mumkin:

1. Asardagi ijobiy va salbiy obrazlarga e'tibor bering. Boshqa asarlardagi xuddi shunday qahramonlar bilan solishtiring (Masalan, "Ravshan", "Go'ro'g'li" dostonlari). O'xshash jihatlarni sanab o'ting.
2. Maslahatga yig'ilgan eliboylar ichidan Yortiboy Barchinni qalmoqlarga turmushga berish taklifini bildiradi. Qaysi jihatdan qaralganda ushbu taklifni oqlash mumkin? Siz qanday taklif bergan bo'lar edingiz?
3. Barchin qo'ygan shartlar hozirgi kundagi an'anaviy sport turlaridan nimasi bilan farq qiladi yoki o'xshash?
4. Sevgan yo'ri uchun o'z dinidan kechish mumtoz adabiyotimizda ko'p uchraydigan mavzulardan biri. Doston qahramonlaridan biri Qorajon esa do'stlik uchun dinidan, o'z eli, o'z akalaridan kechib ketadi. Mavzu jihatdan bunday holat keyingi davr adabiyotida ham uchraydimi? Shunday vaziyatda siz qanday yo'l tutgan bo'lar edingiz?
5. Dostonlarda qo'llanilishi an'anaga aylangan badiiy tasvir vositalarini sanang. "Alpomish" dostoni matnidan ularga misollar toping.

Dostonlarda **sportning bir qancha turlari** talqin etilishi, xalq og'zaki ijodining yirik namunasi hasoblangan "Alpomish" dostonidagi qahramonlar orqali umuminsoniy qadriyatlar mujassamlashgan, unda xalqning turmush tarzi, axloq-odobi, urf-odatlar, marosimlari, an'analari, insoniy va ma'naviy qadriyatlari, diniy e'tiqodlari, orzu-umidlari, erk va ozodlik yo'lidagi mardonavor kurashlari, vatanparvarligi, sevgi-muhabbatga sadoqati, kelajakka ishonchi yaqqol ifodalangan.

Dostonlar, avvalo, xalq pedagogikasining tarkibiy qismini tashkil etib, ularda ota-ona, o'zgalarga hurmat tuyg'usi, do'stlik va hamkorlik, xayru saxovat va mehmonnavozlik, sevgi va sadoqat, jasurlik va qahramonlik fazilatlarini kabi insonparvarlik sifatlarini ulug'langan.

**Doston mutolaasidan keyingi jarayonda o'quvchilarga asar matnining
(asar qahranonlari tavsifi) quyidagi tahlilini amalga oshirish topshirig'ini
berish mumkin.**

Asar qahramonlari	Ularga tegishli narsa va buyumlar	Asar qahramonlarining fikrlari va xatti - harakatlari	Asarda uchraydigan so'z va iboralar
Alpomish	bobosi Alpinbiydan qolgan yoy qo'riq Boychibor oti	“Vaqti-bevaqt birovnikiga mehmon kelsa, otini ushlab, joy bor bo'lsa, ko'nglini xushlab jo'natsa, bul ham saxiy; agar joy bor turib, joy yo'q, deb qo'ndirmay jo'natsa, bul odam baxil. Vaqti-bevaqt bir kishi mozorotning qabatidan o'tsa, chap oyog'ini uzangidan chiqarib, mozordagi odamlarning haqiga duo o'qib o'tsa, bul ham saxiylik; agar har kim mozordan o'tganda, chap oyog'ini uzangidan chiqarmay, mozorotning haqiga duo qilmay o'tsa, bul ham baxil. Kishining moli zakotga yetsa, zakot bersa, bul ham saxiy ekan. Agar zakot bermasa, bul ham baxil ekan”.	Qo'ng'irot Zakot Qo'riq Tabla Nor Burumi
Boysari	2 ta jildam to'pi 90 to'qay yilqisi	“Ey, bizning molimiz shu vaqtgacha zakot bo'lmagan, endi akamiz o'g'illi kishi bo'lib, darrov bizning molimizni zakot qiladigan bo'libdi-da”.	qalmoq ulsizlik juz'ya paygabet elat talato'p bo'lib
Boybo'ri	90 to'qay yilqisi	“Men o'n olti urug' qo'ng'irot elining ham boyi bo'lsam, ham shoyi bo'lsam, men kinga zakot beraman. Mening davlatimda yolg'iz inim Boysari baxillikka chiqib ketmasin”	Lo'k Norcha Bel Qaba Eliboylar.

Xalq dostonlarini yaratuvchi va kuylovchilar o'zbeklarda – baxshi, yuzboshi, soqi, sannovchi; qozoqlarda – oqin; qoraqalpoqlarda – baxshi, jirov; qirg'izlarda –

manaschi kabi atamalar bilan yuritilishi, yozma dostonlar ijodkorlari esa, shoir yoki dostonnavis deya nomlanishi haqida o'quvchilarning ayrimlari fikrga ega.

“Badiiy asarni o'qiy olish va undan ta'sirlana bilish jiddiy ahamiyatga molik mashg'ulotdir, - deb yozadi metodist olim, professor Qozoqboy Yo'ldoshev “O'qituvchi kitobi”da.- Ruhshunos va tarbiyashunos olimlarning tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tuyg'ulari nozik, hissiyotlari o'tkir, kechinmalari teran kishilarning aqliy imkoniyatlari ham yuksakroq bo'ladi. Binobarin, hissiyot tarbiyasi tafakkur taraqqiyotiga ham bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi” .

O'quvchilar dars jarayonida “Badiiy adabiyot yoshlar ma'naviyatiga qanday ta'sir qiladi?” savoliga yozma tarzda javob beradilar. Matn yaratadilar. Uyda “Mening sevimli asarim” mavzusida esse yozadilar. Ikkala asardan olingan lug'at so'zlarini shakllantirish uy vazifasi sifatida beriladi.

Dastlabki tajribalar shuni ko'rsatadiki, taklif etilgan savollardan foydalangan holda mashg'ulotlarni tashkil etish natijasida o'quvchilarda mutolaa madaniyatiga oid ko'nikmalarni samarali shakllantirish mumkin ekan.

Davlat tilini chuqurroq bilish har qachongidan ham har qanday mutaxassis uchun kechiktirilmaydigan ehtiyojga aylanayotgan bugungi kunda, ta'limning barcha bosqichlarida o'zbek tili darslarida o'zbek adabiyotini o'rganish bosqichiga o'tish, o'zbek tilidagi o'qitayotgan matnni boshqa asarlar va o'zining hayotiy tajribasi bilan bog'lashiga, solishtirishi, o'xshash va farqli jihatlarini qidirish va savol berishga undashimiz darkor.

Haqiqatan ham, badiiy adabiyot ruhiy- axloqiy tarbiya berish, estetik zavq olish va intellektual faoliyat ko'rsatish manbai bo'lish bilan birga **til o'rganishda** alohida ahamiyatga ega bo'lgan vositadir.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, barkamol shaxsni tarbiyalashda, ularning davlat tilidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishda, obrazli tafakkur, nutqiy savodxonligiga erishishda adabiy ta'lim saviyasini oshirishimiz, ta'limning barcha bosqichlarida adabiyot o'qitishda vorisiylik, an'ana haqidagi tushunchalarni ham singdirsak, yosh avlodni adabiy manbalar orqali buyuk ajdodlarimiz tomonidan

asrlardan asrlarga o'tib kelayotgan buyuk qadriyatlarga hurmat va ezgu an'analardan oziqlantirib, saboq berishni yo'lga qo'ygan bo'lardik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning poydevoridir. – Toshkent: «TASVIR» nashriyot uyi, 2021. – 36 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent: «Tasvir» nashriyot uyi, 2020. – 72 b.
- 3..Mirqosimova M.O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari. Ped. fan. dokt. .diss. – T.: 1995.
- 4.To'xliyev B. Badiiy asarlarni sharhlab o'rganish. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013. – 147 b.
- 5.Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – T.: Баркамол-файз-медиа, 2018 – 352 б.
- 6.Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma.Ikkinchi nashr – T.:”Innovatsiya-ziyo”,2020 – 352 б.
7. Alpomish. Doston. Fozil Yo'ldosh o'g'li variantI. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent. 2016

BADIIY ASARLARDA ALISHER NAVOIY OBRAZI TALQINI (XX-XXI ASRLARDA YARATILGAN ASARLAR MISOLIDA)

*Yusupov Samandar Shokirjon o'g'li,
ToshDO'TAU o'zbek tili va adabiyotini
o'qitish fakulteti, 3-kurs talabasi.
Ilmiy rahbar: H. Ahmedov, ToshDO'TAU dotsenti, f.f. n.*

Annotatsiya:Ushbu maqolada Alisher Navoiyning sermahsul faoliyati, uning qilgan bunyodkorlik ishlari, ilm ahliga qilgan homiyliklari yoritilgan asarlar haqida ba'zi mulohazalar talqin qilinadi. O'tgan asrda va yangi o'zbek adabiyotida Navoiy haqida yozilgan asarlarning o'xshash va farqli xususiyatlari tadqiq qilinadi.

Kalit soʻzlar: “Makorim ul-axloq”, homiylik, sinkret, yangicha metod, padari buzrukvor

Аннотация: В этой статье дается некоторое представление о плодотворной деятельности Алишера Навои, его творчестве и покровительстве ученым. Исследуются сходства и различия между произведениями, написанными о Навои в прошлом веке и в современной узбекской литературе.

Ключевые слова: «Макорим ул-ахлак», спонсорство, синкретизм, новый метод, отец

Alisher Navoiyning samarali faoliyati, uning badiiy ijod va uning tadriji borasida olib borgan faoliyati ham din, ham siyosat, ham maʼrifat sohasida qilgan ezgu ishlari, ilm va ijod ahliga qilgan homiyliklari, umuman olganda, jamiyki, zamondosh oʻqirmanlarga oʻrnak boʻladigan jihatlari Navoiy hali hayotlik chogʻlaridanoq qogʻozga tushdi. Navoiyni ilm borasida padari buzrukvor deb biladigan Mavlono Xondamir buyuk bobokalonimiz haqida qator asarlar, xususan, faqat Navoiyga, uning boshqa insonlarda topilmas fazilatlari haqida “Makorim ul-axloq” asarini yaratadi. Ushbu asardayoq Navoiyning hatto chumoliga ham ozor bermaydigan buyuk inson ekanligi, davlat hokimiyatida avval muhrdor, keyin vazir sifatida oddiy xalqqa qilgan adolatli ishlari qator marjon kabi tizilgan hikoyatlar orqali bayon qilinadi. XX asrda tom maʼnoda Alisher Navoiyning ijodini oʻrganish, uning faoliyati va andalib yangligʻ nazm boʻstoniga oid qarashlar, ular asosida yangi badiiy ijod namunalari yaratila boshlandi. Xususan, Aziz Qayumov, Vohid Zohidov, Suyima Gʻaniyeva, Oybek, Mirkarim Osim, Izzat Sulton, Uygʻun kabi adabiyotshunos va ijodkorlar adib haqida ilmiy, publitsistik va badiiy ijod namunalarini yaratdilar. Dastlab, Navoiyni yangi oʻzbek kitobxoniga yaqindan tanishtirgan, uning faoliyatini koʻrsatib bergan asar, shubha yoʻqki, Oybekning “Navoiy” romani boʻlsa, aynan keyinchalik Oybekning yaratgan “Bola Alisher”, “Alisherning bolaligi” va oldinroq yaratilgan “Alisher Navoiy” dostonlari sanaladi. Oybekning “Navoiy” romanida Navoiyning barcha avom xalqqa qilgan xizmatlari, ilm-fanga homiyligi, umrini faqat mana shu xalq uchun va ijod uchun bagʻishlagan

buyuk olim sifatida namoyon bo‘ladi. Navoiy orzu qilgan buyuk davlat, undagi ilmga munosabat haqida ham Oybek o‘z fikrlarini bilvosita sinkretik holatda qo‘shib ketadi. Xususan, Navoiy va ijodkorning ukasi sanalmish Darvishali bilan bo‘lgan suhbatida Hirotida mashhur kutubxona barpo etish kerakligi va bunga ukasi bosh bo‘lgan holatda, bu ajoyibot nafaqat Hirotning ko‘rki, balki butun dunyoning eng ajib inshooti bo‘lmog‘ini orzu qiladi. Keyingi davrda Mirkarim Osim Alisher Navoiyga bag‘ishlangan qator asarlarini, misol tariqasida aytishimiz mumkinki, “Zulmat ichra nur” qissasi ham ijodkorning 525 yillik yubileyiga sovg‘a bo‘ldi. Bu asarda ko‘proq Navoiyning bolalik va yoshlik yillarida, bu vaqtlardagi zehni teranligi va zakosining yuksakligiga e‘tibor qaratiladi. Bugungi kungacha ham o‘zining amaliy ahamiyatini yo‘qotmagan Uyg‘un va Izzat Sultonning birgalika yaratgan “Navoiy” dramasi ham alohida ahamiyatga ega. Ushbu asardan o‘rin olgan “Navoiy va Guli” ko‘rinishi asarga alohida ko‘rk bag‘ishlanganini va shuning uchun ham bugungi kunda hali hamon sevib mutolaa qilinadigan drama ekanligidan dalolat beradi. Bu asarlar yaratilganiga mos ravishda 60 va 40 yillar chamasi vaqt o‘tdi. . Shu davr mobaynida Navoiy ijodiga yangicha qarash, uning asarlarida, g‘azaliyotidagi diniy-tasavvufiy g‘oyalarning ifodalanishi o‘rganildi. Yangi davrda aynan Isajon Sulton o‘zining badiiy qarashlarini “Alisher Navoiy romanini” yaratadi. Ushbu asarda ijodkor o‘zining falsafiy, ilmiy va badiiy qarashlarini sinkretik holatda tasvirlab go‘zal badiiy asarni qog‘ozga tushiradi. Adabiyotshunos olim Bahodir Karim asar haqida fikr bildirar ekan “Hazrat Navoiyning o‘zbek adabiyoti tarixida mavjud obrazini takrorlamaslik uchun izlanish, tarix kitoblarini o‘qish, alloma shoirning ko‘nglini tushunish hamda e‘tiqodiy amal va a’mollarini bayon etish uchun yozuvchi keng ko‘lamli dunyoqarashga ega bo‘lishi lozim. Tarixni tiriltirish uchun voqelik tafsiloti, sanalar yoki ma’lumotlarni bilishning o‘zi kamlik qiladi. Oddiy, quruq ma’lumot bayoni, xabar matnlari o‘quvchini zeriktirishi mumkin. Asrlar bag‘rida sokin yotgan sohir ovoz sadolanishi uchun insoniy inja his-tuyg‘ular xuddi rubob toridek teran tortilishi va chertganda musiqiy ohang tarqatishi lozim. Hirot yo Samarqand, Marv yoki Astrobod ko‘chalaridagi chang-to‘zon, to‘y-tomosha, shovqin-suron, bazm va mashvarat, bir so‘z bilan aytganda, haqiqiy hayot

tasviri chinakam barhayotlikni talab etadi. Isajon Sultonning romani o'quvchi qalbiga allaqanday rubobiy sokinlik bag'ishlaydi, mudroq tasavvurlarni uyg'otadi, turg'un tafakkurni yuritib yuboradi" [Karimov, 2021]. Umuman olganda, ushbu asarda Navoiyning har bir asari, nainki asarlari, balki 1bayti ham tahlilga, mulohazaga tortiladi. O'qirmanning nigohida va nazdida Hazrat Navoiy hech qaysi so'zini bekorga istifoda qilmaganini tushunishimiz mumkin. Yoshlik yillaridanoq, ilmga chanqoq bo'lgan , o'z zehnu-u zakovati ila kattalarni ham shoshirib qo'yadigan Navoiy obrazi har bir asarda yagona metod usuli orqali turlicha talqin etiladi va mulohaza qilinadi. Mazkur biz tadqiq qilgan "Alisher Navoiy" romanida ham shunday jihatlarni ko'rishimiz mumkin. Navoiy haqida mafkuralardan holi, yangi davr talabi bilan yangi asar yaratish muhim bir ehtiyojga aylandi. Bu narsa esa yozuvchidan katta kuch, sabr va mahorat talab qilar edi. Aynan Isajon Sulton garchi ko'proq zamonaviy nasrda ijod qilsa-da, o'zining "Alisher Navoiy" deb atalgan tarixiy romanini yaratdi. Fikrimizcha, yozuvchi o'z asarini yangicha ruh bilan yarata oldi va bu yo'lda Navoiy an'anasini davom ettirdi. Asarini boshdan-oyoq birini takrorlamaydigan tashbeh-u tashxislar bilan bezadi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, roman ba'zi "kamchiliklar" i borligiga qaramasdan qariyb 80 yildan keyin Oybekning "Navoiy" romanidan farqli ravishda Navoiy shaxsiyatini yangi pog'onaga olib chiqdi. Asarnu o'qish jarayonida muallifni bu asarni yaratishi oson bo'lmaganini, bu borada juda ko'plab tarixiy va badiiy manbalar bilan tanishib chiqqanligini anglashimiz mumkin. Bularning barchasi asarning dilga yaqin bo'lishiga xizmat qilgan. O'qirmanlarning ko'z oldiga Alisher Navoiy asarlarining vujudga kelish jarayoni va uning bunyodkorlik salohiyati bilan bir qatorda ustozlariga bo'lgan hurmati, din va davlat yo'lida qilgan samarali faoliyatini o'zida haqqoniy va ishonarli aks ettirgan yangi ijod namunasi bo'ldi. Ijodkor o'zining boshqa romanlari kabi "Alisher Navoiy" romanida ham ko'rkam so'zning jozibasini ko'rsata oladi. Tarixiy shaxslarga, voqealarga, Navoiyning nazm bo'stoniga o'zining soddalik va falsafiylikni uyg'unlashtira oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Sulton I. Alisher Navoiy. –T.: Adabiyot,2021. –B.512
- 2.Karimov B. <https://yuz.uz/uz/news/insoniyat-quyoshi-tarifida-bitilgan-roman->
- 3.Oybek. Navoiy. –T.:Sharq. 2004. –B. 496
- 4.Osim M. Zulmat ichra nur. –T.: Gʻafur Gʻulom. 2016. –B.132

VI SHO‘BA.TA’LIM JARAYONIGA ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING JORIY ETILISHI.

BADIIY MATNNING O`QUV TAHLILI ORQALI O`QUVCHILARNING ADABIY ESTETIK TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH

Safo Matchonov,

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika

Instituti professori, pedagogika fanlari doktori

[*safomatchon213@gmail.com*](mailto:safomatchon213@gmail.com)

Annotatsiya: Maqolada o`quvchilarni badiiy matn ustida ishlashga o`rgatish orqali ularda adabiy-estetik tahlil malakasini shakllantirish masalasi yoritilgan. Matn ustida ishlashga o`rgatish muallifning o`sha asarni yaratish jarayonidagi ijodiy yo`lni qayta bosib o`tish, fikr-mulohazalari, hissiyot va xulosalariga sherik bo`lishga tayyorlash asosida ma`naviy yetuklikka erishishga qaratilishi haqida so`z yuritilgan.

Kalit so`zlar: matn, tahlil, tarjimai hol, syujet, adabiy estetik tafakkur, fabula, kompozitsiya, tezis, jahon adabiyoti.

Adabiy ta`lim tizimida o`quvchilarning adabiyotga bo`lgan qiziqishi va bilimini to`g`ri yo`naltirish, darslikdan o`quv materiallarining asosiy va muhim jihatlarini ajrata olish ko`nikmalarini shakllantirish orqali adabiy tahlil kompetensiyasini rivojlantirishda badiiy matn ustida ishlashga o`rgatish usullari muhim ahamiyat kasb etadi. “Zero, badiiy matnni to`g`ri tahlil va talqin qila olish malakasi insonning umummadaniy saviyasi, ma`naviy-ma`rifiy balog`ati, dunyoni anglash salohiyati, hissiy-estetik idrokining taraqqiyoti uchun muhim” dir. Shunday ekan, avvalo, matn tushunchasining o`zini izohlash zarur.

“Matn” atamasiga “O`zbek tilining izohli lug`ati”da “nutqning yozuvdagi ifodasi; tekst; yozuvda yoki bosma holda shakllantirilgan mualliflik asari yoki hujjat; bosma nashrning rasm, chizma va izohlarsiz asosiy qismi” tarzida ta`rif beriladi [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 557]. Shunga ko`ra, matnlarni mazmunan

badiiy, rasmiy, ilmiy, publisistik kabi turlarga bo'lish mumkin. Ularning har biri o'z tuzilish va mazmuniga qarab yondashishni taqozo etadi.

Matn ustida ishlash asarni o'rganishning o'ziga xos ko'rinishi, asosiy shakllaridan biri sifatida ijodiy xarakteriga ega bo'lishi bilan ajralib turadi. Matn ustida ishlash metodikasi adabiy ta'limning o'zak masalalaridan hisoblanishi bejiz emas. U o'quvchilarning asar mazmun-mohiyatini o'zlashtirishlariga erishish hamda matn tahlili vositasida o'quvchilarni axloqiy-estetik jihatdan tarbiyalash maqsadini nazarda tutadi. Badiiy matnga, bir tomondan adabiyotshunoslik ilmi va pedagogika nuqtayi nazaridan yondashilishi zarurati uni shaklan va mazmunan quyidagi bosqichlarda o'rganishni taqozo etadi:

1. Badiiy matn ustida ishlashda kirish mashg'ulotlari.
2. Badiiy asarni o'qish.
3. Badiiy asarni tahlil qilish.
4. Badiiy matn ustida ishlashga doir yakuniy mashg'ulotlar.

Matn ustida ishlash mohiyat e'tibori bilan asar mazmunini o'zlashtirish, g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini o'rganish va shu asosda o'quvchilarning mustaqil fikrlash malakasini shakllantirish orqali ma'naviy-axloqiy tarbiya berish vazifasiga xizmat qiladi. O'qituvchi-o'quvchi hamkorligidagi bu faoliyat matnni ravon, to'g'ri, me'yorida, tushunib, ifodali, ijodiy o'qish, qayta hikoya qilish, asar mazmuniga doir rasmlar chizish, ayrim lavha (parcha)larga sarlavhalar topish, epigraflar tanlash, reja tuzish, berilgan mavzu bo'yicha badiiy asar, darslik, adabiy-tanqidiy, ilmiy-metodik adabiyotlardan foydalanish (tezis tuzish, ko'chirmalar olish, konspektlashtirish), yozuvchining o'ziga xos ijodiy uslubi – individualligini aniqlash, bayon, insho, taqriz, ma'ruza matni, referat yozish, ikki yoki undan ortiq asarlarni mavzusiga ko'ra va g'oyaviy-badiiy jihatdan qiyosiy tahlil qilish, o'z fikrlarini og'zaki va yozma bayon etish, sahnalashtirilgan yoki ekranlashtirilgan asarlarning ijrochilari mahoratini baholash kabi g'oyat muhim masalalar doirasida ish ko'radi.

Badiiy matn boshqa turdagi, masalan, ilmiy matndan obrazlilik bilan farqlanadi. Ilmiy matnni tushunish uchun ma'lum darajada bilim, ko'nikma, malaka talab qilingani kabi badiiy matnning mag'zini chaqish ham jiddiy mehnattalab

ishdir. Ayniqsa, mumtoz adabiyot namunalari, tarixiy-badiiy matnlarni o`quvchilarning maxsus izohsiz tushuntirish mushkul. Chunki o`qituvchi matndagi so`z va iboralarni o`z tushunchasidagi mavjud so`z va ibaralar orqali qabul qiladi. O`qimishli kishilarning lug`at boyligi o`rtacha o`n-o`n ikki ming so`zdan iborat bo`lishi nazarda tutilsa, o`quvchilar nutqining chegaralanganini sezish qiyin emas. Demak, ularning badiiy asar nafosatini his etishlari, idrok qilishlari, matn tagzaminidagi ma`noni anglashlari o`qituvchi yordamisiz qiyin kechadi. Bu esa o`quvchilarni matn ustida ishlashga o`rgatishda yozuvchilarning o`ziga xos hayot va ijod yo`li, asarlarining yaratilish tarixi, adabiyot taraqqiyotidagi o`rni, tarixiy qahramonlar taqdiri, joy nomlari haqidagi ma`lumotlardan o`rinli va unumli foydalanishni taqozo etadi.

Bunday ma`lumotlar Mahmud Koshg`ariyning “Devonu lug`otit-turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg`u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Devoni hikmat”, Alisher Navoiyning “Xamsa”, Boburning “Boburnoma” singari mumtoz adabiyot namunalari ustida ishlashda ham, Mahmudxo`ja Behbudiyning “Padarkush”, Fitratning “Abulfayzxon”, Abdulla Qodiriyning “O`tgan kunlar”, “Mehrobdan chayon”, Cho`lponning “Kecha va kunduz” kabi XX asr o`zbek adabiyoti asarlari bilan tanishishda ham, Sofoklning “Shoh Edip”, Chingiz Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” singari jahon adabiyoti durdonalarini o`rganish chog`ida ham yaxshi samara berishi tabiiydir.

O`qituvchi bu xildagi ma`lumotlarni yozuvchilarning asarlaridan, tarjimayi hollaridan, ular to`g`risidagi badialardan, tarixiy, ilmiy-ommabop asarlardan, maxsus albomlardan, zamondoshlari xotiralaridan olishi mumkin. Boburning “Boburnoma”, Hasanxo`ja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob”, Nasimxon Rahmonning “Turk hoqonligi”, Hayriddin Sultonovning “Boburning tushlari”, Habibullo Qodiriyning “Otam haqida”, “Abdulla Qodiriyning so`nggi kunlari”, shuningdek, Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Maqsud Shayxzoda va boshqa yozuvchilar zamondoshlari xotiralarida ana shunday mo`tabar manbalar sirasiga kiradi.

Matn ustida ishlash mashg'ulotlarida, zarurat sezilganda, yozuvchining hayoti va ijodiy faoliyatini o'rganishga doir ma'lumotlar berish nafaqat ta'limiy, balki tarbiyaviy jihatdan ham samarali usullaridan hisoblanadi. Binobarin, yozuvchi tarjimai holi uning ijodining tub mohiyatini anglash, badiiy mahoratiga xos yutuq va kamchiliklar yuzasidan tegishli xulosa chiqarishda, ijodiy yo'nalishini belgilashda muhim manba vazifasini o'tashi mumkin. Yozuvchi tarjimai holini o'rganishda o'quvchilarni uning o'zi yashab ijod etgan davrdagi ijtimoiy hayot va tarixiy muhitga munosabati bilan tanishtirish ma'rifiy-tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Alisher Navoiyning Husayn Boyqaro saltanatida, A.S.Pushkin va L.N.Tolstoyning Rossiya kibarlar jamiyatida, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy va Hamzalarining asrimiz boshlaridagi milliy uyg'onish harakatiga tutgan mavqelari sharhlangandagina ularning ijodini chuqur o'zlashtirishga yo'l ochiladi. Bunday sharhlar, ayniqsa, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir, Maqsud Shayxzoda, Said Ahmad va Shukrullo kabi qatag'onga uchragan yozuvchilarning hayoti va ijodini o'rganishda katta naf keltiradi.

“Yozuvchini, - deb yozgan edi A.Qodiriy, - garchi shaxsan tanilmasa ham, asalarini o'qib, qanday tabiatli shaxs ekanini g'oyibona bilish, tasavvur qilish mumkin. Chunki u asarlarida o'z tabiatini, ruhini tasvirlaydi [Абдулла Қодирий замондошлари хотирасида, 1986: 140]”.

Yozuvchi shaxsiyati, dunyoqarashi, hayotga bo'lgan munosabati esa uning ijodiy o'ziga xosligida aks etadi. Negaki, bir qalamkashga mansub asarlar o'zaro shakl va mazmun jihatdan farqlansa-da, ularni muallifning ijodiy uslubi, o'zi tasvirlayotgan hayot materialiga munasabati birlashtirib turadi. Ijodiy o'ziga xoslikni bir yozuvchining turli asarlarini o'zaro taqqoslash orqali ham, boshqa yozuvchilarning shu mavzuga oid asarlariga qiyoslash orqali ham aniqlash mumkin. Masalan, Usmon Nosirning ijodiy yo'li tahlil markaziga qo'yilganda, uning o'ziga xosligini “Yur, tog'larga chiqaylik!”, “Yo'lchi”, “Yurak” she'rlarini o'zaro chog'ishtirish yoki Hamzaning “Yig'la, Turkiston!”, H.Olimjonning “Holbuki tun”, G'afurG'ulomning “Sen yetim emassan” she'rlariga taqqoslash yordamida

tushuntirsa bo`ladi. Ko`rinadiki, o`quvchilarni badiiy matn ustida ishlashga tayyorlashda yozuvchilarning hayoti va ijodiy yo`liga oid shu xildagi ma`lumotlar muhim yo`llanma vazifasini o`taydi.

Adabiyot o`quv dasturlarida Boburning “Boburnoma” kabi memuar xarakterdagi asarlar ham borki, ularning janr xususiyatlarini tushuntirmasdan turib, matn ustida ishlash ko`zlangan natijani bermaydi. Memuar janrida qalam tebratuvchi ijodkorlar, xususan, aktyorlar, davlat va jamoat arboblari, olimlar, tarixchilar, adabiyotchilar, harbiylar ko`proq kundaliklar, har xil yozishmalar, gazeta-jurnal materaillari va boshqa hujjatlarga suyansalar, adiblar xotirasida qolgan voqea-hodisalarga badiiy tus beradilar. Sadridin Ayniyning “Esdaliklar”, Oybekning “Bolalik”, Abdulla Qahhorning “O`tmishdan ertaklar” kabi asarlari badiiy o`qimishli memuarlardan hisoblanadi.

Boburning “Boburnoma” asari o`zbek adabiyotidagi memuarlarning mumtoz namunasidir. Unda Bobur siymosi o`quvchi ko`z o`ngida tarixchi olim, geografiya bilimdoni, zukko adabiyotchi, mohir sarkarda, realist yozuvchi, hassos lirik shoir sifatida gavdalandi. Memuarlar xarakter xususiyatlarga ko`ra tarixning bugungi kunimizga daxldor bo`lgan, qayta jonlangan ibratli sahifalaridir. U tarix guvohnomasi, hujjatligi, ayni choqda badiiyligi bilan boshqa janrdagi asarlardan ajralib turadi. Lekin tarixiy haqiqat bilan memuar hamisha bir xil emas. Buni biz Ibn Arabshohning “Temur tarixida taqdir ajoyibotlari”, Muhammad Solihning “Shayboniynoma” asarlari misolida ko`rishimiz mumkin.

Ayrim memuarlarda yozuvchining badiiy to`qimasi alohida o`rin tutadi. Bunday hollarda badiiy to`qimaga keng o`rin berilgani o`sha asarlarning kamchiligi bo`lmay, balki o`ziga xos xususiyatidir. Chunki memuarlarda qahramonlarning shunchaki ko`rgan-kechirganlari emas, balki taniqli so`z san`atkorlarining o`z o`tmishlari vositasida hayotga, mavjud jamiyatga munosabatlari ifodasi bo`lgani uchun ham turli yoshdagi kitobxonlarda qiziqish uyg`otadi.

Ijtimoiy hayotdagi voqea-hodisalarni o`rganish va idrok qilishda ularning yuzaga kelish sabablarini aniqlash muhim o`rin tutgani kabi ba`zi asarlar matnini o`rganishga oid kirish mashg`ulotlarida ularning yaratilish tarixiga doir

ma'lumotlarni keltirish ham yaxshi saara beradi. Umumjahon adabiyotiga katta hissa qo'shgan Alisher Navoiy, Uilyam Shekspir, Jonatan Svift, Viktor Gyugo, Aleksandr Pushkin, Lev Tolstoy, Ernest Xemenguey, Chingiz Aytmatov va boshqa so'z san'atkorlari ijodidan bunga ko'plab misollar keltirish mumkin. Jumladan, I.S.Turgenev "Asya" qissasining yaratilish tarixi to'g'risida bunday hikoya qiladi:

"Reyn daryosi bo'yidagi chog'roqqina shaharchada to'xtadim. Qiladigan ishimning tayini bo'lmagani sababli kechqurun qayiqda tomoshaga chiqdim. Oqshom fayzli edi. Qayiqda hech narsa haqida o'ylamasdan, yoqimli havodan to'yib-to'yib nafas olgancha chor atrofni kuzata boshladim. Tashlandiq jar yoqasidan o'tayotib, uning yonginasidagi ikki qavatli mo'jaz uyga ko'zim tushdi. Uyning pastki qavat derazasidan bir kampir tashqarini kuzatar, yuqoridagi derazadan xushro'ygina qizning boshi ko'rinar edi. Menda to'satdan alohida bir kayfiyat tug'ildi. Qizning kimligi, qanaqaligi, nima uchun bu uychada turishi, kampirga nima aloqasi borligi haqida xayolga cho'mdim. Natijada shu yerda, qayiqning o'zidayoq qissaning fabulasi tayyor bo'ldi".

Bunday ma'lumotlar o'zbek adabiyoti namoyandalari tarjimayi hollarida ham ko'p uchraydi. Masalan, 10-sinfda Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romani tarixiga doir quyidagi hikoya keltirilsa, o'quvchilarning asar sujeti va kompozitsiyasini tushunishlari osonlashadi:

"Qariyb yarim umrini xon zamonlarida yashagan, talay o'tmish voqealarining shohidi bo'lgan otam yoshligimda qiziq-qiziq xotiralarni so'zlab berardi. Bu xotiralar menda tarixga qiziqish uyg'otdi. So'ngra o'sha davrimiz tarixiga oid ancha kitoblar bilan ham tanishib chiqdim. Qo'lim qalamga xiyla kelib qolgach, menda ana shu o'tmishimizdan G'arb romanchiligi asosida kattaroq bir asar yaratish havasi tug'ildi. Tarixiy voqealar boshimda shu qadar ko'p ediki, go'yo qaynar, menga tinchlik bermas edilar. Ammo bu voqealarni qanday qilib bir ipga tizishni, qog'ozga tushirishni tasavvur qila olmasdim. Uzoq vaqt o'ylab, izlab yurdim.

Kunlarning birida bog'imizga, otamni ko'rgani eshak minib shahardan bir chol mehmon bo'lib chiqdi. Mehmonni men tanimasdim. U otamning eski qadrdoni ekan. Mehmon qildik. Otam shu choqlarda yuz yoshlarda bo'lib, mehmon esa undan

besh-o`n yosh kichik ko`rinar edi. Ular suhbat qilarkan, quloqlari og`irlashib qolgani uchun bir-birining so`zlarini yaxshi eshitolmas edi. Shu sababli menga ular o`rtasida tilmoch bo`lib choy quyib o`tirishga to`g`ri keldi. Otam mehmondan so`radi: “Andijondagi xotiningizdan nechta bolangiz bor?”. Ularning suhbatidan men angladimki, bu mehmon toshkentlik bo`lib, uyli-joyli, bola-chaqali kishi ekan. Ammo yoshlik chog`larida savdo vaji bilan Andijonga borib qolib, u yerda uylanib, ko`p yillar istiqomat qilgan, Andijondan ham uylanib, bola-chaqali bo`lgan va keksaygach, o`z shahriga qaytib kelgan ekan.

Mehmonning ana shu soddagina tarixi menga chuvalgan ipning uchini topib berganday bo`ldi. Shu asosda boshimda voqeani asta-sekin kengaytira, rivojlantira boshladim. Besh-olti oylab xayol surishim natijasida romanim hozirgi shaklga keldi va qo`limga qalam oldim” [Абдулла Қодирий замондошлари хотирасида, 1986: 146].

Xulosa qilganda, matn ustida ishlashga oid kirish mashg`ulotlari dars jarayonidagi mustaqil ishlarning ilk bosqichi hisoblanadi. U o`z ichiga yozuvchilarning hayoti va ijodi, o`z davriga munosabati, ijtimoiy, axloqiy-estetik qarashlari, adabiy-tarixiy muhit, o`rganilayotgan asarning yaratilish davri, tarixi, adabiy qahramonlar taqdiri haqidagi ma`lumotlar bilan birga tushunilishi qiyin bo`lgan so`z va ibaralar, hikmatlar, tarixiy shaxslar, joy nomlari shahri kabi masalalarni qamrab oladi. Bunday mashg`ulotlarda beriladigan bilimlar badiiy asar matnidagi obrazlilikni his etish, anglash va chuqur tushunishga, g`oyaviy-badiiy xususiyatlari yuzasidan fikrlashga undaydi. Bu borada metodist olim A.Zunnunov ta`kidlaganidek, “mahorat bilan tashkil etilgan har bir kirish mashg`uloti navbatdagi mashg`ulotni muvaffaqiyatli o`tkazishga zamin yaratadi, o`quvchilarni asarni badiiy idrok etishga tayyorlash, ularni o`rganilayotgan masalaga nisbatan qiziqish tuyg`usini qo`zg`atish uchun ham muhim vosita bo`lib xizmat qiladi” [А.Зуннунов ва бошқалар. Адабиёт ўқитиш методикаси. 1992: 134]. Zero, adabiy ta`lim samaradorligiga erishish ko`p jihatdan o`quvchilarni badiiy asarlarning yaratilish tarixi, yozuvchining o`zi qalamga olgan voqelikka munosabati, individual uslubi, badiiy mahoratiga xos mushtarak xususiyatlar bilan yaqindan tanishtirishga bog`liq.

Chunki asar sujeti, kompozitsion tuzilishi chuqur tushunilgan, yetakchi qahramonlarning o`zlari tushgan vaziyatdagi ruhiyatida kechgan tebranishlar teran anglangan asargina kishini befarq qoldirmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida. Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1986. – 172 b.
2. Zunnunov A. va boshqalar. Adabiyot o`qitish metodikasi. – Toshkent: O`qituvchi, 1992. – 329 b.
3. O`zbek tilining izohli lug`ati. – Toshkent: O`zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. – 672 b. www.ziyouz.com kutubxonasi.
4. N.Boqiy. Qatlnoma. 2020.

TALABALARNING NUTQIY KO`NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH METODIKASI

*Axmedova Maloxat Ergashevna,
TTA O`zbek va xorijiy tillar
kafedrasi mudiri p.f.n. dotsent*

Annotatsiya: Mazkur maqolada O`zbek tili metodikasi fanidan nutqiy ko`nikmalarni o`stirishda test-sinovlari, topshiriqlar va ta'limiy o`yinlarning samarasi haqida fikr-mulohazalar bildirildi.

**Kalit so`zlar:** nutq, tafakkur, ravon, talaffuz, malaka, yozma nutq, og`zaki nutq, matn, topshiriq

O`zbek tili o`qitish metodikasi ta'limi talabalarning tafakkur qilish faoliyatini kengaytirishga, erkin fikrlay olishi, o`zgalar fikrini tinglashi, o`z fikrlarini og`zaki va yozma ravishda ravon bayon eta olishi, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo`la oladigan ko`nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o`rinda O`zbek tili ta'limiga o`quv fani emas, balki butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi

O'zbek tili metodikasi ta'lim jarayoni sifatida qaraladi. Nutq-kishi faoliyatining turi, til vositalari (so'z, so'z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o'zaro aloqa va xabar, o'z fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta'sir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. Talaba uchun esa nutq OTMda muvaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir. Nutq o'stirish o'zi nima? Agar talaba va uning tilidan bajargan ishlari ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda tilni har tomonlama faol amaliy o'zlashtirish tushuniladi. Agar o'qituvchi ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda, bu nutqiy kompetentsiya bo'lib, talabalarning tilning talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishi va bog'lanishli nutqni faol egallashlariga yordam beradigan metod va usullarni qo'llash tushuniladi. Nutq o'stirishda uch yo'nalish aniq ajratiladi: 1) **so'z ustida ishlash**; 2) **so'z birikmasi va gap ustida ishlash**; 3) **bog'lanishli nutq ustida ishlash**. Ko'rsatilgan uch yo'nalish parallel olib boriladi: lug'at ishi gap uchun material beradi; so'z, so'z birikmasi va gap ustida ishlash bog'lanishli nutqqa tayyorlaydi. O'z navbatida bog'lanishli nutq hikoya va insho lug'atini boyitish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Yozma nutqni rivojlantirish og'zaki nutqqa qaraganda ancha murakkab jarayon sanaladi. Chunki u talabalardan grammatik va mazmun jihatidan to'g'ri jumla qurishni, har bir so'zni o'z o'rnida to'g'ri qo'llashni, fikrni ixcham, izchil, ifodali, uslub jihatidan sodda va ravon ifodalashni, bayon qilingan fikrlar sosida xulosalar chiqarishni talab etadi. Bu nutqning murakkab tabiati yana shundaki, u imlo, tinish belgilari va uslub bilan bog'liq. So'zni to'g'ri yozish, tinish belgilarini o'rinli qo'llash, fikrni uslub talabiga muvofiq bayon qilish talabadan katta mas'uliyatni talab etadi. Shu sababli nutqning bu turi ancha sekin va murakkab kechadi. Yozma nutqning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri uni tekshirish, tuzatish, takomillashtirish mumkinligidir. Bu jihatdan u og'zaki nutqqa qaraganda ancha qulay imkoniyatlarga ega. Talaba yozma nutqdagi xato va kamchiliklar ustida ishlaydi, ularni bartaraf etadi, keyingi ishlarida bu xato va kamchiliklarga yo'l qo'ymaslikka intiladi. O'zbek tili o'qitish metodikasi dars mashg'ulotlarida o'qituvchi shuni ham unutmaslik lozimki, ko'pincha talabalar yozma ishlarda imlo va tinish belgilariga katta e'tibor berib, matnning mazmuni ustida yetarli ish olib

bormaydilar. Matnlarda ko‘pincha mavzuga aloqasi bo‘lmagan fikrlar ustunlik qilib, asosiy fikr e’tibordan chetda qoladi. Shuning uchun O‘zbek tili o‘qitish metodikasi dars mashg‘ulotlarida talabalar diqqati faqat imlo va tinish belgilariga emas, balki bayon qilinayotgan fikrning asosli dalillarga ega bo‘lishi, materialning to‘g‘ri joylashtirilishi, fikrning nutq sharoitiga mos holda to‘g‘ri bayon qilinishiga ham qaratilishi lozim. O‘zbek tili mashg‘ulotlarida shunday holatni vujudga keltirish lozimki, talaba yaratgan matnidan qoniqish hosil qilsin. Bu uni o‘z nutqini takomillashtirib borishga ilhomlantiradi. Talabalar mustaqil ravishda ijodiy fikrlashsalar fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki, yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalay olsalar, demak, O‘zbek tili mashg‘ulotlari samarali o‘tgan bo‘ladi.

O‘zbek tili mashg‘ulotlarida talabalar nutqining rivojlanishini qiyinlashtirayotgan omillardan yana biri talabalarning uyda, ko‘chada yoki guruhdan tashqari paytlarda tojik, turkman, qirg‘iz yoki boshqa (sheva) tilda so‘zlashib, OTMda o‘zbek tilida o‘qishidir. Etnografik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, jumhuriyatimiz hududida juda ko‘p tojiklar, turkmanlar, qirg‘izlar, qozoqlar yashaydi. Ularning ko‘pchiligi uyda tojik, qirg‘iz va hokazo tilda so‘zlashib, OTMda o‘zbek tilida o‘qishdi. Bu hol, shubhasiz, talabalarda tilning boy imkoniyatlaridan foydalangan holda o‘z fikrini erkin bayon qilish imkoniyatini chegaralaydi. Yuqorida sanab o‘tilgan salbiy omillardan tashqari O‘zbek tili o‘qitish metodikasidan guruhdan va OTMdan tashqari olib boriladigan ishlarning mundarija va mazmun jihatdan bo‘shligi, yagona nutq rejimiga hamisha ham rioya qilmaslik, dars mashg‘ulotlarida talaba nutqi ustida yetarli ishlamasligi kabi talabalarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishga salbiy ta’sir qiladi. Tilni amalda o‘zlashtirish O‘zbek tilining barcha tovush birliklarini (tovush – bo‘g‘in – ibora - matn) tinglab ajratib olish va ularni to‘g‘ri talaffuz qilishni nazarda tutadi, shuning uchun talabalarda boshlang‘ich bilimning yetarli bilimga ega bo‘lishi tovushni talaffuz qilishni rivojlantirish borasidagi filologik metodik ishlar muntazam ravishda olib borilishi lozim. Ohang, tembr, pauza, urg‘ulashning turli xillari tovush ifodaliligining muhim vositalari hisoblanadi. Talabaga intonatsiyadan to‘g‘ri

foydalanishni, bildirilayotgan fikrning nafaqat mazmuniy ahamiyatini, balki emotsional xususiyatlarini ham bergan holda, uning intonatsion tasvirini qurishni o'rgatish juda muhim. Shu bilan parallel ravishda, vaziyatdan kelib chiqqan holda, talaffuz tempi, past-balandligini to'g'ri qo'llash, tovushlar, so'zlar, iboralar, gaplarni aniq talaffuz qilish (diksiya) qobiliyatini shakllantirish ishlari ham olib borilishi lozim. Talabalarda nutqning intonatsion jihatiga diqqat-e'tibor qaratishni tarbiyalar ekan, tajribaga ega tilshunos pedagoglarning nutqni tinglash qobiliyatini, tembr (har bir tovushning o'ziga xos bo'lgan sifati) va vaznni his qilish, tovush kuchini sezishni rivojlantiradi, bu esa kelgusida musiqa tinglash qobiliyatini rivojlantirishga ham ta'sir ko'rsatadi.

Nutq intonatsiyasi, tovushning ifodaliligi ustidagi ishlar talabalarning bildirilayotgan fikrga nisbatan, matndan kelib chiqqan holda, ovozini balandlatib yoki pasaytirib, talaffuz qilinayotgan matnga mantiqiy va emotsional urg'u berish orqali o'z munosabatini bildirishni o'rganishlari uchun zarur. Suning uchun tilshunos pedagog tegishli topshiriqlardan ko'proq foydalanishi lozim. Aynan ushbu qobiliyatlar talabaga turlicha intonatsion ifodalashni talab qiluvchi turli xildagi ravon fikrlarni tuzish – hikoya qilish, tasvirlash, mulohaza yuritish uchun zarur bo'ladi. Tarbiyachi nutqning tovush jihatini rivojlantirar ekan, talabaga fikrlarning predmet, fikr bildirish mavzusi va tinglovchilardan kelib chiqqan holda kommunikatsiya maqsadlari va shartlariga mos kelishini hisobga olishni o'rgatishi lozim. Nutqning o'rinli bo'lishi, tezligi esa atrofdagi muhitga va fikrning maqsadiga mos kelishi lozim. Yaxshi, to'g'ri nutqning muhim ko'rsatkichi bo'lib uning ravonligi hisoblanadi. Artikulyasion va intonatsion qobiliyatlarning uzviy bog'liqligi keng ma'nodagi tinglash va artikulyasion-talaffuz ko'nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Ish jarayonida o'qituvchi talabalarga so'zning tovush tarkibini, so'zdagi urg'u o'rnini tinglab, aniqlay olishga, qofiya va vaznni his qilish tuyg'usini rivojlantirishga, aniq talaffuzni, so'zlar, iboralar, gaplarning turli intonatsion tavsiflarini bera olish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradigan mashqlardan foydalanishi zarur. Bu murakkab nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish fonetik mashqlarni takrorlashni, ularni muntazam ravishda o'tkazishni talab qiladi.

Lugʻatni rivojlantirishda soʻzning mazmuni ustidagi ishlar dastlabki oʻringa chiqadi, chunki aynan soʻzlarni matnga muvofiq holda semantik tanlab olish (koʻp maʼnoli soʻzlar mazmunini ochib berish, sinonimik va antonimik taqqoslashlar) til va nutq hodisalarini anglab yetishni shakllantiradi. Nutqning grammatik tuzumini oʻzlashtirish ustidagi ishlar jarayonida nutqning turli qismlarida soʻz hosil qilish usullarini oʻrganish, til umumlashmalarini shakllantirish, shuningdek sintaktik tuzilmalar qurish (oddiy va qoʻshma gaplar) vazifalari bosh vazifa sifatida namoyon boʻladi. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalashda intonatsion ifodalilik, temp, talaffuz va fikrni bayon qilishning ravonligi ustida ishlashga koʻproq ahamiyat berish darkor, zero, ravon nutqning shakllanishi ushbu koʻnikmalarga asoslanadi.

Tilshunos metodik pedagog talabalarga gaplarni parallel ravishda bogʻlashni oʻrgatishi zarur, bunda gaplar bir-biriga ulanmaydi, balki taqqoslanadi yoki hatto qarama-qarshi qoʻyiladi (Kuchli shamol esardi. Quyon iniga yashirinib oldi). Talabalarga ravon matnlar tuzishni oʻrgatishda ularda mavzuni va aytilgan soʻzning asosiy fikrini ochib berish, matnga sarlavha qoʻyish qobiliyatini rivojlantirishga alohida eʼtibor qaratish zarur. Ravon fikrni tashkil etishda intonatsiya katta rol oʻynaydi, shuning uchun ayrim gaplar intonatsiyasidan toʻgʻri foydalanish koʻnikmasini shakllantirish umuman matnning tarkibiy birligi va mazmunan tugallanganligini qayd etishga yordam beradi. Oʻqituvchi bilan talabaning birgalikdagi soʻz ijodkorligi monologik nutqni rivojlantirishning asosiy sharti hisoblanadi. Oʻqituvchi metodist yoʻnaltiruvchi va aniqlashtiruvchi savollarni berish, interfaol oʻyinlar orqali vaziyatlarini yaratish talaba tashabbusini qoʻllab-quvvatlashi darkor. Oʻqituvchining sekingina hikoya mazmunini, rejasini, voqealarning ehtimoliy rivojini, soʻz shaklini aytib qoʻyishi birgalikdagi soʻz ijodkorligida muhim ahamiyatga egadir. Axborotni uzatish yoki uni bayon qilish usullariga koʻra fikr bildirishning quyidagi turlarini ajratish mumkin: tasvirlash, bayon qilish mulohaza, fikrlarida kontaminatsiyalangan (aralash) koʻrinishda uchrashi mumkin, yaʼni ularda tasvirlash (mulohaza) usullari bayon qilishga qoʻshilib ketadi (va aksincha).

Bizga ma'lumki, talabalar bir xillikdan zerikadi. Shuning uchun ularni nutqini o'stirishda doimo har xil metod va o'yinlardan, qiziqarli usullardan foydalanish lozim. Quyida shulardan ba'zilarini misol tariqasida keltiramiz. **“Zanjir”** O'qituvchi yozuv taxtasiga bir nechta so'z yozib qo'yadi. Masalan: Nafisa, soat, yomg'ir, kitob kabi. Talaba mustaqil ravishda shu so'zlar shtirokida gap tuzadilar. **“Integratsion metod”** talabalarga rasmi kartochkalar tarqatiladi. Ular kartochkalar bilan tanishib chiqqach, talaba rasmdagi tanish qahramonlar obrazi haqida gapirib beradi. Masalan: “Bu Choliqushi asaridagi Feridiyni rasmi. Feridiy bog'da Komronni kutadi va Komron bilan bog'liq uchrashuvni tavsiflab beradi. Uni hamma juda yaxshi ko'rishadi”. Keyin ikkinchi talaba ham o'zidagi rasm haqida gapiradi va o'zidagi rasm bilan birinchi talabadagi rasmni o'zaro bog'liqligini aytishi kerak. Masalan: “Bu badiiy kitob. Yozuchi Rashod Nuri Guntekinniki. Turk yozuvchisi talabala-yaxshi tavsiflaydi va bog'liqlikni izohlaydi. Keyin uchinchi talaba o'zidagi A.Qodiriyning “O'tgan kunlar” badiiy asar haqida gapiradi va ikkinchi talabadagi asar bilan o'zidagi asar orasidagi bog'liqlikni topishi kerak. O'yin shu tartibda davom etadi.

“Umumiylikni izlash” Talabalar aylana qurib o'tiradilar. Olib boruvchi talabalaráan biriga to'pni otayotib, bir-biri bilan bog'lanmagan ikkita so'zni aytadi. Masalan: OTM va talaba, kitob va javon, quyosh va gul... To'pni tutib olgan talaba so'z juftligi orasidan umumiy belgini aytib to'pni qaytaradi. **“Safar”**. Talabalarga OTMdan yoki uylaridan ma'lum bir joygacha bo'lgan yo'lini tasvirlash topshirig'i beriladi. Talaba bir necha kun davomida "obyekt"ni mustaqil kuzatadilar va uni og'zaki tasvirlab beradilar. Sinchkovlik, ziyraklik, kuzatuvchanlik, atrof-muhitga diqqat-e'tibor talab etiladigan bu o'yin vositasida Vatanni sevish, tabiatga muhabbat, tevarak-atrofga e'tiborli bo'lish, Vatanni sevish hislarini tarbiyalash mumkin. Bundan tashqari, mazkur o'yinlardan foydalanganda talabalarning nutqi rivojlanadi, lug'at boyligi yanada ortadi, mustaqil fikrlash malakasi rivojlanadi.

Yuqorida keltirilgan ta'limiy o'yinlar talabalarning dars mashg'ulotlarida faolligini oshirish bilan birga bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yengillashtirish va mustahkamlash, nutq o'stirishga yo'naltirilgan har bir mashg'ulotni qiziqarii

tashkil etishga xizmat qiladi. Jamiyatimizni erkinlashtirish g‘oyasi bevosita ta’lim jarayonida o‘z ifodasini topib, uni yangidan tashkil qilish va mazmunini o‘zgartirish, yanada insonparvarlashtirish, ijtimoiylashtirish va demokratlashtirish asosida ta’minlanadi. **1. “SWOT-tahlil” metodi.**

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength)	• кучли томонлари
W – (weakness)	• заиф, кучсиз томонлари
O – (opportunity)	• имкониятлари
T – (threat)	• тўсиқлар

2.“Xulosalash” (Rezyume, Veer) metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli harakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda talabalarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan mahruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

1-Nazariy topshiriqlar

- 1.Nutq haqida tushuncha. Nutqning o‘qituvchi faoliyatidagi o‘rni.
- 2.Nutq texnikasi: nafas olish, tovush, diktsiya, ritmika.
- 3.O‘qituvchining nutq malakasini shakllantirish yo‘llari va usullari.
- 4.Mimika,pantomimika,verbal,noverbal ta’sirlar.
- 5.Pedagogik mahoratning sir-asrorlari.

2-Nazariy topshiriqlar

- 1.Pedagogik texnika haqida tushuncha.
- 2.Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlari.
- 3.Pedagogik texnikani egallash mahorati

1-Amaliy topshiriqlar

Keys-stadi” metodi tavsifi.

“**Keys-stadi**” - inglizcha so‘z bo‘lib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:Kim (Who),Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How),Nima-natija (What)

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot tahmini bilan tanishtirish	✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash

2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining echimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil echim yo‘llarini ishlab chiqish; ✓ har bir echimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil echimlarni tanlash
4-bosqich: Keys, echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat echimining amaliy aspektlarini yoritish

1.Keys. Mashg‘ulot jarayonida siz o‘tayotgan mavzuni juda yaxshi biladigan talaba bor, shu sabab, u mashg‘ulot davomida Sizga va Talabalarga xalaqit bera boshladi: savollari, fikrlarga qo‘shilishi bilan barchani diqqatini bo‘lib chalg‘ita boshladi

2.Keys. Pedagogik texnika – o‘qituvchining nafaqat ta’lim–tarbiya jarayonida, balki butun kasbiy faoliyatida zarur bo‘lgan umumiy pedagogik bilim va malakalari majmuidir. Pedagogik texnikaning muhim jihatlari – bu avvalo o‘qituvchining mahoratini belgilovchi kasbiy ko‘nikmalari hisoblanadi, ya’ni uning savodli va ifodali so‘zlay olishi, o‘z fikr-mulohazasini va bilimini tushunarli tilda ta’sirchan bayon qilishi, his-tuyg‘usini jilovlay olishi, o‘zining shaxsiy xususiyatlariga xos mimik va pantomimik qobiliyatlarga ega bo‘lishi, aniq imo-ishora, ma’noli qarash, rag‘batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum, so‘zning cheksiz qudrati orqali talabalar ongiga va tafakkuriga ta’sir o‘tkazishi, hozirjavoblik, psixologik bilimlarga ega bo‘lishi kabilardir. Ushbi vaziyatni **Keys-stadi” metodia asosida izohlang.**

3. “Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod qatnashchilarni mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo'yicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi: ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi; tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda); tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday mahno anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma mahlumot beradilar; belgilangan vaqt yakuniga etgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning to'g'ri va to'liq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi; har bir ishtirokchi berilgan to'g'ri javoblar bilan o'zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

“U kimning asari? Bu qanday syujetli asar?” interfaol metod. Stol ustiga bir qancha adiblarning asarlarini nomi terib qo'yiladi. O'qituvchi shu asarlardan birortasini ta'riflaydi, talabalar shu berilgan tavsif asosida gap nima haqida borayotganligini topadilar. Bu o'yinning afzallik tomoni shundaki, undan dars mashg'uloti davomida talabalar diqqatini jamlash, yod olish, xotira berish maqsadida yoki yangi tovushlar bilan tanishtirish, O'zbek tili darslarida yangi mavzuni bayon qilish jarayonida ham foydalanish mumkin. Bu o'yin talabalarda ziyraklik, sinchikovlik sifatlarini va mustaqil fikrlash malakalarini shakllantirishga imkon beradi. Bun-dan tashqari, bu o'yindan dam olish daqiqalarida ham unumli foydalanish mumkin. Masalan: U shar shaklida. Uni katta-katta sportchilarimiz ham stadionlarda o'ynaydilar. Talabalar ham uni sevib o'qiydilar.

“Sifatning turlanishi” interfaol metod.

O'qituvchi biror belgi asosida savol beradi. Talabalar shu belgini o'ziga jam qilgan predmetlar nomlarini yozadilar, eng ko'p to'g'ri javob topgan Talabalar g'olib sanaladi. Bu topshiriqni o'tkazish talabalarga so'z turkumlari haqidagi dastlabki ma'lumotlar berish jarayonini yengilashtiriradi. Bundan tashqari ulaming so'z boyligi ortib, ularda hozirjavoblik, ziyraklik, ijodkorlik kabi sifatlar rivojlanadi, nutqi rivojlanadi. Masalan: Savol: Nima oq rangda?, Javob: Qog'oz, daftar, surp,

bulut, parda, buvumning sochlari, qor. Savol: Nima yumshoq?, Javob: Non, xamir, yostiqlik, ko'rpa, paxta. Savol: Nigora nima qilayapti?, Javob: Kitob o'qiyapti, kir yuvayapti, qoshiq artayapti.

“Noto'g'ri jumla” bu topshiriqlik suratlar asosida o'tkaziladi. O'qituvchini suratni tasvirlab berishi asnosida suratlariga tegishli bo'lmagan jummalarni ham ishlatadi. Talabalar ziyraklik bilan shu jummalarni topishlari lozim. Talabalardan bu usul davomida ziyraklik, sinchkovlik, kuzatuvchanlik va diqqat talab qilinadi. Ular suratni sinchkovlik bilan kuzatib turib o'qituvchining hikoyasini ham diqqat bilan tinglab turadilar. Har bir noto'g'ri jumla topa bilish ularning og'ziga bo'lgan ishonchini va dars mashg'ulotiga qiziqishini orttiradi.

“G'oyalar metodi” metodi ham yozma nutq savodxonlik darajasini oshirish omillaridan biridir. O'qituvchi tomonidan tayyorlab qo'yilgan so'zlar shajarasidan Talabalar yangi so'zlar hosil qilishadi yoki bo'lmasa “Kapalak” usulida qo'shimchalar orqali yangi so'zlar hosil qilinib, o'sha so'zning xatosiz yozilishi ta'minlanadi. Masalan: kitob, kitobxon, kitobsevar, kitoblar, kitobda, kitobdan... talaba umumlashgan tushunchalar orqali o'z fikrini izchil va xatosiz yozib boradi, talaffuzi va imlosida farqlanishi bor so'zlar tushuntiriladi. Ta'limning shunday muhitini yaratish kerakki, unda talaba o'zini shaxs deb sezsini, unga bo'lgan e'tiborini tuysin. Agar o'qituvchi dars mashg'uloti davomida “Muvaffaqiyat muhitini” tashkil etib, talabada o'qishda muvaffaqiyat qozonishiga yordam bersa, uning o'z kuchi va iqtidoriga ishonchini orttirib borsa takomillashgan o'quv jarayoni ham o'z-ozidan yuzaga keladi. Oshkoralik, ishtirokchilarning o'zaro hamkorligi, ular keltirgan dalillarning tengligi, hamkorlikdagi bilimlar banki, o'zaro baholash va nazorat imkoniyati bilan belgilanadigan ta'limiy muloqot manbai yaratiladi.

Demakki, o'qituvchining o'zi ham doimiy ravishda o'z ustida ishlashi, pedagogik mahoratini uzluksiz oshirib borishi, jahon va milliy pedagogik meros hamda ilm-fan yutuqlaridan ijodiy foydalangan holda ta'lim jarayonini takomillashtirib borishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Л.Раупова. Ўзбек структурал тилшунослиги асослари. Ўқув қўлланма . Тошкент: “Инновация- зиё”. 2019-йил,
- 2.“O‘zbek tilining imlo lug‘ati”, Toshkent-1995-yil, “O‘qituvchi” nashriyoti.
- 3.N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, D.Nabiyeva. “O‘zbek tili”, 6-sinf darsligi. Toshkent-2013-yil. “Tasvir” nashriyoti.
- 4.Abdullayeva Q. Nutq o‘stirish. - T.:O‘qituvchi, 1980.66-bet
- 5.Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojiboyeva R.N. Mustaqil fikrlash. -T.:Sharq, 2000. 110-bet
- 6.Muhiddinov A.G‘. O‘quv jarayonida nutq faoliyati. - T.: O‘qituvchi, 1995. 78-bet
- 7.Азизходжаева Н.Н.Педагогик технология ва педагогик маҳорат Т.ТДПУ. 2008 йил. 220 б

ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМДА ДИДАКТИК ЎЙИНЛАРНИНГ ЎРНИ

*Абдуназар Раҳмонкулов, Филология фанлари номзоди,
Хўжанд давлат университети доценти
Эгамшуккур Эшмуродов,
Филология фанлари номзоди, Хўжанд давлат
университети доценти (Тожикистон)*

Аннотация: Ушбу мақолада замонавий коммуникатив ўқитиш ва интерфаол усуллар ҳақида фикр юритилади. Ўқувчиларнинг матн билан ишлаш кўникмалари ва малакаларини шакллантириш бўйича ва фанлар аро алоқадан фойдаланиш бўйича тавсиялар берилади. Шу орқали мустақил фикрлаш, таҳлил ва тадбиқ укувини ўстиришга йўналтириш берилади.

Аннотация: В данной статье рассматриваются современные коммуникативные методы обучения и интерактивные методы с применением интеграции наук. Даны рекомендации по развитию у учащихся умений и навыков работы с текстом. Основное внимание уделяется развитию независимого мышления, анализа и навыков применения.

Оламнинг лисоний манзарасини ҳосил қилиш билан болалар ҳам ёшлигиданок ўйин фаолиятларидан бошлаб шуғулланиб борадилар. Ўйин орқали атроф-муҳит табиат манзаралари, ҳодисалари, нарса-буюмлар, ҳайвонот, техникалар, уй-жой иншоотлар, хуллас, моддий бутун борлиқ билан танишиб борадилар ва кўпроқ аниқ конкрет нарсалар тасаввуроти билан кўпроқ кизиқадиладар. Болаларнинг олмани билиш ҳақидаги ана шу эҳтиёжларини кондиринишда ўйиннинг аҳамияти катта, албатта. Таълим жараёнида ҳам дидактик ўйинлардан тўғри фойдаланиш ўқувчилар зеҳнини ўстириш учун, тез қарорга кела билиш, ҳозиржавоблик кўникмаларини малакага айлантиришга хизмат қилади. Бу жараёнга барча йўналишдаги фанлар ўқитилиши қайсидир даражада ўз ҳиссасини қўшиши шубҳасиз. Алҳол математика фанларини ўқитишда ҳам дидактик ўйинлардан фойдаланиш ўқувчилар зеҳнини топқирлигини ҳозиржавоблигини, тез ҳисоблаш кўникмаларини ошириб боради. Ўқувчилар ўйин давомида ўйин қоидаларига қатъий риоя қилишга қилишига ўрганадилар, ўз фикрига қарши фикрда бўлган ўқувчилар билан ҳам дўстона, самимона, иноқлик ва ҳурмат билан муносабатда бўла олишга ўрганадилар. Ўйин топшириқлари ва кўргазмалар ўқувчиларни трули фаолиятга йўллаб, зериктириш ва толиқишдан сақлайди. Она тили дарсларига кўпроқ интеллектуал (ақлий) мусобақаларга боғлиқ тинч ўйинлар мос келади. Адабиёт ўқитишда эса саҳнали, ҳаракатли ва аралаш турдаги ўйинлардан фойдаланиш тавсия этилади. Дидактик ўйинлар олдида қўйиладиган 4 омилга изчиллик билан ёндошиш керак бўлади. 1.Аввало, барча фаолият ўйиндан кузатилган аниқ мақсад билан боғлиқ ҳолда ташкил этилиши. 2.Ўйин давомида талаб қилинадиган ҳаракат ва амаллар.3.Ўйиннинг қоидаси. 4.Ўйиннинг якуни, натижалари. Ўқитувчи ўйин бошланишидан олдин бу босқичлар билан ўқувчиларни таништирган бўлади.

Таълим дастурларида барча фанлар тушунчаларини ҳаётий материаллар асосида ўзлаштирилишини кўзда тутди. Бу аввало ўқувчилар дарсларда ўзлаштиришлари лозим бўлган тушунча ва қоидалар амалиётга хизмат қилишини ва уларнинг барчаси ҳам ҳаётий эҳтиёжлар натижасида вужудга

келганлигини ўқувчиларга етказиб бериш имконини яратади. Яна фан ва амалиёт орасидаги алоқаларни тўғри тушунишга асос яратади. Тил ўқитишдан мақсад ўқувчилар сўз бойлиги ва нутқ бойлигини оширишдир. Дарҳақиқат нутқи бой кишиларнинг дўстлари кўп бўлади дейди амирул Кайковус. Юсуф хос Ҳожибнинг қуйидаги фикри ҳам бунга ҳамоҳангдир. “Билимли билимин этмаса баён, ёришмас илими ўтса ҳам замон”. Яна “Билик бор жойда буюклик бўлар, уқув бор жойда улуғлик бўлар”, - деб ҳам таъкидлашган. Математика, мантиқ ва бошқа фанлар ҳам тил билимлари асосида иш кўриб, ўқувчиларда тафаккур, диққат, хотира, кузатувчанлик, ижодий тасаввур этиш қобилиятларини ривожлантириш вазифасини ўтайди. Фанлар маликаси деб номланувчи математика ҳам ўқувчиларнинг мантиқий фикрлаш малакаларини ошириб, уларнинг ўз фикрларини аниқ, тўғри, лўнда ва тушунарли баён этишга ўрганиши учун замин ҳозирлайди. Ўқитувчиларнинг вазифаси она тилини ўқитишда ушбу фаннинг математика, география, тарих, физика ва география каби бошқа фанлар билан ҳам алоқадорликда йўлга қўйишдир. Қуйида она тили дасрларида фойдаланиш учун дидактик ўйинлар бўйича баъзи тавсияларимиз билан ўртоқлашамиз. Бунда жадвал ва схемалардан ҳам фойдаланилади.

Биринчи гуруҳ учун топшириқ :

1. Қўшимчалардан нуқталар ўрнига мосини топиб қўйинг.

Сўзлар :

Сўз..., қир..., қор..., қоқ..., қис..., буз..., бос..., чўз..., чиз..., ўчир..., кўтар..., кўрсат..., юмшат..., сўр..., суян..., тўс..., соч...

Қўшимчалар :

	1. - гич	2. - кич	3. - қич	4. – ғич
Сўзлар (ўзак)	Суз + ... (1)	Қир + ... (4)	Бос + ... (3)	Кўрсат + ... (2)
Қўшимчалар	ўзак -гич	ўзак - ғич	ўзак - қич	ўзак - кич
Сўз шакллари	сузгич	қирғич	босқич	Кўрсаткич
ўхшаш мисолларни давом эттиринг	Туз + Буз + Чўз + гич ўчир + кўтар +	сўр + суян + ёр + ғич қор +	Тўс + Қис + қич Қоқ +	Юмшат + кич Соч +

Хулоса чиқаринг	-гич -з ва -р билан тугаган ўзакка қўшилади	-гич шакли -н ва -р	-қич шакли -с ва -қ	-кич шакли -т ва -ч
-----------------	---	---------------------------	---------------------------	---------------------------

Эслатма : кулгич сўзида -гич қисми ҳозирда қўшимча деб ажратилмайди.

Иккинчи гуруҳга учун топшириқ :

Берилган буйруқ феъл (ўзак) ларга қўшимчалардан мосини қўйинг.

Сўзлар :

Ёз..., суз..., буз..., чўз..., уз..., от..., қот..., тик..., чўк...,бук..., сўк...,тег..., сиқ..., боқ..., қоқ..., кўрқ...
--

Қўшимчалар :

	1. – гач	2. - кач	3.–кач
Сўзлар (ўзак)	ёз + (1)	эк + ... (2)	чик + ... (3)
Қўшимчалар	ўзак - гач	ўзак - кач	ўзак - кач
Сўз (грамматик) шакллари	ёзгач	эккач	Чиккач
Мисолларни давом этинг	сўз чўз ўз - гач бўз от қот	Тик чўк тўк - кач бўк сўк тег(к)	сиқ боқ қоқ - кач кўрқ соғ(қ)

Эслатма : Ўркач (туянинг тана аъзоси) сўзида -кач қўшимча сифатида ҳозирги кунда ажратилмайди.

Учинчи гуруҳга топшириқ :

Берилган буйруқ феълларига берилган қўшимчалардан мосини қўйинг.

Сўзлар :

Кут..., ёт..., бот..., бит..., сот..., қот..., бўл..., қол...,сол..., тол..., юр..., тош... шош..., чўк..., тик..., қоқ..., кўрқ..., сиқ..., соғ...
--

Қўшимчалар :

	1–ганча	2-гунча	3-канча	4.-кунча	5. –қанча
Сўзлар (ўзак)	бит + ... (1)	тўл + ... (2)	туш + ... (3)	тўк + ... (4)	боқ + ... (5)
Қўшимчалар	ўзак -гунча	ўзак -ганча	ўзак - канча	ўзак - кунча	ўзак -қанча
Сўз шакллари	битгунча	тўлгунча	тушканча	тўккунча	Боққанча
Мисолларни давом этинг	кут ёт сот -гунча қот бот	бўл қол тол -ганча сол юр	шош чўк тик -канча бит		кўрқ қоқ сиқ - қанча соғ(қ)

Эслатма : тугунча (кичик тугун) сўзида -гунча қўшимча шаклида ажратилмайди. Чунки, ту ... қисми ўзак мақомида қўлланмайди.

Қўшимча топшириқлар : соннинг маъно турларини имлога мувофиқ ёзинг :

Гуруҳларга ранг-баранг рақамлар келтирилади . Масалан :

Рақамда	имлода	касрда ёзилиши
10, 8	ўн бутуну ўндан саккиз	$10\frac{8}{10}$
11, 3	ўн бир бутуну ўндан уч	$11\frac{3}{10}$

11, 03	ўн бир бутуну юздан уч	$11\frac{3}{100}$
20, 5		$20\frac{5}{10}$
21, 06	...	$21\frac{6}{100}$
30, 004	...ўттиз бутуну мингдан тўрт	$30\frac{4}{1000}$
10, 2		
11, 25		
15, 025		

Сонли топишмоқ ва мақолларни давом эттиринг .

Сонли топишмоқлар

Сонли мақоллар

1. Ўзи битта қулоғи ...	1. Бир кун туз тотган ерга кун салом
2. Пак-пакана бўйи бор ...	2. Олтовлон ола бўлса оғзидагин олдиар, тугал бўлса унмаганин ундиар.
3. Ўзи битта , кўзи	3. Санамай дема

Бундай машқлар ўқувчиларнинг сўз таркиби ҳақидаги маълумотларини оширади. Нутқий жараёнда сўзларга қўшимчалар қўшилишида (грамматик жиҳатдан шаклланишида) юз берувчи фонетик жараёнлар таъсиридаги талаффуз ва ёзувда юз берувчи ўзгаришларни онгли ўзлаштиришлари, уларнинг оғзаки ва ёзма саводхонлигини мукаммаллаштиришга хизмат қилади. Тез ҳисоблаш ва ҳозиржавоблик кўникмаларининг малакага айланишига ҳисса қўшади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ғуломов А. Она тили ўқитиш принциплари ва методлари. Тошкент: “Ўқитувчи”, 1992.
2. Ғуломов А.К. Она тили дарсларида активлик принципини амалга оширишнинг назарий асослари. Тошкент, “Фан” нашриёти, 1989.
3. “Она тили таълими янги асрда”. Тошкент, 2006-йил.
4. Муносибати салоҳиятнокӣ ба таълим // Модули таълимӣ. Душанбе, 2017.
5. Дастури тавсиявӣ (замима ба маҷмуаи маводи методӣ оид ба тақвияти салоҳияти хониши хонандағони синфҳои ибтидоӣ). Душанбе, 2019.

КИМЁ-ТЕХНОЛОГИЯ СОҲАСИ ТАЛАБАЛАРИГА ЎЗБЕК ТИЛИНИ ЎҚИТИШДА ИНТЕРФАОЛ МЕТОДЛАР

*Тўлибоев Хурсандбек Базарбаевич,
ТКТИ Ўзбек тили ва профессионал таълим
кафедраси мудири, филология фанлари бўйича
фалсафа доктори*

Шиддат билан ривожланиб бораётган глобал дунёда давлат тилини ўқитишнинг ҳам янги-янги тамойиллари кун заруратига айланмоқда. Тилнинг ижтимоий вазифадорлиги, таълим муассасаларидаги мавжуд муаммолар, уларнинг ўз вақтида ечимини топишга кўмаклашиш соҳа мутахассисларини ҳам замон билан бақамти юришга, ишлашга ундамоқда. Жумладан, кимё-технология соҳасида “Ўзбек тилининг соҳада қўлланилиши” фанининг ўқитилиши ҳам шу каби муаммоларнинг ўз вақтида ечимини топишга, талабаларнинг қисқа вақт ичида оғзаки ва ёзма нутқини шакллантиришга қаратилганлиги фикримиз ёрқин далилидир.

Фаннинг номидан ҳам маълумки, бу асосан, кимё-технология соҳасида бакалавр таълим йўналишларининг 2 курс баҳорги семестрига мўлжалланган бўлиб, аудиторияда 46 соатни ўқитишни тақозо қилмоқда. Фанга ажратилган кредитлар сони 3 бўлиб, икки оралиқ ва 90 соат мустақил таълимни ўз ичига қамрайди.

Шуни қайд этиш жоизки, технолог талабалар бир вақтнинг ўзида учта йўналишдан бохабар бўлишади. Масалан, ўзбек тили (давлат тили)нинг жорий ҳолати, талаба нутқи маданияти, давлат тилида иш юритиш (хужжатчилик)нинг долзарблигини ўзлаштиришга эришади. Айниқса, ёзма ва оғзаки нутқ меъёрларининг бузилиши, тўғри ёзиш ва тўғри талаффуз қилиш масалаларини ҳам теран идрок билан ўрганади.

Ҳар бир мавзу юзасидан соҳага оид атама ва мустақил иш юртиши кўникмаларини ўзларида шакллантиришга ҳаракат қилади. Бу борада вақт ва натижа орасидаги масофани уйғунлиштириш мақсадида – интерактив методлар ўз самарадорлигини намоён қилишга йўналтириш лозим бўлади.

Интерфаол методларнинг турлари ниҳоятда кўп ва хилма-хилдир. Интерфаол методлар деганда таълим оловчини жиддий фаоллашувига мустақил фикрлаш кўникмаларини шакллантиришга, таълим оловчининг тез ва осон муаммони ўзлаштиришга йўналтирилиши муҳимлиги билан жаралиб туради. Таълим оловчига фойдали жиҳатлари ўқиш ва ўқитиш шиддатини қисқа вақт оралиғида ташкиллаштириш ҳам тушунилади. Ташкиллаштирувчи механизм тўғри йўлга қўйилмаса, кутилган натижага эришиш мушкул.

Масалан, *“Озиқ-овқат технологияси”* таълим йўналиши талабаларига *“Ўзбек тилининг соҳада қўлланиши”* фанини ўқитишнинг интерфаол методларидан қайси бирини қўллаш мумкин? Қайси метод талабаларга ўз соҳасининг мавжуд муаммоларини англашда ва ҳал қилишда муҳим роль ўйнайди? Бу каби саволлар негизида талабани бир мавзу доирасида синовдан ўтказса масала моҳияти янада ойдинлашади.

Соҳа мутаххасислари *“Ақлий ҳужум”* методини қўллашни тавсия қилиши ҳам бежиз эмас! Бинобарин, *“Ақлий ҳужум”* методи бугун учун янгилик эмас, аммо ушбу метод талабанинг зеҳниятида юзага келадиган билим ва кўникмаларни тартиблаштиради. Ўз соҳасининг мавжуд муаммоларини қисқа ва тез фурсатда намоиш қилиш имконини беради. Бу ҳақда соҳа мутаххасислари шундай ёзади: *“Ақлий ҳужум” методи – бирор муаммо бўйича таълим оловчилар томонидан билдирилган эркин фикр ва мулоҳазаларни тўплаб, улар орқали маълум бир ечимга келинадиган методдир. “Ақлий ҳужум” методининг ёзма ва оғзаки шакллари мавжуд. Оғзаки шаклида таълим берувчи томонидан берилган саволга таълим оловчиларнинг ҳар бири ўз фикрини оғзаки билдиради. Таълим оловчилар ўз жавобларини аниқ ва қисқа тарзда баён этадилар. Ёзма шаклида эса берилган саволга таълим оловчилар ўз жавобларини қоғоз карточкаларга қисқа ва барчага кўринарли тарзда ёзадилар. Жавоблар доскага (магнитлар ёрдамида) ёки «пинборд» доскасига (игналар ёрдамида) маҳкамланади. “Ақлий ҳужум” методининг ёзма шаклида жавобларни маълум белгилар бўйича гуруҳлаб чиқиш имконияти мавжуддир”*. Ҳақиқатдан ҳам, кимё-технология соҳасида бакалавр таълимини

олувчи, айниқса, “Озиқ-овқат технологияси” таълим йўналиши тингловчиларининг олдида жуда кўплаб муаммолар турибди. Ўзбекистонда ишлаб чиқарилаётган масулотларнинг қарийб 70 % хорижий давлатлардан кириб келган маҳсулотлар билан сертификатланган. Нега биз ўзбек тили (давлат тили)даги муқобил вариантыни топмаймиз? Бозор расталарида тўлиб турган истеъмол товарларининг қарийб 70% номланишидан, ички тузилиш структурасигача хорижий компанияларнинг номлари билан аталади. Бироқ маҳсулот Ўзбекистонда ишлаб чиқарилмоқда. Сабаб нима? Бундай саволни бериш натижасида талабалар ўз биланларини, амалиётда олган билим ва кўникмаларини дафтарларига мустақил равишда ёза бошлайдилар. Натижада уларнинг ҳам нутқ, ҳам фикрлаш, ҳам мушоҳада юритиш малакаси ривожланади. Ўзининг соҳасида мавжуд муаммоларнинг 20 % ичига киришга эҳтиёж туғилади. “Ақлий ҳужум” методида натижалар баҳоланмайди, билдирилган мулоҳазалар эркин ва субъектив тарзда амалга оширилади. Фикр ва ғоялар маълум гуруҳлар бўйича тартибли гуруҳланади. Юқорида берилган саволга аниқ ва тўғри жавоб қабул қилинади. Таълим олувчиларда мавзуга қизиқиш уйғотади.

Ўз тажрибамдан келиб чиқиб, ижтимоий сўровнома ўтказиб кўрдим. Талабаларга икки хил ёндашувда фанга қизиқиш манерасини аниқлаштирдим:

- 1.“Ўзбек тилининг соҳада қўлланилиши” фани сизларга керакми?
- 2.Бу фандан ўз соҳа тажрибангизда нималарни олишингиз мумкин?

Талабаларнинг хилма-хил жавобларини эркин ва оғзаки шаклда тинглашни айтганимдан кейин,жавобларнинг қарийб 60% фаннинг кераклигини, 40% мактабда ўрганганлигини билдиришди. Талабаларнинг 40% фанни мактабда ўзлаштиргани умуман бошқа нарса, бу ерда соҳага оид муаммоларни тил нуқтаи назаридан ҳал қилиш лозимлигини тушунтириб бердим.Кейин уларга икки хил ёндашувда эркин мулоҳаза баён қилиш вазифасин юклаим. Ўз дафтарларига химияга оид 20 та атамани ўзбек тилида изоҳлаб беришини топширдим. Талабалр 15 дақиқа ўйланиб, ҳеч нарсани ёза олишмади.Бироздан кейин талабалар бир овоздан “Ўзбек тилининг соҳада

қўлланилиши” фани кераклигини тан олишди. Буни келтиришдан мақсад интерфаол методларни қўллашда эркин дискуссия мулоқоти ҳам яхши натижа беришини синовдан ўтказдим. Демак, талаба умумий билимлар билан чекланиб, ёзув ва сўзлаш малакасини ҳам тўлиқ ўзлаштирган эмас! Айнан шу жихатдан олиб қаралганда талабалар ўз устида эркин мутолаа ва мушоҳада малакасини доимий равишда олиб боришлари муҳимлигини амалда исботлаб бердим. Ҳа, талаба – умумий билимлар билан чекланмасдан, ўз соҳасига доир мавжуд муаммолар: ишлаб чиқарилаётган маҳсулот ва унинг нима мақсадда қўлланилишигача она тилида эркин ифодалай олиши лозимлигини тақозо этмоқда. “*Ақлий ҳужум*” методида таълим берувчи саволни тўғри қўя билиши лозим бўлади. Таълим берувчи юқори даражада талабаларни эшитиш қобилиятига эга бўлиши ҳам талаба қилинадиким, бусиз кўзланган натижага эришиш қийин.

Умуман, саноат соҳаси мамлакатимизда “Янги Ўзбекистон”ни жаҳон ҳамжамиятида ўз имижини намоён қилишда катта аҳамият касб этмоқда. Мамлакатимиз тез суратларда ўз олдида қўйган мақсад ва марраларига эришиш йўлида катта имкониятларни ишга солмоқда. Технолог талабаларнинг яқин ўн йиликларда ўз соҳасининг етук мутахассиси бўлиб камол топишида мавжуд муаммоларнинг вақтида бартараф қилиниши қулай натижа бериши муҳим. Шунинг қайд этиш лозимки, саноат тармоқларида ўзбек тилининг ўрни ва аҳамиятини, мавқеини янада кўтариш, миллий ишлаб чиқариш методологиясини яратишда ҳам аниқ мақсадли ишларни амалга ошириш муҳим вазифалардан бири бўлиб қолаверади. Зотан, тил тараққиёти давлат ва жамият тараққиёти билан узвий ва яхлит равишда кечадиган ажралмас жараёнларнинг бири десак, асло муболаға қилмаган бўламиз.

O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISHDA INTERFAOL TA'LIM METODLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI

Yusupova Munira,

Chirchiq davlat pedagogika instituti talabasi.

Ilmiy rahbar: Quchqorov Hoshimjon.

Annotatsiya: Maqolada ta'limning innovatsion shakllari, oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etishning samarali shakllari, vebinar texnologiyalar va ularni ta'lim jarayonida qo'llash, shuningdek o'quv loyihalarini ishlab chiqish xususida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Interfaol, interfaol ta'lim, metod, o'qitish metodlari, interfaol ta'lim metodlari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta'limning innovatsion shakllari, muammoli ma'ruzalar, seminar-trening, debatlar, vebinar, masofali o'qitish, mahorat darslari.

Аннотация: В статье рассматриваются инновационные формы обучения, эффективные формы организации учебного процесса в высшей школе, вебинарные технологии и их применение в образовательном процессе, а также разработка образовательных проектов.

Ключевые слова: интерактив, интерактивное обучение, метод, методы обучения, интерактивные методы обучения, современные педагогические технологии, инновационные формы обучения, проблемные лекции, семинары, дебаты, вебинары, дистанционное обучение, мастер-классы.

Zamonaviy sharoitda tinglovchilarning o'quv-bilish faolliklarini kuchaytirish, o'qitish sifatini oshirish va samaradorligini yaxshilash maqsadida innovatsion xarakterga ega ta'lim shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda amaliy o'yinlar, muammoli o'qitish, interfaol ta'lim, modul-kredit tizimi, masofali o'qitish, blended learning (aralash o'qitish) va mahorat darslari ta'limning innovatsion shakllari sifatida e'tirof etilmoqda. Ayni o'rinda ta'limning innovatsion xarakterga ega ushbu shakllari to'g'risida so'z yuritiladi.

Trening – (ingliz tilidan training-train –o‘qitmoq, tarbiyalamoq) interfaol mashg‘ulotlarni amalga oshirishning asosiy shakli bo‘lib, u o‘rganilishi lozim bo‘lgan nazariy g‘oya va fikrlarni amaliy ish, mashqlar davomida o‘zlashtirish, muloqot almashish imkonini beruvchi tashkiliy tadbir hisoblanadi. Trening bu nafaqat ta‘lim oluvchilarda shaxslararo o‘zaro hamkorlikning samarali ko‘nikmasini shakllantirishga balki, mutaxassis kasbiy kompetentligining umumiy darajasini oshirishga yo‘naltiriladi. Trening mobaynida o‘qituvchilar nazariy ma‘lumotlarni o‘zlashtirish bilan birga, ularda bilish, emotsional va xulq-atvor ko‘nikmalari rivojlanib boradi.

Trening – tahsil oluvchi faoliyatiga mo‘ljallangan ta‘lim shakli bo‘lib, nazariy ma‘lumotlarni amaliy mashqlar orqali o‘zlashtirilishini ta‘minlaydi. U ta‘lim beruvchi tomonidan o‘qitishni emas, balki tahsil oluvchi tomonidan mustaqil va faol o‘rganishni ko‘zda tutadi.

Treninglar o‘rganilishi lozim bo‘lgan nazariy g‘oya va fikrlarni amaliy ish hamda mashqlar davomida o‘zlashtirish imkoniyatini beradi va qatnashchilardagi o‘zaro hamkorlikni, samarali muloqot ko‘nikmasini shakllantirishga yo‘naltiriladi. Har qanday trening quyidagi bosqichlardan tashkil topadi:

Izyuminka (joziba – qatnashchilar bilan ishlashning o‘ziga hos ajoyib tomoni) qatnashchilarning treningga qiziqishini uyg‘otish uchun qisqa bahs boshlash, savollar berish, qatnashchilar fikrini chalg‘ituvchi (provakatsion) ta‘kidlarni ilgari surish yoki qandaydir faoliyat turini faraz qilish. O‘quv mashg‘uloti qatnashchilarining dastlabki bilimlari va ularning hayotiy tajribalarini bog‘lashga harakat qilish. Trening ahamiyati nimadan iborat ekanligi sabablarini tushuntirish. Odatda trening qatnashchilari birinchi mashg‘ulotda o‘zini noqulay sezishi, Sizga nisbatan ishonchsizlik holatlari kuzatiladi. Unutmang, Sizning har bir harakatingiz va e‘tiboringiz qatnashchilar ishonchini qozonishigizga asos bo‘ladi.

Qatnashchilar uchun natijalarni ta‘kidlash. Qatnashchilarga treningdan qanday maqsad kutilayotganini auditoriyaga tushuntiring. Qatnashchilar trening natijasida: «Bu treningdan keyin nimalarni bilishim va nimalarni qilishim lozim?» degan savolga javob berishlari kerak.

Trenerning hissasi. Trening uchun zarur dastlabki ma'lumotlar, zarur bilimlar (matn, ma'ruza, hujjatlar, o'qish) va biror faoliyat turini o'tkazish uchun fan mazmunini namoyish qilish.

Interfaol strategiya – treningning yuragidir. Interfaol uslubiyotda foydalanadigan ish tartibini qisqacha bayon qilish. Interfaol uslub-bu jamoaviy muhokamani tashkil etish, fikrlarni erkin aytish, muhokama, tahlil va faoliyatni baholashdir. Umuman treningdagi faoliyatning ushbu turida qatnashishning barcha qadamlarini chizib chiqish. Guruxda ishlash uchun aniq va qisqa tushuntirishlar olib borish. Qatnashchilar tushunganlik darajasini muntazam nazorat qilib borish. Treningni yakunlashga vaqt yetishi uchun, uning har bir qismini diqqat bilan tashkil qilish. Bu yerda treningni o'tkazish uchun mo'ljallangan savollar muhim ahamiyatga egaligini e'tibordan chetda qoldirmaslik. Trener mashqlarni qatnashchilar tomonidan bajarish jarayonida topshiriqlarni to'g'ri bajarishini kuzatib borishi lozim.

Debrifing (xulosa) baholash. Qatnashchilar o'zlari yod olgan va o'zlashtirgan bilim(yo'nalish)lari bo'yicha xulosa qiladilar, o'zlashtirgan ma'lumotlar va malakalarni boshqa holatlarda, talabalar bilan ishlashda qo'llashni muhokama qiladilar. Trening davomida qatnashchilar o'rgangan yoki ko'rsatgan bilimlari natijalar bilan mos kelishini tekshiriladi. Treninglar an'anaviy o'quv mashg'ulotlaridan quyidagi jihatlari bilan farqlanadi:

-bunda ta'lim oluvchilar yoki ishtirokchilar guruhi yoshi va bilim jihatdan bir xil bo'lmaydi;

-trening jarayonining asosiy maqsadi ishtirokchilarni o'zaro muloqotga chorlash va faollashtirishdan iborat etib belgilanadi; •o'qitish va tarbiyalashning shakl, metod va vositalari trening maqsadidan kelib chiqib tanlanadi va individuallashtiriladi.

Yaxshi trening har doim trener va qatnashchilarning o'zaro hamkorlikdagi harakatlariga asoslanadi.

Amaliy o'yinlar. Zamonaviy sharoitda ta'lim amaliyotida amaliy-innovatsion xarakterga ega o'yinlardan samarali foydalanilmoqda. Ta'lim amaliyotida

qo'llaniladigan amaliy o'yinlar o'z-o'zidan didaktik xususiyat kasb etadi, shu sababli ular ko'p holatlarda "didaktik o'yinlar" deb yuritiladi. Kishilik tarixiy taraqqiyotining barcha davrlarida ham o'yin sub'ekt faoliyatining eng birinchi va muhim turi sifatida tan olingan. Binobarin, shaxs faoliyatining muhim turlari – mehnat, o'qish bilan birga o'yin ham uning shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. O'yin shaxsning tarbiyalash, rivojlantirish, unga ta'lim berish xususiyatlariga ega. Mavjud xususiyatlari tufayli o'yinlar qadim-qadimdan xalq pedagogikasining muhim asoslaridan biri bo'lib kelmoqda. Bevosita o'yinlar bolalarda idrok, sezgi, xotira, tafakkur, nutqni rivojlantirishga yordam berish orqali ularni ma'naviy-axloqiy, aqliy, jismoniy va estetik jihatdan tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avliyakov N.X., Musaeva N.N. Modulli o'qitish texnologiyalari. – Toshkent, 2007. – 97 b.
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar / Amaliy tavsiyalar. – Toshkent, 2008. – 180 b.
3. Olimov Q.T., Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2011. – 275 b.
4. Quchqorov H.H., Ta'lim-tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarning o'rni. SCIENCE AND EDUCATION. Scientific journal. Volume 1, Special issue 3. – Qo'qon. November 2020. p. 158-164.

МОРФОЛОГИК САТХНИ ЎРГАНИШДА ПЕДАГОГИК ВА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

Тўйчиева Зулайхо Ҳамроқуловна,

Гулистон давлат университети ўқитувчиси.

Аннотация : Мазкур мақола олий таълим тизимида тил ўқитишга янгича ёндашиш масалаларига бағишланган. Муаллиф морфологик сатҳни ўрганишда интерфаол усуллардан фойдаланишни мавзулар кесимида

тушунтириб беради. Мавзуларга бундай ёндашиш кафолатли натижаларга олиб келишини ўз тажрибалари мисолида асослайди.

Калит сўзлар: педагогик технологиялар, инновацион технологиялар, ўқитиш методлари, интерфаол усуллар.

Бугунги кунда янги педагогик технологиялар тушунчаси тобора турмушимизга сингиб бормокда. Ҳозирга пайтда таълим бериш жараёнида янги инновацион технологиялар яхши самара бермокда. Айниқса, нутқ фаолият турларини шакллантиришда унинг аҳамияти каттадир. У талабаларни мустақил фикрлаш, мушоҳада этиш, ижодий фикрлай олиш, шунингдек дунёқарашини кенгайтиришга ўргатишда доимий самара беради.

Таълимнинг бугунги **вазифаси** ўқувчиларни кун сайин ошиб ораётган ахборот – таълим муҳити шароитида **мустақил равишда фаолият кўрсата олишга, ахборот оқимидан оқилонга фойдаланишга ўргатишдан** иборатдир. Бунинг учун уларга узлуксиз равишда мус тақил ишлаш имконияти ва шароитини яратиб бериш зарур[1].

Узлуксиз таълим тизимининг бош бўғини сифатида олий таълим тизимида ўқув фаолиятини модернизация қилиш масаласи бугунги кунда ўз ечимини кутаётган асосий масалалардан бири бўлиб қолмокда. Бу ҳақда профессор Ж.Йўлдошев шундай дейди: “Умуман, ҳар қандай педагогик жараён ҳам педагогик тизим асосида кечади. Таълимдаги сифат ва самарадорликни ошириш фақат таълим тизимини модернизация қилиш, такомиллаштириш, узвийлик, узлуксизликни таъминлаш, ўқитувчи-педагогларни инновацион фаолиятда ишлашда ўқувчиларнинг фаоллигини ва масъулиятини ошириш билан боғланиб қолаверади”[2]. Демак, инновацион фаолият юритиш – давр талаби ва у ҳар бир педагогдан ўз фаолиятини инноватика фани ютуқлари асосида қайта кўриб чиқишини зарурат қилиб қўяди.

Ўқитиш методларининг бир қатор афзалликлари бор: ўқитиш мазмунини яхши ўзлаштиришга олиб келиш, ўз вақтида алоқаларни таъминлаш, тушунчаларни амалиётда қўллаш учун шароитлар яратилиши, ўқитиш усулларининг турли хил кўринишларини тақлиф этиш, ўтилган

материални яхши эслаб қолиш, мулоқотга киришиш кўникмасини такомиллашиши, ўз-ўзини баҳолашнинг ўсиши, талабанинг предмет мазмунига ва ўқитиш жараёнига бўлган ижобий муносабати, мустақил фикрлай оладиган талабанишаклланишига ёрдам бериш, нафақат мазмунни ўзлаштиришга, балки танқидий ва мантикий фикрлашни ҳам ривожлантириш ҳамда муаммоларни ечиш кўникмаларини шакллантириш.

Педагог-олимларнинг йиллар давомида таълим тизимида Нега ўқитамиз? Нимани ўқитамиз? Қандай ўқитамиз? каби саволларга жавоб излашлари билан бир қаторда “Қандай қилиб самарали ва натижали ўқитиш мумкин?” – деган саволга ҳам жавоб қидириб келдилар.

Бу эса, олим ва амалиётчиларни ўқув жараёнини технологиялаштиришга, яъни ўқув жараёнини кафолатланган натижа берадиган технологик жараёнга айлантиришга уриниб кўриш мумкин декан фикрга олиб келди.

Ўқув-тарбия жараёнида педагогик ва ахборот технологияларнинг тўғри жорий қилиниши ўқитувчининг бу жараёнда асосий ташкилотчи ёки маслаҳатчи сифатида фаолият юритишига олиб келади. Бу эса ўқувчидан кўпроқ мустақилликни, ижодни ва иродали бўлиш каби сифатларни талаб этади.

Интерфаол усулларни қўллаш натижасида ўтказилган дарс машғулотилари ёшларнинг муҳим ҳаётий ютуқ ва муаммоларига ўз муносабатларини билдиришларига, уларни фикрлашга, ўз нуқтаи назарларини асослашга имконият яратади.

Ҳозирги даврда содир бўлаётган инновацион жараёнларда таълим тизими олдидаги муаммоларни ҳал этиш учун янги ахборотни ўзлаштириш ва ўзлаштирган билимларни ўзлари томонидан баҳолашга қодир, зарур қарорлар қабул қилувчи, мустақил ва эркин фикрлайдиган шахслар керак.

Шунинг учун ҳам, таълим муассасаларининг ўқув-тарбиявий жараёнида замонавий ўқитиш услублари–интерфаол услублар, инновацион технологияларнинг ўрни ва аҳамияти бекиёсдир.

Инновацион технологиялар педагогик жараён ҳамда ўқитувчи ва ўқувчи фаолиятига янгилик, ўзгартишлар киритиш бўлиб, уни амалга оширишда асосан интерфаол услублардан фойдаланилади.

Интерфаол (“Интер” –бу ўзаро, “аст” - ҳаракат қилмоқ) –ўзаро ҳаракат қилмоқ ёки ким биландир суҳбат, мулоқот тартибида бўлишни англатади.

Бизнинг фикримизча педагогик технологиянинг энг асосий негизини – ўқитувчи ва ўқувчининг белгиланган мақсаддан кафолатланган натижага ҳамкорликда эришишлари учун танланган технология ёки усуларга боғлиқ. Ўқитиш жараёнида, мақсад бўйича кафолатланган натижага эришишда қўлланиладиган ҳар бир таълим технологияси ўқитувчи ва ўқувчи ўртасида ҳамкорлик фаолиятини ташкил эта олса, ҳар иккаласи ижобий натижага эриша олса, ўқув жараёнида ўқувчилар мустақил фикрлаб, ижодий ишлаб, изланиб, таҳлил этиб, ўзлари хулоса чиқара олсалар, ўзларига, гуруҳга, гуруҳ эса уларга баҳо бера олса, ўқитувчи эса уларнинг бундай фаолиятлари учун имконият ва шароит ярата олса, ана шу – ўқитиш жараёнининг асоси ҳисобланади.

Ҳар бир дарс, мавзу, ўқув предметининг ўзига хос технологияси бор. Ўқув жараёнидаги педагогик технология – бу аниқ кетма-кетликдаги яхлит жараён бўлиб, у йўналтирилган, олдиндан пухта лойиҳалаштирилган ва кафолатланган натижа беришга қаратилган педагогик жараёндир.

Педагогик мақсаднинг амалга ошиши ва кафолатланган натижага эришиш ўқитувчи ва ўқувчининг ҳамкорликдаги фаолияти, улар қўйган мақсад, танланган мазмун, услуб, шакл, яъни технологияга боғлиқ.

Ўқитувчи ва ўқувчининг мақсаддан натижага эришишида қандай технологияни танлашлари улар ихтиёрида, чунки ҳар иккала томоннинг асосий мақсади аниқ натижага эришишга қаратилган бўлиб, бунда ўқувчиларнинг савияси, гуруҳ характери, шароитига қараб ишлатиладиган технология танланади. Масалан, натижага эришиш учун балки компьютер билан ишлаш лозимдир, балки фильм (ёки тарқатма материал, чизма ва плакат, ахборот технологияси, турли адабиётлар) керак бўлиши мумкин. Буларнинг ҳаммаси ўқитувчи ва ўқувчиларга боғлиқ. Шу билан бирга ўқув жараёнини

олдиндан лойиҳалаштириш зарур. Бу жараёнда ўқитувчи ўқув предметининг ўзига хос томонини, жой ва шароитни, энг асосийси, ўқувчиларнинг имкониятини ҳам ҳисобга олиши керак. Шундагина керакли кафолатланган натижага эришиш мумкин.

Ҳозирда таълим жараёнида қўлланиб келинаётган интерфаол усулларни кўплаб келтириш мумкин. Жумладан, зинама-зина технологияси, чархпалак технологияси, бумеранг технологияси, 3x4 технологияси, лабиринт, ФСМУ (фикрингизни баён этинг, сабаб кўрсатинг, мисол келтиринг, умумлаштиринг) технологияси, бахслашув технологияси, мулоқот технологияси, тушунчалар таҳлили усули, блиц-сўров усули, суҳбат усули ва бошқалар. Уларни дарс машғулотларида қўллаш фан ва мавзулар мазмунига ва ўқитувчининг билими, тажрибаси ва педагогик маҳоратига боғлиқ.

Ўқитувчи томонидан ҳар бир дарсни яхлит ҳолда кўра билиш ва уни тасаввур этиш учун бўлажак дарс жараёнини лойиҳалаштириб олиш керак. Бунда ўқитувчи учун бўлажак дарснинг технологик харитасини тузиб олиши катта аҳамиятга эгадир, чунки дарснинг технологик харитаси ҳар бир мавзу, ҳар бир дарс учун, ўқитилаётган предмет, фаннинг хусусиятидан, ўқувчиларнинг имконияти ва эҳтиёжидан келиб чиққан ҳолда тузилади.

Маълумки, ҳар бир фан ўқитувчиси дарс мазмунини ўқувчилар тўлиқ ўзлаштирсин, ўз билим, малака ва кўнималарига эга бўлсин деган мақсад билан дарсни бошлайди. Бу эса ўқитувчининг дарсдаги фаоллиги, педагогик ва инновацион технологиялардан самарали фойдаланишни тақозо этади.

Олий таълим тизимида дарсларда интерфаол усуллардан фойдаланиб дарс машғулотларини олиб боришда ахборот технологиялари, жумладан компьютер ва унинг техник воситаларидан фойдаланишнинг ўзига хос афзалликлари мавжуд. Масалан, “Ҳозирги ўзбек адабий тили” фанининг энг катта бўлимларидан бири морфологиядир. Бошқа тил сатҳлари сингари морфологияни ўрганишда ҳам кўзланадиган асосий мақсад, талабаларнинг сўз хазинасини янги сўзлар билан тўлдириш, уларнинг нутқида кам қўлланиладиган сўзларни сери стеймол сўзларга айлантириш, улардан тўғри

ва ўринли фойдаланиш малакаларини шакллантириш, ҳар бир талабани мустақил фикрлаш, қиёслаш, анализ қилиш, топшириқларни мустақил бажариш ва сўроқларга аниқ жавоб топишга ҳозирлаш амалий машғулотларнинг асосий мақсадидир. Амалий машғулот учун тайёрланган материаллар замон талабларига тўла жавоб бериши ва талабалар томонидан морфологи я бўлимин чуқурроқ ўрганишга, назарий билимларга эга бўлиш ва уларни ривожлантиришга йўналтирилган бўлиши керак.

Масалан, “Отнинг функционал формалари” мавзусини ўтишда талабалар отнинг функционал формаларининг грамматик маъноси ва морфологик белгилари билан танишадилар. Отнинг функционал формаларига хос маъно ва синтактик хусусиятларни кенг ўрганиш назарий ва амалий жиҳатдан муҳимдир. Бу машғулот функционал формаларнинг грамматик – лексик ва функционал хусусиятларини тўлиқроқ билиб олишга ёрдам беради. Ушбу мавзу бўйича талабаларнинг билимини мустаҳкамлаш ёки баҳолашда интерфаол усуллардан “Зинама-зина” технологияси ёки “Бумеранг”технологиясини қўллашни кичик гуруҳларда амалга ошириш учун аввало 3 - 5 кишидан иборат кичик гуруҳларга ажратади ва ҳар бир кичик гуруҳ сардори ўқитувчи столидаги саволлар берилган қоғоздан бирини олишни тавсия этилади.

Масалан,

1-савол. Функционал форма нима? От, сифат, сон, феъл ва равишнинг функционал формалари ўртасидаги умумий ва хусусий белгилар нимадан иборат?

2-савол. Отга хос функционал формаларнинг қандай типлари бор? Улар қандай грамматик хусусиятлари билан бир-биридан фарқланади?

3. Функционал форма ясовчи аффикс ларнинг маъноси ва морфологик белгилари билан боғлиқ ҳодисаларни тасвирлашда қандай терминологик ҳар хилликлар бор?

Ўқитувчи ҳар бир кичик гуруҳга 5 дақиқа ичида ушбу топшириқни бажаришни талаб этади. Кичик гуруҳни ташкил этган талабалар бир – бири билан фикрлашган ҳолда берилган саволга мос сўзларни берилган қоғозга ёзадилар.

Белгиланган вақт тугагандан сўнг, ўқитувчи бирин – кетин кичик гуруҳлар жавобини айтиб беришни таклиф қилади ва уларнинг жавоблари асосида кичик гуруҳни баҳолайди. Ўз навбатида саволларга жавоб беришда баъзи бир камчиликлар бўлса шу гуруҳнинг ўзидан бошқа ўқувчи тўлдириши ёки кейинги гуруҳ ўқувчилари тўлдиришини таклиф қилиш ҳам мумкин. Уларнинг жавобларини ҳам ўқитувчи назардан четда қолдирмаслиги лозим.

Дарсни мустаҳкамлаш ёки ўтилган дарс бўйича ўқувчилар билимини баҳолашда юқорида санаб ўтилган интерфаол усулларнинг қайси биридан фойдаланиш дарсининг мазмуни ва ўқитувчининг маҳоратига, тажрибасига, билимига боғлиқ.

Шунингдек, ишланмани ахборот технологиялари имкониятларидан фойдаланиб ҳам талаба(ўқувчи)ларга етказиш ва ўз-ўзини баҳолашга ўргатиш мумкин. Талабалар билимини тезкор аниқлашнинг бу каби бир қанча усуллари бор бўлиб, уларни ўз ўрнида ишлатиш ўқитувчининг тажрибаси, маҳорати ва билим даражасига боғлиқ.

Хулоса қилиб айтганимизда, дарс жараёнида педагогик технологиялар ва инновацион усуллардан фойдаланиш натижасида:

- ўқувчиларнинг билим олишга интилиши ошади;
- мустақил фикрлаш қобилияти ривожлана боради;
- эркин фикрлашга ўрганади;
- дарсга бўлган қизиқиши ошади;
- бошқалар фикрини эшитишга ва ҳурмат қилишга ўрганади;
- ўз фикрини мустақил айта олишга ўрганади;
- кўпроқ ўз устида ишлашга ўргатади;
- компьютер билан ишлаш малакаси ошади;

компьютер ва унинг қурилмалари вазифаси ҳақидаги билимга эга бўлади ва ҳ

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Ишмухамедов Р., Абдуқодиров А., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар. –Т.: Истеъдод, 2008. -180 б.

O‘ZBEK TILINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALADAN FOYDALANISH – DAVR TALABI

Jo‘rayev No‘mon, Guliston davlat universiteti

O‘zbek tili yo‘nalishi 3-bosqich talabasi.

Ilmiy rahbar: Z. To‘ychiyeva.

Annotatsiya: maqolada o‘zbek tilini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish usullari va interfaol o‘yinlarning samarasi ko‘rib chiqiladi. Maqolada “Pedagogik texnologiya” haqida fikr yuritilgan bo‘lib, ular bugungi dunyoning talab va imkoniyatlariga javob beradigan, yoshlarning tez o‘zgarib borayotgan, beqaror muhitga moslashishiga imkon beradigan, yuqori darajadagi ta’limni ta’minlashga imkon berishi haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so‘zlar: yangi axborot texnologiyalari, pedagogik texnologiya, mustaqil ish, interfaol o‘yinlar.

Til millatning ulkan boyligi va bebaho mulkidir. Mustaqillikni, istiqlolni va nihoyat davlatni takomillashtirish, xalqlarning milliy va baynalminal o‘zligini anglashning o‘sishi milliy tillarni har tomonlama rivojlantirishni taqozo etadi. Har bir xalqning o‘z ona tili bo‘lganidek, o‘zbek xalqining ham o‘z tili – o‘zbek tili bor. O‘zbek tili o‘zbek millatining davlat tilidir. O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi natijasida Respublikamizda istiqomat qilayotgan boshqa til vakillariga bu tilni o‘qitish, o‘rgatish muammolarini jadal sur’atda hal etish zarurati tug‘iladi. Bunda asosiy muammo o‘zbek tilini o‘rgatish jarayonini tezlatishdan iboratdir. Buning uchun esa o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitish tamoyillari, mazmuni va metodikasini tubdan o‘zgartirish lozim.

Bugungi kunda tilga e’tibor mustaqil O‘zbekiston davlati madaniy siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan birini tashkil etmoqda. Bu siyosatning asosiy maqsadi, o‘zbek adabiy tilining ijtimoiy huquqlari va mavqeyini to‘la tiklash,

adabiy tilni yanada rivojlantirish, uning til normalarini yanada boyitish, tilning xalq madaniyati va ma'naviyatining ulkan xazinasini bo'lmish lug'aviy boyliklarini avaylab asrash, tildagi qadimiy xalqona an'analar, milliy ruhni qayta tiklash, boyitish uni himoya qilish kabilarni tashkil qiladi.

So'nggi yillarda pedagogika ta'limida katta o'zgarishlar ro'y bermoqda, bunday o'zgarishlar ta'lim jarayonining deyarli barcha jabhalarini qamrab oldi. O'zbek tilini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalasi tobora ko'payib, dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Pedagogik texnologiya - bu pedagogik faoliyat jarayonlarining xususiyatlarini, ularning o'zaro ta'sirini aks ettiruvchi, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishni ta'minlaydigan usullar majmuasi hisoblanadi. O'qitishning yangi usullari va shakllari paydo bo'lib, ular o'z navbatida nafaqat o'quv jarayonini amalga oshiriladigan ma'lumot almashish va uzatish vositalarining turli xil texnologiyalarini, balki kommunikativ bilimlarni rivojlantirishga qaratilgan o'qitish usullarining katta tizimini ham ifodalaydi. O'zbek tilining asosiy vazifasi ta'lim tili rus tilida olib boriladigan talabalarning nutq ko'nikmalarini takomillashtirish, o'zbek tilini o'zlashtirishga o'rgatish, asosiy bilimlarni shakllantirish, ya'ni o'zbek tilida o'z fikrlarini bemalol bayon etish, olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish malakasini shakllantirishdir. Yangi pedagogik texnologiyalar talaba yoshlarda o'zbek tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga xizmat qiladi. Ish tajribasi shuni ko'rsatadiki, turli xil, zamonaviy, yangi manba va vositalardan foydalanish o'quvchilarda qiziqish uyg'otadi, ularning bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi.

Ta'lim tili rus tilida olib boriladigan guruhlarda o'zbek tilini o'rgatish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish nafaqat o'tilgan mavzularni takrorlash, balki o'tilgan mavzuni yangi mavzu bilan bog'lash imkonini beradi, an'anaviy o'qitish usullarini to'ldirishga, fikrni ifoda etish imkoniyatini amalga oshirishda o'zbek tilidagi asosiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Muloqot masalalarini mustaqil hal etishga, talabalarning bilim olishga intilishini, qiziqishini oshiradi, ularni o'rganilayotgan fanlarga yangicha qarashga undaydi, shu orqali ularning ijodiy va intellektual

imkoniyatlarini, iste'dodini ochib beradi. Bu jarayonni olib borishda ZPT (zamonaviy pedagogik texnologiya)ning ahamiyati juda katta. O'zbek tilini o'qitishda, o'tiladigan darsning samaradorligini oshirishda turli dars usullaridan foydalanish mumkin. O'qituvchining pedagogik mahorati ham aynan an'anaviy o'qitish usullarini takomillashtirishda, ularga yangicha yondashishda, hamda noan'anaviy usullardan foydalanishda namoyon bo'ladi.

Bu esa o'z navbatida o'quvchining darsga bo'lgan qiziqishini orttiradi, mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Jumladan, rusiyzabon talabalarga davlat tili – o'zbek tilini o'qitish darslarida ularni ko'proq og'zaki so'zlashga o'rgatish lozim. Buning uchun turli mavzularda suhbatlar uyushtirish, she'rlar yodlatish, matnlar tuzishni o'rgatish, badiiy asarlardan parchalar yodlatish, xalq og'zaki ijodi namunalarini o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Talabalarni erkin mavzularda matn tuzib, og'zaki so'zlab berishga o'rgatish ham ularning nutqini o'stirishga yordam beradi. Natijada, mustaqil fikrlagan talabada ko'nikmalar ham hosil bo'ladi.

O'qituvchi o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish uchun barcha mashg'ulotlarda ularning lug'at boyliklarini aniq maqsadga yo'naltirilgan reja asosida so'zlarni nutqda faol qo'llashga o'rgatish orqali mustahkamlab borish kerak. O'quvchilar etarli so'z boyligiga ega bo'lmasdan turib aniq va ravon fikr yurita olmaydilar. O'rgatilgan har bir yangi so'z o'quvchilarning so'z zaxirasini oshiradi, fikr ifodalash imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuning uchun ham o'quvchilar bilan so'z va uning ma'nolarini egallash ustida uzluksiz ish olib borish lozim.

O'quvchilar nutqini o'stirish uchun o'qituvchilarning talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilish va bog'lanishli nutqni aktiv egallashlarida yordam beridigan metod va usullardan foydalanish kerak bo'ladi. Bundan tashqari til o'rgatuvchi o'qituvchining nutqi aniq, barcha uchun tushunarli va ravon bo'lishi lozim. Kutilgan natija samarali bo'lishi uchun guruhdagi o'quvchilarning soniga ham e'tiborni qaratish kerak. Har bir guruhdagi o'quvchilarning soni 10-15 tadan oshmasligi kerak. Chunki, o'tiladigan mashg'ulot davomida o'qituvchi guruhdagi har bir o'quvchi bilan muloqot qilishga ulgurishi kerak. Mashg'ulot davomida

o'quvchilarning tovush va tovush birikmalarini to'g'ri talaffuz qilishga, ular o'rtasidagi farqni bilishga o'rgatishi zarur.

Dars davomida talabalarning qiziqishini orttirish maqsadida turli interfaol o'yinlardan ham foydalanish yaxshi samara beradi. Bundan tashqari muammoli ta'lim usuli ham talabanning bilimini oshirishda yaxshi samara beradi. Talaba o'zbek tili materiallarini tayyor holda o'zlashtirmay, uni izlasa, faol ijodiy faoliyat ko'rsatsa, o'zlashtirish jarayoni ancha samarali bo'ladi. Muammoli ta'lim ana shunday izlanish va ijodiy faoliyat ko'rsatish uchun yaxshi imkoniyat yaratadi. Muammoli ta'lim talabalarning qobiliyatlarini oshirishga ham katta yordam beradi. Bu metod shaxs va uning faolligini har tomonlama rivojlantirish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, davlat tiliga bo'lgan ehtiyoj kun sayin ortib bormoqda. Shunday ekan, davlat tili – o'zbek tilini oliy o'quv yurtlarida o'qitishga jiddiy e'tibor berish lozim. Bu esa kundalik hayotimiz uchun ham har jihatdan zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.B.To'xliyev,M.Shamsiyeva,T.Ziyodova O'zbek tili o'qitish metodikasi. Toshkent-2006
- 2.Shayxislamov,N. (2020).Ona tili fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish. O'zbekistonda ilm-fan va ta'lim masalalari: muammo va yechimlar, (3), 71-73.
3. Muxamedova S.X.va boshqalar. O'zbek tili va adabiyoti ta'limida zamonaviy axborot texnologiyalari. "Tafakkur-bo'stoni" nashriyoti Toshkent-2018

SPORT TERMINLARINING YASALISHI VA O'QITISH METODLARI

Akbarova Ozoda Avazovna,O'zDJTSU

SGM 52-20 -guruh talabasi

Ilmiy rahbar: dotsent Iqbol Boltayeva

Annotatsiya: Maqolada sport terminlarining yasalishi va o‘qitishda interfaol usullardan foydalanishning dars samaradorligini oshirishdagi o‘rni masalalari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Termin, kasb, tushuncha, yasalish, affiksatsiya, sintaktik, “Sinkvein”, “Qiyosiy tahlil”.

Аннотация: В статье рассматривается роль освоения спортивных терминов и использования интерактивных методов в обучении для повышения эффективности урока.

Ключевые слова: Терминология, профессия, концепт, конструкция, аффиксация, синтаксический, “Sinkvein”, “Сравнительный анализ”.

Jamiyat hayotida alohida olingan bir inson shaxsining roli keskin ko‘tarilgan hozirgi sharoitda o‘quvchilarning ezgu ma‘naviy sifatlar bilan ziynatlanishi hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi tabiiy hisoblanadi. Ma‘lumki, ta‘lim bosqichlarining barcha bo‘g‘inlarida yosh avlodning ezgu ma‘naviy sifatlarini shakllantirishda o‘zbek tili katta imkoniyatga ega fandır.

Mavzuni yoritishda O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ma‘naviy merosimiz, ona tilimiz, ilm-fan taraqqiyotiga oid fikrlari hamda bugungi kun ta‘lim siyosatida o‘qitishga bo‘lgan sifatiy belgilarning darajalanishi, “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” maqsad va vazifalaridagi masalalarga diqqat qaratildi. Ushbu vazifalar keyingi vaqtda Respublikamizda qabul qilingan bir qator qonun, Vazirlar mahkamasining qarorlari va boshqa normativ hujjatlarda o‘z rivojini topdi. Bundan tashqari, zamonaviy pedagogik texnologiyalarga oid darslik, qo‘llanmalar, jumladan, Q.Husanboyeva, R.Niyozmetovalarning “Adabiyot o‘qitish metodikasi”, Q.Yo‘ldoshevning “Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari” o‘quv qo‘llanmalari, O‘.X.Muhamedov, M.N.Usmonboyeva, S.S.Rustamovlarning “Ta‘limni tashkil etishda zamonaviy interfaol metodlar”, R.Ishmuhamedov, M.Yuldashovlarning “Ta‘lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar” nomli o‘quv qo‘llanmalari, o‘quv-uslubiy majmualaridagi fikrlarga tayandik

Darsda talabalarga “**Sport sohasiga oid atamalarning o‘ziga xosligi**” mavzusi olib borildi. Jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid atamalarni o‘qib o‘rganish va tahlil qilish jarayonida shunday ko‘nikma va malakalarni tarkib toptirish, yanada takomillashtirish ko‘zda tutildi.

Atamalar-kasbiy ma'no bildiruvchi, kasbiy tushunchani ifodalovchi va shakllantiruvchi ayrim obyektlar va ular o‘rtasidagi aloqalarni muayyan kasblar nuqtayi nazaridan bilish hamda o‘zlashtirish jarayonida ishlatiladigan so‘z yoki birikmadir. Har bir sohaning, tarmoqning termini borki, u o‘sha soha, tarmoq doirasida qo‘llanadi,soha egasining nutqini shakllantiradi, o‘zaro nutqiy muomala uchun shart- sharoit yaratadi.Bu o‘rinda shuni qayd etish lozimki, muayyan kasb-hunar yoki mutaxassislikka ega bo‘lgan kishilar ko‘pincha u yoki bu sohaning o‘ziga xos spetsifik terminlari bilan ish ko‘radi.

Shu jumladan,jismoniy tarbiya va sport sohasi mutaxassislarining,yozma yoki ogzaki nutqida ***burchak zarbasi,darvoza to‘sini,penalti,trener,match, langarcho‘p, qo‘shpoya*** kabi tor doiradagina qo‘llaniladigan terminlarning ishlatilishi tabiiy holdir.Bu xildagi terminlar sportdan uzoqroq biror kasb egasi nutqida ishlatilmaydi.

Ma’lumki, tilda mavjud bo‘lgan so‘z (yoki so‘zlar, so‘z shakllari) negizida ma’lum usullar bilan yangi ma’nodagi so‘zlarni hosil qilish **so‘z yasalishi** deyiladi. O‘zbek tilida ***so‘z yasalishining affiksatsiya (ya’ni so‘z asosiga qo‘shimchalar qo‘shish yordamida yangi so‘z hosil qilish) va kompozitsiya (sintaktik usul bo‘lib, ikki yoki undan ortiq asosning qo‘shilib bitta ma’no anglatishi)***usullari yetakchi usullar hisoblanadi.

Sport terminlarining ko‘pchiligi **affiksatsiya (morfologik)** usulida yasaladi. So‘zga yasovchi qo‘shimcha qo‘shish orqali yangi so‘z yasalgan jismoniy tarbiya va sportga xos ko‘plab so‘zlarni uchratish mumkin. Masalan, sportchi,*havaskor, tennischi, hujumchi, figurali (uchish),estafetali(yugurish),egiluvchanlik, (bosh hakam) yordamchisi,bahslashmoq,sharhlovchi,shaybali (xokkey),halqacha, maydoncha,hujumchi,himoyachi,markaziy,merganlik,ko‘ngilli,qilichbozlik,kamon chi,takomillashuv,tayyorgarlik,jarohatlangan,ijodkorlik,iqtidorli,jamoatchi* kabi sohaga oid so‘zlar yasovchi qo‘shimchalar asosida yasalgan.So‘z yasovchi

qo‘shimchalar o‘zbek tilida asosan suffiks tarzida qo‘llanib,so‘z o‘zagidan so‘ng qo‘shilib keladi.**Sport atamalarining ko‘pchiligi** shu usulda yasaladi.

Sohaga oid shunday terminlar ham borki, ular kompozitsion (sintaktik), ya’ni so‘zlarni bir biriga qo‘shish usuli bilan yasalgan. Masalan: **avtopoyga, aviamodel, avtosport,Butunjahon,qo‘lqop,mauntinbayk,ko‘pkurash,yakkakurash, qo‘shpoya,gandbol,futbol,voleybol** kabi so‘zlarning ayrimlari boshqa tillardan kirib kelgan bo‘lsada, bugungi kunda tilimizda faol qo‘llanilib kelmoqda.

Sintaktik usul bilan termin yasashda birikmali terminlar hosil qilinadi: *ot+ot= suvosti, yunon-rum(kurashi),short-trek,velopoyga, qo‘lqop, txeqvondo, shoubord, chorakfinal; sifat+ot=qattiqqo‘l (murabbiy),erkin kurash ; ot+sifat = konussimon (to‘p) ; son+ot= uchkurash, beshkurash.*

Semantik usul bilan termin yasashda ma’no ko‘chishining metofora usuli asosiy rol o‘ynaydi: *figurali uchish, sinxron suzish, yengil atletika, og‘ir atletika, stol tennis, trampkindan sakrash,tag‘ chang‘isi, eshkak eshish, suv polosi,yelkanli sport, suzish marafoni,badiiy gimnastika.*

Yuqoridagi nazariy tushunchalarni quyida berilgan texnologiya asosida sohaga oid so‘z tanlab olish va shu tartibda o‘quvchilarga bajartirish mumkin:

Amaliy mashg‘ulotda **“Sinkvein”** usulidan foydalaniladi.

“Sinkvein” so‘zi—ransuz tilidan olingan bo‘lib, **“besh”** degan ma’noni bildiradi. **“Sinkvein”** metodini fikrni she’riy tarzda ifodalash deb ham yuritiladi, ya’ni besh qatordan iborat bo‘lgan fikr yig‘indisi.

- 1.Pedtexnologiya shartiga ko‘ra matndan ot so‘z turkumiga oid so‘z tanlab olinadi.
- 2.Shu so‘zni sifatlovchi ta’riflar beriladi
- 3.So‘z birikmasi hosil qilinadi.
- 4.Hosil bo‘lgan so‘z birikmasi asosida gap tuziladi.
- 5.Sodda gapdan qo‘shma gap hosil qilinadi.Masalan :

1.Sport

2.**Sport**(fr. desporter — „o‘ynamoq“, „maza qilmoq“) qatnashuvchilarning jismoniy yoki aqliy qobiliyatlarini solishtirishga va zavqlanishga mo‘ljallangan, tayinli qoidalarga ega faoliyat turidir.

3.Zamonaviy sport

4.O‘zbekistonda zamonaviy sport turlariga katta e‘tibor berilmoqda.


5.O‘zbekistonda zamonaviy sport turlariga katta e‘tibor berilmoqda va ular jadallik bilan insonlar hayotining bir qismiga aylanib bormoqda.

“**Qiyosiy tahlil**”metodidan foydalanib, sportga xos tushunchalarni qiyosiy tahlil asosida o‘rgatish mumkin.Texnologiyaning maqsadi:Talabalar leksik mavzu asosida tayyorlangan qiyosiy tahlil jadvalini to‘ldirish jarayonida mavzuni oson va yanada chuqurroq o‘zlashtirishga erishadilar.

O‘tkazish tartibi:Namuna: **Sport musobaqalarining o‘tkazilishi**

Ijobiy jihatlar:	Salbiy jihatlar:
Davlatni jahon miqyosida tanitadi. Sportchilarning reytinggi oshadi. Muxlislar qiziqishini kuchaytiradi. Sportchining o‘z imkoniyat darajasini baholaydi Sportchining amaliy ko‘nikmalarini oshiradi Sportchining o‘ziga ishonchi ortadi. Sportchining o‘z ustida muntazam ishlashga da’vat qiladi. Sherigining yelkasini his qilishga o‘rgatadi. Omma o‘rtasida o‘z hissiyotlarini jilovlashga va diqqatini jamlashga turtki beradi. Hakamlarga nisbatan hurmat bilan yondashishga va ko‘rsatmalariga rioya etishga undaydi. Faqat g‘alaba emas, munosib yutqazishdan ham saboq beradi...	Sportchining musobaqada ishtiroki qo‘shimcha moliyaviy chiqimlarni talab etishi. Musobaqaga qadar tinimsiz kundalik mashg‘ulotlar ushun ko‘proq vaqt ajratish. Musobaqa jarayonida keskin harakatlar oqibatida jarohat olish. Agar mag‘lubiyatga uchrasa, sport musobaqalaridan ma’lum vaqtgacha chetlatilishi

Berilgan shakllardan moslarini tanlab jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid terminlarni hosil qiling. Morfologik, sintaktik so‘z yasalishining farqli jihatlariga e‘tibor bering.




Soʻzlarni oʻqing. Morfologik, sintaktik usullarda hosil qilingan soʻzlarni ajratib alohida ustunlarga yozib chiqing.

Tennischi, kurash, yakkakurash, basketbol, gandbolchi, shaxmatchi, langarchoʻp, qoʻshpoya, yakkachoʻp, sportchi, kamonchi, chorakfinal, himoyachi, natijaviy, avtogol, rapira, sayohatchi, skeybord, sovuqqonlik, sportcha, suyanch, tajribali, talabchan, turnik, velopoyga, yarimfinal, yelkanli.


Gaplarni koʻchiring. Sportga oid soʻzlarni ajratib, maʼnosini izohlang. Yasama va tub terminlarni quyidagi shakllarga joylashtiring

1) Kurash bizning milliy boyligimiz. 2) Tennischilarimiz doimiy ravishda Devis Kubogi musobaqalarida ishtirok etib kelishmoqda. 3) Bokchilarimiz butun olamga Oʻzbekiston shuhratini yoymoqda. 4) Oʻzbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti juda koʻplab sportchilarni yetishtirib bergan dargoh sanaladi. 5) Mahmud Murodov aralash jang turnirlarida muvaffaqiyatli ishtirok etmoqda. 6) Bokschilarimiz yirik promouterlik kompaniyalari bilan kelishuvga erishgan. 7) Kross va xuk zarbalari raqibni dovdiratib qoʻydi. 8) Estafeta fargʻonalik yoshlarga topshirildi. 9) Pandemiya juda koʻplab sport turnirlarining qoldirilishiga sabab boʻldi. 10) Himoyachining birgina xatosi oʻyin natijasini oʻzgartirib yubordi.

Tub terminlar



Yasama terminlar



Xulosa qilib aytganda, darsda qoʻllangan bu usullar talabalarning erkin fikrlashiga, soʻzni –uning mohiyati va taʼsir kuchini his qilishlariga zamin hozirlab, ularda soha atamalari bilan ishlash jarayonida koʻz xotirasi orqali orfografik meʼyor ham shakllana boradi.

Talabalarning soʻz boyligini oshirishda davlat tilidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishda interfaol metodlar taʼlim jarayonida qatnashayotgan har bitta oʻquvchining faolligiga asoslanadi. Bu metodlardan foydalanganda bilim olish oʻquvchi uchun qiziqarli hayotiy faoliyatga aylanadi. Interfaol usullar qoʻllanilganda oʻquvchilar oʻqitilmaydi, balki ularning oʻzlari oʻqituvchi bilan birgalikda muayyan yoʻnalish va miqdordagi bilimlarni mustaqil oʻzlashtirishadi. Bu shaklda uyushtirilgan taʼlim jarayoni qatnashchilari oʻzaro bemalol tortishadilar, oʻquv materialini buyurilganiday emas, balki oʻzlari xohlaganiday erkin oʻzlashtiradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Oʻzbek tilining imlo lugʻati. “Oʻqituvchi”, Toshkent, 2005.
- 2.Yoʻldoshev Q. Yangilangan pedagogik tafakkur va umumtaʼlim maktablarida adabiyot oʻqitishning ilmiy-metodik asoslari: ped. fanl. dok. diss. avtoref.-T.: 1997.
- 3.Mahmudov N.,Rafiyev A.,Yoldoshev I.Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. (Darslik) - Choʻlpon , Toshkent, 2013.

- 4.Husanboyeva Q. Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni mutaqil fikrlashga o'rgatishning ilmiy-metodik asoslari. Ped. fan. dokt. ...diss. – T., 2007.- 258 b.
- 5.Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. Ikkinchi nashr – T.: “Innovatsiya-ziyo”,2020.-352 b.
- 6.Boltayeva. I. Jismoniy tarbiya va sport atamalarining izohli lug'ati (o'quv qo'llanma). “LESSON PRESS”,Toshkent, 2020 yil.
7. Boltayeva I. , Ayxodjayeva M. O'zbek tili (o'quv qo'llanma). Toshkent, “LESSON PRESS”, 2020 yil .
- 8.Boltayeva I. O'zbek tili darslarida yordamchi so'zlarning o'qitilishi (uslubiy qo'llanma) “O'zkitobsavdonashriyoti”, Chirchiq, 2021.

\

MUNDARIJA

Boltabayev Mahmudjon Rustamovich. Til, ma'naviyat va yoshlar.....	3
Jamoliddinova Odina Rasulovna. Bo'lajak mutaxassislarni davlat tilida ish yuritishga tayyorlash dolzarb masala	4

I SHO'BA. O'ZBEK TILINING SOHADA QO'LLANISHI: AMALIYOT, METODOLOGIYA VA YANGICHA YONDASHUV.

G'afforov Nodir Nasriyevich. O'zbek tilining sohada qo'llanishi: sport terminlarini shakllantirishdagi yutuq va muammolar.....	7
Ayxodjayeva Muborak Saidkarimovna. Sport o'yinlarida (voleybol va basketbol) o'zbek tilining qo'llanilishi.....	15
Xudoynazarova Shahzoda Tursunovna. Xoreografiya san'atida o'zbek tilidan foydalanishning ilmiy asoslari.....	18
Tavaldieva Gulbaxar Nishanovna. "O'zbek tilini sohada qo'llanilishi" fanini o'qitishda soha matnlari ustida ishlash metodologiyasi.....	25
Isaqova Munisa Qahramonjon qizi. Yuridik terminologiya xususida.....	31
Musayev Isomiddin Saidovich. "Devoni lug'otit turk" asarining o'zbek tilini sohaga yo'naltirib o'qitish tamaddunida tutgan o'rni.....	35
Beshimova Mohichehra. Huquqning rivojida tilning ahamiyati.....	40

II SHO'BA. JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASIGA OID TERMIN VA ATAMALARNING QO'LLANILISHI.

Rafiyev Hamroqul. Jismoniy madaniyat (jismoniy tarbiya va sport) sohasi tushuncha va atamalarining o'ziga xos ba'zi xususiyatlari	46
Ayxodjayeva Muborak Saidkarimovna, Shermuhamedova Zarina. O'zbek jang san'atida qo'llanadigan atamalar xususida.....	50
Sayfullayeva Zura Sayfiddin qizi, Ravshanxo'ja Rasulov, Mo'ydinov Q.A. O'zbek tilida sport parafrazalarining ifodalanishi.....	54
Meliqulov Davronjon To'ychiyevich, Boltayeva I. Mini-futbol sport turiga xos atamalarining o'ziga xosligi haqida.....	60
Ismoilova Mamlakat Qurbonov, Nuftillayev Bekzod Ubaydillo o'g'li. Terminology for understanding of physical education and sport.....	64
Eshanqulov B.A. Sport tovar va xizmatlari bozorida marketing - miks tushunchasini qo'llash.....	69
Raximova Maloxat Alloberganovna. Sport terminologiyasining ayrim masalalari xususida.....	71
Boltayeva Iqbol Tojiboyevna. Basketbol o'yiniga doir ayrim sport atamalarining qo'llanishi xususida.....	76
Tursunova Nasiba Yuldoshevna, O'zbek tili turistik terminlarining leksik-semantik xususiyatlari va leksikografik tahlili.....	79

III SHO‘BA. TIL VA YOZUV MASALALARI: MUAMMO VA YECHIMLAR.

Adilova Saodat Abdurakhimovna. Teaching uzbek in multilingual environment.....	88
Xolmurodova Mexrninisa Ibraximovna. Kinoqissalarda sotsiopragmatik tavsif.....	91
Saydaliyeva Muxlisaxon Baxtiyor qizi. Ism motivlarida presedentlik hodisasi.	100
Ugiloy Nomozova. The role of deictic units in text creation.....	105
Hoshimjon Quchqorov. Badiiy tarjima va til.....	111
Ayxodjayeva M.S., Muxiddinova F.A. O‘zbek tilida fe‘l zamonlarining almashinib qo‘llanishi.....	116
Mo‘minova Sh.T., Shofqorov A.M. O‘zbek xalq shevalari adabiy tilning boyish manbasi sifatida.....	119
Izrailbekova M.R. Jismoniy tarbiya o‘qituvchisining nutq odobi.....	122
Mustafayeva S.S. Ingliz tilini o‘rganishdagi muammo va kamchiliklar.....	125
Muxtarova Shaxnoza Mashrabovna. Badiiy matnlar orqali talabalar ma‘naviy dunyoqarashini o‘stirish.....	128
Dildora Ho‘jamberdiyeva, Mo‘ydinov Q. O‘zbek ayollari nutqida qarg‘ish so‘zlarning qo‘llanishi.....	133
To‘rabekova Malika Hakim qizi, Muydinova Arofat Urinovna. O‘zbek tilida o‘xshatishlar.....	137

IV SHO‘BA. SOHADA DAVLAT TILIDA ISH YURITISH MASALALARI.

Ko‘chimov Shuhrat. Davlat tilida normativ-huquqiy hujjat loyihalarining lingvistik ekspertizasi.....	141
Ikramov R.A., Mo‘ydinov Q.A. Davlat tili takomilida til va huquq integrasiyasi.....	147
Saidov O‘lmas Raxmatovich. Rasmiy ish yuritish hujjatlarida lingvistik modellardan foydalanish.....	155
Rasulova Gulbaxor Kerimbaevna. Shifokorning kasbiy tili mutaxassislik tili sifatida.....	161
Raximova Maloxat Alloberganovna. Jismoniy tarbiya va sport sohasida yuritiladigan hujjatlarning ish yuritish tili haqida.....	166
Musayev Isomiddin Saidovich., Sultonova Zarifa O‘ktamovna., Bo‘riyev Abduhamid. Jismoniy tarbiya va sport atamalarini qo‘llashda davlat tilining o‘rni.....	170

V SHO‘BA. KASBGA DOIR SOHAVIY MADANIYAT, TA‘LIM- TARBIYA, URF-ODAT VA AN‘ANALAR TALQINI.

Ayxodjayeva M.S. Jismoniy tarbiya va sport universiteti talabalarining nutqiy-muloqot kompetentligini rivojlantirish.....	179
Yormatov Isomiddin. Ohangaron vodiysi chorvador o‘zbeklarining xo‘jalik yuritishdagi ayrim an‘anaviy udumlari.....	185
Niyozmetova Roza Xasanovna. Milliy o‘ziga xoslikni anglash masalasi.....	190
Yormatov Isomiddin. Qoraxoniylar davrida islomiy va ungacha bo‘lgan diniy e‘tiqodlar tutashuvi.....	194
Sariyev San‘at Matchonboyevich, Egamov Rustam Aminovich. Creativity of Uzbek folk bards and manuscripts-lithographies copies of the epos “Gorogly”.....	202
Rahimjonov Lazizbek, Boltayeva I. Televideniya orqali sport masalalarining yoritilishi.....	211
Axmedov Qo‘ldosh, Axmedov Ergash. Barkamol avlodni axloqiy tarbiyalashda So‘fi Ollohyorning “Sabot ul-ojizin” asarining o‘rni.....	215
Shermatova Umida Sapayevna. Tabaqalashtirilgan adabiy ta‘lim: sharhlab o‘qish va mohiyatni anglash muammosi.....	222
Rayxonova Muxayyo Muxammadiyevna. She‘riyat va badiiy nafosat talqini...228	
Shofqorov A.M., Omonova S. “Dunyoning ishlari” qissasida dialektizmlarning qo‘llanilishi.....	232
Eshboyeva Hamidaxon Husanovna, Karamova Shohida. Davr voqeligining badiiy tasviri.....	235
Usarov Faxriddin, Umaraliyev Asliddin. Yoshlar ma‘naviy dunyoqarashining shakllanishida - Abu Nasr Farobiy merosining o‘rni.....	241
Boltayeva Iqbol Tojiboyevna. “Alpomish” eposi o‘zbek va boshqird versiyalarini qiyosiy va tipologik jihatdan o‘rganishning ayrim masalalari.....	244
Давлатова Адиба Рахматовна, Ёрбулова Дилдора. Роль индивидуального творческого мышления в обновлении поэтической формы.....	247
Мусаева Феруза. Дialeктал номинацияда мифологизмнинг ўрни.....	253
Ismoilov Jahongir Jaloliddinovich. Sport va ko‘ngilochar tadbirlarning ijtimoiy ahamiyati.....	259
Марғуба Қаршибоева. Бердиёр Пиримкулов – Пискент достончилиги мактабининг вакили.....	263
Марғуба Қаршибоева. Берди бахши замондошлари хотирасида.....	267
Тўрабекова Малика Ҳаким қизи, Таджибаев Мусажан Сабирович. Мактабда герменевтик мезонлар билан лингвопоэтика санъатини ўрганиш.....	272
Хасанова Лайло Фирдавсиевна. Навоий лирикасида аждар образи: мухтасар талқин.....	281
Шоҳида Карамова,Зарина Норбоева. Миллий колоритнинг бадий ифодаси (Холмуҳаммад Ҳасан ижоди мисолида).....	284
Go‘zal Jo‘rayeva. Firoqiy g‘azallarining til xususiyatlari.....	290

Rasulova.Gulbaxor Kerimbaevna Ayris Myordokn asarlarining talaba-yoshlar ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishdagi o'rni.....	294
Нилуфар Чўлиева. Назар Эшонқулнинг “Уруш одамлари” қиссасида образлар талқини.....	302
Xodjiyeva M.M. Abdulla Qodiriy shaxsiyati va ijodini o'rganish bo'yicha mulohazalar.....	306
Нурулло Насриев,G'afforov N. Ахборий жамият шаклланишида ўзбекистон миллий ахборот агентлигининг ўрни.....	310
Raximova Nuquljon Yusupovna. Ma'naviyatni yuksaltiruvchi manba.....	316
Yusupov Samandar Shokirjon o'g'li, Ahmedov H. Badiiy asarlarda Alisher Navoiy obrazi talqini (XX-XXI asrlarda yaratilgan asarlar misolida).....	322

VI SHO'BA. TA'LIM JARAYONIGA ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING JORIY ETILISHI.

Safo Matchonov. Badiiy matnning o'quv tahlili orqali o'quvchilarning adabiy-estetik tafakkurini shakllantirish.....	327
Axmedova Maloxat Ergashevna. Talabalarning nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishda interfaol topshiriqlardan foydalanish metodikasi.....	334
Абдуназар Раҳмонқулов, Эгамшуккур Эшмуродов. Инновацион таълимда дидактик ўйинларнинг ўрни	345
To'liboyev Xursandbek Bazarbayevich. Kimyo-texnologiya sohasi talabalariga o'zbek tilini o'qitishda interfaol metodlar.....	350
Quchqorov Hoshimjon, Yusupova Munira. O'quv jarayonini tashkil etishda interfaol ta'lim metodlaridan samarali foydalanish yo'llari.....	354
Тўйчиева Зулайҳо Хамроқуловна. Морфологик сатҳни ўрганишда педагогик ва инновацион технологиялардан фойдаланиш.....	357
To'ychiyeva Zulayho, Jo'rayev No'mon. O'zbek tilini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish – davr talabi.....	364
Akbarova Ozoda Avazovna, Boltayeva Iqbol Tojiboyevna. Sport terminlarining yasalishi va o'qitish metodlari.....	367

**“O‘ZBEK
TILINI SOHAGA
YO‘NALTIRIB O‘QITISHNING
ILMIY-METODIK
ASOSLARI”**

**mavzusidagi respublika ilmiy-nazari
anjuman
materiallari**

2022-yil 4-iyun

Bosishga ruxsat etildi. 17.05.2022 y.
Qog‘oz bichimi 60x84 1/16. Times New Roman
garniturasida terildi.
Ofset uslubida oq qog‘ozda chop etildi.
Nashriyot hisob tabog‘i 23,8 Adadi 100. Buyurtma № 13-05
Bahosi kelishuv asosida

**TOSHKENT
“O‘ZKITOBSAVDONASHRIYOTI” NMIU
2022**